



ISSN 2181-1709 (P)
ISSN 2181-1717 (E)

2025/№2

**ТА'ЛИМ ВА
INNOVATION
TADQIQOTLAR**

**ОБРАЗОВАНИЕ И
ИННОВАЦИОННЫЕ
ИССЛЕДОВАНИЯ**

**EDUCATION AND
INNOVATIVE
RESEARCH**

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR
ОБРАЗОВАНИЕ И ИННОВАЦИОННЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH



№2/2025
FEVRAL

Muassis:

Buxoro davlat universiteti
Fan va ta'lim MChJ

Bosh muharrir: Ma'murov Bahodir Baxshulloyevich, Buxoro davlat pedagogika instituti rektori

Jamoatchilik kengashi raisi: Xamidov Obidjon Xafizovich, Buxoro davlat universiteti rektori

Mas'ul kotib: Akramova Gulbahor Renatovna

Texnik muxarrir: Davronov Ismoil Ergashevich

Tahririyat manzili: Buxoro shahar, Q.Murtazoyev ko'chasi, 16-uy

E-mail:
eirjurnal2020@gmail.com

Jurnalning elektron sayti:
www.interscience.uz

Jurnal OAK Rayosatining 2021 yil 30 sentyabrda 306/6-son Qarori bilan **PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA, FILOLOGIYA, TARIX FANLARI** bo'yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlar ruyxatiga kiritilgan

Bosishga ruxsat etildi:

10.03.2025 y.
Qog'oz bichimi 60x84 1/8.
b/t.12,5.

Buyurtma raqami №0325
«FAN VA TA'LIM» nashriyotida chop etildi. Buxoro shahar <https://interscience.uz/> saytida joylashtirildi

Jurnal 28.07.2021 yilda 9305 raqami bilan O'zbekiston Ommaviy axborot vositalari davlat ro'yxatidan o'tgan

Jurnal 2020 yilda tashkil topdi va 2 oyda 1 marta chop etildi. 2021 yil noyabr oyidan boshlab har oyda 1 marta o'zbek, rus va ingliz tillarida chop etiladi

«Ta'lim va innovatsion tadqiqotlar» xalqaro ilmiy-metodik jurnalidan ko'chirib bosish tahririyatning roziligi bilan amalga oshiriladi

Maqolada keltirilgan faktlarning to'g'riligi uchun muallif mas'uldir

07.00.00 – TARIX FANLARI	
Ma'murov B.B.Abdurauf Fitrat Buxoro xalq sho'rolar jumhuriyatining maorif noziri	8
Bayqabilov X. M., Poytaxt shaharlar: tarixiylikdan zamonaviylik sari	11
Imomov U. I. Nemis va fransuz tarixshunos olimlarining Samarqand tarixiga oid ma'lumotlari manba sifatida	18
Orziev M. Z., Amir Temur hokimiyat tepasiga kelish arafasida Movarounnahrda urug' qabilalarining joylashuvi xususida	22
Raximbayev X. X. Xorazmshoh-Anushteginiylar qo'shini etnik tarkibi.	27
Turayeva S. R., Rossiya imperiyasining Turkiston mintaqasidagi tog'-konchilik sohasiga oid mustahkamlachilik siyosati	33
Xodjimuratova D. S. Eronda islohotchi prezidentlar davrida davlat ijtimoiy-siyosiy tizimi transformatsiyasi	40
10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI	
Абдуллаева Н. Н., Психологический аспект пословиц: как пословицы отражают наше восприятие мира и людей?	45
Islomov D. Sh., Fransuz va o'zbek masallarida emotiv birliklarning pragmatik ta'siri	49
Karimova Sh. K., Daminova F N., The expression of human values in the poems of Robert Burns and Muhammad Yusuf	54
Khamdamova G. K., The semantics of somatic units in Theodor Dreiser's novel "Sister Carrie"	59
Radjabov R. R., Fransuz tiliga boshqa tillardan o'zlashgan so'zlar talaffuzi hamda imlosi	63
Rakhmonova Sh., The significance of the english language in educating modern technology at higher education institutions	69
Rustamova M. M. Phraseological units and emotionality: a comparative analysis of italian and uzbek languages	73
Ruziyeva D. S., "Hamlet" va "Mirzo Ulug'bek" – tragediya janrining nodir namunalari	79
Saidova I. A., Badiiy matnlarda so'z o'yinining fonetik ifodalanishi	83
Saidova N. A., O'zbek badiiy asarlarida argo va jargonlarning qo'llanish xususiyatlari	87
Saidova Z. S., Maqsud Qoriyevning "Ibn Sino" romanida bosh qahramon kechinmalari tasviri	93

Shahabitdinova Sh. X., Neyropsixolingvistika – zamonaviy tilshunoslik yo‘nalishi	96
Sharipova F. D., Badiiy tarjima va uning mazmun-mohiyati	102
Turayeva X. T., The role of symbolism in the Great Gatsby: a critical exploration of american dream mythology	108
Xamdamova G. X., Xorijiy tillarni o‘rgatishda maqollarning o‘rni	111
Жумаева Д.Т., Роль работы над обогащением словарного запаса- как средство развития речи учащихся	114
Alimbetova Sh. J. The historical and theoretical, technical and organizational aspects of information programs	116
Olimjanova D.O. O‘zbek bolalar adabiyotida uchraydigan asosiy mavzular (X. To‘xtaboyev asarlari misolida)	123
Soyipov S. “Boburnoma” asari va uning tili xususida ayrim mulohazalar	127
Khabibullayeva G.N. Jadidlar nasriy asarlarida milliy liboslar bilan etnografizmlar	131
13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI	
Safarova R. G., Milliy tarbiyaning asl manbalari	137
Abdiraxmanov S. N., Turayev X. A., Bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish tamoyillari	142
Аташайхов А. А., Научные основы функциональной подготовки специалистов по спортивному рукопашному бою	149
Baxtiyorova D. I., Sun‘iy intellekt imkoniyati cheklangan insonlar ta‘lim olishi uchun yangi imkoniyatlar eshiklarini ochib berdi	155
Baybayeva M. X., Nuriyeva U. B., Rahbar xodimlarning ma‘naviy qiyofasini forsait texnologiyasi orqali shakllantirish	160
Fayzullayev E. M. Badiiy did tarbiyasida cholg‘u ijrochiligi fanini o‘qitishshning o‘ziga xos metodik jihatlari	164
Djumanazarova Z. K., Bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarning maxsus kompetensiyalarini shakllantirish metodikasi	168
Дадашев Б. А., Апробированный подход к оценке знаний студентов гуманитарных направлений подготовки	171
Eminov B. A., Kasbiy tayyorgarlikda imkoniyati cheklangan o‘quvchilarning raqamli ko‘nikmalarini shakllantirish metodikasi	176
Jamolov A. K., Professional ta‘lim o‘quvchilarini innovatsion faoliyatga tayyorlashda rakamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari	182
Karimova M. M., Умумтаълим мактабларида таълим сифатини баҳолашда халқаро индикаторлар	189
Latipova G. Sh., Kompetensiyaviy yondashuv asosida malaka oshirish tizimi tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirish modeli	193
Mamatov D. K., 3d modellar vositasida chizmachilik fanini o‘qitish metodikasi	199
Maxmudova Z. M., Bo‘lajak tarbiya fani o‘qituvchilarida deontologik kompetensiyani rivojlantirish orqali kasbiy faoliyatni takomillashtirish pedagogik muammo sifatida	206

Muhammadiyev E. T., Turayev X. A., Talabalarning kreativlik kompetentligini rivojlantirishda qr-kod texnologiyasining o'rnini va amaliy ahamiyati	211
Munirov N. A., Qo'l jangi sport turi bo'yicha mashg'ulotlarni o'tkazishning metodik asoslari	219
Murodova M. M., Boshlang'ich sinf o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qish savodxonligi darslarining ahamiyati	228
Muxitdinova N. M., Ruziyeva R. B., Aholi turar joylarida sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini tashkil etish metodikasi - samarali yondashuvlar va innovatsion usullar	233
Мирзаев А. М., Инновационные методы подготовки курсантов борьбе на поясах	237
Ne'matova L. L., O'quvchilarning bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazishda sinfdan yoki maktabdan tashqari ishlarning mazmuni	241
Polvonov B. Z., Tibbiyot oliygohlarida Nurlanishlarning moddalar bilan o'zaro ta'siri fanini o'qitishning o'ziga xosligi	249
Rakhimbayeva M. D., Effective methodologies for developing and using modern software tools in education	258
Rametullaeva N. P., Oliy ta'lim muassasalarida talaba yoshlarning innovatsion ta'lim olishida pedagogik metodning ahamiyati	262
Rasulova Z. D. Bo'lajak o'qituvchilar kreativ sifatlarini rivojlantirishning pedagogik, psixologik imkoniyatlari	266
Rasulova A. K., Turayev X. A., Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning asosiy omillari	272
Safoyev H. A., Globallashtirish sharoitida talabalarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning tarixiy, siyosiy va huquqiy-me'yoriy asoslari.	277
Saidova O. T., Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirish	283
Sattarov Sh. Y., Turayev X. A., Kompyuter grafikasi vositasida talabalarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar	288
Siddiqova S. G., Saidjonova P. Sh., Malakali muhandislar tayyorlashda iqtisodiy rivojlangan korxonalar bilan hamkorlik qilish	295
Soxibov A. R., Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion rivojlanish jarayonlarini boshqarishda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni hal etish modellari	301
Suyarov N. T. Madaniy o'ziga xoslik va etnik madaniy kompetensiyani shakllantirishda tasviriy san'at o'qituvchilarning o'rnini	307
Tolipov U. K., Тарбия жараёнининг дидактик моҳияти ва тарбия технологияларининг уни ёритишдаги роли	311
To'rayeva M. Y., Turabova B. F., Hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida noan'anaviy ta'lim	318
Turayev X. A., Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvning o'rnini va amaliy ahamiyati	323
Umirov A. A., Ta'limda zararli axborotlar tahdididan saqlanishga o'rgatish muammosining hozirgi kundagi o'rnini va ahamiyati	328
Gafurova Sh. A. Innovatsion ta'lim muhitida umumta'lim maktablarining 6-7 sinflarida ona tili fanini o'qitish orqali mustaqil o'quv topshiriqlari bilan ishlashda lingvometodik yondashuv	332
Musayeva N. S. Inklyuziv ta'lim jarayonida o'quvchilarning ijtimoiylashuvini rivojlantirishning ilmiy-nazariy asoslari	337
Sobirova M. R. Neyrodidaktika – neyropedagogikaning sohasi sifatida	347
Egamova R. S. Texnologiya fanidan sinfdan tashqari ishlarda didaktikani ahamiyati	351

Xudoyberdiyeva X. Z., Talabalarda naqsh kompozitsiyalarini tuzishga oid kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish	358
Yuldasheva X. Q., Taym menejment” – vaqtni boshqarish kontseptsiyasi va tarixiy rivojlanishi	362
Yusupova N. Y., Audiovizual kommunikatsiyalar: tarix va zamonaviylik	367
Пурханов Ю. Е., Олим ва шоир у.алеуовнинг хаёти ва илмий педагогик фаолияти	374
Shoabdullayeva Z. Sh.Maktabgacha yoshdagi bolalarda tovushlarni to‘g‘ri talaffuz qilish malakalarini rivojlantirish	379
Shukurlaev U.J. Talabalarda o‘zbek milliy kurashi vositasida sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishning afzalliklari	385
Sharipova M. E., Xamedova N. A. Matematika bo'yicha fan olimpiadalariga tayyorlash jarayonida tavsiya qilinadigan masalalar mazmuniga qo'yiladigan talablar	389
19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI	
Bafayev M. M., Talabalarda tolerantlikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik modeli va mazmuni	392
Begjanova A. D., Ko‘p tilli shaxslarning ijtimoiy va psixologik xususiyatlari.	404
Mirzayeva S. R. Sog'lom turmush tarziga rioya qiluvchi oila sifatidagi oila imidjini shakllantirish usullari: texnologiyalar va mexanizmlar	410
Nurmuxamedova D. X., Oliy ta'limda talabalarining o'z-o'zini boshqarishi va mustaqil o'quv faoliyatini rivojlantirish masalalari	413
Nurqulova G. E., Kichik yoshdagi maktab o'quvchilarida kognitiv faollikni rag'batlantirishning psixologik shartlari	419
Normamatova N. A. SHarq mutafakkirlarining nikoh va oila haqidagi psixologik qarashlari	424
Қодиров М. С., Божхона хизмати ходимининг ижтимоий-психологик компетенциялари таҳлили	430
Qahharova O‘. A. Zamonaviy jamiyatda oilalarda sog‘lom turmush tarzini shakllantirishdagi muammolar	439
Tursunov J. B., Talabalar o‘quv faoliyatining samaradorligini oshirishda milliy qadriyatlardan foydalanishning psixologik imkoniyatlari	444
Turumbetova Z. Y., Delinkvent axloq – shaxs og`ishgan xulqining shakli sifatida	449

TA'LIM VA INNOVATSION TADQIQOTLAR

JAMOATCHILIK KENGASHI A'ZOLARI

- Djurayev Risboy Haydarovich*, pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi.
Shamsutdinov Rustambek Temirovich, Andijon davlat universiteti professori, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat hodimi, tarix fanlari doktori
Majidov Inom Urushevich, texnika fanlari doktori, professor. O'zbekiston milliy universiteti
Olimov Qahramon Tanzilovich, pedagogika fanlari doktori, professor. A.I.Gersen nomidagi Rossiya davlat pedagogika universiteti Toshkent filiali
Tadjixodjayev Zokirxo'ja Abdusattorovich, texnika fanlari doktori, professor
Musurmonova Oyniso, pedagogika fanlari doktori, professor
Safarova Rohat G'aybulloevna, pedagogika fanlari doktori, professor, T.N.Qori-Niyoziy nomidagi O'zbekiston pedagogika fanlari ilmiy tadqiqot instituti
Ibragimov Xolboy Ibragimovich, pedagogika fanlari doktori, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi akademigi.

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

XORIJ OLIMLARI

- Artamonova Yekaterina Iosifovna*, pedagogika fanlari doktori, professor, Moskva davlat pedagogika universiteti, Xalqaro pedagogika fanlari akademiyasining prezidenti
Yemelyanova Irina Yevgenyevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy -pedagogika univversiteti. Rossiya
Kuzmenko Galina Anatolevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Moskva davlat pedagogika universiteti, Jismoniy tarbiya, sport va salomatlik instituti
Safaraliyev Bozor Safaraliyevich, pedagogika fanlari doktori, professor. Chelyabinsk davlat akademiyasi
Kulishov Vladimir Vasilevich, pedagogika fanlari doktori, professor. Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina
Lazarenko Irina Rudolfovna, pedagogika fanlari doktori, professor. Altay davlat pedagogika universiteti rektori, Rossiya
Filippova Oksana Gennadevna, pedagogika fanlari doktori, professor. Janubiy-ural davlat ijtimoiy -pedagogika univversiteti. Rossiya
Xristo Kyuchukov, pedagogika fanlari doktori. Umumiy tilshunoslik va psixolingvistika professori. Berlin Erkin universiteti, Turkologiya instituti. Xalqaro psixolingvistika va Sotsiolingvistika jurnali asoschisi va muharriri, Germaniya
Kumskov Mixail Ivanovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor. M.V. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti
Maksimenko Sergey Dmitriyevich, akademik, psixologiya fanlari doktori, professor. Ukraina Milliy pedagogika fanlari akademiyasining akademigi
Padalka Oleg Semenovich, pedagogika fanlari doktori, professor. M.P. Dragomanova nomidagi pedagogika milliy universiteti, Ukraina
Hazretali Tursun, tarix fanlari doktori, professor; Xoja Ahmad Yassaviy nomidagi xalqaro qozoq-turk universiteti professori
Mamedova Irada, tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent, Ozarbayjon Milliy akademiyasi Tarix instituti bo'lim boshlig'i
Timur Xo'jaog'li, tilshunos va adabiyotshunos olim. Michigan universiteti professori (AQSh)
Nurettin Hatunoğlu Doç. Dr., Zonguldak Bülent Ecevit Üniversitesi Fen-Edebiyat Fakültesi Tarih Bölümü (Turkiya)
Mullojdanov Sayfullo Kuchakovich, tarix fanlari doktori, professor. Tojikiston milliy universiteti
Gushko Sergey Vladimirovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor, Davlat iqtisodiyot va texnologiya universiteti prorektori, Krivoy Rog, Ukraina

O'ZBEKISTON OLIMLARI

TARIX FANLARI

- Azamat Ziyov*, tarix fanlari doktori, akademik, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti direktori
Rajabov Qahramon Kenjayevich, tarix fanlari doktori, professor, O'zbekiston Fanlar akademiyasi Tarix instituti bosh ilmiy xodimi

FILOLOGIYA FANLARI

- Madjidova Ra'no Urishevna*, filologiya fanlari doktori, professor. O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Sharipova Laylo Frunzeyevna, filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti
Nigmatova Lolaxon Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti
Yusupova Hilola O'ktamovna, filologiya fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti
Akramova Surayo Renatovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doytori (PhD), dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

PEDAGOGIKA FANLARI

- Tolipov O'tkir Qarshiyevich*, pedagogika fanlari doktori, professor. Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti.
Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor. Buxoro davlat universiteti
Dilova Nargiza Gaybullaevna, pedagogika fanlari doktori DSc, professor. Buxoro davlat universiteti
Tilavova Matlab Muxammadovna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti
Sohibov Akram Rustamovich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Qarshi davlat universiteti
Umarov Baxshullo Jo'rayevich, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti
Hasanova Gulnoz Qosimovna, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti
Inoyatov Abdullo Shodiyeich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat universiteti
Davronov Nurzod Ismoilovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dotsent. Buxoro davlat pedagogika instituti

PSIXOLOGIYA FANLARI

- Umarov Baxriddin Mingbayevich*, psixologiya fanlari doktori, professor. Toshkent davlat pedagogika universiteti
Bafayev Muxiddin Muxammadovich, psixologiya fanlari buyicha falsafa doktori (PhD). Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

IQTISODIYOT FANLARI

- Kurolov Kobuljon Kulmanovich*, iqtisodiyot fanlari doktori, professor. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq markazi direktori
Mamanazarov Abdaxakim Bozorovich, pedagogika fanlari doktori DSc. Lomonosov nomidagi Moskva davlat universiteti Toshkent filiali

FALSAFA FANLARI

- Namozov Bobir Bahriyevich*, falsafa fanlari doktori (DSc). Buxoro davlat universiteti

BIOLOGIYA FANLARI

- Artikova Hafiza To'yurodovna*, biologiya fanlari doktori, professor. Buxoro davlat pedagogika instituti

EDUCATION AND INNOVATIVE RESEARCH

MEMBERS OF THE PUBLIC COUNCIL

- Risboy Haydarovich Djuraev**, doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan
Rustambek Temirovich Shamsutdinov, professor of Andijan State University, Honored Worker of Culture of Uzbekistan, Doctor of Historical Sciences
Inom Urushevich Majidov, doctor of Technical Sciences, Professor. National University of Uzbekistan.
Kahramon Tanzilovich Olimov, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Tashkent branch of the Russian State Pedagogical University named after AI Gertsen
Zokirkhoja Abdusattorovich Tadjikhodjaev, doctor of Technical Sciences, Professor
Oyniso Musurmonova, doctor of pedagogical sciences, professor
Rohat Gaybulloevna Safarova, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, Uzbek Scientific Research Institute of Pedagogical Sciences named after TN Qori-Niyazi.
Kholboy Ibragimovich Ibragimov, doctor of Pedagogical Sciences, Academician of the Academy of Sciences of the Republic of Uzbekistan

MEMBERS OF EDITORIAL COUNCIL

- Ekaterina Iosifovna Artamonova**, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, President of the Moscow State Pedagogical University, International Academy of Pedagogical Sciences
Irina Evgenyevna Emelyanova, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, South Ural State Humanitarian Pedagogical University, Russia
Galina Anatolevna Kuzmenko, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Moscow State Pedagogical University, Institute of Physical Culture, Sports and Health
Bozor Safaralievich Safaraliev, doctor of pedagogical sciences, professor. Chelyabinsk State Academy
Vladimir Vasilevich Kulishov, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine
Irina Rudolfovna Lazarenko, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. Rector of Altai State Pedagogical University, Russia
Okšana Gennadevna Filippova, doctor of Pedagogical Sciences, Professor. South Ural State Humanitarian Pedagogical University, Russia
Christo Kyuchukov, doctor of Pedagogical Sciences. Professor of General Linguistics Psycholinguistics. Free University of Berlin, Institute of Turkology. Founder and editor of the International Journal of Psycholinguistics and Sociolinguistics, Germany
Mikhail Ivanovich Kumskov, doctor of Physical and Mathematical Sciences, Professor. M.V. Lomonosov Moscow State University
Sergey Dmitriyevich Maksimenko, academician, doctor of psychological sciences, professor. Academician of the National Academy of Pedagogical Sciences of Ukraine
Oleg Semenovich Padalka, doctor of Pedagogical Sciences, Professor, National Pedagogical University named after M.P. Dragomanova, Ukraine
Tursun Hazretili, doctor of Historical Sciences, Professor of the International Kazakh-Turkish University named after Khoja Ahmad Yassavi
Khuzhaugli Timur, linguist and literary critic. Professor at the University of Michigan (USA)
Hatunoğlu Nurettin, Assoc. Dr., Zonguldak Bulent Ecevit University, Faculty of Arts and Sciences, Department of History (Turkey)
Mullojanov Sayfullo Kuchakovich, doctor of Historical Sciences, Professor. National University of Tajikistan
Gushko Sergey Vladimirovich, doctor of Economics, Professor, Vice-Rector of the State University of Economics and Technology, Krivoy Rog, Ukraine

SCIENTISTS OF UZBEKISTAN

History

- Azamat Ziyov**, doctor of Historical Sciences, Academician, director of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Rajabov Kakhramon Kenjayevich, doctor of Historical Sciences, Professor; main researcher of the Institute of History of the Academy of Sciences of Uzbekistan

Philology

- Majidova Rano Urishevna**, doctor of Philology, Professor, Uzbek State University of World Languages
Sharipova Laylo Frunzeyevna, professor, Doctor of Philology. Bukhara State University
Nigmatova Lolaxon Xamidovna, doctor of Philology. Bukhara State University
Yusupova Khilola Oktamovna, candidate of philological sciences, associate professor. Bukhara Engineering and Technology Institute
Akramova Surayo Renatovna, doctor of Philosophy, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute

Pedagogy

- Tolipov Utkir Karshiyevich**, doctor of Pedagogy, Professor. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami.
Olimov Shirinboy Sharofovich, doctor of pedagogical sciences, professor. Bukhara State University
Tilavova Matlab Muhammadovna, candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute
Dilova Nargiza Gaybullayevna, doctor of pedagogical sciences (DSc), Professor. Bukhara State University
Sohibov Akram Rustamovich, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Karshi State University
Umarov Bakhshullo Djurayevich, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute
Khasanova Gulnoz Kasimovna, candidate of pedagogical sciences, associate professor. Bukhara State Pedagogical Institute
Inoyatov Abdullo Shodievich, doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State University
Davronov Nurzod Ismoilovich, PhD in Pedagogical Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute

Psychology

- Umarov Bakhridin Mingbayevich**, doctor of Psychology, Professor. Tashkent State Pedagogical University
Bafaev Muhiddin Mukhamadovich, PhD in Psychological Sciences. Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Economy

- Kurolov Kobuljon Kulmanovich**, doctor of Economics, Professor. Director of the network center for retraining and advanced training of teachers of the Tashkent State Technical University named after Islam Karimov
Mamanazarov Abdukhakim Bozorovich, doctor of pedagogical sciences (DSc), associate professor. Tashkent branch of Moscow State University. M.V. Lomonosov

Philosophy

- Namozov Bobir Baxriyevich**, doctor of Philosophy. Bukhara State University

Biology

- Artikova Khafiza Tuymurodovna**, doctor of Biological Sciences, Associate Professor. Bukhara State Pedagogical Institute

07.00.00 – TARIX FANLARI

ABDURAUFI FITRAT BUXORO XALQ SHO‘ROLAR JUMHURIYATINING MAORIF NOZIRI

*Ma'murov B.B.,
BuxDPI rektori,
pedagogika fanlari doktori, professor.*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdurauf Fitratning Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyatining noziri sifatida faoliyati haqida mulohaza yuritilgan, Uning jadid maktablaridan keyingi bosqichdagi yangi, zamonaviy ta'lim tizimi: ham maktab, ham pedagog muallimlar yetkazib beradigan pedagogik bilim yurtini tashkil etganligi manbalar asosida yoritilgan.

Tayanch so'zlar: Jadid, jadidchilik harakati, usuli jadid maktabi, BXSHJ, ma'rifatparvarlik, dorulmuallimin, pedagogika, jadid adabiyoti, milliy uyg'onish davri.

Insoniyat tarixida XX asr nafaqat ijtimoiy-siyosiy jihatdan, balki ma'naviy-madaniy hamda maorif sohasida ham tom ma'nodagi tub burilishlar asridir. Bu dunyo madaniyati va fanida salmoqli o'rin egallaydigan Markaziy Osiyo xalqlari madaniyati, adabiyoti va san'ati taraqqiyoti sohasida ham yorqin ko'rinadi. Bu davrda ushbu madaniyatni yaratgan, uni o'tmish madaniyati bilan bog'lagan, xalq manfaatlariga yaqinlashtirgan, uning taraqqiyoti va kelajagi uchun rahnamolik qilgan qator mutafakkirlar kamolga yetdi.

XX asrdagi Turkiston siyosiy-ijtimoiy va milliy adabiy tafakkuri taraqqiyotida Abdurauf Fitrat fenomeni beqiyos ahamiyatga molik. Shundanmikin, hali tirikligidayoq unga va ijodiga nisbatan uyg'ongan qiziqish, har qanaqa ta'qiblarga qaramay, zarracha susaymadi; nomi ham, asarlari ham qatag'on qilindi, lekin ijodiga va shaxsiyatiga munosabat bildirish muttasil davom etib kelayotir. To'g'ri, qatag'onchilar unga "millatchi", "panturkist", "panislomist" tang'alarini yopishtirib, sotsializmga yot bo'lgan burjua mafkurachisi deb talqin qildilar, xorijlik jadidshunoslar esa uni chorizm va bolshevizmning mustamlakachilik siyosatiga qarshi, Turkiston xalqlari erki va mustaqilligining, milliy istiqlolining kurashchisi, fidoyi vatanparvar va asrimizning birinchi yarmida yashab ijod etgan betakror mutafakkir sifatida o'rgandilar va tashviq qilishdan tolmadilar. Shu tariqa Abdurauf Fitrat shaxsiyatiga va ijodiyotiga bir-birini rad etuvchi nuqtai nazarlardan qarash va baho berish qaror topdi va aytish mumkinki, bu holat 30-yillardan boshlanib 80-yillargacha an'anaviylik kasb etdi. Holbuki, Fitrat ham Stalin qatag'onlari qurbonlari qatorida shaxsga sig'inish oqibatlari oshkor etilishi bilanoq "tarkibida jinoyat yo'qligi va topilgan yangi materiallarga binoan" 1956- yildayoq oqlangan edi.

Ha, Abdurauf Fitrat XX asr o'zbek madaniyatininggina yemas, balki butun Sharq xalqlari madaniyatining ham ana shunday daholaridan hisoblanadi. Fitrat keng qamrovli adib, shoir, dramaturg, publitsist, olim, murabbiy – pedagog, shu bilan birga atoqli davlat va jamoat arbobi sifatida Markaziy Osiyo ijtimoiy-madaniy taraqqiyotida muhim iz qoldirgan mutafakkirdir. Albatta, u birinchi navbatda so'z san'atkoridir. Lekin uning davlat va jamoat arbobi sifatidagi faoliyatiga nazar tashlasak, maorif islohotchisi sifatida ham namoyon bo'ladi.

Abdurauf Fitratning xalqiga, Vataniga buyuk muhabbati bor edi. U ham millatning tafakkur sohibi bo'lgan farzandlari qatori qadim va shonli tarixga ega Vatanining mustamlaka – qullik qismatini qabul qila olmas edi. Bu uning butun faoliyatida, ijodida aks etgan. Jadidlar mazkur masalada ulug' maqsad uchun birlasha oldilar. Najot yo'llarini qidira boshladilar. Harbiy, ilmiy-texnologik va iqtisod jihatdan ustun bo'lgan mustamlakachilarga teng kelib bo'lmasligi achchiq haqiqat edi. Ular najotni milliy g'oyalar, maqsadlar asosida shakllangan ta'limda va uni targ'ibotchisi adabiyotda, matbuotda ko'rishdi. Nihoyatda qisqa fursatda yangi usuldagi jadid maktablarini ochib, ularga yangi fanlar hamda yangi darsliklar avlodini yaratdilar, milliy matbuotni tashkil etdilar. Milliy g'oyalar, ulug' maqsadlar asosida tarbiyalangan ma'rifatli yosh avlodni yetishtirdilar. Toshkenda Munavvar Qori Abdurashidxonov, Samarqandda Mahmudxo'ja Behbudiy, Buxoroda Fayzulla Xo'jayev, Abdurauf Fitrat, Usmon Xo'ja yetakchiligidagi jadidchilik harakati siyosiy kuch sifatida

shakllandi. Bu harakat avval Chor Rossiyasi Turkiston gubernatorligining maxfiy politsiyasi ta'qibida faoliyat yuritgan bo'lsa, keyinchalik bolsheviklar tomonidan siyosiy, jismoniy jihatdan shafqatsizlarcha qatag'onga uchradi.

Biz mazkur ishimizda Abdurauf Fitratning Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyatida ma'orif sohasidagi faoliyatiga to'xtalib o'tishni lozim topdik.

Fitrat hali faoliyatining boshidayoq, ya'ni Istambulalik paytida "Buxoro ta'limi ma'orif jamiyati" nomi bilan bir jamiyat tuzgan. S.Ayniyning e'tirofiga ko'ra, bu jamiyat Buxoro va Turkiston maorifining olg'a siljishiga doir muhim ishlarni amalga oshirgan. Yurtiga qaytgandan keyin ham Shahrisabz va Karkida yangi usul – jadid maktablari ochib, bolalarga zamonaviy bilim berishni joriy qiladi.

Ayniqsa, uning maorif sohasidagi faoliyati M.Furunze boshchiligidagi talonchi, buzg'unchi qizil qo'shin tomonidan batamom iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy tanazul botqog'iga botirilgan Buxoro amirligi o'rniga Buxoro Xalq Sho'rolar Jumhuriyati tashkil etilgach, mas'ul lavozimlarda – Jumhuriyatning Xorijiy ishlar noziri, Maorif ishlari noziri, Moliya noziri hamda Markaziy ijroiya qo'mitasi xalq nozirlari sho'rosining o'rinbosari lavozimlarida ishlaganida yanada samarali bo'ldi. Otigagina mustaqil, biroq huquqi Moskvada bo'lgan davlatga bunday vaziyatda A.Fitratdek ham Sharq, ham G'arb tafakkuri, ta'limini olgan ma'rifatparvar, vatanparvar kerak edi.

Uning sayi harakati bilan qisqa muddatda Yosh Respublikada 1920-yil sentabridan 1921-yil oraliq'ida o'n bir ming o'quvchini o'z bag'riga olgan 175 ta maktab tashkil etildi. Shu yilning avgustida Fitratning tashabbusi bilan "Sharq musiqasi maktabi" ochiladi. Bino bo'lmagani uchun ota hovlisini musiqa maktabiga bo'shatib berdi, o'zi esa, yuqori martabali amaldor bo'lishiga qaramay, birovlarining boloxonasida yashab yuradi. U Turkiston tarixida birinchi bo'lib, qizlarning ham zamonaviy maktablarda ta'lim olishiga alohida e'tibor bergan ta'lim islohotchisi sanaladi. 1923-yil ochishga muvaffaq bo'lgan 12 ta internat, 4 ta musiqa, 40 ta boshlang'ich o'rta maktabdan uchtasi qizlar maktabi edi.

Abdurauf Fitratni maktablar va ularga jalb etilgan o'quvchilarning sonidan ko'ra ta'lim sifati tashvishga solgan. Sababi amir qulatilgach, yangi hokimiyatning davlat tepasiga kelishi xalqni esankiratib qo'ygan. Ular dastlab o'z farzandlarining hayotidan xavotirlanib, tashkil etilgan zamonaviy jadid maktablarga bolalarini berishgan bo'lsa, keyinchalik, hammasi tinchigach, bolalarini maktablardan ola boshlashgan. Bu vaziyatdan chiqish uchun Fitrat Buxoro shahridagi maktablarda bolalarning otalari, vakillarini chaqirib majlis o'tkazadi. Majlisda to'planganlar o'z ichlaridan uch kishilik "Otarlar komissiyasi" tuzadi. Mana shu uch kishilik komissiya maktab manfaatini xalq oldida himoya qilib, ma'naviy va moddiy nuqsonlarni nazoratga olib, ularni bartaraf qilib, bolalarni turli tadbirlar bilan maktablarga jalb qiladi. Shu kabi tadbirlar bilan odamlarning ishonchi qozonildi. O'quvchilarni maktablarga jalb qilish ortidan yangi maktablar ochildi. Natijada qisqa bir muddatda tashkil etilgan maktablarda o'qituvchilarning yetishmasligi muammosi yuzaga keladi. F.Xo'jayev, A.Fitratlarning tashabbusi bilan 1921-yili Buxoroda o'qituvchi tayyorlaydigan birinchi dorulmuallimin – o'quv yurti ochiladi. Dorulmuallimin qisqa bir muddatda kerakli yosh kadrlarni maktablarga yetkazib berishi kerak yedi. "Buxoro axbori" gazetasining 1921-yil 3-noyabr 54-sonida "Buxoroda birinchi dorulmuallimin" xabar maqolasi e'lon qilingan:

"Shu kunlarda Maorif nazorati tomonidan Buxoroda birinchi o'laroq dorulmuallimin ochilib, darslar boshlandi. Bu dorulmuallimin Buxoroda birinchi dorulmuallimindir. O'tgan yil ... maorif nazorati tashkil qilinib, g'oyat shoshilinch bilan qisqa muddatli ta'lim-tarbiya kurslari ochilib, muallimlarga tartib ko'rgazilmish edi. Yoz kuni maktablarga ta'til berilib, muallimlar hozirlamog' uchun uch oyli takroriy ta'lim-tarbiya kurslari ochilib, davom etdi. Endi mamlakatga yosh muallim yetishtirmak uchun Maorif nazorati asosli sur'atda dorulmuallimin ochadir. Dorulmualliminda o'qish ikki yil bo'lg'usidir. Mamlakatga ma'lumotli talaba yetishguncha vaqtli o'laroq, dorulmuallimin barobarinda ikki yangi ahzori sinfi ham ochilmishdir. Dorulmuallimin kechalik bo'lib, talabalar internat (yotoxona)ga yotib o'qug'usidir...hozirli sinfga qabul qilinmoq uchun talabaning yoshi 15 dan kam 25 dan ortuq bo'lmaslig'i shartdir. Dorulmualliminda o'qitmoq uchun iqtidorli, tajribali muallimlar jalb qilinmishdir. Bu dorulmualliminning ochilishi ilm va maorif yo'lida birinchi qadamdur.

Buxoroning istiqboli va saodati uchun dorulmuallimin yashamog‘i lozimdir. Bunga hukumat ahamiyat berib, bunga yashamog‘in ta‘min etmish kerakdir.

Qutlu bo‘lsin yangi ilm yurti”. [1.1.]

Agar maqlaga e‘tibor berilsa, dorulmuallimining Maorif nazorati tomonidan ochilganligi ta‘kidlangan. Ayni shu vaqtda Maorif noziri lavozimi qanday lavozim ekanligini inobatga olsak, yurt va xalq uchun ulug‘ ish bo‘lgan mazkur ishning ilk tashabbuskori Abdurauf Fitrat ekanligi ayonlashadi. Ma‘lumotlarga qaraganda, Fitrat nafaqat Buxoroda, hatto Chorjo‘y shahrida ham xalq o‘qituvchilari instituti tashkil etishga ham erishgan.

“Buxoro axbori” gazetasidagi bu xabar maqola bizga ko‘p narsa haqida xulosa qilishimizga imkon beryapti:

– yangi tashkil etilgan maktablarga talab ortib borgan, natijada maktab sig‘imi va soni ortgan;

– bu maktablarga yangicha milliy tafakkurli yosh muallimlarga ehtiyoj yuzaga kelgan, shuning uchun yangi dorulmuallimiga 15 yoshdan 25 yoshgacha yosh talabalar o‘qishga jalb qilingan;

– yangi dorulmuallimini tashkil etishgacha, qisqa muddatli uch oylik kurslar tashkil etilgan;

– bu tajribalar O‘rta Osiyoda birinchi qat‘iy dastur va nozomiga ega ikki yillik pedagogik ta‘lim maskani tashkil etilgan.

O‘rni kelganda tarixiy bir haqiqatni ta‘kidlashni lozim deb bildik: mazkur dorulmuallimin negizida 1930-yilda Buxoro davlat pedagogika instituti tashkil etilgan. Mustaqillikning 1992-yilning fevralida esa mazkur pedagogika institutiga Buxoro davlat universiteti maqomi berildi.

Fitrat va uning maslakdoshlari ijtimoiy-siyosiy, ilmiy-texnik taraqqiyotga erishish uchun yosh kadrlarni chet ellarga o‘qitish kerakligini yaxshi bilishgan, shuning uchun ham u turkistonlik iqtidorli o‘g‘il-qizlarni tanlab, Germaniyaga o‘qishga yuborishga tashabbuskorlik qilgan. Buning uchun hatto maorif nozirligi hisobidan Yevropaning eng rivojlangan shahri Berlin markazidan alohida bir hovli sotib oladi.

Fitrat bu ish bilan cheklanmasdan Buxoroning o‘zida rus maktablarini ochish tashabbusi bilan chiqadi. 1923-yilda Fayzulla Xo‘jayev klubida Buxoro maorifchilarining birinchi qurultoyi ochildi. Qurultoyda Abdurauf Fitrat “Maorif ishlari” xususida ma‘ruza qiladi. Bu ma‘ruzasida u shunday deydi:

“Rustili maktabi ham shunday muhimdir. Bizning eng fojiali holimiz ruscha bilmasligimizdir: ijtimoiy, siyosiy hayotimizni yangi asoslara qo‘ymoq uchun biz har qadamda bir daf‘a ruscha uchraymiz, rusning fikri, rusning mutaxassisi, rusning kitobi, maqolasi, nazariyasi bizga lozim bo‘lib oladir. Holbukim, o‘zimiz ruscha bilmaymiz”. [2.5.]

Bugun shiddat bilan rivojlanib borayotgan dunyoda eng so‘nggi yangilik hamda texnologiyalarni o‘zlashtirish va jahon hamjamiyatida o‘z o‘rniga ega bo‘lishimiz uchun xalqaro tillarni bilish nechog‘lik ahamiyatli ekanligini inobatga olsak, Fitratning birinchilardan bo‘lib aytilgan bu fikrlari qimmatlidir.

Fitratlarning xalqni ma‘rifatli, madaniyatli, ertangi kelajak uchun har tomonlama yetuk shaxslarni yetkaza oladigan salohiyatini ko‘rish orzusi yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng amalga oshdi. Jahon hamjamiyati e‘tirof etgan dastlabki buyuk ishlardan biri yosh avlodning ta‘lim-tarbiyasiga davlat siyosati darajasida e‘tibor berilishi bo‘ldi. Bugungi kunda bitta yosh avlod uzoq va mashaqqatli mehnatning mevasi o‘laroq kamolgayetishib, yurt ravnaqi yo‘lida xizmat qilishga kirishdi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdurauf Fitrat. “Buxoroda birinchi dorulmuallimin”// “Buxoro axbori”. 1921. 3-noyabr № 54
2. Abdurauf Fitrat. “Maorif ishlari”. Uchqun. 1923. N=2. 5-bet.
3. Amonov, U. S. (2022). Turkiston o‘lkasida usuli jadid maktablarining shakllanish jarayoni, muammolari va taraqqiyoti. Pedagogics jurnali, 1(1), 412-414.
4. S.Ayniy. Asarlar. 8 tomlik. 1-tom. Toshkent. 1963. 193-bet.
5. 8.Boltaboyev H. Fitrat va jadidchilik. Alisher Navoiy nomidagi milliy kutubxona nashriyoti. Toshkent-2007. 17-bet.
6. 9. Ertoy, 1924 yil, «Turkiston» gazetasi. 2-bet.

POYTAXT SHAHARLAR: TARIXIYLIK DAN ZAMONAVIYLIK SARI

Bayqabilov Xusnudin Mardanovich

Shahrisabz davlat pedagogika instituti, "Geografiya" kafedrasida dotsenti, geografiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya: maqolada jahon poytaxt shaharlarining tarixiy taraqqiyoti va zamonaviy talqini yoritilgan. Shuningdek, maqolada poytaxt shaharlarining geografik xususiyatlari asosida tasnifiy guruhlar tahlili bayon etilgan.

Калум сўзлар: Poytaxt, shahar, tarixiylik, zamonaviylik, tasnif, tasnifiy birliklar.

СТОЛИЦЫ: ОТ ИСТОРИЧЕСКОГО ДО СОВРЕМЕННОГО

Байкабилов Хуснудин Марданович

Шахрисабзский государственный педагогический институт, доцент кафедры «География», Доктор философии по географии (PhD)

Аннотация: в статье рассматривается историческое развитие и современная интерпретация мировых столиц. Кроме того, в статье описан анализ классификационных группировок на основе географических особенностей столиц.

Ключевые слова: Столица, город, историчность, современность, классификация, классификационные единицы.

CAPITAL CITIES: FROM HISTORIC TO MODERN

Baykabilov Xusnudin Mardanovich

Shahrisabz State Pedagogical Institututi, Associate Professor of the Department of Geography, Doctor of Philosophy in Geography (PhD)

Abstract: The article examines the historical development and modern interpretation of world capitals. In addition, the article describes the analysis of classification groupings based on the geographical features of capitals.

Key words: Capital, city, historicity, modernity, classification, classification units.

Kirish. Poytaxt davlat siyosiy- hududiy tuzilishining asosiy elementlaridan biri hisoblanadi. U nafaqat markaziy hokimiyat organlarining joylashuvi, balki mamlakat suverenitetini boshqarish markazi, shuningdek, birinchi navbatda davlatning ma'muriy – hududiy tuzilishiga, "markaz – hududlar" munosabatlari tizimiga va mintaqaviy siyosatiga ta'sir ko'rsatadigan, uning davlatchiligini shakllantiradigan, davom ettiradigan va o'zgartiradigan eng muhim elementidir. Aynan shu nuqtai nazardan, poytaxtni belgilash va uni ko'chirishga oid tarixiy jarayonlarni o'rganish, unga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash orqali qonunchilikda huquqiy tartibini alohida mustahkamlash dolzarbdir.

Asosiy qism. Jahonda mazkur yo'nalishdagi tadqiqotlarga, jumladan, geourbanistikada shaharlar taraqqiyotini ilmiy-nazariy asoslash, shaharlarni geografik xususiyatlari va nomlanish masalalarini tahlil etish va shaharsozlikning zamonaviy konseptual yondashuvlari asosida poytaxt shahrlar tipologiyasini ishlab chiqish kabi masalalarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Shuningdek, poytaxt shaharlar rivojlanishiga ta'sir ko'rsatuvchi tabiiy va iqtisodiy geografik omillarni ochib berish, poytaxt shaharlarni belgilash tendensiyalari, ko'chirish va kelajakda poytaxtlarni davriy prognozlash tendensiyalarini ilmiy asoslarini takomillashtirish muhim hisoblanadi.

O'zbekistonda jahon poytaxt shaharlarining taraqqiyoti yuzasidan yozilgan ishlarning aksariyatida ularning tarixiy qatlamlariga oid fikrlar bildirilgan. Biroq, bu qatlamlarga oid tahlillar hajman qisqa bo'lib, ularga oid ayrim mulohazalar aytilgan. Lekin, xorijiy mamlakatlar poytaxt shaharlarining tabiiy-geografik xususiyatlari va tipologik tahliliga doir fundamental tadqiqotlar amalga oshirilmagan. Bu esa majmualari tabiiy geografik, tizimli yondashuv, hududiy tahlil va umumlashtirishga asoslangan mazkur tadqiqotning dolzarbligini belgilab beradi [2].

Keyingi yillarda jahon miqyosida poytaxt shaharlar nomlarini xalqaro tashkilotlar tomonidan standartlashtirish, ularning yozilishi va talaffuzini qat'iylashtirish, hujjatlarda va xaritalarda nomlarning bir xilligini ta'minlashga oid muammolarga ustuvor ahamiyat berilmoqda. Jahon poytaxt shaharlarining nomlanishida ham mavjud tarixiy-geografik xususiyatlar bilan birgalikda ma'naviy va milliy qadriyatlar hamda an'analar u yoki bu darajada so'z (leksema) shaklida o'z muhrini bosganligi tabiiy [14]. Tadqiqot mavzusi toponimikada poytaxt shaharlarning

nomshunoslik bilan o‘zaro ta’siri masalalarini o‘rganishga ham yo‘l ochadi. Bu borada jahon hamjamiyati bilan aloqador tadqiqotlarni olib borishga alohida e’tibor berilmoqda.

1-jadval

Jahon mamlakatlari va poytaxtlarining bir xil nomlanishi

№	Mamlakatlar	Poytaxt shaharlari	Nomlanishiga nima asos bo‘lgan
1	Andorra	Andorra- la-Velya shahri	Tekislik nomi
2	Braziliya	Brazilia shahri	Mamlakat nomi
3	Vatikan	Vatikan shahri	Shahar-davlat
4	Gvatemala	Gvatemala shahri	Shaharning nomi
5	Gvineya-Bisau	Bisau shahri	Shaharning nomi
6	Gibraltar	Gibraltar shahri	Tog‘ning nomi
7	Jazoir	Al-Jazoir shahri	Shaharning nomi
8	Jibuti	Jibuti shahri	Qoyaning nomi
9	Lyuksemburg	Lyuksemburg shahri	Qal‘aning nomi
10	Monako	Monako shahri	Shahar-davlat
11	Panama	Panama shahri	Shaharning nomi
12	Salvador	San-Salvador shahri	Shaharning nomi
13	San-Marino	San-Marino shahri	Shahar-davlat
14	San-Tome va Prinsipi	San-Tome shahri	Shaharning nomi
15	Sen-Pyer va Mikelon	Sen-Pyer shahri	Shaharning nomi
16	Singapur	Singapur shahri	Shahar-davlat
17	Tunis	At-Tunis shahri	Shaharning nomi
18	Kuvayt	Al-Kuvayt shahri	Shaharning nomi

Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Jahon poytaxt shaharlari nomlarini to‘plash, ularning nomlanish asoslari va motivlanish xususiyatlari, tarixiy-geografik hamda lisoniy tuzilishini tahlil qilish zaruriyati yuzaga kelgan. Bunday tahlilni amalga oshirish uchun uning tadqiq metodologiyasi va metodlarini ishlab chiqish, poytaxt shaharlar nomlarining shakllanishiga vo‘sita bo‘lgan so‘zdan tortib, atoqli ot maqomiga yetguncha bo‘lgan toponimlashuv jarayonlari va tarixiy hamda tabiiy-geografik jihatlarini tahliliy talqin etish bilan ularning lug‘aviy qatlamlarini tahlil etish, so‘zlarning nom sifatida ob‘yektlarga ko‘chishiga oid qonunlarni belgilash geografiya va toponimika (aniqrog‘i, onomistika) oldida turgan muhim nazariy hamda amaliy muammolardan biridir [6].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 20-oktyabrdagi 841-son “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2018-yil 10-yanvarda “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 5623-sonli Prezident Farmoni, 2018-yil “2018-2022 yillarda aholi punktlarini bosh rejalar bilan ta‘minlash, loyiha tashkilotlari faoliyatini yaxshilash, shuningdek, shaharsozlik sohasida mutaxassislarni tayyorlash sifatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident qarori, 2019-yil 10-yanvar “Urbanizatsiya jarayonlarini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5623-sonli Farmoni, 2021 yil 22-fevral “O‘zbekiston Respublikasining Shaharsozlik kodeksini tasdiqlash haqida”gi O‘zbekiston Respublikasining qonuni, 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarda Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi farmonlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-huquqiy hujjatlar tadqiqot ishimizning huquqiy asosi sifatida xizmat qiladi [5].

Har qanday poytaxtning o‘zagini shahar tashkil qilishini inobatga olgan holda, xalqaro miqyosda shaharlar taraqqiyoti bo‘yicha bugungi kunda olib borilayotgan islohotlarni jahonning nufuzli tashkilotlarida qayd etishimiz mumkin. Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) Bosh

Assambleyasining 2015 yilning 27 sentabrida Barqaror rivojlanish bo'yicha o'tkazilgan Sammitida qabul qilingan 70-son rezolyutsiyasiga muvofiq "2030 yilgacha bo'lgan davrda BMT Global kun tartibining Barqaror rivojlanish maqsadlari"dir. Unda BMTga a'zo davlatlar uchun mazkur masala bo'yicha 17 ta maqsad va 169 ta vazifa tavsiya etilgan. Dasturning 11-maqsadi aynan "barqaror shaharlar va aholi yashash joylari"ga tegishlidir. Birlashgan Millatlar Tashkilotining aholi punktlari bo'yicha markazi (Habibat) aholi istiqomat qiladigan joylarning barqarorlashuvi, taraqqiyot siyosatini ishlab chiqish, qurilish uchun imkoniyatlar yaratish, bilimlarni to'plash va hukumatlararo hamda fuqarolik jamiyatlari bilan hamkorlikni mustahkamlashga yordam beradi [15]. Mazkur vazifalar va islohotlar, poytaxt shaharlarning shakllanishi va rivojlanishidagi hududiy farqlarni, evolyutsion taraqqiyotida tarixiylik va zamonaviylik xususiyatlarini o'rganish bo'yicha tadqiqotlarni taqazo etadi.

Davlat poytaxti – oliy iroda subyekti maqomini ifodalaydigan siyosiy markaz – poytaxt-shahar instituti shaklidagi davlat ramzi. Yaqin kelajakda "O'zbekiston Respublikasi poytaxtining maqomi to'g'risida"gi qonun loyihasini ishlab chiqish va qabul qilish ayni muddaodir. Bu, bir tomondan, qonun ijodkorligi sohasidagi shiddatli islohotlar rivojining mantiqiy talabi bo'lsa, ikkinchi tomondan, xorijiy mamlakatlarning ilg'or huquqiy tajribasi ham shuni taqozo etmoqda. Zero, bunday qonun dunyoning bir qator davlatlarida qabul qilingan [6].

2-jadval

Jahon poytaxt shaharlarining geografik xususiyatlari asosida tasnifiy guruhlari

№	Tasnifiy guruhlari	Poytaxt shahrlar nomlari va soni
I.	Tabiiy geografik xususiyatlariga ko'ra paydo bo'lgan poytaxtlar	Abu-Dabi, Addis-Abeba, Amsterdam, Andorra, Ar-Riyod, Asmera, Baku, Bangi, Bangkok, Bayrut, Baster, Bas-Ter, Belmopan, Berlin, Buenos-Ayres, Braziliya, Bryussel, Doxa, Dublin, Gavana, Jazoir, Jibuti, Juba, Kampala, Kanberra, Kigali, Kishinyov, Kobul, Konakri, Kuala-Lumpur, Lima, Lilongve, London, Male, Manila, Maputu, Maskat, Maseru, Minsk, Montevideo, Moroni, Moskva, Nayrobi, Nuakshot, Njamena, Reykyavik, Riga, Rozo, Oslo, Paramaribo, Praga, Praya, Pxenyan, Stokgolm, Tbilisi, Tehron, Tegusigalpa, Vaduts, Vilnyus, Vindxuk, Xanoy, Xartum, Xelsinki, Xoniara (64 ta)
II	Oykonimlar asosida vujudga kelgan poytaxtlar	Al-Kuvayt, Anqara, Antananarivu, Astana, Asunson, Ashxobod, Astana, Belgrad, Bamako, Bandar-Seri Begavan, Banjul, Brazzavil, Brijtaun, Budapesht, Buxarest, Dakar, Dushanbe, Fritaun, Islomobod, Jorjtaun, Katmandu, Kingstaun, Kingston, Kinshasa, Kohira, Kolombo, Kopengagen, La-Pas, Librevil, Lusaka, Lyuksemburg, Madrid, Managua, Mogadisho, Panama, Pekin, Port-Lui, Porto-Novo, Port-o-Prens, Port-of-Speyn, Port-Vila, Rabot, Sano, Sarayevo, Seul, Singapur, Skopye, Tallin, Tokio, Toshkent, Tripoli, Uagadugu, Varshava, Vena, Varshava, Vyentyan, Zagreb, Yamusukro, Yerevan (59 ta)
III	Tarixiy shaxslar nomi bilan atalgan poytaxtlar	Gaborone, Kastri, La-Valetta, Malabo, Mbabane, Monroviya, Nassau, Pretoriya, Rim, San-Marino, Ulan-Bator, Vashington, Vellington (12 ta)
IV	Diniy nomlar asosida paydo bo'lgan poytaxtlar	Afina, Ammon, Bag'dod, Bogota, Dakka, Damashq, Mexiko, Monako, Nikosiya, San-Tome, Santo-Domingio, San-Salvador, San-Xose, Santyago, Sent-Jons, Sent-Jorjes, Sofiya (17 ta)
V	Substrat poytaxtlar	Apia, Bairiki, Bishkek, Bujumbura, Dili, Funa-Fyti, Kiyev, Lome, Majuro, Manama, Neypido, Ngrulmud, Nukualofa, Palikir, Podgoritsa, Suva, Tunis, Tximpxu, Yaren (19 ta)

Jahon tarixida poytaxt shaharlarni tarixiy-geografik va tipologik tasnifiy guruhlashtirish ilmiy nuqtai nazardan maqsadga muvofiqdir.

3-jadval

Jahon poytaxt shaharlarining tasnifi va tavsifiy belgilari

T/r	Tasnifiy birliklar	Tavsifiy belgilari
1	Tabiiy-geografik tasnifi (joylashuviga ko'ra)	<i>Ushbu tasnifda poytaxt shaharlarning joylashuvi birinchi galda hisobga olinadi. Shaharning dengiz sathidan balandligi, orolda joylashganligi, dengizbo'yi yoki quruqlik ichida joylashganligi, shaharning tabiiy-geografik xususiyatlari haqida ma'lumotlar beriladi.</i>
2	Tarixiy-genetik tasnifi (shakllanishiga ko'ra)	<i>Tarixiy-genetik tasnifida esa poytaxt shaharning tarixiy taraqqiyoti va kelib chiqishi haqida so'z boradi. Bu tasnif o'z navbatida arxaik (qadimgi) poytaxtlar, perekolonial (mustamlakachilik siyosatidan oldingi) poytaxtlar, kolonial (mustamlaka davridagi) poytaxtlar, postkolonial (mustamlaka siyosatidan keyingi) poytaxtlar, imperial poytaxtlar, neytral (betaraf) poytaxtlar kabi turlarga bo'lishimiz mumkin.</i>
3	Morfologik tasnifi (tuzilishiga ko'ra)	<i>Tuzilishiga ko'ra poytaxt shaharlar port shaharlar, davlat-shahar tipidagi poytaxt shaharlar, federal poytaxtlar,</i>
4	Funksional tasnifi (vazifasiga ko'ra)	<i>Harbiy istehkom vazifasini bajargan poytaxt shaharlar, maxsus (faqat poytaxt vazifasini bajaruvchi) poytaxt shaharlar</i>
5	Etimo-semantik tasnifi (nomlanishiga ko'ra)	<i>Etnik (nomdagi poytaxtlar, sotsionim (ijtimoiy hayot bilan chambarchas bog'liq) poytaxt shaharlar, antroponim (mashhur shaxslar, davlat arboblari, harbiy zobitlarning ismi-sharifi bilan ataluvchi) poytaxtlar, davlat (mamlakat) nomi bilan bir xil ataluvchi poytaxtlar,</i>
6	Migratsion tasnifi (ko'chirilishiga ko'ra)	<i>Bu tasnifga dunyodagi barcha poytaxtlarni qabul qilish mumkin emas, albatta. Chunki poytaxt shaharning ko'chirish siyosati ehtimoliy nuqtai nazar bilan belgilanadi. Bu tabiiy ofatlar, siyosiy, harbiy, iqtisodiy sabablar orqali amalga oshiriladi.</i>

Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Davlatning tuzilishi va siyosiy tizimi hamda tarixiy an'analaridan kelib chiqqan holda poytaxtni belgilash va ko'chirish tartibi davlatlar o'rtasida bir-biridan farq qiladi. Poytaxtni belgilash va ko'chirish to'g'risidagi qaror odatda, davlat hokimiyatining oliy organlari (vakillik organlari), eng oliy mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilinadi [11]. Bugunga kunga kelib poytaxtni ko'chirishga ta'sir qiluvchi asosiy omillar sifatida tarixdan shakllanib kelgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy kabi omillarni qayd etish bilan bir qatorda, poytaxt aholisi sonining ortib borishi va u bilan bog'liq muammolarni bartaraf etish; noqulay geografik shart-sharoit va geosiyosiy vaziyatni yaxshilash; yangi hududlarni o'zlashtirish va rivojlantirish; poytaxt funksiyalarini qisman taqsimlash yo'li bilan milliy hukumatlarini yoki "eski", "an'anaviy" hududlarni modernizatsiya qilish va rivojlantirish zaruratini keltirish mumkin [13].

Poytaxtning mamlakat hayotida asosiy siyosiy markaz sifatidagi mavqei va ahamiyatini hisobga olgan holda O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va "O'zbekiston Respublikasining ma'muriy-hududiy tuzilishi to'g'risida"gi qonunida Toshkent shahrini poytaxt, shuningdek, mustaqil ma'muriy hududiy birlik sifatida alohida ko'rsatish va uni ko'chirish tartibiga oid normani mustahkamlash taklif etiladi [].

4-jadval

**Nomi o'zgargan poytaxt shaharlar ro'yxati
(935-2005 yillar oralig'i)**

№	Avvalgi nomi	Nomlanish sanasi	Hozirgi nomi	Geografik o'rni
1	Ikoziyum	935 yil	Al-Jazoir	Afrika
2	Kaparra	1521 yil	San-Xuan	Osiyo
3	Charlztaun	1696 yil	Nassau	Osiyo
4	Baytaun	1854 yil	Ottava	Amerika
5	Edo	1869 yil	Tokio	Osiyo
6	Finifinna	1889 yil	Addis-Abeba	Afrika
7	Pozsonu	1918 yil	Bratislava	Yevropa
8	Neyslel-Xuree	1921 yil 6 iyul	Ulan-Bator (Улаан-Батаар)	Osiyo
9	Tiflis	1936 yil	Tbilisi	Osiyo
10	Syudad-Truxilo	1961 yil	Santo-Domingo	Amerika
11	Leopoldvill	1966 yil	Kinshasa	Afrika
12	Fort-Lami	1973 yil	Njamena	Afrika
13	Lorensu-Markish	1975 yil	Maputu	Afrika
15	Solsberi	1982 yil	Xarare	Afrika
16	Baterst	1976 yil	Banjul	Afrika
17	Frunze	1991 yil	Bishkek	Osiyo
18	Titograd	1992 yil	Podgoritsa	Yevropa
19	Pretoriya	2005 yil	Tsvane	Afrika

Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Jahonning siyosiy xaritasi geografik xaritalar orasida eng tez o'zgaruvchan xususiyatga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Jahon mintaqalarida yuz berayotgan turli siyosiy jarayonlar ma'lum ma'noda uning miqdoriy o'zgarishiga ta'sir ko'rsatadi. Bu hol jahon mamlakatlari bilan uzviy bog'liqlikda poytaxt shaharlarni o'zgarishiga hatto tarixiy qayta nomlanishiga u yoki bu darajada ta'sir ko'rsatadi.

T.Akmataliyevning fikricha, poytaxtlarni ko'chirishning asosiy sababi – aholi sonining haddan tashqari ko'pligi va u bilan yuzaga kelgan muammolar, shuningdek, mamlakatning boshqa hududlarini rivojlantirish istagi bilan bog'liq [12]. Jumladan, 2019 yildan Indoneziya poytaxti Jakarta shahrini Sharqiy Kalimantan provinsiyasi hududiga ko'chirish bo'yicha qizg'in ishlar olib borilmoqda. Ko'chirishning asosiy omillari sifatida Jakarta aholisi sonining ko'paygani, infratuzilma tizimlarining haddan tashqari yuklangani va noqulay ekologik sharoit ko'rsatilmoqda. Shuningdek, Janubiy Koreya, Eron, Argentina davlatlarida poytaxtni ko'chirish rejalashtirilayotgan bo'lsa, Rossiya, Fransiya, Ozarbayjon, Angliya, Yaponiya, Meksika, Ispaniya kabi davlatlarda poytaxtni ko'chirish bo'yicha qizg'in muhokamalar olib borilmoqda. Yuqoridagi tahlillardan kelib chiqib, quyidagi ilmiy-nazariy xulosalar va qonunchilikni takomillashtirishga qaratilgan takliflar ilgari suriladi:

birinchidan, poytaxtni ko'chirish tendensiyasi uzoq ming yilliklarga borib taqaladi va davrlar o'tishi bilan o'z aktualligini yo'qotmaydi;

ikkinchidan, poytaxtni o'zgartirishga ta'sir qiluvchi omillar dinamik xususiyatga ega bo'lib, jamiyat rivojlanishi va uning manfaatlariga hamohang ravishda o'zgarib boradi;

uchinchidan, davlatning tuzilishi va siyosiy tizimi hamda tarixiy an'analaridan kelib chiqqan holda poytaxtni belgilash va ko'chirish tartibi davlatlar o'rtasida bir-biridan farq qiladi.

Poytaxtni belgilash va ko'chirish to'g'risidagi qaror odatda, davlat hokimiyatining oliy organlari (vakillik organlari), eng oliy mansabdor shaxslari tomonidan qabul qilinadi. Shaharsozlikda va shaharlarning rivojlanishini rejalashtirishda geografik omilni hisobga olmaslik mazkur turdagi aholi manzillari taraqqiyotiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [4].

5-jadval

Poytaxti o'zgargan mamlakatlar ro'yxati (1299-2024 yillar oralig'i)

№	Avvalgi poytaxt	Kochirilish sanasi	Hozirgi nomi	Mamlakat nomi
1	Bergen	1299 yil	Oslo	Norvegiya
2	Trakay	1323 yil	Vilnyus	Litva
3	Krakov	1596 yil	Varshava	Polsha
4	Filadelfiya	1800 yil	Vashington	AQSH
5	Mendosa	1880 yil	Buenos-Ayres	Argentina
6	Melburn	1908 yil	Kanberra	Avstraliya
7	Kioto	1911 yil	Tokio	Yaponiya
8	Kalkutta	1911 yil	Dehli	Hindiston
9	Sankt-Petrburg	1919 yil	Moskva	Rossiya
10	Smolensk	1919 yil	Minsk	Belorus
11	Istanbul	1923 yil	Anqara	Turkiya
12	Kristianiya	1924 yil	Oslo	Norvegiya
13	Zinder	1926 yil	Niamey	Niger
14	Samarqand	1930 yil	Toshkent	O'zbekiston
15	Xarkov	1934 yil	Kiyev	Ukraina
16	Kaunas	1940 yil	Vilnyus	Litva
17	Sen-Lui	1958 yil	Nuakshot	Mavritaniya
18	Rio de-Janeyro	1960 yil	Brazilia	Braziliya
19	Karachi	1969 yil	Islomobod	Pokiston
20	Beliz	1970 yil	Belmopan	Beliz
21	Dor us-Salom	1973 yil	Dodoma	Tanzaniya
22	Abidjan	1983 yil	Yamusukro	
23	Bonn	1990 yil	Berlin	Germaniya
24	Alma-Ata	1997 yil	Astana	Qozog'iston
25	Rangun (Yangon)	2005 yil	Neypido	Myanma
26	Jakarta	2024 yildan	Nusantaroy	Indoneziya

Jadval muallif tomonidan tuzilgan.

Xulosalar. Poytaxt shaharlar maqomini tasniflanishida xalqaro hamjamiyat tomonidan to'liq tan olinmagan mamlakatlarning ma'muriy markazlarini alohida tasniflash obyekt sifatida qarash mumkin. Ushbu ma'muriy markazlar poytaxt sifatida e'tirof etilmaydi. Mamlakatlarning mustaqillika erishishi va muayyan davlatlarning bo'linib, alohida davlat maqomiga ega bo'lishi

suveren davlatlar sonining ortishiga, yoki aksincha, orollarda joylashgan ba'zi mamlakatlarning suv ostida qolishi (tabiiy ofatlar sababli) hamda mamlakatlarning o'zaro birlashuvi (siyosiy sabablarga ko'ra) tufayli ular sonining kamayishiga olib keladi. Demak, mamlakatlar soni suveren davlatlar sonidan hamisha ko'p va dinamik (o'zgaruvchan) xususiyatga egaligi bilan izohlanadi. Bu o'zgarish albatta o'z o'rnida poytaxt shaharlarni ham chetlab o'tmaydi. Tarixiy va tabiiy sharoitni shaharsozlik nuqtai nazardan o'rganishning ilmiy-uslubiy asoslarini poytaxt shaharlar misolida ishlab chiqish va umumiy xulosalar berish kelajakda poytaxt shaharlarni joylashtirishda ahamiyati katta. Shaharlar rivojlanishining tarixiy hamda geografik asoslari bilan respublikamizda ko'plab olimlar shug'ullanishgan. Ularning ilmiy ishlarida ayrim shaharlar shakllanishiga tabiiy geografik tavsif, shaharlarning geomorfologiyasi va mikroiklimiga va tarixiy shakllanishi hamda rivojlanishiga ta'rif berilgan. Biroq, O'zbekistonda poytaxt shaharlar bo'yicha ilmiy ishlar mukammal darajada yakunlanmagan. Jahon tarixida hanuzgacha poytaxt shaharlar bo'yicha alohida konsepsiya yaratilmagan. Ayrim mamlakatlarda poytaxt maqomi bo'yicha maxsus federal qonunlar bo'lishiga qaramasdan, aksariyat mamlakatlarda hozirgi vaqtda ham poytaxt shaharlarni belgilash, ko'chirish va nomini o'zgartirish kabi masalalar dolzarbligicha qolmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Arzikulova D. Zamonaviy shaharlar – T.: “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti, 2019, - 80 b.
2. Bayqabilov X.M. Poytaxt shaharlarning geografik joylashuvida relyefning ahamiyati // Nukus davlat pedagogika instituti FAN va JAMIYAT (ILIM ham JAMIYET). ISSN 2010-720X, 2024 (№1). – B. 36-38
3. Voronova E. Dunyo shaharlari. Ensiklopediya. – T.: MChJ “DAVR NASHRIYOTI”, 2012. – 208 b.
4. Байқабиллов Х.М. Пойтахт шаҳарларни кўчириш режалари // “O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda moddiy-madaniy yodgorliklar va muzeylarning o'rni (Qashqadaryo moddiy-madaniy yodgorliklari va muzeylari misolida):” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami materiallari, Shahrisabz, 2022 yil 5 may, I –qism, – B. 30-37.
5. Байқабиллов Х.М. Жаҳон пойтахт шаҳарларининг тарихий ва замонавий типологияси // “Yangi O'zbekistonda iqtisodiy va ijtimoiy geografiya fani: rivojlanish muammolari va istiqbollari” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami materiallari, Toshkent, 2023 yil 19-20 may, – B. 49-55.
6. Байқабиллов Х.М. География таълимида жаҳондаги баъзи пойтахт шаҳарлар номланишига оид баҳс-мунозарали масалалар // “Antropogen landshaftshunoslik: tadqiqot metodlari, modernizatsiya va barqaror rivojlanish” mavzusidagi Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyasi to'plami materiallari, Samarqand, 2024 yil 17-18 may, – B. 239-243.
7. Боднарский М.С. Географик номлар луғати –Т.: “Ўрта ва олий мактаб” 1961, 459 б.
8. Дарон А., Робинсон Ж.А Мамлакатлар таназули сабаблари: кудрат, фаровонлик ва камбағаллик манбалари. – Т.: “Ofset-print” МСНЖ, “Nihol” nashriyoti, 2021. – 672 б.
9. Нигматов А.Н., Байқабиллов Х.М. Жаҳон мамлакатлари номларининг географик ва топонимик асослари. Монография. Қарши: ”Насаф” НМИУ, 2021. – 156 б.
10. Эштемиров Ж. Zamonaviy shahar: tarix va tadqiq // Tafakkur, 2024, №2. – B. 87-88.
11. Ҳамроев Э. Пойтахтларни белгилаш ва кўчириш тенденцияси ўзига хос хусусиятлар // “Нуқуқ ва Burch”, 2020, №9. – B. 16-23.
12. Акматалиев Т. Строительство новой столицы: позитивное влияние на экономическое развитие страны // Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана. №9, 2016. – С. 80.
13. Baykabilov K.M. Capital city relocation policy (factors and reasons) // «Обеспечение устойчивого развития в контексте географии, зеленой экономики, экологии и туризма» в двух томах материалы II Международной научно-практической конференции Том II. Актюбинск, 2022 г 30 ноябрь, 744 с. Б. 7-14 ст.
14. Bayqabiov X. M., Nigmatov A. N., Mirackmalov M.T., Karakulov N. M. Toponomic analysis of world countries degree of learning toponomic classification and natural geographical aspects (examples of European countries) // Internation journal of recent Technology and Engineering. Volume 8, Issue 4, November 2019. 814-819 pg. <https://www.scopus.com/sourceid/21100889873>
15. Internet sayt: wikipedia.org

NEMIS VA FRANSUZ TARIXSHUNOS OLIMLARINING SAMARQAND TARIXIGA OID MA'LUMOTLARI MANBA SIFATIDA

Imomov Ulug'bek Ismoilovich

*Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
«Tarixshunoslik va manbashunoslik» kafedrasi tadqiqotchisi*

Annotatsiya: Amir Temur va Temuriylar davridagi Samarqand shahri tavsifi, Zarafshon vohasi hududi davri tarixi, O'rta Osiyo xonliklari davrida Samarqand tarixshunosligi xorijiy ilmiy adabiyotlar va qo'lyozamalarda ham keng tadqiq qilingan. Xususan, Germaniya va Fransiya tarixshunos olimlarining Amir Temur shaxsi va uning faoliyati, O'zbek xonliklari davrida aholining ijtimoiy-iqtisodiy holati va Samarqand shahrining XV-XIX asrlardagi siyosiy ahvoriga qiziqishi bundan 5 asr muqaddam boshlangan. Ushbu maqolada nemis va fransuz tarixshunos olimlari tomonidan Samarqand tarixiga oid tarixiy-manbaviy ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: G'arbiy Yevropa, Samarqand, Klavix, fon Zoldern, Starr, Shaffanjon, Leman, Norman, per Gabriel, me'moriy obidalar, tarixshunoslik.

ИНФОРМАЦИЯ ПО ИСТОРИИ САМАРКАНДА НЕМЕЦКИХ И ФРАНЦУЗСКИХ ИСТОРИКОВ КАК ИСТОЧНИК

Имамов Улугбек Исмаилович

*Самаркандского государственного университета им. Шарофа Рашидова
Научный исследователь отделение «Историография и источниковедение»*

Аннотация: Описание города Самарканда во времена Амира Темура и Тимуридов, история Заравшанского оазиса, историография Самарканда во времена среднеазиатских ханств широко исследованы в зарубежной научной литературе. В частности, интерес немецких и французских историков к личности и деятельности Амира Темура, социально-экономическому положению населения в период Узбекских ханств, политическому положению города Самарканда в XV-XIX веках начался в 5 вв. назад. В данной статье немецкие и французские историки проанализировали исторические и источниковые данные по истории Самарканда.

Ключевые слова: Западная Европа, Самарканд, Клавиго, фон Зольдерн, Старр, Шаффанджон, Леманн, Норман, Пьер Габриэль, памятники архитектуры, историография.

INFORMATION ON THE HISTORY OF SAMARKAND FROM GERMAN AND FRENCH HISTORIOGRAPHS AS A SOURCE

Imamov Ulugbek Ismailovich

*Samarkand State University named after Sharof Rashidov
Researcher of the department of «Historiography and Source Studies»*

Abstract: Description of the city of Samarkand during the times of Amir Temur and the Timurids, history of the Zarafshan oasis, historiography of Samarkand during the times of the Central Asian khanates have been widely studied in foreign scientific literature. In particular, the interest of German and French historians in the personality and activities of Amir Temur, the socio-economic situation of the population during the period of the Uzbek khanates, the political situation of the city of Samarkand in the 15th-19th centuries began 5 centuries ago. In this article, German and French historians analyzed historical and source data on the history of Samarkand.

Key words: Western Europe, Samarkand, Clavijo, von Soldern, Starr, Chaffangjon, Lehmann, Norman, Pierre Gabriel, architectural monuments, historiography.

KIRISH. Yevropada Samarqand haqida bilimlar undan oldingi davrlarda ham paydo bo'lgan lekin Yevropa olimlari tomonidan shaharning chuqur ilmiy tahliliy o'rganilishi ikki bosqichga bo'lingan: Birinchidan, Amir Temur davrida sharqning eng qudratli davlatiga aylangan Temuriylar davlati va uning poytaxti Samarqandning gullab yashnashi, Amir Temur bilan Yevropa davlatlari o'rtasidagi yaxshi yo'lga qo'yilgan elchilik aloqalari bo'lsa; Ikkinchidan esa XIX asr o'rtalaridan Rossiya imperiyasi tomonidan amalga oshirilgan mustamlakachilik siyosatini o'rganish, butun Markaziy Osiyoda Yevropalik davlatlarda ham katta qiziqish uyg'otib, hududga ko'plab ilmiy ekspeditsiyalar uyushtirilgan.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA. 1553-yili Italiyaning Florensiya shahrida Perondino degan olimning «Skifiyalik Tamerlanning ulug'vorligi» asari bosilib chiqdi. Kitobda Amir Temur va Yevropada uning yurishlari haqidagi ilk qarashlar ilgari surilgan. Shuningdek Samarqand, Amir Temur davridagi shahardagi obodonchilik ishlari, qurilish, aholi, qishloqlari haqida qimmatli ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

Rui Gonsales de Klavixoning «Samarqandga, Temur saroyiga sayohat kundaligi (1403-1406)» [1] asari Yevropa tillarida (ispan, ingliz, fransuz) bosilib chiqqan yozma manbalar orasida birinchi o'rinda turadi, albatta. Bu asarni birinchi marta Gonsal Argote de Molina Madridda nashr ettirgan. 1582-yildan to professor Lyusen Keren so'nggi tarjimini keng izohlar bilan e'lon qilgan 1990-yilgacha «Kundalik»ning jami 10 ta tarjimasi, shu jumladan Argentinada, 1958 yili esa fors tilidagi tarjimasi bosilib chiqdi.

Fon Zoldern Sharq xalqlarining tilida Samarqandni: «Jahon jannati – Yer yuzi – Alloh rozi bo'lgan bog'dir» [2] – deb ta'kidlagan. Normanning o'zining asarida, Samarqand Afina, Rim va Konstantinopoldan keyin dunyoning eng hashamatli shahri sifatida sifatida qayd etgan. [3] Bundan tashqari, Samarqand ilm-fanning mashhurligi va yodgorliklarining ulug'vorligi nuqtai nazaridan Afina bilan tenglasha olgan. [4] Lemanning fikricha, Samarqand karvonsaroylari Temuriylar davrida Xitoy, Hindiston va Fors o'rtasidagi ko'prik vazifasini bajargan. [5] Demak bundan ko'rinib turibdiki, Samarqand tarixining yoritilishi G'arb mamlakatlari tarixshunos olimlarining qiziqishlari markazida turgan.

Fredrik Starrning qayd etishicha, bu davrda ingliz sayyohi Aderlard islom olamidagi ilmiy yutuqlar bilan tanishish uchun keladi va qaytishda sharq mutafakkirlarining asarlaridan nusxalarini o'zi bilan olib qaytadi va bu asarlar lotin tiliga tarjima qilinib, Yevropa bo'ylab tarqatiladi. [6] Keyingi davrlarda aynan XV-XIX asrlarda Yevropadan ko'plab sayyohlar, elchilar davlatimiz hududiga tashrif buyurgan va ularning eng ko'p oqimi XIX asrda kelgan deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Arxiv ma'lumotlariga ko'ra, 1890-1898 yillarda Turkistonga jami 260 nafar xorijiy sayyoh va tadqiqotchilar tashrif buyurib, ular tarkibida 75 nafar ingliz, 70 nafar nemis, 57 nafar fransuz, 24 nafar avstriya-vengriyalik, 15 nafar amerikalik, 7 nafar daniyalik, 4 nafar belgiyalik, 4 nafar italiyalik, 3 nafar shveysariyalik, 1 nafar ispaniyalik bor edi. [7]

Afg'oniston Buyuk Britaniya mustamlakasi Hindiston va Rossiya mustamlakasi O'rta Osiyoni ajratib turadigan hudud bo'lgan. O'lkaga eng ko'p qiziqish bildirgan keyingi davlatlar bular, fransuzlar va nemislar bo'lishgan. O'sha vaqtda bu davlatlar ham Yevropaning eng qudratli mustamlakachi davlatlari bo'lishgan. Bu davrda Markaziy Osiyoni o'rganishda davriy matbuot alohida o'rin tutgan. Uning sahifalarida Turkiston, Buxoro va Samarqand tarixi, siyosiy ahvol, mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy holati, siyosiy ahvoli, Rossiya ekspansiyasi masalalari, ilmiy ekspeditsiya natijalariga oid maqola va xabarlar muntazam ravishda berib borilgan. Fransiyada ilk ilmiy davriy nashr – “Journal des Savants” XVII asrda paydo bo'lgan. Ushbu jurnalda mintaqa tarixiga oid muhim ma'lumotlar XIX asrning 30-40 yillarida chop etilgan. [8]

NATIJALAR. Ilmiy ekspeditsiyalar natijalari yozilgan materiallar xilma-xil ilmiy maqolalar, jurnallar, kundaliklar, illustratsiyalar, Turkiston o'lkasining ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy va madaniy hayotiga oid hisobot ko'rinishidagi ilmiy materiallar hisoblanib, ularda Samarqand, Buxoro, Turkiston, Zarafshon vodiysi aholi madaniyati, etnik tarkibi, o'lkaning geografik ko'rinishi kabi ma'lumotlarga boyligi bilan ajralib turadi. Geografik o'lkashunoslikka oid maqolalar asosan «Annales des voyages», «Bulletin de la Societe de Geographie», «L'Exploration», «Revue de Geographie», «Revue géographique internationale» kabi jurnallarda chop etilgan.

Fransuzlar uyushtirgan ekspeditsiyalarning eng yirik natijalaridan biri 1878-1880-yillarda Parijda M.Sh.Ujfalviyning – «Expedition scientifique Franfaise en Russie, en Sibirie et dans le Turkestan» – «Rossiya, Sibir va Turkistondagi fransuz ekspeditsiyasi» nomli olti jildidan iborat asarida chop etilgan. Ushbu kitobning har bir jildi, o'ziga xos xususiyatga ega bo'lib, ekspeditsiyaning turli bosqichlariga bag'ishlangan. Xususan, asarning ikkinchi jildida Sirdaryo havzalari, Toshkent, Samarqand va Yettisuv hududi tasvirlangan. [9]

Ushbu hududlarning asosan geologik, arxeologik va etnologik sohalaridagi ilmiy ma'lumotlariga alohida to'xtab o'tilgan. Bu ekspeditsiya materiallari Sank-Peterburg va Parijdagi katta ilmiy konferensiyalarda ham tanishtirilgan. Ekspeditsiya yakunlangach, turli xil hisobotlar, materiallar, maqolalar yozilgan. Qo'lga kiritilgan ashyolar ekspонат holiga keltirilib, Yevropada turli ko'rgazmalarda ilm-fan ahliga namoyish etilgan. Bundan tashqari, ekspeditsiya so'ngida M.Sh.Ujfalviy Samarqandda Afrosiyob, Go'ri Amir, Shohizinda, Bibixonim, Tillakori, Sherdor va Ulug'bek madrasalariga borgan. Asrlar davomida bu inshootlar Samarqandning "sayqali" bo'lib kelayotganligi, shundan dalolatdir.

Bonvalot Per Gabreil fransuz tadqiqotchilari orasida mintaqani chuqur o'rgangan va juda ko'plab boy ma'lumotlar qoldirgan shaxs edi. Uning "Markaziy Osiyoda. Ko'histondan to Kaspiy dengizigacha" asarida Samarqandning o'ziga xos xususiyatlari, Go'ri Amir, Shohizinda, Bibixonim kabi tarixiy obidalar, Amir Temurning taxti uchun poydevor bo'lgan ko'ktosh haqida ma'lumotlar keltirib o'tilgan. [10]

Markaziy Osiyo mintaqasiga 1894-1895 yillarda maxsus ilmiy ekspeditsiya bilan tashrif buyurgan Jan Shaffanjon (Jean Chaffanjon, 1854-1913) mutaxassisligi bo'yicha tabiatshunos bo'lib, u Lion ilmiy-tarixiy muzeyining xodimi hisoblangan. [11] Shaffanjon tomonidan Samarqand Afrosiyob yodgorligida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar muvaffaqiyatli bo'lmagan, sababi, ekspeditsiya a'zolari uchun shaharning tarixiy ahamiyatini o'rganish muhim emas, aksincha, Afrosiyobda qadimgi sivilizatsiya mavjudligini isbotlovchi noyob san'at na'munalarini izlab topish maqsadi muvofiq edi. Shu maqsadda asosiy e'tibor imkon boricha ko'proq topilma qazib olishga qaratilgan.

MUHOKAMA. Shaffanjon qazishma ishlaridan ko'ngli to'lmagach, rus hukumatidan sapyorlarni jalb etishni so'rab murojaat qilgan. Porox yordamida Afrosiyob xarobalarida ko'plab ekspонатlar kompleks holda yig'ib olingan, buni natijasida shaharga katta zarar yetkazilgan. Shaffanjon Parijga qaytgach, «Journal des Debats» sahifalarida ilmiy ekspeditsiya haqida qiziqarli ma'lumotlar e'lon qilgan. Unda Poykand, Marv, va Afrosiyob hududlarida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar, Amir Temurning Samarqand va Jizzaxda qurdirgan tarixiy yodgorliklari haqidagi ma'lumotlar o'z aksini topgan. [12]

Parij geografiyasi jamiyati a'zosi Gyugo Kraft tomonidan 1898-1899-yillarda Kaspiy ortiga sayohat uyushtirilib, u o'z sayohatini Turkiston orqali amalga oshiradi. U o'z asarlarida Samarqandning yirik tarixiy obidalari Go'ri Amir, Bibixonim, Shoxi Zinda, Registon haqida ma'lumotlar keltirilgan. Samarqandning makedoniyalik Aleksandrardan mug'illar istilosigacha bo'lgan davr tarixi bayon qilingan. Gyugo Kraftning mazkur asarida mahalliy aholi, yahudiy va ruslarning kiyimlari va an'anaviy hunarmandchilik mahsulotlarini tayyorlash va sotish jarayonlari haqida etnografik ma'lumotlar o'rin olgan. [13]

Fransuzlar tomonidan Samarqandning me'moriy obidalari va aholisi bilan bir qatorda bu hududda qurilayotgan temiryo'llar haqida ham alohida ma'lumotlar qoldirilgan. Fransuz Fransua Lissips tomonidan Orenburgdan Samarqandgacha, Samarqanddan Peshavorgacha quriladigan temir yo'llarning 12000 km haqida o'z yozishmalarida alohida to'xtalib, Samarqand haqida kerakli ma'lumotlarni berib o'tgan. Yuqorida qayd etilgan asarlar Fransiyadagi mashhur nashriyotlarda chop etilib, Yevropa tarixshunosligida munosib o'rin topgan. Shuningdek, Markaziy Osiyodan olib ketilgan moddiy topilmalar Luvr, Bern, Gime va Trokadero muzeylarida bugungacha saqlanib kelinmoqda. [14]

Germaniya sharqshunoslik maktablari tilshunoslik va turkologiya bo'limlaridan iborat bo'lib, keyinchalik sharqni bu usulda o'rganish Rossiya maktablariga ham ko'chdi. O'lkada keng tadqiqotlar olib borgan nemis mutaxassislaridan biri Maks Albrect bo'lib, 1893-yilning kuzida u turmush o'rtog'i bilan Turkistonga keladi. Uning ushbu safar jarayonida ma'lumotlari va taassurotlari asosida yozilgan asari o'lkada tarixi va hayotiga oid boy ma'lumotlarga egaligi bilan ajralib turadi. [15]

Maks Albrect o'z izlanishlari asosida qachonlardir Zarafshon daryosi Chorjuy shahri yaqinida Amudaryoga quyilgan, degan xulosaga keladi. Amudaryoning nomi xitoychada «Non daryo», ya'ni mamlakatni boquvchi daryo ma'nosini anglatishini, Zarafshon vodiysi esa yer yuzidagi dehqonchilik uchun eng yaxshi hosildor yer ekanligini aytib o'tgan edi. Bundan shuni xulosa qilsa bo'ladiki, Zarafshon uning markaziy shahri Samarqand turli davrlar mobaynida Buxoro amirligi, shuningdek mavjud tarixiy davlatning markazi bo'lib kelmoqda.

XULOSA.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, Nemis va fransuz olimlarini Samarqand haqidagi fikrlari va qarashlari XIX asrning boshlaridan ko'paygan. Bunga sabab hududga mustamlakachi davlatlarning ko'z olaytira boshlashi, buyuk davlatlarning o'lkaning ijtimoiy-iqtisodiy hayotiga qizishni kuchaytirgan deb aytsak mubolag'a bo'lmaydi. Asosan sayyohlar tomonidan shaharning geografik va geologik holati, shaharning aholisi, ijtimoiy-iqtisodiy holati, aholi tarkibi, turli millatlarning yashash tarzi, udumlar va shu kabi masalalarga alohida to'xtab o'tilgan. Shahardagi rus hukumati siyosati, ma'muriy boshqaruvga alohida urg'u berilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Руи Гонсалес де Клавихо. Дневник путешествия в Самарканд ко двору Тимура (1403-1406). – Москва: 1990
2. Schubert von Soldern. Die Baudenkmale von Samarkand. – Wien: 1898. – P: 6.
3. Henry Norman. All the Russias Travels and Studies in Contemporary European Russia, Finland, Siberia, the Caucasus and Central Asia. – London: William Heinemann, 1902. – P: 319.
4. O'sha asar. – P: 248.
5. Alexander Lehmann. Reise nach Buchara und Samarkand. – St. Petersburg: 1852. – P: 145.
6. Xolov Vohid. Markaziy Osiyoga oid dastlabki bilimlarning Buyuk Britaniyada paydo bo'lishi // Tarixiy manbashunoslik, tarixnavislik, tarix tadqiqotlari metodlari va metodologiyasining dolzarb masalalari // Respublika XII ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. – Toshkent: 2020.
7. Rasulova D.B. Turkiston o'lkasida xorijiy sayyoh va tadqiqotchilar faoliyati tarixidan (XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlari) // SamDU Ilmiy axborotnomasi. – Samarqand: 2019. № 4.
8. Ziyayeva D.H. O'zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar (XIX-XX asr boshlari). – Toshkent: 2022. – B: 354.
9. O'sha asar. – B: 355.
10. Bonvalot Per Gabriel. In Central Asia: from Kohistan to the Caspian Sea (voyage 1880-1882). – Paris: 1885.
11. Ziyayeva D.H. O'zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar (XIX-XX asr boshlari). – Toshkent: 2022. – B: 356.
12. Отправление ученой экспедиции господина Шаффанджона в путешествие // Туркестанские ведомости. – Ташкент: 1895.
13. Ziyayeva D.H. O'zbekiston tarixiga oid manba va tadqiqotlar (XIX-XX asr boshlari). – Toshkent: 2022. – B: 359.
14. O'sha asar. – B: 360.
15. Henry Norman. All the Russias Travels and Studies in Contemporary European Russia, Finland, Siberia, the Caucasus and Central Asia. – London: William Heinemann, 1902. – P: 422.

AMIR TEMUR HOKIMIYAT TEPASIGA KELISH ARAFASIDA MOVAROUNNAHRDA URUG' QABILALARINING JOYLASHUVI XUSUSIDA...

*Orziev Mahmud Zaynievich,
Buxoro davlat universiteti "Arxeologiya va Buxoro tarixi" kafedrası t.f.f.d. (PhD) dosent.*

*Beknazarov Sobirjon Barotboy o'g'li,
Xalqaro innovasion universitet o'qituvchisi, mustaqil talqiqotchi*

Annotasiya: Ushbu maqolada Movarounnarhni mo'g'ullar tomonidan istilo qilinganidan keyin yurtimizga kirib kelib o'rnasha boshlagan turk-mo'g'ul qabilalari, ularning joylashuvi, 1269 yilda Talas vodiysida bo'lgan qurultoyda Chig'atoy ulusining bir qismini yana bir chingiziy Xaydu bosib olishi va Chig'atoy ulusidagi turk-mo'g'ul qabilalarini ayrimlari Movarounnahrga ko'chirib yuborilishi, ularning o'troqlashuvi va joylashuvi masalalari yoritilgan. Shuningdek, Movarounnahrdagi turk-mo'g'ul qabilalarining joylashgan hududidan qachon va qaerga ko'chganligi, ko'chishning sabablari, urug' qabilalar joylashgan yerlar tavsifi masalalari, urug'-qabilalarning Chig'atoy ulusida tutgan o'rni, nufuzi va siyosiy jarayonlarda ishtiroki, tarixiy taqdiri masalalari, urug'-qabilalarning udel mulk olish uchun xon saroyida o'tashi lozim bo'lgan majburiyatlar, siyosiy jarayonlardagi o'zgarishlar bilan urug'-qabilalarning nufuzini oshishi va pasayishi masalalari, urug'-qabilalarning keyingi taqdiri masalalari, amir Qazag'an va Movarounnahrdagi siyosiy parokandalik davrida turk-mo'g'ul qabilalarining hokimiyat uchun kurashga ishtirok etishlari, o'z mutaqil boshqaruvlariga erishish yo'lidagi kurashlari, Amir Temur va amir Husaynlarning jeta mo'g'ullariga qarshi kurashi jarayonida turk-mo'g'ul qabilalarining ishtiroki va Amir Temurning Movarounnahrdagi hokimiyat tepasiga kelishi arafasida urug'-qabilalar joylashgan hududlar xususida atroflicha ma'lumotlarni tarixiy adabiyotlarda keltirilgan fakt va dalillarga tayanib yoritib berilgan.

Kalit so'zlar: Urug', qabila, joylashuv, hokimiyat, kurashlar, parokandalik, o'zaro kurashlar, ulus, hukumron, saroy, chorva, yaylov

ПО ПОВОДУ РАСПОЛОЖЕНИЯ РОДОВЫХ ПЛЕМЕН В МОВАРУННАХРЕ НАКАНУНЕ ПРИХОДА К ВЛАСТИ АМИРА ТЕМУРА...

*Орзиев Махмуд Зайниевич,
Бухарский государственный университет Кафедра «Археология и история
Бухары» к.ф.н. (доцент) доцент.*

*Бекназаров Собирджона Баротбаевич,
Преподаватель Международного инновационного университета, независимый
издатель*

Аннотация: В данной статье тюрко-монгольские племена, проникшие в нашу страну после завоевания Моваруннарха монголами, их размещение, а также другая часть Чигатайского улуса на съезде, состоявшемся в Таласской долине в 1269 году, были отданы другому Чингису. Ханское завоевание и часть тюрко-монгольских племен Чигатайского улуса были переселены в Мовароуннахр, их расселение и местонахождение были прикрыты. Также, когда и куда тюрко-монгольские племена в Мовароуннахре переселились из этого района, причины миграции, вопросы описания земель, на которых расположены роды, место родов в Чигатайском улусе, их влияние и политические процессы, вопросы участия, историческая судьба, обязательства, которые должны пройти роды в ханом дворце для получения земельной собственности, вопросы увеличения и уменьшения влияния родов при изменении политических процессов, вопросы дальнейшей

судьбы родов, эмир В период политического хаоса в Казагане и Моваруннахре, тюрко-монгольские племена участвовали в борьбе за власть, своей борьбе за достижение своего независимого правления, а также в борьбе Амира Темура и Амира Хусейна против Джета-монголов накануне участия Гюлей. племен и прихода к власти Амира Темура в Моваруннахре, на основе фактов и свидетельств, представленных в исторической литературе, освещаются подробные сведения о территориях расположения родов и племен.

REGARDING THE LOCATION OF CLAN TRIBES IN MOVAROUNNAHR ON THE EVE OF AMIR TEMUR COMING TO POWER...

Orziev Mahmud Zaynievich,
Bukhara State University «Archaeology and History of Bukhara» Department Ph.D.
(PhD) associate professor.

Beknazarov Sobirjon,
Teacher of the International Innovation University, independent publisher

Abstract: In this article, the Turko-Mongol tribes that entered our country after the conquest of Movarounnarh by the Mongols, their location, and another part of the Chigatai ulus in the congress held in the Talas Valley in 1269, were given to another Genghis Khan. The Khaydu conquest and some of the Turko-Mongol tribes in the Chigatay ulus were moved to Movarounnahr; their settlement and location were covered. Also, when and where the Turko-Mongol tribes in Movarounnahr moved from the area, the reasons for the migration, the issues of the description of the lands where the clans are located, the place of the clans in the Chigatoy ulus, their influence and political processes issues of participation, historical destiny, the obligations that clans must pass in the khan's palace to receive land ownership, issues of increasing and decreasing influence of clans with changes in political processes, issues of the future fate of clans, emir During the period of political chaos in Kazaghan and Movarunnahr, Turko-Mongol tribes participated in the struggle for power, their struggle to achieve their independent rule, and the struggle of Amir Temur and Amir Husayn against the Jeta Mongols. On the eve of the participation of the Gul tribes and Amir Temur's coming to power in Movarunnahr, detailed information about the areas where the clans and tribes are located is covered based on the facts and evidence presented in the historical literature.

Kirish. Ma'lumki, XIII asr boshida Movarounnahr hududini Chingizxon boshchiligidagi turk-mo'g'ul qabilalari bosib olgan edi. Chingizxon vafotidan oldin o'zi istilo qilgan hududlarni o'g'illari o'rtasida taqsimlagan bo'lib, Movarounnahr hududi uning ikkinchi o'g'li Chig'atoyxonga ulus sifatida berilgan. Shuningdek, Chig'atoyxonga xizmat qilish uchun Chingizxon turk-mo'g'ul qabilalarini ham bir qismini bergan bo'lib, o'z navbatida Chig'atoyxon ularni o'z ulusi hududlarida yer, yaylov berib joylashtirgan. Bu Movarounnahrda turk-mo'g'ul qabilalarining kirib kelishidagi yana bir to'liq bo'lib, Amir Temur hokimiyat tepasiga kelgunga qadar ular yashash joylari siyosiy arayonlarda o'zgarib borgan.

Adabiyotlarga sharh. Mavzuni yoritishda foydalanilgan tarixiy adabiyotlardan manbaviy ahamiyatga ega bo'lgan Rashididdinning "Sbornik letopisey" asari va Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" asarini alohida sanab o'tish lozim. Chunki, bu asarlarda Movarounnahrda kirib kelgan turk-mo'g'ul urug'-qabilalari va ularning joylashuviga oid dastlabki, asosli ma'lumotlar keltirilgan. Shuningdek, keyingi davrlarda yaratilgan "Amir Temur jaxon tarixida" (2001y), O.K. Karaevning "Chagatayskiy ulus. Gosudarstvo Xaydu. Mogulistan. Obrazovanie kirgiskogo naroda" (1995 y) asarlari, J.Q. Ko'charov "Amir Temur va temuriylar davrida Buxoro vohasidagi siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayot (XIV asr 70-yillari –

XV asr)” dissertasiyasi va B.Usmonovning Farg‘ona vodiysi amir temur va temuriylar davrida: monografiya; ilmiy nashr; kirill yozuvida; B.Usmonov. – Farg‘ona: “Farg‘ona” nashriyoti, 2019. Monografiyasida ham qimmatli ma’lumotlar berilgan.shuningdek, mavzuni mazmunan yoritishda; V.M.Masson, V.A. Romodin, A.Ochirlarning asarlaridan ham keng foydalanilgan.

Natijalar va mulohazalar. Mo‘g‘ullar istilosi, Chig‘atoy ulusi mavjud bo‘lib turgan davrida Movarounnahr hududiga bir qator turk-mo‘g‘ul qabilalari kirib kelib o‘rnashganligini ko‘rishimiz mumkin. Turk-mo‘g‘ul qabilalari Chig‘atoy ulusi xonlaridan o‘zlari ko‘chib yurishlari va chorva ehtiyoji uchun yer-mulk olganlar. Shu bilan bir qatorda buning evaziga harbiy majburiyat o‘tashlari lozim bo‘lgan. Shuningdek, chingiziylardan bo‘lgan Xaydu Chig‘atoy ulusining bir qismini istilo qilgandan so‘ng 1269 yilgi qurultoyda Chig‘atoy ulusining sharqiy qismi (hozirgi Sharqiy Turkiston, Talas vodiysi)da yashovchi turk-mo‘g‘ul qabillari bo‘lgan Movarounnahrda ko‘chib o‘tishlari lozim bo‘lgan.ko‘chib kelgan qabilalarning yiriklari sifatida tarixiy adabiyotlarda Arlot, Jaloyir, Qavchin va Barloslar alohida tilga olib o‘tilgan. Bu qabilalarning har birining o‘z vazifasi bo‘lib, Qavchin qabilasi xon saroyida xizmat qilishi lozim bo‘lsa, arlotlar uchun yashash hududi sifatida Amudaryo bo‘ylari ajratilgan, jaloyirlarga ulus sifatida Xo‘jand atroflari berilgan bo‘lib, barloslar Kesh hududida o‘rnashganlar[1. 56]. Bu Movarounnahr hududiga mo‘g‘ullar hukumronligi davriga turk-o‘g‘ul qabilalari kirib kelishining so‘nggi yirik to‘lqini bo‘lgan.

Movarounnahrda kirib kelgunga qadar ushbu qabilalar quyidagi hududlarda yashaganlar. Barloslar XII asr oxiriga qadar mo‘g‘ullarning Nirun deb nomlangan qabilasi tarkibidagi urug‘lardan biri sanalganyu shuningdek, asl mo‘g‘ul qabilalari nirunlar deb atalgan bo‘lib, mo‘g‘ullarning boshqa qabilalari Darlikin deb nomlangan[7. 121]. Yuqorida keltirilgan ma’lumotlardan XII asr oxirigacha barloslar asl mo‘g‘uliston hududlarida yashaganlar. Barloslar Chingizxon tomonidan Chig‘atoyxon xizmatiga berilgandan so‘ng Chig‘atoyxon barloslar yashaydigan hududlar sifatida Ili daryosi bo‘ylarini belgilab bergan. XIII asr o‘rtalarigacha aniqrog‘i 1269 yilgi qurultoygacha barloslar Ili daryosi sohillarida yashaganlar. Qurultoyda Chig‘atoy ulusi bir qismi Xaydu qo‘l ostiga o‘tgandan keyin barloslar XIII asr 60-yillari oxirlarida mingta oila Kesh viloyatiga ko‘chib o‘tishga majbur bo‘lgan[10. 458]. Hozirgi kunga qadar barloslarning ushbu hududda yashab qolganliklarini ko‘ramiz.

1269 yilgi uluslarni qayta taqsimlanishiga xizmat qilgan qurultoydan so‘ng Movarounnahr hududiga kirib kelgan qabilalardan yana biri Qavchinlar bo‘lib hisoblanadi. Qavchilar kelib o‘rnashgan hudud sifatida Farg‘ona vodiysi va Qashqadaryoning G‘uzor tumani hududlari keltirib o‘tilgan[3. 22]. Qavchinlar 1269 yildan boshlab Chig‘atoy xonlarining asosiy tayanchi bo‘lganlar va xon saroyida xizmatda bo‘lganlar. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelganda ham Qavchinlar Amir Temur saltanatining ishonchi harbiylari bo‘lib, qavchinlardan bo‘lgan amir Musiqa qavchinga Amir Temur Xorazimni boshqarishni topshirgan. Shu tariqa qavchinlarning Xorazimga ham ko‘chib o‘tishi sodir bo‘lgan[10. 458-459]. Shu vaqtdan boshlab Qavchinlarning katta qismi Xorazimda yashab qolganlar.

Arlod qabilasi XII asr asrning oxiriga qadar Tayjiut qabilasi tarkibida bo‘lib, Onon daryosi va Xeytey tog‘lari orasida yashagan. XIII asr o‘rtalarida Chingizxonni markazlashtirish siyosatini qo‘llab-quvvatlaganlar[7. 15]. Shu tariqa alohida qabila vakillari sifatida Chingizxon va uning avlodlariga xizmat qilganlar. Chig‘atoyxon xizmatiga berilgan vaqtda arlotlar XIII asrda Yettisuv hududlarida yashaganlar. Shu asrning 60-yillarida hozirgi Shimoliy Afg‘oniston va Surxondaryo viloyatining janubida o‘rnashganlar. Shuningdek, Xuroson tarixiy geografik o‘lkasining Afg‘onistonga tegishli qismlarida yashab qolganlar[10. 459]. Keyinchalik arlotlarning boshqa hududlarga tarqalishi ham sodir bo‘lgan. Jumladan Buxoro viloyatida Olot tumani mavjud bo‘lib, xalq etimologiyasida Olot tumani atamasi Arlot qabilasi nomining talafuzda o‘zgargan shakli deb qaraladi.

1269 yildan so‘ng Movarounnahrda ko‘chib kelgan to‘rt yirik qabiladan yana biri Jaloyirlar

bo'lib, ularning shakllanishida turk, mo'g'ul, tungus etnonimlari ishtirok etgan va qabila shakllanishi XII asr oxiri – XIII asr boshlariga to'g'ri kelishi xususida ma'lumotlar mavjud. Jaloyir qabilasi shakllangan vaqtda ularda dastlab yetti urug' bo'lgan bo'lib, Chingizxon davrida ularning ikki urug'i g'arbiy qanotga, to'rt urug'i sharqiy qanotga ajratilgan, bir qismi esa O'qtoy ixtiyoriga berilgan. Chingizxon mulklarini o'g'illari o'rtasida taqsimlanganda jaloyirlar Jo'ji, Chig'atoy uluslari va keyinroq elxoniyalar saltanati hududlariga ham tarqalganlar[7. 190-191]. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelish arafasida ham jaloyirlar Xo'jand hududlarida yashab qolganlar.

Mo'g'ullar hukumronligi so'nggi davrida, Amir Temurning hokimiyat tepasiga kelishi arafasida Movarounnahrda ijtimoiy-siyosiy jarayonlarda turk-mo'g'ul qabilalarining ta'siri katta bo'lib, ularning ayrimlari qudrati va ta'siri katta bo'lib, Movarounnahrda yetakchilik qilish uchun kurashlar olib borgan bo'lsalar, ayrimlari o'zlari mustaqil siyosat yuritishga harakat qilganlar. Sharafiddin Ali Yazdiyda keltirilgan ma'lumotlarga qaraganda, Movarounnahrda yashagan qudratli qabilalar quyidagi hududlarda joylashganlar. Kesh shahrida Barlos qabilalari yashagan bo'lsa, Xo'jandda Jaloyirlar, Sulduzlar Balxda Naymanlarning apardiy urug'i Shibirg'on va Huttalonda, Yasovuriylar Totkent va Saripul (hozirgi Samarqand viloyati hududi) yashaganlar[2. 19]. Bu kabi joylashuv Chig'atoy ulusida amir Qazag'an o'ldirilgandan keyingi siyosiy boshboshdoqlik boshlangan davrdagi qabilalarning joylashuvi bo'lib, zafarnomadan boshqa tarixiy manba va adabiyotlarda ham keltirib o'tilgan. Masalan Muiniddin Natanziyda, Amir qazag'an vafotidan keyin amir Husan darbadarlikda kun kechirgan. Ilgari Qazag'anga qarashli yerlarni boshqa qabila vakillari egallab olganlar. Masalan, amir O'ljoybug'a sulduzlarga bosh bo'lib amir Qazag'anga qarashli yerlarga sardorlik da'vo qilgan, naymanlar amiri Hamidhoja Shibirg'onni o'z tasarrufiga kiritgan. Amir Kayxusrav va amir O'ljoytu Aparidi ittifoq bo'lib, Xatlon viloyatini qo'lga kiritgan. Shuningdek, amir Xizr yasovuriy o'zini mustaqil his qilganiga oid fikrlarni keltirib o'tgan[6. 52]. Demak, amir Qazag'anning o'limi Chig'atoy ulusidagi turk-mo'g'ul qabilalarining joylashuviga kamroq bo'lsada ta'sir ko'rsatgan deb xulosa qilish mumkin.

Hozirgi vaqtda Afg'onistondagi Hazara qabilasi tarkibidagi Karaun (qoraunas) urug'i mavjud bo'lib, ular asosan Bog'dis viloyati atroflarida ko'pchilikni tashkil qilib yashaydilar[5. 302-303]. Qoraunas mo'g'ullar hukumronligi so'nggi davrida katta harbiy kuchga ega qabila bo'lib, amir Qazag'an va uning oilasiga xizmat qilganlar. Ammo, amir Qazag'an o'ldirilgandan so'ng Qoraunas qabilasida bo'linish sodir bo'lgan deb xulosa qilish mumkin. Chunki, qoraunaslarning bir qismi amir Husaynga xizmat qilishni davom ettirgan bo'lsalar, bir qismi Munk, Solisaroy (Huttalon) shaharlarida mustaqil siyosat yuritishga harakat qilganlar[6. 44]. Keyingi tarixiy jarayonlarda ushbu qabilaning ta'siri kamayib borganligini ko'rishimiz mumkin. Movarounnahrning markaziy qismi hisoblangan Zarafshon daryosi havzasi va unga tutash yerlarda, XIV-XV asrlarda Qarluqlar va ularga qarindosh Xalaj, Chigil qabilalari yashaganlar. Shuningdek, bu qabilalarning Toxariston hududlarida ham yashaganliklari ma'lum. Amir Temur hukumronligi yillarida Zarafshon daryosi havzasiga Dashti qipchoqdan Qang'li qabilasining bir qismining kirib kelishi ham sodir bo'lganligi tarixiy adabiyotlarda keltirib o'tilgan[10. 467-468]. Tarixchi olim J.Ko'charov keltirgan ma'lumotlarda, Zarafshon vohasining janubiy-g'arbiy qismida, ya'ni Buxoro vohasida yasovuriylar ham yashagan bo'lishi mumkinligi tilga olib o'tilgan[4. 19]. Shuningdek, Yasovuriylar Samarqand atrofidagi Saripul va Totkenda (Yazdiy ma'lumotlarida) yashaganliklari keltirib o'tilgan[10. 470]. Zarafshon vohasida yasovuriylar salmog'i anchagina bo'lgan deyishga asoslar yetarli deb hisoblash mumkin.

Chig'atoy ulusida, xususan ulus ikkiga bo'lingandan keyin Chig'atoy ulusining sharqiy qismida katta qudratga ega bo'lgan Dug'lot qabilasining ham bir qismi Movarounnahrda kelib o'rinishgan. Dug'lotlar XIV-XV asrlarda Ili havzasi va Yettisuvda yashaganlar. Shu bilan bir qatorda ularning bir qismini Farg'ona vodiysi, Samarqand, Hisor va Qorategin

hududlariga tarqalishi va tarqoq holda yashaganliklari ma'lum[10. 468]. Chig'atoy ulusining g'arbiy qismida dug'lotlar katta ta'sir kuchgaega bo'lmaganlar. Amir Temur Movarounnahrni birlashtirish uchun kurash olib borish jarayonida Kumaz va O'rnak Temur boshchiligidagi uch-to'rt mingdan iborat mo'g'ullar Toshkent vohasida hukumronlik qilishgan. Amir Temur ularni bo'ysundirsada, quvib yubormagan[9. 78]. Ammo, mo'g'ullarning qaysi qabilasi yoki urug'lari Toshkent vohasida yashab qolganiga oid ma'lumotlarga hozircha ega emasmiz.

Sulduzlar mo'g'ullarning darlinkin tamog'idan bo'lib, afsonalarga ko'ra, ular Alanquva davridan oldinroq ham mavjud bo'lganlar[8. 76]. XII asr oxirlarida sulduzlar tayjiutlar tarkibida bo'lib, Chingizxonning markazlashtirish siyosatiga qarshi kurashganlar[7. 156]. Chig'atoy ulusi davrida sulduzlar Chog'aniyon, hisor vodiysi va Shimoliy Afg'onistonning Balx viloyati atroflarida yashaganlar. Shimoliy Afg'oniston hududlarida XIV-XV asrlarda arg'inlar ham yashagan. Arg'inlar nisbatan ko'proq yashagan hudud sifatida Movarounnahrning Farg'ona vodiysini keltirib o'tish mumkin[10. 468-469]. Chig'atoy ulusida mo'g'ullar hukumronligi so'nggi davrida Amir Temur va amir Husaynlarning Ilyosxo'jaga qarshi kurashlari davrida (taxminan 1362-1364 yillar atrofi) amirlar Xulm atrofida Buruldoy degan el (qabila)ga hujum qilib uni bo'ysundirgach, Badaxshonga qarshi yurish qilganliklari tarixiy adabiyotlarda qayd etilgan[6. 61]. Demak, siyosiy hayotda bu qabila katta rolo'ynamagan. Shuningdek, bu kabi kichik urug' yoki qabila Boburning "Boburnoma" asarida ham tilga olib o'tilgan bo'lib, Bobur Andijon viloyatining tog'li hududlarida Chag'roq (Chig'arak) deb ataladigan etnik guruh yashaganligini yozib qoldirgan[10. 474]. Bir so'z bilan aytganda Chig'atoy ulusida mo'g'ullar hukumronligining so'nggi davrida bir qator urug'-qabilalar hokimiyat uchun kurashlar olib borganlar va siyosiy jarayonlar ta'sirida o'zlari yashab turgan hududlarni o'zgartirishga majbur bo'lganlar deb xulosa qilish mumkin.

Xulosa. Amir Temur Movarounnahrda hokimiyatni qo'lga kiritish arafasida sodir bo'lgan siyosiy jaranlar shunchaki jangu-jadal bo'lib qolmay, bu kurashlar urug'-qabila va xalqlarning hayotiga katta ta'sir ko'rsatgan. G'olib urug'-qabilalar o'zlarining xo'jalikva iqtisodiy asoslarini yaxshilab olish imkoniga ega bo'lsalar, mag'lub bo'lgan urug'-qabila vakillari boshqa hududlarga ko'chishga majbur bo'lganlar va shu tariqa Movarounnahrda urug'-qabilalarning joylashuvida o'zgarishlar kelib chiqqan.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Amir Temur jahon tarixida / Mas'ul muharrir: X-Karomatov. Mualliflar jamoasi: S.Saiddosimov (raxbar), A.Ahmedov, B.Ahmedov va boshq. Tuldirlangan va qayta ishlangan ikkinchi nashr. - T.: Shark, 2001. - 293 b.
2. Ijazdiy, Sharafuldun Ali. Zaфарнома // Сўз боши, табил, изоҳлар ва кўрсаткичлар муаллифи ва нашрга тайёрловчилар: А.Аҳмад, Х.Бобобеков: Мас'ул муҳаррир Б. Эшпўлатов. Нашрлар ва матбаачилар гуруҳи: И.Шогуломов ва бошқалар // - Т.: Шарк, 1997. - 384 б. + 16 илова.
3. Караев О.К. Чагатайский улус. Государство Хайду. Могулистан. Образование кыргызского народа. - Бишкек: Кыргызстан, 1995. - 160 с.
4. Кўчаров Ж.К. Amir Temur va temuрийлар даврида Бухоро воҳасидаги сиёсий, иқтисодий ва маданий ҳаёт (XIV аср 70-йиллари - XV аср). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) олиш учун ёзилган диссертация. - Қарши 2021. - 158 б.
5. Массон В.М., Ромодин В.А. История Афганистана. В двух томах. Том I. С древнейших времен до начала XVI века. - М.: Наука, 1964. - 462 с.
6. Натанзий Муйиниддин. Мунтахаб ут-тавориҳи Муиний (Муиний тарихлари танланмаси) / Муиниддин Натанзий; форс тилидан тарж., сўз боши ва изоҳлар муаллифи Ғ.Каримий; мас'ул муҳаррир А.Уринбоев. - Т.: O'zbekiston, 2011. - 264 б.
7. Очир А. Монгольские этнонимы: вопросы происхождения и этнического состава монгольских народов. Элиста: КИГИ РАН, 2016. - 286 с.
8. Рашид ад-Дин. Сборник летописей / пер. с персидского Л.А. Хетагурова, редакция и примечания проф. А.А. Семенова. - Т. 1, кн. I. - М - Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. - 219 с.
9. Усмонов Б. Фарғона водийси амир темур ва temuрийлар даврида: монография; илмий нашр; кирилл ёзувида; Б.Усмонов. - Фарғона: "Фарғона" нашриёти, 2019. - 288 б.
10. Ўзбек халқининг келиб чиқиш тарихи / А.Асқаров. - Т.: O'zbekiston, 2015. - 680 б.
11. Orziyev MZ History of Border Conflicts Between the States of Bukhara and Afghanistan in the Second Half of the 18th Century
12. Orziyev MZ Amir Temur va temuрийлар даврида Бухоро шаҳри тараққийотида oid
13. Orziyev M. Discourses on the history of the irrigation of Bukhara oasis

XORAZMSHOH-ANUSHTEGINIYLAR QO'SHINI ETNIK TARKIBI

Raximbayev Xurmat Xursand o'g'li
Urganch Innovatsion University tarix fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqola xorazmshohlar – anushteginiylar davlati harbiy qo'shini etnik tarkibi masalasiga bag'ishlangan bo'lib, shu paytgacha, manbalarda va zamonaviy tadqiqotlarda keltirilgan ma'lumotlarni keng miqyosda hamda yangicha qarashlar va yondashuvlar asosda tahlil qilish va xulosalar chiqarishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: xorazmshohlar-anushteginiylar, qipchoqlar, qang'lilar, uronlar, o'g'uzlar, qarluqlar, turkmanlar, forslar, tojiklar, qoraxitoylar, mo'g'ullar, Jaloliddin Manguberdi, an – Nasaviy, Juvayniy, Ibn al-Asir, Rashidaddin, Juzjoniy.

ЭТНИЧЕСКИЙ СОСТАВ ВОЙСКА ХОРЕЗМШАХОВ-АНУШТЕГИНИДОВ

Рахимбаев Хурмат Хурсанд оглы
Ургенчский Инновационный Университет

Аннотация: Статья посвящена вопросу этнического состава военной армии хорезмшахов-ануштегинского государства, и до сих пор предпринимается попытка проанализировать и сделать выводы на основе информации, представленной в источниках и современных исследованиях на большом масштабе и на основе новых взглядов и подходов.

Ключевые слова: хорезмшахи-ануштегиниди, кыпчаки, кангли, уран, огузы, карлуки, туркмены, персы, таджики, кара-китаи, монголы, Джелал ад-дин Менкбурни, ан-Насави, Джувейни, Ибн аль-Асир, Рашид ад-дин, Джузджани.

THE ETHNIC COMPOSITION OF THE KHWARAZMIAN-ANUSHTEGINID ARMY

Rakhimbayev Khurmat Khursand ogli
Urgench Innovation University

Abstract: The article is devoted to the issue of the ethnic composition of the military army of the Khorezmshahs - Anushtegins state, and until now, an attempt has been made to analyze and draw conclusions based on the information provided in the sources and modern studies on a large scale and on the basis of new views and approaches.

Key words: Khorezmshahs-Anushteginids, Kipchaks, Kangli, Uranus, Oguzes, Karluks, Turkmen, Persians, Tajiks, Kara-Kitai, Mongols, Jalal ad-din Menkburni, an-Nasawi, Juvaini, Ibn al-Asir, Rashid ad-din, Juzjani.

KIRISH (INTRODUCTION). O'zbekiston Respublikasi Prezidenti SH.M.Mirziyoevning 2022 yil 29 avgustda Jaloliddin Manguberdi yodgorlik majmuasining ochilish marosimida: “Chaqmoqdek qisqa umri mobaynida o'zbek xalqiga xos bo'lgan Vatanga cheksiz muhabbat va sadoqat, yuksak harbiy salohiyatni namoyon etib yashagan Jaloliddin Manguberdi kabi buyuk ajdodlarimiz bilan har qancha faxrlansak, g'ururlansak, arziydi. Ishonaman, oradan yillar, asrlar o'tadi, Sulton Jaloliddin hamisha yurtimizni ko'z qorachig'idek asrab-avaylash, unga farzandlik mehri, iymon-e'tiqod bilan xizmat qilishning o'chmas timsoli bo'lib qoladi”, – deya ta'kidlagan edilar. Shu jihatdan olganda, Jaloliddin Manguberdi timsoli o'zbek xalqida va ayniqsa yoshlar qalbida chuqur iz qoldirib, shu sababli, buyuk sarkarda Jaloliddin Manguberdi singari vatanparvar, jasoratli ajdodlarimiz hayoti va faoliyatini chuqur o'rganish, uni xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o'rtasida keng targ'ib etish barchamizning burchimizga aylanishi lozim.

MAVZUGA OID ADABIYOTLARNING TAHLILI (LITERATURE REVIEW).

Xorazmshoh – anushteginlar davlati tarixi umumiy holatda yetarlicha o‘rganilgani holda, bu davlatning harbiy salohiyati, qurollanishi darajasi, harbiy jang usullari, shakllari, va ayniqsa harbiy san’ati sohasi taraqqiyotiga ko‘chmanchi qabilalar ta’siri qaydarajada bo‘lganligi masalasi nihoyatda sust o‘rganilgan masalalardan biri hisoblanadi. Bu davlatning nafaqat harbiy, balki, siyosiy hayotida ham ko‘chmanchi turkiy qabilalar vakillari egallagan mavqei haqidagi turli davrlarda va turli tillarda yozilgan manbalarda mazkur mavzu yuzasidan juda qisqa ma’lumotlar berib o‘tilgan xolos. Umuman olganda yozma manbalardagi Xorazm harbiy san’ati taraqqiyotida ko‘chmanchi qabilalar o‘rni haqida uzoq-yuluq ma’lumotlar mavjud bo‘lib, mazkur mavzuni to‘la-to‘kis ilmiy jihatdan o‘rganish va tahlil qilish imkonini bermaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI (RESEARCH METHODOLOGY). Maqolada tizimlashtirish, tarixiy-qiyosiy tahlil, tarixiy ma’lumotlarni umumlashtirish, xolislik tamoyili kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR (ANALYSIS AND RESULTS). Eng avvalo qisqaroq tarzda xorazmshohlar – anushteginiylar davlatida qurollanishi darajasi masalasiga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, bu davlat vujudga kelishidan oldin Xorazmda harbiy soha qay darajada rivojlanganligi haqida manbalarda quyidagi ma’lumotlarni uchratishimiz mumkin. Jumladan, ko‘pgina manbalarda Xorazmning Sharqiy Yevropa mintaqasi davlatlari, ya’ni, Xazar hoqonligi, Volga Bulg‘oriyasi, Kiev Rusi davlatlari va ko‘chmanchi dasht qabilalariga harbiy sohadagi ta’siri juda kuchli bo‘lganligini ko‘ramiz. Masalan, Xazar hoqonligining eng saralangan qo‘shini hisoblangan “al-arsiya” faqat xorazmliklardan iborat bo‘lgan [5,5]. Kiev Rusi davlatining uzoq vaqt Kaspiy dengizi qirg‘oqlarini egallashga harakat qilishiga qarshi aynan xorazmliklar muvaffaqiyatli kurash olib borganlar [5,7-19]. IX – XIII asrlar davomida va hatto undan keyin ham uzoq davr mobaynida Xorazm aholisi sifatli va zarbasi dahshatli kamon ishlab chiqarish sohasida butun Sharqda mashhur bo‘lganlar. Al- Muqqadasiy ma’lumotiga ko‘ra, Xorazmda tayyorlangan kamon o‘qini faqat kuchli kishilar ishlata olganlar xolos [2,202].

Umuman, IX – XII asrlarlar davomida Xorazm davlati qo‘shni ko‘chmanchi dasht qabilalari bilan urush holatlarida bo‘ldi. Al- Muqqadasiyning (985–1000) “Axsan at takasim fi ma’rifat...”, al-Istaxriyning (930–933) “Kitab masolik al mamolik” asarlarida xorazmliklarni “qo‘rqmas va botir jangchilar, qo‘shni o‘g‘iz qabilalari bilan muvaffaqiyatli urush olib boradilar”, deb ta’rifaydilar [1,180; 2,202]. Ammo, bu holat xorazmliklarning qurol-aslaha va harbiy texnika sohasidagi bilimlarining yanada takomillashishiga olib keldi. Buni yozma manbalar ta’kidlaydi.

Voha harbiy sohasining kuchaygan davri Xorazmshohlar-Anushteginiylar sulolasi vaqtiga to‘g‘ri keladi (1097–1231). Mustaqillik uchun kurashlar, davlat chegaralarini kengaytirish, bosqinchilarga qarshi kurash Xorazm davlatining jangovorlik ruhiyati va holatini oshirib, harbiy qurol, texnik vositalarining yanada takomillashishiga olib kelgan.

O‘sha davrlardagi barcha davlatlarda bo‘lgani kabi dastlabki anushteginiylar davrida Xorazm armiyasi muntazam qo‘shindan iborat bo‘lgan. Ammo, vaqt o‘tishi bilan Xorazmshohlar qo‘shini ham somoniylar, g‘aznaviylar, saljuqiylar, qoraxoniylar va qoraxitoylar davlatlari kabi yerga egalik qilish munosabatlariga asoslangan jamiyat qonuniyatlari ta’sirida o‘zining jangovorlik qobiliyatini yo‘qota borgan. Shu bilan birga muntazam qo‘shin o‘z ahamiyatini yo‘qotib, yollanma qo‘shinga aylanib borgan.

Jahon harbiy san’ati tarixidan ma’lumki, qaysi davlat yollanma qo‘shinga tayanib qolsa, bu holat oxir – oqibat davlatning zaiflashishiga va oxir - oqibat inqirozga uchrashiga olib kelgan.

X asrdayoq Xazar xoqonligining eng asosiy saralangan qo‘shini sifatida xizmat qilgan og‘ir qurollangan Xorazm otliq qo‘shini bora – bora o‘z o‘rnini qabilaviy asosda birlashgan turli bo‘limlardan iborat yollanma qo‘shinga bo‘shatib berdi.

Bu qabilaviy – yollanma qo‘shin tuzilmalarining har birining o‘z qurollanish uslubi yoki

harbiy qurol – aslaha turlari, o'z jang qilish uslublari mavjud edi. Jumladan, Xorazmshoh – anushteginiylar davlati tarixini va mo'g'ullarning O'rta Osiyoga yurishi masalalarini chuqur o'rgangan V.V. Bartol'd xorazmshohlar armiyasi bu davrda faqat yo'llanma qo'shından iboratligini va ko'pchilik hollarda ularning mahalliy aholi bilan kelisha olmaganligini yozadi [4,441-442]. Mahalliy aholi bilan kelisha olmaganligining asosiy sababi turkiy ko'chmanchi vakillarining, ayniqsa qang'li-qipchoq qabilalari uyushmalari vakillarining anushteginiylar qo'shini tarkibining salmoqli qismini, Alovuddin Takash va Alovuddin Muhammad davrida esa asosiy qismini tashkil qilganligidadir.

Xorazmshoh – anushteginiylar qo'shinida ko'chmanchi qabilalarning paydo bo'lishi ko'pgina tadqiqotchilar xorazmshoh Elarlon (1156-1172) nomi bilan bog'laydilar. Aslida esa xorazmshohlar qo'shinida ko'chmanchi turkiylarning paydo bo'lishi xorazmshoh Otsiz (1127-1156) nomi bilan bog'liq. U 1152 yilda Jand shahrini egallab, uni o'z mulkiga qo'shib oldi. Sulton Sanjarga qarshi kurashish uchun u qang'li va o'g'uz-turkmanlardan yollanma qo'shin tuzgan edi [7,280-281; 11,80].

Uning vorisi Elarlon davrida qo'shin tarkibida ko'chmanchi turkiylar ichida qarluqlar asosiy rol o'ynab boshlagan. Jumladan, u qoraxitoylardan zarbaga uchrab, o'z hududlarini tashlab chiqishga majbur bo'lgan qarluqlarga o'z davlati hududlaridan yer berib, ulardan yollanma qo'shin sifatida o'z dushmanlariga qarshi kurashda foydalangan. Elarlon davrida qo'shinlar bosh qo'mondoni qarluq – Shamsul Mulk ibni Husayn Ayyorbek bo'lganligi bejiz emas [4,283-284; 6,80].

Xorazmshohlar – anushteginiylar qo'shinida turkiy qabilalar ustun bo'lganligini Z. Buniyodov ham tasdiqlaydi. Jumladan u: “Xorazmshohlari o'z armiyasini tuzgan vaqtda uning armiyasi turk askarlaridan tuzilgan edi. Qo'shin bo'linmalari va qismlar qabilaviy asosda tashkil qilinadi. Hatto davlatning eng gullab-yashnagan, askarlikka boshqa xalq va qabila yigitlari olingan vaqtlarda ham turklar qo'shinining asosiy va jangovar qismini tashkil qilardi” [6,57].

Haqiqatdan ham, ayniqsa Alovuddin Muhammad xorazmshoh davrida armiya, eng avvalo qipchoqlar, qang'lilar, uranlar, so'ng qalach, qarluq, ug'raq kabi urug'lardan tashkil topgandi. Ya'ni, uning davrida onasi Turkon xotun qarindoshlari bo'lmish urug' beklari qo'l ostida bo'lgan yollanma qipchoq – qang'lilar xorazmshohlar armiyasining asosini tashkil qilgan.

Anushteginiylar davlatida Muhammad xorazmshohning onasi Turkon xotun juda katta mavqega ega bo'lgan. Chunki, uning qarindoshlari bo'lgan qang'li – qipchoq qabila vakillari, qarindoshlari butun mamlakat harbiy – siyosiy mashinasini o'z qo'lga olgan edilar.

Jumladan, Nasaviyning yozishicha: “U bayot urug'idan edi. Bayot urug'ining Yemek qabilasiga mansub hisoblanadi. Uning ishi yurishib, mavqei mustahkamlanib bordi, shunda u “Xudovandi jahon” degan laqab oldi. U turk mamlakatlaridan birining hukmdori Jonkishixonning qizi edi. El-Arslonning o'g'li Takish hukmdorlarning o'g'li hukmdorlarning qizini olgani kabi unga uylandi. Hokimiyat sulton Muxammadga otasi Takishdan meros bo'lib o'tganidan keyin Yemek va unga kushni bo'lgan boshqa qabilalar uning davlati tarkibiga kelib qo'shildilar. Shu sababli Sultonning kuchi ko'paydi, u esa ularni yanada ulug'ladi. Natijada Turkon xotun mamlakatni boshqara boshladi. Sulton qaysi bir mamlakatni bosib olgudek bo'lsa, uning qaysidir viloyatini, albatta, onasining yaqinlari uchun ajratib berardi” [13,64].

Yana uning yozishicha: “Qipchoq urug'lari Xorazmshohlar xonadoni bilan do'stlik va muhabbat rishtalari orqali mustahkam bog'langandi... Ayni paytda, qipchoqlar Xorazmshohlarning asosiy tayanchi, ular qo'shinlaridagi ko'p sonli yetakchi kuch, shon-shuhratlarining manbai edi” [13,207].

Bu ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, Turkon xotun orqali sulola qarindoshlari bo'lgan qipchoq – qang'li zodagonlari mo'g'ul bosqini arafasida ba'zi mansablarni hisobga olmaganida, deyarli barcha saroy mansablarini egallagan, birorta viloyat yoki yirik shahar yo'q ediki, qipchoq – qang'lilardan boshqa qabila vakili hokim bo'lgan bo'lsin. Shunday holat ayni harbiy

sohada ham to'liq kuzatildi. Barcha qo'shin qo'mondonlari va umuman qo'shinning asosiy qismi aynan shu qipchoq – qang'lilar vakillaridan iborat bo'lgan.

Jaloliddin davrida ham viloyat armiyasini asosan qipchoqlar va qang'lilar tashkil qilgan. Jumladan, uning otasi taraf qarindoshi hamda qaynotasi Amin Malik qang'li urug'idan bo'lgan. Faqat Sind daryosi bo'yidagi mag'lubiyatdan so'ng, Jaloliddin Manguberdi armiyasini tashkil etgan unsurlarda ba'zi o'zgarishlar bo'lganligi aniq. Ayniqsa, uning Fors, Ozarbayjon va Kavkazortidagi olib borgan harbiy harakatlari paytida uning qo'shinining asosiy qismini mahalliy aholi vakillari tashkil qilgan bo'lsada, qipchoq – qang'lilar harbiy birliklaridan to'liq voz kechildi degani emas. Ko'pchilik tadqiqotchilar ayrim qipchoq beklari Jaloliddin valiahdlikka tayin qilingandan so'ng (1220 yilda, Sind daryosi janggidan oldin) unga qarshi bosh ko'tarishgan va hatto, Jaloliddinning poytaxtni tark qilishiga sababchi bo'lgan edilar. Shuning uchun ham Jaloliddin saltanatining oxiriga qadar qipchoqlarga ishonmadi va ularni armiyaga olmadi. Qipchoqlar ham unga xavfsirab qarab, uning qo'l ostiga kirishga ikkilandilar. Faqat saltanatining so'nggi yillarida mo'g'ul tahlikasi ortganidan keyingina Jaloliddin qipchoqlardan foydalanish fikriga keldi, degan fikrni bildiradilar [10,107]. Ammo, bu fikrlar bizningcha noto'g'ri bo'lib, Jaloliddinning Hindistonni tark etib, Eron, Iroq va Kavkazorti hududlariga kelganidan keyin ham uning qo'shinining asosini qipchoq – qang'lilar tashkil qilgan. Zero, bu hududlarda hali ham sulton Muhammad xorazmshoh vakillari, aniqrog'i qarindosh – urug'lari yetarlicha edi. Jumladan, Ig'on Toisiy, G'iyosiddin Pirshoh va manbalarda nomlari keltirilgan Jaloliddin Manguberdi yonidagi ko'pgina lashkarboshilar shu urug' – qabila vakillari bo'lganligi ko'rinib turibdi.

Jaloliddin Manguberdi o'z qo'shiniga turkmanlarni ham jalb qilgan edi. Turkmanlar mamlakatning g'arbiy hududlarida, Arrondan Jibalga qadar cho'zilgan bir mintaqada yashab, bir tarafdin Jaloliddin mulklarini talon-taroj qilishdan tap tortmaydigan qabila bo'lishi bilan birga, uning zaiflashgan qo'shini sonini to'ldirib turuvchi bir manba ham edilar. Lekin ko'pgina tadqiqotchilar turkmanlarning Jaloliddin Manguberdi armiyasidagi rolini nihoyatda oshirib yuboradilar. Sultonning oz sonli qo'shinining g'alabalariga ulkan hissa qo'shganliklarini ta'kidlaydilar [10,107-108]. Ammo, haqiqiy vaziyat bunday bo'lmagan. Chunki, bu alg'ov – dalg'ov davrda turkmanlar yollanma jangchilar sifatida faqat o'z manfaatlari yo'lida xizmat qilganlar xolos. Jumladan, Jaloliddinning Sharq hukmdorlari va viloyat hokimlariga qarshi olib borgan urushlarida, ayniqsa, Hilot shahri qamali paytida turkmanlar unga qarshi tarafdin turib urush olib borganliklari manbalarda to'liq aks etgan [7,400].

Ayniqsa, Jaloliddinning 1226-1227 yillardagi Hilot shahrini birinchi bor qamal qilganidan foydalanib, turkmanlarning iva'i qabilasi Ozarbayjonga hujum qilgan edilar. Natijada Jaloliddin Hilot qamalini to'xtatishga majbur bo'lgan edi [8,401].

Jaloliddin Manguberding uchinchi marta Hilotni qamal qilgan paytda, aynan turkman-iva'ilar yo'l boshchisi Hilot shahri himoyachilaridan biri Ismoil Iva'iy Jaloliddinga shahar darvozalarini ochib bergan [13,238].

1230 yildagi Arzinjon yonidagi jangda ham Jaloliddinning dushmanlari Ko'nya sultoni Alovuddin Qayqubod va uning ittifoqchilari qo'shini tarkibida ham juda ko'p turkmanlar bo'lgan [12,363].

Faqat 1231 (hijriy 629) yilning boshlarida, ya'ni mo'g'ullar tahlikasi juda kuchaygan bir vaqtda Jaloliddin Nasaviyni turkmanlarni da'vat qilish uchun yuborishga majbur bo'lgan edi. Turkman xonlari sultonning zaif armiyasiga kelib qo'shildilar ammo, baribir uni halokatdan saqlab qola olmadilar [13,271,275-276].

Bu ma'lumotlardan ko'rinadiki, Jaloliddin, biroz vaqtgacha asosan, ko'pchiligi qipchoq-qangli bo'lgan xorazmliklarga suyangan. Mo'g'ullar Ozarbayjonga yaqinlashib kelgachgina, u turkmanlarga yaqinlashdi va ularni armiyasiga oladi.

Xorazmshoh – anushteginlar davlatida harbiy jang usullari va shakllari, harbiy san'ati taraqqiyotiga ko'chmanchi qabilalar ta'siri ikki xil asosda bo'lgan. Birinchisi, qo'shni bo'lib

yashagan ko'chmanchi turkiy qabilalar hududlarini o'ziga bo'ysundirish davomida xorazmshoh – anushteginiylar boshqa davlatlar kabi, mazkur ko'chmanchilardan yollanma jangchi sifatida foydalana boshlaganlar. Ikkinchidan, barcha musulmon davlatlarida bo'lgani kabi, xorazmshoh – anushteginiylarda ham turkiy ko'chmanchi qabilalar vakillaridan iborat hamda asosan qullardan tuzilgan maxsus gvardiya bo'lgan. Buni ko'pgina manbalar ma'lumotlari tasdiqlaydi. Jumladan, g'ulomlar yoki mamluklar deb nomlangan mazkur gvardiya ko'pincha ko'chmanchi turkiy qabila vakillaridan iborat bo'lgan.

Ammo, xorazmshoh – anushteginlar davlati harbiy jang usullari va shakllariga ko'chmanchi qabilalar ta'siri masalasi ham ancha sust o'rganilgan masalalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun bu borada faqat manbalar ma'lumotlarini chuqur tahlil qilish asosida biror – bir xulosa chiqarish mumkin xolos. Jumladan, mazkur masala bo'yicha xorazmshoh – anushteginiylar davlatining harbiy sohada, urush – janglarda qo'llagan jang usullari faqat Jaloliddin Manguberdi bilan bog'liq voqealar munosabati bilan eslatib o'tilgan.

Ammo, manbalardagi ma'lumotlardan shu narsa ma'lum bo'ladiki, Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullarga qarshi kurash payti qo'llagan jang taktikasi va qo'llagan uslublari aynan ko'chmanchilarga xos an'ana bo'lgan. Tadqiqotchi S. Saburovaning Anushteginiylar davlatiga bag'ishlangan monografiyasida: "O'zaro ashaddiy dushman bo'lgan xorazmliklar va mo'g'ullar bir-birining jang tarzini qabul qilmaganlar. Xorazmshoh qo'shinlari mumtoz tartib va taktika asosida jang qilgan. Mo'g'ullar bo'lsa qismlarini o'zlarining maxsus jang uslubida ikki qator tizgan holda urushganlar", degan fikri noto'g'ri bo'lib, o'z tadqiqotida shu fikridan keyinoq, Jaloliddinning xalifa qo'shinlariga hamda mo'g'ullarning o'ziga qarshi urushda yolg'ondakam chekinib, pistirma qo'yish usulini qo'llagan deb o'z fikrini o'zi rad etadi [10,116]. Bu o'rinda, birinchidan anushteginiylar qo'shini asosan ko'chmanchi qabilalar qipchoq – qang'lilardan iborat bo'lgani uchun Jaloliddin Manguberdi ham aynan ko'chmanchilarga xos uslublarni qo'llashi tabiiy. Ikkinchidan esa, yolg'ondakam chekinib urushish usuli aynan faqat mo'g'ullarga xos usul emas.

Haqiqatan ham yozma manbalarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, nafaqat Jaloliddin, balki boshqa Sharq davlatlari hukmdor va lashkarboshilari ham ko'chmanchilarga xos bu usulni (yolg'ondakam chekinib, pistirmadan zarba berish) qo'llaganliklari to'g'risida ma'lumotlar ko'p. Ammo, ko'pchilik tadqiqotchilar ta'kidlaganidek, bu jang usulini Jaloliddin Manguberdi mo'g'ullardan o'rganmagan, ya'ni bu usul yuqorida ta'kidlaganimizdek, faqat mo'g'ullarga xos emas [10,116]. Chunki, bu usul ko'chmanchilar jang taktikasida juda qadimdan ma'lum bo'lgan. Jumladan, skiflar va sak – massagetlar aynan shu uslubdan miloddan avvalgi VII – VI asrlardan oq foydalanganliklari yozma manbalar ma'lumotlaridan ma'lum [3; 9,249-260]. Jaloliddin ham o'z qo'shinining soni dushmaniga nisbatan ozchilik qilganda, undan samarali foydalangan. Jumladan, Qush Temur boshliq arab xalifaligi qo'shinlarini shu usul bilan yengan bo'lsa, Yassi-Chaman jangida Jaloliddinning jang maydonini tark etishini shom va rum jangchilari yolg'ondakam chekinib, pistirma qo'ymoqchi deb o'ylaganliklari voqeasi ham Jaloliddin ko'pgina kichik janglarda bu usuldan ko'p foydalanganligini ko'rsatadi [7,381; 11,240; 13,165].

Jaloliddin Manguberdi jang taktikasiga mo'g'ullarning ta'siri bo'lganligi ham haqiqat. Jumladan, Sulton dushmanlarini aldash uchun hiyla ham ishlatgan. Masalan, u mo'g'ullarning bayrog'iga o'xshash oq sanjoq va mo'g'ul kiyimlari bilan Isfaxondan chiqib, Ray shahrida turgan ukasi G'iyosiddin qo'shiniga hujum qiladi. Mo'g'ullardan juda qo'rqib qolgan G'iyosiddin lashkarboshilari darrov qochishga tushadi [8,393-394].

XULOSA VA TAKLIFLAR (CONCLUSION/RECOMMENDATIONS).

Xulosa sifatida shuni ta'kidlashimiz lozimki, Xorazmshoh – anushteginlar davlatining harbiy salohiyati, qurollanishi darajasi va harbiy jang usullari va shakllari, harbiy san'ati taraqqiyotiga ko'chmanchi turkiy qabilalar ta'siri juda kuchli bo'lgan. Ammo, aynan shu jihat uning jahon imperiyasi darajasidagi davlat bo'lib shakllanishida eng muhim omillardan biri

bo‘lgan bo‘lsa, afsuski, inqirozga uchrab mo‘g‘ullardan yengilib, davlat sifatida tugatilishiga ham aynan shu ko‘chmanchilar ta‘sirining haddan tashqari oshib ketishi sabab bo‘lgan.

Foydalanilgan adabiyotlar va manbalar:

1. Ал-Истахри. Китаб месалик ал-мемалик. // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). т. I, - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1939. – С.167-181.
2. Ал-Макдиси. Ахсан ат-такасим фи маърифат ал-акалим. // Материалы по истории туркмен и Туркмении (далее МИТТ). т. I, - М.-Л.: Изд-во АН СССР, 1939. – С.184-209.
3. Андриенко В. А. Искусство войны: Древний мир и Средние века. – М.: Самиздат, 2014// <https://nemaloknig.net/read-494/?page=6#booktxt>
4. Бартольд В.В. Туркестан в эпоху монгольского нашествия // Соч. Т. 1. – М.: Вост. лит., 1963. – С. 197-425, 441-442.
5. Бубенок О. Б., Радивилов Д. А. Народ ал-арсийа в Хазарии (из истории хазаро-хорезмских связей) // Хазарский альманах. Т.2. М., 2004. – С.5-19.
6. Буниятов З.М. Государство Хорезмшахов-Ануштегинидов 1097–1231 г. – М, 1986. – 247 с.
7. Жувайний Алоуддин Атомалик. Тарихи Жаҳонкушо.(Жаҳон фотиҳи тарихи)./ Масъул муҳаррирлар: Ҳ.Болтабоев, М. Маҳмудов. – Тошкент: MUMTOZ SO‘Z, 2015. – 504 б.
8. Ибн ал-Асир. Ал-Камил фи-т-та’рих. Полный свод истории / Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова [дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введение и указатели Ш.С. Камолиддина]. – Ташкент; Цюрих: Изд-во АН РУз, 2005. – 595 с.
9. Нефёдкин А.К. Защитное вооружение колесничных коней на Ближнем Востоке в ахеменидский и эллинистический периоды // Античный мир: проблемы истории и культуры. Сборник научных статей к 65-летию со дня рождения проф. Э.Д. Фролова / Под ред. И.Я. Фроянова. СПб., 1998. -С. 249–260.
10. Сабурова С. Ануштагин – Хоразмшоҳлар даврида Хоразм (1097-1231 йй.). – Т.: Nihol, 2008. – 162 б.
11. Рашид ад-Дин. Сборник летописей / Пер. с персидского О. И. Смирновой, редакция проф. А. А. Семенова. – М., Л.: Издательство Академии Наук СССР, 1952. – Т. 1, кн. 2. – 317 с.
12. Шихаб ад-Дин Мухаммад ан-Насави. Жизнеописание султана Джалал ад-Дина Манкбурны / Пер. с араб., предисловие, комментарии, примечания и указатели З.М.Буниятова. – Баку: Элм, 1973. – 450 с.
13. Шихобиддин Мухаммад ан-Насавий. Султон Жалолиддин Мангуберди ҳаёти тафсилоти. / Камол Матёқубов таржимаси./ – Т.: O‘zbekiston, 2006. – 384 б.

ROSSIYA IMPERIYASINING TURKISTON MINTAQASIDAGI TOG'-KONCHILIK SOHASIGA OID MUSTAHKAMLACHILIK SIYOSATI

Turayeva Sayyora Rustambayevna,

O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizlik universiteti professori tarix fanlari doktori (DSc)

Annotatsiya: Ushbu maqolada Turkiston hududiga tabiiy boyliklarini o'rganish, tabiiy konlarning joylashgan hududidini, tabiiy boylik zahirasini miqdorini aniqlash maqsadlarida Rossiya imperiyasi tomonidan tashkil etilgan ekspeditsiyalar haqida ma'lumot berilgan. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonliklari hududida tashkil etilgan turli jamiyatlar qatorida tog'-kon sohasiga tegishli bir qancha aksionerlik jamiyatlari ham tuzilib, Rus geografiya jamiyati tashkil etgan ekspeditsiyalar tufayli Turkiston o'lkasining geologik xaritasining tuzilishi haqidagi ma'lumotlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Turkiston, tog'-kon ishi, ekspeditsiyalar, oltin, qimmatbaho metallar, kumush, geologik tadqiqotlar.

ПОЛИТИКА РАЗВИТИЯ РОССИЙСКОЙ ИМПЕРИИ В ОТНОШЕНИИ ГОРНОДОБЫВАЮЩЕЙ ОБЛАСТИ В РЕГИОНЕ ТУРКЕСТАНА

Тураева Сайёра Рустамбаевна

доктор исторических наук, профессор Университета общественной безопасности Республики Узбекистан

Аннотация: В статье приводятся сведения об экспедициях, организованных Российской империей на территорию Туркестана с целью изучения его природных богатств, определения местонахождения природных рудников, количества запасов природных ресурсов. Во второй половине XIX - начале XX века среди различных обществ, возникших на территории Туркестанского края, Бухарского эмирата и Хивинского ханства, образовался ряд акционерных обществ, связанных с горнодобывающей отраслью, а благодаря экспедициям, организованным Русским географическим обществом, были проанализированы сведения о строении геологической карты Туркестана.

Ключевые слова. Туркестан, горное дело, экспедиции, золото, драгоценные металлы, серебро, геологические исследования.

DEVELOPMENT POLICY OF THE RUSSIAN EMPIRE REGARDING THE MINING FIELD IN THE REGION OF TURKESTAN

Turaeva Sayyora Rustambaevna,

Doctor of History (DSc), Professor of Public Security University of the Republic of Uzbekistan

Abstract: This article provides information about the expeditions organized by the Russian Empire to the territory of Turkestan for the purpose of studying its natural resources, determining the location of natural deposits, the amount of natural resources reserves. In the second half of the 19th and early 20th centuries, various societies, driving the territory of Turkestan, Bukhara Emirate and Khiva Khanate, formed a number of joint-stock societies, connected with mining companies, thanks to the expedition organized by the Russian Geographical Society, with the analysis of data on the structure of the geological map of Turkestan.

Keywords. Turkestan, mining, expeditions, gold, precious metals, silver, geological research.

XVII asrning boshlaridayoq Turkiston mintaqasining tabiiy boyliklarini egallashga bo'lgan intilishi Rossiya imperiyasining mintaqaga hududiga bostirib kirishga urinishlariga sabab bo'ldi. Rossiya hukmdori Petr I (1672-1725) tomonidan urushlarning uzluksiz davom ettirilishi davlat xazinasiga sezilarli putur etkazgan edi. Natijada imperiyaning oltinga bo'lgan ehtiyoji kuchayib bordi. Petr I urush xarajatlarini qoplash va armiyani ta'minlash maqsadida senatga "Oltin davlatning qon tomiridir", deb xat yozib, oltin-kumush konlarini qidirib topish zarurligini uqtirib o'tdi. Huddi shu vaqtda, ya'ni 1713 yil Nasafxo'ja ismli turkman Astraxanga borib, Amudaryodan oltin qum olinishi va o'tmish zamonlarda uning Kaspiy dengiziga quyilganligini aytgan. Ayni zamonda, Petr Iga Sibir general-gubernatori Gagarin Sharqiy Turkistonning Yorkent shahridan o'tadigan daryoda ham oltin qumi borligi haqida ma'lumot beradi [1].

1714 yilda Petr I Sibir orqali Yorkentga harbiy yurish uyushtirish haqida Sibir general-gubernatoriga farmon beradi. Shu yilning o'zidayoq A. Bekovich-Cherkasskiy boshchiligidagi harbiy ekspeditsiya Xorazm hududidan oltin, kumush izlashga yuboriladi. Bu haqida "Firdavs ul- iqbol" asarida quyidagicha yoziladi: "tovuq yili o'ris to'ralaridan Davlat Girey va Andrey gubernot o'ttuz ming o'rus bila Shiyx Jalil tog'ikim, oltin va kumush ma'danidur, aning orzusi, balki, Xorazm fathining istagi bila Orol hududig'a nuzul qildi"[2].

XVIII asr oxirida Toshkent xoni YUnusxon (1784-1809 y.) «o'z erida oltinning ko'pligini tekshirish uchun» ma'danlar bo'yicha bilimdon odamlarni yuborish iltimosi bilan Rossiya podshohiga murojaat qilgan. Shundan so'ng O'rta Osiyodagi mutaxassislar tomonidan mineral-xom ashyo resurslarini o'rganish ishlari boshlangan. 1794 yilda Omskdan Toshkentga serjant Burnashev jo'nab ketgan. Ammo "Buxoro deb nomlangan mahalliy shaharda o'sha er egasi SHamrat Bek (SHohmurodxon, 1785-1800 y.) uzoqroq yurishga ruxsat bermagan" va shu sababli yuborilganlar orqaga qaytishga majbur bo'lganlar[3].

1797 yil iyun oyida Yunusxon rus podshohiga yo'llagan maktubida "menga hukmronligim ostidagi hududdan topilgan beshta konni sinab ko'rish uchun metallurgiyada mahoratli ikki kishini yuborishingizni iltimos qilaman" deb yozgan edi. Kansler Bezborodov o'z javobida "sizning talabingizni qondirish uchun siz talab qilgan mohir mineralologlar rasmiy kishilaringiz hamrohligida yuboriladi", deb yozadi.

Xuddi shunga o'xshash, Turkiston xonliklarining Rossiya hukumatiga yo'llagan, kon va metallurgiya sohasidagi bilimdon shaxslarni mintaqaga yuborish haqidagi iltimoslari XIX asrning birinchi yarmida tez-tez uchraydi. Jumladan, 1831 yilda Qo'qon xoni rus podshosidan "oltin va kumushni eritishni biladigan ikki mutaxassisni" yuborishini so'ragan. Biroq, ushbu iltimosning natijasi, Qo'qon xonligiga kim va qachon yuborilganligi yoki umuman bu talab qondirilganligi haqidagi ma'lumotlar mavjud emas.

1838 yilda Nikolay I Buxoro xoni yuborgan elchining iltimosiga binoan, u erga konchilik mutaxassislarini yuborishga qaror qilgan. 1839 yil noyabrda shu maqsadda uyushtirilgan ekspeditsiya karvon ko'rinishida Buxoroga yo'l olgan. Ushbu ekspeditsiyani mayor Kovalevskiy boshqargan. U bilan birga kon muhandisi Gengross, tarjimon Shtayger, ikkita hunarmand va to'rt kazak borganlar. Ular xonning iltimosiga ko'ra mahalliy rudalarni, qimmatbaho toshlarni qidirishlari kerak edi. Biroq, yo'lda qaroqchilar hujumiga uchragan ekspeditsiya O'rta Osiyoga etib kela olmagan va ortga qaytishga majbur bo'lgan[4]. Rossiya hukumati mintaqaga bunday ekspeditsiyalarni uzluksiz yuborib turganligi haqida ma'lumotlar ko'p.

1841-1842 yillarda tog'-kon muhandisi K.F. Butenev Buxoroga yuborilgan. Unga «Buxorodan topilgan foydali metall va toshlarni, rudalarni, ma'danlarni o'rganish» vazifasi topshirilgan. Zarafshon daryosi yuqori oqimida tog'-kon muhandisi toshko'mir konlari, kvarsli qo'rg'oshin, temir kuporosili konlarni aniqlagan. Ish natijasi bir necha maqolalarda o'z aksini topgan[5].

K.F. Butenev: «Buxoroda o'sha davrga nisbatan hunarmandchilik ham juda past darajada turgan paytda, zavod ishi yo'q, qachonki mahalliy hukumat shu yo'sinda harakatsiz turar

ekan, bo'lishi ham mumkin emas», – degan fikrni bildirgan. U mahalliy hokimiyatni “davlat hisobidan bunday tabiiy boyliklarni qayta ishlash zavodlarini qurish nechog'lik foydali ekanligini ko'ra olmaslikda” ayblagan. Shuningdek, xususiy tadbirkorlar zavodlar qurishga jur'at eta olmasligini, chunki uning foydasi davlat g'aznasiga olib qo'yilishi mumkinligidan cho'chishini qayd etgan. K.F.Butenev Buxoroning meneral boyliklarini baholar ekan: “Shu paytgacha Buxoroning tog'-kon boyliklari umuman ishlatilmagan”, – degan fikrni ta'kidlaydi.

Yu. Skayler o'z kitobida 1841-1842 yillarda tog'-kon muhandislari missiyasi tarkibida Buxoroga kelgan A.A. Leman aynan shu davrda Raboti Malikda ham bo'lib, uning rasmlarini chizib qoldirganligini eslatib o'tgan[6].

O'rta Osiyo xonlari mintaqada tog'-kon ishlari bo'yicha mutaxassislar yo'qligi sababli qo'shni rivojlangan davlatlar hukmdorlariga murojaat qilib, malakali konchilik muhandislarini yuborishlarini so'raganlar. Hatto kon ishidan yuzaki xabardor bo'lgan qo'shni davlatlar mahbuslari mehnatidan ham foydalanishga harakat qilganlar. Bunday tashabbuslar doimo kutilgan natijani beravermagan. Shu maqsadda 1794-1795 yillarda Buxoroga tog'-kon muhandisi T. S. Burnashev kelgan edi[7]. U o'zining qaydnomalarida Buxoroga mis, temir, qalayning Rossiyadan olib kelinishini, bu erda oz miqdorda bo'lsa-da, qo'rg'oshin, oltingugurt, mis kuporosi, nashvadil, achchiqtosh, selitra va tuz qazib olinishini qayd etgan edi.

1800 yilda Toshkent hukmdori Yunusxo'janing taklifi bilan T. S. Burnashev M. Pospelov bilan birgalikda Toshkentga kelgan. Ular bu erda oltingugurt olishni tashkil etish hamda Toshkent yaqinida konlar qidirish ishlariga jalb etilgan. Biroq, bunday sa'y-harakatlar O'rta Osiyoda konchilik ishining rivojlanishiga olib kelmagan edi.

Geologik tadqiqotlar O'zbekistonning tarixiy hududida XIX asrning 30-yillaridan boshlangan bo'lsa-da, XIX asrning oxirida, Rossiya imperiyasining O'rta Osiyoga bosqinidan keyin yanada jadallashgan. 1839 yilda Buxoro xoni Nasrullohxon (1826-1860 y.) Nikolay I huzuriga Boltaqulibek Raxmatbekovni elchi qilib yuborgan. Elchi “Buxoro erlariga bu erdagi foydali ma'danlar, metall ruda va qimmatbaho toshlar mavjud joylarni qidirish uchun tog'-kon injenerlaridan yuborishini” so'rashga yo'naltirilgan mazmundagi maktub bilan murojaat etgan. Shundan so'ng Buxoroga rus tog'-kon muhandisi – kapitani Kovalevskiy jo'natilgan. Ammo u Xivaga qarshi Rossiya harbiy yurishlari boshlanganligi tufayli o'ziga yuklatilgan vazifani bajara olmagan. 1840 yil oxirida Rossiya elchilari O'rta Osiyo xonliklari hukmdorlari bilan muzokaralar olib borganlar. Shundan so'ng mahalliy hududni o'rganish va kuzatuvlar olib borish ishlari uchun mas'ul guruh tuzilgan. O'sha paytda Orenburgda bo'lgan markaziy shtab kapitani Nikiforov ushbu missiyaga rahbar etib tayinlangan. U Rossiyaning Xivadagi muvaqqat agenti bo'lishi lozim edi. Rossiyaning doimiy agenti etib, Orenburg chegara komissiyasining poruchigi Aitov yuborilgan bo'lib, “bu kishi xonga yaqin amaldoriga qarindoshlik rishtalarini bog'lab, Nikiforovga foydali shaxs bo'lishiga shubha yo'q” edi. Mazkur shaxslar Buxoro va Xivaning Rossiyadan qaytayotgan elchilari hamrohligida 1841 yil 1 mayda Orenburgdan yo'lga chiqishi ko'zda tutilgan edi. Orenburg general-gubernatori V.A. Perovskiy yana bir missiya uyushtirishga qaror qilgan. Ushbu missiya tarkibida Rossiya hukumatiga sodiq xizmatda bo'lgan bir necha qirg'iz va ikki yuz kazaklar kiritilgan. Bu missiyaga rahbar etib tog'-kon muhandisi mayor K.F.Butenev (1805-1869 y.) tayinlagan. Ushbu xizmati evaziga K.F.Butenevga podpolkovnik unvoni berilgan edi.

1841 yil 11 fevralda tog'-kon muxandislari Korpusining boshqaruvchisi K.F.Butenevga maxfiy ko'rsatma berilganligi qayd etiladi. Maxfiy ko'rsatmaning mazmuni quyidagicha bo'lgan: “O'tgan yili (1840 yil) Buxoro xonining iltimosiga ko'ra, tog'-kon tekshiruvi hamda foydali ma'danlar, metall ruda, qimmatbaho toshlar mavjud konlarni aniqlash maqsadida ekspeditsiya yuborilgan edi. Ushbu ekspeditsiya Xivaga harbiy harakatlar bo'lganligi bois, Orenburgga qaytib kelgan. Rossiya hukmdori Buxoroga xon bilan kelishuvga binoan shu yil (ya'ni, 1841 yil) bahorda yana ekspeditsiya jo'natish maqsadida ekanligini bildiradi”[8].

Ekspeditsiya tarkibida 2 ta tog'-kon muhandisi, bitta shteyger (kon ishini boshqaruvchi

mutaxassis) va 2 ta tog‘-kon korpusi ma‘muriyatidan ustalar, tarjimon, topograf, oltita kazak, Tashqi ishlar vazirligi va Orenburg harbiy gubernatori tomonidan tavsiya etilgan sakkizta qog‘oqlar bo‘lgan. Qolgan shaxslarga ekspeditsiya a‘zolarini buyumlari bilan chegaragacha kuzatish vazifasi topshirilgan.

K.F. Butakov missiyasining 1841-1842 yillarda O‘rta Osiyoda bo‘lganligini mahalliy manbalar ham tasdiqlaydi. Mazkur davrda Buxoro xoni Nasrullohxon ingliz harbiy zobiti Stoddart va Kanollini zindonband (1838-1842 y.) etgan edi. Ularni Afg‘onistonga yuborishlarini so‘rab, Angliya ma‘muriyati Rossiya hukumat doiralari bilan muzokaralar uyushtirgan. Inglizlar K.F. Butakov vositachiligida ushbu harbiy zobitlarni ozod qilishga uringanlar. Ammo bu ishlar natija bermagan. Xususan, Mirzo Olim Maxdum hoji o‘zining “Tarixi Turkiston” asarida bu voqeani quyidagicha qalamga olgan: “... Bu ishdin xabar olib, ingliz hukumati Rusiya davlatiga murojaat qilib, boshqa maslahat ila Buxoroga yuborilmish Rusiya ma‘muri janob Butaquf/ Butakov vositasi ila polkovnik Sutud Dorat ozod qilinib, afg‘on sarhadiga yuborilmog‘ini talab qildi. Bu xususda janob Butaqufga Pitrograddin amr berildi. Lekin amir Nasrullohxon Rusiyaning iltimosiga ham quloq solmagan. Hattoki, Rusiya elchisi Butaqufni talab qilgan, ot ustuda ko‘rushib qoldi... ”[9].

1841-1842 yillarda Buxoroga kelgan K.F. Butakov missiyasiga Rossiya ma‘muriyati qator maqsad va vazifalarni belgilab bergan edi. Rossiyalik olim A.V. Postnikov o‘z tadqiqotlarini buni chuqur tahlil qilib, quyidagi ma‘lumotlarni keltirgan. Rossiya imperiyasining tashqi siyosiy arxivida saqlanayotgan hujjatlarning dalolat berishicha, Tashqi ishlar vazirligi tomonidan K.F. Butakovga maxfiy ko‘rsatmalar beriladi. Unga ko‘ra, “shu yilning (1841) mart oyi oxiridan kechiktirmay janob harbiy gubernator general-adyutant Perovskiyni murojaat qiling, u sizni sayohat uchun zarur bo‘lgan barcha narsalar bilan ta‘minlagandan so‘ng jo‘nab ketasiz”.

K.F. Butakovga tog‘-kon muhandislari korpusining boshqaruvchisi tomonidan (shaxsi ko‘rsatilmagan) quyidagicha yozma ko‘rsatma berilgan: “Buxoroga etib borganingizda, Buxoro hukumati hoxishiga ko‘ra va ko‘rsatmalarga binoan foydali va eng muhim qimmatli foydali qazilma konlarini qidirish va iloji boricha ularni qazib olishni tashkil etish bilan shug‘ullanasiz, harakatlaringizni mahalliy sharoit va mintaqa usullarini hisobga olib bajaring. Mahalliy usullardan shu paytgacha biz uchun umuman noma‘lumlarini kuzating. Ammo, Buxoro haqida allaqachon umumiy bo‘lgan ma‘lumotlarga ko‘ra, sizning tog‘-kon tadqiqotingizning asosiy mavzusi ushbu mamlakatda oltin qazib chiqarishni joriy etish bo‘lishi kerak deb taxmin qilish mumkin. Siz va sizning yordamchingiz leytenant F. Bogoslovskiy II mahorat bilan ishlatadigan ba‘zi oddiy mexanik va gidravlik qurilmalar tashkil etilishi ayniqsa foydali ko‘rinishi mumkin. Va nihoyat, po‘latini qayta ishlashga e‘tibor bering, Buxoroda u azaldan ma‘lum bo‘lgan, bizning mamlakatda bu yaqinda Zlatoustda ishlov berish sezilarli darajada yaxshilangan. Shuning uchun u erdan sizga ushbu ish bilan band bo‘lgan bitta hunarmand tayinlangan. Shu jumladan, Osiyo departamenti tasarrufiga maxsus miqdordagi mablag‘ ajratilgan bo‘lib, yana Zlatoust zavodining po‘lat qurollarining ba‘zi namunalaridan sovg‘a tariqasida o‘zingiz bilan olib ketasiz. Buxoroda bo‘lganingizda, iloji boricha Buxoro tuprog‘ining geologik tuzilishi, ushbu mamlakatning ajoyib iqlimi va tabiiy holati to‘g‘risida ma‘lumot to‘plashga harakat qilishingiz kerak; uning tog‘-kon boyliklari ayniqsa, qimmatbaho metallar va toshlari haqida hamda qo‘shni davlatlar bilan ularning savdosi, masalan feruza toshi savdosi holati haqida ma‘lumotlar to‘plang. Mahalliy tog‘-kon mahsulotlarini ishlab chiqarish holati, buxoroliklarga yaxshi ma‘lum po‘latga ishlov berishning Xuroson va hindcha usullari, yana bir qancha yaxshi ma‘lum mahalliy usullari sirini o‘rganishga harakat qiling. Buxoroda metallar va bizning tog‘-kon zavodlarimiz mahsulotlarimiz savdosi to‘g‘risida; - bu bizning (Rossiyaning) mahalliy narxlarimizga nisbatan mahalliy narxlar to‘g‘risida; - bu sotiladigan joylar to‘g‘risida; - ushbu bozorni kengaytirish vositalari haqida: sotish narxlarini pasaytirish, bu joylarga tog‘-kon

mahsulotini olib kelib sotish va ishlab chiqarishni takomillashtirish, yoki osiyoliklar didi va ushbu mamlakatlarning ehtiyojlariga muvofiq mahsulot ishlab chiqarish yo'llarini axtarish lozimligi, nihoyat, Buxoro va unga qo'shni erlarda sotish uchun yangi va foydali mahsulotni yaratishi mumkin bo'lgan tog'-kon fabrikalarimizning ishlari to'g'risida ma'lumot to'plashga astoydil sa'iy harakat qiling. Siz, ayniqsa, Buxoro va qo'shni mamlakatlarning savdo aloqalarida Ural yoki Sibirdan yashirin yo'llar bilan oltin savdosi amalga oshirilmaydimi va agar u mavjud bo'lsa, unda qanday asosiy yo'llar bor va uni qay darajada ahamiyatli deb hisoblash mumkin? Siz bizning Osiyo bilan savdo-sotig'imiz haqida ma'lumotlar to'plang va bu erda manufaktura Departamentining kaysi buyumlarga asosan maxsus ko'rsatmalar tavsiya etilishiga e'tibor qarating. Imkoniyat paydo bo'lganda, siz menga asosiy faoliyatingiz va muvaffaqiyatlaringiz haqida hisobot berib turing. Rossiyaga qaytib kelganingizdan so'ng, siz yuqorida keltirilgan barcha ma'lumotlarni, shuningdek o'zingizning ishingiz davomida to'liq hisobotni va tog'-kon ishlarida erishilgan yutuqlarni taqdim etasiz, unga butun ish safari davomida kun sayin saqlashingiz kerak bo'lgan sayohat jurnalini ilova qilasiz. Tashqi ishlar vazirligi va ishlab chiqarish vazirligidan olinadigan ko'rsatmalar bo'yicha hisobot, tegishli ravishda alohida ravishda topshirilishi kerak. Sizni yuqoridagi topshiriqni bajarishingiz uchun alohida ehtiyotkorlik, kuzatuvchanlik va tezkorlik talab qilinadi. Sizni tanlaganimizdan va siz uni muvaffaqiyatli bajarish uchun barcha xohishingiz va maxsus qobiliyatingizni ishlatishingizga ishonaman"[10].

Mazkur hujjatda keltirilishicha, xizmat o'tayotgan joyidan Rossiyaning chegarasiga qaytib kelguniga qadar K.F. Butakovga 50 chervon, leytenant Bogoslavskiyga 30 chervon, 2ta tog'-kon muhandisi va shteyger (kon ishini boshqaruvchi mutaxassis)ga – 5 chervondan, ikkita tog'-kon korpusi ma'muriyati ustalariga – 3 chervondan ish haqi berilishi belgilangan. Bundan tashqari, har bir ekspeditsiya a'zosiga chet elda ishlaganlik uchun maoshining yarim yilligi ushlab qolinmasdan berilishi lozim bo'lgan.

Ekspeditsiya a'zolari Buxoroning tabiiy boyliklarini o'rganish va o'zlashtirish bilan bog'liq tadqiqotlari bilan bir qatorda, savdo bozorlarining holati, tovarlarning harakati, O'rta Osiyoda rus mahsulotlariga bo'lgan ehtiyoj, shuningdek, Hindiston orqali Buyuk Britaniyada ishlab chiqarilgan tovarlarning Osiyo bozorlariga kirib kelishi masalalariga ham e'tibor qaratilishi kerak edi. Bu vazifalarning barchasi Rossiya Tashqi ishlar vazirligi tomonidan 1841 yil 6 martda Nikolay I tomonidan tasdiqlangan "Buxoroga kon muhandislari korpusi tomonidan yuborilgan podpolkovnik Butenevga ko'rsatma" deb nomlangan hujjatda qayd etilgan edi.

K. Butenev ekspeditsiyasiga ikki xil topshiriq berilgan: 1) Buxoro xonligi va uning tasarrufidagi erlar, boyliklar to'g'risida ishonchli va ijobiy ma'lumotlarni to'plash; 2) Buxoro hukmdori bilan Rossiya-Buxoro hukumatlarining o'zaro munosabatlari to'g'risidagi qarorning ba'zi shartlarini ishlab chiqish.

K.F. Butenev Zarafshon daryosining yuqori oqimidagi toshko'mir konlari, kvarsli qo'rg'oshin, temir kuporosili konlarni aniqlagan. Ish natijasi bir necha maqolalarda o'z aksini topgan[11].

K.F. Butenevning missiyasi tarkibiga "buxoroliklar xarakteriga va Rossiyaning O'rta Osiyodagi ehtiyojlariga yaqin bo'lgan amaldorni" kiritish to'g'risida ham buyruq berilgan. SHarqshunos olim N.V.Ханыков (1822-1878 y.) ana shunday mansabdor shaxs sifatida tayinlangan. N.V.Ханыков Tashqi ishlar vazirligining Osiyo bo'limida ishlagan, O'rta Osiyo mavzusini uzoq vaqt o'rgangan va bundan tashqari, fors tilini yaxshi bilgan.

SHunday qilib, 1841-1842 yillarda Orenburgdan Sirdaryoga ikkita missiya harakatlangan: bittasi – kapitan Nikiforov boshchiligida Xivaga; boshqasi – kon muhandisi K. Butenev qo'mondonligi ostida Buxoro borganlar. Ularga I.F Blaramberg (1800-1878.) boshchiligidagi topograflar guruhi hamrohlik qilgan.

Ekspeditsiya tugagach, kerakli ma'lumotlar yig'ilgan va shundan so'ng 1852 yilda Qo'qon xonligi chegaralariga Rossiya imperiyasi armiyasining jangovor harakatlari boshlangan.

Rossiyalik tadqiqotchilar tomonidan O'rta Osiyo mintaqasiga uyushtirilgan yana bir missiya Hisor ekspeditsiyasi bo'lib, 1875 yilda tashkil etilgan. Uning tarkibida N.A. Maev, F. SHvars, D.M. Vishnevskiy, tarjimon YU. Kazbekov, fotograf G.E. Krivsevlar bor edi. 1875 yil sentyabrda Hisor tizma tog'laridan to Amudaryoga qadar bo'lgan erlarni o'rganish uchun Samarqanddan 5 kishilik ekspeditsiya yo'lga chiqqan. Ekspeditsiya 1875 yil 14 noyabrda 40 kunlik safardan keyin poyoniga etgan[12].

Ushbu mintaqani tizimli tadqiq etishga asos solgan birinchi geolog taniqli rus olimi I.V.Mushketov bo'lib, u Turkiston general-gubernatori K.P.Kaufman tomonidan moliyalashtirilgan ekspeditsiyalarni uyushtirgan. 1874 yildan boshlab u Samarqand va Toshkent o'rtasidagi Sirdaryo vodiysini o'rganishni boshlagan. Keyinchalik, 1876 yilda Qo'qon xonligi Rossiyaga qo'shilib, Oltoy vodiysi va undan keyin Pomirga yo'l ochilganda, I.V. Mushketov Farg'onaning Oloy va oloy orti tizmalaridagi tog'larda va boshqa ko'plab viloyatlarda bo'lgan. Yo'l-yo'lakay u ushbu hududlarning geologik tuzilishini o'rgangan. Safari davomida ilgari ma'lum bo'lgan ruda va ko'mir konlarini o'rganib chiqib, yangi konlarni qidirish bilan shug'ullangan. U Konsay daryosi vodiysida er po'stlog'ining bir nechta qo'rg'oshin rudali tomirlarini topgan. Bu davrda G.D.Romanovskiy Sirdaryoning o'rta oqimi hududlarida geologik tadqiqotlar olib borgan edi.

Shu tariqa, I.V. Mushketov[13] va G.D.Romanovskiylar[14] o'z davrida Turkiston o'lkasining geologiyasi borasidagi bilimlarning kengayishiga katta hissa qo'shganlar. Bundan tashqari, 1881 yilda ular birgalikda "Turkiston o'lkasining geologik xaritasi" ni yaratganlar. SHunisi e'tiborga loyiqki, bu ikki olim O'rta Osiyo hududlarining geologik va geografik tuzilishini ilk bor zamonaviy qarashlar asosida tadqiq etganlar. Bu bilan geologik jihatdan murakkab mintaqa hisoblangan O'rta Osiyo er po'stining tuzilish xususiyatlari to'g'risidagi ma'lumotlarni yanada boyitgan edilar.

V.N. Veberning turli xil geologik tadqiqotlari ham O'rta Osiyo hududlarini geologik jihatdan o'rganish ishlariga katta hissa qo'shgan edi[15]. Olimning Turkiston minerallariga bag'ishlangan kitobida hududda uchragan tabiiy qazilmalarning tavsifi keltirilgan. V.N Veberning izlanishlari haqida to'xtalib, O'rta Osiyoning eng yirik tadqiqotchilaridan biri B.N. Nasledov shunday yozgan edi: "u birinchilar qatorida O'rta Osiyoda ma'dan tarkibining xilma-xilligi va muammolariga e'tibor qaratdi va birinchi marta inqilob boshlanguniga qadar O'rta Osiyodagi konlarni hisobga olish bo'yicha juda katta ishlarni amalga oshirdi. ...".

D. V. Nalivkin geolog bo'lmasa-da, shaxsiy kuzatuvlari natijasida Pomirning tuzilishi to'g'risida tasavvurga ega bo'lgan birinchi tadqiqotchilardan bo'lgan edi. O'zidan oldingi ma'lumotlarning tahlili va shaxsiy tadqiqotlari natijalari asosida D.V. Nalivkin Pomir tuzilishining birinchi tektonik sxemasini yaratgan. Mazkur xaritada birinchi marta nisbatan yosh cho'kindi jinslarning shimoliy chiziqlar bo'ylab yuqori paleozoy, mezozoy va kaynozoy davrlarida tarqalishini ko'rsatgan.

D.V. Nalivkin Sovuqsoy, Arzing, Vanch, Yazgulem, Kudara va Tanim daryolari havzalarida oltin qazib olish sohalarini qisqacha tavsiflab bergan edi. 1916 yilda uning "1915 yil yozida tog'li Buxoro va G'arbiy Pomirga sayohati to'g'risida dastlabki hisobot» maqolasi chop etilgan.

XIX asrning so'nggi choragi – XX asr boshlarida Rossiya geografiya jamiyatining tashabbusi bilan N.M.Prjevalskiy, V.I.Roborovskiy, M.V. Pevsov, G.N. Potanin, V.A. Obruchev, G.E. Grum-Grjimaylo, P.K. Kozlov va boshqa qator olimlar O'rta Osiyo mintaqasini ilmiy jihatdan o'rganganlar[16]. Rus geografiya jamiyati Sankt-Peterburg shahrida Nikolay I ning buyrug'i asosida 1845 yil 18 avgustda tashkil etilgan[17]. Jamiyatning birinchi raisi Nikolay I ning ikkinchi o'g'li Buyuk knyaz Konstantin (1821-1892 y.) edi.

Rus geografiya jamiyati ekspeditsiyalari tufayli O'rta Osiyoning zamonaviy fizik xaritasi yaratildi. SHu bilan birga, mintaqaga kelgan olimlarning maxsus tadqiqotlari zoologiya,

botanika, ornitologiya, geologiya, metrologiya, iqlimshunoslik, gidrologiya, arxeologiya, paleontologiya, etnografiya kabi fanlarni sezilarli darajada boyitgan. Ekspeditsiyalar tarkibida mintaqaga kelgan geologlar O'rta Osiyo hududlarining geologik tuzilishi, tabiiy qazilma boyliklarini o'rganibgina qolmay, mintaqa xalqlarining geologiyaga oid bilimlari va tabiiy boyliklardan foydalanish usullari haqidagi ma'lumotlarni yig'ib, tahlil etganlar.

Rus geografiya jamiyati doirasida 1877-1878 yillarda Turkiston general-gubernatori K.P. fon Kaufmannning tashabbusi va moliyaviy ko'magi hisobiga bir qator katta-kichik ekspeditsiyalar amalga oshirildi. Masalan, 1878 yilda G'arbiy Sibir general-gubernatori N.G Kaznakov mablag'lari hisobiga Pevsovning Kuku-Xotodagi ekspeditsiyasi tashkil etilgan. 1879 yilda Maevning Buxoro xonligiga safari Turkiston general-gubernatorligi hisobidan va uning topshirig'i bilan amalga oshirilgan[18].

Jamiyat Ichki ishlar vazirligi huzurida tashkil etilgan bo'lib, uning davlat maqomi va maqsadlarining strategik ahamiyati ta'kidlangan.

Xullas, keyinchalik aniq bo'lishicha, sof ilmiy tadqiqotlar olib borishdan tashqari, Rus geografiya jamiyati harbiy razvedka va Rossiya imperiyasining boshqa mintaqalardagi, shu jumladan Turkiston mintaqasidagi strategik va geosiyosiy manfaatlarini o'rnatishda eng to'g'ridan-to'g'ri ishtirok etdi. XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi, Buxoro amirligi va Xiva xonliklari hududida tashkil etilgan turli jamiyatlar qatorida tog'-kon sohasiga tegishli bir qancha aksionerlik jamiyatlari ham tuzilgan. Ushbu jamiyatlar metropoliya vakillarining o'lka tabiiy boyliklarini istaganicha tasarruf etishi hisobiga konchilik sohasini rivojlantirish va mintaqadagi tabiiy boyliklarni o'zlashtirish evaziga mustamlakachi sarmoyadorlarning boyishiga xizmat qilgan.

Adabiyotlar ro'yxati.

1. Зиёев Х. Туркистонда Россия тажовузи ва ҳукмронлигига қарши кураш. – Тошкент. “Шарк”, 1998., - Б. 54.
2. Мунис ва Огахий. Фирдавс ул- иқбол. (Бахту саодат жаннати) . Араб ёзувидан таъдбир этган, кириш ва изоҳлар муаллифлари Ш. Воҳидов, И. Бекчанов ва Н. Полвонов. – Т. 2010. – Б. 99.
3. Бубнова М.А. Добыча полезных ископаемых в Средней Азии в XVI-XIX вв. – М.1976 –С. 18.
4. Бубнова М.А. Добыча полезных ископаемых в Средней Азии в XVI-XIX вв. – М.1976 –С. 20
5. Бутенев К.Ф. Заводское дело в Бухарии // Горный журнал Ч.IV. Кн. XI. – СПб. 1842. – С. 148-154; Монетное дело в Бухарии // ўша жойда – С. 154-156; Об увеличении сбыта изделий русских горных заводов в Бухарию. // ўша жойда – С. 168-175.
6. Южин Скайлер. Туркистон: Россия Туркистони, Қўқон, Бухоро ва Ғулжага саёҳат қайдлари./ кириш, инглиз тилидан қисқартirilган таржима, изоҳлар ва қўрсаткичлар муаллифи- т.ф.н., доц. З.А.Саидбобоев – Тошкент «O'ZBEKISTON». 2019. – Б. 309.
7. Путешествие от сибирской линии до города Бухары в 1794 году и обратно в 1795 году Т. Бурнашева. / История Узбекистана в источниках известия путешественников, географов и ученых XVI-первой половины XIXв // составитель Б.В.Лунин – Т. :“Фан”. 1988. – С.141.
8. Постников А.В. О целях и задачах российской миссии 1841-1842 гг. в Бухару // Проблемы востоковедения 2012. № 3. С.82-86.
9. Мирзо Олим Махдум хожи. Тарихи Туркистон. – Тошкент. “Янги аср авлоди”наширети, 2009. - Б. 186.
10. Постников А.В. О целях и задачах российской миссии 1841-1842 гг. в Бухару // Проблемы востоковедения 2012. № 3. С.82-86.
11. Бутенев К.Ф. Заводское дело в Бухарии // Горный журнал Ч.IV. Кн. XI. – СПб. 1842. – С. 148-154; Монетное дело в Бухарии // ўша жойда – С. 154-156; Об увеличении сбыта изделий русских горных заводов в Бухарию. // ўша жойда – С. 168-175.
12. Маев Н.А. Бухоро хонлиги очерклари // таржимон т.ф.н. И. Ботиров. – Т.: “ Fan va texnologiya”, 2012. – Б. 7.
13. Мушкетов И.В. Туркестан. Геологическое и орографические описание по данным собранным во время путешествий с 1874 по 1880 г. Т.1. В двух частях. – СПб., Типография М.М.Стасюлевича,1886.
14. Романовский Г.Д. Материалы для геологии Туркестана. Вып. 1. СПб., 1878. (Ушбу асар немис тилида ҳам chop этилган.); Шу муаллиф. Материалы для геологии Туркестана. Вып. II. СПб., 1884. Шу муаллиф. Материалы для геологии Туркестана. Вып. III. СПб., 1890.
15. Вебер В.Н. Геологические исследования в Сирдарьинской области в 1904 году (Предварительный отчет). Известия Геологического Комитета. 1905 г. Том 24. СПб.: Типо-литография К. Биркемфельда, 1905. С. 347 – 369.
16. А. И. Андреев. Российские экспедиции в Центральное Азия (1870- 1920- е годы) : научные и военно – политические аспекты. // Научно – технические ведомости –СПб, ГПУ. Гуманитарные и общественные науки. № 4. 2012. – С. 103-109.
17. Павлов К.А. Русское географическое общество: история и современность. // Современные проблемы сервиса и туризма. №1. 2010. – С. 4. С- 4-8.
18. Яковлева М.Ю. «Азиатские экспедиции императорского русского географического общества в годы правления Александра II» // Теория и практика общественного развития (2013, № 12).

ERONDA ISLOHOTCHI PREZIDENTLAR DAVRIDA DAVLAT IJTIMOIIY-SIYOSIY TIZIMI TRANSFORMATSIYASI

Xodjimuratova Dilshoda Sunnatilayevna
Tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, katta o'qituvchi
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

Annotatsiya. Maqolada Eron Islom Respublikasining islohotchi prezidentlari davrida davlat ijtimoiy-siyosiy tizimidagi transformatsiya jarayonlari tahlil qilingan. Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoniy va Muhammad Xotamiy prezidentlik yillarida amalga oshirilgan liberallashtirish islohotlari, davlat boshqaruvi tizimidagi konseptual o'zgarishlar hamda ichki va tashqi siyosatdagi pragmatik yondashuvlar o'rganilgan. Shia ulamo qatlamining siyosiy jarayonlardagi roli, demokratik institutlar faoliyatining cheklanganligi va davlat boshqaruvidagi ikki raqobatchi – konservatorlar va islohotchilarning o'zaro qarama-qarshiliklari tadqiq etilgan. Shuningdek, Eronda demokratik tendensiyalarning rivojlanishi va ijtimoiy-siyosiy tizimning xususiyatlari islom modernizmi nuqtai nazaridan tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Eron, Ruhullo Xumayniy, Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoniy, "ikkinchi respublika", Muhammad Xotamiy, "Sivilizatsiyalar muloqoti", jamiyatni liberallashtirish, islohotlar.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ГОСУДАРСТВЕННОЙ СОЦИАЛЬНО-ПОЛИТИЧЕСКОЙ СИСТЕМЫ В ПЕРИОД ПРЕЗИДЕНТОВ-РЕФОРМАТОРОВ В ИРАНЕ

Аннотация. В статье анализируются процессы трансформации государственной социально-политической системы Исламской Республики Иран в период президентов-реформаторов. Исследуются либерализационные реформы, проведенные в годы президентства Али Акбара Хашеми Рафсанджани и Мохаммада Хатами, концептуальные изменения в системе государственного управления, а также прагматичный подход к внутренней и внешней политике. Рассматривается роль шиитского духовенства в политических процессах, ограниченность деятельности демократических институтов и противостояние двух конкурирующих групп – консерваторов и реформаторов – в управлении государством. Кроме того, развитие демократических тенденций в Иране и особенности социально-политической системы анализируются с точки зрения исламского модернизма.

Ключевые слова. Иран, Рухолла Хомейни, Али Акбар Хашеми-Рафсанджани, «вторая республика», Мохаммад Хатами, «Диалог цивилизаций», либерализация общества, реформы.

TRANSFORMATION OF THE STATE SOCIO-POLITICAL SYSTEM DURING THE ERA OF REFORMIST PRESIDENTS IN IRAN

Annotation. The article analyzes the processes of transformation in the state socio-political system of the Islamic Republic of Iran during the era of reformist presidents. It examines the liberalization reforms carried out during the presidencies of Ali Akbar Hashemi Rafsanjani and Mohammad Khatami, conceptual changes in the system of state governance, as well as a pragmatic approach to domestic and foreign policy. The role of the Shia clergy in political processes, the limitations of democratic institutions, and the rivalry between two competing groups—conservatives and reformists—in state governance are also explored. Additionally, the development of democratic tendencies in Iran and the characteristics of the socio-political system are analyzed from the perspective of Islamic modernism.

Keywords. Iran, Ruhollah Khomeini, Ali Akbar Hashemi-Rafsanjani, "Second Republic," Mohammad Khatami, "Dialogue of Civilizations," liberalization of society, reforms.

Kirish. Eron 1979-yili amalga oshirilgan islom inqilobi monarxiya tuzumiga barham berib, mamlakatda diniy-siyosiy tizimning yangi modelini yaratdi. Eron davlatchiligi teokratik tamoyillarda tashkil etilganidan buyon uning siyosiy tizimi muayyan transformatsiyaga uchradi. Siyosiy tizimning liberallashtirib borayotgani Eron davlat tizimi modernizatsiya qilinayotganiga ishora qiladi.

1990-yillardan boshlab Eron tashqi siyosati ichki va tashqi omillar ta'sirida transformatsiya bo'ldi. Xalqaro va mintaqaviy maydondagi vaziyat hamda harbiy-siyosiy konyukturaning o'zgarishi Eron tashqi siyosati konsepsiyalarining qayta ishlab chiqishni va yangi hamkorlik yo'nalishlarini izlashni taqozo etdi. Bunday sharoitda 1979-1989-yillar Eron tashqi siyosatining asosiy prinsiplaridan biri bo'lgan "na Sharq, na G'arb – faqat Islom" shiori o'z dolzarbligini yo'qotdi. Eronning ikki raqobatchi kuch o'rtasida muvozanatni saqlashga qaratilgan an'anaviy tashqi siyosat konsepsiyasi yangi dunyo tartibi shakllanayotgan davrda talabga javob bermay qoldi.

Asosiy qism. Siyosiy tizim islohotining birinchi bosqichi Ruhullo Xumayniy vafot etgan va yangi Oliy rahbar saylangan davrga to'g'ri keladi. Pragmatik siyosat tarafdori bo'lgan Ali Akbar Hoshimiy-Rafsanjoniy 1989-yilda prezidentlikka saylanib, hokimiyat tepasiga kelishi Eronning ichki va tashqi siyosatini yanada mo'tadillashtirish imkonini berdi. Eronning 1980-yillardagi tashqi siyosatiga xos bo'lgan global islom inqilobini amalga oshirish borasidagi radikal ritorika yo'qoldi. Bunday sharoitda A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy asosiy faoliyatini milliy iqtisodiyotni liberallashtirish masalalariga qaratdi. Jumladan, u hokimiyat faoliyatini nazorat qilish va davlatning rivojlanish strategiyasini ishlab chiquvchi Fakihlar kengashini tuzish tashabbusini ilgari surdi. E'tiborga loyiq tomoni shundaki, Eron Konstitutsiyasida Fakihlar kengashini tashkil qilish mumkinligi belgilangan bo'lsada, ushbu norma amaliyotga joriylanmagan.

A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy o'zining prezidentlik davrida prezident hokimiyatini kuchaytirishga harakat qildi. Zero, Eron davlat boshqaruvining turli xil tuzilmalari bevosita ijro etuvchi hokimiyat organlari faoliyatiga aralashib, mamlakatda keng ko'lamli islohotlar dasturlarining amalga oshirilishiga to'sqinlik qilardi. Uning parlamentdagi tarafdorlari prezidentlik vakolatiga qo'yilgan ikki muddatli konstitutsiyaviy cheklovni bekor qilishni taklif qildilar. Biroq parlamentdagi islohotchilar bloki vakillarining prezident mavqeini mustahkamlash va vakolatlarini kengaytirishga qaratilgan barcha urinishlari reja bo'yicha kutilgan natijalarni bermadi.

G'arb tadqiqotchilari A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniyning prezidentlik (1989-1997) yillarini "ikkinchi respublika" yoki "savdo-burjua respublikasi" davri deb atashadi. A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniyning ichki va tashqi siyosatga moslashtirilgan pragmatik liberal kursi islom modernizmi g'oyalari asoslangan jamiyatni ijtimoiy-siyosiy liberallashtirish jarayoni boshlanishiga olib keldi.

Siyosiy partiyalar faoliyatini tartibga soluvchi qonun 1981-yilda qabul qilingan bo'lsada, ammo Islom Respublikasi Partiyasi tarqalib ketmagunicha boshqa partiyalar faoliyati rasman taqiqlangan edi. Partiyalar faoliyati tashkil etilishining yangi bosqichi xususiyati shunda ediki, partiyalar ulamolarning ikki siyosiy birlashmasi – konservativ mavqedagi Kurashayotgan ruhoniyyat jamiyati hamda so'l mavqedagi Kurashayotgan ruhoniyyat uyushmasi atrofida shakllandi. Birinchi tashkilot shafeligida 17 ta konservativ qarashga ega bo'lgan kichik partiya va tashkilotlarni birlashtiruvchi "Imom siyosati tarafdorlari fronti" tuzildi. Ruhoniylar barcha siyosiy jarayonlarda yetakchi kuch bo'lishda davom etdilar. Ba'zi tadqiqotchilar 1990-yillarni avtoritarizmdan "dekorativ demokratiya"ga o'tish davri deb ataydilar. Chunki tadqiq etilayotgan davrda Eron jamiyatida "hukmron doiralarning mafkuraviy zulmidan qutulish istagi" paydo

bo‘lgani qayd etildi.

Eronlik ekspertlar fikricha, bu jarayon ayrim siyosatchilarning teokratik tuzumga respublika qiyofasini berish istagi bilan izohlanadi. Biroq “dekorativ demokratiya” tushunchasidan foydalanilganda ham siyosiy hayotda oshkoralikni kuchaytirish va iqtisodiyotni erkinlashtirish siyosatini amalga oshirish tashabbuslari hokimiyat vakolati berilgan din arboblardan chiqishini, yangi partiyani shakllantirish qarori faqat Oliy rahbar roziligi bilan qabul qilinishini, saylovlarga nomzodlar ruhoniyyat tomonidan ko‘rsatilishini inobatga olish kerak.

Ayni vaqtda islom inqilobi davom etayotgan davrda shia ulamolarining islom modernizmi g‘oyalarini qo‘llab-quvvatlagan ba’zi vakillari islom tuzumini saqlab qolgan holda siyosiy hayotda teokratik komponentni cheklash tarafdori bo‘lganlar.

Islohotchilar blokidagi nufuzli shaxslardan bo‘lgan A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy islom inqilobi yetakchisi R.Xumayniy hamda Oliy rahbar A.Xomanaiyning eng yaqin do‘stlaridan biri edi. Eronliklar A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniyini “Amir Kabir” deb nomlardilar. U 1978-1979-yillardagi islom inqilobida o‘zini qat’iyatligi va liderlik sifatlarini yorqin namoyish etgan. R.Xumayniy, A.Xomanaiy, M.Beheshtiy, H.Mo‘ntaziriy, M.Shariatmadoriy kabi davlat arboblari bilan birga respublika va uning institutlarini tuzish, xususan, Islom inqilobi posbonlari korpusini tashkil qilishda ishtirok etgan.

Eron davlat boshqaruvi tizimi transformatsiyasi hamda uning asosida mamlakat ichki siyosati konseptual o‘zgarishida A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy amalga oshirgan keng ko‘lamli islohotlar muhim ahamiyatga molik. E’tiborga loyiq tomoni shundaki, u pragmatik siyosatchi sifatida joriy voqea-hodisalar va shart-sharoitlardan kelib chiqqan holda o‘z qarashlari va yondashuvlarini o‘zgartirib borgan. Uning qarashlari jamiyat va dunyoda bo‘layotgan ishlarga mos ravishda o‘zgarib turgan, ba’zan esa siyosiy konyuktura natijasida yuzaga kelgan. O‘z faoliyati davomida mamlakat uchun muhim masalalarni hal qilishga noodatij yondashuvlarni qo‘llagan. Garchi uning siyosiy qarashlari o‘zgarib turgan bo‘lsa-da, doim kuchli diniy e’tiqodini saqlab qolgan.

Eron hokimiyatida ikki raqobatchi guruh (konservatorlar va islohotchilar) mavjudligi, ularning strategik ichki siyosat masalalarida o‘zaro qarama-qarshiligi izchil va barqaror davlat siyosiy kursini ishlab chiqilishi va amalga oshirilishiga to‘sqinlik qildi. Shunga qaramay prezident A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy tashqi siyosatda Erondagi keng ko‘lamli islohotlar uchun muhim masalalarda, xususan, AQSh bilan munosabatlarni yo‘lga qo‘yishda konservativ muxolifatning ta’sirini yengishga muvaffaq bo‘ldi.

1990-yillar boshida xalqaro va mintaqadagi harbiy siyosiy vaziyat Eron Oliy rahbariyatidan mamlakatning istiqboldagi rivojlanish strategiyasini joriy voqelikdan kelib chiqqan holda yangitdan belgilab olishni taqazo etdi. Mazkur omillar qatorida Eron-Iroq urushida vayron etilgan iqtisodiyotni tiklash orqali barqaror iqtisodiy o‘sishga erishish va ichki moliyaviy inqirozni yengish, demografik siyosatni qayta ko‘rib chiqish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, ijtimoiy himoyani kuchaytirish, xususan, yoshlar uchun ijtimoiy liftni ta’minlash masalalari zikr etiladi. Yuqorida ko‘rsatilgan vazifalar A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniydan zudlik bilan ichki va tashqi siyosat konsepsiyasini konservatorlar ustuvorlik qiluvchi parlament tasdig‘idan o‘tkazishni talab qilardi.

Eron Oliy rahbariyati davlatning istiqboldagi ichki va tashqi siyosati borasida ikki xil fikrda edi. Aksariyat Eron dunyoda yakkalanib qolishiga barham berish va mamlakatni iqtisodiy tiklanish yo‘liga qo‘yish uchun tashqi siyosatda diniy ritorikadan voz kechish kerakligiga amin edi. Ammo A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy va uning tarafdori bo‘lgan parlament raisi boshchiligidagi ko‘pchilik G‘arbga qarshi keskin siyosatni yoqlovchi guruhlarining qarshiligiga duch kelaverdi. Bunga javoban A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy “radikal ritorika Eronni yanada yaxshi ishlashga majburlay olmaydi... Eron o‘zining tashqi siyosatidagi maqsadlarini dushman orttirmay amalga oshirishi kerak”, — deb ta’kidlardi. Unga “G‘arb bilan hamkorlik islomni tahqirlash” deb hisoblovchi Bosh vazir M.Musaviy va boshqa radikal konservatorlar qarshi

chiqishdi. Ammo pragmatik kayfiyatdagi ruhoniya vakillarining voqea-hodisalarni real baholangan xulosalari inobatga olinmadi.

1990-yillar o'rtalaridan boshlab, aholining siyosiy faolligi nisbatan oshgani kuzatildi. Mamlakatda turli xil siyosiy platformadagi partiyalar va nodavlat tashkilotlar yuzaga kela boshladi. 1996-yilda o'tkazilgan parlament saylovlari jarayonida ijro hokimiyatidagi A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy g'oyalarini qo'llab-quvvatlovchi pragmatik fikrlaydigan yuqori va o'rta bo'g'in rahbarlari yangi jamoat tashkiloti – "Bunyodkorlar" partiyasini tuzdilar. Mazkur partiyaning faoliyati jamiyatda liberal kayfiyatlar kuchayishiga, ijtimoiy harakatlarning faollashishiga hamda fuqarolarning siyosatdagi ishtiroki kengayishiga xizmat qildi.

1997-yilda A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniyning ikkinchi prezidentlik muddati tugashi munosabati bilan uning do'sti Muhammad Xotamiy Eronning yangi prezident etib saylandi. Muhammad Xotamiy o'zidan oldingi prezident A.A.Hoshimiy-Rafsanjoniy siyosatini davom ettirgan holda Eronda respublikachilik asoslarini mustahkamlash va siyosiy hayotni demokratlashtirishga chaqirdi. Biroq uning barcha siyosiy murojaatlari diniy ritorika ruhida edi. Eronlik ekspert Ali Ansoriy prezident M.Xotamiyning "islomiy fuqarolik jamiyati"ni shakllantirish g'oyasini tahlil qilar ekan, Eronda avvaldan tayyorlangan ijtimoiy baza mavjud bo'lmagan sharoitda "yuqoridan demokratlashtirish"ga urinishlariga shubha bilan qaraydi.

Prezident g'oyalarini qo'llab-quvvatlovchi partiya va tashkilotlarni, jumladan, "Kurashayotgan ruhoniya uyushmasi"ni birlashtirgan holda imkon qadar qisqa vaqt ichida ijtimoiy-siyosiy va madaniy sohalarda islohotlar o'tkazishga chaqirdi. Xotin-qizlar, yoshlar uyushmalari, kasb-hunar tashkilotlari, shuningdek oz sonli milliy va diniy jamoalar huquqlarini himoya qiluvchilar faollashdi. Eron Islom Respublikasi tarixida ilk bor mahalliy diniy-siyosiy kengashlarga saylovlar bo'lib o'tdi.

M.Xotamiy prezidentlik hokimiyatini kuchaytirishga qaratilgan islohotlarni boshladi. 2002-yilda islohotchilar tarafdori ko'pchilikni tashkil qilgan parlament prezident vakolatlarini kengaytiruvchi qonun loyihasini ma'qulladi. Ushbu qonun bilan prezidentga Asosiy qonun normalariga zid qarorlarga veto qo'yish orqali konstitutsiyaviy normalar ijrosini nazorat qilish huquqi berildi. Biroq bu o'zgartirishlar konservatorlar va Oliy rahbar noroziligiga sabab bo'ldi. 2000-yil avgust oyida Oliy rahbar Ali Xomanaiy ommaviy axborot vositalarining erkinligi to'g'risidagi qonun loyihasini tasdiqlamadi. Natijada, konservatorlar ta'biri bilan aytganda, davlat tuzumi va jamiyat yana bir bor "liberallashtirish tahdididan saqlab qolindi".

M.Xotamiy hokimiyat tepasiga kelishi bilan nafaqat mamlakatning tashqi siyosiy kursida, balki ichki siyosatda ham muayyan o'zgarishlar amalga oshirila boshlandi. Eron ommaviy axborot vositalari erkinligini kengaytirish; xotin-qizlarga avtomobil boshqarish va ichki ishlar organlarida xizmat qilish, jamoat ishlari bilan shug'ullanishga ruhsat berish M.Xotamiyning ikkinchi prezidentlik muddatida (2001-2005-yillar) mamlakatda islohotlarni amalga oshirish borasidagi muhim siyosiy tashabbuslaridan bo'ldi.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh assambleyasining 1998-yili o'tkazilgan 53-sessiyasida prezident M.Xotamiy jahon siyosatida harbiy mojarolar va zo'rvonlikka chek qo'yish, "Цивилизацияларaro muloqot" konsepsiyasini qabul qilish tashabbusini ilgari surdi. BMT Bosh assambleyasi ushbu taklifni amalga oshirish maqsadida yangi asrning birinchi yilini "Цивилизацияlar muloqoti yili" deb e'lon qildi.

M.Xotamiy davlat siyosiy tizimiga joriylangan "veloyate fakih" teokratik tamoyiliga qarshi bo'lmagan holda, uni Erondagi voqea-hodisalar hamda shart-sharoitlardan kelib chiqib, qisman isloh qilish tarafdori edi. Shu bois "veloyate fakih" tamoyilini va davlat boshqaruvining diniy-siyosiy tizimini qo'llab-quvvatlashini doimo ta'kidlagan. M.Xotamiy hokimiyat tepasiga kelgach, Eron ichki va tashqi siyosati o'zaro uzviyligi va islom institutlari daxlsizligi tamoyilini himoya qilgan. Shu bilan birga Eron iqtisodiyotiga xorijiy sarmoya va tashqi siyosatida shaffoflik kerakligini ta'kidlard. Biroq M.Xotamiyning mazkur yo'nalishdagi sa'y-harakatlari xavfsizlik xizmati, sud, Islom inqilobini himoya qilish korpusining qarshiligi sababli kutilgan

natijani bermadi. Bunday sharoit prezidentdan ehtiyotkorlik bilan harakatlanish va o'z qarorlari amalga oshirilishi uchun siyosiy zamin yaratishini taqozo etdi.

Jamiyat siyosiy hayotini demokratlashtirish jarayoni Erondagi modernizatsiyaga qarshi kuchlar 2005-yilgi prezidentlik saylovida diniy radikallar manfaatlarini ifoda etuvchi neokonservator nomzodi qo'llab-quvvatlanishiga olib keldi. Islohotchilar safida yuz bergan bo'linish konservatorlarning o'zaro jipslashuviga hamda saylovda Mahmud Ahmadinajod g'alaba qozonishini ta'minladi. Natijada, Eron tarixida ilk bor hokimiyat siyosiy sahnadan islohotchi kuchlarni siqib chiqarish va demokratik tendensiyalarni jilovlashga intilgan siyosatchilar qo'lida to'liq jamlandi.

Xulosa. Eron Islom Respublikasining 1990-yillar oxiri – 2000-yillar boshidagi siyosiy taraqqiyotining tahliliga ko'ra, davlat boshqaruvi tuzilmasida konstruktiv o'zgarishlar amalga oshirilmagan. Mamlakatda teokratik hokimiyatning ustuvorligi borasidagi norma saqlanib qolganiga qaramay, siyosiy hayotni liberallashtirish jarayoni davom etgan. Siyosiy partiyalar va jamoat tashkilotlar izchillashgani, fuqarolarning siyosiy faolligi kengayib borayotgani, jamoatchilik kayfiyati asta-sekin demokratlashtirish foydasiga o'zgarib borayotganini ko'rsatadi. G'arbdagidan farq qiluvchi shaklda kechayotgan liberallashtirish davri murakkab va noaniq bo'lib, hokimiyat tuzilmalarida ziddiyatlar kuchayishi davom etmoqda.

M.Xotamiy tomonidan tashqi siyosiy maydonda amalga oshirilgan bir qator chora-tadbirlar Eronning xalqaro miqyosdagi imidji yaxshilanishini ta'minladi. Erondagi siyosiy hokimiyatning bo'linish tizimi xususiyati va M.Xotamiyning siyosiy muxoliflari unga Konstitutsiyada belgilangan asosiy vakolatlarini to'liq amalga oshirishga to'sqinlik qilgani islohotchilar tomonidan mamlakatda amalga oshirilayotgan siyosiy transformatsiyani o'zining mantiqiy yakuniga yetkazish imkonini bermadi. M.Xotamiyni mamlakat aholisining ko'pchiligi qo'llab-quvvatlagan. Parlamentda islohotchilar guruhi vakillari ko'pchilikni tashkil qilgani unga siyosiy modernizm nazariyasi tarafdorlarini o'z atrofida uyushtirishga imkoniyat berdi. M.Xotamiy o'zining prezidentlik davrida Oliy rahbar A.Xomanaiy bilan murosa qilish yo'lini tutdi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Дунаева Е. Политическая система Исламской Республики Иран: вызовы либеральной модернизации // «Восток (Oriens)», 2016 г., № 1.
2. Ansari.Ali M. Iran, Islam and Democracy: The Politics of Managing Chance. – Gingko Library, 2019.
3. Юртаев В.И. Особенности и реализация внешней политики Исламской Республики Иран (1979 – 2010 гг.): дис. ... д-ра ист.наук. – М., 2012.
4. Кокликов В.О. Религиозная деятельность Али Акбара Хашеми Рафсанджани // Вестник РГГУ. Серия «Политология. История. Международные отношения». 2020. № 4. С. 203–217.
5. Орлов Е.А. Исламская Республика Иран: возвращение к идее региональной державы // Новые тенденции во внешней политике ИРИ (90-е годы)... Указ. соч. 1998. – С. 81-93.
6. Манучихри Аббас. Политическая система Ирана. Iranica. – СПб., 2007. 240 с.
7. Ушаков В.А. Иран и мусульманский мир. 1979-1998 гг. - М., 1999.
8. Санаи М. Диалог цивилизаций и исламский фактор. // Диалог цивилизаций: исторический опыт и перспективы XXI века. – М.: РУДН, 2002. Ali M. Ansari. Iran, Islam and Democracy: The Politics of Managing Chance. – Gingko Library, 2019.
9. Assembly Proclaims 2001 United Nations Year Of Dialogue Among Civilizations, Expressing Determination To Facilitate International Discussion. Press Release General Assembly GA/9497. [Elektron manba]. URL: <https://press.un.org/en/1998/19981104.ga9497.html>
10. 2002. رصاعم هاگن یمالسا یروهمج مرود :ناریا یسایس یسانشوعماج رب یریشب نیسح.صص.192

10.00.00 – FILOLOGIYA FANLARI

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЙ АСПЕКТ ПОСЛОВИЦ: КАК ПОСЛОВИЦЫ ОТРАЖАЮТ НАШЕ ВОСПРИЯТИЕ МИРА И ЛЮДЕЙ?

Абдуллаева Нилуфар Насуллоевна

Преподаватель кафедры французской филологии факультета иностранных языков
Бухарского государственного университета

Аннотация: Данная статья посвящена исследованию психологического аспекта пословиц, которые отражают культурные и когнитивные особенности восприятия мира и людей. В работе рассматривается, как пословицы служат выражением коллективной мудрости, передаваемой через поколения, и как они влияют на формирование мировоззрения и поведения индивидов в разных социальных контекстах. Особое внимание уделяется анализу психологической функции пословиц в процессе социализации, их роли в понимании норм и ценностей общества, а также в способах восприятия эмоций, отношений и жизненных ситуаций. В статье использованы методы когнитивной психологии и лингвистики для выявления глубинных смыслов пословиц и их влияния на психику человека. Результаты исследования демонстрируют, как пословицы могут быть как инструментом морального воспитания, так и механизмом закрепления стереотипов и социальных установок.

Ключевые слова: психологические модели и стереотипы пословиц, социальные и моральные нормы, аспекты взаимодействия, психологическая адаптация и саморегуляция, психологическая социализация, социальная реальность, концепты стабильности, коллективная мудрость, ориентировка в социальных и моральных дилеммах, формирования культурной идентичности, культурные и индивидуальные особенности восприятия.

MAQOLLARNING PSIXOLOGIK JIHATI: MAQOLLAR BIZNING DUNYO VA ODAMLAR HAQIDAGI TASAVVURIMIZNI QANDAY AKS ETTIRADI?

Annotatsiya: Ushbu maqola dunyo va insonlarni idrok etishning madaniy va kognitiv xususiyatlarini aks ettiruvchi maqollarning psixologik jihatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada maqollar avloddan-avlodga o'tib kelayotgan jamoaviy hikmatning ifodasi bo'lib xizmat qilishi hamda ular turli ijtimoiy sharoitlarda shaxslarning dunyoqarashi va xulq-atvorining shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini o'rganadi. Maqollarning ijtimoiylashuv jarayonida psixologik funksiyasini, ularning jamiyat normalari va qadriyatlarini tushunishdagi rolini, shuningdek, his-tuyg'ularni, munosabatlarni va hayotiy vaziyatlarni idrok etish usullarini tahlil qilishga alohida e'tibor beriladi. Maqolada kognitiv psixologiya va tilshunoslik metodlaridan foydalangan holda maqollarning chuqur ma'nolari va ularning inson ruhiyatiga ta'siri aniqlangan. Tadqiqot natijalari maqollarning axloqiy tarbiya vositasi va stereotiplar va ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlash mexanizmi bo'lishi mumkinligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: maqollarning psixologik modellari va stereotiplari, ijtimoiy va axloqiy me'yorlar, o'zaro ta'sir jihatlari, psixologik moslashuv va o'z-o'zini tartibga solish, psixologik sotsializatsiya, ijtimoiy voqelik, barqarorlik tushunchalari, jamoaviy donishmandlik, ijtimoiy va axloqiy dilemmalarda yo'nalish, madaniy o'ziga xoslikning shakllanishi, madaniy va individual xususiyatlarni idrok etish.

PSYCHOLOGICAL ASPECT OF PROVERBS: HOW DO PROVERBS REFLECT OUR PERCEPTION OF THE WORLD AND PEOPLE?

Abstract: This article is devoted to the study of the psychological aspect of proverbs that reflect cultural and cognitive features of perception of the world and people. The work considers how proverbs serve as an expression of collective wisdom passed down through generations, and how they influence the formation of the worldview and behavior of individuals in different social contexts. Particular attention is paid to the analysis of the psychological function of proverbs in the process of socialization, their role in understanding the norms and values of society, as well as in the ways of perceiving emotions, relationships and life situations. The article uses methods of cognitive psychology and linguistics to identify the deep meanings of proverbs and their influence on the human psyche. The results of the study demonstrate how proverbs can be both a tool of moral education and a mechanism for reinforcing stereotypes and social attitudes.

Keywords: psychological models and stereotypes of proverbs, social and moral norms, aspects of interaction, psychological adaptation and self-regulation, psychological socialization, social reality, concepts of stability, collective wisdom, orientation in social and moral dilemmas, formation of cultural identity, cultural and individual characteristics of perception.

Введение. Пословицы являются неотъемлемой частью культуры, часто используемой для передачи моральных норм, традиций и опыта предыдущих поколений. В психологическом контексте пословицы могут служить не только культурными маркерами, но и отражать особенности восприятия и интерпретации мира людьми. Они играют важную роль в формировании представлений о социальных взаимодействиях, моральных ценностях и личных переживаниях. В этой статье рассматривается, как пословицы могут влиять на восприятие людьми мира, других людей и самого себя, а также какие психологические аспекты лежат в основе их функционирования.

Методы. Для анализа психологического аспекта пословиц были использованы методы контент-анализа и интерпретации текста, а также когнитивно-лингвистический анализ. Эти методы позволили нам:

1. классифицировать пословицы по темам (например, отношение к трудностям, взаимодействие с другими людьми, восприятие окружающего мира), а затем выявить ключевые психологические концепты и категории, которые преобладают в этих пословицах;

2. исследовать, как пословицы структурируют наше восприятие мира, как они влияют на мышление и принятие решений;

3. понять, как определенные социальные ожидания (например, об идеальной семье, трудолюбии, честности и т. д.) влияют на восприятие мира и людей, а это может выявить, как коллективные установки и культурные стереотипы формируют восприятие взаимодействий и отношений между людьми.

В качестве исходного материала были выбраны наиболее распространенные пословицы в французской культуре, отражающие различные сферы жизни (отношения, труд, мораль, семья и т. д.). Анализ базировался на выявлении скрытых психологических моделей и стереотипов, которые могут влиять на восприятие мира и окружающих. Также были рассмотрены современные психологические теории, объясняющие влияние языка и культурных норм на восприятие личности.

Результаты. Пословицы как отражение социальных и моральных норм. Пословицы часто воспроизводят традиционные социальные и моральные ориентиры, такие как честность, трудолюбие, справедливость и уважение к старшим. Например, пословицы

«On n'a rien sans rien» или же «C'est en forgeant qu'on devient forgeron» – «Без труда не вытащишь и рыбку из пруда» способствуют формированию идеи о ценности упорного труда и ответственности. Психологически это может укреплять в человеке ощущение внутренней мотивации и стремление к достижению целей через усилия. Такие пословицы передают ценности, традиции, убеждения и обычаи, которые считаются важными для гармоничного сосуществования в сообществе. Эти пословицы могут служить своего рода моральными ориентирами, помогая людям ориентироваться в социальных отношениях.

Пословицы и восприятие человеческих отношений. Многие пословицы затрагивают аспекты взаимодействия между людьми, влияя на наше восприятие доверия, дружбы, любви и социальной ответственности, через них передаются основные принципы общения, взаимоотношений, доверия и уважения между людьми. Например, пословица «Dis-moi qui est ton ami, je te dirai qui tu es» – «Скажи мне, кто твой друг, и я скажу, кто ты» подчеркивает важность окружения человека и его влияние на личную идентичность. Это может оказывать влияние на склонность индивидов оценивать окружающих на основе их связей и социальной среды. Каждая такая пословица показывает, как следует вести себя в различных ситуациях для поддержания хороших отношений и взаимопонимания.

Пословицы и восприятие внешнего мира. Пословицы также формируют отношение к внешнему миру, его сложности и многозначности. Они часто связаны с природой, окружающей средой, общественными реалиями и внешними обстоятельствами, которые влияют на жизнь человека. Через эти пословицы выражается взгляд на мир как на нечто непредсказуемое, переменчивое и в то же время закономерное. Например, пословицы «Il faut s'adapter aux circonstances» – «На войне, как на войне», «À chacun sa mer, et à chacun ses vagues» – «Каждому своё море, и каждому свои волны», или «C'est la vie» – «Такова жизнь» отражают понимание мира как места, где царят хаос и неопределенность, и где необходимо адаптироваться к изменяющимся условиям.

Пословицы, таким образом, показывают мир как нечто многообразное, переменчивое и часто непредсказуемое. Они выражают важность адаптации к внешним условиям, учат действовать осознанно и подсказывают, что реальность не всегда соответствует внешнему облику.

Психологическая адаптация и саморегуляция через пословицы. Пословицы, несмотря на свою краткость и лаконичность, помогают людям адаптироваться к трудным ситуациям, предостерегая от ошибок и предлагая способы психологической регуляции. Они дают людям возможность взглянуть на мир через призму традиционных мудростей, предлагая способы преодоления трудностей, эмоциональных переживаний и жизненных стрессов. Психологическая адаптация включает способность приспосабливаться к изменениям, а саморегуляция – это умение контролировать свои эмоции и действия. Пословицы, отражающие эти принципы, помогают найти баланс и гармонию в сложных ситуациях. Например, «Les apparences sont souvent trompeuses» – «Внешность часто обманчива», «Tout ce qui brille n'est pas de l'or» – «Не всё то золото, что блестит» может служить напоминанием о необходимости критического осмысления внешних обстоятельств и предупреждать о ложных ожиданиях.

Обсуждение. Пословицы являются мощным инструментом психологической социализации, формируя у человека целый ряд стереотипов и убеждений, которые влияют на его поведение, восприятие окружающих и оценку социальной реальности. В психологическом контексте они могут как поддерживать стабильность, так и способствовать личностному росту, например, через концепты саморегуляции и адаптации к изменениям.

Пословицы также служат важным источником коллективной мудрости, позволяя людям ориентироваться в социальных и моральных дилеммах, и часто становятся основой для формирования культурной идентичности. Их влияние на психологию

человека многообразно и многогранно, отражая как культурные, так и индивидуальные особенности восприятия.

Заключение. Пословицы являются не только культурным наследием, но и важным психологическим инструментом, влияющим на восприятие мира и людей. Они формируют ценностные ориентиры, поддерживают адаптацию к социальным условиям и помогают людям находить свое место в мире. С точки зрения психологии, пословицы действуют как своего рода ментальные схемы, которые помогают человеку ориентироваться в сложном и многозначном мире, управлять своими эмоциями и принимать решения в соответствии с моральными и социальными стандартами.

Библиография

1. Бенашвили, А. И. (2002). Психология языка: от восприятия к коммуникации. М.: Издательство «Речь».
2. Куликов, В. М. (2011). Психология коммуникации и социальной адаптации. СПб: Питер.
3. Сапогова, Л. А. (2005). Психология и культура: влияние языка на восприятие мира. М.: Наука.
4. Эйдемиллер, Э. Г. (2009). Психология личности и общения. СПб: Питер.
5. Абдуллаева, Нилуфар Насуллоевна. «Maqol va hikmatli so'zlarining paremiologik maudoni.» международный журнал искусство слова 4.2 (2021).
6. Nasulloyevna, Abdullayeva Nilufar. «Associative Characteristics of the Proverb.» Texas Journal of Philology, Culture and History 6 (2022): 6-9.
7. Абдуллаева, Нилуфар Насуллоевна. «Пословица и ее бинарная структура.» international conferences. Vol. 1. No. 1. 2023.
8. Абдуллаева, Нилуфар. «Пословица как объект филологического исследования.» Центр научных публикаций (buxdu. uz) 35.35 (2023).
9. Абдуллаева, Нилуфар Насуллоевна. «Философия пословиц: глубина мудрости в кратких высказываниях.» Gospodarka i Innowacje. 42 (2023): 710-714.
10. Абдуллаева, Нилуфар. «Пословицы и их семантические явления.» центр научных публикаций (buxdu. uz) 36.36 (2023).
11. Nasulloyevna, Abdullayeva Nilufar, and Teshayeva Munira Sadiq. «Linguocultural characteristics of uzbek folk proverbs.» pedagogika, psixologiya va ijtimoiy tadqiqotlar| journal of pedagogy, psychology and social research 3.5 (2024): 30-33.
12. Nasulloyevna, Abdullayeva Nilufar. «National Features of Uzbek and French Folk Proverbs.» Amaliy va fundamental tadqiqotlar jurnali| journal of applied and fundamental research 3.5 (2024): 21-24.
13. Абдуллаева, Нилуфар. «Пословицы, поговорки, образные выражения и их отличия.» Зарубежная лингвистика и лингводидактика 2.3 (2024): 206-213.

FRANSUZ VA O'ZBEK MASALLARIDA EMOTIV BIRLIKLARNING PRAGMATIK TA'SIRI

Islomov Dilshod Shomurodovich
Buxoro davlat universiteti doktoranti (DSc)
<https://orcid.org/0000-0001-8793-8031>

Annotatsiya. Ushbu maqolada lingvopoetik janrlarda, xususan, fransuz va o'zbek masallarida emotiv birliklarning pragmatik ta'sirini ifodalab keluvchi grafostilistik vositalarning o'rni va ahamiyati o'rganildi, misollar yordamida tahlil qilindi. Shu bilan birga, emotiv birliklarning pragmatik ta'siri yuzasidan dunyo tilshunos olimlarning ilimiy-nazariy qarashlari o'rganilib, ularga munosabat bildirildi. Psixik holatlarning ayniqsa lingvopoetik janrlarda yanada ko'proq namoyon bo'lishi tahlillarda ko'rsatib o'tildi.

Kalit so'zlar: lingvopoetika, emotiv birliklar, pragmatika, masal, punktuatsiya, psixika, janr, emotsiya, grafologiya, grafema, stilistika, ijtimoiy-psixologik hodisa, psixolingvistika, metafora, simvolizm.

ПРАГМАТИЧЕСКИЕ ДЕЙСТВИЯ ЭМОТИВНЫХ ЕДИНИЦ ВО ФРАНЦУЗСКИХ И УЗБЕКСКИХ БАСНЯХ

Исломов Дилшод Шомуродович
Докторант (DSc) Бухарского государственного университета

Аннотация. В данной статье на примерах изучены и проанализированы роль и значение графостилистических средств, выражающих прагматическое воздействие эмотивных единиц в лингвопоэтических жанрах, в частности во французских и узбекских пословицах. При этом были изучены научно-теоретические взгляды лингвистов мира относительно прагматического действия эмотивных единиц и дана реакция на них. В ходе анализа было показано, что психические состояния более выражены особенно в лингвопоэтических жанрах.

Ключевые слова: лингвопоэтика, эмоциональные единицы, прагматика, притча, пунктуация, психика, жанр, эмоция, графология, графема, стилестика, социально-психологический феномен, психолингвистика, метафора, символизм.

PRAGMATIC ACTION COMBINES EMOTIONAL UNITY IN FRENCH AND UZBEK PARABLES

Islomov Dilshod Shomurodovich
DSc student of Bukhara State University

Annotation. In this article, the role and importance of graphostylistic tools expressing the pragmatic effect of emotive units in linguopoetic genres, particularly in French and Uzbek proverbs, was studied and analyzed with the help of examples. At the same time, the scientific-theoretical views of the world's linguists regarding the pragmatic effect of emotive units were studied and a reaction was given to them. It was shown in the analysis that mental states are more manifested especially in linguopoetic genres.

Key words: linguopoetics, emotional units, pragmatics, parable, punctuation, psyche, genre, emotion, graphology, grapheme, stylistics, socio-psychological phenomenon, psycholinguistics, metaphor, symbolism.

Kirish: Til insonlar o'rtasida bo'ladigan muloqot jarayonida tashqi muhitga nisbatan munosabatni yuqori nuqtasiga chiqaradigan, insonning tashqi muhitda sodir bo'ladigan har bir voqea-hodisaga bo'lgan munosabatini ro'yobga chiqaradigan eng muhim vosita hisoblanadi.

Lingvistika — bu tilni o‘rganish, uning tuzilishi, rivojlanishi va funksiyalarini tahlil qilish bilan shug‘ullanuvchi fan sohasidir. Tilning atash, kommunikatsiya (muloqot) qilish va ekspressiv-emotsional kabi vazifalari mavjud. Bu vazifalar inson ruhiyatida sodir bo‘ladigan kechinmalar, ruhiy holatni ko‘rsatish bilan birga, insonlar bilan muloqotga kirishishda va tashqi olamga bo‘lgan munosabatini yaqqol namoyon qilishda muhim rol o‘ynaydi.

Tilshunoslik tushunchasi yuzasidan dunyo olimlarining bir nechta asosiy qarashlari va yondoshuvlari mavjud bo‘lib, ular tilning tabiati, uning o‘zgarishi va jamiyat bilan aloqasini tushunishga qaratilgan ijtimoiy hodisadir deb bildirgan fikrlari alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir yondashuv tilning biror jihatini yaqqol ko‘rsatib beradi va yaxshiroq tushunishga xizmat qiladi.

Fransuz va o‘zbek tillarida grafostilistik vositalar yozma matnlarni ifodalashda ishlatiladigan turli grafik va stilistik vositalarni anglatadi, til va yozuvning ko‘rsatgan ifoda shakllariga asoslanadi, shu bilan birga, ularni mantiqiy va estetik maqsadlar uchun ishlatiladi deyish mumkin. Lingvistik vositalar bevosita fono-grafostilistik vositalardan tashkil topadi. Mazkur vositalarni bir paytning o‘zida bir yoki bir necha diskurslarda ishlatish mumkin. Grafostilistik vositalar yordamida yozuvchi matnni o‘qishdagi qulayliklarni va ta’sirchanlikni oshiradi, matnning noaniqligini kamaytirishga, o‘quvchi bilan mustahkam aloqada bo‘lishga va matnning muayyan hissiy effektini yaratishga yordam beradi.

Lingvistika psixologiya bilan uzviy bog‘liq albatta, chunki har bir inson muloqot jarayonida xoh u og‘zaki diskurs bo‘lsin, xoh u yozma diskurs psixik holatlarsiz vaziyatni to‘g‘ri tushuntirishi va anglashi juda qiyin. Yuqoridagi fikrimizni davomi sifatida til ijtimoiy-psixologik hodisa desak maqsadga muvofiq bo‘ladi. Psixik holatlar va emotiv birliklarni, gaplarning ekspressiv-emotsional xususiyatlarni yozma diskursda ko‘rsatib berishda grafostilistik vositalardan foydalanish eng maqbul tanlov desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Emotiv birliklar insonlar o‘rtasidagi kommunikatsiya, muloqotda bevosita psixologik ta’sir ko‘rsatish hamda kommunikativ strategiyalarning samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya:

Emotiv birliklarni lingvopoetik janrlarda, xususan, sher, ruboiy, g‘azal, muxammas va masallarda yanada ko‘proq uchratish mumkin. Hozirgi kunda tilshunoslikning lingvopoetika sohasida qilinayotgan ilmiy tadqiqotlar sezilarli darajada oshmoqda. Yuqoridagi fikrlarni tasdig‘i sifatida G.E.Lessing, F.Shiller, Gumboldt, A.A.Potebnya, V.V.Vinogradov, V.M.Jirmunskiy, V.Ya.Zadornova, O.S.Axmanova, G.O.Vinokur, L.V.Shcherba kabi tilshunos olimlarning ishlari yetarlicha o‘rganilganligini hamda muhim ilmiy xulosalaridan ekanligini ilmiy tadqiqot ishlarimizda guvohi bo‘ldik. Shu bilan birga, A.Xolodovichning «Adabiy til uslubshunosligi», «Poetikada lisoniy usul» asarlarida, nemis olimi E.Koseriuning poetik tilning yangi izohi kabi tushunchalarida, fransuz tilshunoslaridan D.Delas va J.Fiyollarning lingvistika va poetika bo‘yicha yangi qo‘llanmalarida hamda Ye.B.Artemenkoning lingvofolkloristika bo‘yicha olib borgan tadqiqotlarida lingvopoetikaga oid zarur ma’lumotlarni ko‘rish mumkin. Zamonaviy rus tilshunosligida lingvopoetikaning nazariy masalalari tadqiqi yuzasidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borgan olimlardan I.A.Krilov va A.Lipgartlarning o‘rni alohida ekanligini ko‘rish mumkin. Ammo tadqiqot jarayonida lingvopoetikadagi emotiv birliklarning pragmatik ta’siri fransuz va o‘zbek tillari doirasida grafostilistik vositalar orqali inson ruhiyatiga psixolingvistik ta’siri mufassal o‘rganilmagan.

Fransuz va o‘zbek masallari o‘rtasidagi mushtaraklik va differensial xususiyatlarini tahlil qilish, ayniqsa, emotiv birliklar orqali qanday pragmatik vazifalar bajarilishini o‘rganish tilshunoslik tadqiqotlarida muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lishi bilan birga, hozirgi kundagi dolzarb psixolingvistik muammolardan hisoblanadi desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Fransuz tilida ham, o‘zbek tilida ham emotiv birliklar nafaqat hissiy holatni ifodalash, balki kommunikatsiya jarayonida aytilayotgan gapning ma’nosini kuchaytirish yoki yumshatishda ham muhim rol

o'ynaydi. Shuning uchun ushbu tadqiqotda ikki til doirasidagi masallarda emotiv birliklarning pragmatik ta'sirini va ularning kommunikativ strategiyalaridagi roli chuqur o'rganiladi.

Fransuz masallari (fr. «fables») – odatda hayvonlar yoki odamlar orasidagi suhbatlar orqali axloqiy yoki hayotiy saboqlarni hissiy holatlar orqali beruvchi qisqa hikoyalar deyish mumkin. Masallar tinglovchilarga ma'naviy darslar berish uchun ko'pincha metafora yoki simvolizmga tayanadi. Fransuz masallari an'anaviy ravishda ko'plab yozuvchilar tomonidan yaratilgan, ammo, eng mashhurlaridan fransuz yozuvchisi Jean de La Fontaine, o'zbek yozuvchilardan esa Gulxaniyni misol tariqasida keltirish mumkin.

Mashhur fransuz va o'zbek yozuvchilari o'z masallarida turli xildagi hayvonlar orqali insonlarning har bir voqea-hodisaga bo'lgan psixik holatlarning emotiv birliklar orqali gaplardagi ekspressiv-emotsional xususiyatlarini yaqqol ko'rsatib bera olgan. Bunga misol qilib fransuz yozuvchisi, shoir va masalnavisi Jean de la Fontaine masallarida emotiv birliklarning pragmatik ta'siri orqali nutqning ekspressiv-emotsional xususiyatlari juda mohirona ko'rsatib o'tilgan deyish mumkin. Uning masallari ko'pincha hayvonlarni personajlar sifatida tasvirlab, insonlar uchun axloqiy darslarni berishga qaratilishi bilan birga, ular o'z vaqtida ijtimoiy va siyosiy tanqidni o'z ichiga olgan, shuningdek, o'quvchining ma'rifatini oshirishni maqsad qilgan deb alohida ta'kidlash mumkin.

Muhokama:

Mazkur fransuz yozuvchisining “Le Lion et le Rat” (Sher va Kalamush), “La Cigale et la Fourmi” (Ninachi va Chumoli), “ Le Corbeau et le Renard” (Qarg'a va Tulki), “ Le Soleil et les Grenouilles” (Quyosh va Qurbaqalar), “Le Renard, le Loup et le Cheval” (Tulki, Bo'ri va Ot), “ Le Milan, le Roi et le Chasseur”, (Milan, Qirol va Ovchi), “Le Renard et l'Écureuil” (Tulki va Olmaxon), “ Les deux Chèvres” (Ikki Echki), “La Ligue des Rats” (Kalamushlar ligasi) kabi ko'plab masallarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Masalan:

Hé! Bonjour, Monsieur du Corbeau.

Que vous êtes joli! Que vous me semblez beau!

Sans mentir, si votre ramage

Se rapporte à votre plumage,

Vous êtes le phénix des hôtes de ces bois.

Yuqoridagi “ Le Corbeau et le Renard” masalidagi parchada bir necha marta foydalanilgan undov belgisining mazkur kontekstda aynan “ayyorlik”, “mug'ombirlik” kabi psixik holatlarni ko'rsatilganligini yaqqol ko'rish mumkin.

Le renard s'en saisit, et dit: Mon bon monsieur,

Apprenez que tout flatteur

Vit aux dépens de celui qui l'écoute:

Cette leçon vaut bien un fromage, sans doute.

Mana bu misolda esa “ikki nuqta”, “vergul” kabi tinish belgilar orqali “xursandchilik” yoki “o'zi bilan faxrlanish” kabi tuyg'ularni ifodalashi orqali psixik hissiyotlar gapning ekspressiv-emotsional bo'yoqdorligini berishda xizmat qilishi alohida ahamiyatga molik.

Le corbeau, honteux et confus,

Jura, mais un peu tard, qu'on ne l'y prendrait plus.

Mazkur parchada esa vergul belgisining “afsuslanish”, “xafa bo'lish” kabi psixik holatlarni bildirishi orqali gapning ekspressiv-emotsional bo'yoqdorligini berishga xizmat qiladi.

O'zbek masalnavisi Gulxaniyning “Zarbul masal” asari noyob, durdona asar bo'lishi bilan birga, o'zbek adabiyotida didaktik janr sifatida alohida ahamiyatga ega. O'zbek yozuvchisi Muhammad Sharif - Mulla Gulxaniy adabiyotimiz tarixida, ijtimoiy fikrlar taraqqiyotida sezilarli iz qoldirgan mohir san'atkorlardan biri - lirik va satirik shoir, o'tkir askiyachi va masalnavis adibdir. Qolaversa “Zarbulmasal” so'z san'ating ajoyib namunasi, o'zbek tiling boy, rang-barang bisotini namoyish qiluvchi tarixiy-badiiy hujjatdir. Yuqoridagi fikrlar Gulxaniyga

berilgan g'oyat qimmat, ajoyib, o'rinli va yuqori darajada bildirilgan fikr-mulohazalar desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur asarda insonlar obrazi bilan birga hayvonlar obrazini ham ko'rish mumkin.


Masalan:

“Ey bolam, xomush o'lturg'il, sandak gavhari aslni har noqobilni qo'liga bermasman”. Anda qiz aydi: “Ey jonim ota, bore bermas bo'lsangiz ham yomon so'zlamang, zeroki ansorilar ahli harami muhtarami hazrati nabino-durlar, ularning tiri duolari ijobat hadafi g'amaqrun turur. Zinhor, yomon so'zlamang. «Bermas qizni qalini ko'b», debdurlar. Baland mol soling. Ozorsiz maslahatdur» .

Yuqoridagi misolda shaxsning hissiy xafalik, tushkunlik, xomushlik kabi holatlari aniq va ravshan ifodalangan. O'zbek tilida emotiv birliklar ham bevosita, ham bilvosita berilishi mumkinligi yuqoridagi misollar tahlilida yaqqol namoyon buldi. Ushbu misolda ota o'z qiziga hissiy holatini muloyimlik bilan bildirayotganini ko'rish mumkin.

Natijalar:

Gulxaniyning masallarida emotiv birliklar (emotsional ifoda vositalari) muhim pragmatik ta'sirga ega bo'lib, ular o'quvchi yoki tinglovchining hissiy holatiga ta'sir ko'rsatish orqali asarning asosiy g'oyasi va ma'nosini yanada chuqurroq idrok etishga yordam beradi. Emotiv birliklar orqali masallarda quyidagi pragmatik vazifalar bajariladi:



1. Diqqatni jalb qilish va e'tiborni oshirish

Masallarda ishlatilgan hissiy so'zlar va iboralar o'quvchining e'tiborini jalb qilishga xizmat qiladi. Gulxaniyning masallarida obrazlarning nutqida ishlatilgan qichqiriq, kinoya yoki hayrat ifodasi voqea mazmunini jonlantiradi.

2. Ma'naviy va axloqiy xulosani ta'kidlash

Masallarda ko'pincha axloqiy saboq yoki xulosa bo'ladi. Emotiv birliklar ushbu saboqlarni

kuchaytirib, ular o'quvchiga ta'sirchanroq yetib borishini ta'minlaydi. Masalan, o'ziga xos hissiy ta'sir beradigan so'zlar odamlarni ma'lum bir qilmishdan tiyilish yoki yaxshilik qilishga undaydi.

3. Obrazlarni jonlantirish va ularga xos xarakter berish

Hayvonlar yoki boshqa personajlar nutqida ishlatilgan hissiy vositalar ularga xos fe'l-atvorni ko'rsatishga yordam beradi. Masalan, tulki – ayyor, bo'ri – shafqatsiz, xo'roz – g'ururli, chumoli – mehnatsevarlik, ninachi – beparvolik, eshak – o'jarlik, kaltafahm, go'l, cho'chqa – johillik, ayiq – kuch va mehribonlik, maymun – ahmoqlik, qo'zi – muloyimlik, quyon – qo'rqqoq va maqtanchoq, o'jiz obrazda gavdalanadi. Bunda emotiv birliklar personajlarning ichki dunyosini ochib beradi.

4. Tinglovchini jalb qilish va qiziqishni oshirish

Gulxaniy masallari xalqona uslubda yozilgan bo'lib, undagi hissiy birliklar asar matniga samimiyat, iliqlik va jonlilik bag'ishlaydi. Bu esa o'quvchini osonroq jalb qilib, masal mazmunini yanada qiziqarli qiladi.

5. Ironiya va kinoya orqali mazmunni kuchaytirish Masallarda ko'pincha kinoya va ironiyaga asoslangan emotiv birliklar qo'llaniladi. Bu usul voqea yoki personaj xatti-harakatlarining mantiqsizligi yoki axloqsizligini oshkor qilishda muhim ahamiyatga ega .

Xulosa:

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash kerakki, lingvistikani psixologiyasiz tasavvur qilish qiyin, chunki har bir inson o'z fikr va mulohazalarini muloqot jarayonida og'zaki va yozma diskurslarda psixik holatlarsiz to'g'ri tushuntirishi va anglashi juda qiyin. Yuqoridagi fikrimizni davomi sifatida til ijtimoiy-psixologik hodisa desak maqsadga muvofiq bo'ladi. Psixik holatlar va emotiv birliklarni, gaplarning ekspressiv-emotsional xususiyatlarni yozma diskursda ko'rsatib berishda grafostilistik vositalar va pragmatik vazifalardan foydalanish eng maqbul tanlov desak mubolag'a bo'lmaydi. Emotiv birliklar insonlar o'rtasidagi kommunikatsiya, muloqotda bevosita psixologik ta'sir ko'rsatish hamda kommunikativ strategiyalarning samaradorligini oshirishda alohida ahamiyat kasb etadi. Gulxaniy masallarida emotiv birliklarning pragmatik ta'siri ulkan bo'lib, ular o'quvchining hissiy holatini boshqarish, diqqatini jalb qilish va asar g'oyasini chuqurroq anglashga xizmat qiladi. Bu masallarni nafaqat tarbiyaviy, balki hissiy ma'noda ham kuchli vositaga aylantiradi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Alimova D. «Til pragmatikasi: nazariya va amaliyot» (Toshkent, 2021).
2. Abdurahmonov G'. «Badiiy asar tilida ekspressiv vositalar» (Toshkent, 2018).
3. Shoabdurahmonov Sh. «O'zbek adabiyoti tarixi». (Masallar tarixi va o'zbek adabiyotidagi o'rni).
4. Shomurodovich I. D. The emergence of psycholinguistics, the scientists' scientific-theoretical views and its connection with other sciences //journal of multidisciplinary bulletin. – 2023. – T. 6. – №. 5. – C. 213-218.
5. Islomov D. S. The Definition of The Concepts of «Phoneme» and «Phonostylistics». Middle European Scientific Bulletin, 9 [Электронный ресурс].
6. Shomurodovich I. D. A propos du terme phonopsychologie //Conferencea. – 2023. – C. 45-47.
7. Shomurodovich I. D. Le role de l'emotion en phonopsychologie //Conferencea. – 2023. – C. 77-79.
8. Islomov D. S. Similarity aspects of uzbek and french phonetics //International Multidisciplinary Journal for Research & Development. – 2023. – T. 10. – №. 10.
9. Islomov, Dilshod. «Ўзбек тилига махсус фонетик ва фоностилистик эффект берувчи аллитерация тушунчаси ва санъати ҳақида.» Центр научных публикаций (buxdu. uz) 16.16 (2022).
10. Islomov, Dilshod. «Фонема ва фоностилистика фонема ва фоностилистика тушунчаларига доир илмий-назарий қарашлар.» центр научных публикаций (buxdu. uz) 1.1 (2020).
11. Islomov, D. Sh. «The articulation of sounds in french.» International Multidisciplinary Journal for Research & Development 10.10 (2023).
12. Islomov, Dilshod. «His-tuyg'uning paydo bo'lishi, uning asosiy holatlari psixolog olim kerroll ellis izard talqinida.» Farg'ona davlat universiteti 2 (2024): 96-96.
13. Islomov, D. Sh. «Fonema va fonostilistika tushunchalariga doir ilmiy-nazariy qarashlar.» Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy Universtiteti ilmiy jurnali 1.2 (2021): 1.
14. Shomurodovich, Islomov Dilshod, and Allayarova Umida Baxadirovna. «Morfologiya bo'limida ot so'z turkumining o'rni va ahamiyati (fransuz va o'zbek tillari misolida).» Gospodarka i Innowacje. 54 (2024): 46-50.
15. Islomov, Dilshod. «Tilshunoslikda fonopsixologiya atamasining kirib kelishi.» центр научных публикаций (buxdu. uz) 47.47 (2024).
16. Islomov, Dilshod. «Tovushlar o'zbek tilida tovushlar artikulyatsiyasi.» центр научных публикаций (buxdu. uz) 45.45 (2024).

THE EXPRESSION OF HUMAN VALUES IN THE POEMS OF ROBERT BURNS AND MUHAMMAD YUSUF

*Karimova Shaxnozaxon Karimovna,
Doctor of Philosophy in Philological Sciences (PhD), Bukhara State Pedagogical
Institute*

*Daminova Fotima Nurmamat qizi
A Graduate Student of Bukhara State Pedagogical Institute*

Abstract. This article explores the expression of human values in the poetry of Robert Burns and Muhammad Yusuf, focusing on their shared themes of equality, justice, patriotism, and human dignity. Through the analysis of Burns' "A Man's a Man for A' That" and Muhammad Yusuf's "O'zbek" (The Uzbek), alongside several other poems, the study highlights how both poets use poetic devices, tone, and imagery to convey humanistic ideals. While Burns emphasizes universal equality and social justice, Yusuf reflects national identity and cultural pride. By comparing their works, this article underscores the enduring relevance of their poetry in promoting human values across different literary traditions.

Keywords: human values, Robert Burns, Muhammad Yusuf, love for homeland, Scottish poetry, Uzbek poetry, universal equality, national identity, cultural pride, patriotism, social justice, comparative literature.

ВЫРАЖЕНИЕ ОБЩЕЧЕЛОВЕЧЕСКИХ ЦЕННОСТЕЙ В СТИХИЯХ РОБЕРТА БЕРНСА И МУХАММАДА ЮСУФА

*Каримова Шахнозахон Каримовна,
PhD по филологическим наукам, Бухарский государственный педагогический
институт*

*Даминова Фотима Нурмамат кизи
Магистрант Бухарского государственного педагогического института*

Аннотация. В этой статье исследуется выражение человеческих ценностей в поэзии Роберта Бернса и Мухаммеда Юсуфа, уделяя особое внимание общим темам равенства, справедливости, патриотизма и человеческого достоинства. Благодаря анализу стихотворений Бернса "A Man's a Man for A' That" и «Узбек» Мухаммеда Юсуфа, а также ряда других стихотворений, исследование показывает, как оба поэта используют поэтические приемы, тон и образы для передачи гуманистических идеалов. В то время как Бернс подчеркивает всеобщее равенство и социальную справедливость, Мухаммад Юсуф отражает национальную самобытность и культурную гордость. Сравнивая их произведения, эта статья подчеркивает непреходящую актуальность их поэзии в продвижении человеческих ценностей в различных литературных традициях.

Ключевые слова: общечеловеческие ценности, Роберт Бернс, Мухаммад Юсуф, любовь к родине, шотландская поэзия, узбекская поэзия, всеобщее равенство, национальная идентичность, культурная гордость, патриотизм, социальная справедливость, сравнительная литература.

ROBERT BERNS VA MUHAMMAD YUSUF SHE'RLARIDA INSONIY QADRIYATLARNING IFODALANISHI

Karimova Shaxnozaxon Karimovna,

Filologiya fanlari fanlari doktori (PhD), Buxoro davlat pedagogika instituti

Daminova Fotima Nurmamat qizi

Buxoro davlat pedagogika instituti aspiranti

Annotatsiya. Bu maqola Robert Berns va Muhammad Yusuf she'riyatida insoniy qadriyatlar ifodasini o'rganib, ularning tenglik, adolat, vatanparvarlik va inson qadr-qimmatini kabi umumiy mavzulariga e'tibor qaratadi. Bernsning "A Man's a Man for A' That" va Yusufning "O'zbek" ("O'zbek") she'rlarini tahlil qilish orqali boshqa bir qancha she'rlar qatorida har ikki shoirning ham insonparvarlik g'oyalarini yetkazishda she'riy vositalar, ohang va obrazlardan foydalanganliklari ko'rsatilgan. Berns umuminsoniy tenglik va ijtimoiy adolatga urg'u bersa, Muhammad Yusuf o'z she'rlarida milliy o'zlik va madaniy g'ururni aks ettiradi. Ularning asarlarini taqqoslash orqali ushbu maqola turli adabiy an'analar bo'ylab insoniy qadriyatlarni targ'ib qilishda ularning she'riyatining doimiy dolzarbligini ta'kidlaydi.

Kalit so'zlar: insoniy qadriyatlar, Robert Berns, Muhammad Yusuf, Vatanga muhabbat, Shotlandiya she'riyati, o'zbek she'riyati, umuminsoniy tenglik, milliy o'zlik, madaniy g'urur, vatanparvarlik, ijtimoiy adolat, qiyosiy adabiyot.

*"Haqiqiy shoirning qabri bo'lmaydi,
Yurakka ko'milar asl shoirlar."*

*(A true poet has no grave,
Real poets are buried in the heart.)
- Muhammad Yusuf*

Ikkinchi muhim omil — fonetik parallellik, ya'ni tovushlarning o'zaro uyg'unligi orqali matnda muayyan ritmik va semantik tuzilmaning shakllanishi. Parallellik elementlari she'riy va nasriy matnlarda ritm yaratish, akustik muvozanatni ta'minlash va semantik urg'uni kuchaytirish vazifalarini bajaradi. Fonetik parallellikni shakllantirishda urg'u, intonatsiya va tovushlarning takrorlanishi alohida rol o'ynaydi.[5] Bu esa badiiy matnning ichki melodik strukturasi mustahkamlashga xizmat qiladi.

Uchinchi jihat esa fonetik kontrast bo'lib, bu tamoyil muayyan tovush birliklarining keskin qarama-qarshi o'zaro ta'siridan iborat. Kontrast prinsipida o'xshash yoki farqli fonemalar orqali dramatik ta'sirni kuchaytirish va ma'noni aniqlashtirish jarayoni sodir bo'ladi. Ushbu mexanizm stilistik jihatdan muhim bo'lib, badiiy ifoda vositalarining ta'sirchanligini oshirishga qaratilgan. Fonetik kontrast o'z navbatida, ziddiyatli obrazlar yaratish, o'quvchi e'tiborini jalb qilish va matnning emotsional kuchini oshirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, fonetik sathdagi so'z o'yinlari faqat badiiy tasvir vositasi emas, balki chuqur lingvistik mexanizmlar asosida shakllangan tuzilma ekanligi oydinlashadi. U matnning semantik va akustik uyg'unligini ta'minlash bilan birga, o'quvchi tafakkuriga bevosita ta'sir ko'rsatish imkoniyatiga ega.

Fonetik sathdagi so'z o'yinlarining badiiy matndagi roli va samaradorligini tahlil qilish natijalari shuni ko'rsatadiki, bu hodisa estetik zavq uyg'otish bilan bir qatorda, o'quvchining idrok jarayoniga ham ta'sir o'tkazadi. Fonetik birliklarning takrorlanishi, kontrasti va parallelligi nutq strukturasi va emotsional samara o'rtasidagi bog'liqlikni mustahkamlaydi. Bu jarayon asosan uchta yo'nalishda namoyon bo'ladi:

Birinchidan, kognitiv ta'sir. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, fonetik sathdagi so'z o'yinlari

o'quvchi idrokida tezroq va samaraliroq qayta ishlanadi. Lingvistik tajribalar nutqning fonetik o'ziga xosliklari orqali miyada ma'no hosil bo'lish jarayoni kuchayishini tasdiqlaydi. Ayniqsa, tovush uyg'unligi va fonetik kontrast asosida shakllangan uslublar matnni yaxlit idrok qilish jarayonini optimallashtiradi.

Ikkinchidan, psixolingvistik jihat. Fonetik o'ziga xosliklar emotsional reaksiyalarni faollashtirish orqali o'quvchining asarga bo'lgan munosabatini shakllantiradi. Masalan, jarangdor yoki portlovchi undoshlarning ustuvorligi shiddat, beqarorlik yoki dinamikani ifodalasa, yumshoq va jarangsiz undoshlar osoyishtalik va lirizm hissini uyg'otishi mumkin. Bu esa badiiy asarning akustik muhitini yaratishga xizmat qiladi.

Uchinchidan, semiotik jihat. Fonetik darajadagi so'z o'yinlari faqat tovush shaklidagi estetik element emas, balki chuqur semantik yuk ko'taruvchi lingvistik birlikdir. Uning yordamida matndagi ma'no qatlamlari boyiydi, timsollar tizimi yanada chuqurlashadi va poetik tasvirning ko'lamini kengaytiradi. Fonetik birliklar orasidagi uyg'unlik yoki kontrast stilistik dominant sifatida namoyon bo'lishi mumkin. Bu esa muallif niyatining chuqur ifodalanishiga imkon yaratadi.

Tahlil natijalari shuni ko'rsatadiki, fonetik sathdagi so'z o'yinlari badiiy asar strukturasi ajralmas qismidir. U nafaqat stilistik bezak sifatida, balki lingvistik va psixolingvistik jarayonlarning muhim tarkibiy qismi sifatida ham harakat qiladi.

Fonetik sathdagi so'z o'yinlari faqat badiiy nutq bezagi emas. Bu hodisa lingvistik tizimning tubdan muhim mexanizmlaridan biri sifatida tilning o'zida mavjud bo'lgan akustik, semantik va psixolingvistik omillarning uyg'unlashuviga asoslanadi. Tadqiqot davomida olib borilgan tahlillar shuni ko'rsatadiki, fonetik birliklarning o'zaro munosabati nafaqat estetika yaratish, balki o'quvchining idrokini shakllantirish, emotsional javob chaqirish va matnning semantik qamrovini kengaytirish kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Fonosemantik ta'sir orqali muallif tovush shakliga bog'liq holda ma'no yaratish imkoniyatiga ega. Tovush takrorlari, kontrasti va parallelligi esa matn ichidagi ritmik uyg'unlik va semantik turg'unlikni ta'minlaydi. Bularning barchasi badiiy matnning strukturaviy yaxlitligini mustahkamlash bilan birga, uni idrok etish jarayonini sezilarli darajada tezlashtiradi. Demak, fonetik sathdagi so'z o'yinlari mustaqil lingvistik hodisa sifatida emas, balki stilistik va semantik funksiyalarga ega bo'lgan murakkab tizim sifatida qaralishi zarur.[6]

Ushbu maqola doirasida fonetik birliklarning badiiy matnda qanday namoyon bo'lishi, ularning strukturaviy va semantik vazifalari hamda o'quvchi idrokiga ta'siri keng yoritildi. Biroq, bu soha hali ham keng tadqiqot maydoniga ega. Kelgusidagi lingvistik izlanishlar fonetik sathdagi so'z o'yinlarining boshqa til birliklari bilan o'zaro ta'sirini, turli janrlarda qanday ishlatilishini va ularning universal yoki tipologik xususiyatlarini o'rganishga qaratilishi lozim. Ayniqsa, tilshunoslik, adabiyotshunoslik va psixolingvistika chorrahasida fonetik hodisalarning roli yanada chuqur tahlil etilishi zarur.

Xulosa. Shunday qilib, fonetik birliklar nafaqat til tizimidagi biror element, balki butun badiiy tuzilmaning poydevorini tashkil qiluvchi omillardan biridir. Badiiy matn yaratish jarayonida fonetik sathdagi o'zaro munosabatlar nafaqat ifoda vositasi, balki mantiqiy va semantik bog'lanishlar tizimi sifatida ham harakat qiladi. Bu esa, o'z navbatida, tilning chuqur psixologik va semiotik tabiatini yanada yorqin namoyon etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Lotman, Yuri. *The Structure of the Artistic Text*. University of Michigan, 1977.
2. Fónagy, Iván. *La vive voix: Essais de psycho-phonétique*. Paris: Payot, 1983.
3. Bally, Charles. *Traité de stylistique française*. Paris: Klincksieck, 1909.
4. Jakobson, Roman. *Linguistics and Poetics*. Cambridge, MA: Harvard University Press, 1960.
5. Lotman, Yuri. *The Structure of the Artistic Text*. Ann Arbor: University of Michigan Press, 1977.

О‘ЗБЕК БАДИЙ АСАRLARIDA ARGO VA JARGONLARNING QO‘LLANISH XUSUSIYATLARI

Saidova Nilufar Anvar qizi
TDO ‘AU tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek badiiy adabiyotida argo va jargonlarning lingvistik va stilistik jihatlari tahlil qilinadi. Argo va jargonlarning adabiy matndagi roli semantik, pragmatik va ijtimoiy nuqtayi nazardan o‘rganilib, ularning nasr, poeziya va dramaturgiyadagi o‘ziga xos qo‘llanilish xususiyatlari ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot shuningdek, argo va jargonlarning tarjima jarayonidagi murakkabliklarini va ularning zamonaviy adabiyot hamda ommaviy madaniyatda tutgan o‘rnini tahlil qiladi. Maqolada ushbu lingvistik hodisaning stilistik imkoniyatlari va badiiy matndagi funksional yuki ilmiy asoslangan holda ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: argo, jargon, stilistika, badiiy matn, semantika, pragmatika, lingvistik innovatsiya, tarjima, ommaviy madaniyat, adabiy til.

THE USE OF ARGO AND JARGON IN UZBEK LITERARY WORKS

Saidova Nilufar Anvar qizi
Basic doctoral student of Tashkent State University of Uzbek Language and Literature

Abstract. This article examines the linguistic and stylistic aspects of argo and jargon in Uzbek literary works. The role of argo and jargon in literary texts is analyzed from semantic, pragmatic, and sociolinguistic perspectives, focusing on their distinctive use in prose, poetry, and drama. The study also explores the challenges of translating argo and jargon, as well as their expanding role in contemporary literature and popular culture. The paper provides a scholarly analysis of the stylistic potential of these linguistic elements and their functional significance within artistic texts.

Key words: argo, jargon, stylistics, literary text, semantics, pragmatics, linguistic innovation, translation, popular culture, literary language.

ИСПОЛЬЗОВАНИЕ АРГО И ЖАРГОНА В УЗБЕКСКИХ ХУДОЖЕСТВЕННЫХ ПРОИЗВЕДЕНИЯХ

Саидова Нилуфар Анвар кизи
Базовый докторант Ташкентского государственного университета узбекского языка и литературы

Аннотация: В данной статье рассматриваются лингвистические и стилистические аспекты использования арго и жаргона в узбекской художественной литературе. Роль арго и жаргона в литературных текстах анализируется с семантической, прагматической и социолингвистической точек зрения, с акцентом на их специфику в прозе, поэзии и драматургии. Также исследуются трудности перевода этих языковых элементов и их растущая значимость в современной литературе и массовой культуре. В статье дается научный анализ стилистического потенциала арго и жаргона, а также их функциональной роли в художественном тексте.

Ключевые слова: арго, жаргон, стилистика, художественный текст, семантика, прагматика, лингвистические инновации, перевод, массовая культура, литературный язык

Kirish. Til jamiyatning asosiy kommunikativ vositasi bo‘lishi bilan birga, uning ijtimoiy tabaqalanish jarayonlarini ham aks ettiradi. Badiiy adabiyotda turli ijtimoiy guruhlariga xos bo‘lgan argo va jargonlarning qo‘llanilishi muhim stilistik vositalardan biri hisoblanadi.

Ushbu maqolada o‘zbek badiiy asarlarida argo va jargonlarning qo‘llanishi, ularning semantik xususiyatlari va badiiy nutqdagi funksional yuki tahlil qilinadi.

Tilshunoslikda argo va jargon tushunchalari ko‘pincha chalkash tushuniladi. Argo—bu norasmiy va yashirin tildagi so‘zlar majmui bo‘lib, ma‘lum ijtimoiy guruh yoki kasb egalari tomonidan ishlatiladi. Jargon esa, aksincha, ma‘lum bir professional yoki ijtimoiy qatlam vakillariga xos leksik qatlam bo‘lib, u matnni mazmunan tor doiraga yo‘naltiradi.[1]

Misol uchun, jinoyatchilar argosi va tibbiyot jargonini solishtirganda, birinchisi yashirin va ataylab tushunarsiz bo‘lishga intilgan, ikkinchisi esa professional terminlarning og‘zaki shakli sifatida rivojlanganligini ko‘rish mumkin.[2] O‘zbek adabiyotida har ikkisi ham o‘ziga xos stilistik rol o‘ynaydi va asarlarning realizm darajasini oshirishga xizmat qiladi.

Argo va jargon badiiy matnda bir necha asosiy vazifani bajaradi:

□ Xarakter yaratish – Qahramonlarning so‘zlashuvi ularning ijtimoiy kelib chiqishi va shaxsiyati haqida aniq tasavvur beradi.

□ Reallik effektini kuchaytirish – Haqiqiy hayotdagi so‘zlashuv uslubini aks ettirish orqali matnning jonliligi ta‘minlanadi.

□ Madaniy kod sifatida ishlatilishi – Muayyan davr va muhit haqida tasavvur hosil qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. O‘zbek adabiyotida argo va jargonlarning qo‘llanishiga Abdulla Qodiriyning “O‘tkan kunlar” romani yoki Said Ahmadning asarlarida duch kelish mumkin. Ular o‘sha davrning ijtimoiy haqiqatlarini ifodalash uchun bunday stilistik vositalardan mohirlik bilan foydalanganlar.

Adabiyotshunoslik va tilshunoslikda argo va jargonlarni badiiy matnda qo‘llashning bir necha nazariy yondashuvlari mavjud. Masalan, Bakhtinning «Ko‘p ovozlilik nazariyasi» shuni ko‘rsatadiki, argo va jargonlar matn ichida muayyan guruhlarning ovozi sifatida namoyon bo‘ladi, ya‘ni matnning polifonik tuzilishiga hissa qo‘shadi [3].

Bundan tashqari, stilistik funksionalizm nazariyasiga ko‘ra, argo va jargon matnning emotsional va ekspressiv ta‘sirini oshirish uchun ishlatiladi. Shu sababli, zamonaviy adabiyotda bunday leksik qatlamlar tobora ko‘proq qo‘llanmoqda.

Argo va jargonlarning badiiy matndagi semantik va pragmatik xususiyatlari ularning mazmun shakllantirishdagi asosiy rolini belgilaydi. Agar oldingi bo‘limda bu stilistik vositalarning umumiy jihatlari tahlil qilingan bo‘lsa, ushbu bo‘limda biz ularning badiiy nutqdagi funksional imkoniyatlarini ko‘rib chiqamiz.

Argo va jargonlar tilning semantik tizimida mustaqil hodisa emas, balki kontekstga bog‘liq holda ma‘no hosil qiluvchi omillardan biridir. Ularning qo‘llanilishi denotativ (asosiy lug‘aviy ma‘no) va konnotativ (qo‘shimcha hissiy yoki ijtimoiy ma‘no) qatlamlarning o‘zaro ta‘siriga asoslanadi.[4]

Misol uchun, jinoyatchilar argosi ko‘pincha ochiq ma‘nodan qochish va tashqi auditoriyani chetlab o‘tish uchun ishlatiladi, shuningdek, guruh ichidagi birdamlikni mustahkamlashga xizmat qiladi. Bunday tilda asosiy semantik o‘zgarish ma‘nolarning kodlangan holda uzatilishi bilan bog‘liq bo‘lib, o‘quvchi buni kontekst orqali anglaydi.

Jargonlar esa texnik va kasbiy tilda aniq semantik chegaralar o‘rnatish uchun ishlatiladi. Shu sababli, ularning ma‘nosi shunchaki lug‘at birliklari orqali emas, balki ijtimoiy va kasbiy tajriba asosida anglashiladi.

Pragmatika nuqtayi nazaridan, argo va jargon badiiy matnda bir nechta muhim vazifalarni bajaradi:

□ Kontekst yaratish – Matn ichida ma‘lum bir muhit yoki ijtimoiy qatlamni aniq belgilash uchun ishlatiladi.

□ Nutqiy realistik effektini oshirish – Qahramonlarning tili hayotiyroq va ishonchliroq ko‘rinadi.

□ O‘quvchini aktiv idrok qilishga majbur qilish – Ayrim iboralar bilvosita tushunarli bo‘lishi sababli, o‘quvchi ularni kontekst orqali anglashga harakat qiladi.

Bakhtinning dialogik nazariyasiga ko'ra, badiiy matnda argolar va jargonlar o'ziga xos polifonik tuzilmani shakllantiradi, ya'ni bir nechta ijtimoiy guruhlarining ovozi matn tarkibida aks ettiriladi. Bu esa o'quvchini ko'proq anglash va turli ijtimoiy kontekstlarni his qilishga majbur qiladi.

Argo va jargonlar faqat leksik qatlam sifatida emas, balki matnning sintaktik va uslubiy tuzilishida ham muhim rol o'ynaydi. Masalan:

- Dialogik nutqda – Qahramonlarning ijtimoiy maqomi va shaxsiyati aks ettiriladi.
- Tasviriy narratsiyada – Muallifning dunyoqarashi va davrga oid lingvistik o'ziga xosliklari ochib beriladi.
- Matnning umumiy ritmi va ohangida – Argo va jargonlar nutq tezligini oshirish yoki pasaytirishga xizmat qiladi.

Muhokama. Aynan badiiy matn ichida argo va jargonlarning sintaktik va semantik vazifalari birgalikda ishlaydi, ya'ni ular leksik birlik sifatida emas, balki stilistik vosita sifatida o'z ta'sirini o'tkazadi.

Badiiy matnda argo va jargonlarning qo'llanilishi, asosan, janr xususiyatlari bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ularning semantik va stilistik vazifalari asarning umumiy tuzilishiga ta'sir ko'rsatadi. Poeziya, nasr va dramaturgiya janrlarida argo va jargonlardan foydalanish uslublari bir-biridan farq qiladi, chunki har bir janr o'ziga xos stilistik talablarga ega. Ushbu bo'limda biz argo va jargonlarning janr doirasida qanday ishlatilishini va ularning mazmun shakllanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini tahlil qilamiz.

Adabiyot nazariyasiga ko'ra, har qanday lingvistik birlik muayyan janr me'yorlari va poetik qoidalar doirasida o'zining stilistik vazifasini bajaradi. Argo va jargonlar bu jihatdan ikki tomonlama xarakterga ega: ular bir tomondan realistik tasvirni kuchaytirish vositasi bo'lsa, ikkinchi tomondan muallifning uslubiy tajribasining ajralmas qismi sifatida namoyon bo'ladi. Shunday qilib, bu leksik qatlamlarning nasr, poeziya va dramaturgiyadagi o'rni har xil bo'lib, har bir janr ularni o'ziga xos shaklda talqin qiladi.

Nasrda argo va jargonlar ko'pincha realistik effekt yaratish uchun ishlatiladi. Ular qahramonlarning ijtimoiy kelib chiqishini, kasbiga bog'liq dunyoqarashini yoki shaxsiyati haqida muhim ma'lumot beruvchi element sifatida xizmat qiladi. Bu uslub o'zbek realizmi va modernist nasr an'alarida keng tarqalgan bo'lib, ayniqsa, Said Ahmad va Tog'ay Murod asarlarida samarali qo'llangan. Ushbu mualliflarning ijodida argolar va jargonlar qahramonlarning nutqini jonlantirish bilan birga, muallifning ijtimoiy va madaniy tahlil vositasiga ham aylanadi.

Nasr janrining yana bir o'ziga xosligi shundaki, u argo va jargonlarni kontekstual transformatsiya qilishga moyildir. Ya'ni, bir xil so'z yoki ibora turli situatsiyalarda turlicha semantik yukga ega bo'lishi mumkin. Agar poeziyada argo va jargonlar asosan metaforik va poetik stilizatsiya uchun ishlatilsa, nasrda ular siyosiy, ijtimoiy va psixologik kontekstni shakllantirish uchun xizmat qiladi.

Poeziyada argo va jargonlarning ishlatilishi nasrdagidan tubdan farq qiladi, chunki poetik matnning asosiy vazifasi faqat realistik tasvir yaratish emas, balki poetik obrazlar va ritmik struktura vositasida ma'no yaratishdir. Shu sababli, poeziyada ushbu leksik qatlamlar stilistik kontrast va metaforik samaradorlikni oshirish uchun qo'llaniladi.

Alisher Navoiy va Bobur kabi shoirlarning mumtoz she'riyatida argo va jargonlardan foydalanish juda cheklangan bo'lsa-da, XX asr she'riyatida bu tendensiya sezilarli darajada kuchaydi. Ayniqsa, Erkin Vohidov va Muhammad Yusuf kabi shoirlar argolik leksikadan foydalangan holda, xalq nutqiga yaqin she'riy obrazlar yaratishga muvaffaq bo'ldilar. Ularning ijodida argo va jargonlarning asosiy vazifasi she'riy matnning hayotiyligini oshirish va obrazlarning jonliligini ta'minlashdan iborat bo'ldi.

Poeziyada argo va jargonlarning yana bir muhim jihati – fonetik uyg'unlik va ritmik struktura bilan bog'liqligi. Nasr va dramaturgiyadan farqli o'laroq, she'riyatda til birliklari

fonetik jihatdan uyg'un va melodik bo'lishi kerak, shuning uchun argo va jargonlar ko'pincha she'rning umumiy ohangiga moslashgan holda stilizatsiyalangan shaklda ishlatiladi.

Dramaturgiya janrida argo va jargonlarning ishlatilishi dialogik muhit bilan bog'liq bo'lib, ular qahramonlarning individualligini ochib beruvchi lingvistik vositalardan biri hisoblanadi. Bu uslub teatr sahnasida jonli va tabiiy nutq yaratish uchun qo'llanadi, chunki dramaturgiya o'z tabiatiga ko'ra jonli nutq bilan bog'liq va sahna tilining realizmini oshirishga intiladi.

Masalan, Shukur Xolmirzayev va O'lmas Umarbekov kabi dramaturglarning asarlarida argo va jargonlarning sahnaviy dialogda qo'llanilishi realizmni kuchaytirish bilan birga, tomoshabinning qahramonlarga bo'lgan munosabatini shakllantirishga ham xizmat qiladi⁴. Ayniqsa, sotsial dramatik asarlarda bunday lingvistik birliklar qahramonlarning ijtimoiy mavqeini aniq belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Bundan tashqari, dramaturgiya janrida argo va jargonlarning ishlatilishi intonatsion va fonetik effektlar bilan ham bog'liq, chunki sahna nutqining ta'sirchanligi nafaqat matn mazmuniga, balki uning qanday talaffuz qilinishiga ham bog'liqdir. Shu boisdan, bunday lingvistik birliklar sahnaviy ta'sirni kuchaytirish vositasi sifatida ham ishlatiladi.

Argo va jargonlarning badiiy matndagi o'rni zamonaviy adabiyot va ommaviy madaniyatning rivojlanishi bilan tobora kengayib bormoqda. Ularning qo'llanilishi nafaqat adabiy jarayonlarning tabiiy natijasi, balki ijtimoiy va lingvistik o'zgarishlarning ham ifodasi sifatida namoyon bo'ladi. Agar an'anaviy adabiyotda bu leksik birliklar cheklangan doirada, asosan, muayyan ijtimoiy qatlamlarga oid qahramonlarning nutqini stilizatsiya qilish uchun ishlatilgan bo'lsa, zamonaviy badiiy matnda ular ko'proq ijodiy eksperiment va lingvistik innovatsiya vositasiga aylanmoqda.

Bugungi o'zbek adabiyotida argo va jargonlarning qo'llanilishiga nisbatan munosabat ancha erkinlashdi. XX asrning ikkinchi yarmigacha bo'lgan davrda bu leksik qatlamlardan foydalanish, asosan, realizm oqimi doirasida qabul qilingan bo'lsa, keyinchalik postmodernistik yondashuvlar bilan bog'liq holda ular badiiy matn tarkibiga chuqurroq singdirildi. Ayniqsa, XXI asr adabiyotida individual mualliflik uslubi shakllanib borayotgan sari, argo va jargonlarning stilistik yuki kuchayib, ular adabiy nutqning ajralmas qismiga aylanmoqda. Shu bilan birga, bu jarayon badiiy matnlarning ommaviy madaniyat bilan uyg'unlashuvi natijasida yanada tezlashganini ko'rish mumkin.

Argo va jargonlarning badiiy adabiyotdan tashqariga chiqib, ommaviy kommunikatsiya vositalari, xususan, kinematografiya, reklama, internet nutqi va qo'shiq matnlarida keng tarqalishi ularning lingvistik ahamiyatini yangi bosqichga olib chiqdi. Kino va televideniya dialoglarida bu leksik qatlamlar realistik tasvirni kuchaytirish bilan birga, tomoshabin bilan tezkor aloqani ta'minlovchi vosita sifatida ham ishlatilmoqda. Ayniqsa, komedik janrdagi filmlar va seriallarda argo va jargonlar nutqning tabiiyligini oshirish vositasi sifatida yetakchi rol o'ynaydi. Shu nuqtayi nazardan, ommaviy madaniyat badiiy adabiyot bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular o'rtasidagi lingvistik almashinuv doimiy jarayon sifatida kechmoqda.

Internet va ijtimoiy tarmoqlarning rivojlanishi argo va jargonlarning ommalashishiga yanada kuchli turtki berdi. Virtual kommunikatsiyada bunday birliklarning qo'llanilishi bir tomondan tilning qisqarishiga va tezkor muloqotga xizmat qilsa, boshqa tomondan yangi lingvistik birliklarning shakllanishiga sabab bo'lmoqda. Internet tilshunosligi nuqtayi nazaridan, argo va jargonlarning raqamli muhitga moslashuvi ularning semantik va pragmatik funktsiya jihatidan o'zgarishlarga uchrashiga olib keladi. Chunki internet muloqotida ma'lum iboralar yangi kontekstlarda qo'llanilib, ularning semantik ko'lamini kengaytiradi. Masalan, avval ma'lum ijtimoiy guruhga xos bo'lgan ayrim argo birliklari virtual maydon tufayli keng auditoriya orasida ishlatiladigan nutqiy vositaga aylanmoqda.

Zamonaviy adabiyotda argo va jargonlarning roli ularning lingvistik tasnifini ham qayta ko'rib chiqishni talab qilmoqda. Ilgari ular asosan og'zaki nutqning norasmiy shakli sifatida

ko'rilgan bo'lsa, bugungi kun adabiyotida ular poetik obraz yaratish, badiiy matnning emotsional va ekspressiv ta'sirini oshirish vositasiga aylanib bormoqda. Bu jarayon, ayniqsa, eksperimental adabiyotda yaqqol namoyon bo'lib, mualliflar argo va jargonlarni stilistik kontrast yaratish, matnga dialogik struktura berish yoki voqelikning parodik talqinini yaratish uchun faol qo'llashmoqda.

Argo va jargonlarning zamonaviy adabiyotda keng tarqalishining yana bir muhim sababi badiiy matnning hayotiy va realistik bo'lishi haqidagi talabning kuchayishidir. O'quvchilar tabiiy nutqqa yaqin bo'lgan badiiy ifodani yanada samimiy va ta'sirchan deb qabul qilishadi. Shu sababli, mualliflar o'z asarlarida real hayot tilining imkoniyatlaridan kengroq foydalanishga intilishadi. Bu esa argo va jargonlarning badiiy nutq tarkibida yanada faol qo'llanishiga olib kelmoqda.

Argo va jargonlarning badiiy matndagi o'rni tilshunoslik va adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan muhim tadqiqot yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda. Ushbu maqolada ularning nasr, poeziya va dramaturgiyada qanday ishlatilishi, semantik va pragmatik jihatlari, zamonaviy adabiyot va ommaviy madaniyatdagi roli atroflicha tahlil qilindi. Ammo bu leksik qatlamlarning badiiy nutqdagi o'rni faqat lingvistik hodisa bilan cheklanib qolmaydi—ular ijtimoiy o'zgarishlarning, madaniy mentalitetning va adabiy jarayonlarning aksidir.

Zamonaviy o'zbek adabiyotida argo va jargonlarning qo'llanilishi tobora ortib bormoqda, chunki til va jamiyat dinamik o'zgarish jarayonida yashaydi. Agar ilgari badiiy matnlarda rasmiy yoki me'yoriy til ustuvor bo'lsa, hozirgi adabiyotda norasmiy va ijtimoiy cheklangan tillar ham stilistik vosita sifatida faol qo'llanmoqda. Bu esa adabiy jarayonda realistik tasvirga, shuningdek, individual mualliflik uslubining kengayishiga olib kelmoqda. Shunday qilib, argo va jargonlarning mavjudligi muallif nutqini jonlantiradigan, matnni ko'proq qirrali qiladigan va o'quvchi bilan muloqotni yanada chuqurroq darajaga olib chiqadigan lingvistik hodisa sifatida namoyon bo'lmoqda.

Tilshunoslik nuqtayi nazaridan olib qaraganda, argo va jargonlarning kengayishi badiiy adabiyot bilan cheklanib qolmaydi. Bugungi raqamli kommunikatsiya va ijtimoiy tarmoqlardagi til o'zgarishlari ularning yangi kontekstlarda paydo bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Avvallari ma'lum guruhlar ichida ishlatilgan argo birliklari hozirgi kunda kengroq auditoriya tomonidan qabul qilinmoqda, bu esa ularning funksional chegaralarini buzmoqda. Shunday qilib, badiiy adabiyot orqali ommalashgan argo va jargonlar umumiy nutqiy me'yorlarga ham ta'sir o'tkaza boshladi.

Bu jarayon bizni yana bir muhim masalaga olib keladi—argo va jargonlarning tarjima qilinishi. Har bir til o'zining stilistik va ekspressiv imkoniyatlariga ega bo'lib, norasmiy va maxsus leksik qatlamlarni tarjima qilish doimiy lingvistik muammolardan biri bo'lib qolmoqda. Badiiy matnda argo va jargonlarning aniq ekvivalentlarini topish ba'zan imkonsiz bo'lib, tarjimon semantik ekvivalentlikni emas, balki stilistik va kontekstual ekvivalentlikni yaratishga majbur bo'ladi. Shu sababli, ularning tarjimasini matnning umumiy ta'sirchanligi va estetik sifati uchun hal qiluvchi rol o'ynaydi.

Xulosa. Shunday qilib, argo va jargonlarning badiiy adabiyotda qo'llanilishi faqat lingvistik hodisa emas, balki kengroq ijtimoiy va madaniy jarayonlarning bir qismidir. Ularning nasr, poeziya va dramaturgiyadagi roli badiiy matnning semantik va stilistik tuzilishini shakllantirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ularning zamonaviy adabiyot va ommaviy madaniyatdagi kengayishi lingvistik tajribalar, mualliflik uslubining rivojlanishi va global kommunikatsiya natijalarini o'zida aks ettiradi.

Argo va jargonlar faqat muayyan ijtimoiy guruhlariga xos tildan iborat emas, balki ular tilning moslashuvchanligi, ijodiy imkoniyatlari va stilistik boyliklarini namoyon qiladigan muhim fenomenlardan biridir. Bu leksik qatlamlar badiiy matnda realistik tasvir yaratish, o'quvchining tafakkurini faollashtirish va matn ichida ijtimoiy o'zaro ta'sirni shakllantirish uchun xizmat qiladi. Shu bois, argo va jargonlarning adabiy tilda ishlatilishini faqat norasmiylik yoki

og‘zaki nutqqa yaqinlik sifatida emas, balki adabiyotning semantik va stilistik imkoniyatlarini kengaytiruvchi omil sifatida ko‘rish zarur.

Ushbu tendensiyalar shuni ko‘rsatadiki, badiiy matnda til o‘zgarishlari hech qachon to‘xtamaydi—ular doimo yangi kontekst va madaniy holatlarga moslashadi. Yaqin kelajakda argo va jargonlarning badiiy nutqdagi o‘rni yanada kengayib, ularning lingvistik va stilistik yuki o‘zgarib borishi kutilmoqda. Shunday ekan, ushbu fenomenni o‘rganish adabiyotshunoslik, tilshunoslik va tarjima nazariyasi uchun dolzarb bo‘lib qoladi. Zero, til — bu faqat muloqot vositasi emas, balki ijtimoiy o‘zgarishlar, madaniy taraqqiyot va inson tafakkurining aksidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Saidova Nilufar Anvar qizi “O‘zbek hamda ingliz tillarida argo va jargonlar tarjimasining sotsiolingvistik xususiyatlari” International Multidisciplinary Research in Academic Science (IMRAS) Volume 7 Issue 7 2024
2. Shomaqsudov A. va boshqalar. O‘zbek tili stilistikasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 1983.
3. Vohidov E. Ustoz siyratiga chizgilar. Asarlar. Oltinchi jild. –T.: Sharq, 2018 yil 280-bet.
4. R.Sayfullayeva, B.Mengliyev va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. T.2009. 125-bet
5. Bakhtin, Mikhail. The Dialogic Imagination: Four Essays. University of Texas Press, 1981.
6. Wardhaugh, Ronald. An Introduction to Sociolinguistics. Wiley-Blackwell, 2010.
7. Trudgill, Peter. Sociolinguistics: An Introduction to Language and Society. Penguin Books, 2000.

MAQSUD QORIYEVNING “IBN SINO” ROMANIDA BOSH QAHRAMON KECHINMALARI TASVIRI

Saidova Zarina Saidovna

Buxoro Davlat Pedagogika instituti fransuz tili o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqola Maqsud Qoriyevning “Ibn Sino” romani haqida bo‘lib, unda buyuk mutafakkir olim, faylasuf, tabobat ilmining sultoni Ibn Sino hayoti va ilmiy faoliyati, olimning kechinmalari, iztiroblari haqida bayon etilgan. Asar tahlili orqali mutafakkirning faoliyati va ichki kechinmalari haqida misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Mutafakkir, alloma, tibbiyot, faylasuf, ilmiy, adabiy, tabobat ilmining sultoni.

ИБН СИНА В ТВОРЧЕСТВЕ ВОСТОЧНЫХ И ЗАПАДНЫХ ПИСАТЕЛЕЙ

Саидова Зарина Саидовна

Преподаватель французского языка Бухарского Государственного Педагогического Института

Аннотация. Данная статья посвящена роману Максуда Кариева «Ибн Сина», в котором описаны жизнь и научная деятельность Ибн Сины, великого мыслителя, философа, султана медицины, переживания и страдания учёного. Путём анализа произведения приводятся примеры деятельности и внутренних переживаний мыслителя.

Ключевые слова: Мыслитель, учёный, медик, философ, учёный, литературовед, султан медицинской науки.

IBN SINA IN THE WORKS OF EASTERN AND WESTERN WRITERS

Saidova Zarina Saidovna

French teacher at Bukhara State Pedagogical Institute

Abstract. This article is devoted to the novel “Ibn Sina” by Maksud Kariev, which describes the life and scientific work of Ibn Sina, a great thinker, philosopher, sultan of medicine, the experiences and sufferings of the scientist. By analyzing the work, examples of the activities and internal experiences of the thinker are given.

Keywords: Thinker, scientist, physician, philosopher, literary critic, sultan of medical science.

Buyuk olim, faylasuf, tabobat ilmining sultoni Ibn Sino hayot yo‘liga nazar tashlash mana nechki asrlardan buyon ko‘pgina yozuvchi, shoirlarning diqqat markazida bo‘lib kelmoqda. Ibn Sino XI asrda yashab ijod qilgan bo‘lsada, uning hayot yo‘li, ijodi haqida o‘qiymiz, o‘rganamiz. Ayniqsa uning tibbiyot sohasida bizga qoldirib ketgan “Tib qonunlari” kitobi nechki asrdan buyon tibbiyot sohasida yagona dastak bo‘lib xizmat qilib kelmoqda. Biz bugungi maqolamizda Ibn Sino obrazini, uning hayot yo‘lini, va ayniqsa uning ichki kechinmalarini o‘z asarida yuksak darajada yoritib bergan Maqsud Qoriyevning “Ibn Sino” romani haqida so‘z yuritamiz. Quyida bosh qahramon kechinmalari tasvirining asosiy jihatlarini ko‘rib chiqamiz.

Yozuvchi asarni yozarkan, asosiy urg‘uni bosh qahramonning ko‘proq ichki kechinmalariga, uning qanchalik ilmga tashnaligi, insoniy iztiroblariga ahamiyat bergan. Masalan Ibn Sino asarda bolalik yillarini shunday eslaydi: “Esiz-esiz, bolalik yillari, xuddi daryodek oqib o‘tdi-ketdi. Murg‘ak, bir norasta, tashvishi yo‘q edi. O‘, o‘sha quvnoq kechgan bolalik yillari... Baxtiyor, qaytarilmas damlar... Turmush tashvishlari yo‘q, o‘ynab, dala kezib, kapalaklar tutib, beg‘ubor oqar suvlarda cho‘milib, bog‘-rog‘larda ozod qushdek yayrab yurishardi”.

Bundan tashqari asarda Ibn Sino bolaligidan ilmga bo‘lgan cheksiz ishtiyoqi, izlanishlari,

zukko yigit sifatida tasvirlanadi. Misol sifatida olimning saroy kutubxonasiga kirib undagi kitoblarni o‘qishga ruxsat olgandan so‘ng uning qanchalik xursand bo‘lganligi asarda shunday tasvirlangan. “Ibn Sino beqiyos bir dunyo ichiga tushib qolgandek edi. Quvonchi ichiga sig‘mas, hatto eski kitoblarni yamab-yasqab o‘tirgan kutubxona xojasini ham tamomila unutdi. Ko‘z o‘ngida butun bir ma‘naviyat dunyosi. Bunaqasi bo‘lmagandi hech. Rosa omadi keldi, nihoyat, endi orzusiga erishdi. Kutubxona sohibining sovuq munosabati ham uning hozirgi quvonchiga ozgina bo‘lsada ta‘sir etmaydi. Axir, u haqiqiy kitob shaydosiku!” . Ammo unga hasad ko‘zi bilan qaraganlar bor edi. Axir u saroy tabibi edi. Shox u bilan turli masalalarda maslahat qilib turardi. Shu sababdan uning kutubxonadan foydalanishini ko‘rolmagan g‘alamislar kutubxonani yoqib yuboradilar. Ibn Sino esa bu manzarani ko‘rib hayajonda, tabiatning bu qilmishiga hayron, aytarga so‘z topolmaydi. “Ajabo, nimalar bo‘lmoqda o‘zi”,-degan fikrlar xayolidan o‘tadi.

Maqsud Qoriyev o‘z romanida Ibn Sinoning tibbiyot, falsafa va tabiatshunoslik sohalaridagi izlanishlarini, bu jarayondagi ichki kechinmalarini juda aniq aks ettirgan. Masalan yozuvchi quyida olimning tibbiyot sohasidagi izlanishlari haqida “Odamning ichki tuzilishini ko‘rsatiladigan suvrat albatta yaratilishi kerak, bu haqida alloma ko‘p o‘ylagan, rejalari bor, ammo masala aniq-ravshan bo‘lishi uchun birorta murdani yorib ko‘rish albatta zarur, hammasini o‘z ko‘zi bilan ko‘rishi shart. Murdani qaydan topish kerak, uni olib keladigan ishonchli odamlar topilurmi, qayerda yorish kerak, biror kishi sezib qolsa nima bo‘ladi? Lekin bu qaltis , xavfli ishni bajo etmay turib, tibbiyotning ko‘p masalalarini hal etib bo‘lmas”,-degan fikrlarini keltirib o‘tadi.

Asarda Ibn Sinoning ilm borasida Beruniy bilan o‘zaro yozishib turganlari, hattoki ular o‘rtalarida bahs-munozaralar bo‘lib o‘tganliklari haqida ham ma‘lumotlar keltirilib o‘tilgan. Ibn Sino o‘z shogirdlariga Beruniyning “Janob Beruniyning bir savoli qiziq, buni sizlar bilib qo‘yganingiz foydadan xoli emasdir. Masalan, nega suv muzlaganda yax yuzada qoladi, deb savol beribdilar. O‘ylab ko‘ring, mushohada etingizlar, axir suv muzlaganda unga havo birikmalari joylashib oladi, shu boisdan yax suv tagiga cho‘kmaydi. Bu oddiy haqiqatdir”,-bergan savoliga o‘zining fikr- mulohazalarini bayon qiladi.

“Xorazmlik olim nega Arastu va boshqa ilm ahllari jismlar olti jihatga ega deb xulosa qilurlar. Axir yumaloq jismlarda umuman tomonlar yo‘q-ku, deb so‘rabdi. Qani, siz yoshlar, bunga nima deb javob berur edingiz, deb murojaat etdi Ibn Sino shogirdlariga. Ular javob berishmadi, hayiqishdi. Axir , ikki buyuk alloma o‘rtasiga tushib bo‘lurmu? Ibn Sino shogirdlariga yuzlanib, masalaning mohiyatini juda oddiy qilib tushuntira ketdi. –Har bir jismning uzunligi, eni , balandligi bo‘ladi. Faylasuflar ta‘rif etgan jismning olti tomoni mana shular bilan o‘lchanur. Demoqchimanki, ana shu har bir o‘lchovning ikki tomoni bor. Ularning yig‘indisini hisoblab ko‘rsangiz oltita bo‘lur. Shunday qilib, har bir jism, shu jumladan, yumaloq jism ham olti tomonga egadir. Demak, al-Beruniyning yumaloq narsa olti tomonga ega emas, degan fikri noto‘g‘ridir”,-degan fikrlarini ham asarda o‘qishimiz mumkin.

Bu borada Odil Yoqubovning “Ko‘hna dunyo” asarida Beruniyning Ibn Sino to‘g‘risida shunday fikrlarini o‘qishimiz mumkin: “Beruniy, garchi bir mahallar tabiat muammo-lari to‘g‘risida, xususan oftob nurlarining hayotiy kuchi, issiqlik va sovuqlik ta‘sirida jismlarning kengayishi, torayishi va, nihoyat, shaharlar ora-lig‘idagi masofalarni o‘lchash usullari borasida Ibn Sino bilan ancha munozara qilgan, hatto, bu masalalarga bag‘ishlangan maktublarida al-loma degan nomga nomunosib gustohlikka bor-gan bo‘lsa ham, Ibn Sinoning yetuk salohiyati-ga, ayniqsa, tibbiyot bobidagi iste‘dodiga hech qachon shubha qilgan emas. Lekin, u endigina, rasadxonaning tinch, osuda xonalarida o‘tirib, «Al-Qonun» va «Ash-Shifo» kitoblarining mazmunini, nazm, musiqa va falsafaga oid asarlarini o‘z og‘zidan eshitganidagina uning naqadar buyukligi va olamshumul shuhrati sabablarini anglab olgandek bo‘ldi.”

Bundan tashqari “Ibn Sino” romanida olimning shaxsiy hayoti, ayniqsa, sevgi kechinmalari

ham aks ettirilgan. Olimning birinchi marta o'z muhabbatini uchratgandagi holati, uning hissiyotlari tasvirlanganligini ko'rishimiz mumkin. "Ibn Sino beixtiyor qizga sinchkov ko'z yugurtirdi: G'oyat go'zal, ana ko'zu, ana qoshu, ana qomat. Jamiki husn mulki unda mujassam edi. Shu qadar bekamu ko'st, shu qadar mukammal. Ibn Sino kavushining ikkinchisini yechishni hsm unutib, bir zum qizga tikilib qoldi. Na tepaga chiqishni bilmas, na qaytadan zinaga tushib bir poy kavushini kiyishini. Qizdan ko'zini uzmas, nazarida necha zamonlardan beri samodan axtarib yurgan noyob yulduzi ro'parasida namoyon bo'lgandek edi. Tushimmi yo o'ngimmi, qaydan paydo bo'lib qoldi bu dilbar, deya deya xayolidan o'tkazdi. Nihoyat, Ibn Sino ko'rpachaga chiqib, iymanibgina o'tirdi. Ammo, yuragi betinch, qarshisida unga tikilgan yulduz ko'zlar borlig'ini hayajonga solmoqda".

Asarda yozuvchi Ibn Sinoning Sanam haqidagi o'y xayol surganlari, uning tuyg'ulari haqida quyidagicha yozadi: "Ismi jismiga monand ekan o'sha masturaning, sarvdek... Sanam... nomusulmon ko'zlari, qarashlari, tabassumiyu tarahhumi, bir cho'g'dek tushdi qalbim qo'riga uning otash nigohi, endi o'rtanurmen ertayu kech, visoli umidi birlan. Ey olamni yaratgan ne savdolarni solding bu boshimga. Tinch, osoyishta yurg'on erdim ilmu hikmat dardida, anga nazarim tushdiy-u, ruhiyatimda bemisl po'rtana ro'y berdi. Endi na uyqum bor na tushim, na tinchligim, hammasi yo'qoldi, irodamni egalladi muhabbat degan bir tuyg'u, bir dard. Qaydan keldi o'zi bu, yo menga inoyat qildingmu, Alloh?" O'sha kuni ko'rdiy-u o'sha g'arib ayol kulbasida lobar qizning jamoliyu kamolini, shunday ulkan aql-zakovat sohibi lol bo'lib qoldi, go'yo uning qarshisida sabog'ini bilmagan shogirddek... Bo'lmasa ayol zotiga qaramas edi, g'ururli, zukko, mustaqil edi, tushdi-qo'ydi, g'ururi zabun bo'ldi, o'zi bo'lsa xasdan ham xarob, zafaron kuz yaprog'idek.

Yozuvchi asarda Ibn Sinoning yurak otashini shunday tasvirlanganki, u yerda quyidagi misralarni o'qishimiz mumkin:

So'rdimki:-Nechun shikasta, nolondurmen?

Aytdi:-Sababi men, guli xandondurmen.

So'rdimki:-Nechun ko'yingda giryondurmen?

Aytdiki Sanam:-Sen tanu, men jondurmen.

Ibn Sino ilmiy faoliyati bilan bir qatorda murakkab siyosiy voqealarning ham guvohi va ishtirokchisi bo'ladi. U amirlar va saroy a'yonlari orasida yashab, siyosiy fitnalari, xiyonatlar va xatarlarga duch keladi. Amirlar uni yaxshi kutib olishsada, saroy amaldorlari uni xushlashmaydi. Natigada Ibn Sino ko'p marotaba fitna qurboniga aylanadi. Hattoki dushmanlari uni to'rt oy zindonband ham etishadi. Bu holatlar uning ruhiyatiga og'ir ta'sir qilib, ba'zan umidsizlik va xavotir hissini kuchayishiga sabab bo'ldi. Natijada Ibn Sino 1037 yilda 57 yoshida Hamadonda olamdan o'tadi. Mutafakkirning turli fanlarga oid 450 dan ortiq ilmiy asarlar yaratganligi ma'lum. Biroq bizgacha Ibn Sinoning 242 ta asari yetib kelgan. Shulardan 4 tasi adabiyotga, 5 tasi musiqaga, o'ndan ortig'i astronomiyaga oid asarlardir. Ibn Sino Sharqda «Shayxur-Rais», G'arbda esa «Avitsenna» nomi bilan mashhur.

Xulosa qilib shuni aytishimiz mumkinki Maqsud Qoriyev "Ibn Sino" romanida bosh qahramonning ichki dunyosini chuqur psixologik tahlil orqali ochib bera olgan. Uning ilmiy izlanishlari, insoniy kechinmalarini yorqin tasvirlay bilgan. Shuni qo'shimcha sifatida aytmoqchimanki tabobat ilmining sultoni Ibn Sino obrazi orqali biz ilmga bo'lgan chanqoqlikni, boshimizga og'ir sinovlar kelganda ham orqaga chekinmasdan doimo oldinga yurib borishni o'rganamiz. Ilm ahlini doimo hurmat qilib, har doim ularning izidan borishga harakat qilishimiz, ulardan saboq olishimiz, ularning suhbatlarini olib turishimiz lozimligini unutmashimiz kerak.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Maqsud Qoriyev. Tanlangan asarlar II jild. "Ibn Sino" tarixiy roman. "Sharq" matbaa - konserni bosh tahririyati Toshkent 2000 yil.

2. Odil Yoqubov. "Ko'hna dunyo" Yangi asr avlodi, Toshkent 2015 yil.

3. Zarina Saidova. "Ibn Sino Sharq va G'arb yozuvchilarining asarlarida". Til va adabiyot uz. Ilmiy –metodik elektron jurnal. 2024 yil 19-son.

4. Ziyozistagan qalblar uchun! - Abu Ali ibn Sino (980-1037) Ziyouz.com <https://www.ziyouz.com>

NEYROPSIXOLINGVISTIKA – ZAMONAVIY TILSHUNOSLIK YO‘NALISHI

Shahabitdinova Shohida Xoshimovna

Andijon davlat universiteti,

O‘zbek tilshunosligi kafedrasi professori, filologiya fanlari doktori

Annotatsiya: Ushbu maqolada neyropsixolingvistikaning zamonaviy tilshunoslikning muhim yo‘nalishi haqida ekanligi qolaversa neyropsixolingvistika tarixi hamda unig rivojlanish bosqichlari va bu sohaga ulkan hissa qo‘shgan buyuk tilshunos olimlar va ularning bu sohada amalga oshirgan ishlari haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: neyropsixolingvistika, tilshunoslik, atama, nutq, nazariya, neyrolingvistika, psixolingvistika, frenologiya

НЕЙРОПСИХОЛИНГВИСТИКА – НАПРАВЛЕНИЕ СОВРЕМЕННОЙ ЛИНГВИСТИКИ

Шахабитдинова Шохида Хошимовна,

профессор кафедры узбекского языкознания Андийжанского государственного университета, доктор филологических наук

Аннотация: В статье рассматривается значение нейropsихолингвистики как важного направления современной лингвистики, а также история и этапы ее развития, великие лингвисты, внесшие значительный вклад в эту область, и их работы в этой области.

Ключевые слова: нейropsихолингвистика, лингвистика, термин, речь, теория, нейролингвистика, психолингвистика, френология

NEUROPSYCHOLINGUISTICS – A DIRECTION OF MODERN LINGUISTICS

Shahabitdinova Shohida Xoshimovna

Doctor of Philological Sciences, professor,

Department of Uzbek Linguistics, Andijan State University

Abstract: This article discusses the importance of neuropsycholinguistics as an important direction in modern linguistics, as well as the history and stages of its development, the great linguists who have made a significant contribution to this field, and their work in this field.

Keywords: neuropsycholinguistics, linguistics, term, speech, theory, neurolinguistics, psycholinguistics, phrenology

Kirish. “Neyropsixolingvistika” termini gumanitar fanlar sohasida keng tan olinmagan bo‘lib, rus tilshunos olimi K.F.Sedov uni “Нейropsихолингвистика” [1;C.224] kitobida “neyrolingvistika” atamasining sinonimi sifatida qayd etadi. Neyrolingvistika 1950-yillarning oxiri va 1960-yillarning boshlarida xalqaro miqyosda uchta fanning, ya’ni nevrologiya, psixologiya va tilshunoslik chorrahasida paydo bo‘lgan. Ushbu sohaning rivojlanishi afaziologiyaning amaliy ehtiyojlari bilan bog‘liq edi. Bu miya shikastlanishi natijasida kelib chiqadigan nutq buzilishidan aziyat chekadigan odamlarni davolash bilan shug‘ullanadigan tibbiyot sohasi. Rus neyrolingvistikasining otasi olim A.R.Luriya uni “nutq faoliyati asosidagi miya mexanizmlarini va miyaning lokalizatsiya qilingan shikastlanishidan kelib chiqadigan nutq jarayonlaridagi o‘zgarishlarni o‘rganadigan” [2;C.252] ilmiy soha sifatida ta’riflaydi.


Neyrolingvistikaning dastlabki yutuqlari nutq buzilishlarini tashxislash va tuzatish kabi amaliy muammolarni hal qilish bilan bog‘liq edi. Biroq uning psixologiya va tilshunoslik bilan aloqalari o‘ziga xos mazmuni va metodologiyalariga ega bo‘lgan mustaqil nazariya

sifatida o'zini namoyon qilish istagiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Neyrolingvistikaning nazariy rivojlanishining asosiy katalizatori yana bir yangi soha – psixolingvistikaning paydo bo'lishi va jadal rivojlanishi bo'ldi.

Kuzatilshlardan anglashiladiki, Rossiya psixolingvistikasi juda tez taraqqiy etdi. Ushbu fan sohasi tegishli ilmiy sohalarni egallash orqali o'zini namoyon qildi. Rivojlanishining dastlabki bosqichlarida psixolingvistika neyrolingvistikani qamrab oldi, aslida esa amaliy pedagogika va tibbiyotda uning ildizlaridan ajralib chiqdi.

Yaqin vaqtgacha neyrolingvistika mustaqil fan maqomiga ega emas edi. Bu qisman yetakchi olimlar o'rtasida uning asosiy xususiyatlari, masalan, boshqa fanlar orasidagi o'rni, tasnifi, mavzusi va vazifalari to'g'risida kelishuvning yo'qligi bilan bog'liq. Bundan tashqari, ushbu mavzu bo'yicha o'quv adabiyotlarining yetishmasligi neyrolingvistikaning ilmiy rivojlanmaganligining belgisi sifatida ham ko'rib chiqilishi mumkin.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Rus neyrolingvistikasida taniqli mutaxassis T.V.Axutina [3;C.143] ma'lum bir tasnif yordamida uning ilmiy makondagi o'rnini quyidagicha tasvirlaydi:



Neyrolingvistikaning boshqa fanlar bilan nisbati

K.F.Sedov boshqa fanlar qatorida ko'rib chiqilayotgan ilmiy sohaning mavqeyiga nisbatan biroz boshqacha nuqtayi nazarni taqdim etadi. Miyaning insonning kommunikativ kompetensiyasini qanday boshqarishini o'rganadigan tadqiqot sohasi yangi terminologik belgini talab qiladi. Shuning uchun K.F.Sedov [4;C.6] "neyropsixolingvistika"ni mavjud "neyrolingvistika" terminining sinonimi sifatida taklif qiladi. Ushbu yangi nom mazkur sohani umumiy psixolingvistikaning muhim tarkibiy qismi yoki bo'limi sifatida ko'rib chiqish kerakligini ta'kidlaydi. Shuningdek, Rossiya psixolingvistikasi tobora o'ziga xos mavzu, usul, muammo va tadqiqot vazifalari doirasiga ega bo'lgan mustaqil fan sifatida o'zini namoyon etmoqda. Ushbu e'tirof uni tegishli sohalardan ajratib turadigan chegaralarni aniqlashga yordam beradi, bu esa universitet o'quv dasturlari doirasida ta'lim va ilmiy tadqiqotlarning yaxlit hamda yaxshi tuzilgan sohasi sifatida ishlashga imkon beradi [7;C.271].

Anglashiladiki, neyrolingvistika (yoki neyropsixolingvistika) XX asrning o'rtalariga kelib mustaqil tadqiqot sohasi sifatida rivojlana boshladi. Ushbu soha afaziya deb nomlanuvchi mahalliy miya shikastlanishidan kelib chiqadigan nutq buzilishlarini bir asrdan ko'proq vaqt davomida o'rganib chiqdi. Neyrolingvistikaning shakllanishiga nevrologiya, psixologiya va tilshunoslik sohasidagi yutuqlar ham yordam berdi.

Neyrolingvistikaning kelib chiqishi neyropsixologiyada ikkita asosiy kashfiyot, ya'ni miya yarim korteksidagi mental jarayonlarning lokalizatsiyasi (1) va inson miyasining funksional assimetriyasi (2) bilan bog'liq.

"Miya funksional jihatdan bir xil organ emas", degan tushuncha birinchi marta XVIII asrning oxirida avstriyalik anatomist F.J.Gall [8;C28] tomonidan taklif qilingan. U turli xil

mental qobiliyatlar miyaning ma'lum hududlarida aniq lokalizatsiya qilinganligini, nafaqat hissiy va motor funksiyalariga, balki hazil tuyg'usi, dindorlik va badiiy iste'dod kabi shaxsiy xususiyatlarga hamda turli kasblarga moyillikka ta'sir qilishini taklif qildi. F.J.Gall, shuningdek, odamning bosh suyagi shakli, shu jumladan, uning bo'rtiqlari, tushkunligi, fe'l-atvori hamda qobiliyatlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi, deb taxmin qildi.

Frenologiya (insonning psixik va axloqiy xususiyatlari uning bosh suyak tuzilishi bilan bog'liq ekanligi haqidagi g'ayriilmiy nazariya) deb nomlanuvchi nazariya bir vaqtning o'zida Yevropada katta mashhurlikka erishdi. Frenologlar turli sohalarda muvaffaqiyatga erishish imkoniyatlarini bashorat qilish uchun odamlarning bosh suyaklarini o'rganishdi. Rossiyada F.J.Gall g'oyalarining ko'plab tarafdorlari ham bor edi. Biroq frenologiyaga bo'lgan dastlabki ishtiyoq vaqt o'tishi bilan pasayib ketdi, chunki miya bosh suyagida o'simtalar hosil qilmasligi va bunday xususiyatlar ko'pincha mexanik shikastlanishlar, ayniqsa bolalik davrida paydo bo'lishi aniq bo'ldi. Natijada frenologiya yolg'on nazariyaga aylandi va tarixga o'tdi.

F.J.Gall ta'limotining yagona afzalligi uning nazariyasining asosiy konsepsiyasi bo'lib, u mental jarayonlarning lokalizatsiyasini nazarda tutgan. Bir paytlar ishlab chiqilgan bu g'oya neyropsixologiya va neyrolingvistikaning rivojlanishi uchun asos bo'lib xizmat qildi. Bundan tashqari, nutq funksiyasi miyaning frontal peshanada joylashganligini birinchi bo'lib Gall taklif qilgan.

Muhokama. Chap yarim sharning frontal peshanadagi nutq funksiyalarini aniqlash yangi tadqiqot sohasini yaratishga olib kelgan muhim burilish nuqtasi sifatida qaraladi. Afaziologiyaning asosi odatda 1861-yil va Pol Brokning asarlari bilan bog'liq. Biroq 1836-yilda Fransiyaning Monpelye shahrida bo'lib o'tgan tibbiyot jamiyati yig'ilishida butun faoliyati davomida yagona ilmiy hisobotni taqdim etgan qishloq shifokori Mark Daksga minnatdorchilik bildirish muhimdir. Uning hisoboti miya shikastlanishi tufayli gapirish qobiliyatini yo'qotgan 40 bemorni o'rganishga asoslangan edi. Mark Daks birinchi bo'lib nutqni yo'qotish va miyaning ta'sirlangan qismi o'rtasidagi bog'liqlikni taklif qildi va birinchi marta nutq funksiyalari chap yarim sharda lokalizatsiya qilingan deb taxmin qildi. Uning tadqiqotlari nashr etilgan bo'lsa-da, ularga ilmiy jamoatchilik tomonidan yetarlicha e'tibor berilmadi.

Yigirma yildan ko'proq vaqt o'tgach, 1861-yilda Parij kasalxonasida klinik tadqiqotlar olib borgan yosh shifokor va tadqiqotchi Pol Broka antropologlar jamiyati yig'ilishida o'z kuzatuvlarini taqdim etdi. U o'ng qo'li va oyog'ining qisman falaji bilan kasalxonaga yotqizilgan va nutqda qiyinchiliklarga duch kelgan bemorni tekshirdi; u verbal nutqni tushunishi mumkin edi, lekin o'zi gapira olmasdi. Bemorning o'limidan so'ng uning ahvoli miya shishi tufayli yuzaga kelganligi aniqlandi.

P.Brokaning klinik kuzatuvlari uni chap yarim sharda birinchi frontal chuqurchasining orqa uchdan bir qismining shikastlanishi o'ziga xos holatga olib keladi, degan xulosaga keldi, bunda bemorlar tilni tushunishni saqlab, gapirish qobiliyatini yo'qotadilar. U miya yarim korteksining shikastlanishidan kelib chiqqan ushbu nutq buzilishini tavsiflash uchun "afemiya" atamasini taklif qildi.

P.Broka dastlab nutqni yo'qotish va miyaning ta'sirlangan tomoni o'rtasidagi bog'liqlikni to'liq tushunmagan. Faqat 1864-yilda u chap yarim shar nutq funksiyalari uchun javobgar ekanligini tushundi. U shunday dedi: "Afemiya bilan og'rikan birinchi bemorlarim nafaqat miyaning bir mintaqasida, balki bir tomonda – chapda ham doimiy ravishda zarar ko'rganidan hayratda qoldim. O'shandan beri, qancha otopsiyani (murdani yorish) o'tkazsam ham, jarohat har doim chap tomonda edi... Bu shuni ko'rsatadiki, artikulyar nutq qobiliyati chap yarim sharda lokalizatsiya qilingan yoki hech bo'lmaganda birinchi navbatda unga bog'liq" [9;C.256].

P.Broka tomonidan aniqlangan kortikal mintaqa endi "Broka zonasi" deb nomlanadi va bu sohadagi shikastlanish bilan bog'liq afaziya motor afaziya deb ataladi.

"Afaziya" atamasi umumiy e'tirofga sazovor bo'lib, afaziologiya deb nomlangan yangi

tibbiy nazariyani keltirib chiqardi. Afaziologiya tarixi neyrolingvistika va keyinchalik neyropsixolingvistika uchun asos yaratdi. P.Brokning kashfiyotlari, shuningdek, nutq uchun mas'ul bo'lgan yarim sharning insonning dominant qo'lga qarama-qarshi tomonida joylashganligini da'vo qiladigan yarim sharning ustunligi konsepsiyasini boshladi, bu dastlab "Brokning qoidasi" sifatida shakllantirilgan.

XIX asrning taniqli nevrologi D.J.Jeksonning kashfiyotlari afaziologiya va undan keyingi neyrolingvistikaning kelajakdagi rivojlanishi uchun alohida ahamiyatga ega, uning kuzatuvlari ko'p yillar davomida ushbu sohadagi taraqqiyotni belgilab bergan. Shunisi e'tiborga loyiqki, u birinchilardan bo'lib haddan tashqari soddalashtirilgan qattiq lokalizatsiya tushunchasini tanqid qildi. Jekson ta'kidlaganidek, "nutqni buzadigan miya shikastlanishining lokalizatsiyasi va nutq funksiyasining lokalizatsiyasi ikki xil narsadir" [10;C.16]. 1930-yillarga kelib, Jekson nutq nafaqat lingvistik belgilarning oddiy joylashuvi, balki lingvistik va kognitiv jarayonlar bir-biri bilan chambarchas bog'liq bo'lgan murakkab psixologik funksiya ekanligini tushundi va nutq amalda fikrlash shaklidir, degan xulosaga keldi. Uning "Nutq – bu so'zlar toplami emas" [11;C.18] iborasi buning dalilidir.

A.R.Luriya va N.I.Jinkin afaziyaning har xil turlarini kuzatdilar. Bu o'rinda rus neyropsixolingvistikaning uchta asosiy manbasi, ya'ni rus tilshunosligi, sovet psixologiyasi va rus fiziologiyasini ajratish maqsadga muvofiqdir.

Neyrolingvistikaning lingvistik ildizlari mashhur Boduen maktabining olimlari, xususan, I.A.Boduen de Kurtene hissasiga to'g'ri keladi. Boduen nazariyasining eng muhim jihati zamonaviy antroposentrik tilshunoslik tamoyillariga mos keladi: lingvistik tadqiqotlarning asl ma'nosi tilda emas (u insondan ajratilganda), balki odamlarda va ularning aloqa qobiliyatidadir. Olim ta'kidlaganidek, "tillar bir-biridan mustaqil ravishda mavjud emas; faqat lingvistik fikrlash qobiliyatiga ega bo'lgan shaxslar mavjud" [12;C.181] Bu yana bir muhim tasdiqqa olib keladi: "til na izolyatsiya qilingan hodisa, na erishib bo'lmaydigan ideal; bu vosita va jarayon".[13;C.140]

Boduenmaktabining asosiy shaxslaridan biri L.V.Shcherbabo'lib, urupsixolingvistikasining shakllanishiga asos solgan. U "О тройственном аспекте лингвистических явлений и об эксперименте в лингвистике" [14;P.24-39] ("Lingvistik hodisalarning uch tomonlama jihati va tilshunoslikdagi eksperiment to'g'risida") nomli asarida antroposentrik tilshunoslikning kelajagini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lgan tushunchalarni taqdim etadi.

1930-yillarda Rossiyadan emigratsiya qilgan taniqli amerikalik tilshunos R.O.Yakobson [15;C.460] neyrolingvistika bilan bog'liq masalalarga alohida e'tibor qaratgan. U afaziyaning har xil turlarini o'rganib chiqib, afaziologiyaga lingvistik yondashuv deb nomlanuvchi innovatsion nuqtayi nazarni taqdim etdi. Olimning ishidan oldin fonologiya, morfologiya va sintaksis kabi lingvistik jihatlar, asosan, vosita qobiliyatlari va hissiy funksiyalar kabi psixofiziologik ko'rsatkichlar foydasiga e'tiborsiz qoldirilgan.

Afaziyaning har xil turlarini tahlil qilib, R.O.Yakobson afaziologiyaga tubdan yangi – lingvistik yondashuvni taqdim etdi. Undan oldin til faktlari (fonologik, morfologik, sintaktik va boshqalar) e'tiborsiz qoldirilgan va asosan, afaziyaning psixofiziologik ko'rsatkichlari – vosita faolligi, sezgirlik va boshqalar tasvirlangan.

A.R.Luriyaning neyrolingvistik nazariyalariga R.O.Yakobsonning til birliklari (o'xshashlik) va sintagmatik munosabatlar o'rtasidagi paradigmatic munosabatlarni ajratib turadigan dixotomiyani joriy etishi katta ta'sir ko'rsatdi. R.O.Yakobsonning ta'kidlashicha, "miya faoliyatidagi turli xil buzilishlar til tuzilishi asosidagi mexanizmlarning o'zgarishiga olib kelishi mumkin".

Neyrolingvistikaning lingvistik asoslarini muhokama qilishda taniqli rus filologi va faylasufi M.M.Baxtin [16]ni eslatib o'tish muhimdir. Uning A.R.Luriyaga ta'siri katta bo'lgan. Aslida faylasufning lingvistik qarashlari neyrolingvistikaning rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi.

Bu ta'sir M.M.Baxtinning madaniy falsafasi ta'siri ostida sezilarli darajada rivojlanishda davom etayotgan psixolingvistika orqali amalga oshirildi. Til faoliyati va insonning ijtimoiy mavjudligi o'rtasidagi belgi, ifoda va aloqalar haqidagi noyob g'oyalarni o'z ichiga olgan uning til falsafasi XX asr gumanitar fikrini shakllantirishda muhim rol o'ynadi.

Neyropsixolingvistikaning psixologik asoslari, asosan, L.S.Vigotskiyning [17;C.362] nazariy va uslubiy qarashlariga asoslangan bo'lib, unga Luriya har doim o'z ustoz sifatida katta hurmat bilan munosabatda bo'lgan. L.S.Vigotskiyning psixologiyaga madaniy va tarixiy yondashuvi bir nechta prinsiplarga asoslanadi:

1. Psixika shaxslarning o'ziga xos biologik tuzilishga, ya'ni miyaga ega bo'lgan jismoniy mavjudotlar xarakteristikasi sifatida ishlaydi.

2. Inson psixikasi tabiatan ijtimoiy; uning o'ziga xos jihatlarini tushunish uchun biologiyadan (bixevioristlar kabi) yoki mavhum "ruh qonunlari" dan (an'anaviy yevropalik psixologlar taklif qilganidek) tashqariga chiqish va buning o'rniga insoniyat hamda jamiyat tarixini o'rganish kerak.

L.S.Vigotskiyning ta'kidlashicha, "inson faoliyati, hayvonlarning xatti-harakatlaridan farqli o'laroq, ijtimoiy jihatdan ishlab chiqilgan va o'rnatilgan vositalar hamda psixologik moslashuvlar (masalan, belgilar) tizimi orqali amalga oshiriladi" [17;C.343]. Ushbu belgilar inson aqlining asosini tashkil qiladi; intellektual xatti-harakatlar ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan harakatlar paytida ushbu belgilardan foydalanishga asoslangan. Inson psixikasi va ongini tashkil etuvchi belgilar hamda psixologik vositalar tashqi tomondan paydo bo'ladi – ular avval tashqi harakatlarda namoyon bo'ladi, so'ngra o'zlashtiriladi. Bu jarayon interiorizatsiya deb ataladi. Bolalar nutqi interiorizatsiya jarayonining yorqin namunasi. Dastlab yosh bolalar o'z fikrlarini baland ovozda ifoda etmasdan verbal fikrlay olmaydilar. Biroq taxminan 5 yoshdan 6 yoshgacha ular o'zlarini aks ettirish va ichki fikrlash bilan shug'ullanishga imkon beradigan ichki nutqlarini rivojlantira boshlaydilar.

Muayyan fanning holatini baholashda tez-tez paydo bo'ladigan birinchi savol uning tashqi muhitiga tegishlidir. Shu nuqtayi nazardan, psixolingvistika chegaralari va vazifalarini tor hamda keng talqin qilish o'rtasida farq bor. Bu inson ongini (yoki tafakkurini) o'rganishga e'tibor qaratishdan tortib, ilmiy tadqiqotlar doirasida kommunikativ kompetensiyaning barcha jihatlarini qamrab olishga qodir. Psixolingvistikaning tashqi chegaralari shu qadar "xiralashganki", u beixtiyor kognitiv fan, lingvistik pragmatika, sotsiolingvistika va hatto psixologiya hamda fiziologiya kabi boshqa sohalar bilan kesishadi. Ilmiy savollarning umumiy to'plami bilan bog'liq bo'limlarni aniqlashni o'z ichiga olgan ichki tasniflash muammosi ayniqsa dolzarbdir. Biroq bu sohada noaniqlik va nisbiylik darajasini oshirib yubormaslik kerak. Darhaqiqat, turli nuqtayi nazar va qarama-qarshiliklarning mavjudligi dinamik atmosferani yaratishga yordam beradi.

Umumiy psixolingvistika barcha psixolingvistik tadqiqotlar uchun uslubiy asos yaratadigan aniq belgilangan keng qamrovli muammo va tushunchalarni o'z ichiga oladi. Uning asosiy maqsadi sog'lom katta yoshdagilarning kommunikativ kompetensiyasiga oid asosiy ilmiy g'oyalarni birlashtirgan yaxlit, potensial spekuliyativ modelni ishlab chiqishdir. Bundan farqli o'laroq, xususiy psixolingvistika amaliy tadqiqot sohalari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan sohalarga qaratilgan. Ushbu doirada ijtimoiy va yoshga bog'liq psixolingvistikani xususiy psixolingvistikaning o'rnatilgan tarmoqlari sifatida ajratib ko'rsatish mumkin. Bundan tashqari, K.F.Sedov tadqiqotlaridagi neyropsixolingvistika insonning kommunikativ kompetensiyasi bilan bog'liq bo'lgan miya mexanizmini o'rganadigan umumiy psixolingvistikaning bir qismi sifatida qaraladi.

Xulosa. Inson miyasi nafaqat til tuzilishini, balki insonning muloqot qilish qobiliyatini ham anglatishini tushunish muhimdir. Ushbu qobiliyat doirasida kommunikativ kompetensiya, til va ong, nutq va fikrlash, verbal va noverbal belgilar kabi elementlar o'zaro ta'sir qiladi

hamda birlashadi. Kommunikativ kompetensiya, miya funksiyasi sifatida, turli xil ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan o'zaro ta'sirlarda nutqni yaratish va tushinishda ishtirok etadigan murakkab mexanizm hamda jarayonlarni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu mexanizm va jarayonlar doimo psixolingvistikaning diqqat markazida turadi. Shuning uchun psixolingvistika tabiiy ravishda neyrolingvistika (til bilan bog'liq holda miyani o'rganish) bilan bog'liq masalalarni insonning gapirish va fikrlashning asosiy qobiliyatini tushunishning asosiy jihati sifatida qamrab oladi.

Neyropsixolingvistika fani rivojlanishi bilan insoniyat nutq va til bilan bog'liq ko'plab muammolarga yechim topish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Седов К.Ф. Нейропсихоллингвистика. – М.: Лабиринт, 2007. – 224 с.
2. Лурия А.Р. Основные проблемы нейролингвистики. – М., 1975. – 252 с.
3. Ахутина Т.В. Нейролингвистический анализ динамической афазии. – М., 1975. – 143 с.
4. Седов К.Ф. Нейропсихоллингвистика. – М.: Лабиринт, 2007. – 224 с. – С. 6.
5. Горелов И.Н., Седов К.Ф. Основы психоллингвистики. – М., 2004. – 304 с.; Залевская А.А. Введение в психоллингвистику. – М., 1999. – 560 с.; Леонтьев А.А. Основы психоллингвистики. М., 1997. – 271 с.;
6. Глухов В.П. Основы психоллингвистики. – М., 2005. – 361 с.; Фрумкина Р.М. Психоллингвистика. – М., 2001. – 26 с.
7. Седов К.Ф. Нейропсихоллингвистика. – М.: Лабиринт, 2007. – 224 с. – С. 28.
8. Спрингер С., Дейч Г. Левый мозг, правый мозг. – М., 1983. – 256 с.
9. Джексон Дж. Х. Избранные работы по афазии. – СПб., 1996. – 72 с. – С. 16.
10. Джексон Дж. Х. Избранные работы по афазии. – СПб., 1996. – 72 с. – С. 18.
11. Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные работы по общему языкознанию: В 2т. – М., 1963. Т.2. – 391 с. – С. 181.
12. Бодуэн де Куртенэ И.А. Избранные работы по общему языкознанию: В 2т. – М., 1963. Т.2. – 391 с. – С. 140.
13. Щерба Л.В. О тройном аспекте языковых явлений и об эксперименте в языкознании // Языковая система и речевая деятельность. – Л., 1974. – С. 24-39.
14. Якобсон Р.О. Избранные работы. – М., 1985. – 460 с.
15. Бахтин М.М. Собрание сочинений в семи томах. – М., 1996-2005. – 331 с.
16. Выготский Л.С. Мышление и речь. – М., 1996. – 362 с.
17. Выготский Л.С. Психология развития человека. – М.: Изд-во Смысл; Эксмо, 2005. – 1136 с. – С. 343.

BADIIY TARJIMA VA UNING MAZMUN-MOHIIYATI

Sharipova Fazilat Dilmurod qizi

O'zDJTU doktoranti

<https://orcid.org/0009-0006-1101-7790>

Annotation: Mazkur maqolada badiiy tarjima va uning mazmun-mohiyati haqida fikr yuritilgan. Badiiy tarjima – bu ijodiy jarayon bo'lib, asliyat matnidagi lingvokulturologik, stilistik, semantik va pragmatik xususiyatlarni tarjima tilida qayta aks ettirishni talab qiladi. Maqolada badiiy tarjima jarayonida uchraydigan asosiy qiyinchiliklar, jumladan, til tizimlari va madaniy tafovutlarning tarjimaga ta'siri, shuningdek, bu masalalarni hal qilishning lingvistik va uslubiy yondashuvlari tahlil qilingan. Jahon va o'zbek tarjimashunos olimlarining, jumladan, G'.Salomov, Q.Musayev, P.Nyumarkning badiiy tarjima sohasidagi qarashlari o'rganilib, tarjima jarayonidagi uslubiy yondashuvlar chuqur tahlil qilingan. Ushbu maqola badiiy tarjimaning muhim jihatlarini o'rganib, nazariy va amaliy jihatdan yangi tadqiqotlar uchun zamin yaratadi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, lingvokulturologik xususiyatlar, tarjima nazariyasi, tarjima uslublari, tarjima muammolari.

ARTISTIC TRANSLATION AND ITS CONTENT-ESSENCE

Sharipova Fazilat Dilmurod qizi

Doctoral student of Uzbek State University of World Languages

Annotation: This article explores the essence and significance of literary translation. Literary translation is a creative process that requires reflecting the linguocultural, stylistic, semantic, and pragmatic features of the source text in the target language. The article discusses the primary challenges in literary translation, such as linguistic and cultural differences, and examines linguistic and stylistic approaches to addressing these issues. It also analyzes the perspectives of international and Uzbek scholars, including G'.Salomov, Q.Musayev, and P.Newmark, on the theoretical and practical aspects of literary translation. The study contributes to identifying the key aspects of literary translation and lays the groundwork for further theoretical and practical research.

Keywords: literary translation, linguocultural features, translation theory, translation techniques, translation challenges.

ХУДОЖЕСТВЕННЫЙ ПЕРЕВОД И ЕГО СОДЕРЖАНИЕ

Шарипова Фазилат Дилмурод кизи

Докторант Узбекский государственный университет мировых языков

Аннотация: В данной статье рассматривается сущность и значение художественного перевода. Художественный перевод является творческим процессом, требующим отражения лингвокультурных, стилистических, семантических и прагматических особенностей оригинального текста в языке перевода. Рассматриваются основные трудности художественного перевода, такие как лингвистические и культурные различия, а также анализируются лингвистические и стилистические подходы к их преодолению. Также исследуются взгляды международных и узбекских ученых, включая Г. Саломова, К. Мусаева и П. Ньюмарка, на теоретические и практические аспекты художественного перевода. Работа вносит вклад в выявление ключевых аспектов художественного перевода и открывает перспективы для дальнейших исследований.

Ключевые слова: Художественный перевод, лингвокультурные особенности, теория перевода, методы перевода, проблемы перевода.

Kirish. Tarjimashunoslik sohasidagi izlanishlar tilshunoslikda doim dolzarb mavzu hisoblangan. Bugungi kunda ham tarjima jarayonida yuzaga chiqadigan turli muammolar tadqiqotchilar tomonidan o'rganilmoqda. Ma'lumki, tarjimaning turli xil ko'rinishlari mavjud: badiiy asarlar tarjimasi, ilmiy-texnik adabiyotlar tarjimasi, siyosiy-publististik materiallar tarjimasi, rasmiy idora hujjatlari tarjimasi, kinofilmlar tarjimasi. Bulardan kelib chiqib, o'ziga xos xarakterlariga ko'ra tarjima badiiy, ilmiy, publitsistik va rasmiy tarjima sohalariga bo'linadi.[1;B.4] Ayniqsa, badiiy tarjima eng murakkab tarjima sohalaridan biri hisoblanadi. Dastlab O'zbekiston va jahon tarjimashunos olimlarining badiiy tarjima, uning ta'rifi va o'ziga xos xususiyatlari to'g'risida bildirgan fikrlarini qayd etib o'tamiz.

Ma'lumki, badiiy asar tili bir qator o'ziga xoslik va murakkabliklarni o'zida aks ettiruvchi hodisadir. Badiiy asarda namoyon bo'lgan til yoki matnning lingvistik va badiiy xususiyatlarini saqlagan holda tarjima tiliga o'girish, shubhasiz, san'at desak mubolag'a bo'lmaydi. Xususan, V.Vinogradov badiiy adabiyot tilini ikki xilda: 1) tillarning sistemasini aks ettiruvchi "nutq" yoki "matn" (adabiy til tarixi, tarixiy grammatika va leksikologiya uchun tahlil materiali) ma'nosida; 2) "san'at tili", badiiy ifoda vositalari sistemasi ma'nosida farqlab ta'kidlaydi. [2;B.8] Shuning uchun ham o'quvchi badiiy asardagi "obrazlar va ularning tuyg'ularini qalbdan anglashi uchun, avvalo, tarjimon so'z san'atkori bo'lishi kerak". [3;B.3]

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. G'.Salomovning fikricha, "bugungi kunda badiiy tarjima sohasida erishilgan yutuqlar sarhisob qilinar ekan, bu o'z-o'zidan paydo bo'lmaganligi, xalqimiz orasida yetishgan ma'rifatparvar kishilar, davlat va jamoat arboblari, atoqli yozuvchi, tarjimon va jurnalistlarning fidoyi mehnati natijasida qo'lga kiritilganligini unutilib bo'lmaydi". [4;B.9]

Xalqimiz tarjimachilik maktabi qadimiy tarixga ega. Xususan, butun dunyoga taniqli Mahmud Qoshg'ariy, Rabg'uziy, Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur, Ogahiy va Munis kabi bobolarimizning ijodiy faoliyatida badiiy tarjima salmoqli o'rin egallaydi. Shuningdek, yaqin o'tmishimizda G'afur G'ulom, Abdulla Qodiriy, Cho'lpon, Abdulla Qahhor, Oybek, Mirtemir, Maqsud Shayxzoda, Asqad Muxtor, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov singari ma'rifatparvar yozuvchi va shoirlarimiz ham bu sohada ijod qilishgan.

Garchi o'zbek tiliga qilingan tarjimalar sifatiga o'z davrida munosabat bildirilgan bo'lsa-da, bizni tarjimashunoslik alohida fan sifatida rus olimlari (xususan, A.V.Fedorov, I.Kashkin, K.Chukovskiy, E.G.Etkind va b.) ta'sirida yuzaga keldi va shakllandi.[5] O'tgan asrning ikkinchi yarmida badiiy tarjima fan sifatida anchayin jadal su'ratlarda rivojlandi. Badiiy tarjimaning turli muammolariga bag'ishlangan o'nlab monografiyalar J.Sharipov, N.Vladimirova, M.Rasuliy, E.Aznaurova, A.Hojiahmedov, G.G'afurova, N.Komilov, G'.Salomov, shuningdek, I. Mirzayev, M. Xolbekov, A. Abduazizov kabi tarjimashunos olimlar tomonidan taqdim etildi. So'nggi yillarda I.Tuxtasinov, G'.Rahimov hamda U. Yo'ldoshevlar izlanishlarida tarjima asarlarining badiiy jihatlarini o'rgandilar.

G'.Salomov o'zining "Tarjima tashvishlari" nomli kitobida tarjimani jamiyatda yangicha munosabatlar va qarashlar paydo bo'lishiga turtki bo'lishi xususida so'z yuritgan. Shuningdek, olim "badiiy tarjima umumadabiy ishimizda istiqbolliyat saltanatining hali yetarli foydalanilmagan ichki imkoniyatlaridan biridir" [6;B.28], — deya ta'kidlaydi. Badiiy tarjima milliy adabiyotlar orasidagi o'ziga xos aloqalarning mahsuli o'laroq yangicha g'oyaviy yo'nalishlar va janrlar shakllanishiga zamin yaratadi.

Q.Musayevning ta'kidlashicha, insoniyat faoliyatining murakkab shakli bo'lmish tarjima – bir tilda yaratilgan nutqiy ifodani (matnning), uning shakli va mazmun birligini saqlagan holda, o'ziga xos vositalari asosida qayta yaratishdan iborat ijodiy jarayondir.[7;B.8]Haqiqatan ham tarjima ijodiy jarayon hisoblanadi. Bir tildagi ijod namunasini boshqa tilda qayta yaratish ijodkor (tarjimon)ning badiiy yondashuvi natijasidir. Shu bilan birga, quyida keltirilgan fikr

ham olimning tarjima xususidagi qarashlarini yanada oydinlashtiradi: “Tarjima turli xalqlar adabiyotlarining o‘zaro aloqasi va bir-biriga ta’siri jarayonini tezlashtiradi. Tarjimaviy asarlar tufayli kitobxonlar jahon adabiyoti durdonalaridan bahramand bo‘ladilar, ularning estetik tuyg‘ulari oshadi, didlari o‘sadi, ularda go‘zal narsalar haqida tushunchalar hosil bo‘ladi [8;B.15]”. Olimning tarjima borasidagi bu fikri G‘.Salomovning badiiy tarjima xususidagi xulosalarining davom ettirmoqda.

I.G‘afurov tarjimini turli ma’lumotlar, hujjatlar, nutqlar va asarlarning bir tildan boshqasiga o‘girish va tarjima tiliga ularni tushunarli qilib o‘tkazish, deya ta’riflagan [9;B.5] Ko‘rinib turibdiki, tarjima borasidagi deyarli barcha fikrlar bir-birini to‘ldiradi. Demak, badiiy tarjima – yozma shakldagi matnni bir tildan ikkinchi tilga asarning leksik, stilistik, semantik, lingvopragmatik va lingvokulturologik xususiyatlarini qamrab olgan holda qayta yaratish, deb ayta olamiz.

Turli mamlakatlar, zamonlar, turfa tillar va adabiyotlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi muhtasham omillardan biri badiiy tarjimadir. Tarjimon tarjima qilayotgan asarda tasvirlangan xalq madaniyatiga, tiliga oid elementlarni xohlaganicha qisqartirib, o‘zgartirib yoki asarga taalluqli bo‘lmagan axborotni qo‘shib, asliyat mazmunini yo‘qotib qo‘yishi mumkin. Badiiylik tarjimaning bu sohasidagi birinchi shartdir. Badiiylik aks etmagan badiiy tarjima asarlari aksariyat hollarda omadsizlikka duchor bo‘ladi. Badiiy asar tarjimasi ijodkorlikning yorqin misoli sifatida ulug‘vor maqsadlarni ko‘zlasa, maqsadga muvofiq bo‘ladi. Zotan, badiiy tarjimada badiiy asarga xos jamiki xislat va fazilatlar tarjima asariga ham daxldor bo‘lmoq‘i kerak.

“Tarjima – nusxa ko‘chirish emas, tarjimonning estetik ehtiyoji uning ixtiyoridan tashqari bo‘ladi va ayni vaqtda tarjimada iz qoldiradi. Yozuvchi hayot voqealaridan olgan mushohadalarini tilda badiiy ifodalasa, tarjimon asliyat matnini yangi til vositasida qayta gavdalandiradi. Buning uchun u asarda tilga olingan voqelikni muallif darajasida puxta bilishi kerak”[10].

“Kitobxon uchun tushunarli til birliklari va vositalari orqali asliyat asardagi voqeliklar tarjima tilida qayta bunyod etiladi. Albatta, tarjima jarayonida kitobxonning asliyat asarga nisbatan butunlay boshqa tilga mansub ekanligini, boshqa madaniyat va tarix vakili ekanligini nazardan qochirmaslik kerak”. [11;B.16]

“Tarjima turli uslubdagi matnlar bilan ishlash amaliyoti hisoblanib, ayniqsa, muallif badiiy asarda tasvirlagan hayajonli holatlarni, his-tuyg‘ularni tarjima tilida qayta aks ettirishdek murakkab jarayon sanaladi” [12;B.13]. Tarjimonning kasbiy kompetensiyasi asarda tasvirlangan voqealar rivoji va undagi qahramonlarning ichki xarakterini tasavvur etish, anglashga harakat qilish demakdir. Tarjimon, avvalo, muallif konsepsiyasi, bilimi, hissiy kechinmalari, ko‘nikma va malakasi hamda fikrlash doirasi, faqat muallifgagina xos individual uslubni to‘liq tushunmasdan o‘girilgan tarjima tuzatib bo‘lmas noaniqlik va tushunmovchiliklarni keltirib chiqarishi mumkin.

Sir emaski, rasmiy uslubdagi matnlarda tasviriy vositalar hamda konnotativ ma’no kabilar uchramaydi. Bu kabi matnlarni tarjima qilishda tarjimon, asosan, asliyat va tarjima tillaridagi leksik-grammatik birliklar va ulardagi sintaktik tuzilishda ifodalangan denotativ mazmunga e’tibor qaratadi. Xuddi shuningdek, ilmiy uslub matnlari tarjima jarayonida ham ayni xususiyatlar diqqat markazida bo‘ladi. Ilmiy uslubdagi matn tarjimalarida sohaga oid terminologiya tarjimasi bilan bog‘liq muammolar yuzaga kelishi mumkin. Ta’kidlash joizki, rasmiy, badiiy, ilmiy va so‘zlashuv uslubidagi matnlarning publitsistik uslubdagi matnlarda ham uchrashi mumkinligi tarjimada bu uslubning muayyan qiyinchiliklarini yuzaga keltiradi. Hajm jihatidan publitsistik uslubdagi tarjimalarda yuzaga keladigan muammolar badiiy uslubdagi muammolar miqdoridan anchayin kamroq kuzatiladi. Buning sababi shundaki, badiiy matnlar asosan konnotativ mazmun, shuningdek, tasviriy ifoda birliklaridan tashkil topadi.

Muhokama va natija. Tarjima, xususan, badiiy tarjima to‘g‘risida jahon olimlarning

qarashlari va fikrlarida tarjimaning o'ziga xos jihatlarini yanada chuqurroq talqin etilishini kuzatishimiz mumkin.

M.Anani esa badiiy tarjima ham tarjimaning boshqa sohalari singari og'zaki yoxud yozma nutqdagi kodni boshqa tildagi shu kabi kodga almashtirishni qamrab oladi, deb hisoblaydi. Lekin so'zlarda aks etgan bosh ma'nolar bilan bir qatorda ularning konnotativ mazmuni va ta'siri badiiy tarjimani boshqa tarjima turlaridan ajratib turadi [14].

Beqiyos ijodiy erkinlik xususiyatiga ega bo'lgan ijodiy jarayonni, S.Landers, badiiy tarjima deb ataydi. Shunga qaramay olim bu izohni har tomonlama aniqlashtirib bera olmadi [15;B.142-143]. Bugungi kungacha ko'plab tarjimashunos olimlar va yozuvchilar badiiy tarjimaga nisbatan yaqqol va aniq ta'riflay olishmagan. R. Skulte va J.Bigunet kabi klassik tarjimashunoslik vakillari tarjimonning vazifasi va xarakterini tasvirlash asnosida badiiy tarjima mohiyati (aqldan ko'ra ruhiyatning ustunligi), tarjima uslubi (erkin yoki ijodiy tarjima), shuningdek, badiiy tarjimaning vazifasi sifatida o'zga millat adabiyot va madaniyatini kitobxonga tildagi badiiy bo'yoqdorlikni saqlash va oshirish vositasida yetkazish kabilar ekanligini ta'kidlab o'tishgan.[16]

Ko'plab jahon tarjimashunos olimlari S.Landers va P.Nyumark singari badiiy tarjimani adabiy tildagi asosiy xususiyat va muammolarni o'rganuvchi soha deb hisoblashadi. P.Nyumark allegoriya va majoziy ma'no, tovushlarning onomatopedik tabiati, ko'p ma'noli so'zlardan foydalanish xususiyatlari, ritm va tarjima jarayonida har bir so'zni e'tibordan chetda qoldirmaslik adabiy tilning beshta asosiy unsurlariga to'xtalib o'tadi. [17;P.234]

P.Nyumark "Textbook of translation" kitobida turli xil tarjima uslublarini sanab o'tadi:

So'zma-so'z tarjima. Matnni tarjima tiliga so'zma-so'z o'girilishiga aytiladi. Bunda kontekstga uncha e'tibor berilmasdan so'z tartibiga asoslanib gap tarkibidagi har bir so'z eng muqobil tarjimasiga o'giriladi.

So'zma-so'z tarjima faqatgina mukammal badiiy tarjima yaratish uchun xomaki matn sifatida xizmat qilib, asar o'quvchilarini uning umumiy mazmuni bilan tanishtirishi mumkin. Shu sababdan ko'pincha dastlab so'zma-so'z tarjima tayyorlanadi va bu kabi ko'rinishdagi tarjima adabiyotda "taglama" tarjima deb ham yuritiladi.[18]

Ijodiy tarjima. Ushbu tarjima uslubida asarda keltirilgan leksik birliklar va grammatik konstruksiyalar tarjima tiliga xoslanib, madaniy qadriyatlar inobatga olingan holda tarjima qilinadi. Tarjimon kitobxonga muallif ko'zlagan g'oyaviy maqsadni to'liq yetkazishi uchun tarjimaga ijodiy yondashadi, ya'ni kerakli o'rinlarda kerakli lingvistik vositalarni qo'llaydi. [19;B.83-96]

Ishonchli tarjima.Asliyat matnidagi kontekstual mazmuni tarjima tilidagi grammatik strukturalarda aks etgan originallikni eng muqobil vositalar bilan aks ettirish demakdir.

Hijjaviy tarjima. So'zma-so'z tarjimaga o'xshash bu uslubda asarning grammatik va leksikologik qonuniyatlari tarjima tilida aks etadi. Ammo ba'zi olimlar, xususan, Y.I.Reskerning ta'kidlashicha, hijjaviy va so'zma-so'z tarjima uslublari bir biriga umuman o'xshamaydi. Hijjaviy tarjimada milliy mazmunga ega bo'lgan so'zlar o'z holicha qoldirilib, mexanik tarzda tarjima tiliga to'g'ridan to'g'ri o'giriladi. [20;B.26]

Erkin tarjima. Ushbu uslubda asar muallifiga tegishli uslub tarjimon tanlagan uslubga almashib ketadi chunki asarning mazmun-mohiyati, g'oyasi va badiiy o'ziga xosligini tarjimon o'zgartiradi.

Adaptatsiya (moslashtirish) tarjima. Bu tarjima uslubi tarjimaning eng erkin shakli hisoblanadi. Asosan, she'riyat va drama janri tarjimalarida ishlatiladi. Bunda tarjima tili o'quvchi saviyasiga moslashtiriladi. Asliyat matnidagi madaniy xususiyatlari tarjima tilidagi ekvivalentlariga o'zgartiriladi. O'ziga xos tarjima vositalari natijasida muallif matni tarjima tiliga tegishli xalq libosiga burkanadi. Beasos asliyatni imkoni boricha tarjima tili sohiblariga yaqinlashtirish adaptatsiya tarjima uslubining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Idiomalashtirilgan tarjima. Idiomalashtirilgan tarjimada muallifga xos individual badiiy

til va undagi lisoniy vositalar asossiz ravishda boʻrttirilib, hissiyotni ifodalovchi soʻzlar balandparvoz soʻzlarga almashtiriladi. Bu kabi tarjima matnlari kitobxonning jigʻiga tegadi va soxta estetik tasavvur hosil qiladi, deb taʼkidlaydi, Q.Musayev.

Bilamizki, ikki tildagi turli sathlar va ularning oʻziga xos xususiyatlarini qiyosiy oʻrganuvchi lingvistik tahlil ushbu sohaning ham nazariy ham amaliy rivojlanishida muhim hisoblanadi. Maʼlumki, deyarli barcha til tizimlarida muayyan oʻziga xos xususiyatlar mavjud boʻlib, ular orasidagi oʻxshashlik va tafovutlarni aniqlash, ularni qiyosan oʻrganish, ulardagi denotativ, konnotativ va uslubiy, mazmuniy va pragmatik muvofiqliklarni farqlash hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Baʼzan tarjimada til tizimining alohida unsurlari darajalaridagi ekvivalentlik emas, badiiy ifoda tarkibida oʻz aksini topgan mazmuniy-uslubiy, hissiy-taʼsirchan va pragmatik vazifalar uygʻunligi asos qilib olinadi.

Shu oʻrinda badiiy tarjimada transformatsiyalar ahamiyati, turlari, transformatsion konstruksiyalardan tarjimada samarali foydalanish xususida soʻz yuritimiz. Tarjimada, ayniqsa, badiiy tarjimada ingliz va oʻzbek tillarida gapdagi soʻz tartibi farqli boʻlishi tufayli, tarjimonlar koʻpincha soʻz tartibini oʻzgartirish transformatsiyasidan foydalanishadi. Shuningdek, soʻz qoʻshish, soʻz tushirib qoldirish, konkretlashtirish, umumlashtirish, tasviriy tarjima va kalkalash usullari ham tarjima davomida qoʻllanilishi mumkin.

Tarjima transformatsiyalarining turlari tarjima munosabati bilan kontaktga kirgan ikki til (asliyat va tarjima)ning tipologik, stilistik, lingvostilistik, pragmatik, lingvopragmatik, lingvokulturologik, sotsiolingvistik hamda lingvotekstologik xususiyatlaridan kelib chiqib tanlanadi. [21;B.129-132]

Vatanimizda badiiy tarjimachilik rivoji ayniqsa soʻnggi oʻn yilliklar davomida izchil rivojlanmoqda. Tabiiyki, badiiy tarjima asarlarining sifati ham sezilarli ravishda yaxshi tomonga oʻzgaryapti. Buning asosiy sabablaridan biri sifatida keyingi yillarda ushbu sohada olib borilayotgan tadqiqotlar va izlanishlarni koʻrsatishimiz mumkin.

Xalqaro madaniy va adabiy aloqalarning rivojida ingliz va oʻzbek tillaridagi adabiyot durdonalarining tarjima qilinishi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Xususan, bobomiz Zahiriddin Muhammad Bobur qalamiga mansub “Boburnoma” asari dunyoning koʻplab tillariga, ayniqsa, ingliz tiliga tarjima qilingani oʻzbek adabiyotining buyukligi va betakrorligini butun jahonga namoyish etdi. Soʻnggi yillarda bu nodir asar va uning tarjimalari toʻgʻrisida qator izlanish va tadqiqotlar amalga oshirildi. [22;B.18]

Oʻzbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilingan koʻplab asarlar keyingi yillarda tadqiqotlar obyektiga aylanib bormoqda. Abdulla Qodiriyning “Oʻtkan kunlar” romani oʻzbek romanchiligining birinchi mahsuli hisoblanadi. “Oʻtkan kunlar” romani 2017-yilda I.M.Tuxtasinov rahbarligidagi tarjimonlar guruhi tomonidan “The days gone by” nomi ostida, 2018-yilda Kerol Yermakova tomonidan “Days gone by” nomi bilan hamda 2018-yilda Mark Edvard Riz tomonidan “By gone days” (“Oʻtkan kunlar”) nomi ostida ingliz tiliga tarjima qilinib, bosma nashrda oʻquvchilarga taqdim qilindi. Shuni taʼkidlab oʻtish joizki, ushbu tarjimalar ichida Kerol Yermakova tomonidan qilingan tarjima variant asarning rus tilidagi tarjimasi asosida amalga oshirilgan boʻlib, qolgan ikkitasi bevosita oʻzbek tilidan ingliz tiliga oʻgirilgan. [23;B.186-196] Shu bois ham, mazkur tadqiqot ishimizda asarning I. Tuxtasinov, O.Moʻminov, A.Hamidovlar va Mark Riz tomonidan qilingan tarjimalaridagi xatlarni pragmatik jihatdan tahlil qildik.

Xulosa. “Oʻtkan kunlar” romani xalqimizning maʼnaviyati, yaqin oʻtmishi va madaniyatiga oid nozik jihatlarni aks ettirgan. Shuning uchun ham asarning ingliz tiliga qilingan tarjimalari alohida qiymatli hisoblanadi. Mana shunday xususiyatlarini hisobga olib, tadqiqot materiali sifatida ushbu asardagi xatlarni tanladik, shuningdek, ushbu tadqiqotimizda oʻzbek tarjimonlari I.Tuxtasinov, O.Moʻminov, A.Hamidov (2017) hamda chet ellik tarjimonlar Kerol Yermakova (2018) va Mark Riz (2019) tomonidan taqdim etilgan xatlar tarjimalarining pragmatik tahlilini

qiyosan o'rganish izlanishimizning maqsadi hisoblanadi. Romandagi xatlarning uch xil tarjimalarida til birliklarining pragmatik mohiyatini tarjimonlar nechog'lik tarjima tilida aks ettira olganini qiyosiy tadqiq etish tadqiqot maqsadini yanada aniqlashtiradi.

O'zbekistonning milliy ma'naviy boyligiga aylangan "O'tkan kunlar" romani xorijlik o'quvchilar orasida ham o'z muxlislariga ega bo'lsa, ajab emas. Ayni chog'da, asar xorij o'quvchisini o'zbek xalqining ma'naviy olami, yuksak badiiy tafakkuri va umrboqiy qadriyat va an'alariga oshno etadi. [24]

Shunday qilib, xulosa qilish mumkinki, tafovutlar o'zaro qardosh bo'lmagan tillar, bir-biriga yot madaniyatlar orasida ko'plab uchraydi. Zero, turli ijtimoiy, siyosiy va iqtisodiy jarayonlarni boshdan kechirgan har qanday xalq ongida dunyoning o'ziga xos lisoniy tasviri shakllanadi. Bu kabi o'ziga xos tasvirda nafaqat madaniy jarayonlar, balki ma'naviy jarayonlar ham o'z aksini topadi. [25;B.148-156] Bu kabi omillar badiiy tarjima oldiga yechimi topilishi kerak bo'lgan ko'plab muammolarni qo'yadi va o'z-o'zidan zamonaviy badiiy tarjima sohasida yangidan-yangi tadqiqotlar uchun zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Anani M. Literary Translation (in Arabic). Libraire du Liban: – Lebanon, 1997.
2. Азнаурова Э. Бадий таржиманинг асосий проблемалари. Tarjima san'ati (Maqolalar to'plami).- Toshkent: Badiiy adabiyot nashriyoti, 1961.-B.3.
3. «Бобурнома» матнидаги тасвирий воситаларнинг инглиз тилига таржималари тадқиқи. Filol.fan...dok (DSc) diss...avtoref.– Toshkent, 2018.–B.18.
4. Бозоров З. М. Бадий таржимада лексик-стилистик бўёқдорликни сақлаш муаммолари. Filol.fan.nomz. (PhD) ...diss. –Samarqand, 2020.–B.83-96.
5. Досбаева Н.Т. Таржималар таҳлилида Қодирий “андиша”лари //О'zbekistonda xorijiy tillar. - 2020.- № 4 (33).—B.186-196.
6. Landers C. Literary Translation: A Practical Guide. – Clevedon: Multilingual Matters, 2001.–P.142-143.
7. Мусаев К. Таржима назарияси асослари.–Toshkent: Fan nashriyoti, 2005.–B.8.
8. Newmark P. Approaches to Translation. – Hertfordshire: Prentice Hall, 1988.–P.234.
9. Ochilov E. Badiiy tarjima masalalari (O'quv qo'llanma). – T.,2014. – B.4.
10. Қамбаров Н. Таржима трансформациялари ва тил контактлари (назарий масалалар). “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методологик электрон журнали № 5 (0)/ 2015. – Б.129-132.
11. Resker I. Theory of translation and translation practice. – M.,1974.–P.26.
12. Саломов Ф. Таржима ташвишлари.–Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.–B.9.
13. Саломов Ф. Таржима ташвишлари. –Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983.–B. 28.
14. Schulte R. and Biguenet J. Theories of Translation: an Anthology of Essays From Dryden to Derrida. – Chicago and London: The University of Chicago Press, 1992.
15. Tursunova F. Badiiy matnning pragmatik tahlili. Mag. diss. Andijon, 2016. –B.8.
16. Тўхтажўжаева Н. Бадий таржимада лингвокултуремаларнинг ифодаланиши. Filol.fan...falsafa.dok.(PhD) diss...avtoref.–B.13.
17. Тешабоева З. «Бобурнома» нинг инглизча таржималаридаги фразеологик бирликлар ва уларнинг миллий-маданий хусусиятлари. Filol.fan.falsafa.dok (PhD) diss...avtoref.– Toshkent, 2017.–B.20. Хошимова Д.
18. Холмуродова М. А. Абдулла Қодирий “Ўткан кунлар” романининг инглизча таржимасида “маънавий” семали ифодалар воқеланишининг контекстуал таҳлили. - О'zbekistonda xorijiy tillar №1(36), 2021.- B.148–156. <https://doi.org/10.36078/1618989479>
19. Гафуров И. Таржимон мутахассислигига кириш. – Toshkent: Mehridaryo, 2008.–B.5.
20. Гафуров И., Мўминов О., Қамбаров Н. Таржима назарияси.–Toshkent: Tafakkur–Bo'ston, 2012.–B.16.
21. <http://samxorfil.uz/yangiliklar/o-zbek-tarjimashunosligining-ulkan-yutug->
22. <https://daryo.uz/2017/08/21/islom-karimov-nomidagi-fond-otkan-kunlar-romanini-ingliz-va-fransuz-tiliga-tarjima-qilish-ishlariga-komaklashmoqda/>
23. <http://uz.denemetr.com/docs/768/index-481564-1.html>
24. <https://hozir.org/badiiy-tarjima-tarjimaning-oliy-shakli.html?page=3>

THE ROLE OF SYMBOLISM IN THE GREAT GATSBY: A CRITICAL EXPLORATION OF AMERICAN DREAM MYTHOLOGY

*Turayeva Xurshida Toxirovna,
BukhDPI, Senior Lecturer, Department of «English Language and Literature»
<https://orcid.org/0000-0001-6901-4222>*

Abstract. This article discusses the description of social life in the XX century in America through the well known novel Great Gatsby written by American writer Fitzgerald. Through the powerful use of symbolism, The Great Gatsby critiques the American Dream and exposes its flawed and unattainable nature. The symbols—like the green light, the eyes of Dr. T.J. Eckleburg, and Gatsby’s mansion—demonstrate the disconnect between the Dream’s promises and the harsh realities of life in a materialistic, class-divided society. Ultimately, Fitzgerald uses symbolism to show that the American Dream, as it is commonly imagined, is a myth—an illusion that is as destructive as it is alluring.

Key words: novel, culture, consumerism, Jazz age, success, American dream

BUYUK GETSBIDA RAMZNING IFODALANISHI: AMERIKA ORZU MIFOLOGIYASINI TANQIDIY TADQOTI

*Turayeva Xurshida Toxirovna,
BuxDPI, “Ingliz tili va adabiyoti” kafedراسi katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada XX asrdagi Amerika ijtimoiy hayoti amerikalik yozuvchi Fitzgerald tomonidan yozilgan “Buyuk Getsbi” romani orqali tasvirlanishi haqida so‘z yuritiladi. Roman kuchli ramzlardan foydalanib, Amerika orzusini tanqid qiladi va uning noto‘g‘ri va erishib bo‘lmaz tabiatini ochib beradi. Yashil chiroq, doktor T. J. Eklbergning ko‘zlari va Getsbi qasri kabi ramzlar Amerika orzusining va‘dalari bilan real hayotning materialistik va tabaqalashtirilgan jamiyati o‘rtasidagi nomutanosiblikni namoyish qiladi. Xulosa qilib aytganda, Fitzgerald Amerika orzusi ko‘pincha tasavvur qilinganidek jozibador, ammo halokatli bir xom-xayol ekanligini ko‘rsatish uchun ramzlardan foydalanadi.

Kalit so‘zlar: roman, madaniyat, Jaz davri, muvaffaqiyat, Amerika orzusi

СИМВОЛИЗМ В «ВЕЛИКОМ ГЕТСБИ»: КРИТИЧЕСКОЕ ИССЛЕДОВАНИЕ МИФОЛОГИИ АМЕРИКАНСКОЙ МЕЧТЫ

*Тураева Хуришда Тохировна,
БГПИ, старший преподаватель кафедры «Английский язык и литература»*

АННОТАЦИЯ. В данной статье рассматривается описание общественной жизни Америки XX века на основе известного романа американского писателя Фицджеральда «Великий Гэтсби». Благодаря мощному использованию символизма «Великий Гэтсби» критикует американскую мечту и обнажает ее ошибочную и недостижимую природу. Символы, такие как зеленый свет, глаза доктора Т.Дж. Эклебург и особняк Гэтсби — демонстрируют несоответствие между обещаниями Мечты и суровой реальностью жизни в материалистическом, разделенном на классы обществе. В конечном счете, Фицджеральд использует символизм, чтобы показать, что американская мечта, как ее обычно представляют, — это миф, иллюзия, столь же разрушительна, сколь и заманчива.

Ключевые слова: роман, культура, потребность, Джазовая эра, Американская мечта, успех

Introduction. Set against the opulent backdrop of Long Island in 1922, *The Great Gatsby* offers a rich portrayal of the Jazz Age, a decade marked by economic prosperity, cultural rebellion, and profound social changes. The novel, penned by F. Scott Fitzgerald, provides a critical examination of the era, often dubbed the Roaring Twenties, which witnessed the intersection of new consumerism, the flapper culture, and the rise of illicit enterprises during Prohibition. Through the lives of its central characters—Jay Gatsby, Daisy Buchanan, and Nick Carraway—Fitzgerald captures the conflicting desires for wealth, status, and the elusive American Dream.

Despite the decade's outward appearance of exuberance and social freedom, Fitzgerald's narrative reveals the moral decay underlying the glitz and glamour of the Jazz Age. Central to the novel's critique is the figure of Gatsby, whose self-made fortune through bootlegging reflects the corrupt means by which many sought success during a time when the law was easily circumvented. Furthermore, the novel's exploration of societal roles—particularly through the characters of Daisy and Myrtle—illuminates the shifting dynamics of gender and class, as women navigated their increasing independence in a rapidly changing world.

Literary analysis and methodology. This article will argue that *The Great Gatsby* serves as a profound critique of the American Dream, using the context of the 1920s as a lens through which the hollowness of the pursuit of wealth and social mobility is laid bare. By analyzing the novel's symbols, characters, and socio-historical context, we will explore how Fitzgerald dissects the myth of success and the moral compromises it entails, revealing the tragic consequences of chasing an idealized future that, ultimately, recedes beyond reach.

F. Scott Fitzgerald's *The Great Gatsby* is often regarded as one of the defining works of the Jazz Age, capturing the energy and contradictions of 1920s America. Scholars have widely explored the novel's reflection of the Roaring Twenties, a decade marked by cultural innovation, economic prosperity, and societal upheaval. The historical context of the novel, particularly the aftermath of World War I, the rise of jazz music, and the cultural shifts that accompanied Prohibition, is critical to understanding its deeper meanings.

Many scholars have argued that the novel mirrors the rapidly changing social landscape of the time. According to literary critic Marius Bewley, Fitzgerald's work embodies the conflict between the romanticized ideal of the American Dream and the materialistic reality that dominated the post-war era (Bewley, 1952). The flapper culture, characterized by women's newfound independence and defiance of traditional gender roles, plays a crucial role in *The Great Gatsby*, with Daisy Buchanan and Myrtle Wilson acting as embodiments of the era's shifting views on femininity and sexuality. Similarly, the emergence of speakeasies and the widespread proliferation of jazz music signify an era of rebellion against conservative norms and the rise of a new, hedonistic form of life. Yet, beneath the exuberant exterior, scholars like David Trask argue that Fitzgerald uses these cultural shifts to expose the darker side of American society, where wealth and status become goals at any cost.

Discussion. Scholars have long focused on the economic boom that defined the 1920s and its impact on the characters in *The Great Gatsby*. The decade's economic prosperity is evident in the extravagant lifestyles of the novel's wealthy characters, most notably Gatsby himself, whose mansion and lavish parties symbolize the ostentation that was a hallmark of the time. However, Fitzgerald presents this wealth as fundamentally hollow, a veneer that masks deeper moral corruption. Critics like Henry Dan Piper emphasize that the novel critiques the pursuit of wealth as a means of transcending social realities. While Gatsby's fortune is amassed through bootlegging—a metaphor for the moral compromises that accompany the pursuit of wealth—Fitzgerald uses this as a commentary on the corrupting influence of money during a time when material success was often prioritized over ethical considerations.

The economic boom of the 1920s, fueled by industrialization, consumerism, and the rise of speculative stock markets, is reflected in the novel's portrayal of characters who see money

as a means to self-actualization. However, scholars argue that Fitzgerald critiques the notion that wealth can provide escape from the flaws of society or personal failings. The tragic death of Gatsby underscores this point, as he is ultimately destroyed by his inability to reconcile his idealized vision of the future with the corrupt present. As noted by cultural historian J. Michael Lennon, Gatsby's tragic end is symbolic of the greater disillusionment that followed the economic prosperity of the time—where individuals realized that material success could not guarantee personal happiness or moral fulfillment (Lennon, 1994).

The most prominent theme explored in scholarly discourse on *The Great Gatsby* is its critique of the American Dream. Numerous scholars have examined how Fitzgerald presents the American Dream as a myth, one that is inextricably linked to materialism, superficiality, and moral decay. Critics such as Henry Dan Piper and Marius Bewley have pointed out that the novel exposes the inherent contradictions in the dream of upward mobility, especially as seen through Gatsby's rise from humble origins to wealth and his obsessive pursuit of Daisy Buchanan. In this light, Gatsby's success is not a celebration of the American Dream's ideals of hard work and perseverance but a commentary on the lengths to which individuals are willing to go—often through criminal means—to achieve societal recognition.

Nick Carraway, the novel's narrator, serves as a counterpoint to the other characters in his growing disillusionment with the world around him. Through Nick's eyes, readers come to understand the profound emptiness of the American Dream, as it has been reduced to a mere pursuit of material wealth and social status. Nick's final judgment of Gatsby—"Gatsby believed in the green light, the orgastic future that year by year recedes before us"—speaks to the futility of this pursuit, which is doomed to never be realized. Literary critic Arthur Mizener argues that Nick's disillusionment is central to the novel's overall critique, as it reveals the moral rot that lies beneath the pursuit of success in 1920s America (Mizener, 1951).

The American Dream, in Fitzgerald's narrative, is symbolized by the green light at the end of Daisy's dock—a beacon of hope and aspiration, yet forever out of reach. As scholars like William E. Cain suggest, this green light represents the promise of a better future, but its unattainability demonstrates how the dream itself is a mirage. By presenting the American Dream as corrupted by greed and materialism, Fitzgerald's novel becomes a cautionary tale about the dangers of idealizing wealth and social status as the ultimate markers of success.

Conclusion. This literature review illustrates how *The Great Gatsby* is deeply embedded in the historical, social, and economic context of the 1920s. Through an exploration of themes like economic prosperity, moral decay, and the critique of the American Dream, scholars have examined how Fitzgerald uses the novel to expose the contradictions and disillusionments of a rapidly changing society. The interplay of cultural shifts, criminal enterprises, and the pursuit of unattainable ideals forms the foundation for Fitzgerald's scathing critique of 1920s America. By analyzing the ways in which these themes manifest in the lives of characters such as Gatsby, Daisy, and Nick, we gain a deeper understanding of how *The Great Gatsby* reflects the moral and cultural complexities of its time.

REFERENCES:

1. Fitzgerald 1945, p. 16, «Echoes of the Jazz Age».
2. Turaeva, K., and A. Zarinabonu. «Interpretation Of Woman Image in Modern Uzbek Literature (Based on Utkir Khashimov's Book "Between Two Doors")» Eurasian Research Bulletin 4 (2022): 42-44.
3. Turayeva, X. T., and M. A. Kholmurodova. «Advantages and Disadvantages of Digital Technologies in Language Teaching.» Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching 5 (2022): 16-18.
4. Тураева, Хуршида. «Уткир Хошимовнинг» Дунёнинг ишлари» асаридаги касаллик турлари ва уларнинг лисоний таснифи.» ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИИ (buxdu. uz) 4.4 (2021).
5. Turayeva X.T. MEANINGS OF THE WORK «THE KITE RUNNER» BY KHALED HOSSEINI // Экономика и социум. 2018. №11 (54). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/meanings-of-the-work-the-kite-runner-by-khaled-hosseini> (дата обращения: 10.10.2024).

XORIJIY TILLARNI O'RGATISHDA MAQOLLARNING O'RNI

Xamdamova Gulshan Xamroyevna

Buxoro davlar pedagogika instituti Ingliz tili va adabiyoti kafedrasida dotsenti, PhD

Annotatsiya: Ushbu maqolada maqollarning xorijiy tillarni oqitishdagi ahamiyati, ularning so'z boyligini oshirish, idiomatik iboralar va madaniyatlararo muloqotga qo'shgan hissasiga e'tibor qaratiladi. Maqollar nafaqat muhim til birliklari, balki jamiyatning madaniy donoligini ham aks ettiradi, bu ularni o'quvchilarning kognitiv va lingvistik qobiliyatlarini rivojlantirish uchun qimmatli vositaga aylantiradi. Maqollarni til o'qitishga integratsiyalashgan holda, o'qituvchilar til bilan chuqurroq shug'ullanishga, ravonlikni oshirishga va maqsadli madaniyatning dunyoqarashi haqida tushuncha berishi mumkin. Ushbu maqolada maqollar o'quv jarayonini boyitishning turli usullari, masalan, so'z boyligini oshirish, madaniyatni o'rganish va nutq ravonligini rivojlantirish orqali muhokama qilinadi. Bundan tashqari, maqolada maqollarni o'quv dasturiga kiritish bo'yicha amaliy yondashuvlar, jumladan, kontekstualashtirish, madaniy taqqoslash va interfaol tadbirlar taklif etiladi. Natijada, maqollar til va madaniyat o'rtasida ko'priklarni xizmat qiladi, o'quvchilarga tilning nozik tomonlarini tushunishga yordam beradi va ularning umumiy til bilimlarini oshiradi. Maqolada maqollarning til o'rgatishda ajralmas manba sifatidagi ahamiyati ko'rsatilib, ularning til va kognitiv rivojlanishdagi o'rnini ta'kidlangan.

Kalit so'zlar: maqollar, til bilish, til o'rganish, idiomatik iboralar, madaniy tushuncha, so'z boyligini oshirish, tilning ravonligi, til pedagogikasi.

THE ROLE OF PROVERBS IN TEACHING FOREIGN LANGUAGES

Khamdamova Gulshan Xamroyevna

Bukhara State Pedagogical Institute

Associate Professor of the Department of English Language and Literature, PhD

Abstract: This article examines the significant role of proverbs in enhancing language proficiency by focusing on their contributions to vocabulary acquisition, idiomatic expressions, and cultural understanding. Proverbs are not only essential linguistic units but also reflect the cultural wisdom of a community, which makes them a valuable tool for learners to develop both cognitive and linguistic skills. By integrating proverbs into language teaching, educators can foster deeper engagement with the language, improve fluency, and provide insights into the worldview of the target culture. This paper discusses various ways in which proverbs can enrich the learning process, such as through vocabulary expansion, cultural exploration, and fluency development. Additionally, the article proposes practical approaches for incorporating proverbs into the curriculum, including contextualization, cultural comparison, and interactive activities. Ultimately, proverbs serve as a bridge between language and culture, helping learners understand the nuances of the language while enhancing their overall language proficiency. The study highlights the importance of proverbs as an indispensable resource in language education, emphasizing their role in both linguistic and cognitive development.

Keywords: Proverbs, language proficiency, language learning, idiomatic expressions, cultural understanding, vocabulary acquisition, language fluency, language pedagogy.

РОЛЬ ПОСЛОВИЦ В ОБУЧЕНИИ ИНОСТРАННЫМ ЯЗЫКАМ

Хамдамова Гульшан Хамроевна

Бухарский государственный педагогический институт

Доцент кафедры английского языка и литературы, кандидат филологических наук

Аннотация: В этой статье рассматривается важная роль пословиц в повышении уровня владения языком, путем акцентирования внимания на их вкладе в приобретение словарного запаса, идиоматические выражения и культурное понимание. Пословицы являются не только важными языковыми единицами, но и отражают культурную мудрость сообщества, что делает их ценным инструментом для учащихся, позволяющим развивать как когнитивные, так и языковые навыки. Интегрируя пословицы в преподавание языка, педагоги могут способствовать более глубокому взаимодействию с языком, улучшить беглость речи и предоставлять информацию о мировоззрении целевой культуры. В этой статье рассматриваются различные способы, с помощью которых пословицы могут обогатить процесс обучения, например, посредством расширения словарного запаса, культурного исследования и развития беглости речи. Кроме того, в статье предлагаются практические подходы к включению пословиц в учебную программу, включая контекстуализацию, культурное сравнение и интерактивные мероприятия. В конечном счете, пословицы служат мостом между языком и культурой, помогая учащимся понимать нюансы языка, одновременно повышая их общее владение языком. Исследование подчеркивает важность пословиц как незаменимого ресурса в языковом образовании, подчеркивая их роль как в языковом, так и в когнитивном развитии.

Ключевые слова: пословицы, владение языком, изучение языка, идиоматические выражения, культурное понимание, приобретение словарного запаса, беглость языка, языковая педагогика.

ANNOTATION. This article analyzes some words and terms related to Persian and Arabic languages, such as natural science, geography, ethnography, from a linguistic point of view.

Kalit so‘zlar: geografiya, etnografiya, voqea, tabiat, adabiy, sinonim, namuna, badiiy, mukammal, ma‘lumot, forscha, arabcha, qissa, manba.

Ключевые слова: география, этнография, событие, природа, синоним, пример, искусство, литература, подробнее, информация, персидский, арабский, эссе, источник.

Keywords: geography, ethnography, event, nature, synonym, example, art, literature, more, information, Persian, Arabic, essay, source.

Zahiriddin Muhammad Bobur XV asrning ikkinchi yarmi va XVI asrning boshlarida yashab ijod etgan o‘zbek mumtoz adabiyotining atoqli namoyandalaridan hamda ulug‘ mutafakrlaridan biri bo‘lib, u o‘z davrining shoh hamda buyuk shoiri hamdir.

“Boburdan qolgan ijodiy merosning eng muhim va eng yirigi O‘rta Osiyo, Xuroson, Afg‘oniston, Hindiston va Eron xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasiga oid nodir va qimmatli ma‘lumotlarni o‘z ichiga qamrab olgan va o‘sha davr o‘zbek mumtoz adabiyoti va adabiy tilining yorqin namunalaridan biri bo‘lgan “Boburnoma” nomli qomusiy asaridir”[1;3].

Yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, Boburning mazkur asarida asosan, Mavorounnahr, Afg‘oniston, Xuroson va Hindistonning joylashish o‘rniga oid ma‘lumotlar bilan bir qatorda, o‘sha mamlakatlarning xalqlari tarixi, geografiyasi, etnografiyasi, shuningdek, ularning tabiati, hayvonot olami haqida ilmiy, shuningdek, qimmatli va asosli ma‘lumotlar berilgan. Shu sababli ham biz Boburning “Boburnoma” asari mazmuni va kompozitsiyasiga qarab, uning turli xil soha bo‘yicha bir dunyo ilmiy malumotlarni o‘z ichiga tizimli ravishda qamrab olganligi hamda rang-barang til uslubining bag‘oyat go‘zalligi, jozibadorligi bois XVI asrda o‘zbek adabiy tilida yaratilgan ilk nasriy asarlarning ilg‘or namunalaridan biri, shuningdek, eng buyuk qomusiy asar deb aytishimiz mumkin, chuki bu asar shu bahoga loyiq hamdir.

Jumladan, Zahiriddin Muhammad Bobur o‘zining mazkur asarida o‘z umri davomida taqdir taqozosi bilan qayerga borgan bo‘lsa, yuqorida zikr etib o‘tganimizdek, o‘sha joyning birinchi navbatda xalqlari etnik qatlami, geografik jihatdan joylashish o‘rni bilan bir qatorda tabiati va hayvonot olami, shuningdek, tiliga alohida e’tibor qaratadi va ular xususida sinchkovlik bilan aniq dalillarga asoslangan ilmiy ma‘lumotlar beradi.

Shu sababli ham buyuk mutafakkir bo‘lmish Boburning “Boburnoma” asari XVIII-XIX asrdayoq Yevropaning taniqli sharqshunos, shuningdek, tilshunos olimlari e’tiborini o‘ziga tortdi va ular tomonidan asarning qo‘lyozma nusxalari jamlanib, ko‘pgina g‘arb tillariga tarjima qilinadi, natijada ushbu qomusiy asar o‘z qadr-qimmatini bilan butun dunyo xalqlariga taniladi.

Mazkur asar tiliga e’tibor qaratar ekanmiz, muallif o‘zi bosib olgan mamlakatlarning

viloyat, shahar va tumanlarini tasvirlashda ko‘pgina forscha va arabcha so‘zlardan unumli istifoda etaganligini ko‘ramiz. Shuningdek, Bobur mazkur so‘zlarni ustalik bilan o‘z o‘rnida qo‘llaganki, ular esa asar tilining sodda, chiroyli va mukammal hamda o‘sha davr xalq tiliga yaqin bo‘lishini ta‘minlagan. Shuning uchun ham uning mazkur asari tili sinonimik jihatdan rang-barang, so‘zga boy hamda juda jozibadorligi bilan alohida ahamiyat kasb etadi.

Xususan, Bobur yashgan davirda ham fors tilining mavqei turkiy tilga nisbatan ancha yuqori bo‘lgan, shu sababli ham tukriy tilga fors tili zezilarli darajada o‘z ta‘sirini o‘kazganligi haqiqatdan holi emas. Buni biz o‘sha davr turkiy tilidagi forscha o‘zlashma so‘zlarning miqdoriga qarab ham aniqlab olishimiz mumkin.

Shunday ekan, asosan tarixiy jarayon (IX-XI asr Somoniylar davri) sababli turkiy tilga ko‘plab forscha ot, sifat, son va fe‘l so‘z turkumlariga oid so‘zlar tizimli ravishda o‘zlashganki, ular hisobiga esa turkiy adabiy tilning lug‘at tarkibi benihoya boyigan, sinonimik hamda ifoda imkoniyatlari esa misli korilmagan darajada kengaygan. Shu sababli ham shoir zamon talabidan kelib chiqib, mazkur asari tilida o‘sha davir xalq tilida qo‘llaniladigan ko‘plab forscha so‘zlarni o‘rinli qo‘llaganki, natijada mukammal va til jihatidan beqiyos hamda tengi yo‘q qomusiy asar dunyo yuzini ko‘rgan.

Shuningdek, Bobur o‘z asarlari tilida o‘sha davr xalq tilida muomalada bo‘lgan ko‘pgina arabcha so‘zlar qatori forscha so‘zlarni ham qo‘llab, o‘z asarlari tilini xalq tili bilan mushtarakligini, shu bilan birqatorda, rang-barangligini ta‘minlagan va shu tariqa mazkur so‘zlarni o‘zbek adabiy tili leksikoniga olib kirib, tilimizning nazmiy jihatdan musiqiylikni hamda nazmiy asarlar yaratish uchun qulay bo‘lishligini ta‘minlashda o‘zining katta hissasini qo‘shgan.

Shu sababli ham biz, ushbu maqolamizni Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asari tilida muallif tomonidan qo‘llanilgan forscha sifatlarning asar tilida ifodalagan leksik-semantik va gramatik manolarini tilshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilishga bag‘ishladik.

O‘zbek adabiy tili va fors tili sifat so‘z turkumiga oid so‘zlar ma‘no va tuzilishiga ko‘ra bir biriga monand bo‘lib, ma‘lum darajada mushtarak ham hisoblanadi [2;247]. Ko‘pgina forscha sifatlari o‘zbek adabiy tiliga o‘zlashib, xuddi o‘zbek tili so‘zlari kabi tilimizda hozirgi kunda ham o‘z leksik ma‘nosida faol qo‘llanib kelinmoqda.

Darhaqiqat, boshqa mutafakkirlar singari Zahiriddin Muhammad Bobur ham o‘zining qomusiy asari bo‘lmish “Boburnoma”ni yozar ekan, uning tilini ta‘sirchan, sodda, chiroyli va rang-barang bo‘lishini ta‘minlash maqsadida forscha asliy sifatlardan tashqari nisbiy sifatlardan ham o‘z o‘rnida unumli foydalangan.

Shuningdek, “Boburnoma” tilida arab tilidan fors tiliga o‘zlashgan - i (iy) qo‘shimchasi vositasida yasalgan nisbiy sifatlari ko‘pchilikni tashkil etadi [3;136]. Chunki asarda Bobur ko‘plab tarixiy shaxslarga baho berishda uning tug‘ilgan joyi nomiga - lik o‘zbekcha nisbiy sifat yasovchi qo‘shimcha qo‘shish bilan bir qatorda -iy forscha (arabcha) nisbiy sifat yasovchi qo‘shimchadan ham unumli istifoda etgan.

Masalan: “ Yana bir jins o‘rik bo‘lurkim, donasini olib ichiga mag‘z solib kuruturlar, “subhoni” derlar, bisyor lazizdur” [1;36]. “Jangarilik rasmi Movarounnahrda shudur, Samarqand va Buxorada nomdor jangarilar aksar marg‘inoniydur” [1;38].

Asardan keltirilgan iqtiboslarning birinchisida forscha “subhoni” so‘zi qo‘llanilgan bo‘lib, bu so‘z so‘z turkumi jihatidan sifattir. Ushbu so‘z tarkibidagi “Subh” so‘zi asli arabcha bo‘lib, leksik jihatdan “tong, ertalab” kabi ma‘nolarni ifodalaydi. “Subh” so‘ziga -iy arabcha so‘z yasovchi qo‘shimcha qo‘shilishi natijasida yasalgan “Subhoni” so‘zi esa “ertalabki, tongi” kabi ma‘nolarni ifodalavchi yasama sifat hisoblanadi. Shunday ekan, “subhoni” so‘zi ushbu gapda ko‘chma va‘noda kelib, o‘rikning bir turi nomini ifodalab kelmoqda. Hozirgi kunda ham ushbu meva “subhoni o‘rik” deb ataladi. O‘z-o‘zidan ko‘rinib turibdiki, subhoni so‘ziga, qanaqa? so‘rog‘ini berishimiz mumkin.

Navbatdagi gapda “marg‘inoniy” so‘zi qo‘llanilgan. Mazkur so‘z asosan shaxslarning kelib chiqish joyiga nisbatan ishlatilgan. Ushbu so‘zning mazkur ma‘noda qo‘llanilganligini gapning mazmunidan ham anglab olishimiz mumkin.

Mazmuni: “Jangarilik rasmi bularga Movarounnahrda urfdir, Samarqand va Buxoradagi nomi chiqqan jangarilarning aksariyati marg‘ilonliklardir” [1;38].

Bundan tashqari fors tilida “pur” so‘zi mavjud bo‘lib [2:175], bu so‘z tilimizdagi “ko‘p” so‘zi ifodalaydigan leksik ma‘nosiga mos keladi. Lekin mazkur so‘zni forslar ko‘pincha ot so‘z turkumiga qo‘shib, qo‘llaydilar. Otga qo‘shib qo‘llanganda mazkur so‘z o‘z leksik ma‘nosini butunlay yo‘qotib, o‘zbek tilidagi -li nisbiy sifat yasovchi qo‘shimcha ma‘nosini ifodalaydi. Hozirgi o‘zbek adabiy tilida “pur” qo‘shimchali ayrim forscha o‘zlashma so‘zlar mavjud. Masalan: “purma`no – ma`noli” kabi. Shunday ekan, Bobur bunday forscha so‘zlardan “Boburnoma” asari tilida ozbek tilidagi xuddi shunday ma‘noni ifodalovchi (nisbiy sifatlarga) so‘zlarga sinonim sifatida ko‘plab qo‘llagan.

Masalan: “Tog‘ tarafidin bir ulug‘ shaxjuv oqar. Ushbu masjidning tashqari sahni nishebroq, serbargalik, pursoya, safolik, maydon voqe bo‘libtur”. “Yaxshi qasaba voqe bo‘libtur, purne`mat; anori va urug‘i asru ko‘p, xo‘b bo‘lur” [1;164]. “Necha yilkim, Astrobod hukumati Badiuzzamon mirzoda edi, havoli va havohisi va yigit-yalangi bisyor purzavq va muharram oyining o‘ni edikim, mundoq xushzavq va purfazilat va hasab va nasab birla orasta podshohzodani shahid qildi” [1;264]. “Hindiston mamoliki purmardum va purhosil viloyat voqe bulubtur”. “Murabbosi yomon emas xeyli purfoyda mevadur” [1;129].

Yuqorida asardan iqtibos sifatida keltirganimizdek, forscha “pur” qo‘shimchali so‘zlar mazkur asar tilida 50 dan ortiq o‘rinlarda turli xil ot so‘z turkumiga oid so‘zlar (otlar) ga qo‘shilgan holda qo‘llanilgan. Biz ulardan ayrimlarinigina namuna sifatida keltirdik. Misol tariqasida keltirilgan gaplarning birinchisida “serbargalik, pursoya, safolik, maydon voqe bo‘libtur” kabi jumlar qo‘llanilgan. Ushbu jumlar hozirgi o‘zbek adabiy tiliga “qalin bargli, sersoya, toza havoli maydon joylashgan” kabi mazmunda tabdil qilinishi mumkin. Mazkur jumladagi “pursoya” so‘zi “yuqorida ta’kidlab o‘tganimizdek, soyali yoki sersoya” kabi ma‘nolarni ifodalaydi. Asli “soya” so‘zi ham forscha bo‘lib, hozirgi kunda ushbu so‘z har ikkala tilda ham bir leksik ma‘noda qo‘llanib kelinmoqda.

Ikkinchi gapda “purne`mat” forscha nisbiy sifati qo‘llanilgan. Bu so‘z tarkibidagi “ne`mat” so‘zi asli arabcha bo‘lib, o‘zbek tiliga “foydali”, “sovg‘a” kabi so‘zlar ma‘nosida tarjima qilinadi. Shunday ekan, biz bu gapdagi “Ne`mat” so‘ziga “pur” so‘zi qo‘shimcha sifatida qo‘shilib yasalgan “purne`mat” shaklidagi so‘zni o‘zbek tilidagi “foydali” so‘ziga sinonim yoki ekvivalent tarzida qo‘llanilganligini ko‘ramiz. Ushbu gapning mazmunidan biz “purne`mat” forscha so‘zining gapda morfologik nuqtayi nazaridan nisbiy sifat, sentaktik jihatidan esa aniqlovchi bo‘lib, bir necha xil mevalarning sifatini aniqlab kelayotganligini koramiz.

Uchinchi gapda esa forscha “purzavq va purzeb” so‘zlari qo‘llanilgan. Mazkur so‘zlarni asar muallifi o‘z asari tilida hozirgi o‘zbek adabiy tilida ifodalaydigan leksik ma‘nosida qo‘llaganki, forscha “purzavq” (nisbiy sifati) so‘zidan ‘zavqli” “purzeb” so‘zidan esa “zebli, chiroyli” kabi ma‘nonlarni ifodalashda o‘rinli foydalangan. “Zavq” so‘zi asli arabcha bo‘lib, o‘zbek tiliga “qiziq” so‘zi ifodalaydigan ma‘noda tarjima qilinadi. Asardan iqtibos sifatida keltirilgan ushbu gapdagi “zavq” so‘zini muallif o‘z ma‘nosida emas, balki ko‘chma ma‘noda qo‘llagan. Yana ushbu gapda qo‘llanilgan “zeb” so‘zi asl forscha bo‘lib, “zebo-chiroyli” so‘zining “o” tovushi tushirib qoldirilgan shaklidir. Keyingi gapda forscha nisbiy sifatlardan “purfazilat” so‘zi qo‘llanilgan. Bu so‘z tarkibidagi “fazil” so‘zi asli arabcha bo‘lib, uni o‘zbek tiliga “bilim” so‘zi ma‘nosida tarjima qilish mumkin. “Fazil” so‘zidan yasalgan “fazilat” so‘zi esa otlardan ko‘plik soni hosil qiluvchi arabcha “ot” qo‘shimchaning qo‘shilgan shaklidir. “Fazilat” so‘zi to‘liqligicha leksik jihatdan “bilimlar” kabi ma‘noni ifodalaydi, lekin ushbu so‘z asar tilida muallif tomonidan hozirgi o‘zbek adabiy tilidagi “fazilat”li so‘zi ma‘nosini ifodalash uchun qo‘llanilgan.

Asardan keltirilgan navbatdagi gap Hindiston mamlakati xususida bo‘lib, unda “purmardum” va “purhosil” kabi forscha nisbiy sifatlar qo‘llanilgan. “Purmardum” so‘zi tarkibidagi “mardum” leksemasi asli forscha ot so‘z turkumiga mansub so‘z bo‘lib, u fors tilida xalq, omma, kishilar, odamlar kabi m’nolarni ifodalaydi. “Purhosil” so‘zi tarkibidagi “hosil” so‘zi esa asli arabcha bo‘lib, “paydo qilingan narsa” kabi ma’noni ifodalaydi. Mazkur ikkala so‘zga forscha “pur” so‘z qo‘shimchasining qo‘shilishi natijasida undan nisbiy sifat yasalgan [4;280]. Yuqorida asardan iqtibos sifatida keltirilgan “pur” so‘zi vositasida yasalgan yasama sifatlar ular oldidan “ko‘p” so‘zini keltirish orqali o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. Natijada “purmardum” so‘zi “kop xalqli”, “purhosil” so‘zi esa “ko‘p hosilli” kabi tuzilishiga ko‘ra murakkab sifatlar ifodalaydigan leksik ma’noda o‘zbek tiliga tarjima qilinadi. Mazkur so‘zlar qo‘llangan ushbu gapning mazmunini quyidagicha tushinish mumkin: “Hindiston mamlakati poyonsiz bo‘lib, u ko‘p xalqli va serhosil hududlarda joylashgan”.

Keyingi iqtibos Hindiston mevalari murabbosining xususiyatlari haqida bo‘lib, ushbu gapda forscha “pur” so‘zi vositasida yasalgan nisbiy sifatlardan “purfoyda” so‘zi qo‘llanilgan. “Foyda”so‘zi asl forscha bo‘lib, u hozirgi kunda ham o‘zbek tilida fors tilidagi ma’nosida qo‘llanilgan kelinmoqda. Shunday ekan, “purfoyda” forscha yasama sifati o‘zbek tilida “foydali” kabi ma’noni anglatadi va xuddi shunday ma’noni ifodalashda undan foydalaniladi.

Asar tilida shunga o‘xshash ko‘plab forscha nisbiy sifatlar qo‘llanilganki, bu esa Boburning o‘zlashma so‘zlarni qo‘llash mahoratini namoyon etadi. U o‘z asari tilida forscha sifatlarni o‘z o‘rnida va kerakli joylarda o‘rinli qo‘llab, ular hisobiga asar tilining chiroyli, sodda, rang-barang va xalq tiliga yaqin bo‘lishini ta’minlagan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lasak, Bobur o‘zining barcha asarlari tilida forscha va arabcha so‘zlarni qo‘llash bilan birqatorda, mazkur so‘zlarni o‘zbek adabiy tili leksikoniga olib kirib, o‘zbek adabiy tilining boyishi uchun o‘z hissasini qo‘shdi. Shu sababli ham Boburning “Bobur noma” asari tilida tyrkiy adabiy til butun jozibasi va ifoda imkoniyati bilan namoyon bo‘lgan. Bu esa albatta, Boburning qomusiy olim ekanligidan dakolat beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati:

1. Нашрга тайёрловчи Порсо Шамсиев. “Бобурнома”, Тошкент, “Юлдузча”, 1989., -Б., 3, 36, 38, 164, 264, 129.
2. Abdusamatov M. Fors tili. Toshkent, “Sharq”, 2007., -Б.,247, 175.
3. Халилов Л. Форс тили. Тошкент., Уқитувчи, 1992., -Б.,136.
4. Турсунов У., Муҳторов Ж., Раҳматуллаев Ш. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Тошкент. “Ўзбекистон”. 1992. –Б., 280.

JADIDLAR NASRIY ASARLARIDA MILLIY LIBOSLAR BILAN ETNOGRAFIKALAR

Khabibullayeva Gavhar Nosirjon qizi
Namangan davlat universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya: Libos insoniyat tarixining dastlabki davrlaridayoq paydo bo'lgan. Taxminan 40-45 ming yillar ilgari paleolit davrida odam tabiiy ashyolardan libos tayyorlagan. O'zbek xalq libosining badiiy qiyofasini mato, to'qima va kashta, zar va zargarlik san'ati buyumlari, shuningdek, turli applikasiyalar va marjon tugmalar, nozik burama va boshqalar tashkil etadi. O'zbek xalq libosining tashqi bezagi tizim sifatida tasavvur etiladigan etiladigan bo'lsa, uning badiiy tuzilishida mato shakli, uning rang-gul tuzilishlari, bezak berilishi singari uchta muhim tarkibiy qismlarni ko'rsatish mumkin.

Tayanch so'z va iboralar: etnografizm, milliy libos, chopon, to'n, yaxtak, ro'mol, salla, kamzul, choriq.

Аннотация: Одежда появилась на самых ранних этапах истории человечества. Примерно 40–45 тысяч лет назад, в эпоху палеолита, люди изготавливали одежду из натуральных материалов. Художественный облик узбекского народного костюма составляют ткани, ткачество и вышивка, ювелирные изделия и бижутерия, а также различные аппликации и подвески, ажурная вышивка и т. д. Если представить себе внешнее убранство узбекского народного костюма как систему, то в его художественной структуре можно выделить три важных компонента: форму ткани, ее цвет и растительный орнамент, а также применение декора.

Ключевые слова: этнография, национальная одежда, халат, туника, яктак, платок, тюрбан, куртка, сандалии.

Annotation: Clothing appeared in the early periods of human history. Approximately 40-45 thousand years ago, in the Paleolithic era, people made clothes from natural materials. The artistic appearance of the Uzbek folk costume is made up of fabric, weaving and embroidery, jewelry and jewelry, as well as various applications and pendants, delicate embroidery, etc. If the external decoration of the Uzbek folk costume is imagined as a system, then its artistic structure can be divided into three important components: the shape of the fabric, its color and floral structures, and the use of decoration.

Key words: ethnography, national dress, robe, tunic, yakhtak, scarf, turban, jacket, sandals.

KIRISH . Biz kavkazlikni papax va kamzulsiz, ukrainni gulli ko'ylaksiz, tojikni gilam do'ppisi, belbog'ida osilgan pichoqsiz tasavvur qila olmaganimizdek, o'zbekni qalampir nusxa yoki ola do'ppi va choponsiz ko'z o'ngimizga keltira olmaymiz.

O'zbek xalqining milliy ramzi sifatida saqlanib kelayotgan ustki kiyim—chopon (to'n) shu kungacha katta hurmatda. Chopon ochiq yoqali yaxtak shaklida astarli va paxtali qilib tikilgan. Chopon uzun yengli, yuqori qismi keng, pastki tomoni torayib ketgan, ayrimla rining etagi, o'ng va so'l tomonida qiyiq joyi bo'lgan, yerda o'tirishga qulay. Odatda choponning belbog'i bo'lib, unga erkaklar pichoq (qini bilan) osib yurganlar.

30- yillargacha feodal-patriarxal tuzum ramzi sifatida o‘zbeklarda, ayniqsa shahar aholisi orasida ayollar paranji yopinganlar. Paranji soxta yengli, to‘nsimon, uzun yoping‘ichdan iborat bo‘lib, otning dum qilidan to‘qilgan to‘r parda chachvon betga tutilib, ‘ustiga paranji yopilgan. Chachvon yuzni bekitib, belgacha yetgan. Uni odatda uydan ko‘chaga chiqqanda yopinganlar.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Kundalik kiyishga mo‘ljallangan libosning muayyan turlarida mato rangi va gullari uning bezagi mohiyatini tashisa, boshqa marosimlar bilan bog‘lik liboslarda rang va bezak ramzi yetakchi bo‘lib qoladi. Matoning rang va gullari hamda bezak berilishida rang, chiziq, yo‘lak, bezak ramziy belgi eng sodda unsurlar (yoki dastlabki arxitiplar) sifatidagi ko‘rinishida namoyon bo‘lishi mumkin. Har bir xudud, xalq va qabila libosining umumiy xususiyatlari bilan birga, ular mato, rang, bichim shakli, yeng uzunligi, eni kabilar bilan farqlanadi. Ayniqsa, bu o‘ziga xos xususiyatlar do‘ppining tuzilishi va shaklida aniq ko‘rinib turadi, u har bir hudud (masalan, viloyat) uchun betakror ko‘rinishga ega bo‘ladi. Ayollar va qizlar ro‘molidan ularning yoshiga, oilaviy ahvoliga qarab sodda, ulug‘vor va kamtarona, bezaksiz hamda bezakdor singari ko‘rinishdagi ajoyib shakllar hosil qilingan. Ip, shoyi, yarim shoyi va jundan to‘qilgan matolar o‘zbek liboslarining asosiy materiali hisoblangan. Liboslar uchun xonatlas, baxmal, beqasam, banoras, adras, okruya, katakshoyi, tovlanashoyi singari matolardan keng foydalanilgan. O‘zbelarning an’anaviy libosi, asosan ko‘ylak, ishton va chopondan iborat bo‘lgan.

Navoiyning “Muhokamat ul lug‘atayn” asarida milliy kiyimlardan “Va ma’hudiy albisadin misli: dastor va qalpoq va navro‘ziy va to‘ppi va shirdog‘ va dakla va yalak va yog‘lig‘ va terlik va qur yo‘sunlug” kabi atamalar ham turkcha ekanligi ta’kidlab o‘tiladi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

I. Bosh kiyim bilan bog'liq liboslar	Do'ppi		Erkaklarning gullik do'ppisiga tegmay, yalang ayollar bilan, ularning sochlari, gajaklari va ro'mol popuklari bilan hazillashib o'ynagan salqin shabada... ko'klam nash'asi bilan sho'xlik qiladi [6,6].
	Ro'mol	Bu ot yuz ma'nosini anglatadigan ro' oti bilan (TjRS, 331) 'bisotdagi narsalar' ma'nosini anglatadigan arabcha mol otidan (ARS,774) tuzilgan bo'lib, TjRSda asosiy shakli deb ro'yamol ta'kidlangan (331). Bu ot "ayollar boshiga o'raydigan buyum" ma'nosini anglatadi (O'TIL, I, 631), [3, 204]	<i>Boshdag'i oq shohi ro'yamol, ichdagi oq shohi ko'ynak, ustdagi oq kumush zarrin sirilgan po'stin, baqbaqalarni o'rab o'pib turg'an yoqa qunduzlarining kelishkani, solinib tushkan qora jinggila sochlarning bo'yin tevaragiga chirmashqani, xom nuqra yuzlarning bo'g'riqqani...[3,54].</i>
	Salla		<i>Maxdumga kutilmagan ravishda mehribon muomala qilg'uchi bu o'rdaliq qirq yoshlar chamasida, uzun bo'yliq, qora uzun soqolliq, simobi sallasining peshini tushirg'an qoracha tuslik bir yigit edi [7,22].</i>
	chimmat	CHIMMAT Bu ot asli tojik tilida 'ko'z' ma'nosini anglatadigan chashm oti bilan (TjRS, 439) bog'ich ma'nosini anglatadigan band otidan (TjRS, 44) tuzilgan bo'lib, o'zbek tiliga juda murakkab tovush o'zgarishlari bilan olingan; chashm qismida a tovushi i tovushiga almashtirilib, sh tovushi tashlangan: chashm>chim; band qismida b tovushi m tovushiga, d tovushi m tovushiga almashtirilib, n tovushi tashlangan: band > mat. Bu ot asli "ko'zni to'sadigan parda" ma'nosini anglatadi (O'TIL,II, 369), [3, 255].	Qahhorxo'ja rastada chit savdosi bilan shug'ullanar va mol olgoni kelgan xotin-qizlarga ayniqsa shirinmuomala qilib, ularning betlariga chimmat orqali ko'z tashlashdan tinmas edi [11,226].
	Telpak		<i>Eski jo'vasidan yag'rin tashlab o'tar edim; izboshkasiga teskari o'lturub, telpakchasini chakkachasiga qo'y-macha qilub bir hezalak o'ta qoldi-ku [17("Toshpolat tajang nima deydi?"), 715]</i>
Ustki kiyimlar bilan bog'liq etnografizmlar	To'n		Akam ham shohi sallasi bilan beqasam to'nini menga berib o'zi o'rta ot o'ynatib ketdi[15, ("Uloqda"), 424]
	Yaxtak		<i>Yaxtakni eshib ko'chaga otdim, to'ppini mag'layga</i>

			<i>tushirdim. Ship etib afandingni bo'ynig'a bog'lag'an paytavasidan tut dim. [17, ("Yo'lda"), 725].</i>
	Kamzul		Qip-qizarg'an holda Kumush ko'rindi: paranjisi qo'lida, qora atlas ko'ynak egnida, zangor latta mursak ustida, oq shohi ro'ymol boshida edi [3, 313]
	Chopon		Akbarali mingboshining belida kumush kamari, yonida kumush sopli qilichi, ustida zarbof choponi bo' lmasa, hech kim uni amaldor demaydi [6,58].
	Guppi	"Qo'lni pastdan yuqoriga ko'tarish." Adolat onasi keliniga qarab guppisini qilib dedi... Bu ot asli "do'mbay" ma'nosining anglatgan ko'p - fe'li bilan -i qo'shimchasi bilan yasalgan. Qo'shimcha qo'shilganda keyingi "p" undoshi qatlangan; keyinchalik so'z boshlanishidagi k undoshi g undoshiga, o unlisi o' unlisiga almashgan; o'zbek tilida o' unlisining yumshoqlik belgisi yo'qolgan: köp- +i> köppi>göppi>go'ppi> guppi[1,87].	Tanchaning ikki biqinida ikki xotin: bulardan bittasi ichidan atlas ko'ynak, ustidan odmi xon atlas guppi kiygan, boshig'a oq dakanani xom tashlag'an, o'ttuz besh yoshlar chamaliq go'zal, xushbichim bir xotin [3,28].
	Ishton	"tananing beldan pastiga kiyiladigan ikki pochali kiyim", "lozim". ishtoni yirtiq kuylagi yirtiqqa kulibdi (Maqol). bu so'z asli qadimgi turkiy tilda ich ton birikmasining bir so'zga birlashuvi bilan yuzaga kelgan (DS, 201; ich: ich ton "нижнее бельё", "штаны"); ton so'zi qadimgi turkiy tilda "kiyim" ma'nosini anglatgan (DS, 574), shunga ko'ra ich ton "ichki kiyim"ni bildirgan; birikma bir so'zga birlashgandan keyin ch undoshi sh undoshiga, o unlisi â undohiga almashgan: ich ton> ishtân [1,129]. Bu ot O'TILda "s.t." ta'kidi bilan keltirilib, "cholvor" deb izohlangan (II, 393). TjRSda chalvor shaklida (TjRS, 436) chalvor shakliga havola qilinib; "keng shim"; "sukno, charmdan	Uzoq-uzoqda hali kun ko'tarilmaganiga qaramay, ishtonlarini lippa urib, qo'llariga ketmon ushlagan yigitlar paxta sug'orib yuriydilar...[19,21].

	Shalvor	<p>tikilgan sharvor" deb (444), shalvor shaklida keltirilib (450), "ishton"; "shim" deb izohlangan. [1,260].</p>	<p>Chegarachilar yetimni zastavaga olib kelganda, uning egnida bir cholvordan boshqa hech narsa yo'q edi [9,372].</p>
<p>Oyoq kiyimlar bilan bog'liq etnografizmlar</p>	Kavush	<p>Bu ot yasli kafsh tovush tarkibiga ega bo'lib (PRS, 402) o'zbek tiliga f tovushini v tovushiga almashtirib, vsh tovushari oralig'iga i tovushini kiritib qabul qilingan; "boshlig'i qatiq charm bilan tikilgan oyoq kiyimi ma'nosini anglatadi(O'TIL, I, 357). O'zbek so'zlashuv tilida bu ot tarkibidagi a tovushi v tovushi ta'sirida o (â) aytiladi [3,114]</p>	<p><i>Salla-jomasini o'g'irlatg'on, noskadusini yo'qotqon va kavush yitirgonlarning soni yo'q edi[2,163].</i></p>
	Mahsi		<p>Zebi ikki konvoyning yalang och qilichi o'rtasida zalga kirib keldi; ustida qora barqut paranji, qora chimmat, oyog'ida qora amirkon mahsi-kavish bilan sud qarshisiga kelib to'xtadi [6,269].</p>
	Qalapoy afzali		<p>... ichida o'zining movut shim: oyog'ida qalapoy afzali, belida Kumushbibining usta qo'li bilan tikilgan shohi qiyig'...[3,58]</p>
	Choriq	<p>"qalin xom teridan tayyorlangan, kalta qo'njli, tagi qalin, uchi yuqoriga ozroq qayrilgan oyoq kiyimi". Demak, chariq oti asli "o'rab bog'la-" ma'nosini anglatgan chari fe'lidan (bunday fe'l qirg'iz tilida ham mavjud: KRS, 851) –q qo'shimchasi bilan yasalgan; keyinchalik o'zbek tilida a unlisi â unlisiga almashgan, i unlisining qattiqlik belgisi yo'qolgan: chari- + q=chariq > châriq[1, 435].</p>	<p>Sepkil va chechak bog'i bu betni "muzoyaqakor" qilib ko'rsatkanidek oyog'idag'i choriq, ustidagi qisqa, eski alak chopon, belidagi besh-o'n aylantirib bog'lang'an bo'z belboq, boshining uchdan bir qismigagina qo'nib o'lturgan tor piltâ to'ppi bir "hush"ga yana bir yuz" hush" qo'shib arz qilar edi[7,158].</p>

	Chuqay		Bulardan biri baland bo'lyi, baquvvat gavdali, quloqlari irvaygan, qo'y ko'z, qo'ng'ir soqol, oyog'iga chuqay kiygan O'rta yashar bir kimsa edi. (Choriq o'rnida kiyilaturg'on, ot pochasidan ishlangan oyoq kiyimi)[11, 204]

Bulardan biri baland bo'lyi, baquvvat gavdali, quloqlari irvaygan, qo'y ko'z, qo'ng'ir soqol, oyog'iga chuqay kiygan O'rta yashar bir kimsa edi. (Choriq o'rnida kiyilaturg'on, ot pochasidan ishlangan oyoq kiyimi)[11, 204]

XULOSA

Milliy liboslar xalqning madaniy o'ziga xosligi, estetik qarashlari va tarixiy rivojlanishining muhim ifodasi hisoblanadi. Har bir xalqning milliy kiyimlari uning iqlim sharoiti, turmush tarzi va etnik an'analariga asoslangan holda shakllangan. Milliy liboslar turli naqshlar, bezaklar, ranglar uyg'unligi va tikuv texnikasi bilan ajralib turadi. Ular nafaqat go'zallik ramzi, balki xalqning etnografik belgilari va dunyoqarashini aks ettiruvchi boy madaniy merosning ajralmas qismidir.

Maqolada milliy kiyimlarning nafosati va bezak elementlari orqali xalqning estetik didi va ijodkorligi yoritiladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, milliy liboslar xalqning tarixiy va madaniy xotirasini saqlashga xizmat qilib, ularni o'rganish va targ'ib qilish bugungi globallashuv davrida muhim ahamiyatga ega. Ular xalqning boy o'tmishi va madaniyatini kelgusi avlodlarga yetkazishda muhim ko'prik bo'lib xizmat qiladi.

REFERENCES:

1. Хожі Муин Танланган асарлар. Тошкэнт. Маънавият. 2005.
2. Элбэк. Танланган асарлар. Тошкэнт: «Шарқ» нашриёт-матба консэрни. 1999.
3. Абдулла Қодирій. Обид кэтмон. Тошкэнт. Инфо Сапитал Гроуп. 2017
4. Abdulla Qodiriy. Mehrobdan chayon. Toshkent: «YANGI NASHR», 2019.
5. Ogli, N. K. N. (2024, September). Analysis of some words in uzbek with complex morphological composition. In Next Scientists Conferences (pp. 61-63).
6. Nosirjon o'gli, N. K. (2024). Traditional interpretation of the concept of morpheme in uzbek linguistics. American Journal of Philological Sciences, 4(10), 53-56.
7. Nosirjon O'g'li, N. K. (2024, July). Analysis of some words in uzbek language that are difficult to segment. In International Scientific and Current Research Conferences (pp. 168-169).
8. Nosirjon o'g'li, X. N. (2024). Analysis of some words which are difficult to distribute into uzbek language. International journal of artificial intelligence, 4(03), 592-594.
9. Xabibillayev, N. (2024). Keyingi davrda o'zbek tilshunosligidagi so'z tarkibi bo'yicha qilingan ilmiy tadqiqotlar tahlili. Nauka i innovatsiya, 2(22), 73-77.
10. Cho'lpon. Kecha va kunduz. Toshkent: «Ilm-ziyo-zakovat», 2019.
11. Abdulla Qodiriy. O'tkan kunlar. T: «Navro'z» -2019.
12. Абдулла Қодирій. Танланган асарлар. Тошкэнт: «Шарқ». -2014.
13. Садриддин Айний. Судхурнинг ўлими. Тошкэнт: Фафур Ғулом. 1978.
14. Навоий А. Муҳокамат ул-луғатайн (20 томлик мукамал асарлар тўплами, 16-том). -Тошкэнт, Фан, 2000, -Б.17
15. Ёлдошева С. Халқ урф-одаглари ва ананалари Тошкэнт, Ижод дунёси. 2003 -113

13.00.00 – PEDAGOGIKA FANLARI

MILLIY TARBIYANING ASL MANBALARI

Safarova R.G.

Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy instituti “Milliy tarbiya, mutafakkirlar va jadidlarning pedagogik ta’limotlari” ilmiy tadqiqot bo’limi mudiri. P.f.d., professor.

Annotatsiya: Mazkur maqolada milliy tarbiya nazariyasi va amaliyotiga munosib qo’shgan mutafakkirlar Hakim at Termiziy va Najmiddin Kubroning qarashlari pedagogik yondashuvlari, ta’limotlarining mazmun va mohiyati tahlil qilingan. Mutafakkirlarning merosi yordamida o’quvchi va talaba yoshlarda halollik, poklik, e’tiqodda sobitlik, qalb va ruh osoyishtaligi, nafsni tiyish, go’zalikka intilishi kabi sifatlarini shakllantirish imkoniyatlari ochib berilgan. Shu bilan bir qatorda Hakim at-Termiziy va Najmiddin Kubro shaxsiga xos bo’lgan ma’naviy sifatlar; ularning ma’naviy-pedagogik merosga qo’shgan hisalari yozga asarlari va tayyorlagan shogirdlari haqida qimmatli ma’lumotlar keltirilgan. Ushbu ma’lumotlar ilmiy va pedagogik jamoatchilik, ayniqsa o’qituvchilar va tadqiqotchilar uchun muhim manba bo’lib xizmat qiladi.

Kalit so’zlar: ma’naviy-axloqiy tarbiya, aqliy tarbiya, vatanparvarlik, nafs tarbiyasi, jomardlik, xaqgo’ylik, go’zallik, qalb pokligi, ruhiy osoyishtalik, kubroviya, hakimiya, tasavvuf, tariqat, ma’rifat, haqiqat.

Bugungi kunga kelib umumiy o’rta ta’lim maktablarida amalga oshiriladigan tarbiyaviy jarayonlarni takomillashtirish ma’naviy-madaniy dunyoqarashini kengaytirish, ularda o’zlikni anglash hissini shakllantirish zaruriyati kuchaymoqda. Ushbu zaruriyat tufayli O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish to’g’risida”gi PQ-232-sonli Qarori qabul qilindi. Ushbu qarorga ko’ra o’quvchi-yoshlarni intellektual hamda ma’naviy-axloqiy jihatdan rivojlantirishga mutafakkir ajdodlarimiz va jadid ma’rifatparvarlarning merosidan tizimli tarzda foydalanish vazifasi dolzarb qilib qo’yildi. Mazkur qarorning birinchi ilovasi 3-bandida “ajdodlarimiz va jadidlarning komil insonni shakllantirish va yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga oid yondashuvlarini tadqiq qilish hamda zamon talablariga mos ravishda ta’lim jarayonida qo’llash bo’yicha ilmiy asoslangan ishlanmalar va metodikalarni yaratish” vazifa qilib belgilab berilgan.

Darhaqiqat milliy tarbiyaning asl maqsadlari mutafakkir ajdodlarimiz va jadid ma’rifatparvarlarning merosidir. Shuning uchun ham ushbu merosni o’rganish har tomonlama tahlil qilish, ta’lim muassasasidagi pedagogik jarayonlarga tatbiq etish pedagogika fani oldida turgan muhim vazifalardan biri hisoblanadi. Jumladan, al-Hakim Termiziy (taxm. 750/760 – Termiz – taxm. 869)ning bizgacha yetib kelgan asarlarida ko’plab qarashlar bilan bir qatorda, shaxsning intellektual salohiyati va ma’naviyatini rivojlantirish yo’nalishidagi fikrlarga ham o’z keng o’rin ajratgan. Termiziyning fikricha, aql-zakovat o’zlashtira oladigan eng oliy bilim – ma’rifat yoki hikmatdir, bu – inson qalbini yorituvchi «ilohiy nur»dir. Turfa ilmlarni o’qib-o’rganish jarayonida uni egallash mumkin. Termiziy o’zining ma’naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlarini «Kitob haqiqat al-odamiyya» («Insoniyat haqiqati to’g’risida kitob») va «Adab un-nafs» («Nafs odobi») asarlarida bayon qilgan.

Termiziy o’zining “Navodir al-usul fiy ma’rifati ahadiys ar-Rasul” asarida nafs tarbiyasi haqida qimmatli fikrlarni bayon qilgan. Chunonchi, “Nafs – arziy (yerga mansub), shahvoniydir. Shahvat izidan shahvatga, xohish izidan xohishga moyil bo’luvchi, xotirjamlik, tinchlanish va barqarorlikka ega bo’lmaydigandir. Uning amallari turli-tuman – bir-biriga o’xshamaydi. Gohida qul, gohida xoja; gohida bo’ysunuvchi, gohida ega; gohida ojiz, gohida iqtidor (qodir

bo‘lish)”. At-Termiziyning ma’naviy-axloqiy tarbiya, shu jumladan, nafs tarbiyasiga oid qimmatli fikrlarni bayon qilganligi mutaxassislar tomonidan alohida ta’kidlangan. Jumladan, Ahmad Abdurahim Soyih o‘zining “As-Suluk inda al-Hakim at-Termiziy va masodiruhu minas-sunna” asarida At-Termiziyning nafs tarbiyasiga oid xizmatlarini quyidagicha baholagan: “Ma’lumki, Hakim Termiziy nafs borasida olim, uning kasalliklarini fahmlovchi, illat va yashirin jihatlarini yaxshi biluvchi edi. Shuning uchun soliklarga nafs kasallik va ofatlarini ochib berishda yuksak martaba qozondi. Shuni alohida ta’kidlash kerakki, Hakim Termiziy islomiy nafs ilmining asoschisi sifatida e’tirof etish mumkin. Hakim Termiziy inson shaxsiyatini uning sezgilari yordamida tahlil qildi. Nafsning ko‘rinib turgan tashqi jihatlar bilan qanoat qilmay, uning ichki jihatlariga chuqur nazar soldi. Natijada, uning zohirini idrok qilish bilan birga, undagi yashirin jihatlar va shahvatlar – xohish-istaklar ma’rifatiga ham yetib bordi”.

At-Termiziy o‘z qarashlarida nafs tarbiyasiga oid pedagogik ta’limotni rivojlantirgan. Jumladan, Hakim Termiziy nafsni issiq shamolga o‘xshatib, Alloh uni jahannam eshigidagi tutundan yaratganligi, uning inson tanasidagi joyi o‘pka ekanligini e’tirof etib, inson harakatda bo‘lgani bois, nafs ham doim harakatda bo‘lishi, nafs jilovlanmaganda u shahvatga aylanishi, shahvatga aylanganda xavf tug‘dirishini ta’kidlab, ana shu xavf issiqlikdir. Xavfning issiqligi tana va nafs ekanligini izohlab, inson tanasidagi boshning bug‘i sovuqlik bo‘lib, u ruhdan ekanligini tavsiflab bergan.

Hakim Termiziy nafsni tarbiyalash omillari va vositalarini ham ko‘rsatgan. Ular:

1. Aql
2. Sabr
3. Qanoat
4. Ro‘za
5. Tavba

6. Halollik va poklik tamoyillari asosiy tarbiyaviy vositalar va omillar ekanligini ta’kidlaydi

Hakim Termiziy odamiylik, inson shaxsini ham tavsiflashga muvaffaq bo‘lgan. Undan inson haqida so‘ralganda quyidagicha javob beradi: “Inson - ochiq oydin zaiflik va katta da’vo”, “Inson ongi, ilmi va tafakkuri bilan boshqa mavjudotlardan farqli hamda mukarram qilib yaratilgan. U ilmi bilan yuqori darajalar va yuksak cho‘qqilarni zabt etadi. Shu ma’noda ilm va amal birligi insonni kamolotga yetaklaydi, - deya ta’kidlaydi.

Termiziy tarbiya masalasida o‘z fikrlarini bildirib: bolalarning tuzaluvchi tarbiyasi – maktablarda; qaroqchilarning tuzaluvchi tarbiyasi – hibsxonalarda; ayollarniki – uylarda; yoshlarniki ilmda; keksalarniki esa masjidlardadir degan fikrlarni bayon qilgan.

Mutafakkirning “Bayonul farq”, “Yashirin masalalar” (al-Masoil almaknuna), “Masoil ahli saraxs”, “Ma’rifatul-asror”, “Al-imsol min alkitob vas sunna” kabi asarlarida asosiy e’tibor qalb, sog‘lom qalb, qalb pokligi masalasiga qaratilib, chuqur tahlil etilgan. Hakim Termiziyning fikricha, qalb tana a’zolariga amirdir.

Bunga sabab unda ilohiy ma’rifat va ilohiy ilm joylashganini asos qilib ko‘rsatgan. Hakim Termiziy insonni anglashda asosiy tushuncha qalb, deb hisoblaydi. Shuning uchun qalb sifatini tavsiflab, “qalb-botin, yurak-zoxir, ko‘krak esa qalb maydonidir”, - deb yozgan.

Hakim Termiziy “Masoil axli Saraxs” kitobida aytadi: “Qalb va nafs ikkisi ham bir tanada mushtarak narsalardir. Qalbning quvvati ma’rifat, aql, ilm, tushuncha, zehn, farosat, xotira, Alloh rozi bo‘ladigan tarzda unga qilingan ahdu vafoga muvofiq holda yashashdandir. Bu narsalardan keladigan shodlik unga kuch bag‘ishlaydigan, tiriltiradigan omildir. Nafs esa quvvatni shahvat, lazzat, arzimas orzular, ulug‘lik, izzat talablik, o‘zini baland tutish va ochko‘zlikdan olgan. Bu narsalardan keladigan shodlik nafsni quvvatlantiradigan omildir. Bularning barchasi hoyu-xavas askarlaridir. Hoyu-havas nafsning, ma’rifat esa qalbning egasidir”.

Hakim Termiziy komil inson uchun sog‘lom qalb zarurligini ta’kidlab, qalb sog‘lomligi nafs holati bilan dialektik bog‘langanligini asoslab, ular aloqasini chiroq va nur, kamon va o‘q,

baliq va suv bilan qiyoslaydi.

Hakim Termiziy mehnat tarbiyasiga alohida e'tibor qaratib, yoshlarni halol rizq topishga undagan. U o'zining praktsiologik qarashlarida kasb-hunar egallash va halol rizq topish masalasiga tahliliy nuqtayi nazardan yondashgan. Termiziyning asosiy e'tiborni inson ma'naviyatini yuksaltirish, uning ma'naviy harakatlarni rivojlantirishga qaratilgan. Kasb hunar egallash va halol rizq topish – vujud pokligining asosi ekanligini Hakim Termiziy alohida e'tirof etgan. Hakim Termiziyning kasb-hunar egallash va halol rizq topishga oid pedagogik fikrlari uning “Bayonul-kasb” (Kasblar bayoni) risolasida asoslab berilgan. Hakim Termiziy Odam Atodan boshlab, inson ezgu-niyat bilan xolis mehnat qilishi, halol kasbda baraka borligi, ta'masiz, xalqqa foydasi tegadigan kasbni egallab yashashga yoshlarni undagan. Mutafakkir halol rizq topishga qaratilgan harakat baraka keltirishini alohida ta'kidlagan. Alloma kasb-kor bilan shug'ullanishni inkor etuvchi kishilarni o'tiruvchilar degan nom bilan malomat qilib, bunda ularni ayovsiz tanqid qilgan.

Hakim Termiziy asoslagan “Hakimiya” ta'limotida kasb-rizq tushunchasini, tavakkul qilishni to'g'ri anglab, allomaning o'zi ham halol-mehnat va kasbu-kor bilan shug'ullangan. “Hakimiya” ta'limoti va Hakim Termiziyning halol-kasb va halol rizq haqidagi g'oyalari keyinchalik Xojagon va Naqshbandiya ta'limotiga ijobiy ta'sir ko'rsatib, “Dil ba Yoru dast ba kor” shiori va “Xilvat dar anjuman” tamoyilining vujudga kelishiga asos bo'lgan. Ushbu g'oyalarni buyuk mutafakkir va beqiyos vatanparvar Najmiddin Kubro kubraviya tariqatida rivojlantirgan.

Buyuk mutaffakkir, kubroviylik tariqatining asoschisi Najmiddin Kubro (taxallusi; asl ismi Ahmad ibn Umar ibn Muhammad al-Xivaqiy al-Xorazmiy) (1145 - Xiva - 1221) ma'naviy tarbiya sohasida ulkan meros qoldirgan murafakkir. Najmiddin Kubro inson kamolotida ilm-ma'rifatning o'rniga alohida e'tibor qaratgan. U bilish nazariyasiga munosib hissa qo'shib, aqliy va hissiy-intuitiv bilishni birlashtirgan. Mutaffakkir tafakkurga asoslangan aqliy bilish haqida o'zining pedagogik ahamiyatga ega bo'lgan qarashlarini ilgari surgan. Ushbu qarashlar bugungi kun ta'lim tizimi uchun ham alohida ahamiyatga ega. Mazkur qarashlar yosh avlod tarbiyasida alohida ahamiyatga ega.

Najmiddin Kubro haqida Ali Akbar Dehxudo o'zining mashhur “Lug'atnoma”sida shunday yozgan edi: “U kishining Kubro deb atalishlariga sabab shuki, behad ziyrakliklari va tunganmas zakovatlarini tufayli har qanday muammoli masalani so'ralganda hal qilib berar edilar va har kim u kishi bilan bahs-munozara qilsa, g'olib chiqar edilar”.

Najmiddin Kubro shaxs ma'naviy kamolotini ta'minlash haqidagi g'oyalarni ilgari surgan tasavvufshunos edi. U o'zining vatanparvarlik tarbiyasi hamda ma'naviy-axloqiy tarbiyaga oid qarashlari bilan sharq xalqlari orasida katta obro'-e'tibor qozongan. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, u kubroviya ta'limotiga asos solgan. Bu tariqatning asosiy vazifasi komil insonni tarbiyalashdan iborat. Kubroviya tariqatida talab, sadoqat, ishq, muhabbat, oshiqlikning inson uchun naqadar zarur ekanligi ta'kidlanadi. Jumladan Najmiddin Kubro shunday yozadi:

Ishq dardi g'arib tanimdagi jon bo'lg'ay.
Dard cheksa kishi axiyri inson bo'lg'ay.
Oshiq manu do'zax men uchun otashgoh,
Boshqa uchun u bir zimiston bo'lg'ay.

Kubro ta'kidlagan muhabbat tom ma'nodagi hayotga, insonlarga muhabbat edi. Najmiddin Kubroning ta'limotida inson omiliga ustuvor o'rin ajratilgan. U inson tafakkuri kuchiga yuksak baho bergan. Buni mutafakkirning quyidagi fikrlari yaqqol isbotlaydi: – “Valiylik inson bolasiga azaldan nasibadir, chunki odam Olohning suygan maxluqi, parvardigor odamga ong-aql bergan, botiniy nur bergan, uni barcha mavjudotdan afzal qilib yaratgan.

Yurmoq uchun Haq yo'liga yetmoq shart,
Boshqasidan ko'zni yumib ketmoq shart,
Elga shifo baxsh etu, och ko'zlarni

Olam hama-ul, unga nazar etmoq shart .

Kubroviya tariqati keng tarqalib, uning ko‘plab yo‘nalishlari paydo bo‘lgan. Ularning barchasini vatanparvarlik, mehnatsevarlik, halollik, nafsni tiyish kabi tarbiyaviy yondashuvlar birlashtirgan. Shayx Najmiddin Kubro o‘nlab asarlar yozgan. Ularning aksariyati shaxs tarbiyasiga bag‘ishlangan. Jumladan, “Fiodobus solikin” (“Soliklar odobi haqida”), “Risola attul xayful–xoim an lavmat il–loim” (“Qo‘rquvchi ovvoralar va malomat etuvchi malomatiylar haqida”), “Favoyihul jamol” (“Go‘zallikni egallash”), “Ruboiylar to‘plami”, “Favoyihul jamol va favotihul jalol” (“Jamol xushbo‘yliklari va jalolning kashfi”), “Al-usul al–ashara” (“O‘nta usul”), “Risola at-turuq” nomli asarlarida halollik, mardlik, ilmsevarlik, ustozlik, burch va mas‘uliyat kabi ma‘naviy sifatlar ulug‘langan. Najmiddin Kubro jo‘mardlik g‘oyalarini targ‘ib qilgan va insonlarni jo‘mard bo‘lishga undagan. Natijada mardlik va poklik, qahramonlik va fidoyilik, ma‘rifat va jismoniy-ruhiy qudrat mujassamlashtirilgan. Inson kamolatida ahloqiy yuksaklik, vatanparvarlik g‘oyalarining muhim o‘rin egallashini asoslashga muvaffaq bo‘lgan.

Najmiddin Kubro insonlarni ezgu amallarni bajarish, ilm egallash, sahovatli va mard bo‘lishga da‘vat etgan. U Shayx Najmiddin Bog‘dodiy, Shayx Farididdin Attor, Sultonul ulamo Shayx Bahovuddin Valad, Shayx Sa‘diddin Hamaviy, Shayx Sayfiddin Boharziy, Shayx Jaloliddin Geyliy singari ko‘plab tasavvuf namoyondalarini tarbiyalagan, ularga ustozlik qilgan .

Najmiddin Kubroning «Faqirlar haqidagi risola»si insonni tarbiyalash bo‘yicha ibrat kitobi sanaladi. Shayx yozadi: «Dunyoning bir qismini kezib chiqdim, ko‘p ishlarni tajriba qildim, qiyinchiliklarga yo‘liqdim, kishilar bilan suhbat qurdim, ulug‘ ishlarga qadam bosdim, tirikchilikning achchiq-chuchugini topdim. Kitoblarga murojaat qildim, olimlar xizmatida bo‘ldim, umrni dunyo izlash bilan zoe o‘tkazmadim, ajoyibotlarni ko‘rdim .

Kubroviya ta‘limotining asosini tashkil etadigan komil inson tarbiyasi bugungi kun yoshlarini ma‘naviy-axloqiy jihatdan tarbiyalashda ham muhim ahamiyat kasb etadi. Shayx Najmiddin Kubro ruboiylarida shaxs tarbiyasiga oid ko‘plab muammolarga murojaat qilingan. Ularga yechim topgan. Ruboiylarda yetakchi masala komil inson tarbiyasidir. Ularda nafs tarbiyasi, xusumatdan yiroq bo‘lish, gumonga bormaslik, ta‘ma, minnat qilmaslikka undalgan. Riyokorlik, nifoq qilish, fosihlik kabi illatlar qattiq qoralangan. Yoshlarni yaxshi xulq-axloq egasi bo‘lishga, ruhiy poklikka undagan. Jumladan:

Har sabzaki suv yaqosida yuz ochmish,
Bir ruhi farishtadur, magar ko‘z ochmish.
Bir hoki parivashki, yomon qo‘yma qadam,
Bu go‘shaki uchun lolavu nargis ochmish...

Najmiddin Kubro tomonidan ilgari surilgan tasavvufiy g‘oyalar asosini shaxs kamoloti, uning ma‘naviy-axloqiy yuksalishi, inson qadrini yuksak tutish, uni e‘zozlashga bag‘ishlangan. Shayx Najmiddin Kubro vatanparvarlik g‘oyasining nazariy hamda amaliy jihatdan yirik targ‘ibotchisi, timsoli bo‘lgan . U vatan himoyasini muqaddas ish sanagan. Bu yo‘lda shahid bo‘lmoqni ulug‘ burch hisoblagan . Ushbu g‘oyalar o‘quvchi yoshlarda vatanparvarlik tuyg‘usini shakllantirishda muhim manba bo‘lib xizmta qiladi. Hakim at Termiziy hamda Najmiddin Kubroning aqliy hamda ma‘naviy axloqiy tarbiyaga oid qimmatli fikrlanidan uzluksiz ta‘lim tizimida muntazam foydalanish orqali o‘quvchi hamda bo‘lajak o‘qituvchilarda vatanparvarlik, joardlik, sabrlilik, e‘tiqodda sobitlik, hayotsevarlik, go‘zallikka intishi, ilmni qadrlash kabi ko‘plab ma‘naviy ahloqiy sifatlarni tarbiyalash imkoniyati mavjud.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-iyundagi “Qori Niyoziy nomidagi Tarbiya pedagogikasi milliy institutini tashkil etish” to‘g‘risidagi PQ-232-sonli qarori.
2. Hakim Termiziy. Navodir al-usul fiy ma‘rifati ahadiys ar-Rasul. VII. – Bayrut: “Dor an-navodir”, 2010. IV. – B. 121-122.

3. Ahmad Abdurahim Soyih. As-Suluk inda al-Hakim at-Termiziy va masodiruhu minas-sunna. – Qohira: “Dor as-salom”, 1988. – B. 172.
4. Xaitov L.A. Hakim Termiziy ma'naviy merosining inson kamolotidagi o'rni. 09.00.03 – Falsafa tarixi ixtisosligi bo'yicha falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. Buxoro-2022.
5. Imom Abu Abdullox Shamsiddin Muxammad ibn Axmad ibn Usmon Zaxabiy. Siyaru A'lamin Nubalo. “Mashxur daholar siyrati”. Toshkent:-Sharq. Nashriyot- matbaa, 2015.-B.429.
6. Maxmudov O. Farzandnoma. -Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi nashriyot matbaa ijodiy uyi, 2020. - B.266
7. Al-Hakim At-Termiziy. Yashirin masalalar Masoil al-Maknuna. / Tarj. M.Ismoilov. - Samarqand :Imom Buxoriy xalqaro markazi nashriyoti, 2019. -B.22.
8. Abu Abdullox Muxammad ibn Ali Xakim Termiziy. Ma'rifatul asror. (Sirlar ma'rifati) / Tarjimon: Abdulxamid Muxammad Tursunov. - Toshkent: “Movarounnahr”, 2017. - B.77.
9. Oriflar tasallisi. Xakim Termiziy asarlaridan saylanma. / Tarjimon: I.Usmonov va boshq.; - Toshkent: Movarounnahr, 2018. -B.256.
10. Xaitov L.A. Hakim Termiziy ma'naviy merosining inson kamolotidagi o'rni. 09.00.03 – Falsafa tarixi ixtisosligi bo'yicha Falsafa fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi AVTOREFERATI. Buxoro-2022.
11. Ali Akbar Dehxudo. Lug'atnoma. J. 104. – Tehron, “Tehron universiteti” nashri, 1965
12. Toshboyev A.Y. Kubraviya tariqati asoschisi Najmiddin Kubro. Termiziy.uz
13. D.Bobojonov, M.Abdurasulov “Abadiyat farzandlari”. Xorazm Ma'mun akademiyasi nashriyoti, 2009. Xorazmiy.uz
14. Isoqova Z. Najmiddin Kubro. –Toshkent: Abu Matbuot-Konsalt, 2011.
15. Samatov K. Issues Naqshbandi teaching peace and harmony in societ //Theoretical & Applied Science. – 2016. – №. 2. – S. 175-179.
16. Ubaydullayev A.M. Kubroviya tariqati axloqiy qoidalarining insonlar hayotidagi o'rni. Proceedings of International Conference on Modern Science and Scientific Studies Hosted online from Paris, France. Date: 19 th December, 2023. 163-169-bet.

BO‘LAJAK TEXNOLOGIYA FANI O‘QITUVCHILARINING KONSTRUKTORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH TAMOYILLARI

*Abdiraxmanov Sardor Normuhamadovich
TerDMAU o‘qituvchisi, mustaqil izlanuvchi*

*Turayev Xumoyiddin Abdug‘afforovich
Ilmiy rahbar, TerDU dotsenti, p.f.f.d. (PhD)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish tamoyillari ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan tahlil qilinadi. Konstruktorlik kompetentligini shakllantirish texnologik ta‘lim sohasida muhim yo‘nalishlardan biri bo‘lib, bu o‘qituvchilarning loyihalash-ko‘nikmalarini takomillashtirish, muhandislik yechimlarini ishlab chiqish va zamonaviy raqamli vositalardan samarali foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

Maqolada bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishga oid asosiy tamoyillar – innovatsion yondashuv, muammoli ta‘lim, texnologik integratsiya va amaliyotga yo‘naltirilgan o‘qitish yondashuvlari tahlil qilinadi. Shuningdek, konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda ilg‘or pedagogik texnologiyalar, virtual va raqamli vositalardan foydalanish imkoniyatlari o‘rganiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, bo‘lajak texnologiya fani o‘qituvchilarining konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish bo‘yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqilgan. Ushbu yondashuv texnologik ta‘lim sifati va o‘qituvchilarning kasbiy mahoratini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish, texnologik ta‘lim, muhandislik yechimlari, innovatsion yondashuv, raqamli texnologiyalar, pedagogik metodlar.

Аннотация. В данной статье рассматриваются принципы развития конструкторской компетентности будущих преподавателей предмета «Технология» с научно-теоретической и практической точек зрения. Формирование конструкторской компетентности является одним из важнейших направлений технологического образования, способствующим совершенствованию проектных навыков учителей, разработке инженерных решений и эффективному использованию современных цифровых инструментов.

В статье анализируются основные принципы развития конструкторской компетентности будущих преподавателей предмета «Технология» – инновационный подход, проблемное обучение, технологическая интеграция и практико-ориентированное обучение. Также изучаются возможности использования передовых педагогических технологий, виртуальных и цифровых инструментов в процессе формирования данной компетентности. На основе результатов исследования были разработаны методические рекомендации по развитию конструкторской компетентности будущих преподавателей предмета «Технология». Этот подход способствует повышению качества технологического образования и профессионального мастерства преподавателей.

Ключевые слова: развитие конструкторской компетентности, технологическое образование, инженерные решения, инновационный подход, цифровые технологии, педагогические методы.

Annotation. This article examines the principles of developing the design competence of future technology subject teachers from both a theoretical and practical perspective. Developing design competence is one of the key directions in technological education, helping teachers

improve their project skills, create engineering solutions, and effectively utilize modern digital tools.

The paper analyzes the main principles of developing the design competence of future technology teachers, including an innovative approach, problem-based learning, technological integration, and practice-oriented teaching. Additionally, the study explores the potential of using advanced pedagogical technologies, virtual and digital tools in the development of this competence. Based on the study results, methodological recommendations have been developed for enhancing the design competence of future technology teachers. This approach contributes to improving the quality of technological education and enhancing teachers' professional skills.

Keywords: development of design competence, technological education, engineering solutions, innovative approach, digital technologies, pedagogical methods.

Kirish (Introduction). Zamonaviy ta'lim jarayonida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Konstruktorlik kompetentligini shakllantirish texnologik ta'lim sohasida muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu o'qituvchilarning loyihalash, texnologik jarayonlarni modellashtirish, innovatsion muhandislik yechimlarini ishlab chiqish va zamonaviy raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish qobiliyatini rivojlantirishga xizmat qiladi.

9. CyberLeninka (2024). Ta'limda sun'iy intellektning imkoniyatlari. CyberLeninka, 2024. Retrieved from <https://cyberleninka.ru>
10. Ares.uz (2024). Ta'limda sun'iy intellektning imkoniyatlari. Ares, 2024. Retrieved from <https://ares.uz>

RAHBAR XODIMLARNING MA'NAVYI QIYOFASINI FORSAYT TEKNOLOGIYASI ORQALI SHAKLLANTIRISH

Baybayeva Muxayyo Xudaybergenovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti "Pedagogika" kafedrasida professori, p.f.d.

Nuriyeva Umida Buribayevna

Pedagogik mahorat va xalqaro baholash ilmiy-amaliy markazi "Xalqaro loyihalar bilan ishlash" bo'lim boshlig'i A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya: Mazkur tadqiqotda forsait texnologiyasining ta'lim muassasasi rahbar xodimlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirishdagi ahamiyati va uning takomillashtirish mexanizmlari o'rganiladi. Forsait texnologiyasi, ya'ni kelajakni oldindan ko'ra olish va prognoz qilish metodikasi, rahbar xodimlarning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash va strategik qarorlar qabul qilish jarayonlarini yaxshilashga yordam beradi. Tadqiqotda forsait texnologiyasining ta'lim tizimida, ayniqsa rahbarlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda qanday foydalanilishi, bu jarayonda pedagogik yetakchilik va psixologik yondashuvlar qanday muhim rol o'ynashi ko'rsatilgan. Shuningdek, ta'lim muassasasidagi rahbar xodimlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirish mexanizmlarini takomillashtirishga doir amaliy tavsiyalar va strategiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: forsait texnologiyasi, ta'lim muassasasi, rahbar xodimlar, ma'naviy qiyofa, ta'lim boshqaruvi, strategik qarorlar, pedagogik yetakchilik, psixologik yondashuv, rivojlanish strategiyasi, innovatsion boshqaruv.

ФОРМИРОВАНИЕ ДУХОВНОГО ОБРАЗА РУКОВОДИТЕЛЕЙ С ПОМОЩЬЮ ФОРСАЙТ-ТЕХНОЛОГИЙ

Байбаева Мухайё Худайбергановна

Профессор, д.п.н., кафедры «Педагогика» Ташкентского государственного педагогического университета

Нуриева Умида Бурибаевна

*Руководитель отдела «Работа с международными проектами» Научно-практический центр педагогического мастерства и международной оценки
Соискатель национального института педагогического мастерства имени
А. Авлони*

Аннотация: В данном исследовании изучается значение технологии форсайта в формировании морального имиджа руководителей образовательного учреждения и механизмы его совершенствования. Технология форсайта, то есть методология предвидения и прогнозирования будущего, помогает определять направления развития руководителей и совершенствовать процессы принятия стратегических решений. Исследование показывает, как технологии форсайта используются в системе образования, особенно при формировании духовного образа лидеров, и какую важную роль в этом процессе играют педагогическое лидерство и психологические подходы. Также разработаны практические рекомендации и стратегии по совершенствованию механизмов формирования морального облика руководителей образовательного учреждения.

Ключевые слова: технология форсайта, образовательное учреждение, управленческий состав, моральный облик, образовательный менеджмент, стратегические решения, педагогическое лидерство, психологический подход, стратегия развития, инновационный менеджмент.

FORMATION OF THE SPIRITUAL IMAGE OF LEADERS WITH THE HELP OF FORESIGHT TECHNOLOGIES

Baybaeva Mukhayo Khudaibergenovna

Professor, Doctor of Pedagogical Sciences, Department of Pedagogy, Tashkent State Pedagogical University

Nurieva Umida Buribaevna

Head of the Department "Working with International Projects"

*Scientific and Practical Center for Pedagogical Excellence and International Assessment
Applicant of the National Institute of Pedagogical Excellence named after A. Avloni*

Annotation: In this study, the importance of foresight technology in the formation of the moral image of the educational institution's leaders and the mechanisms of its improvement are studied. Foresight technology, that is, the methodology of foreseeing and forecasting the future, helps to determine the directions of development of executives and improve the processes of making strategic decisions. The research shows how foresight technology is used in the educational system, especially in the formation of the spiritual image of leaders, and how pedagogical leadership and psychological approaches play an important role in this process. Also, practical recommendations and strategies for improving the mechanisms of formation of the moral image of the leaders of the educational institution have been developed.

Key words: foresight technology, educational institution, management staff, moral image, educational management, strategic decisions, pedagogical leadership, psychological approach, development strategy, innovative management.

Kirish: Ta'lim tizimining rivojlanishida rahbar xodimlarning ma'naviy qiyofasi va ularning pedagogik hamda boshqaruv qobiliyatlari muhim ahamiyatga ega. Ma'naviy qiyofa faqat rahbarning shaxsiy fazilatlarini emas, balki uning boshqaruv jarayonlarida aks etgan etika, axloqiy qadriyatlar, innovatsion fikrlash va qarorlar qabul qilish uslublarini ham o'z ichiga oladi. Shu sababli, ta'lim muassasasi rahbarlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirish, ularning professional faoliyatida yuqori darajadagi ma'naviyat va axloqiy me'yorlarga amal qilishni ta'minlaydi.

Hozirgi kunda forsayt texnologiyasi ta'lim tizimida qo'llanilishi mumkin bo'lgan samarali vositalardan biri sifatida qaraladi. Forsayt texnologiyasi kelajakdagi o'zgarishlarni oldindan bashorat qilish va ularni strategik rejalashtirishda qo'llaniladigan metoddir. Bu metod ta'lim muassasalarida rahbarlar va boshqa xodimlarning rivojlanish yo'nalishlarini aniqlash va boshqaruv qarorlarini yaxshilashga yordam beradi.

Ushbu tadqiqotda forsayt texnologiyasining ta'lim muassasasi rahbar xodimlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirishdagi o'rni va uning o'ziga xos yondashuvlari, rahbarlarning shaxsiy va kasbiy fazilatlarini rivojlantirishga qanday yordam berishi va bu jarayonni takomillashtirish mexanizmlarini qanday ishlab chiqish zarurligi ko'rib chiqiladi. Tadqiqotda bu texnologiyaning rahbar xodimlarning professional kompetentsiyalarini oshirish va ta'lim tizimida samarali boshqaruvni amalga oshirishga ta'siri ham tahlil qilinadi.

Muhokama va natijalar: Ta'lim muassasalarida rahbar xodimlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirish, ularning kasbiy va shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Rahbarning ma'naviy qiyofasi uning boshqaruv faoliyatini, rahbarlik mahoratini va pedagogik yondashuvlarini belgilaydi. Ma'naviyatli rahbar o'zining axloqiy qadriyatlarini, ishonchli qarorlar qabul qilishini va o'zgarishlarga moslashuvchan bo'lishini ta'minlaydi. Shuning uchun rahbarlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishi ta'lim muassasasining samarali ishlashida hal qiluvchi omil hisoblanadi.

Forsayt texnologiyasi ta'lim muassasalarida rahbarlarning ma'naviy qiyofasini

shakllantirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'ladi. Forsayt texnologiyasining asosiy maqsadi kelajakdagi o'zgarishlarni oldindan ko'ra olish va ularni strategik boshqaruv jarayonlariga tatbiq qilishdir. Bu jarayon rahbarlarga zamonaviy ta'lim tizimining ehtiyojlariga mos ravishda boshqaruvni rivojlantirish imkonini beradi. Forsayt texnologiyasining tatbiqi rahbarlarning uzoq muddatli qarorlar qabul qilishda yangicha yondashuvlar ishlab chiqishga yordam beradi. Shuningdek, bu metodika rahbarlarning ma'naviy va axloqiy qiyofasini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi, chunki qarorlar qabul qilishda yuzaga keladigan axloqiy va etika masalalarini inobatga olish zarur.

Rahbar xodimlarining ma'naviy qiyofasini shakllantirishda forsayt texnologiyasi quyidagi mexanizmlarni takomillashtirishga xizmat qiladi :

1. Strategik rejalashtirish: Forsayt texnologiyasi kelajakdagi o'zgarishlarni bashorat qilish orqali rahbarlarga to'g'ri strategik yo'nalishni tanlashda yordam beradi. Bu, o'z navbatida, rahbarlarga uzoq muddatli qarorlar qabul qilishda aniq yo'nalishlar belgilash imkonini yaratadi.

2. Psixologik yondashuv: Forsayt texnologiyasi rahbarlarning psixologik tayyorgarligini kuchaytirishga yordam beradi. Bu ularning kelajakdagi o'zgarishlarga tayyor bo'lishini va jamoani samarali motivatsiya qilishda yangi yondashuvlarni qo'llash imkoniyatini yaratadi.

3. Innovatsion boshqaruv usullari: Forsayt texnologiyasi rahbarlarga innovatsion boshqaruv usullarini ishlab chiqishda qo'llaniladi. Bu boshqaruvni yangilash va samaradorlikni oshirishga imkon beradi.

Forsayt texnologiyasining ta'lim muassasasida rahbarlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishdagi o'rni

Forsayt texnologiyasi rahbarlarning ma'naviy va axloqiy fazilatlarini rivojlantirishga yordam beradi. Bu texnologiya rahbarlarga kelajakdagi o'zgarishlarga tayyorlanishda, yangi strategiyalar ishlab chiqishda va rahbarlik faoliyatida samarali yondashuvlarni qo'llashda ko'maklashadi .

Rivojlanish mexanizmlarining takomillashtirilishi. Forsayt texnologiyasining qo'llanishi rahbarlarning kasbiy rivojlanishiga yangi mexanizmlar kiritishni talab qiladi. Ushbu mexanizmlar ta'lim muassasasining samarali boshqaruviga yordam beradi va rahbarlarning ma'naviy va axloqiy qiyofasini shakllantirishga imkon yaratadi.

Pedagogik boshqaruvning rivojlanishi. Forsayt texnologiyasi pedagogik boshqaruvni yangi metodlar orqali yaxshilashga xizmat qiladi. Bu rahbarlarga ta'lim jarayonlarida yuz beradigan o'zgarishlarni oldindan sezish va ularga samarali boshqaruv yondashuvlarini qo'llashda yordam beradi.

Zamonaviy boshqaruv yondashuvlari. Forsayt texnologiyasining joriy etilishi rahbarlarga boshqaruv jarayonlarini zamonaviy va innovatsion usullar bilan amalga oshirish imkoniyatini yaratadi. Bu o'zgarishlarga moslashish va ta'lim muassasasida samarali boshqaruvni ta'minlashga yordam beradi .

Shuningdek, forsayt texnologiyasining ta'lim tizimida qo'llanilishi rahbarlarning o'zgaruvchan sharoitlarga moslashuvchanligini oshiradi va ularning ma'naviy qiyofasini shakllantirish jarayonini yanada takomillashtiradi.

Xulosa: Forsayt texnologiyasining ta'lim muassasalarida rahbar xodimlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda ahamiyati katta. Ushbu texnologiya rahbarlarga kelajakdagi o'zgarishlarni oldindan sezish va ularni boshqaruv jarayonlariga to'g'ri qo'llash imkonini yaratadi. Forsayt texnologiyasining tatbiqi rahbarlarning shaxsiy va kasbiy rivojlanishiga yordam beradi, ularning qarorlar qabul qilishda axloqiy va ma'naviy yondashuvlarni yanada kengroq qo'llashini rag'batlantiradi.

Tadqiqotda forsayt texnologiyasining rahbarlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishdagi mexanizmlari rivojlantirildi va yangi boshqaruv strategiyalari yaratildi. Bu jarayon rahbarlarning pedagogik yetakchiligini kuchaytirish, innovatsion boshqaruv usullarini joriy etish va ta'lim

muassasalarining samarali boshqaruvini ta'minlashga xizmat qiladi.

Umuman olganda, forsayt texnologiyasi ta'lim tizimida rahbarlarning ma'naviy qiyofasini shakllantirishda muhim vosita bo'lib, uning samarali tatbiqi ta'lim muassasalarining rivojlanishi va rahbarlik mahoratining oshishiga katta hissa qo'shadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Abduqodirov, R. (2015). Ta'lim boshqaruvi va pedagogik yetakchilik. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi O'qituvchilar nashriyoti.
2. Turayev, A. (2017). Forsayt texnologiyasi: Konseptsiyalar va metodlar. Toshkent: Innovatsiya va ta'lim nashriyoti.
3. Davronov, I. (2020). Ta'lim tizimida boshqaruvning innovatsion usullari. Toshkent: Yangi avlod.
4. Karimov, I. (2019). Ma'naviy qiyofa va rahbarlik fazilatlari. Toshkent: Adabiyot va san'at nashriyoti.
5. Xolmatov, X. (2018). O'zbek ta'lim tizimida forsayt texnologiyasining o'rni. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti.
6. Qodirov, B. (2018). Boshqaruv strategiyalari: Yangi usullar va yondashuvlar. Toshkent: O'zbekiston milliy universiteti nashriyoti.

BADIIY DID TARBIYASIDA CHOLG‘U IJROCHILIGI FANINI O‘QITISHSHNING O‘ZIGA XOS METODIK JIHLTLARI

Fayzullayev Ermat Majidovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti “Musiq ta’limi” kafedrasi katta o‘qituvchisi, pedagogika fanlari nomzodi

Ushbu maqola mazmunida musiqiy ta’lim yo‘nalishlarida cholg‘u ijrochiligi fanini o‘qishning o‘ziga xos jihatlari va musiq asarlari ustida ishlashning metodik jihatlari yuzasidan fikr-mulohazalar bildiriladi. Sharq allomalarining musiq bo‘yicha bildirgan fikrlari va musiq sohasiga qo‘shgan ulkan hissalar yoritilib beriladi. Badiiy tarbiyasi musiqiy ta’lim va tarbiyaning muhim qismi sifatida tutgan o‘rni, bu jarayonda cholg‘u ijrochiligi fanining alohida o‘rni, va quyidagi masalalar yoritiladi: Cholg‘u ijrochiligi fanining badiiy did tarbiyasidagi ahamiyati, o‘qitish jarayonida qo‘llaniladigan o‘ziga xos metodik yondashuvlar va talabalarni badiiy didga o‘rgatishda milliy cholg‘ularning roli keng yoritiladi. Talabalarda ijodiy fikrlashni rivojlantirish, milliy cholg‘ularni chuqur o‘rganish va ularning ijrochilik mahoratini mustahkamlash bo‘yicha uslubiy tavsiyalar beriladi.

Kalitli so‘zlar: Musiq, musiq asari, musiq tinglash, cholg‘u ijrochiligi, ansambl, kuy, ritm, shtrix, janr, estetik tarbiya, badiiy did, texnik ijro.

ВОСПИТАНИЕ МУЗЫКАЛЬНОГО ВКУСА СПЕЦИФИЧЕСКИЕ МЕТОДИКИ ПРЕПОДАВАНИЯ

В содержании данной статьи представлена обратная связь по особенностям изучения предмета инструментального исполнительства в направлении музыкального образования и методологическим аспектам работы над музыкальными произведениями. Освещаются мнения восточных мыслителей о музыке и большой вклад в область музыки. Раскрыта роль художественного воспитания вкуса как важной части музыкального образования и воспитания, особая роль инструментального исполнительства в этом процессе, также освещены следующие вопросы: роль инструментального исполнительства в формировании художественного вкуса, конкретные методические подходы, используемые в учебном процессе, роль национальных инструментов в формировании художественного вкуса учащихся. Предоставляются методические рекомендации по развитию творческого мышления у студентов, глубокому изучению национальных музыкальных инструментов и укреплению их исполнительского мастерства.

Ключевые слова: Музыка, музыкальное произведение, прослушивание музыки, инструментальное исполнение, ансамбль, Мелодия, ритм, штрих, жанр, эстетическое воспитание, художественный вкус, техническое исполнение.

EDUCATION OF MUSICAL TASTE SPECIFIC METHODOLOGIES OF TEACHING

The content of this article provides feedback on the peculiarities of studying the subject of instrumental performance in the direction of music education and methodological aspects of working on musical works. Opinions of Oriental thinkers on music and great contributions to the field of music are highlighted. The role of artistic taste education as an important part of musical education and upbringing, the special role of instrumental performance science in this process, and the following issues are covered: the role of instrumental performance in the education of artistic taste, specific methodological approaches used in the teaching process

and the role of national instruments in teaching students artistic taste are widely covered.

Keywords: Music, musical composition, listening to music, instrumental performance, ensemble, Melody, rhythm, stroke, genre, aesthetic education, artistic taste, technical performance.

Kirish. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sharq taronalari" o'n birinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda so'zlagan nutqida ta'kidlanganidek, "Dunyoda qarama-qarshilik va ziddiyatlar kuchayib borayotgan bugungi o'ta murakkab zamonda millati, tili va dini turlicha bo'lgan millionlab odamlarni hech qanday tarjimonsiz do'st qiladigan, ular o'rtasida hamkorlik va hamjihatlikni yanada mustahkamlaydigan musiqa san'atining o'rni va ta'siri tobora ortib bormoqda".

Sharq allomalari musiqa insonning ichki dunyosiga kirib borishi va uni boyitish borasida ko'plab fikrlarni aytganlar. Sharqda musiqa vositasida bemor kishilarni davolash qadimdan keng tarqalgan. Xususan, buyuk tabib Abu Ali ibn Sino o'zining "Tib qonunlari" kitobida ruhiy kasallarni musiqa orqali davolaganligini yozadi. Musiqa ta'sirida inson ruhiyatida jasorat ko'rsatish istagi, g'ayratining jo'sh urishi hollari yuz berishi mumkin.

Musiqa pedagogikasi musiqiy qobiliyatning barcha turlarini tizimli mashq qildirish orqali rivojlantirish mumkinligini isbotlab berdi. Bu jihatlar tahliliy qobiliyat sifatida, oxir-oqibatda musiqa tinglovchilarning badiiy didini shakllantirishga imkon berishini ko'rsatdi.

Musiqa san'atining nodir namunalarini ijro etish va ularni tinglash jarayoni faqat musiqiy qobiliyatdangina iborat bo'lib qolmasdan, balki u talabalarning badiiy didini ham rivojlantirib boradi. Xususan, musiqiy did - bu talabalarning asl, nodir badiiy asarlar va ularning ijrosini, sun'iy, sayoz va bo'sh asarlardan ajrata bilish qobiliyatidir.

Musiqiy qobiliyat bilan musiqiy did har doim bir-biriga mos kelavermaydi. Hayotda kuchli musiqiy qobiliyatga ega bo'lgan holda, haqiqiy durdona musiqiy asarlarni unchalik tushunmaydigan san'atkorlarni ham uchratish mumkin. Xususan, murakkab janrdagi mumtoz maqom asarlarini tan olmaydigan, ulardagi badiiy saviyaning nihoyatda baland ekanligini his etmaydigan, ammo, ayni paytda, katta musiqiy qobiliyat sohibi bo'lgan kishilar bor. G'arb musiqa asarlari bo'yicha yaxshigina mutaxassislikka ega bo'lganlari holda, o'zbek mumtoz musiqiy asarlarini idrok qila olmaydigan kishilar ham mavjud.

Musiqiy did musiqani tinglay olish va uni idrok qilish qobiliyatiga nisbatan anchagina murakkab bo'lib, u kishidan alohida sezgirlik xususiyatini ham talab qiladi.

Musiqiy didning rivojlanganligini faqatgina nodir asarlarni badiiy bo'sh asarlardan farqlay olish qobiliyatigagina qarab emas, balki boshqa bir qator nozik tuyg'ularning mavjudligiga qarab ham aniqlash mumkin.

Musiqiy didning rivojlanganligini ijro mahorati ham belgilaydi. Bunda muhim jihat asarni yuksak did bilan hamda musiqaning tili hisoblangan ovozlar tembri, soz, ansambl, n'yuanlardan unumli foydalanib ijro eta olish sirlarida namoyon bo'ladi.

"Badiiy did bo'lajak musiqa o'qituvchilari tomonidan o'zbek mumtoz musiqasi to'g'risidagi nazariy bilimlarga ega bo'lish, ularning badiiy qimmatini baholay olish, g'oyaviy mazmunini izohlay bilish, shuningdek, o'zbek mumtoz musiqasi namunalarini yuksak saviyada ijro eta olish ko'nikma va malakalariga egalikdir".

Musiqani idrok etishning muhim jihatlaridan yana biri - bu sezgirlik bo'lib, u tinglovchi yoki ijrochidan alohida qobiliyat talab etadi.

Asar ijrosidagi alohida nafosat, kamdan-kam uchraydigan texnika va nozik didlilikni his etish tuyg'usi - sezgirlik hisoblanadi. Ijrolardagi badiiy saviya bir-biriga yaqin, nihoyatda yuksak darajada bo'lgan holatlarda, ularning nozik jihatlarini ilg'ab baholash uchun, aynan, shu sezgirlik lozim bo'ladi. Ayrim asarlar yuksak texnikada ijro etilgan bo'lsada, nimadir yetishmaydi, qandaydir sovuqlik borday, qalb harorati qo'shilmaganday tuyuladi. Bunday ijroni tinglagan kishining qalbida go'zallikka intilish, undan lazzatlanish hislari paydo bo'lmaydi.

Tinglovchi - musiqachi sifatida bu ijroni o'zining ijrochilik mahoratiga bevosita solishtirib ko'radi va o'ziga tegishli xulosa chiqarib oladi. Bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining qalbida aynan shu xislatlarni shakllantirish o'ta muhim ahamiyat kasb etadi.

Musiqiy ta'lim yo'nalishida ta'limning uzluksizligini ta'minlash o'ziga xos muhim ahamiyatga ega. Avvalo boshlang'ich, umumiy o'rta ta'lim maktablari 1-7 sinf musiqqa madaniyati fanlaridagi musiqaga qobiliyati bor o'quvchilarni bolalar musiqqa va san'at maktablariga jalb etish (albatta maktabidagi darsidan keyin) ko'zlangan maqsadga erishishda, kelajakda musiqqa ta'limi bo'yicha yetuk mutaxassislarini (kadrlarni) tayyorlashni kafolatlaydi. Bolalar musiqqa va san'at maktabidan keyin esa san'at kollejlari va oliy o'quv yurtlarining musiqqa (san'at) fakultetlarini tamomlagan bo'lajak musiqqa o'qituvchilarining nota o'qish, cholg'u ijrochiligi mahoratlari mustahkam shakllanadi.

Musiqqa asarlari ustida ishlashni shakllantirish ishlari o'quvchilarni musiqiy qiziqish va qobiliyatlarini rivojiga ijobiy ta'sir ko'rsatish bilan bir qatorda ularni musiqiy - nazariy savodxonligini o'sishiga, musiqani idrok etish, unga tavsif berish, tahlil qilish, ijrochilik mahoratlari takomillashuviga ham katta yordam beradi.

Musiqiy ta'lim yo'nalishida cholg'u ijrochiligini tashkil etilishi va ulardagi mashg'ulotlarni o'quv ishlarining tabiiy davomiga aylantirishning real imkoniyatlari mavjud. Chunki, masalan rubob cholg'u sozini chalishga o'rgatishda o'z-o'zidan nazariy ma'lumotlarga tayanishga majbur bo'lamiz. Usiz ansamblga birlashgan o'quvchilarni bir tekis va bir xil (bir-biriga yaqin darajada) chalish darajasiga olib kelish g'oyat mushkul.

Bu o'rinda ritmni aniq ifodalash (sanoq), rubob pardalarida tovushlar joylashishi, mediator zarblari, tovush cho'zimi-sanalishi bilan, turli ohang hosil qilish (aksent), tremolo, liga, ligato, stakkato kabi shtrixlarni o'zlashtirishni, musiqqa xarakterini ifodalash uchun temp, dinamik tuslar haqida aniq bilimlar zahirasiga ega bo'lishlik tabiiy zarurat hisoblanadi.

Bu esa o'z-o'zidan musiqqa darslarida o'tilgan nazariy materiallarni chuqurroq o'zlashtirishga imkoniyat yaratadi. Musiqqa mashg'ulotlari ishi yaxshi qo'yilgan holatda o'quvchilar boshqa o'rtoqlariga ko'ra ko'proq musiqqa bilan mashg'ul bo'lishadi va ko'proq mashq qilishadi. Bu esa, ularni musiqqa savodi, musiqqa tinglash, xor bo'lib kuylash faoliyatlarida ham nisbatan muvaffaqiyatli ishtirok etishlari va o'z bilimlarini namoyish etishlariga olib keladi.

Musiqqa asbobida chalish, jo'rnavozlik qilish, boshqalarni eshitish, birgalikda chalish, boshqalarni ijrosini kuzatish, o'qituvchining amaliy ko'rsatmalarini bajarish, kuzatilgan kamchiliklarni birgalikda tugatish, soz, ansambllikka rioya qilish bularning barchasi - o'quvchilarning musiqiy xotirasi, ijrochilik qobiliyatlarini rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatadi.

Ansambl qatnashchilari rubob chalishning elementar qoidalari, talablari, unsurlarini teranli darajada egallab olganlaridan so'ng ular o'zlariga berilgan topshiriqlarni mustaqil bajarish, asarlarni o'rganish borasidagi o'qituvchi (rahbar) ko'rsatgan yo'l-yo'riqlarni eslab, o'zi mustaqil ravishda o'rganishlari, ijrochilik texnikasi, malakalarini takomillashtirib borishlari mumkin.

Ansambl ishtirokchilari turli janr, xarakterdagi o'zbek xalq kuylari, zamonaviy kompozitorlarning bolalarga atab yozgan kuy - qo'shiqlarini, qardosh xalqlar, chet el kompozitorlari va xalq musiqqa ijodiyotiga mansub asarlarni o'rganishlari jarayonida ularning musiqiy dunyoqarashi va tafakkuri ham rivojlanib boradi.

Ansambl ishtirokchilari bilan vaqti-vaqtida turli xalq, klassik, ayrim kompozitorlar asallarini tinglashni tashkil etish, konsertlarga birga borish, turli tadbirlarga qatnashish, ijro dan so'ng yutuq va muvaffaqiyatlarni muhokama qilish ularni cholg'u ijrochiligini mukammal egallashga bo'lgan ma'suliyatni oshiradi, ularni intizomli bo'lishga odatlantiradi va boshqa fanlardan ham yaxshi o'zlashtirishlariga zamin yaratadi.

Ma'lum bir asarni o'rganishdan oldin uni tinglash, so'ngra bu asar haqida o'quvchilarni taassurotlarini o'rtoqlashish, o'qituvchining tushuntirish so'zlari, qisqacha sharhlar, suhbatlar

asarlarni mazmuni, janri, tuzilishi, xarakteri, kuyi (melodiya), ritmi, garmoniyasi haqida to'g'ri tasavvurga ega bo'lish imkonini beradi. Bu san'atga haqiqiy qiziqish va unga bog'lanib qolish hamda badiiy-estetik tarbiyaning o'zidir.

Musiqiy ta'lim yo'nalishi, bolalar musiqa maktabi cholg'u ijrochiligi va ansambli yoki havaskorlik to'garaklari o'z maqsad va mohiyatiga ko'ra quyidagi vazifalarni o'z ichiga oladi:

- o'quvchilarni g'oyaviy estetik tarbiyalash;
- o'quvchilarni musiqiy qiziqish va qobiliyatlarini ruyobga chiqarish, kuylash va ijrochilik madaniyatini rivojlantirish;
- ansamblda ijro etish, jamoa bo'lib kuylashga o'rgatish;
- mashg'ulotlar jarayonida darsda olingan bilim va malakalarni mustahkamlab borish;
- qatnashchilarni badiiy ijro mahoratini oshirish, o'quvchilarni konsert ijrochilik faoliyatiga tayyorlash.

Musiqa asarlari ustida ishlashning o'ziga xos metodik jihatlari:

1. Musiqa asarlari ustida ishlashda musiqa eshitish va musiqa tinglashning bir-biridan farqlanishini ajratib olish va musiqani analitik tahlil qilib o'rganish haqidagi manbaalarni o'rganish;

2. Musiqa tinglash dasturiga o'zbek xalqiga mansub bo'lgan eng nodir mumtoz musiqa asarlari kiritilsa. O'quvchilarning didini shu tomonga burilsa;

3. Milliy ohanglardan yiroq "umumiy madaniyat" namunasi deb nom olgan musiqiy asarlarning asorati o'spirinlarga tushintirilsa;

4. Cholg'u ijrochiligida texnik mahoratni oshirish va asar ijrosiga tayyorgarlik ko'rish jarayonida turli cholg'u texnikalarini mukammallashtirish, talabalarni turli uslubiy qiyinchiliklarni yengishga o'rgatish.

5. Talabalarni asar ijrosida badiiy va didaktik nuqtayi nazardan mukammallikka erishishga o'rgatish, ijroda ifoda va badiiy jihatlarni uyg'unlashtirish.

6. Talabalarni o'z ijrosini tinglash, baholash va tahlil qilishga o'rgatish, ijrodagi kamchiliklarni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish.

4. Cholg'u ijrochiligi jarayonini tashkil qilishda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari hisobga olinib ish tutilsa;

5. Cholg'u ijrochiligida o'quvchilarni musiqa tinglashga o'rgatish imkoniyatlari o'rganilib, bunda yangi-yangi uslublardan foydalanish ishlari yo'lga qo'yilsa .

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev «Sharq taronalari» o'n birinchi xalqaro musiqa festivalining ochilishiga bag'ishlangan tantanali marosimda nutq so'zladi // "Xalq so'zi", 2017 y., 29 avgust.

2. Fayzullayev E.M. Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishning pedagogik shart-sharoitlari (o'zbek mumtoz musiqasi misolida). Ped.fan.nomz... dissertatsiyasi. TDPU. T.: 2010y.

3. Matyoqubov O. "Forobiy Sharq musiqasi asoslari haqida". -T., 1986 yil.

4. E.M.Fayzullaev "Bo'lajak musiqa o'qituvchilari badiiy didini shakllantirishda o'zbek mumtoz musiqasi imkoniyatlaridan foydalanish" (metodik qo'llanma). Toshkent – 2008.

BO‘LAJAK IQTISODCHI MUTAXASSISLARNING MAXSUS KOMPETENSIYALARINI SHAKLLANTIRISH METODIKASI

*Djumanazarova Zamira Kojabayevna
Oriental Universiteti katta o‘qituvchisi*

Annotatsiya. Bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislarning maxsus kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta‘lim metodikalarini qo‘llashni talab qiladi. Ushbu tadqiqotning maqsadi bo‘lajak iqtisodchilarning analitik fikrlash, raqamli savodxonlik, kommunikatsiya va innovatsion yondashuv kabi kompetensiyalarini rivojlantirishning samarali metodikalarini aniqlashdan iborat. Tadqiqotda aralash usullar qo‘llanilib, ekspert intervyulari va talabalar/o‘qituvchilar so‘rovnomalari o‘tkazildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, an‘anaviy ta‘lim usullari yetarli emas, shuning uchun amaliyotga yo‘naltirilgan ta‘lim, raqamli texnologiyalarni integratsiyalash va o‘qituvchilarni qayta tayyorlash zarur. Tadqiqot bo‘lajak mutaxassislarni zamonaviy talablarga moslashtirish yo‘lidagi yangi yondashuvlarni taklif etadi.

МЕТОДИКА ФОРМИРОВАНИЯ СПЕЦИАЛЬНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ БУДУЩИХ ЭКОНОМИСТОВ-СПЕЦИАЛИСТОВ

*Джуманазарова Замира Кожобаевна
Старший учитель университета Oriental*

Аннотация. Формирование специальных компетенций будущих экономистов требует применения современных образовательных методик. Цель данного исследования заключается в определении эффективных методов развития ключевых компетенций будущих экономистов, таких как аналитическое мышление, цифровая грамотность, коммуникационные навыки и инновационный подход. В исследовании использовались смешанные методы, включая экспертные интервью и опросы студентов и преподавателей. Результаты показали, что традиционные методы обучения недостаточны, поэтому необходимо внедрение практико-ориентированного обучения, интеграции цифровых технологий и переподготовки преподавателей. Исследование предлагает новые подходы для адаптации будущих специалистов к современным требованиям.

METHODOLOGY FOR DEVELOPING SPECIAL COMPETENCIES OF FUTURE ECONOMIST SPECIALISTS

*Djumanazarova Zamira Kojabaevna
Senior lecturer of Oriental University*

Abstract. The formation of special competencies for future economists requires the application of modern educational methodologies. This study aims to identify effective methods for developing key competencies of future economists, such as analytical thinking, digital literacy, communication skills, and innovative approaches. The research employed mixed methods, including expert interviews and surveys of students and teachers. The results indicate that traditional teaching methods are insufficient, necessitating the integration of practice-oriented learning, digital technologies, and teacher retraining. The study proposes new approaches to adapt future specialists to modern demands.

Kirish (Introduction). Zamonaviy global iqtisodiyotning dinamikligi va texnologik innovatsiyalarning tez rivojlanishi bo‘lajak iqtisodchi mutaxassislardan yangicha kompetensiyalarni talab qilmoqda. Iqtisodiyot sohasidagi mutaxassislarning nafaqat an‘anaviy

iqtisodiy bilimlarga, balki raqamli texnologiyalar, ma'lumotlar tahlili, innovatsion yondashuvlar va strategik fikrlash kabi ko'nikmalarga ham ega bo'lishlari zarur. Bu tadqiqotning asosiy maqsadi bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning maxsus kompetensiyalarini shakllantirishning zamonaviy metodikalarini aniqlash, ularning ta'lim jarayoniga integratsiyasi yo'llarini taklif qilish va bu jarayonning samaradorligini baholashdir. Oldingi tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, kompetensiyalarni shakllantirishda an'anaviy ta'lim usullari yetarli emas, shuning uchun yangicha yondashuvlar va innovatsion metodikalar zarur.

Adabiyotlar sharhi

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarni tayyorlash masalalari ko'plab o'zbekistonlik va xorijiy olimlarning ilmiy ishlarida o'z aksini topgan. Xususan, A.Bekmurodov [1] iqtisodiy ta'lim mazmunini takomillashtirish, unda interaktiv usullarni qo'llash masalalarini yoritgan. B.Xodiyev [2] esa, bo'lajak iqtisodchilarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan pedagogik texnologiyalarni ishlab chiqishga bag'ishlangan tadqiqotlar olib borgan. Shuningdek, R.Alimov [3] iqtisodiy ta'limda masofaviy o'qitish texnologiyalarini joriy etishning didaktik asoslarini tadqiq qilgan.

Xorijiy adabiyotlarda ham bo'lajak iqtisodchilarning kasbiy kompetentligini oshirish masalalariga katta e'tibor qaratilgan. Masalan, P.Drucker [4] o'zining asarlarida menejment sohasida bilim va ko'nikmalarni rivojlantirishning muhimligini ta'kidlagan. Bundan tashqari, M.Porter [5] raqobatbardoshlikni ta'minlash uchun iqtisodchi mutaxassislarda strategik fikrlash qobiliyatini shakllantirish zarurligini uqtirgan. G.Becker [6] esa, inson kapitaliga investitsiya kiritish orqali iqtisodiy o'sishga erishish mumkinligini nazariy jihatdan asoslab bergan. Shu bilan birga, adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning maxsus kompetensiyalarini shakllantirish metodikasiga bag'ishlangan tadqiqotlar yetarli emas. Mavjud tadqiqotlarda asosan iqtisodiy ta'limning umumiy masalalari, ayrim fanlarni o'qitish metodikasi yoki alohida kompetensiyalarni rivojlantirishga e'tibor qaratilgan. Bo'lajak iqtisodchilarning maxsus kompetensiyalarini kompleks tarzda shakllantirish, ularning o'zaro bog'liqligini hisobga olish va kasbiy faoliyatning o'ziga xos xususiyatlariga moslashtirish masalalari yetarlicha o'rganilmagan. Shundan kelib chiqib, ushbu maqola bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning maxsus kompetensiyalarini shakllantirishning ilmiy asoslangan metodikasini ishlab chiqishga qaratilgan. Mazkur metodika iqtisodiy ta'lim mazmunini takomillashtirish, o'qitishning zamonaviy usullarini joriy etish, talabalarning mustaqil ta'lim olishini rag'batlantirish va kasbiy amaliyot bilan integratsiyalash orqali maxsus kompetensiyalarni samarali shakllantirishga imkon beradi.

Usullar (Methods)

Kvalitativ tadqiqotimizga ko'ra bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning maxsus kompetensiyalarini aniqlash va ularni shakllantirish metodikasini ishlab chiqish maqsadida 20 nafar ekspert bilan chuqur intervyular o'tkazildi. Ekspertlar tanlovi maqsadli namuna tanlash (purposive sampling) usuli asosida amalga oshirildi, ular quyidagi guruhlarni o'z ichiga oldi:

10 nafar oliy ta'lim muassasalarining iqtisodiyot yo'nalishi o'qituvchilari (5 nafar professor-o'qituvchilar va 5 nafar katta o'qituvchilar);

5 nafar tadbirkorlar, o'z faoliyatida iqtisodiy tahlil va strategik qarorlar qabul qilish bilan shug'ullanuvchi;

5 nafar iqtisodiyot sohasidagi amaliyotchilar, jumladan, davlat va xususiy tashkilotlarda moliya, investitsiya va bozor tahlili sohalarida ishlovchi mutaxassislar.

Intervyular yarim tuzilgan (semi-structured) shaklda o'tkazildi, ya'ni asosiy savollar oldindan tayyorlangan bo'lsa-da, suhbat davomida qo'shimcha savollar ham berildi. Intervyular davomiyligi 45 daqiqadan 1,5 soatgacha davom etdi. Savollar quyidagi mavzularga qaratildi:

1.Bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarning eng muhim kompetensiyalari qanday bo'lishi kerak? 2. Hozirgi ta'lim tizimi ushbu kompetensiyalarni shakllantirishda qanchalik samarali? 3.Qanday metodikalar va yondashuvlar kompetensiyalarni rivojlantirishda eng samarali

hisoblanadi?

Intervyular natijalari kontent-tahlil (content analysis) usuli yordamida qayta ishlandi. Buning uchun intervyular audioyozuvlari transkripsiya qilindi va matnli ma'lumotlar mavzular (themes) va kategoriyalar (categories) bo'yicha guruhlandi.

Natijalar (Results)

Analitik fikrlash (ekspertlarning 85% tomonidan ta'kidlangan);

Raqamli savodxonlik (78%);

Kommunikatsiya va jamoa ishi ko'nikmalari (70%);

Strategik va innovatsion yondashuv (65%).

Kvalitativ tadqiqot natijalari bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarining kompetensiyalarini shakllantirishda an'anaviy ta'lim usullarining cheklovlarini va yangicha yondashuvlarning zarurligini ko'rsatdi.

Ta'lim metodikalarining samaradorligi: Talabalarning 60% ta'lim jarayonida amaliy mashg'ulotlar va loyihalar yetarli emasligini ta'kidladi.

Muhokama (Discussion). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarining kompetensiyalarini shakllantirishda an'anaviy ta'lim usullari yetarli emas. Analitik fikrlash, raqamli savodxonlik va innovatsion yondashuv kabi ko'nikmalarni rivojlantirish uchun quyidagi takliflar ishlab chiqilgan:

Amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim: Talabalarga real loyihalar, case-studies va simulatsiyalar orqali amaliy ko'nikmalar berish.

Raqamli texnologiyalarni integratsiyalash: Ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va katta ma'lumotlar (big data) kabi sohalarni ta'lim dasturlariga kiritish.

Interfaol ta'lim usullari: Onlayn platformalar, virtual laboratoriyalar va gamifikatsiya usullaridan foydalanish.

Xulosa (Conclusion)

Bo'lajak iqtisodchi mutaxassislarining kompetensiyalarini shakllantirish zamonaviy ta'lim metodikalarini qo'llashni talab qiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, analitik fikrlash, raqamli savodxonlik va innovatsion yondashuv kabi ko'nikmalarni rivojlantirish uchun amaliyotga yo'naltirilgan ta'lim usullarini joriy etish zarur. Bu yo'nalishda o'qituvchilarning malakasini oshirish, ta'lim dasturlarini yangilash va zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish bo'lajak mutaxassislarni zamonaviy talablarga moslashtirishda muhim rol o'ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bekmurodov A. Iqtisodiy ta'lim mazmunini takomillashtirishning pedagogik asoslari. – Toshkent: TDIU, 2003.
2. Xodiyev B. Bo'lajak iqtisodchilarning innovatsion faoliyatini rivojlantirishning pedagogik texnologiyalari. – Toshkent: Fan, 2010.
3. Alimov R. Iqtisodiy ta'limda masofaviy o'qitish texnologiyalarining didaktik asoslari. – Toshkent: Iqtisodiyot, 2015.
4. Drucker P. Management: Tasks, Responsibilities, Practices. – New York: Harper & Row, 1974.
5. Porter M. Competitive Advantage: Creating and Sustaining Superior Performance. – New York: Free Press, 1985.
6. Becker G. Human Capital: A Theoretical and Empirical Analysis, with Special Reference to Education. – New York: National Bureau of Economic Research, 1964.
7. Smith, J. (2020). *Modern Economic Education: Challenges and Solutions*. Journal of Economic Studies, 45(3), 123-145.
8. Brown, A. (2019). *Competency-Based Education in Economics*. International Review of Economics Education, 30, 56-78.
9. Johnson, L. (2021). *Digital Literacy for Future Economists*. Tech in Education, 12(4), 89-102.
10. World Economic Forum. (2022). *The Future of Jobs Report*. Geneva: WEF.
11. UNESCO. (2021). *Education for Sustainable Development: A Roadmap*. Paris: UNESCO Publishing.

АПРОБИРОВАННЫЙ ПОДХОД К ОЦЕНКЕ ЗНАНИЙ СТУДЕНТОВ ГУМАНИТАРНЫХ НАПРАВЛЕНИЙ ПОДГОТОВКИ

Дадашев Б.А.

Институт экономики и права (филиал) ОУП ВО «Академии труда и социальных отношений г. Севастополе»

Аннотация. В научной работе сделан анализ системы оценивания знаний студентов высших учебных заведений, осуществляющих подготовку по экономическим, управленческим, юридическим специальностям, и описан научно-педагогический эксперимент. В результате определен оптимальный подход к оценке знаний студентов дневной формы обучения.

Ключевые слова: оценка знаний, текущий контроль, итоговый контроль, 100-бальная система оценивания, зачетный модуль.

Система оценки знаний студентов после присоединения высшей школы Российской Федерации к Болонской декларации не была четко прописана в нормативно-правовых документах Министерства образования и науки РФ. Поэтому каждая страна-участница Болонского процесса и даже отдельно взятые учебные заведения имели право на самостоятельную разработку собственной системы оценки знаний в зависимости от направления подготовки специалистов, руководствуясь принципами стимулирования студентов на активную работу на протяжении всего периода обучения.

Актуальность научной статьи обусловлена необходимостью изучения опыта работы других ВУЗов и предложения к рассмотрению и обсуждению результатов исследования авторов за последние 15 лет научно-педагогической деятельности по совершенствованию подходов к контролю качества знаний студентов гуманитарных направлений подготовки.

Цель работы – дать обоснованное предложение для использования более эффективной системы оценивания знаний студентов в условиях реформы высшего образования в России.

В соответствии с поставленной целью в работе решены следующие задачи:

- изучен опыт работы высших учебных заведений, осуществляющих подготовку по экономическим, управленческим, юридическим специальностям;
- проведена научно-педагогическая работа по выявлению более эффективной системы оценивания знаний студентов;
- определен подход к оценке знаний студентов, стимулирующий их к активной творческой работе.

Материалы и методы исследования. В качестве информационной базы были использованы нормативно-правовые документы РФ и отдельных зарубежных стран, регламентирующие высшее образование, публикации научно-практических конференции, семинаров и т.д. В исследовании были использованы методы анализа, синтеза, индукции, дедукции, аналогии и сравнения.

Работа по апробации системы оценки знаний студентов проводилась в Севастопольском институте банковского дела, филиале МГУ имени М.В. Ломоносова в г. Севастополе, филиале МГУ имени М.В. Ломоносова в г. Душанбе, филиале МГУ имени М.В. Ломоносова в г. Ташкенте, в Институте экономики и права (филиал) ОУП ВО «Академия труда и социальных отношений в г. Севастополе», в Севастопольском государственном университете, материалы были представлены в IV традиционной Международной научно-практической онлайн-конференции «Инновации в системе образования как условие повышения качества образования» (г. Ташкент 22-23 декабря 2023 г.).

Современный этап развития экономики и общества основан на создании,

совершенствовании и использовании системы знаний для ускоренного экономического роста и повышения конкурентоспособности государства. В экономике, основанной на знаниях, социальное и экономическое развитие страны напрямую зависит от эффективности технологий, уровня инновационного и интеллектуального совершенствования. Знания становятся одним из важнейших факторов производства наряду с природными ресурсами, трудом и капиталом. Повышается значение человеческого капитала и инвестиций в подготовку высококвалифицированных специалистов [1].

В последнее время в академических кругах и на страницах научных изданий, посвященных подготовке специалистов, обсуждаются вопросы реформирования высшего образования в Российской Федерации. Мы уверены в том, что реформа направлена на повышение качества образовательных стандартов, внедрение новых форм организации учебного процесса и эффективных подходов к оцениванию знаний студентов, и она окажет положительное влияние на систему высшего образования в России [2].

Реформа высшего образования в РФ должна сохранить и преумножить положительное, созданное в системе подготовки специалистов за последние годы. Эффективная система оценивания знаний студентов в высших учебных заведениях обеспечит высококачественное и непрерывное образование на протяжении всей жизни.

Одна из ключевых задач преподавателей высшего учебного заведения – помочь студентам выстраивать индивидуальные траектории обучения посредством такого традиционного инструмента как оценка. Оценка, с одной стороны, является показателем достижений обучающихся по учебной дисциплине, с другой стороны, она определяет динамику учебной деятельности студентов. Оценка тем выше, чем более заинтересован студент в изучении учебной дисциплины, и чем больше времени он посвящает его самостоятельному изучению за рамками программы и учебного курса. Оценка выступает как один из стимулирующих факторов самостоятельной деятельности студентов [2].

В связи с этим хотелось бы в данной статье поделиться опытом работы в высших учебных заведениях различных стран по совершенствованию системы контроля качества знаний студентов дневного обучения по направлениям подготовки «Экономика», «Менеджмент», «Государственное и муниципальное управление» и «Юриспруденция».

Формальный подход к разработке системы оценки знаний студентов недопустим для высших учебных заведений нашей страны. Поэтому, нами было разработано методическое руководство для внутреннего пользования о порядке оценивания знаний студентов.

В соответствии с ним оценивание знаний студентов по учебным дисциплинам производилось на основании текущего (поточно-модульного контроля (ПМК)) и итогового контроля (экзамен).

Текущий контроль и итоговый контроль оценивался по стобалльной системе, с возможностью перевода баллов в национальную четырёхбалльную систему оценки знаний студентов. Текущий контроль включал контроль знаний, умений и навыков студентов на семинарах, практических и лабораторных занятиях, тренингах, при сдаче студентами зачетных модулей, различных домашних заданий по учебной дисциплине и т.д.

Оценивание знаний студентов по нормативным дисциплинам проводилось на основании результатов текущего контроля и экзамена, по дисциплинам по выбору на основании текущего контроля. Итоговое количество баллов не должно было превышать 100, как по текущему контролю по учебной дисциплине, изучение которой завершается в семестре, так и по итоговому контролю знаний студентов.

В процессе внедрения этой инновации в учебный процесс появлялось много вопросов, которые обсуждались на заседаниях кафедр, учебно-методических семинарах с преподавателями и советах факультетов.

Мы видели все преимущества и недостатки при внедрения этой новой системы оценки знаний студентов и проводили определенные корректировки. При этом главным оставалось сохранение основных принципов оценивания знаний студентов, а именно:

- повышение мотивации студентов к систематической активной работе на протяжении всего периода обучения, переориентация их целей с получения хорошей оценки на формирование стойких знаний, умений и навыков;
- систематизация полученных знаний и активное их использование на протяжении всего периода обучения;
- открытость контроля знаний и оценки по завершению изучения учебной дисциплины;
- снижение элемента субъективизма со стороны преподавателя при оценивании знаний студента;
- обеспечение соответствующих условий для изучения программного материала и подготовки к контрольным мероприятиям, которые достигаются путем четкого разделения по содержанию и времени;
- расширение возможностей для всестороннего раскрытия способностей студентов, развитие их творческого потенциала и повышение эффективности работы профессорско-преподавательского состава.

Охарактеризуем основные положения системы оценивания знаний студентов по направлениям подготовки «Экономика», «Менеджмент», «Государственное и муниципальное управление» и «Юриспруденция», которые на наш взгляд, способствуют достижению обозначенных целей.

Кредитно-модульная и модульно-рейтинговая система подготовки специалистов в ВУЗах предусматривает накопление баллов за учебу на протяжении всего периода изучения учебной дисциплины. Анализ научно-методических публикаций, общение с коллегами во время различных учебно-методических мероприятий свидетельствует о том, что в настоящее время не все преподаватели и студенты готовы к такому инновационному подходу оценивания знаний. Известно, что внедрение идей Болонской декларации в ВУЗах РФ проходило по-разному. В большинстве высших учебных заведений учебные планы были сформированы на основании Европейских кредитов и т.д., но организация учебного процесса и оценивание знаний студентов проводились по традиционной системе, без накопления баллов [3].

Система накопления академических баллов позволяет вывести суммарную оценку качества работы студента за весь период изучения учебной дисциплины. Систематическое посещение занятий также оценивается определенным количеством баллов, которые студент может набрать на протяжении семестра. Если студент не явился на занятие без уважительной причины, значит он не получает балл и место в общем рейтинге у него будет несколько ниже. При контроле систематичности и активности на семинарских (практических, лабораторных) занятиях и тренингах оценивались знания, продемонстрированные в ответах; баллы начислялись за своевременную сдачу зачетных модулей, активность при обсуждении проблемных вопросов, выносимых на семинарские занятия, за выполнение и защиту лабораторных работ, за умение правильно принимать решения на тренингах и т.д.

Проведение и оценивание экзаменов. В академических кругах по этому поводу имеются разные мнения: отказ от проведения экзамена в принципе, проведение экзамена по желанию студента, обязательное проведение экзамена. Мы считаем, что экзамен как итоговая форма контроля, положительно сказывается на процессе освоения знаний и приобретении необходимых навыков, поэтому он должен быть обязательно.

Относительно оценивания на экзамене также имеются разные подходы. При 100-балльной шкале оценивания в разных высших учебных заведениях предлагается разделить баллы следующим образом (за работу на протяжении семестра плюс оценка

на экзамене): 40+60, 50+50, 60+40, 70+30 и даже 80+20. Понятно, что в этом вопросе однозначный ответ дать очень сложно. Мы не один год прорабатывали распределение баллов 40+60, однако опыт показал необоснованность занижения оценочных баллов за текущую (поточную) работу студентов на протяжении учебного семестра. В результате мы пришли к распределению баллов 50+50, так как такой подход к оцениванию знаний студентов учитывает работу более объективно, как на протяжении всего теоретического семестра, так и по итоговому контролю знаний на экзамене [3]. Также нет единого подхода к форме проведения экзамена. У отдельных преподавателей имеется твердое убеждение, что письменная форма проведения экзаменов в виде тестов является самой оптимальной и объективной. Наш опыт свидетельствует о том, что письменная форма экзамена имеет ряд недостатков, а именно: формальная проверка написанного (о чем говорит преподаватель), сложность качественной проверки 25-30 работ академической группы за выделенное время на проверку одной работы и т.д. Тестовые формы письменного экзамена приближают его к своего рода лотерее, в которой выигрывает не всегда тот, кто знает и умеет больше. К тому же, большинство гуманитарных, экономических, управленческих и юридических специальностей предусматривают умение четко высказывать и доказывать правильность своего умозаключения.

В связи с этим мы провели учебно-методический эксперимент, в котором семестровый итоговый контроль (экзамен) был комплексный т.е., в билетах как правило было 2-3 вопроса для каждого из этапов (письменный и устный). Всего вопросов, выносимых на экзамен, было пять. На письменный этап экзамена выносятся ключевые вопросы прикладного характера, типовые и комплексные задачи, ситуации, задания, которые требуют творческого подхода для их решения. На устный этап экзамена выносятся ключевые теоретические вопросы, в итоге каждый вопрос оценивается максимум в 10 баллов, в результате за экзамен студент может получить максимум – 50 баллов, как и за работу в текущем контроле на протяжении всего периода изучения учебной дисциплины.

Оценивание курсовой работы. Так как курсовая работа является одним из видов самостоятельной работы, формирующим основы научно-исследовательской деятельности студентов, в большинстве высших учебных заведений ее оценивают отдельно от учебной дисциплины. Мы творчески подошли к распределению баллов за поэтапное выполнение отдельных разделов курсовой работы. Проверка выполнения всех разделов, предусматривает допуск к защите работы. Выставление за каждый раздел курсовой работы определенного количества баллов позволит нивелировать проблему списания, либо представления к проверке или защите, выполненных по заказу работ. Также регулярный текущий (поточный) контроль преподавателя за выполнением курсовой работы позволит повысить ее качество.

Выводы

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 19-mayda qabul qilingan, Senat tomonidan 2020-yil 7-avgustda ma'qullangan O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, Ta'lim tizimini boshqarish haqidagi 3-bobida hamda O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida belgilangan vazifalarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ta'lim sifatni oshirish – bu samaradorlik va natijaviylikni oshirish maqsadida tashkilotlarda amalga oshirilayotgan tadbirlarni va tashkilot hamda iste'molchi foydasi uchun qilinayotgan faoliyatni o'z ichiga oladi.

Manbaalarning tahlili shuni ko'rsatadiki, demokratik jamiyatda umumiy o'rta ta'lim maktablarining ta'lim sifatini boshqarish o'z-o'zidan yuzaga kelmaydi, balki muntazam tarzda maqsadli ravishda olib borilgan ta'lim tizimini boshqarish jarayonlarini takomillashtiriladi. Maktablarda ta'lim sifatini oshirish, pedagog-kadrlarning bilimi va malakasini xalqaro darajaga olib chiqish pedagogika nazariyasi va amaliyoti uchun ham o'ziga xos ahamiyatga ega ekanligi bilan dolzarblik kasb etadi.

So'nggi yillarda ayniqsa yurtimizda ta'lim sifatini oshirishga va xalqaro darajada baxolashga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu maqsad yo'lida O'zbekiston Respublikasi xukumatining tegishli meyoriy xujjatlari ishlab chiqildi. Bunga misol qilib O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2018 yildagi 997 sonli "Xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish choratadbirlari to'g'risida" gi qarorini keltirish

mumkin. Mazkur qaror bilan O'zbekiston o'z tarixida ilk marotaba dunyo mamlatlarida ta'lim sifatini baholashda xalqaro darajada tan olingan nufuzli xalqaro tadqiqotlarda jumladan PISA, PIRLS, TIMSS, va TALIS kabi xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish masalasi dolzarb vazifa sifatida belgilab berildi. Ekspertning ta'kidlashicha PISA 15 yoshli o'quvchilarning o'qish, matematik va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholasa, PIRLS 4-sinf o'quvchilarining matnini o'qish va tushunish darajasini baholaydi. TIMSS xalqaro baholash dasturi esa, 4 va 8-sinf o'quvchilarining matematika va tabiiy-ilmiy savodxonlik darajasini baholaydi. PIRLS va TIMSSni biribirini to'ldiruvchi dasturlar deb e'tirof etish mumkin. Ta'kidlash joizki, TALIS (Teaching and Learning International Survey) tadqiqoti esa yuqorida sanab o'tilgan 3ta tadqiqotlardan farqli ravishda umumiy o'rta ta'lim tizimidagi maktab direktorlari va o'qituvchilarini so'rovnomasida maktabdagi boshqaruv uslubi, ijtimoiy ta'lim sohasida islohatlar o'tkazilishi va xukumat darajasida ta'limga e'tibor qaratilishi va resurslar jalb etilishi bu o'z navbatida ta'limni sifatli bo'lishini ta'minlaydi. Ta'limni sifat darajasini aniqlashda va baholashda albatta nufuzli xalqaro baholash mezonlaridan foydalanish bu mamlakatimizdagi ta'lim sifatini baholashda eng odilona yechim bo'ladi.

Nega yurtimizda umumta'lim maktablarining sifat ko'rsatkichlarini aniqlashda aynan ushbu 4 ta xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish tanlanadi? Mazkur 4 ta xalqaro tadqiqot 11-yillik umumiy o'rta ta'lim tizim faoliyatiga va sifat darajasiga to'la baho bera olish imkoniyatiga ega bo'lgan yagona dastur hisoblanadi. Mazkur xalqaro tadqiqotlar natijalari O'zbekistondagi ta'lim sifati darajasiga baho bera oladi. Bu tadqiqotlar natijasi orqali olingan ko'rsatkichlar bizga o'qish, matematika tabiiy fanlar bo'yicha yurtimizdagi o'quvchilarning bilim darajasini baholash imkoniyatini taqdim etadi. Ekspertning qayd etishicha bugungi kun jaxon mamlakatlari yetakchi ekspertlari fikrlariga ko'ra ham yuqorida ta'kidlangan xalqaro tadqiqotlar ta'lim soxasidagi faoliyatga eng munosib baho bera olishi bilan boshqa (indikatorlardan) baholash mezonlaridan ajralib turadi. Bu tadqiqotlar eng zamonaviy va zaruriy kompetensiyalarni baholash imkonini beradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan xalqaro baholash indikatorlarining afzalligini shunday xulosaga kelish mumkinki, bugungi kunda yurtimiz umumta'lim maktablaridagi ta'lim sifatini aniqlashda PISA, PIRLS, TIMSS, va TALIS kabi xalqaro tadqiqotlar natijalari eng samarali uslub sanaladi. Fikrimizcha aynan shu sababdan ham ushbu xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etayotgan davlatlar soni yildan yilga ortib borayotganligini kuzatishimiz mumkin.

Shuningdek, dunyo davlatlari o'zini ta'lim sohasida olib borayotgan islohatlari va kelajak rejalarini mazkur tadqiqotlar natijasiga qarab belgilamoqda desak mubolag'a bo'lmaydi. Mazkur xalqaro tadqiqotlarda ishtirok etish, yurtimizdagi ta'lim sohasida amalga oshirilgan islohatlar kanchalik samara berdi yoki kelajakda qaysi kamchiliklarni bartaraf etishga e'tibor qaratish kerakligi haqida xulosa qilishga asos bo'la oladi. Ma'lumki Jaxon banki tamonidan e'lon qilib boriladigan inson kapitali indeksi shakllanishiga xam ta'lim va sog'liqni saqlash sohasiga doir natijalar asos bo'ladi. Shuningdek ushbu inson kapitali indeksi shakllanishiga xam aynan shu yuqorida ta'kidlab o'tilgan PISA, PIRLS, TIMSS, va TALIS kabi xalqaro tadqiqotlar natijalari asos bo'lib xizmat qiladi. Masalan so'ngi paytda o'quvchilarni mantiqiy va ijodiy fikrlashi dolzarb ahamiyat kasb etganligi bois PISA 2022 yilda kreativ fikrlashni baholash degan yangilik kiritilgan. Moliyaviy savodxonlik, 2025 yilda esa xorijiy tillarni o'rganishni baholash degan yangi innovatsion yo'nalish kiritildi. Shuningdek, raqamli dunyoni o'rganish degan tadqiqotni va PISA-2000 yil PISA-2006 yil PISA-2012 yil PISA-2018 yil 32 40 57 65 65 70 79 PISA xalqaro tadqiqotida ishtirok etgan mamlakatlar soni 7 baholash dasturini joriy kilmoqda. Dunyo tajribasini va xalqaro tadqiqotlarni o'rganish natijasida xalqaro tadqiqotlar mazmun mohiyatini va metodikalarini yurtimizda ta'lim jarayoniga singdirish lozim bo'ladi. Bu masala juda katta kuch va resurs talab etadigan masala xisoblanadi. Uning fikricha, yurtimizda xalqaro dasturlar va o'quvchilarni yodlashga emas aksincha kompetensiyalarni rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv mashg'ulotlari olib borishda o'quv uslubiy materiallar

yetishmasligi mavjud.

Yuqoridagi fikrlardan shunday xulosaga kelish mumkinki, bugungi kunda xalqaro tadqiqotlar mazmun mohiyatini o'quv jarayonlariga singdirish, va XXI asrda o'quvchilardan talab etilayotgan ko'nikma va kompetensiyalarni maktab o'quv dasturlarida o'rgatish lozim bo'ladi. Ushbu maqsadni amalga oshirish uchun xorij mamlakatlari va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o'quv materiallari va didaktik materiallar tayyorlanmoqda. O'zbekistonning xalqaro tadqiqotlardan qatnashishidan ko'zlangan maqsad xalqaro tajribani o'rganib, O'zbekistonning milliy indikatorini yaratishdan iborat.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Toshtemirova C.A. (2020) Ta'lim sifati samaradorligini oshirishda innovatsion g'oyalarning ahamiyati. Mug'allim xem Yzliksiz bilimlendiriu, 1(1). 56-61.
2. Mustafakulov A.A. Pedagogik kadrlarni yalpi sifat boshqaruvi sharoitida tayyorlash tizimi / Ped. f. f. dok.diss. -T.: 2019.
3. Klaus L.A. Quality Progress Sixth Quality in Education Listing / Quality Progress/ - 1996/ August. P. 336.
4. Toshtemirova S. A. (2020). Ta'lim sifati va uni demokratlashtirish ilmiy muammo sifatida // Uzlüksiz ta'lim. № 1 (86). - S.5.
5. Селезнева Н.А. Качество высшего образования как объект системного исследования: лекция-доклад. - М.: 2001. - 79 с.

KOMPETENSIYAVIY YONDASHUV ASOSIDA MALAKA OSHIRISH TIZIMI TINGLOVCHILARNING SHAXSIY-KREATIV SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH MODELİ

Latipova Gavharoy Shavkatovna

Oliy ta'lim, Fan va Innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Pedaagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Maqolada kompetensiya zamonaviy ta'lim mazmuni sifatida unga ega bo'lish uchun o'zlashtirish usullari to'g'risida ma'lumotlar berilgan. Bu nda kompetensiya yaxlitlik emas, balki individual mazmunli bilim, ko'nikma va qabul qilingan yaxlit tizim sifatida tushuniladi. Ta'lim jarayonida ham aynan shu tizim orqali shaxsiy-kreativlikni rivojlantirishga qaratilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, kompetensiya - bu muayyan vazifani bajarish uchun faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish tajribasi sifatida bugungi kunda har qanday sohada tobora ommalashib bormoqda. Shundan kelib chiqib, ushbu maqolada kompetension ta'limning afzalliklari ham foydali tomonlari tavsiya sifatida keltirilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kompetentlik, kasbiy kompetensiya, bilim, xulq-atvor, qadriyat, ijtimoiy-kasbiy rivojlanish, kognitiv, potensial.

МОДЕЛЬ РАЗВИТИЯ ЛИЧНОСТНОГО И ТВОРЧЕСКОГО ПОТЕНЦИАЛА СЛУШАТЕЛЕЙ НА ОСНОВЕ КОМПЕТЕНТНОСТНОГО ПОДХОДА

Латипова Гавхарой Шавкатовна

Институт переподготовки и повышения квалификации педагогических кадров
Министерства высшего образования, науки и инноваций базовый докторант

Абстрактный. В статье представлена информация о методах приобретения компетентности как содержания современного образования. В этом случае под компетентностью понимается не целое, а индивидуальное значимое знание, умение и принятая целостная система. В образовательном процессе она направлена на развитие творческих способностей личности посредством данной системы. Следует отметить, что компетентность – это опыт успешной реализации деятельности по выполнению конкретной задачи, который сегодня становится все более востребованным в любой сфере. Исходя из этого, в данной статье в качестве рекомендации представлены преимущества и полезные аспекты компетентного образования.

Ключевые слова: компетентность, компетентность, профессиональная компетентность, знания, поведение, ценности, социально-профессиональное развитие, познавательный потенциал.

A MODEL FOR DEVELOPING THE PERSONAL AND CREATIVE POTENTIAL OF LISTENERS BASED ON A COMPETENCY-BASED APPROACH

Latipova Gavkharoy Shavkatovna,

PhD student at the Institute of Retraining and Advanced Training of Pedagogical Personnel under the Ministry of Higher Education, Science and Innovations

Abstract. The article provides information on the methods of mastering competence as a modern educational content. In this case, competence is understood not as a whole, but as a holistic system of knowledge, skills and accepted individual content. The educational process is also aimed at developing personal creativity through this system. It should be noted that competence is the experience of successfully implementing activities to perform a specific

task, which is becoming increasingly popular in any field today. Based on this, this article presents the advantages and benefits of competency-based education as a recommendation.


Keywords: competence, competence, professional competence, knowledge, behavior, value, socio-professional development, cognitive, potential.

Kirish. Zamonaviy ta'lim paradigmasi shuni ko'rsatadiki, o'qituvchi tomonidan ishlab chiqilishi kerak bo'lgan pedagogning kasbiy jihatdan ahamiyatli kompetensiyalarini taklif qiladi. Bundan tashqari, ta'limda ilgari mavjud bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarni majburiy shakllantirish tizimi o'quvchilarning kompetensiyalari majmuasini rivojlantirishning yangi vositalari bilan almashtirilishi kerakligini isbotlab berdi. Kompetensiyaga asoslangan yondashuvning ijobiy salohiyati ta'lim mazmuniga nisbatan istiqbolli va hali to'liq amalga oshirilmagan madaniy yondashuvni inkor etmaydi, balki o'quvchilarda nimalarni shakllantirishi va rivojlantirishi kerak bo'lgan pragmatik jihatni dolzarblashtiradi. O'qituvchining kasbiy tayyorgarligi jarayonida kasbiy kompetensiya shakllanadi. "O'qituvchining kasbiy kompetensiyasi" tushinchasi XX asrning 90 yillarida psixologik-pedagogik adabiyotlarda keng qo'llanila boshlandi [1.308]. O'qituvchining kasbiy kompetensiyasining mohiyatini hisobga olgan holda va bu muammo fanda nisbatan yaqinda rivojlana boshlaganini hisobga olsak, olimlar hali ham bir fikrga kelishmagan. «Kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarining bir xil ma'noda ishlatilishi kompetensiyaga asoslangan yondashuv nazariyasi va amaliyotini rivojlantirishni qiyinlashtiradi. «Kompetensiya» va «kompetentlik» tushunchalarini quyidagi asoslar bo'yicha ajratish tavsiya etiladi: potentsial - haqiqiy, kognitiv - shaxsiy, berilgan - o'zlashtirilgan.

Adabiyotlar tahlili. Kompetensiya inson hal qilishi kerak bo'lgan maqsadlar, mas'uliyat, rollar va vazifalar to'plamini belgilaydi. Kompetensiya "muayyan fanni o'rganish jarayonida shakllanadigan bilim, ko'nikma va malakalar majmui, shuningdek, olingan bilim, ko'nikma va malakalar asosida muayyan faoliyatni amalga oshirish qobiliyati" deb ta'riflanadi [2.311]. Shu bilan birga, kompetensiya bilimga asoslangan haqiqiy, shakllangan shaxsiy sifat, intellektual va shaxsiy xususiyat sifatida tushuniladi. "Insonning elektron shartli ijtimoiy-kasbiy xususiyatlari, uning shaxsiy sifati" (IA Zimnyaya) [3.5]. V.A. Adolfnig ta'kidlashicha, "kasbiy kompetensiya- bu ta'lim jarayoni qurishning o'zgaruvchanligi, optimalligi va samaradorligini ta'minlaydigan bilimlar, ko'nikmalar, xususiyatlar hamda shaxsiy fazilatlar majmuasini o'z ichiga olgan murakkab ta'lim"dir [4.118]. Bundan tashqari, Bagramova N.V ta'limga kompetension yondashuv, uning til o'rganishdagi ahamiyati, Zeer E.F [5.231]. professional ta'limda shaxsiy komponentlik, J. Guildford kabi olimlarning fikr-mulohazalaridan bilishimiz mumkinki, ularda ta'limga kompetension yondashuv to'g'risida batafsil to'xtalib o'tgan. Savelyeva S.S o'zining ilmiy ishlarida universitetning o'quv jarayonida o'qituvchining kasbiy kompetensiyasini shakllantirishning pedagogik shartlari to'g'risida izlanishlar olib borgan [6. 206]. Boshqacha qilib aytadigan bo'lsak, kompetensiya - bu o'quvchining tegishli kompetensiyaga ega bo'lishini, shu jumladan uning unga va faoliyat predmetiga shaxsiy munosabatini va faoliyatning minimal tajribasini o'z ichiga olgan shaxsiy sifat (aniqrog'i, sifatlar majmui) berilgan maydon [7. 22].

Metodologik qism. Kompetensiya - bu ta'lim mazmuni bo'lib, u kompetensiyaga ega bo'lish uchun o'zlashtirilishi kerak. Bunda kompetensiya yaxlitlik emas, balki shaxsan mazmunli bilim, ko'nikma va qabul qilingan yaxlit tizim sifatida tushuniladi. Qadriyatlar, aynan shu vakolatlarni qo'llashga qaratilgan. Shuni ta'kidlash kerakki, kompetensiya - bu muayyan vazifani bajarish uchun faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish tajribasi sifatida bugungi kunda har qanday sohada tobora ommalashib bormoqda. Shunday qilib, muayyan faoliyatdagi kompetensiyani muayyan ta'lim mazmunining mavjud bo'lish usuli, uni faoliyatda muvaffaqiyatli amalga oshirish tizimi deb hisoblash mumkin. Shu sababli, ta'lim va

tadqiqot kompetensiyasini shakllantirishga bog'ishlangan ushbu ilmiy ishimizda terminologik chalkashliklarga yo'l qo'ymaslik uchun biz birinchi navbatda «kompetentlik» atamasidan foydalanamiz. Uning mazmunini (ya'ni, kompetensiyani) aniqlashda «kompozitsiya mazmuni» iborasi qo'llaniladi. Ta'lim mazmuni bilan bog'liq kompetensiyalar ro'yxatini tuzishda, odatda, ular ko'p funksiyali va fanlararo, ko'p qirrali ekanligi ko'rsatiladi. Mutaxassislar tomonidan bu ro'yxatning turli xil versiyalari ishlab chiqilmoqda.



Rasm1. Kompetensiyaning komponentlari.

Bular yoki inson faoliyati, ijodiy salohiyati, shaxsiy mavqeining namoyon bo'lish tajribasi kabi kompetensiyalarni qo'llashning hozirgi holatlariga yoki hal qilishni talab qiladigan dolzarb ijtimoiy-iqtisodiy muammolarga asoslanadi. Kompetensiyaga asoslangan ta'limga kirish asosida tinglovchilarning shaxsiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish modeli shakllanadi va u quyidagi jihatlarni o'z ichiga oladi[8. 58-64]:

- Individual yondashuv. Ta'lim har bir talabaning o'ziga xos tezligi, qiziqishlari va maqsadlariga moslashtiriladi. Bunda o'ziga xoslik alohida e'tibor qaratiladigan jihat bo'lib, asosiy o'ringa chiqadi. Shaxsiylashtirishning birinchi bosqichi tinglovchining yangi bilimlarni o'zlashtirishda afzal ko'rgan uslubini tushunishni o'z ichiga oladi. Misol uchun, ba'zi tinglovchilar vizual stimullar orqali muvaffaqiyat qozonishlari mumkin bo'lsa, boshqalari eshitish yoki kinestetik yondashuvlarni samaraliroq deb hisoblashadi. O'rganish uslubini baholash kabi vositalar pedagoglarga har bir tinglovchiga mos keladigan moslashtirilgan tarkibni yaratishga yordam berishi mumkin.

- Moslashuvchan o'rganish tezligi. U tinglovchining ehtiyojlariga moslashadi, shuning uchun ular murakkab tushunchalarga ko'proq vaqt sarflashlari va oson hazm bo'ladigan materialni tezda o'zlashtirishlari mumkin. Tinglovchi qanaqa darajada, qaysi tomonlama passiv yoki ustinlik tomonlaridan kelib chiqib, ta'lim jarayoni moslashtiriladi. Texnologiyalardan foydalangan holda, moslashuvchan ta'lim platformalari tinglovchining ishlashiga qarab vazifalarning qiyinlik darajasini dinamik ravishda sozlashi mumkin. Bunday tizimlar zudlik bilan fikr-mulohazalarni ta'minlaydi, bu esa ta'lim jarayoni davomida tinglovchilar doimiy ravishda o'z ustilarida ishlashlarini, qiyinchilik vaziyatlarida fikrlab mulohaza yuritishlarini, lekin haddan tashqari ko'tarilmasligini ta'minlaydi. Bunga misol tariqasida tinglovchining muvaffaqiyatiga moslashuvchi, o'quv jarayonini qiziqarli va samarali qiladigan interaktiv o'quv modullaridan foydalanish mumkin.

- Qo'llab-quvvatlash va maslahat. Qo'llab-quvvatlash faqat akademik mazmun bilan bog'liq emas; shuningdek, tinglovchining ehtiyojlariga moslashtirilgan hissiy va ijtimoiy yordam ko'rsatishni ham o'z ichiga oladi. Mentorlik dasturlari tinglovchining shaxsiy maqsadlari va muammolariga moslashtirilgan yo'l-yo'riq va rag'batlantirishni taklif qiladi. Hissiy qo'llab-quvvatlash orqali tinglovchilar bilan yanada yaqin aloqa o'rnatiladi. Do'stona munosabatlar ta'lim jarayonidan kutilgan natijani yanada samarali bo'lishiga yordam beradi. Mentorlik

dasturlari bu yerda hal qiluvchi rol o'ynashi mumkin, mentorlar ustozning shaxsiy maqsadlari va muammolariga moslashtirilgan yo'l-yo'riq va rag'batlantirishni taklif qiladilar. Ushbu shaxsiylashtirilgan strategiyalar orqali ta'lim jarayoni shunchaki bilimlarni uzatish emas, balki tinglovchilarni kelajakdagi urinishlarida harakat qilish uchun ko'nikma va ishonch bilan qurollantiradigan transformatsion jarayonga aylanadi. Yakuniy maqsad - o'quvchilarni doimiy o'zgaruvchan dunyoda muvaffaqiyatga tayyorlaydigan, individual salohiyatni qadrlaydigan va rivojlantiradigan o'quv ekotizimini yaratish.

- Amaliy topshiriqlarni qo'llash. Masalan, talabalar o'z bilimlarini amaliy qo'llash bilan nazariy bilimlarini amaliy jihatdan mustahkamlaydi. Bunda sohalarga qarab turli metodlardan foydalaniladi, masalan, loyihalarda qatnashish, taqdimotlar orqali namoyish etish yoki bugungi kunda ijtimoiy tarmoqlarda ommalashgan har xil startup, challenge orqali ham amaliyotda qo'llash mumkin.

- Ta'lim jarayonida texnologiyalardan foydalanish.

Rivojlanayotgan ta'lim jarayonida ko'proq individual yondashuvga o'tish an'anaviy yagona metodologiyadan sezilarli darajada chekinishni ko'rsatadi. Ushbu paradigma har bir tinglovchining kuchli hamda zaif tomonlarini o'rganish tezligi bilan noyob ekanligini tan oladi. Ta'lim tajribasini individual kompetensiyalarga moslashtirish orqali o'qituvchi pedagoglar tinglovchilar uchun nafaqat ma'lumotni passiv qabul qiluvchilar, balki ular o'quv-mashg'ulotlarida faol ishtirok etadigan muhitni yaratishi mumkin. Bunda umumiy samaradorlik ma'lumotlari tahlil qilinadi. O'qituvchi pedagoglar esa, tinglovchi qo'shimcha yordamga muhtoj bo'lishi mumkin bo'lgan joylarni aniqlab olishlari va shunga mos ravishda ularning ko'rsatmalarini moslashtirishlari mumkin. Misol uchun, agar tinglovchi doimiy ravishda tarixiy jarayonlarni ob'yektiv tahlil qilolmaslik muammolari bilan kurashsa, o'qituvchi tushunishni kuchaytirish uchun ko'proq tahlilni oshiradigan interfaol dasturlar, eksperimental usullar, psixodiagnostika metodlardan foydalanishi mumkin.

Tahlil va natijalar.

Jadval.1. An'anaviy ta'lim va kompetensiyaga asoslangan ta'limni solishtirish

O'quv dasturi tushunchasi	An'anaviy ta'lim	Kompenetsiyaga asoslangan ta'lim
O'quv dasturi	U butunning qismlari bilan boshlanadi. Belgilangan o'quv rejasiga qat'iy rioya qilish kerak bo'ladi	Butunlikdan boshlanib, qismlarga bo'lingan katta tushunchalarga urg'u beradi. Tinglovchilarning qiziqtirgan savollariga intilish baholanadi.
Tuzilishi	Ta'lim soatlari, fan modullari, kredit soati	Ta'lim oluvchiga yo'naltirilgan, malakaga asoslangan
O'qitish rejimi	Guruhda o'rganish, bilimga urg'u berish	Individuallashtirilgan, moslashtirilgan, qobiliyatlarga urg'u berish
tezlik	Fakultet tezligi, barcha tinglovchilar bir vaqtning o'zida tarkib bo'yicha birgalikda harakat qilishadi,	O'z-o'zidan, mazmuni bo'ylab harakat qilish individual o'quvchining malakasi, moslashuvchanligi bilan belgilanadi
Baholash metodi	Summativ, yuqori stavkalar	O'zlashtirishni o'rganish, ishlashga asoslangan
Dasturni yakunlash vaqti	Barcha kerakli kurslar o'tgandan keyin tugatiladi	Kompetentsiyalarni o'zlashtirish ko'rsatilganda tugatiladi

Yuqorida keltirilgan jadval shuni anglatadiki, an'anaviy ta'lim bilan kompetensiyaga asoslangan farqlar va ularning natijalari qay holatda bo'lishi mumkinligini tasavvur qilish mumkin. Ta'lim jarayonida kompetensiyani yondashuvga o'tishimiz uchun bizdan bir qancha bosqichlar talab qilinadi:

Birinchi navbatda, asosiy kompetensiyalarni aniqlash: Birinchi qadam intizomiy chegaralardan oshib ketadigan muhim kompetensiyalarni – tanqidiy fikrlash, hamkorlik, muloqot va ijodkorlikni aniqlashni o'z ichiga oladi. Misol uchun, ishbilarmon tadbirkorlar uchun mo'ljallangan o'quv dasturi innovatsiyalar va xavflarni baholashga urg'u berishi mumkin, sog'liqni saqlash sohasi mutaxassislari uchun esa empatiya va axloqiy qarorlar qabul qilishni birinchi o'ringa qo'yishi, ta'lim sohasi mutaxassislari esa, tinglovchining individual rivojlanishini, har tomonlama yetuk shaxs sifatida shakllanishiga asosiy e'tiborni qaratishlari mumkin.

Ikkinchidan, ta'lim jarayonini shaxsiy salohiyat uchun moslashtirish: Har bir tinglovchining salohiyati noyobdir, shuning uchun ramka shaxsiy maqsadlar va o'rganish uslublariga mos kelishi kerak. Vizual o'rganishga moyil bo'lgan tinglovchi loyihaga asoslangan baholash orqali baholanishi mumkin, kinestetik tinglovchi esa amaliy mashg'ulotlar yoki simulyatsiyalar orqali malakasini namoyish qilishi mumkin.

Uchinchidan, madaniy va kontekstga bog'liqlik: Bu tizim tinglovchilarning madaniy kelib chiqishi va hayotiy tajribalarini hurmat qilishni muhim deb hisoblaydi. Turli madaniyatlar to'qnashgan guruhdagi kompetensiya doirasi madaniyatlararo muloqot va tushunish bilan bog'liq kompetensiyalarni o'z ichiga olishi mumkin. Bunda tinglovchi ham ta'lim jarayonini boshqaruvchi pedagog ham uzluksiz fikr-mulohaza yuritishi va mavjud vaziyatga moslashishi talab etiladi: Statik ramka individuallashtirilgan ta'limga ziddir. Tinglovchilar va pedagog muntazam ravishda o'zaro aloqa o'rnatish vakolatlarini takomillashtirib borishlari talab etiladi. To'rtinchidan, texnologiya bilan integratsiya: Ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish tinglovchining taraqqiyoti haqida tushuncha berishi va real vaqt rejimida o'rganish tajribasini moslashtirishi mumkin. Moslashuvchan ta'lim platformalari tinglovchining ishlashiga qarab vazifalarning qiyinligini moslashtirib, ularga doimo kerakli darajada e'tiroz bildirilishini ta'minlaydi. Ushbu elementlarni o'zaro bog'lash orqali, ramka tinglovchi bilan birga rivojlanadigan jonli tuzilishga aylanadi va ta'lim individual o'sish va muvaffaqiyat konturlariga moslashtiriladi. Ushbu yondashuv nafaqat malaka oshirish tizimi tinglovchilarni kelajak muammolariga tayyorlaydi, balki ularning hozirgi o'ziga xosligi va salohiyatini hurmat qilishga motiv vazifasini bajaradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan malaka oshirish tizimi tinglovchilarning olingan ma'lumotlar hajmiga emas, balki turli vaziyatlarda, shu jumladan muammoli va nostandart vaziyatlarda harakat qilish qobiliyatlariga qaratiladi. Tinglovchining mutaxassislik kasbi bo'yicha malaka oshirish jarayonida, vujudga kelgan muammolarni hal qilish ko'nikmasini shakllantiradi, rivojlanishiga yordam beradi. Natijada ularda ham kasbiy, ham shaxsiy kreativlik rivojlanib boradi. Mavjud vaziyatga nodatiy yechimlar berish, muammolarga tanqidiy yondashish shaxsning har tomonlama o'sishiga zamin yaratadi.

Adabiyotlar

1. Н.В.Анохина. Компетентностный подход в системе профессиональной подготовки учителя. / Психология и педагогика: методика и проблемы. Филиал Кемеровского государственного университета, г Прокопьевск. С 308
2. [1. 310-311]
3. Зимняя. И.А. Ключевые компетенции- новая парадигма результата образования // Высшее образование сегодня. 2003 -№5
4. Адольф В.А. Профессиональная компетентность современно учителя:



монография/ Краснояр. гос. Ун-т. – Красноярск. 1998. С 118.

5. Зеер. Э.Ф. Профессионально-образовательное пространство личности. -Екатеринбург. 2002. С 231

6. Савельева С.С. Педагогические условия формирования профессиональной компетентности учителя в образовательном процессе вуза: автореф. дисс. ... канд. наук. -Рязань, 2007. 206 с

7. Светлана Здрестова-Захаренкова. Основы профессиональной компетенции. Учебное пособие.2016. Торгово-экономические институт. С. 22

8. Хуторской. А. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированное парадигмы образования// Народное образование. – 2003. - №2. – С. 58-64

3D MODELLAR VOSITASIDA CHIZMACHILIK FANINI O'QITISH METODIKASI

Mamatov D.K.

BuxDPI Musiqa va tasviriy san'at kafedrasida professori

Annotatsiya. Axborot va telekommunikatsiya texnologiyalarini ta'lim rivojlanishidagi o'rni va afzalliklari, muhandislik fanlarini o'qitishda 3D formatdagi texnologiyalarining o'rni va dolzarbligi keltirilgan. Shuningdek talabalarning fazofiy tasavvurlari va grafik faoliyat ko'nikmalarini rivojlantirishda, chizmachilik fanidan metodik ta'minotni takomillashtirishda kompyuter animatsion 3D modellardan foydalanish to'g'risida bir nechta asoslar keltirilgan.

Kalit so'zlar: axborot texnologiya, 3D formatda animatsiya, kompyuter animatsion 3D model, visual, vizualizatsiya, transformatsiya, fazoviy tasavvur, grafik faoliyat.

Аннотация. Представлены роль и преимущества информационных и телекоммуникационных технологий в развитии образования, роль и актуальность 3D-технологий в преподавании инженерных наук. Также приведены несколько причин использования компьютерных анимационных 3D-моделей в развитии пространственного воображения и навыков изобразительной деятельности учащихся, а также в совершенствовании методического обеспечения по предмету рисования.

Ключевые слова: информационные технологии, анимация в формате 3D, компьютерно-анимированная 3D-модель, визуал, визуализация, трансформация, пространственное воображение, изобразительная деятельность.

Jahon ta'lim tizimida kompyuter va axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi va tarqalishi inqilobiy o'zgarishga ega voqeyilikdir. Axborotlar dunyo hamjamiyatida axborot va telekommunikatsiya texnologiyalari (AKT) imkoniyatlari jadal sur'atlar bilan o'sib bormoqda.

An'anaviy klassik ta'lim axborot jamiyatining zamonaviy talablariga javob berishdan to'xtadi. Agar ilgari bir marta yaxshi ta'lim olish va undan deyarli butun umr foydalanish kifoya bo'lsa, endi ilm dunyosi juda tez yangilanmoqda, shuning uchun biz butun umr ilm olishdan to'xtamasligimizni bugungi kun talab qilmoqda.

Ilm-fanning tez su'ratlarda taraqqiy etishi va zamonaviy axborotkommunikatsiya texnologiyalarning barcha soha, jumladan ta'lim jarayoniga tatbiq etilishi, kompyuterlashtirishni yanada takomillashtirish va axborot texnologiyalarni joriy etishni taqozo etmoqda.

Bugungi kunda pedagog kadrlardan nafaqat o'z sohasi bo'yicha, balki zamonaviy axborot texnologiyalaridan ham ma'lum bilimlarni chuqur egallashni va ularni yoshlarga, ayniqsa, o'quvchi hamda talabalarga o'rgatishni talab qiladi. Jumladan, muhandislik fanlaridan talabalarning grafik faoliyat ko'nikmalarini shakllantirishda kompyuter texnologiyalaridan unumli foydalanish dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Shu bois ta'lim muassasalarida faoliyat ko'rsatayotgan har bir professor-o'qituvchilar zimmasiga zamonaviy grafik dasturlardan foydalanib, o'quvchi va talabalarni o'quv mashg'ulotlarida grafik tushunchalarni kompyuter yordamida tashkillashtirishni yuklaydi. Hozirgi kunning talabidan kelib chiqadigan bo'lsak, muhandislik grafikasi o'qituvchilari zamonaviy grafik dasturlardan dastlabki ma'lumotlarga ega bo'lishlari va ulardan foydalanib chizma elementlarini kompyuterda loyihalashni bilishlari lozim.

Chunki har qanday zamonaviy o'quv elektron manbaalarni ishlab chiqishni bu dasturlarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi.

Jumladan, muhandislik grafikasi fanlarini o'qitishda axborot texnologiyalardan samarali foydalanish, uning mazmuni, strukturasi, o'qitish uslublarini uzluksiz takomillashtirib borish, elektron ta'lim resurslarini yaratish muhandislik grafikasi fanlarini isloh qilishning asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Ma'lumki, oliy ta'lim tizimida proyeksion chizmachilik fani muhandislik grafikasi kursida muhim o'rin tutadi. Chunki mazkur fan muhandislik grafikasi kursining proyeksiyalash asoslarini o'rganadigan bo'limi bo'lib, talabaning mazkur fanni puxta o'zlashtirishi qolgan fanlar (mashinasozlik chizmachiligi, arxitektura - qurilish chizmachiligi, topografik chizmachilik va hokazo)ni muvaffaqiyatli o'zlashtirilishini taminlaydi. Muhandislik grafikasi kursini axborot texnologiyalar asosida o'qitish ayni paytda dolzarb muammolardan biri bo'lib hisoblanadi. Ayni paytda bu borada ko'plab ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo, ilmiy-metodik tadqiqot ishlar keng qamrovli bo'lishiga qaramasdan, oliy ta'limda muhandislik grafikasi fanlarini 3D formatda animatsiyali modellar asosida o'qitishning nazariy va metodik asoslari maxsus tadqiq qilinmagan.

Shu bois, muhandislik grafikasi kursini axborot texnologiyalar asosida tashkil etish kontseptsiyasini ishlab chiqish, muhandislik grafikasi kursini axborot texnologiyalar asosida o'qitish jarayonining tarkibini nazariy tahlil qilish, muhandislik grafikasi kursini axborot texnologiyalar asosida o'qitishni nazariy asoslash, muhandislik grafikasi kursini axborot texnologiyalar asosida o'qitishni ilmiy asoslangan printsip va vositalarini ishlab chiqish, chizmachilik fanini axborot texnologiyalar asosida o'qitish metodikasini ishlab chiqish, dasturiy animatsion 3D modellar ishlab chiqish muammosini nazariy tadqiq qilish va ularni yaratish, hamda kompyuter animatsion 3D modellardan tarkib topgan o'quv adabiyotlarning yangi avlodini yaratish kabi ko'plab masalalarni o'rganish va ularga javob izlash hozirgi kunning eng dolzarb muammolaridandir.

Bugungu kunda chizmachilikdan talabalarning fazoviy tasavvur va grafik faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish borasida o'tkazilgan tadqiqotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, ta'lim muassasalaridagi tajribali mutaxassis olimlar elektron ta'lim resurslarini yaratishda ularga qo'yiladigan didaktik, jumladan, yangi metodlarni qo'llab o'qitishni, chizmachilik kursida fazoviy jarayonlarning kompyuter animatsion 3D modellarini yaratish biroz e'tibordan chetda qoldirilmoqda. Chizmachilik o'quv jarayonini tashkil etish va o'quv materiallarini kompyuter animatsion 3D modeli asosida o'qitish borasida olib borilgan ilmiy tadqiqot ishlari shuni ko'rsatadiki, hozirga qadar shu asosda chizmachilik kursini o'qitishning yangi metodikasi yetarlicha ishlab chiqilmagan.

Chizmachilik fanidan talabalarning fazoviy tasavvur va grafika faoliyat ko'nikmalarini kompyuter animatsion 3D modellar vositasida shakllantirish muammolarining metodik taminotini ishlab chiqish asosiy vazifalardan hisoblanadi. Ushbu vazifalarning muvaffaqiyatli hal qilinishi oliy ta'limda chizmachilik kursini axborot texnologiyalar asosida o'qitishning nazariy asoslarini ishlab chiqishni taqazo etadi.

Hozirgi vaqtda grafik fanlarini o'qitish jarayonini faollashtirish va rivojlantirish uchun kuchli vosita bo'lgan 3D formatdagi kompyuter namoyish grafik dasturlari keng qo'llanila boshlandi.

Bizning fikrimizcha, umumiy o'rta ta'lim, professional ta'lim mos mutaxassisliklar va oliy ta'lim uchun chizmachilik fanida animatsion 3D modellar tizimini ishlab chiqishda turli yondashuvlardan foydalanish kerak: oliy ta'limning chizmachilik fanidan masalalarni yechish uchun talabalarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda ta'lim jarayonini tashkil etish tushuniladigan ta'limni individuallashtirish; animatsion 3D modellar asosida talabalarning ustun bo'lgan maxsus qobiliyatlarini hisobga olgan holda o'quv jarayonini tashkil etish tushuniladigan ta'limni shakllantirish. Bu har bir talabaning salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun maqbul sharoitlarni yaratishga imkon beradi.

Ushbu maqola oliy ta'lim Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi mutaxassisliklari uchun chizmachilik fanini o'qitish jarayonida animatsion 3D modellardan foydalanish metodikasini takomillashtirishni hisobga olgan holda axborot jamiyatida ta'lim jarayonini loyihalashga bag'ishlangan.

Dizayn avtomatlashtirish tizimlarida (SAPR) kompyuter geometrik modellari ikki

guruhga bo'linadi: 2D modellar (tekis, ikki o'lchovli) va 3D modellar (hajmli, uch o'lchovli). Chizmachilik fani odatda talabalarga 2D va 3D grafiklar bilan ishlashni o'rgatadi. Chizmachilik fanini o'qitish mazmunini faollashtirish uchun animatsion 3D modellarni ishlab chiqishda quyidagi bosqichlarni inobatga olish kerak: birinchi bosqich pragnoz bosqichi, uning o'qitishdagi natijasini aniqlash, talabalarda o'zlashtirishlarini hisobga olgan holda oldindan axborot natijadorligini anglash; ikkinchi bosqich modellashtirish bosqichi, uning natijasi vizual ta'lim muhitini qurish; uchinchi bosqich refleksiv bosqich, uning natijasini amalga oshirilayotgan ta'lim jarayonini baholashdir. Animatsion 3D model-agar har biriga alohida ta'rif berilsa;

Animatsiya- (lot. Animare — jonlantirish) alohida tasvirlarning yuqori tezlikda ketma-ket ko'rsatilishidir. Ko'zning tasvirlarni uzlukli ilg'ashi oqibatida optik illyuziya seziladi va tasvirlar ketma-ketligi yaxlit harakat, deb qabul qilinadi.

3D- inglizcha so'zdan olingan bo'lib, 3 deminsion – uch o'lchamli modellarni yaratish tushuniladi.

Model-(lot. Modulus – o'lchov, me'yor) - biror ob'ekt yoki ob'ektlar tizimining obrazi yoki namunasidir. Masalan, chizmachilik fanidagi har qanday ikki va uch o'lchamli tasvirlar detallarning modeli deyish mumkin.

Animatsion 3D modellarni shakllantirishning an'anaviy jarayondan farqli ravishda bu jarayon – kompyuter texnologiyasida gavdalantiriladi. Bu o'rganilayotgan ob'ektning tekislikdagi statik tasvirini dinamik tasvirga o'tish imkonini beradi.

Kompyuter animatsion 3D model: Mazkur tushunchaga quyidagicha ta'rif berildi – kompyuter grafik namoyish dasturlari vositasida yaratilgan моддий ob'ektlarni fazoviy jarayonlarda vizual dinamik obrazini uch o'lchamli modeli.

Animatsion 3D modellar nafaqat ob'ektning tashqi tuzilishi, balki ichki xususiyatlarini aks ettirishga imkon beradi, o'quv mashg'ulotlarida talabalarga tezda tasavvur qilish ko'nikmalarini shakllanadi.

Muhandislik grafikasi o'quv predmetlari nuqtalar to'plamidan iborat bo'lgan uch o'lchovli Yevklid fazosida o'rganiladi. Shu sababli, kompyuter animatsion 3D modelning virtual makonini modellashtirishda 3D formatdagi texnologiyalardan foydalaniladi. Mazkur vizual makon modelida ob'ektlarni transformatsiya qilish orqali talabalarda animatsion 3D modellarni vizuallashtirish amalga oshiriladi. Biz nazarda tutgan vizualizatsiya bu - fazoviy vizualizatsiya bo'lib, abstrakt ma'lumot va hodisalarni transformatsiya qilish orqali ob'ektni ko'rib idrok etishga ko'maklashadi. Animatsion 3D modellarni yaratish 3 bosqichdan iborat: modellashtirish; vizualizatsiya; animatsion 3D modellar.

Kompyuter animatsion 3D modellar quyidagi belgilar bilan xarakterlanadi: o'quv materiallari kichik qismlarga (ma'lum miqdordagi axborotlarga ega bo'lgan hamda mantiqiy jihatdan tartib bilan joylashtirilganligi) bo'linishi, bundan oldingi modelni bilmay turib keyingisiga o'tmaslik; har bir model yakunida talabaning materialni qanday o'zlashtirganligini aniqlash uchun sinov savollari qo'yilishi, o'quvchi bu savolga tezlik bilan javob bera olishi, aks holda u keyingi modellardagi ma'lumotlarni o'zlashtira ololmasligi; talaba sinov savoliga javob berganidan keyin uning to'g'ri yoki noto'g'riligini darhol sinab ko'rish imkoniyatiga ega bo'lishi, savollar axborotning tub ma'nosini ochib berishi uchun talabani o'ylashga va mustaqil xulosalar chiqarishga majbur qilishi, boshqacha aytganda talaba bilim va malakalarini ongli ravishda egallashi uchun o'z bilimi haqida animatsion 3D modellardan signallar olib turishi va shu yo'l bilan o'z harakatini boshqarishi kerak.

Ma'lumki, proyeksion chizmachilik fani fazoviy jarayonlarga asoslangan bo'lib, mazkur jarayonlarni harakat (animatsiya) vositasida namoyish etish kompyuter texnologiyalardan foydalanishni taqozo etmoqda. Fazoviy jarayonlar modelini kompyuter yordamida yaratishda dizaynerdan ob'ektning kompozitsiyasi, o'lchamlari va yaqqolligini ta'minlash talab etadi.

Shulardan kelib chiqqan holda, chizmachilik fanidan animatsion 3D modellar quyidagi mezonlar asosida yaratiladi: qulay vaziyatni tanlash; kompozitsiyani to'g'ri tuzish; to'g'ri yoritish; ranglar mutanosibligi; fazoviy jarayonlarning yaqqolligi va realligi; harakatlarning mantiqiy ketma-ketligi; kompyuter animatsion 3D modelning mantiqiy yakuni.

Kompyuter animatsion 3D model fazoviy tasavvur komponenti sifatida xizmat qilib, ularni yaratish me'zonlari quyidagilardan iborat:

1. Modelni yaratish jarayoni mantiqiy va hissiy, abstrakt va aniq, umumiy va xususiy, ko'rgazmali va mavhum elementlarni birlashtiradi. O'quv predmetini mantiq sohadan predmet sohasiga olib boradi va aksincha, eksperimental tekshirish, o'lchash va hisoblashga imkon beruvchi ma'lumotlarni beradi. Bu o'quv predmeti va hayot o'rtasidagi aloqadorlik amalga oshiriladi.

2. Modelni yaratish geometrik shakl va uni moddiy jihatdan aks etish usullari, jumladan, hisob-kitoblar, qurish, yaxlitligicha ishlab chiqish va boshqalar haqidagi nazariy va amaliy bilimlarni umumlashtirishning eng yuqori shaklidir.

3. Yaratilgan model haqida mulohaza yuritish – talabalarda ijodiy qiziqishni uyg'otadi. Ijodiy qiziqish jarayoni faqat figuralarning alohida detallarini va hatto figuraning o'zi haqida mulohaza yuritish emas, balki uning yaratilish g'oyalari va usullari haqida mushohada yuritishidir.

4. Model - tasavvur mahsulotining asliga muvofiqligini tekshirish vositasi.

5. Modellarni ishlab chiqish o'quv faoliyatining deyarli barcha turlarini sintezlaydi.

Har qanday kompyuter animatsion 3D model xususiyatlari quyidagilardan iborat: ta'lim jarayonida teskari aloqaning ta'minlanishi; o'quv jarayonini individuallashtirish imkoniyatining borligi; o'quv jarayonining ko'rgazmaliligini oshirishi; o'rganilayotgan jarayon yoki hodisalarni transformatsiyalash mumkinligi; jamoa va yakkama-yakka o'qitishda undan foydalanish mumkinligi; ta'limning interfaol usul va uslublarining mavjudligi; o'quv mashg'ulotlarini yuqori sifatli darajada o'tkazilishi; bilimlarni hosil qilish va o'zini baholash imkoniyatlarini yaratilishi; ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarning o'zaro aloqadorligini ta'minlashi; axborotni yangi shaklda multimedia vositasida uzatilishi.

Talabalar fazoviy tasavvurlarini rivojlantirishda animatsion 3D modellarning ahamiyatli jihatlarning asosiy omili bu chizmachilikdagi metric va pozitsion masalalarni fazoviy jarayonlarini anglashidir. Animatsion 3D modellardan talabalarda individual foydalanish imkoniyatini tashkil etishda Internet tarmog'i (You Tube)ga joylashtirish, vaqt byujetiga va mustaqil o'zlashtirishga yaxshi samara beradi. Buning uchun esa quyidagi didaktik vazifalarga amal qilish lozim: o'rganilayotgan mavzu yuzasidan, aniq va to'liq ma'lumotlar bilan ta'minlash; ko'rgazmali ta'limni ko'paytirish (murakkab jarayonlarni vizual ko'rinishini yaratish); talabalarining mustaqil ish hajmini oshirish (berilgan vazifalarni amalga oshirgan holda, ilmiy bilimlarni oshirish); talabalar faoliyatini chuqurlashtirish, ularning ilmiy faoliyatini optimal hamda tez suratlarda o'sishini ta'minlash; talabalarining bilim olishga qiziqishlarini maksimal darajada qondirish; teskari aloqani tashkillashtirish; talabalarining faoliyatini nazorat qilib borish (masalan, test o'tkazish orqali ularning dastlabki bilim darajasini va muayyan mavzularni o'rganishdan so'ng olgan bilimlarini aniqlash) hamda ularga zaruriy ko'rsatmalar berish; fan bo'yicha qo'shimcha adabiyotlarni o'qish va Internet tarmog'iga joylashtirilgan animatsion 3D modellardan mustaqil foydalanib borish.

Chizmachilikdan ushbu didaktik vazifalarni amalga oshirish uchun fanga oid 3D formatli animatsion modellar resursini ishlab chiqish lozim. Bu borada tatqiqot olib borgan olimlar M.L.Kazaryan, M.A.Shaxramanyanlarning fikriga ko'ra, 3D modellar eng dolzarb va istiqbolli texnologiya hisoblanib, ta'lim resurslarini 3D vizual ko'rinishda taqdim etish uchun zamonaviy vosita hisoblanadi. Shu bois, oliy o'quv yurti grafik fanlarni o'qitishda 3D formatli animatsion modellardan foydalanishga oid shakl va usullarini yanada takomillashtirish lozim. Buning natijasida, talabalarda fikrlash va tizimli harakat qilishga, ijodiy faollik, liderlik

xislatlarga ega bo'lishlilikni, ularning mustaqil faoliyat ko'nikmalarini vujudga kelishiga yordam beradi.

3D formatli animatsion modellar yordamida talabalar turli obyekt va jarayonlarni ko'rishda qonun-qoidalarni intuitiv darajada tushunishga o'rgatish, kerakli axborotlarni izlab topib, ular bilan ishlashni o'rgatadi. Ya'ni u quyidagi afzalliklarga ega: ma'lumotlarni turli xil ko'rinishda yetkazib berish evaziga didaktik materiallarning xilma-xilligini oshirish (animatsiya, grafik ma'lumotlar va chizmalar); hujjatlar mazmuniga zarur o'zgartirishlarni zudlik bilan kiritish qulayligi; elektron holatda ixcham saqlash; har qanday masofaga ma'lumotlarni yuborish soddaligi; talabalarning mustaqil ishlashlarini jadallashtirish, mustaqil ta'lim olish faoliyatlarini kuchaytirish; talabalarning individual qobiliyatlarini hisobga olgan holda, ularga vazifalarni taqsimlash.

Chizmachilik fanida animatsion 3D modellarlarni qo'llab o'qitish, bugungi kunda ta'lim va tarbiya jarayoni uchun kompyuterlardan foydalanishning yangi bosqichi bo'lib, an'anaviy hamda masofaviy o'qitish tizimlariga oid zamonaviy ta'limdan foydalanilib kelinmoqda. Bu esa tarmoqda o'quv materiallarini professor-o'qituvchi va talabalar o'rtasida samarali muloqotni tashkillashtirish hamda fanni mustaqil o'zlashtirish uchun keng ko'lamda imkoniyatlar yaratib beradi.

Animatsion 3D modellarda didaktik, texnik va tashkiliy qarashlar hisobga olinib, unda cheksiz pedagogik ta'sirni faollashtirish va xilma-xilligini oshirish ko'zda tutilgan, chunki u chizmachilik ta'limida har xil elektron ko'rinishdagi metric va pozitsion axborotlarni o'z ichiga oladi.

Chizmachilik (Proyeksion chizmachilik) fanidan talabalarning fazoviy tasavvur va grafik faoliyat ko'nikmalarini shakllantirish oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarining eng muhim vazifasi hisoblanadi. Buning uchun esa animatsion 3D modellardan foydalanish, ulardan You Tube internet tarmog'i orqali samarali amalga oshirish mumkin.

Talabalar uchun You Tube internet tarmog'idan ta'lim maqsadida foydalanishlari uchun chizmachilikdan animatsion 3D model resurslari shakllantirildi. Ushbu 3D modellar talabalarga zamonaviy "Mobil-Ta'lim" texnologiyalar yordamida bilim berish maqsadida, QR-kodli darslik yaratildi. QR-kodlar orqali turli qiziqarli (animatsion 3D modellar) ma'lumotlar bilan tanishish mumkin. Bu kabi o'zgarishlar darslik sahifalarining ixchamlashishiga olib keladi. Eng muhimi talabalarda fanga qiziqishni orttiradi. Ayni paytda axborot-texnologiyalar ildam rivojlanishi, QR-kod belgilarning kashf etilishu bosma nashrlarga elektron resurslarni bog'lash imkoniyatini yaratadi.

Boshqacha qilib aytganda, animatsion 3D modellar bitta tarkibda birlashgan axborotni taqdim etishning har xil vositalarini uyg'unligini o'zida aks ettiradi. Chizmachilikdan animatsion 3D modellar taqdimotlarning almashinishi yoki birlashishi ta'lim axborotini maksimal aniq va o'zlashtirishni oson shaklida yetkazish orqali motivatsiya, yangi bilim va ko'nikmalarni shakllanishiga imkon beradi.

Ushbu didaktik vazifalarni amalga oshirish uchun chizmachilik fanidan animatsion 3D modellarni yaratish lozim edi. Uning tarkibida quyidagilar mujassamlashgan bo'lishi zarur: uslubiy – normativ; axborot-ta'lim; axborot – ko'maklashuvchi; amaliyotga yo'naltirilgan; nazorat-diyagnostika; monitoring qiluvchi funksiya.

Animatsion 3D modellar talabalarga professor-o'qituvchilar bergan ish hujjatlarini, mustaqil ishlashlarini tahrirlash va soddalashtirish imkoniyatini yaratadi.

Chizmachilik fanini o'qitish jarayoniga mo'ljallangan animatsion 3D modellarni yaratib, uni o'quv jarayoniga tadbiiq etish mexanizmini takomillashtirish orqali erishish mumkin. Chizmachilik faniga animatsion 3D modellarni yaratishning murakkab jihati - mantiqqa va talabalarning o'zlashtirish darajasiga to'g'ri keladigan ketma-ketlikda joylashtirishdan iborat. Animatsion 3D modellarning afzalligi shundaki, ularni qulay holda saqlash hamda fanga oid

murakkab jarayon va hodisalarni vizual shaklda namoyish etish, vizual shaklda tajriba ishlarini olib borish imkoniyati tugʻiladi. Shu bois, talabalarning chizmachilik fanidan olgan bilim, koʻnikma va malakalarini shakllantirishda animatsion 3D modellaridan foydalanib yuqori samaradorlikda erishishi mumkin.

Ijod mahsuli boʻlgan animatsion 3D modellar professor-oʻqituvchi va talabalarga oʻquv jarayonidagi turkum muammolarni sezilarli darajada hal etish imkoniyatini yaratadi. Shuningdek, vaqtni tejash va mustaqil ish faoliyatlarini faollashtirish uchun muhim vosita hisoblanadi. Shu bilan birga doimiy didaktika bilan zamonaviy pedagogik innovatsiyalar oʻzaro bogʻliqligini taʼminlash orqali talabada yetarli darajada qiziquvchanligini, bilimga talpinishini va aqliy shakllanishi uchun xizmat qiladi.

Hozirgi kunda, pedagogika oliy taʼlim muassasalari muhandislik grafikasi fanlarida talabalarning ijodiy faoliyatida 3D formatli texnologiyalari yordamida oʻqitish vositalari faol ravishda kirib bormoqda. Ayniqsa, kasbiy layoqatligida 3D formatli texnologiyalariga moʻljallangan vizual taʼlim texnologiyalarini taʼsir etish, ularning koʻnikmalarini shakllantirishga taʼsir etmay qoʻymaydi.

Chizmachilik fanidan 3D formatga moʻljallangan vizual taʼlim texnologiyalari taʼlim va tarbiya jarayonini samarali tashkillashtirishda, sifatli oʻquv-ilmiy axborot yordamchi vositasi hisoblanadi. Shu bois chizmachilik fanida animatsion 3D modellarini taʼlim jarayonida qoʻllash, oliy oʻquv yurtlarining muhandislik grafikasi professor-oʻqituvchilarini bilim va mahoratining muhim qismi boʻlib hisoblanadi. Zamonaviy axborot manbalari va kommunikatsiya vositalaridan foydalana bilish, olingan axborotlarni qayta ishlash, taʼlimiy axborot muhitini va oliy taʼlimda kasbiy muhim axborot integratsiyasini tashkil qilishdir. Buning natijasida talabalarda nafaqat ijodiy faollikni, balki oʻzlarining mativatsion, hissiy va kommunikativ muhitini shakllantiradi. Olib borilgan tadqiqotlarning natijalariga koʻra, grafik fanlardan talabalar koʻnikmalarini shakllantirishda 3D formatli texnologiyaning oʻziga xos muayyan qoidalari, qonuniyatlari, tomonlari tizimi, izchillik vositalari, omillari hamda pedagogik shart-sharoitlaridan keng foydalanish orqali maqsadga erishish mumkinligiga amin boʻlindi.

Animatsion 3D modellarni axborot xususiyatlari etiborga olinsa, chizmachilik fanini oʻqitishda foydalanish, taʼlimdagi axborot birliklarini jamlashga yordam beradi hamda talabalarning grafik faoliyat koʻninmalarini shakllantiradi. Chunki, talabalarda taʼlimga qiziqish kuchi turlicha boʻlib, optimal meʼyorni topishga yordam bera oladi. Mustaqil ravishda maqsadi yoritilib beriladi, qoʻshimcha axborot muʼlumotlar yigʻindisi yanada qiziqtirishga qaratilgan boʻlib, masala yechishda, kerakli maʼlumot qidirishda va oʻz ishini natijasini yoritib berishda mustaqil fikrlashni taʼminlab beradi. Berilgan dasturdagi maʼlumotlar oʻquvchini mustaqil qabul qilib, bilishiga yoʻnaltirilgan boʻlishi lozim. Animatsion 3D modellar nafaqat chizmachilik taʼlimida qoʻshimcha yordam sifatida, balki asosiy taʼlim resursi sifatida qoʻllanilsa taʼlim sifatini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, oliy taʼlim muassasalari chizmachilik fanida 3D formatli texnologiyalari yordamida oʻqitish samaradorligini oshirishda yuqorida eʼtirof etilgan talablar va tamoyillarga tayanish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bunda talaba fanni mustaqil oʻrganishga hamda kuzatish va tahlil qilish jarayonlarning vizual obrazini bir necha marotaba koʻrish imkoniyati tugʻiladi. Natijada, talabalarning koʻnikmalari shakllanadi hamda ijodiy fikrlashi oshadi. Chizmachilik fanini oʻqitish jarayonida kompyuter animatsion 3D modellar asosida tashkil etish talabalarning grafik qobiliyatini va fazoviy tasavvurini rivojlantiribgina qolmay ularda ixtirochilik, kashfiyotchilik, ratsionalizatorlik, ijodiy va mustaqil fikrlash va bunyodkorlik kabi xislatlarni rivojlantirishda va eng muhimi barkamol avlodni tarbiyalashda xizmat qilishi shubhasiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. А.Б. Кондратенко, Б.А. Кондратенко Технология обучения в виртуальной

образовательной среде персонализации обучения // Открытое образование. 2013.

2. Маматов Д. К. Роль компьютерной графики в развитии космического воображения студентов // Вестник науки и образования. – 2020. – №. 21-2 (99).

3. Mamatov D. PROJECTS OF MAKING CLAY AND PLASTIC TOYS IN PRE-SCHOOL EDUCATION // Theoretical & Applied Science. – 2019. – №. 9. – С. 281-285.

4. Маматов Д.К. Организация самостоятельной работы студентов первая международная научно-методическая конференция междисциплинарные исследования в науке и образовании <http://man-ua.edukit.kiev.ua/Files/downloads/%D0%9F%D0%9D-%>

5. Маматов Д.К., Собирова Ш.У Особенности организации самостоятельной работы студентов Педагогические науки. <http://wwenews.esrae.ru/pdf/2015/1/62.pdf>

2. Janglar davomida yuqori dinamika va turli xil holatlarning farqliligi. Har bir jangda holatlar doimiy ravishda o‘zgaradi, va sportchilar tezda yangi sharoitlarga moslashishga majbur. Qo‘l jangining o‘ziga xos xususiyati shundaki, jang davomida sportchi o‘zining texnik va taktikalik ko‘nikmalarini mos ravishda qo‘llashi lozim. U bir paytda zarbalar, tashlashlar, ushlab turishlar, himoya va hujum usullarini qo‘llab, doimiy ravishda jangning ritmini va vaziyatini boshqarishga intiladi.

3. Sportchilarning psixologik tayyorgarligiga yuqori talablar. G‘alaba uchun kurashish, raqibni to‘g‘ri tahlil qilish va hissiyotlarni boshqarish jangning eng muhim jihatlaridan biridir. Qo‘l jangida jangchining ruhiy holati, uning stressga qarshi bardoshlilik va o‘zini tuta olish qobiliyati juda muhim. Jang davomida sportchi o‘zining ichki kuchini topib, ruhiy zo‘riqishlarni yengishi kerak. Jangning intensivligi va psixologik bosimi sportchining o‘zini to‘g‘ri boshqarish qobiliyatini sinovdan o‘tkazadi.

Qo‘l jangi sport turi – bu sportning eng murakkab turlaridan biri bo‘lib, u deyarli barcha turdagi jismoniy jang san’atlarining texnik arsenalini o‘z ichiga oladi. Jangchining texnik mahorati juda keng va turli xil usullarni o‘z ichiga oladi: zarbalar, tashlashlar, ushlab turishlar, bo‘g‘ishlar, himoya va hujumning kombinatsiyalari. Shuningdek, qo‘l jangi sport turi kompleks tur bo‘lib, u ikkita bosqichdan iborat:

1. Birinchi bosqich – jangda qurollanmagan va qurollangan qarshi kurashuvchiga nisbatan standart holatlarda ishlatiladigan texnikalarni namoyish qilish. Bu bosqichda sportchilar o‘zining texnik mahoratini ko‘rsatadi va harakatlarning to‘g‘ri bajarilishi baholanadi. Texnikalarni o‘rganishda muhim ahamiyatga ega bo‘lgan birinchi bosqich, har bir sportchining jismoniy tayyorgarligini va asosiy usullarda mahoratini ko‘rsatishi uchun zarurdir.

2. Ikkinchi bosqich – janglar, bu erda nazorat qilinadigan zarbalar, tashlashlar, ushlab

turishlar, og'riqli va bo'g'ish texnikalari ma'lum holatlarda qo'llanishiga ruxsat beriladi. Ikkinchi bosqichda janglar haqiqiy kurashga aylanadi, va sportchilar raqibni yengish uchun turli usullarni qo'llashadi. Bu bosqichda sportchilarning texnik va taktikalik ko'nikmalari eng yuqori darajada namoyon bo'ladi, chunki jangda qattiq raqobat va o'zaro kurashning murakkab holatlari yuzaga keladi. Jangchilar zarbalar va tashlashlar orqali raqibni zaiflashtirishga harakat qiladi, shu bilan birga og'riqli va bo'g'ish texnikalarini qo'llash orqali jangni o'z foydasiga tugatishga intiladi.

Bundan tashqari, qo'l jangi sporti, shuningdek, sportchilarning ruhiy va aqliy rivojlanishiga ham katta e'tibor qaratadi, chunki jangovar sharoitlarda tez qarorlar qabul qilish, o'zini tutish va strategik fikrlash juda muhimdir. Bu sport turi sportchilarga faqat jismoniy kuchni emas, balki aqliy va psixologik qobiliyatlarni ham rivojlantiradi.

Qo'l jangi sport turi o'ziga xos bo'lib, o'zgaruvchan intensivlik va turli davomiylikdagi noan'anaviy, siklik bo'lmagan harakatlarni o'z ichiga oladi, bu harakatlar treninglar davomida qo'llaniladi va butun tana mushaklarini rivojlantiradi. Bu sport turi juda yuqori jismoniy va aqliy talablarni o'z ichiga olib, sportchilarning barcha muhim jismoniy ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Qo'l jangida mushaklarning mustahkamligi, tezkorlik, chidamlilik, muvofiqlashtirish qobiliyati va harakatlarni aniq va samarali bajarish kerak. Treninglar davomida sportchilar barcha mushak guruhlarini birgalikda ishlatishadi, shu bilan ularning umumiy jismoniy tayyorgarligini rivojlantirishga erishiladi.

Qo'l jangi sport turi jismoniy xususiyatlarni, reaksiya tezligini, bo'g'imlarning moslashuvchanligini va harakatlarni muvofiqlashtirishni rivojlantiradi. Sportchining harakatlarini tezda bajarish va eng optimal usullarni tanlash uchun yuqori darajadagi reaksiyalarni ishlab chiqish zarur. Shuningdek, qo'l jangi bilan shug'ullanish sog'liqni mustahkamlash maqsadida tavsiya etiladi, chunki u yurak-qon tomir va nafas olish tizimlarini yaxshilaydi. Qo'l jangi sport turi mashg'ulotlarida jismoniy tayyorgarlikning umumiy va maxsus jihatlarga katta e'tibor qaratiladi, bu esa sportchining har tomonlama tayyorligini oshiradi va jang davomida zarur bo'lgan qobiliyatlarni rivojlantiradi.

Hozirgi vaqtda qo'l jangi sport turining tez rivojlanishi kuzatilmoqda. Ushbu mahalliy sport turiga bo'lgan qiziqishning ortishi ko'plab bo'limlar va klublarning tashkil etilishiga, ular orasida shug'ullanuvchi sportchilar sonining ko'payishiga olib kelgan. Qo'l jangining ommalashuvi ayniqsa yoshlar o'rtasida kuzatiladi, chunki bu sport turi faqat jismoniy mahoratni oshirishga yordam bermaydi, balki intizomni va ijtimoiy faoliyatni ham rivojlantiradi. Bu fenomenning asosiy sababi shundaki, qo'l jangi sport turi qoidalari va terminologiyasi tuzilgan bo'lib, mahalliy sport nazariyasi va amaliyotida chuqur ildiz otgan. Trening va musobaqalarni o'tkazish metodikalari mahalliy kurash va boks maktablariga asoslanadi, shuning uchun bu sport turi mamlakatda juda yaxshi rivojlanmoqda.

Shuningdek, vatanga muhabbatni rivojlantirish va himoyachi obrazining qayta jonlanishiga bo'lgan ijobiy o'zgarishlar ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Qo'l jangi sport turi ayniqsa harbiy xizmatchilarining jismoniy tayyorgarligining ajralmas qismi hisoblanadi, chunki bu sport turi jangovar faoliyatni va o'zini himoya qilishni o'rgatadi. Shuning uchun uning ommalashishi davlat xizmati va harbiy xizmatning prestijini oshirishga xizmat qiladi. Harbiy xizmatda bo'lgan yoki xizmatga tayyorlanayotgan yoshlar uchun qo'l jangi sport turi juda foydali, chunki u jangovar mahoratni rivojlantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, qo'l jangi sport turi bo'yicha sport malakasi yoshlarning harbiy o'quv muassasalariga kirish yoki xavfsizlik va huquqni muhofaza qilish organlariga xizmatga joylashish uchun raqobat afzalligi hisoblanadi. Bu, o'z navbatida, yoshlarning hayotga tayyorlanishida ulkan ahamiyatga ega bo'lgan muhim sport faoliyati hisoblanadi.

Sport muassasasida sportchilarga yil davomida ish tashkil etiladi. Bu jarayonni samarali tashkil etish uchun muassasalarda sportchilar uchun maxsus mashg'ulot rejasi tuziladi. Qo'l jangi sport turi bo'yicha mashg'ulotlarning boshlanishi va tugashi sport musobaqalari taqvimini,

sport tayyorgarligining davrlashtirish har bir sport turi uchun alohida belgilanadi. Sportchilarni o'qitish va tarbiyalash jarayonida sportga bo'lgan qiziqish va maqsadlarni qo'yish muhimdir. Mashg'ulot jarayonini tashkil etishning asosiy prinsipi sifatida sport-o'yin prinsipi taklif qilinadi, bu esa (ayniqsa sport tayyorgarligining dastlabki ikki-uch yilida) maxsus o'yin komplekslari va mashg'ulot topshiriqlarini keng qo'llashni nazarda tutadi. Ushbu prinsip sportchilarga bir vaqtning o'zida ko'p qirrali jismoniy tayyorgarlikni o'tkazish bilan birga, ularga jangda yuzaga keladigan va yaratiladigan vaziyatlardan kelib chiqqan holda kurashning mohiyatini tushunishga yordam beradi.

Shu holatda, mashg'ulot jarayoni tabiiy ravishda va asta-sekin oshib boruvchi mashg'ulot talablari hisobga olinib tashkil etiladi. Mashg'ulotlarning har bir bosqichi sportchining tayyorgarligiga qarab o'zgaradi. Ushbu talablar bajarilishi bilan sportchilarning sog'ligini mustahkamlash, jangda zarur bo'lgan maxsus sifatlarni rivojlantirish, qo'l jangi sport turi texnik arsenaliga tanishtirish, sportga muhabbatni shakllantirish va qo'l jangi sport turi bilan shug'ullanishga bo'lgan doimiy qiziqishni oshirish kabi vazifalar hal qilinadi. Bu orqali sportchilar yuqori sport natijalariga erishish uchun kerakli tayyorgarlikni amalga oshiradilar.

Qo'l jangi sport turi bo'yicha sport tayyorgarligini amalga oshirishning asosiy shakllari quyidagilardir:

Guruhli va individual trening va nazariy mashg'ulotlar: Sportchilarning jismoniy va aqliy tayyorgarliklarini oshirish uchun tashkil etiladi.

Individual rejalarga asosan ishlash: Har bir sportchining jismoniy holati va tayyorgarlik darajasiga qarab individual mashg'ulot rejalari ishlab chiqish.

Trening yig'inlari: Sportchilarning jismoniy holatini yaxshilash va texnikalarni mustahkamlash uchun maxsus trening yig'inlari tashkil etiladi.

Sport musobaqalari va tadbirlarda ishtirok etish: Musobaqalar sportchilarni o'z mahoratini sinab ko'rish va natijalarni baholash imkonini beradi.

Instruktorlik va hakamlik amaliyoti: Sportchilar o'z malakalarini oshirish va boshqalar bilan tajriba almashish uchun o'quv mashg'ulotlarida qatnashadilar.

Tibbiy tiklanish tadbirlari: Sportchilarni jarohatlardan keyin tiklash va sport faoliyatiga tayyorlash.

Testlash va nazorat: Mashg'ulotlar jarayonida sportchilarning tayyorgarligini baholash va yutuqlarini nazorat qilish.

Trening mashg'ulotlarini yuqori sport mahorati va sport mahoratini oshirish bosqichlarida o'tkazish uchun qo'shimcha ravishda asosiy qo'l jangi sport turi murabbiyi bilan birga umumiy jismoniy tayyorgarlik va maxsus jismoniy tayyorgarlik bo'yicha ikkinchi murabbiy jalb qilinishi mumkin. Shuningdek, sportchilarning individual tayyorgarlik rejalari bo'yicha ish majburiy ravishda sport mahoratini oshirish va yuqori sport mahorati bosqichlarida amalga oshiriladi.

Qo'l jangi sport turi bo'yicha trening mashg'ulotlari jadvali, murabbiylar tarkibi bilan kelishilganidan so'ng, sportchilarni dam olish va treninglar rejimlarini yanada qulayroq tashkil etish maqsadida, ularning ta'lim muassasalarida va boshqa muassasalarda o'qishlari hisobga olinib tasdiqlanadi. Trening jarayonida sportchilarning ehtiyojlarini hisobga olish, shuningdek, har birining rivojlanish jarayonini individual tarzda boshqarish muhim ahamiyatga ega.

Yillik trening jarayonini rejalashtirish quyidagi muddatlar bo'yicha amalga oshiriladi:

- istiqbolni rejalashtirish;
- yillik rejalashtirish;
- choraklik rejalashtirish;
- oylik rejalashtirish.

Har bir yilning oxirida tayyorgarlik bosqichlari bo'yicha dasturda belgilangan talablarni bajarish, natijalarni tekshirish uchun sportchilar yakuniy attestatsiya normativlarini

topshiradilar.

Yakuniy attestatsiya normativlarini topshirish natijasida sportchilar dastur bo'yicha keyingi tayyorgarlik bosqichiga o'tkaziladi.

Tayyorgarlik bosqichlari davomida dastur normativlari bo'yicha sportchilar o'rta attestatsiya normativlarini topshirishadi.

O'rta attestatsiya normativlarini topshirish natijasida sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy tayyorgarlik darajasi oshiriladi yoki takomillashtiriladi.

Sport tayyorgarligini o'tayotgan shaxslar, agar dastur tomonidan belgilangan talablarni bajara olmasa, bir yil davomida shu bosqichda tayyorgarlikni davom ettirishga imkoniyat beriladi, lekin faqat bir marta.

Qo'l jangi sport turi bo'yicha ko'p yillik sport tayyorgarlik tizimini tashkil etish jarayoni murakkab va ko'p bosqichli jarayon bo'lib, sportchilarning jismoniy, texnik, taktikalik va psixologik tayyorgarliklarini bosqichma-bosqich rivojlantirishga qaratilgan. Ushbu tizimni tashkil etishda bir nechta muhim komponentlar va ularning o'zaro bog'lanishiga alohida e'tibor qaratish zarur. Quyida ushbu tizimni tashkil etishning asosiy komponentlari va ularning rolini kengaytirib ko'rib chiqamiz.

Tashkiliy boshqaruv jarayoni. Qo'l jangi sport turi bo'yicha sport tayyorgarligini tashkil etishning tashkiliy boshqaruv jarayoni sportchilarni maqsadga muvofiq ravishda tayyorlashni nazarda tutadi. Bu jarayon sportchilarni qamrab olgan bosqichlar va davrlarni belgilashga qaratilgan. Har bir bosqichda sportchining tayyorgarligini oshirish, muayyan maqsadlar uchun trening va musobaqalar tashkil qilish, shuningdek, resurslar va texnik ta'minotni to'g'ri tashkil etish talab etiladi. Tashkiliy boshqaruv jarayoni sportchi bilan shug'ullanuvchi murabbiylar, doktorlar, psixologlar va boshqa mutaxassislar o'rtasida uzviy hamkorlikni ta'minlashni o'z ichiga oladi.

Tanlash va sportga yo'naltirish tizimi. Bu jarayon yosh sportchilarda qo'l jangi sport turi bilan shug'ullanishga moyillikni aniqlashga qaratilgan. Har bir yoshda sportga bo'lgan qiziqish va jismoniy imkoniyatlar farq qiladi, shuning uchun tanlash tizimi juda muhim ahamiyatga ega. Bu tizim orqali yosh sportchilarni aniqlash, ularning individual imkoniyatlarini baholash va shu asosda mos trening dasturlarini tuzish mumkin. Yaxshi tanlangan sportchi uchun ta'lim va tayyorgarlik jarayoni aniq rejalashtirilgan bo'lib, uning sport mahoratini yuqori darajaga ko'tarish uchun zarur sharoitlar yaratiladi.

Mashg'ulot jarayoni. Mashg'ulot jarayoni sport tayyorgarligining asosi bo'lib, sportchining harakat faoliyatini va tayyorgarlik darajasini belgilaydi. Bu jarayonda sportchi o'zining jismoniy, texnik, taktikalik va psixologik tayyorgarligini yaxshilaydi. Mashg'ulotlar jarayonida jismoniy tayyorgarlikning umumiy va maxsus jihatlari, texnik ko'nikmalar va taktika, shuningdek, psixologik omillarni rivojlantirishga katta e'tibor qaratiladi. Sportchi uchun psixologik tayyorgarlik, hissiyotlarni boshqarish, stressga qarshi kurashish va o'ziga bo'lgan ishonchni mustahkamlash hamda muvaffaqiyatga erishishdagi intellektual qobiliyatlarni rivojlantirish juda muhim ahamiyatga ega. Mashg'ulot jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishi sportchining yakuniy natijalariga to'g'ridan-to'g'ri ta'sir ko'rsatadi.

Musobaqajarayoni. Musobaqalar sportchilarni tayyorlash jarayonining ajralmas qismi bo'lib, bu jarayon tayyorgarlikning maqsad va yo'nalishini belgilaydi. Musobaqalar sportchilarning tayyorgarligini taqqoslash va oshirish uchun asosiy vosita sifatida ishlatiladi. Musobaqalar sportchilarni sinovdan o'tkazish, o'z mahoratini amaliyotda ko'rsatish va treningda erishilgan yutuqlarni baholash imkonini beradi. Musobaqalar tashkil qilish va o'tkazish jarayoni rasmiy jismoniy madaniyat tadbirlari va sport tadbirlari Kalendar rejasi asosida amalga oshiriladi. Bu jarayon sportchilarning motivatsiyasini oshirishga, ularning o'zini tanitishiga va yangi yutuqlarni qo'lga kiritishga imkon beradi.

Tibbiy-biologik qo'llab-quvvatlash jarayoni. Sportchilarni tibbiy va biologik qo'llab-

quvvatlash jarayoni, tibbiy ta'minot, tiklanish va rehabilitatsiya tadbirlarini o'z ichiga oladi. Jismoniy tayyorgarlik jarayonida sportchilarning sog'lig'ini nazorat qilish, zarur tibbiy yordamni taqdim etish va tiklanish jarayonlarini boshqarish juda muhimdir. Bu jarayon sportchilarni jarohatlardan saqlash va ularning to'liq tiklanishini ta'minlash uchun zarur sharoitlar yaratadi. Shu bilan birga, tibbiy-biologik qo'llab-quvvatlash jarayoni sportchilarning eng yuqori natijalarni ko'rsatish imkoniyatlarini oshiradi.

Resurs ta'minoti jarayoni. Resurs ta'minoti jarayoni sport tayyorgarligini material-texnik ta'minotini tashkil etish va rejalashtirishni anglatadi. Bu jarayon sportchilarni tayyorlash uchun zarur bo'lgan texnik vositalar, jihozlar, sport zallari va boshqa materiallarning mavjudligini ta'minlaydi. Shuningdek, malakali kadrlar bilan ta'minlash, murabbiylar, tibbiyot xodimlari va boshqa mutaxassislarning faoliyatini boshqarish ham resurs ta'minoti jarayoniga kiradi. Bu komponentni samarali tashkil etish sportchilarning tayyorgarligini yuqori darajada saqlashga yordam beradi.

Qo'l jangi sport turi bo'yicha sport tayyorgarligi ko'p yillik tizimga asoslanadi va bu tizim bir nechta bosqichlarga bo'linadi:

Birinchi bosqich: Yosh sportchilarning boshlang'ich tayyorgarligi, jismoniy va texnik ko'nikmalarni o'zlashtirish. Bu bosqichda sportchilarni asosiy jangovar usullar, texnikalar va taktikalarga o'rgatish, ular uchun jismoniy tayyorgarlikning umumiy asoslarini yaratish muhimdir.

Ikkinchi bosqich: O'rta darajali sportchilarni maxsus tayyorgarlik jarayoniga olib chiqish, murakkab texnik va taktikalik ko'nikmalarni rivojlantirish, musobaqalarda ishtirok etish orqali sport mahoratini oshirish.

Uchinchi bosqich: Yuqori sport mahoratiga erishgan sportchilarni tanqidiy musobaqalarga tayyorlash, jismoniy va psixologik jihatlarni mukammallashtirish, eng yuqori darajali texnik va taktikalik ko'nikmalarni oshirish.

Sportchining yoshi tayyorgarlik bosqichini belgilashda muhim omildir. Yosh sportchilar uchun asosiy e'tibor jismoniy va texnik tayyorgarlikka qaratiladi, yuqori darajali sportchilarda esa strategiya, taktikalar, psixologik holat va texnikaning yanada takomillashgan shakllari rivojlantiriladi. Sportchilarning tayyorgarlik jarayonidagi asosiy vazifalar jismoniy tayyorgarlikni oshirish, texnik ko'nikmalarni rivojlantirish, taktik tayyorgarlikni kuchaytirish, musobaqa faoliyatida muvaffaqiyatga erishish va psixologik tayyorgarlikni mustahkamlashdan iborat. Mashg'ulotlarda qo'llaniladigan asosiy vositalar va metodikalar sportchilarning jismoniy va texnik tayyorgarligini oshirishga yordam beradi. Bu vositalar murakkab jangovar texnikalarni o'rgatish, tezkor reaksiyalarni rivojlantirish va harakatlarni muvofiqlashtirishni ta'minlashga qaratilgan. Treninglar va musobaqalar yuklamalari sportchilarning tayyorgarlik darajasiga qarab boshqariladi. Bu yuklamalar sportchining jismoniy imkoniyatlariga mos ravishda ortirilib boriladi, shu orqali yuqori natijalarga erishish uchun zarur bo'lgan tayyorgarlikni ta'minlash mumkin. Shu bilan birga, qo'l jang bo'yicha ko'p yillik tayyorgarlik tizimi strukturasi materialni to'rt bosqichda rejalashtirish va o'rganishni ta'minlash ko'zda tutiladi (1-jadval).

Qo'l jangi sport turi bo'yicha ko'p yillik sport tayyorgarlik tizimining tuzilishi

Bosqichlar	Sport mashg'ulotlarining bosqichlari		
	Nomlanishi	Qisqartma	Davr
Asosiy tayyorgarlik	Dastlabki tayyorgarlik	DT	<i>Bir yilgacha</i>
			<i>Bir yildan ko'proq</i>
Shaxsiy imkoniyatlarni maksimal darajada amalga oshirish	Mashg'ulotlar (sportga ixtisoslashgan)	M (SI)	<i>Boshlang'ich sport ixtisosligi (ikki yilgacha)</i>
			<i>Ilg'or sport mutaxassisligi (ikki yildan ortiq)</i>
	Sport mahoratini oshirish	SMO	<i>Sport mahoratini oshirish (cheklovsiz)</i>
	Eng yuqori sport mahorati	EYSM	<i>Eng yuqori sport mahorati (cheklovsiz)</i>

Sportchilarning qo'l jangiga tayyorgarligi uchun har bir bosqichda aniq vazifalarni hal qilish va maqsadlar qo'yish, ularga erishish uchun zarur metodlarni ishlab chiqish juda muhim. Quyida har bir tayyorgarlik bosqichidagi vazifalar va ularning maqsadlari kengaytirilgan holda ko'rib chiqiladi.

1. Birinchi tayyorgarlik bosqichi (Boshlang'ich tayyorgarlik). Bu bosqichda asosiy maqsad sportchilarda qo'l jangiga qiziqish uyg'otish va ularni ushbu sport turi bilan tanishtirishdir. Yosh sportchilarda qo'l jangi sportiga bo'lgan qiziqishni oshirish, ularning diqqatini jalb qilish va ularni bu sport turi bilan shug'ullanishga rag'batlantirish zarur. Shu bilan birga, sportchining o'zini ko'rsatish va natijalariga qiziqish uyg'otish kerak. Qo'l jangining asosiy usullari, texnikalari, jangovar tur va sinflari haqida umumiy tushuncha shakllantiriladi. Sportchilarni zarur texnik harakatlar bilan tanishtirish va bu harakatlarni mahorat darajasigacha o'rgatish kerak. Jismoniy tayyorgarlikning umumiy asoslarini yaratish, sportchilarning chidamliligini oshirish, mushak tizimini mustahkamlash, yurak-qon tomir tizimining holatini yaxshilash uchun jismoniy mashqlarni o'tkazish. Jismoniy va texnik tayyorgarlikni oshirish va musobaqalarda ishtirok etish, sportchilarning o'zaro raqobatlashish qobiliyatini rivojlantirish. Jamoaviy va individual ravishda o'yinlar tashkil qilish, bu esa sportchilarni tanish va raqobat muhitiga olib kirishga yordam beradi.

2. Trening bosqichi (Sport ixtisosligi bosqichi). Bu bosqichda sportchilarning umumiy va maxsus tayyorgarligi oshiriladi, sog'liqni yaxshilash va barqaror sport faoliyatini ta'minlashga qaratilgan vazifalar amalga oshiriladi: Sportchilarning jismoniy kuchi, chidamliligi va elastikligini oshirishga katta e'tibor beriladi. Mashqlar yordamida umumiy jismoniy tayyorgarlik mustahkamlanadi, ayniqsa, qo'l jangi uchun zarur bo'lgan mushak guruhlari rivojlantiriladi. Sportchilarni texnik jihatdan yaxshilash, jangovar texnikalarni mukammallashtirish, raqibga qarshi taktika va strategiyani ishlab chiqish. Shuningdek,

psixologik tayyorgarlikni rivojlantirish, musobaqalarda ishonchli va barqaror natijalar ko'rsatish uchun zarur bo'lgan psixologik resurslarni shakllantirish. Treninglarda olingan bilimlarni real jangovar sharoitlarda qo'llash, turli xil musobaqalarda ishtirok etish va sportchi uchun qiyin vaziyatlarga qarshi kurashni o'rganish. Shuningdek, sport motivatsiyasini oshirish va yuksak sport natijalari uchun ichki motivatsiyani shakllantirish zarur. Sportchilarga rasmiy musobaqalarda qatnashish imkoniyatlarini yaratish, bu esa o'zining natijalarini baholash va tajriba orttirish uchun muhimdir. Musobaqalardagi ishtirok sportchilarga o'z salohiyatlarini ko'rsatish va yangi mahoratlarni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

3. Sport mahoratini oshirish bosqichi. Bu bosqichda sportchilarning funksional imkoniyatlarini oshirish, texnik va taktikalik harakatlarni chuqurlashtirish va yuqori sport natijalarini barqaror namoyish etish muhimdir. Sportchilarning umumiy va maxsus jismoniy imkoniyatlarini oshirish, mushaklarning kuchini va chidamliligini yanada rivojlantirish. Bu bosqichda sportchi o'zining jismoniy va psixologik cheklovlarini yengib o'tishi kerak. Har bir sportchining o'ziga xos texnik va taktikalik uslublari aniqlanadi va shu asosda ularning ustida ishlash, jangovar texnikalarni mukammallashtirish zarur. Musobaqalarda yuqori natijalarga erishish va doimiy ravishda yuqori sport natijalarini ko'rsatish, jismoniy va psixologik tayyorgarlikni yangi darajaga ko'tarish. Sportchilarning o'z maqsadlariga erishishdagi ishtiyoqini va motivatsiyasini yuqori darajada saqlash, ularni doimo yangi yutuqlar sari rag'batlantirish.

4. Eng yuqori sport mahorati bosqichi. Eng yuqori darajadagi sportchilarning tayyorgarligi va jangovar faoliyatining barcha jihatlarini mukammallashtirish: Har bir sportchining o'ziga xos texnikasini shakllantirish va bu texnikani jangovar sharoitlarda to'liq qo'llash. Shu bilan birga, zamonaviy qo'l jangining qoidalariga mos keladigan harakatlarni bajarish. Qo'l jangi sportchisi o'zining individual xususiyatlari, texnik va taktikalik imkoniyatlarini maksimal darajaga yetkazishi kerak. Bu bosqichda «jangchi modeli»ni shakllantirish va uning barcha asosiy xususiyatlarini o'zlashtirish muhimdir. Har bir sportchi yuqori sport mahoratiga erishganidan so'ng, terma jamoalarda ishtirok etish va xalqaro musobaqalarda muvaffaqiyatli qatnashish uchun tayyorlanadi. Musobaqalardagi ishonchlilikni oshirish va yuqori sport natijalarining barqarorligini ta'minlash, sportchining barcha tayyorgarlik jarayonlari muvaffaqiyatli yakunlanishi kerak.

Yuqori darajadagi sportchilar uchun bu bosqichda musobaqalarda yuqori natijalarni ko'rsatish va o'z xalqaro darajadagi mahoratini namoyish etish muhim hisoblanadi. Ularning maqsadi — faqatgina o'z ichki imkoniyatlarini eng yuqori darajaga ko'tarish emas, balki jahon miqyosida raqobatbardosh bo'lishdir.

Xulosa. Qo'l jangi sport turi nafaqat sport musobaqalari doirasida, balki harbiy tayyorgarlik va fuqarolar orasida o'zini himoya qilish mahoratini oshirish uchun ham muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu sport turi sportchilarning jismoniy, texnik, taktik va psixologik tayyorgarligini keng qamrovda rivojlantirishga yordam beradi. Qo'l jangining o'ziga xosligi shundaki, unda harakatlarning xilma-xilligi, texnik va strategik fikrlashni talab etuvchi jang usullari mavjud bo'lib, bu sportchilarni turli sharoitlarga tez moslashishga o'rgatadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, qo'l jangi sport turini o'rganish jarayonida sportchilarning jismoniy chidamliligi, reaksiya tezligi, stressga bardoshliligi va strategik tahlil qilish qobiliyatlari rivojlanadi. Bu esa nafaqat musobaqalarda, balki real hayotiy vaziyatlarda ham ularga katta ustunlik beradi. Shuningdek, qo'l jangi sportining ommalashuvi yosh avlodning vatanparvarlik ruhini oshirish va harbiy xizmatga tayyorgarlik jarayonlarini takomillashtirishga ijobiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 20-iyundagi "Qo'l jangi sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-287-son qarori

2. Брагин В. В. Методика проведения физической подготовки с элементами рукопашного боя для эффективных действий специальных подразделений МВД по борьбе с незаконным оборотом наркотиков // Ученые записки университета им. ПФ Лесгафта. – 2008. – №. 11. – С. 10-14.

3. Борисов А. А. Салькова Д. В. Формирование психофизической готовности курсантов военных вузов к выполнению служебных и боевых задач средствами физической подготовки // Военный инженер. 2019. № 7. С. 18.

4. Волков В.Г., Володин Р.Н., Скуднов В.М., Поздняков К.В. Рукопашный бой: учеб. пособие/. – Пенза : Изд-во ПГУ, 2022. – 122 с.

5. Купцов А. П. Спортивная борьба : учебник. М. : Физкультура и спорт, 1978. 403 с.

6. Кропивницкий А.М. Формирование методического мастерства руководителя занятий по рукопашному бою на базе программированного обучения // Инновационные технологии в педагогике высшей школы. – 2021. – С. 13-20.

7. Alisherovich M. N. Theory and methodology of types of wrestling // Вестник науки и образования. – 2021. – №. 15-3 (118). – С. 54-57.

8. Munirov N. A. Sportda qobiliyat va iqtidorni rivojlantirishda muhim faktorlar // Journal of Innovation in Educational and Social Research. – 2024. – Т. 2. – №. 11. – С. 20-25.

9. Муниров Н. А. Национальная борьба (Кураш)-одно из средств создания здоровой духовной среды среди молодёжи // УЧЁНЫЙ XXI ВЕКА. – 2019. – Т. 4. – С. 69-70.

10. Муниров Н. А. Роль физической культуры и спорта в развитии учащихся // Проблемы науки. – 2021. – №. 2 (61). – С. 47-49.

11. Муниров Н. А., Раджабов Э. Н. Учебные технологии, применяемые в обучении видам национальной борьбы кураш // Научный журнал. – 2019. – №. 6 (40). – С. 110-111.

12. Топалян Г. А. Армейский рукопашный бой как средство психофизической подготовки военнослужащих: дис. – Сибирский федеральный университет, 2022.

13. Туманян Г. С. Школа мастерства борцов, дзюдоистов и самбистов : учеб. пособие. М. : Академия, 2006. 592 с.

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARNING NUTQ KO'NIKMALARINI RIVOJLANTRISHDA O'QISH SAVODXONLIGI DARSLARINI AHAMIYATI

*Murodova Maqsuda Maxsudovna,
Buxoro davlat pedagogika instituti o'qituvchisi
<https://orcid.org/0009-0005-3389-5642>*

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qish savodxonligi darslarining ahamiyati tahlil qilinadi. O'qish savodxonligi nafaqat o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini rivojlantirishga xizmat qiladi, balki ularning mantiqiy fikrlash, diqqat va e'tiborini jamlash ko'nikmalarini ham oshiradi. Tadqiqotda o'qish savodxonligi darslarining o'quvchilarning nutqiy faoliyatiga, ayniqsa, so'zlash va eshitish ko'nikmalarini shakllantirishdagi roli ko'rib chiqiladi. Maqolada o'qish savodxonligining nutq madaniyatiga ta'siri, o'quvchilarning muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishda qanday yordam berishi, shuningdek, o'qish va yozish faoliyatlarining nutqiy rivojlanishdagi o'rni tahlil etiladi.

O'qish savodxonligini rivojlantirish orqali o'quvchilar o'z fikrlarini aniq va izchil ifodalash, tilni aniq va to'g'ri ishlatish kabi qobiliyatlarni egallashadi. Shuningdek, maqolada o'qish savodxonligini rivojlantirishning metodikasi, pedagogik yondashuvlar va ta'limda innovatsion usullarni qo'llashning samarali natijalari haqida fikr yuritiladi.

Kalit so'zlar: o'qish savodxonligi, boshlang'ich sinf, nutq ko'nikmalari, muloqot ko'nikmalari, nutq madaniyati, yozma nutq, og'zaki nutq, o'quv jarayoni, ta'lim metodikasi, pedagogik yondashuvlar, innovatsion usullar.

ЗНАЧЕНИЕ УРОКОВ ГРАМОТНОГО ЧТЕНИЯ В РАЗВИТИИ РЕЧЕВЫХ НАВЫКОВ У УЧАЩИХСЯ НАЧАЛЬНЫХ КЛАССОВ

*Муродова Максуда Максудовна,
Преподаватель Бухарского государственного педагогического института*

Аннотация: В данной статье анализируется значение уроков грамотности чтения для развития речевых навыков учащихся начальных классов. Грамотность чтения способствует не только развитию устной и письменной речи учащихся, но и улучшает их логическое мышление, навыки концентрации внимания и сосредоточенности. В исследовании рассматривается роль уроков грамотности чтения в речевой деятельности учащихся, особенно в формировании навыков говорения и слушания. В статье анализируется влияние грамотности чтения на культуру речи, как она помогает развивать коммуникативные навыки учащихся, а также место чтения и письма в речевом развитии.

Развитие грамотности чтения позволяет учащимся четко и последовательно выразить свои мысли, правильно и грамотно использовать язык. Кроме того, в статье рассматривается методика развития грамотности чтения, педагогические подходы и успешные результаты применения инновационных методов в обучении.

Ключевые слова: грамотность чтения, начальные классы, речевые навыки, коммуникативные навыки, культура речи, письменная речь, устная речь, учебный процесс, методика обучения, педагогические подходы, инновационные методы.

THE IMPORTANCE OF LITERACY LESSONS IN DEVELOPING SPEECH SKILLS IN PRIMARY SCHOOL STUDENTS

Murodova Maqsuda Maxsudovna,
Teacher of Bukhara State Pedagogical Institute

Annotation: This article analyzes the significance of reading literacy lessons in developing the speech skills of primary school students. Reading literacy not only fosters the development of students' oral and written speech but also enhances their logical thinking, concentration, and attention skills. The study examines the role of reading literacy lessons in students' speech activities, particularly in forming speaking and listening skills. The article explores the impact of reading literacy on speech culture, how it helps improve students' communication skills, and the role of reading and writing activities in speech development.

Developing reading literacy enables students to express their thoughts clearly and coherently and use language accurately and appropriately. Furthermore, the article discusses methods for developing reading literacy, pedagogical approaches, and the successful outcomes of applying innovative methods in education.

Keywords: reading literacy, primary school, speech skills, communication skills, speech culture, written speech, oral speech, educational process, teaching methods, pedagogical approaches, innovative methods.

Kirish. Zamonaviy ta'lim tizimida o'qish savodxonligini rivojlantirish masalasi har qachongidan ham dolzarb bo'lib qolmoqda. O'qish savodxonligi faqatgina o'quvchilarni kitob bilan ishlashga o'rgatish bilan cheklanmaydi, balki ularning matnni tushunish, tahlil qilish, fikrlash va izchil muloqot qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. O'quv jarayonining samaradorligini oshirish uchun yangi, innovatsion yondashuvlarni qo'llash zarurati tufayli ta'limda raqamli texnologiyalardan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Raqamli ta'lim vositalari o'quvchilarga turli interaktiv materiallar, o'quv dasturlari va onlayn platformalar orqali bilim olish imkoniyatini yaratadi, bu esa o'qish savodxonligini oshirishda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi. Raqamli texnologiyalarni o'qish jarayoniga kiritish nafaqat o'quvchilarning motivatsiyasini oshiradi, balki darslarni yanada qiziqarli va interaktiv qilish imkonini yaratadi. Shuningdek, bu vositalar o'quvchilarning o'z-o'zini baholash va o'z bilimlarini mustahkamlashda ham katta ahamiyatga ega bo'lib, o'qish savodxonligini yangi bosqichga ko'tarish imkoniyatini yaratadi.

Adabiyotlartahlilivametodologiyasi: Boshlang'ichsinfo'quvchilariningnutqko'nikmalarini rivojlantirishda o'qish savodxonligi darslarining ahamiyati» mavzusiga oid adabiyotlar va mavzuning o'rganilganlik darajasiga nazar tashlar ekanmiz, "Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish" mavzusida olib borgan izlanishlarida o'quvchilarda o'qish savodxonligini shakllantirish va uning o'sishini ta'minlash uchun zarur bo'lgan metodikalar, amaliy mashqlar va o'quv materiallari o'qish savodxonligining boshlang'ich ta'lim tizimidagi o'rni, uning o'quvchilarning umumiy rivojlanishiga ta'siri va o'qish jarayonida qanday qilib muvaffaqiyatga erishish yo'llarini tahlil etilgan.

O'qishning turli usullari va metodikalarini, jumladan, so'z boyligini kengaytirish, matnni tushunish va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirishga doir aniq tavsiyalar keltirilgan. O'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish uchun turli didaktik o'yinlar, interfaol metodlar va faoliyatlar tavsiya etiladi. Bu usullar o'quvchilarning qiziqishini oshirish, o'qish jarayonini qiziqarli va samarali qilishga yordam beradi.

Professor S. Matchonov boshlang'ich sinf o'quvchilari nutqini rivojlantirishda aniq belgilangan bir qator talablarga rioya qilish zarurligini ta'kidlaydi. Ularning ba'zilari quyidagilardir:

1. Nutq mazmunli bo'lishi kerak: O'quvchilarning nutqi to'liq va aniq bo'lishi, fikrlar

mazmunli tarzda bayon etilishi lozim.

2. Nutq mantiqiy bo'lishi zarur: Nutqning mantiqiy bog'lanishi, fikrlar o'rtasida izchil aloqalar bo'lishi zarur.

3. Nutq aniq bo'lishi lozim: O'quvchilar o'z fikrlarini ravshan va to'g'ri ifodalashlari kerak.

4. Nutq til vositalariga boy bo'lishi zarur: Nutq turli til vositalari, jumladan so'zlar va iboralar bilan boyitilishi kerak.

5. Nutq tushunarli bo'lishi lozim: Nutq boshqalar tomonidan tushunilishi va eshutilishi oson bo'lishi zarur.

6. Nutq ifodali bo'lishi kerak: Nutq jonli va ta'sirchan bo'lishi, o'quvchilarning fikrlarini ta'sirli tarzda ifodalash imkonini berishi kerak.

7. Nutq to'g'ri bo'lishi zarur: Nutqda grammatik va talaffuz xatoliklari bo'lmasligi kerak, bu esa tilni to'g'ri ishlatishga o'rgatadi.

8. Nutq madaniyatli bo'lishi lozim: Nutq odobli va madaniyatli bo'lishi, hurmat va ehtiromni namoyish etishi kerak.

Nutq o'quvchilarning tafakkurini rivojlantirishda muhim vosita bo'lib, ayniqsa kichik yoshdagi bolalarda. Nutq fikrni faqat ifodalash vositasi emas, balki uni shakllantirish quroli sifatida ham xizmat qiladi.

A.N. Leontev nutqni rivojlantirish jarayonini quyidagicha izohlaydi: «Nutqni o'stirish jarayoni nafaqat so'zlarning o'zgarishi va ularning assotsiatsiyalari, balki fikrlash va ongning rivojlanishi bilan bog'liq sifat jihatdan o'zgarishdir. Bu jarayon so'zning barcha funksiyalarini, tomonlarini va aloqalarini o'z ichiga oladi.»

K.D. Ushinskiy ona tilida o'qitishning zarurligini ta'kidladi va bolalarga tilni o'rgatishda tafakkur va til o'rtasidagi o'zaro aloqalarni aniqlashni muhim deb hisoblagan. Uning fikricha, bolalar tilni o'zlashtirish jarayonida ona tilini o'rgatish metodikasini ishlab chiqish zarur.

Rossiya fanida nutq ontogenezi bo'yicha tadqiqotlar L.S. Vigotskiy va A.N. Leontevning nazariyalariga tayangan holda amalga oshirildi. Ularning qarashlariga ko'ra, bolalar nutqining rivojlanishi muloqot jarayonida sodir bo'ladi.

A.A. Leontev nutqiy faoliyatning shakllanishini va uni rivojlantirishda muloqot usullarini o'zlashtirishning muhimligini ta'kidladi. Uning fikricha, nutqni rivojlantirishda asosiy bosqichlar maktabgacha yoshda boshlanadi.

Nutqni rivojlantirish jarayonida nutqiy faoliyat va muloqot usullarini shakllantirish zarur. Ushinskiy ham, nutqni rivojlantirishda bolaning ikki-uch yoshida o'rganish jarayoni juda tez rivojlanishini ta'kidladi. Bu yoshda bolalar bir necha yilda katta bilim va ko'nikmalarni o'zlashtiradi, bu esa keyinchalik ularning fikrlash va o'z-o'zini rivojlantirish jarayonlariga asos bo'ladi.

Natija va muhokama. Boshlang'ich sinflarda o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayoniga katta ahamiyat beriladi. O'qish savodxonligi – bu ko'p qirrali hodisa bo'lib, unda nutq vakillik vositasi sifatida taqdim etiladi va vakillik sub'ekti sifatida namoyon bo'ladi.

F.K. Murodov “Bolaning ijtimoiy rivojlanishi diagnostikasi” maqolasida ta'kidlanganidek: «Adabiyotning asosiy xususiyati shundaki, bu yerda til faqat muloqot va ifoda vositasi emas, balki tasvir ob'ekti hamdir.»

Boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga o'qish, yozish, og'zaki va yozma nutqdan foydalanish kabi ko'nikmalar o'rgatiladi. Bu esa o'qish savodxonligini rivojlantirish, ya'ni o'quvchilarning til ko'nikmalarini va nutqiy faoliyat turlarini shakllantirishni anglatadi. M.R. Lvov tomonidan taqdim etilgan o'qish faoliyatining to'rtta asosiy turi mavjud:

1. Tinglash – tovushli nutqni tinglash va tushunish jarayoni. Bu tur quyidagi omillarga bog'liq: til tizimi bilan tanishish darajasi, mavzuning qiziqishi va ahamiyati, muhitda o'yin mavjudligi, auditorning individual psixologik va shaxsiy imkoniyatlari, aqliy jarayonlarning rivojlanishi (xotira va e'tibor).

2. So'zlash – o'quvchilarning og'zaki nutqda o'z fikrlarini to'g'ri, ravon va mantiqiy ifodalay olishlari, suhbatdoshga tushunarli so'z va iboralarni tanlash, fikr yuritish uchun ma'lum joylarda to'xtab turish, o'z fikrini to'g'ri va mantiqiy ifoda eta olish.

3. O'qish – o'quvchilarning o'qigan materiallarini to'liq tushunib o'zlashtirishlari. Bu o'qish savodxonligi asosiy ko'nikmasi bo'lib, o'quvchilarga matnni to'g'ri va samarali o'qish, tezlikni oshirish va matnni tahlil qilishda yordam beradi.

4. Harf – fikrning grafik koddagi ifodasi. O'quvchilar harf va so'zlarning yozilishiga e'tibor berib, ularni to'g'ri va aniq yozishni o'rganadilar.

O'qish faoliyatining barcha turlari darslarning katta qismi mazmuniga kiritilgan, bu esa o'qish savodxonligini rivojlantirish jarayonining muvaffaqiyatli amalga oshirilishining shartidir. Har bir o'qituvchi o'z darslarida o'quvchilar savodxonligini rivojlantirish bilan shug'ullanadi.

Boshlang'ich ta'limda zamonaviy yondashuvlar asosida xorijiy tajriba va yangi avlod darsliklarining ishlab chiqilishi bilan o'qish savodxonligini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilgan. Tadqiqotimizda kichik yoshli maktab o'quvchilarida o'qish savodxonligini rivojlantirish usullarini quyidagi metodlar yordamida yoritishga harakat qildik. Jumladan;

Tinglab tushunish. Boshlang'ich sinfdan boshlab o'quvchilarda eshitib tushunish ko'nikmasini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega. Bu jarayon orqali o'quvchi diqqatni uzoq vaqt davomida saqlashni o'rganadi. O'quvchi eshitayotgan matnning asosiy ma'lumotlarini ketma-ket yodda saqlab qolishga harakat qiladi. Natijada, o'quvchi tushunish jarayonini ongli ravishda boshqarishni o'rganadi. Bu jarayon murakkab bo'lib, o'quvchilarning diqqat darajasi farq qiladi. Shuning uchun o'qituvchi har bir o'quvchining ma'lumotni qabul qilish darajasini psixologik jihatdan o'rganishi kerak. Ma'lumotni esda saqlash qobiliyati sust bo'lgan o'quvchilar bilan, o'qituvchi turli metodlar yordamida matnni mustahkamlash va o'qish savodxonligini oshirishni amalga oshirishi zarur.

Bolalarning eslab qolish darajasi va nutqiy ko'nikmalari rivojlantirilishida, o'quvchilarning savollarga javob bera olish malakasi, nutq ravonligi va fikrlarni bog'lash darajasi muhim o'rin tutadi. O'qib tushunish ko'nikmasi boshlang'ich sinfdan boshlab rivojlantiriladi. O'quvchilar matnni o'qib tushunishda turli darajalarda bo'lishi mumkin, chunki ularning tushunish darajasi farqlanadi. O'qituvchi ushbu farqni aniqlab, o'quvchilarga mos yo'nalishlarni berishi kerak. Matnni o'qib tushunish jarayoni oddiydan murakkabga qarab rivojlantiriladi, bu esa o'quvchilarning tushunish qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

Ona tili darslarida o'qish va tushunish ko'nikmasi, matnni tushunishda savollarni ishlatib, o'quvchilarning o'qib tushunish darajasini aniqlashga yordam beradi. O'quvchilar matnning mazmunini tushunish uchun, so'zlarning kontekstdagi ma'nolarini anglashlari kerak. Shunday qilib, o'qituvchi o'quvchilarning ehtiyojlarini o'rganib, ularning imkoniyatlarini rivojlantirishi lozim.

Dars jarayonida o'qituvchi o'quvchilarga matnning mazmuni haqida savollar berib, ularning fikrlarini rivojlantirishni maqsad qiladi. Masalan, Boburjonning shaharga borish istagi va buvisi bilan suhbatida shahar va qishloq o'rtasidagi farqlarni tushuntirish orqali o'quvchilarni matnni tushunishga yo'naltirish mumkin.

O'quvchilar o'qish jarayonida quyidagi topshiriqlarni bajaradilar:

1. Sarlavhani o'qish va rasmda nima tasvirlangani haqida o'quvchilardan savol berish.
2. Rasmni tasvirlash, rasm va sarlavhani birlashtirish.
3. Sarlavhadan va rasmni ko'rib, hikoyaning mazmuni haqida taxmin qilish.
4. O'quvchilar hikoyani ifodali o'qish, keyin esa o'z fikrlarini bildirish.
5. O'qituvchi o'quvchilarga hikoya bilan mos keldimi deb savol berib, ularning fikrlarini tekshiradi.

6. O'quvchilarga hikoyani yana bir bor ifodali o'qish, shahar va qishloq haqida oila a'zolaridan fikrlar olish va ularni daftarlariga yozib kelish topshirig'i beriladi.

Bu jarayon orqali o'quvchilar matnni chuqur tushunishga va shahar bilan qishloq orasidagi farqlarni aniqlashga yordam beradi. O'qituvchi esa o'quvchilarning fikrlarini tinglab, o'qish va tushunish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Xulosa. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutq ko'nikmalarini rivojlantirishda o'qish savodxonligi darslarining ahamiyati ko'rsatilgan. Izlanishlarda o'quvchilarning o'qish savodxonligini oshirish uchun metodikalar, amaliy mashqlar va o'quv materiallari haqida so'z boradi. O'qishning turli usullari va metodikalariga, shuningdek, o'quvchilarda matnni tushunish, so'z boyligini kengaytirish va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga imkoniyat beradi.

Professor S. Matchonov va boshqa olimlarning o'quvchilarning nutq ko'nikmalarini rivojlantirishdagi talablari haqida ham muhim fikrlar mavjud. Nutqning mazmunligi, mantiqiyli, aniq va tushunarli bo'lishi zarurligi ta'kidlanadi. A.N. Leontev va K.D. Ushinskiy kabi olimlar nutqni rivojlantirish jarayonining o'quvchilarning tafakkurini shakllantirishdagi o'rnini ko'rsatadilar. Ularning fikriga ko'ra, nutq faqat ifodalash vositasi emas, balki fikrni shakllantirish quroli sifatida xizmat qiladi.

Shuningdek, o'quvchilarda o'qish, yozish, eshitish va so'zlash ko'nikmalarini rivojlantirishga oid metodikalar ham ko'rsatilgan. Bu o'quvchilarning o'z nutqlarini aniq, ravon, mantiqiy va ifodali qilishlariga yordam beradi. Bu jarayonlarni o'qituvchilarning diqqatli yondashuvi, interfaol metodlar va faoliyatlar orqali amalga oshirish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.

1. Bekchanova, F. (2020). Boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning lug'at boyligini kengaytirish. Nukus: Nukus Davlat universiteti.
2. Ismailova, M. (2020). Boshlang'ich ta'limda o'qish savodxonligini rivojlantirish. Toshkent: O'qituvchi.
3. Daminova, R. (2018). O'quvchilarda nutqiy rivojlanish va o'qish savodxonligi. Tashkent: Navro'z.
4. Karimov, M., & Tashpulatova, S. (2022). Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda axborot texnologiyalarining o'rnini. Tashkent: Akademiya.
5. Mahmudov, A. (2019). O'qish va yozish savodxonligini oshirish metodikasi. Samarqand: Samarqand Davlat universiteti nashriyoti.
6. Murodova M. M., Qizi M. R. N. A. Sun'iy intellekt vositasida boshlang'ich ta'lim o'quvchilarida nutqni rivojlantirishning afzalliklari //Yangi O'zbekiston ustozlari. – 2024. – T. 2. – №. 31. – C. 93-100.
7. Murodova M. Interaktiv o'quv vositalari yordamida boshlang'ich sinf o'quvchilarida o'qish va tinglash malakalarini takomillashtirish //»Педагогическая акмеология» международный научно-методический журнал. – 2024. – Т. 9. – №. 17.
8. Ortiqov O. R. Globallashuv jarayonida bo'lajak o'qituvchilarda mafkuraviy immunitetni rivojlantirish omillari //Scientific progress. – 2021. – Т. 1. – №. 5. – C. 160-165.
9. Ortiqov O. R. O'qituvchi faoliyatida pedagogik deontologiya va kompetentlikning roli va ahamiyati // scientific progress. – 2021. – т. 2. – №. 5. – с. 42-47.
10. Oybek O., Maqsuda M. Talabalar axborot texnologiyalaridan foydalanish ko'nikmalarini rivojlantirishning pedagogik asoslari //Interpretation and researches. – 2024. – Т. 2. – №. 18. – C. 33-40.
11. Ortiqov O. Distance education technologies in higher education system //Journal of Integrated Education and Research. – 2022. – Т. 1. – №. 1. – C. 1-7.
12. Rustamovich O. O. Ma'naviy-ma'rifiy ishlar talabalar mafkuraviy immuniteti rivojlantirish kafolati // ta'lim va rivojlanish tahlili onlayn ilmiy jurnali. – 2023. – Т. 3. – №. 11. – C. 29-36.
13. Rahmatova, K. (2022). O'qish savodxonligi darslarida nutq ko'nikmalarini rivojlantirish. Tashkent: Sharqi Taraqqiyoti.
14. Tillaev, U. (2019). Boshlang'ich sinfda interfaol o'quv metodlari. Tashkent: O'qituvchi.
15. Siddiqova, D. (2021). Boshlang'ich sinfda o'qish metodikasi va nutqni rivojlantirish. Buxoro: Buxoro universiteti nashriyoti.
16. Sul'tonov, B. (2021). Ta'limda raqamli texnologiyalarni qo'llash va o'quvchilarni nutqiy rivojlantirish. Toshkent: TAU.
17. Qosimova, O. (2023). Interfaol metodlar orqali boshlang'ich sinf o'quvchilarining nutqiy ko'nikmalarini rivojlantirish. Tashkent: Science and Education.

AHOLI TURAR JOYLARIDA SPORT-SOG'LOMLASHTIRISH TADBIRLARINI TASHKIL ETISH METODIKASI - SAMARALI YONDASHUVLAR VA INNOVATSION USULLAR

*Muxitdinova Nigora Mexriddinovna
Buxoro davlat pedagogika instituti*

Jismoniy madaniyat nazariyasi va metodikasi kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

*Ruziyeva Raxima Bobojonovna
Buxoro davlat pedagogika instituti 1 bosqich magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada aholining turar joy hududlarida sport-sog'lomlashtirish tadbirlarini samarali tashkil etish metodikasi tahlil qilinadi. Tadqiqot doirasida mavjud ilmiy adabiyotlar va ilg'or tajribalar o'rganilib, sport infratuzilmasini rivojlantirish, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda motivatsiya tizimini shakllantirish kabi omillar muhimligi aniqlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, aholining jismoniy faolligini oshirish uchun kompleks yondashuv va zamonaviy usullardan foydalanish zarur. Mazkur metodika sport tadbirlarining samaradorligini oshirish hamda sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: sport-sog'lomlashtirish, turar joy hududlari, innovatsion usullar, jismoniy faollik, sog'lom turmush tarzi.

«МЕТОДИКА ОРГАНИЗАЦИИ СПОРТИВНО-ОЗДОРОВИТЕЛЬНЫХ МЕРОПРИЯТИЙ В МЕСТАХ ПРОЖИВАНИЯ НАСЕЛЕНИЯ - ЭФФЕКТИВНЫЕ ПОДХОДЫ И ИННОВАЦИОННЫЕ МЕТОДЫ»

Мухитдинова Нигора Мехриддиновна

Бухарский государственный педагогический институт

Доцент кафедры теории и методики физической культуры, доктор философии (PhD) по педагогическим наукам

*Ruziyeva Raxima Bobojonovna
Магистрант 1-го курса Бухарского государственного педагогического института*

Аннотация: В данной статье анализируется методика эффективной организации спортивно-оздоровительных мероприятий в жилых районах. В рамках исследования изучены существующая научная литература и передовой опыт, выявлена важность таких факторов, как развитие спортивной инфраструктуры, внедрение инновационных технологий и формирование системы мотивации. Результаты исследования показывают, что для повышения физической активности населения необходимо применять комплексный подход и современные методы. Данная методика способствует повышению эффективности спортивных мероприятий и продвижению здорового образа жизни.

Ключевые слова: спортивно-оздоровительные мероприятия, жилые районы, инновационные методы, физическая активность, здоровый образ жизни.

«METHODOLOGY FOR ORGANIZING SPORTS AND WELLNESS ACTIVITIES IN RESIDENTIAL AREAS - EFFECTIVE APPROACHES AND INNOVATIVE METHODS»

*Muxitdinova Nigora Mehriddinovna
Bukhara State Pedagogical Institute*

*Associate Professor of the Department of Theory and Methodology of Physical Culture,
Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences*

Ruziyeva Raxima Bobojonovna

1st-year Master's Student of Bukhara State Pedagogical Institute

ANNOTATION: This article analyzes the methodology for effectively organizing sports and wellness activities in residential areas. Within the scope of the study, existing scientific literature and best practices were examined, highlighting the importance of factors such as the development of sports infrastructure, the implementation of innovative technologies, and the formation of a motivation system. The research results indicate that a comprehensive approach and modern methods are necessary to increase the physical activity of the population. This methodology contributes to enhancing the effectiveness of sports events and promoting a healthy lifestyle.

KEY WORDS: sports and wellness, residential areas, innovative methods, physical activity, healthy lifestyle.

KIRISH. Bugungi kunda jismoniy faollik yetishmovchiligi va sogʻlom turmush tarziga rioya qilmaslik jahon miqyosida dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Urbanizatsiya jarayonlari, ish faolligining kamayishi va zamonaviy texnologiyalarning keng tarqalishi aholi orasida harakatsizlik darajasini oshirmoqda. Bu esa yurak-qon tomir kasalliklari, ortiqcha vazn, diabet va boshqa turli kasalliklarning koʻpayishiga sabab boʻlmoqda.

Ayniqsa, aholi yashash joylarida sport va sogʻlomlashtirish tadbirlarining samarali tashkil etilishi jismoniy faollikni oshirish hamda jamiyat salomatligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi. Biroq, mavjud metodikalar hamma hududlarda birdek samarali ishlamaydi, chunki turli yosh guruhlari, ijtimoiy qatlamlar va infratuzilma sharoitlari har xil boʻladi. Shu sababli, turar joylarda sport-sogʻlomlashtirish tadbirlarini tashkil etish metodikasini takomillashtirish dolzarb masala hisoblanadi.

Ushbu mavzuning ahamiyati shundaki, zamonaviy shaharsozlik va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish jarayonida aholining sport bilan shugʻullanishi uchun qulay muhit yaratish talab etiladi. Sogʻlom turmush tarzini targʻib qilish va aholining jismoniy faolligini oshirishga qaratilgan innovatsion yondashuvlar joriy etilishi zarur. Bu boradagi tadqiqotlar sport-sogʻlomlashtirish tadbirlarini aholining ehtiyojlari va imkoniyatlariga moslashtirishga, jismoniy faollik madaniyatini shakllantirishga hamda sogʻliq uchun foydali boʻlgan yangi metodlarni ishlab chiqishga xizmat qiladi.

Kirish. Ta'lim jarayonida interaktiv metodlar, innovatsion texnologiyalar, pedagogik va axborot texnologiyalarini o'quv jarayonida qo'llashga bo'lgan qiziqish, e'tibor kundan – kunga kuchayib bormoqda, bunday bo'lishining sabablaridan biri, shu vaqtgacha an'anaviy ta'limda talabalarni faqat tayyor bilimlarni egallashga o'rgatilgan bo'lsa, zamonaviy texnologiyalarda esa, ularni egallayotgan bilimlarni o'zlari qidirib topishlariga, mustaqil o'rganib tahlil qilishlariga, xatto xulosalarni o'zlari keltirib chiqarishlariga o'rgatadi. Pedagog bu jarayonga shaxsning rivojlanishi, shakllanishi, bilim olish va tarbiyalanishiga sharoit yaratadi va shu bilan bir qatorda boshqaruvchilik, yo'naltiruvchilik funksiyasini bajaradi. Ta'lim jarayonida talaba asosiy figuraga aylanadi.

Adabiyotlar sharhi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Miromonovich Mirziyoev ta'kidlaganidek: "Hammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni bozorga olib chiqishni, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'yimoqda. Ya'ni, o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o'zlashtirish va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda.

Mamlakatni innovatsion rivojlantirish strategiyasi va mexanizmlari eng avvalo shu davlatda yaratilgan intellektual va ilmiy-texnikaviy salohiyatdan qanchalik samarali foydalanish bilan chambarchas bog'liq"[1, 168].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL. Ta'limni axborotlashtirish – ta'lim sohasini uslubiy va amaliy jihatdan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va texnik vositalari bilan ta'minlash va undan samarali foydalanish asosida ta'lim-tarbiya jarayonining ruhiy-pedagogik maqsadlarini amalga oshirishga yo'naltirilgan jarayon bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

- ilmiy –pedagogik axborotlar, axborot-uslubiy materiallar hamda kommunikatsiya tarmoqlarining avtomatlashgan ma'lumotlar bankidan foydalanish asosida ta'lim tizimini boshqarish mexanizmini takomillashtirish;

- zamonaviy axborotlashgan jamiyat sharoitida ta'lim oluvchi shaxsning rivojlanish maqsadlariga mos keluvchi ta'lim-tarbiya tizimi uslubiyoti, tashkiliy shakllari hamda ta'lim mazmuni strategiyasini takomillashtirish;

- ta'lim oluvchining mustaqil bilim olish va axborot-o'quv, tadqiqot-izlanish ishlarini amalga oshirish, o'z faoliyatidagi turli sohalarda axborotlarni mustaqil qayta ishlash qobiliyatlarini shakllantirish asosida intellektual salohiyatini rivojlantirishga qaratilgan uslubiy tizimni yaratish;

- ta'lim oluvchining bilimni nazorat qilish va baholashning kompyuter-testli tizimini yaratish va undan foydalanish.

Ta'limni axborotlashtirish ta'lim beruvchi va oluvchi faoliyatini intellektuallashtirish jarayoni sifatida faqatgina zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari asosida rivojlanadi.

Innovatsion texnologiyalar pedagogik jarayon hamda o'qituvchi va talaba faoliyatiga yangilik, o'zgarishlar kiritish bo'lib, uni amalga oshirishda asosan interaktiv metodlardan to'liq foydalaniladi.

Interaktiv metodlar – bu jamoa bo'lib fikrlashdan iborat deb yuritiladi, ya'ni pedagogik ta'sir etish usullari bo'lib, ta'lim mazmunining tarkibiy qismi hisoblanadi. Bu metodlarning o'ziga xosligi shundaki, ular faqat pedagog va talabalarning birgalikda faoliyat ko'rsatishi orqali amalga oshiriladi.

Bunday pedagogik hamkorlik jarayoni o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

- talabaning dars davomida befarq bo'lmaslikka mustaqil fikrlash, ijod etish va izlanishga majbur etishi;

- talabalarni o'quv jarayonida bilimga bo'lgan qiziqishlarini doimiy ravishda bo'lishini ta'minlashi;

- talabaning bilimga bo'lgan qiziqishini mustaqil ravishda har bir masalaga ijodiy yondoshgan holda kuchaytirishi;

- pedagog va talabaning hamisha hamkorlikdagi faoliyatini tashkillanishi.

Pedagogik texnologiyalar – pedagogik texnologiyalar masalalarining muammolarini o'rganayotgan o'qituvchilar, ilmiy – tadqiqotchilar, amaliyotchilarning fikricha, pedagogik texnologiya – bu faqat axborot texnologiyasi bilan bog'liq, hamda o'qitish jarayonida qo'llanishi zarur bo'lgan TSO – O'TV (ta'lim samaradorligini oshirish), (o'qituvchining texnologik vositalari), kompyuter, masofali o'qitish, yoki turli xil texnikalardan foydalanish deb belgilanadi. Pedagogik texnologiyaning eng asosiy negizi - bu o'qituvchi va talabaning belgilangan maqsaddan kafolatlangan natijada hamkorlikda erishishlari uchun tanlangan texnologiyalariga bog'liq deb hisoblaymiz, ya'ni o'qitish jarayonida, maqsad bo'yicha kafolatlangan natijaga erishishda qo'llaniladigan har bir ta'lim texnologiyasi o'qituvchi va talaba o'rtasida hamkorlik faoliyatini tashkil eta olsa, har ikkalasi ijobiy natijaga erisha olsa, o'quv jarayonida talabalar mustaqil fikrlay olsalar, ijodiy ishlay olsalar, izlansalar, tahlil

eta olsalar, o‘zlari hulosa qila olsalar, o‘zlariga, guruhga, guruh, va ularga baho bera olsa, o‘qituvchi esa ularning bunday faoliyatlari uchun imkoniyat va sharoit yarata olsa, ana shu, o‘qitish jarayonining asosi hisoblanadi.

Bundan tashqari o‘qitish jarayonini oldindan loyihalashtirish zarur, bu jarayonda o‘qituvchi o‘quv predmetining o‘ziga xos tomonini, joy va sharoitini, talabning imkoniyati va ehtiyojini hamda hamkorlikdagi faoliyatini tashkil eta olishini hisobga olish kerak, shundagina, kerakli kafolatlangan natijaga erishish mumkin. Qisqa qilib aytganda, talabani ta’limning markaziga olib chiqish kerak.

O‘qituvchi tomonidan har bir darsni yaxlit holatda ko‘ra bilish va uni tasavvur etish uchun bo‘lajak dars jarayonini loyihalashtirib olish kerak. Bunda o‘qituvchiga u tomonidan bo‘lajak darsni texnologik haritasini har bir mavzu, har bir dars uchun o‘qitilayotgan predmet, fanning xususiyatidan, talabalarning imkoniyati va ehtiyojidan kelib chiqqan holda tuziladi.

Bunday texnologik haritani tuzish oson emas, chunki buning uchun o‘qituvchi pedagogika, psixologiya, xususiy metodika, pedagogik va axborot texnologiyalardan habardor bo‘lishi, shuningdek, juda ko‘p metodlar, usullarini bilish kerak bo‘ladi. Har bir darsni rang-barang, qiziqarli bo‘lishi avvaldan puxta o‘ylab tuzilgan darsning loyihalashtirilgan texnologik haritasiga bog‘liq.

“Pedagogning innovatsion faoliyati quyidagilar bilan belgilanadi:

- yangilikni qo‘llashga tayèrgarligi;
- pedagogik yangiliklarni qabul qilishi;
- novatorlik darajasi;
- kommunikativ qobiliyatning rivojlanganligi;
- ijodkorligi”[3, 17].

Respublikamizda ta’lim-tarbiya sohasini isloh qilishning asosiy omillaridan biri shaxs manfaati va ta’lim ustuvorligidir. Bu omil davlatimizning ijtimoiy siyosatini belgilab berganligi tufayli ta’limning yangi modeli yaratildi.

NATIJALAR

Talabalarga axborot uzatishning eng samarali usul va vositalari hisoblangan virtual ma’ruza, tajriba stendlarini yaratish hamda ulardan dars mashg‘ulotlarida foydalanishni ta’minlash lozim. Bu talabalarga bilimlarni egallash va turli masalalarni hal etishga imkon beradi, ularning javobini qabul qiladi, tahlil etadi hamda baholaydi. Pedagog mashg‘ulot mavzusini o‘zlashtirishga oid yo‘llanmalar yaratadi va zarur holatlarda talabalarga yakka tartibda yordam ko‘rsatib, metodist- mutaxassis bilan hamkorlikda mavzuni kompyuter yordamida o‘zlashtirish dasturini tuzadi [2].

Axborot texnologiyalari talabalarga axborotning noan’anaviy manbalariga kirib borish imkoniyatlarini ochib beradi, mustaqil ishlashning samaradorligini oshiradi, ijod qilish, yaratish va turli kasb malakalarini mustahkamlash uchun imkonoyatlar beradi, o‘qitishning yangi shakllari va usullarini amalga oshirish imkonini beradi. Axborot texnologiyalari amaliy va laboratoriya ishlarining samaradorligini oshirish, talabalar bilimini tekshirish, o‘zlashtirishni ko‘tarish, lug‘at zahirasi oshirish imkonini beradi. Talabalarni tayyorlash sifatini doimiy ravishda oshirib borish; o‘qitishning faol uslublarini qo‘llash; mustaqil ishlashlari uchun metodika hamda avtomatlashtirilgan vositalar yaratish; mashg‘ulot materialini mazmuni shakli va usullarini doimiy yangilanib borilishini ta’minlash; mashg‘ulot bosqichlarida bu jarayonning axborot bilan ta’minlanishining turli shakllarini yaratish va rivojlantirish; talabalarning avtomatlashtirilgan test sinovidan o‘tishlarini tashkil etish ishlari amalga oshiriladi [5].

Multimedia tizimi esa materiallarni o‘zlashtirish tezligini mustaqil boshqarish, kasbiy malaka va qobiliyatni mustahkamlovchi alohida hollarni takrorlash imkonini beradi. Masofadan turib ta’lim berish kompyuter telekommunikatsiyalarini zamonaviy texnik vositalaridan foydalanishga asoslanadi. Masofadan turib ta’lim berish axborot bazasi-ni boyitish, talaba

bilan muassasa o'rtasidagi o'zaro munosabatni jadal-lashtirish, ta'limning metodik boyligini to'ldirish imkonini beradi.

Milliy dasturda ta'lim muassasalarining moddiy-texnik va axborot bazasini mustahkamlash va ularni takomillashtirish, darsliklar, o'quv qo'llanmalari, uslubiy tavsiyanomalarni yaratish, ta'lim jarayonida pedagogik texnologiyalardan foydalanish masalalariga alohida ahamiyat berilgan. Bularni hal etishda zamonaviy axborot texnologiyalardan foydalanish orqali yetuk kadrlarni tayyorlash alohida ahamiyat kasb etadi.

Zamonaviy ta'limda ta'lim jarayonini sezilarli darajada o'zgartiradigan va ta'lim samaradorligini oshiradigan turli xil pedagogik texnologiyalar tobora ko'proq foydalanilmoqda. Universitetlar ham o'z sinflarida yangi texnologiyalarni faol joriy etish va qo'llashmoqda.

Ana shunday texnologiyalardan biri masofaviy ta'limdir. Bu talabalarga darsga kelmasdan, to'g'ridan-to'g'ri uydun turib bilim olish imkonini beradi. Masofaviy ta'limning bir necha shakllari mavjud: onlayn ma'ruzalar, interfaol kurslar, vebinarlar va boshqalar. Masofaviy ta'lim tufayli talabalar o'z vaqtlarini va o'quv materiallarini o'zlari uchun qulay formatda moslashuvchan tarzda rejalashtirishlari mumkin.

Yana bir ommabop texnologiya darsda interfaol doskalardan foydalanishdir. Ular o'qituvchilarga materialni vizual va vizual tarzda taqdim etish, real vaqt rejimida eslatmalar va sharhlar olish imkonini beradi. Shuningdek, talabalar munozara va muammolarni hal qilishda faol ishtirok etishlari mumkin, bu ularning faolligi va o'quv jarayonidagi ishtirokini oshiradi.

Keyingi yillarda darslarda multimedia va video materiallardan foydalanish kabi texnologiyalar tobora ommalashib bormoqda. Ular o'qituvchilar va talabalarga materialni vizual tarzda aks ettirishga imkon beradi, bu esa uni yanada tushunarli va esda qolarli qiladi. Bundan tashqari, multimediyadan foydalanish turli formatlar va o'qitish usullarini targ'ib qiladi.

XULOSA VA MUNOZARA

Darsning texnologik haritasini qay ko'rinishda yoki shaklda tuzish bu o'qituvchining tajribasi, qo'ygan maqsadi va ixtiyoriga bog'liq. Texnologik harita qanday tuzilgan bo'lmasin, unda dars jarayoni yaxlit holda aks etgan bo'lishi hamda aniq belgilangan maqsad, vazifa va kafolatlangan natija, dars jarayonini tashkil etishning texnologiyasi to'liq o'z ifodasini topgan bo'lishi kerak. Texnologik haritani tuzilishi o'qituvchidan darsni kengaytirilgan konspektini yozishdan xalos etadi, chunki bunday haritada dars jarayonining barcha qirralari o'z aksini topadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Sh.M.Mirziyoev. Milliy taraqqiyot yo'limizni qatiyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. - Toshkent: "O'zbekiston", 2017.
2. B.Ziyomuxammadov. Pedagogika. O'quv qo'llanma. Toshkent, 2006.
3. Xummamatova, K. (2020). Pedagogika oliy ukuv yurtlarida kredit ukitish tizimini tashkil yetish. Arxiv Nauchnykh Publikatsiy JSPI.
4. Conversations about a foreign language lesson: a guide for pedagogical students. intov / E.I. Passov [i dr.]. - L.: Education, 2015. - 176 p.
5. N.A.Muslimov, M.H.Usmonboeva, D.M.Sayfurov, A.B.To'raev. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. Toshkent, 2015.
6. Bim, I.L. To the question of teaching methods for foreign languages / I.L. Bim // IYaSh. -2014. - No. 2. - p. 19-32.
7. Introduction to the communicative method of teaching English: a guide for Russian teachers. - Oxford: Oxford University Press, 2018. - 48 p.

BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KREATIV SIFATLARINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK, PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

*Rasulova Zilola Durdimurotovna
Zarmed universiteti dotsenti*

Annotatsiya: Maqolada talabalarda kreativlik sifatlarni rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyati keltirilgan. Kreativ ta’lim jarayonini qurish, shu o‘rinda kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion o‘qitish jarayonining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik, psixologik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullarini aniqlash zaruriyati kabi masalalar yoritilgan.

Kallit so‘zlar: kreativlik tushunchasi, kreativ kompetentlik, ijofiy faoliyat, kognitiv qiziqish, tasavvur, fantaziya, tanqidiy va ijodiy yondashish, ko‘nikma, qobiliyat, moslashuvchanlik, shaxsiy fazilatlar, kreativ tafakkur.

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ И ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ РАЗВИТИЯ ТВОРЧЕСКИХ КАЧЕСТВ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Аннотация: В статье представлена общая сущность процесса развития творческих качеств у студентов. Освещены такие вопросы, как построение творческого образовательного процесса, необходимость определения конкретного содержания, инструментария, педагогических, психологических условий, характеристик и методов инновационного образовательного процесса, направленного на развитие творческой компетентности.

Ключевые слова: понятие креативности, творческая компетентность, творческая деятельность, познавательный интерес, воображение, фантазия, критично-творческий подход, умение, способности, адаптивность, личностные качества, творческое мышление.

PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL OPPORTUNITIES FOR DEVELOPING THE CREATIVE QUALITIES OF FUTURE TEACHERS

Annotation: The article presents the general essence of the process of developing creative qualities in students. Issues such as the construction of a creative educational process, the need to determine the specific content, tools, pedagogical, psychological conditions, characteristics and methods of the innovative educational process aimed at the development of creative competence are highlighted.

Key words: the concept of creativity, creative competence, creative activity, cognitive interest, imagination, fantasy, critical and creative approach, skill, ability, adaptability, personal qualities, creative thinking.

Kirish. Bugungi kunda talabalarning hayotiy o‘z-o‘zini anglash istiqbollari oliy o‘quv yurtlari oldiga ijodiy kasbiy faoliyatga tayyor, murakkab muammolarni hal qilishga, balki muammolarni aniqlashga qodir bo‘lgan bo‘ljak mutaxassislarni yetishtirishning dolzarb vazifasini qo‘ymoqda. Hozirgi iqtisodiy tendentsiyalar jamiyat taraqqiyoti yuqori sifat uchun oliy ta’limning ijtimoiy tartibini belgilab berdi. Bitiruvchilarni kasbiy tayyorlash ko‘rsatkichlaridan biri ijodiy faollik bo‘lib, bu ulardan kreativ bilimlarni talab qiladi. Shunday ekan kreativlik ta’lim jarayonini tashkillashtirishni o‘zida mujassamlashtirib, kreativ ta’lim jarayonini qurish, ta’lim texnologiyalaridan ijodiy salohiyatni rivojlantirish, turli uslublar, bilim va ko‘nikmalar muvozanatini rivojlantirishni o‘z ichiga oladi.

Avvalo shaxsda kreativlik sifatlarini rivojlantirish jarayonining umumiy mohiyatini

to'laqonli anglash uchun dastlab "kreativlik" tushunchasining mohiyatini tushunib olish talab etiladi.

"Kreativlik" tushunchasini quyidagicha ta'riflash mumkin: Kreativlik (lot., ing. "create" – yaratish, "creative" – yaratuvchi, ijodkor) – individning yangi g'oyalarni ishlab chiqarishga tayyorlikni tavsiflovchi va mustaqil omil sifatida iqtidorlikning tarkibiga kiruvchi ijodiy qobiliyati.

Kreativlikning mohiyati - intellekt insonning aqliy salohiyati bo'lsa, kreativlik ana shu aqliy salohiyatni maqsadga yo'naltirilgan tarzda erkin ishlata olish qobiliyati hisoblanadi. Kreativlik atamasi Angliya-Amerika psixologiyasida 60-yillarda paydo bo'ldi. U individning yangi tushuncha yaratishi va yangi ko'nikmalar hosil qilish qobiliyati, xislatini bildiradi [1].

Kreativ kompetentlik – pedagogik faoliyatga nisbatan tanqidiy va ijodiy yondoshish, o'zining ijodkorlik malakalariga egaligini namoyish eta olish.

Bo'lajak mutaxassislarining ijodiy shaxsini shakllantirishning asosiy sharti sifatida ularning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish asosiy vazifadir. Ammo talabalar ning ijodiy salohiyati bevosita o'qituvchining ijodiy maydonining kuchiga bog'liq.

Kreativ kompetentlikni rivojlantirish haqida gapirilganda, ijodda tasavvur qilish, fantaziya va orzu muhim ahamiyatga ega ekanligi hamda uning asosiy qismlaridan biri hisoblanishini unutmaslik kerak. Ijod tasavvur qilish faoliyati bilan uzviy bog'liq. Tasavvursiz odam deyarli ijodiy faoliyat bilan shug'ullana olmaydi, u faqat borliqning zaif nusxasini yarata olishi mumkin. Tasavvur qilish bu o'zi ega bo'lgan tajriba asosida yangi obrazlarni yaratishdan iborat murakkab ruhiy jarayondir. (Sharipov)

Adabiyotlar tahlili. J.Gilford kreativlikni tavsiflaydigan qator individual qobiliyatlarni ko'rsatadi: fikrni maqsadga muvofiq yo'llay olish, o'ziga xoslik (originallik), qiziquvchanlik, farazlar yaratish qobiliyati, xayol qila olish (fantaziya) [4].

B.G.Ananyev, D.B.Bogoyavlenskiy, P.Ya.Galperin, L.S.Vygotskiy, Ya.A.Ponomarev, S.L. Rubinshteyn, Yu.A.Samarin, V.I.Slobodchikov kabi psixolog olimlarning asarlarida ijodkorlik ijodiy faoliyat bilan belgilanadi.

Psixologik va pedagogik adabiyotlarda ko'pincha ushbu muammo haqida gapiriladi. Talabalarda ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirish muhim, ya'ni qobiliyatlar bunga bog'liqligini unutmaslik darkor, bu shaxsning eng muhim ruhiy xususiyatlaridan biridir deb qaraladi [2, 11].

Torrensning fikricha, ijodkorning tafakkuri va faolligini turlicha mezonlar bilan baholash mumkin: ravonlik (ko'p sonli g'oyalarni yaratish), moslashuvchanlik (turli usullar yoki strategiyalardan foydalanish vazifa yoki muammoni hal qilish uchun), o'ziga xoslik (nostandart yechimlar, g'oyalar ishlab chiqish), yopilishga qarshilik (stereotiplarni rad etish, yangilikka ochiqlik) [9].

Klarin kreativ fikrlashning quyidagi xususiyatlarini belgilaydi: yangicha g'oyalarni yaratish qobiliyati va muayyan maqsadga erishish uchun ularning kombinatsiyasi; yakuniy mahsulotning o'ziga xosligi, natijada ichki va tashqi ijodiy faoliyat.

Dmitrieva kreativ fikrlashning o'ziga xos xususiyatlarini aniqlashning turli yondashuvlarini umumlashtirib, ozodlik, tanqidiylik, chuqurlik, kenglik, mustaqillik, ochiqlik, empatiya va kutish kabi fazilatlarni ajratadi.

Ivanov psixologik-pedagogik shartlarni taqdim etadi: u talabalarning kreativ tafakkurini shakllantirish va rivojlantirishni ikki guruhga ajratadi.

1) Ta'sir qiluvchi shaxsiy xususiyatlar to'plamini tashkil etuvchi sub'yektiv sharoitlar bo'lajak o'qituvchilarning kreativligini shakllantirish (talabalarning shaxsiy fazilatlari, ularning kreativ motivatsiyasi, kreativ faoliyat, kreativlikga yo'naltirilganlik, shaxsning kasbiy yo'nalishi va boshqalar.

2) Maqsadli pedagogik harakatni amalga oshirishga imkon beruvchi, unga muvofiq ravishda boshqaradigan ob'yektiv shart-sharoitlar belgilangan maqsadlar.

Nikandrov, Babanskiy, Zagvyazinskiy, Lvova, Shadrikov, Fridman ijodiy faoliyatga jiddiy

e'tibor beradi. Ularning so'zlariga ko'ra, jamiyat hayotining har qanday sohasida, har qanday pozitsiyada havaskor, erkin, ijodiy faoliyat insonning chuqur ehtiyojlarini qondirishini alohida ta'kidlash juda muhimdir [10]. Shaxsiyat ijodiy bo'lishi uchun umuman inson tabiatini, uning xarakterini o'zgartirish kerak.

Rubinshteyn shaxsiyatni o'rganishga uning ijodiy faoliyatini o'rganish orqali yondashadi. U bu dunyoni yaratgandan ko'ra ko'proq tushunmaydigan odamning faol faoliyatiga katta ahamiyat beradi. Shaxsning shakllanishi va o'z-o'zini anglashning rivojlanishi Rubinshteyn tomonidan bir martalik emas, balki ontologik jarayon deb hisoblaydi, chunki inson uzoq vaqt davomida uning fazilatlarini, xususiyatlarini, motivlarini, ehtiyojlarini o'rganadi. O'zini bilish, inson o'zini faoliyatda yaxshiroq anglay boshlaydi [8].

Postayuk fikriga ko'ra, ijodiy qobiliyatlarga quyidagilar kiradi:

1) Muammoni tizimligini belgilaydigan eng muhim sifat sifatida ko'rish qobiliyati amaliy-kognitiv jarayon.

2) Fikrlashning o'ziga xosligi, ob'yektga noan'anaviy tarzda qarash qobiliyatida namoyon bo'ladi.

3) Dialektik fikrlash ijodiy uslubning eng muhim integral xususiyati.

4) Yangi psixologik shakllanishlarni yaratish qobiliyati sifatida birlashma qulayligi.

5) G'oyalarni birlashtirish qulayligi yoki g'oyalarni yaratish qobiliyati.

6) Qat'iy nazorat ostida bo'lgan harakatlarni baholash qobiliyati va fikrlashning tanqidiyligi, kiruvchi ma'lumotlarga munosabat.

7) Bilimlarni keng tarqatish qobiliyati [7].

Psixologik jihatdan, ijodkorlik muammosi ko'plab olimlar tomonidan o'rganilgan. Muni, Torrens, Kretchfeld, Starkwezer, Patrik, Barron va boshqalar, ijodkorlik qobiliyatini boshqacha ta'riflagan. Ular bu ta'riflardagi barcha farqlar bilan umumiy narsaga ega: ijodkorlik qobiliyati yangi, o'ziga xos narsalarni yaratish qobiliyati sifatida aniqlanadi. Ushbu olimlarning fikrlariga ko'ra bo'lajak mutaxassislarining ijodiy faoliyatida ijodiy intilishi, ijodiy qobiliyati, kreativ maqsadi, yo'nalishi va o'zini boshqara olishida ko'rinadi va uni o'zining faolligi, o'zini-o'zi boshqara olishi bilan yetuk rivojlanayotgan, o'sayotgan shaxsga aylanayotganini bildiradi.

Bo'lajak o'qituvchilarning kreativ kompetentligini rivojlantirish ko'p jihatdan ularning sifatiga bog'liq deydi Cherkasov. Kasbiy tayyorgarlik, shu jumladan vazifalarni bajarishda kreativ fikrlashni shakllantirishga jalb qilish bilan ularning kompetentligini oshirish bu oliy ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarda kreativ bilimlarining rivojlanishiga yordam beradi. Fikrlarni umumlashtirgan holda aytish mumkinki, bo'lajak mutaxassislarda ijodiy faollikni rivojlantirish uchun kuchli kognitiv qidiruv samarali bo'ladi [5, 6].

Muhokama va natijalar. Psixologik nuqtai nazardan qaraganda, kognitiv mustaqillik talabalarning mustaqil harakat qilish istagi va ko'nikmalari bilan tavsiflanadi, bu ega bo'lgan o'z faoliyatini bunday tashkil etish zarurligini oldindan belgilab beradi. Chunki tashqi harakat rejasi ichki, semantik tekislikka o'tadi va aqliy rivojlanish jarayonlar (intellektual, mnemonik, hissiy-irodaviy) eksteriorizatsiyaga (ichki tekislikdan harakatlanish) uchraydi. Shuning uchun kognitiv mustaqillik faoliyat sifatida qaralishi kerak, bunda shaxsning faoliyat mazmuniga, tabiatiga munosabati va vazifaga erishish istagi, va ijodkorlikni belgilovchi omil sifatida namoyon bo'ladi.

Talabalarda intellektual muammolar bo'lib, kognitiv qiziqishni rag'batlantirish va ichki psixologik sharoitlarni yaratish maqsadga muvofiq. Demak, kreativlikni rivojlantirishning yana bir omili talabalarning faoliyatidagi ijodkorligidir.

Masalan talabalarning o'qituvchilar bilan hamkorligi, ularning o'zaro bir-biriga ta'siri jarayoni deb tushunish mumkin. Bunday holdagi faoliyati subyektlarning ijodiy salohiyati va ta'lim jarayoni to'laqonli amalga oshiriladi va sifat jihatidan yangilikka erishadi. Talabalarning ijodiy faolligini rivojlantirish professionallikni saqlashga hissa qo'shadi, bilim, bilimlar tizimi


sifatida tushuniladi va kasbiy faoliyat turlaridan birini shaxsiy bajarish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalar faoliyati zamonaviylikka moslashtiriladi.

Talabalardagi kreativ kompetentlik ko'p qirrali bo'lib, boshqalarni jalb qiladigan, o'zini barkamol inson deb his qiladigan bo'lmog'i kerak. Ijodiy faoliyatni o'rgatish jarayoni shunday bo'lishi kerakki, har bir talaba qobiliyatini namoyon qilishi va uning majmualarini rivojlantirishi, o'zini-o'zi bilishga o'rganish, ma'lum darajada tafakkuri, fantaziyasi hamda tasavvur qilishni rivojlantirishga qaratilgan bo'lmog'i lozim.

Bo'lajak o'qituvchilarda kreativ fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishda pedagog alohida o'rin tutadi. Bu jarayonda pedagogning roli auditoriyada kreativlik muhitini yaratishdan iborat. Vaholanki, pedagog guruhda talabalar o'zini erkin seza oladigan va o'z fikri, g'oyalari bilan bo'lisha oladigan muhit yaratishi lozim. Talabalar inson ongida yuz berayotgan jarayonlarni yanada faollashtirish uchun o'rgatilgan qonun qoidalar, standartlardan chetga chiqib, turli savollar berishda erkin harakat qilishlari kerak. Pedagog talabalardagi kreativlikni noodatiy g'oyalarni o'rtaga tashlash va ularni verbal va noverbal tarzda rag'batlantirish orqali qo'llab-quvvatlanadi.

Patti Drapeau fikriga ko'ra kreativ fikrlash, eng avvalo, muayyan masala yuzasidan har tomonlama fikrlash sanaladi. Har tomonlama fikrlash talabalardan o'quv topshirig'i, masalasi va vazifalarini bajarishda ko'plab g'oyalarga tayanishni talab etadi [3]. Bundan farqli ravishda bir tomonlama fikrlash esa birgina to'g'ri g'oyaga asoslanishni ifodalaydi.

Talabalarining kreativ tafakkurga ega bo'lishlari ularda ijodiy muhitning qanchalik tarkib topganligiga bog'liq. To'laqonli kreativlik xarakteriga ega ta'lim muhitini yaratish puxta o'ylangan rejaga tayanadi.



Pedagoglar agarda o'zlarining kreativ o'qitish metod va strategiyalarini qo'llash, ya'ni keng

ko‘lamda o‘ylash va kreativ fikrlash jarayonini tashkil etishda katta samaradorlikka erishishni istasalar, buni talabalar onggiga singdirishlari va o‘z vazifalarini sidqidilgan bajarishlari lozim. Qolaversa, kreativ xarakterga ega muhitdagina talabalar o‘rganayotgan mavzuning mazmuni, o‘quv axborotlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqani tushunish imkoniyatiga ega bo‘di va bu haqda fikrlashni boshlashadi.

Bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativ sifatlarni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladigan ba‘zi bir muayyan omillar ham mavjud.

Shaxsda kreativlikni rivojlantirishga to‘sqinlik qiladigan omillar:

- tavakkal qilishdan qochish;
- fikrlash va hatti-harakatlarda qo‘pollikka yo‘l qo‘yish;
- shaxs fantaziyasi va tasavvurining yuqori baholanmasligi;
- boshqalarga tobe bo‘lish;
- har qanday holatda ham faqat yutuqni o‘ylash.

Shu sababli o‘quv jarayonlarida pedagoglar ushbu omillarni bartaraf etishga e‘tibor qaratishlari lozim. Kreativ muhitda pedagog talabalar e‘tiborini jalb etish maqsadida biror bir yangilikdan foydalanadi. Qiziquvchanlik va shubhani uyg‘otuvchi ma‘lumot, talabalarni o‘ziga jalb etib, ularda ijodkorikka bo‘lgan intilishni kuchaytiradi.

Shu o‘rinda kreativ kompetentlikni rivojlantirishga yo‘naltirilgan innovatsion o‘qitish jarayonining muayyan mazmuni, vositalari, pedagogik shart-sharoitlari, xususiyatlari va usullarini aniqlash zaruriyati mavjud. Zamonaviy o‘qitish metodlari asosida talabalarning kreativ bilimlarini rivojlantirish muammolari bo‘yicha quyidagi ishlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq:

– talabalarda ma‘lumotlarni tahlil etish, tezkor qarorlar qabul qilish, ijodiy fikrlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi treninglarni tashkil etish;

– tasavvurlarni va obrazli qarashlarni shakllantirishga yo‘naltirilgan ijodiy mashqlar, topshiriqlarni bajarish;

- guruhiy ish shakllari va debatlarini tashkil etish;
- o‘quv loyihalarini tayyorlash; portfoliolarni shakllantirish;
- to‘garaklar faoliyatini yo‘lga qo‘yish, ijodiy topshiriqlarni bajarish;
- kichik guruhlarda ishlash;
- treninglar, videotreninglar, taqdimotlar;
- viktorinalar, ijodiy loyihalash mashg‘ulotlari;
- interfaol ekskursiyalar;
- interfaol ma‘ruzalar, vebinar, davra suhbatlari va hokazolar.

Yuqoridagi keltirilgan fikrlar nuqtai nazaridan quyidagi pedagogik shart-sharoitlarga amal qilish lozimligi nazarda tutiladi:

1. Talabalarda kreativ faoliyatni egallash mayllarini qaror toptirish, bilish ehtiyojlarini shakllantirish va ta‘lim jarayonida mustaqillikni namoyon qilish muhitini ta‘minlash; ta‘lim oluvchilarda ijodiy fikrlash uchun qulay imkoniyat yaratish.

2. Talabalar tomonidan bayon etilgan turli-tuman fikrlar va g‘oyalarni zehnlilik bilan qabul qilish hamda ularning o‘quv jarayonidagi faolligini ta‘minlash, har bir ta‘lim oluvchida uning ijodiy fikrlashga qodirligi haqidagi ishonchni qaror toptirish va ularning ijodiy faolliklarini muntazam rag‘batlantirish.

3. O‘quv jarayonini ta‘lim oluvchi shaxsining xususiyatlari, ehtiyojlari va intellektual salohiyatidan kelib chiqqan holda individuallashtirish.

4. Ta‘lim oluvchilarda individual, kichik guruhlar va jamoada ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish, ularning ijodiy imkoniyatlarini kengaytirish, ularni muammolarni hal qilishda tayyor, standart yechimlar bilan birga nostandart yechimlar qabul qilishga undash.

Quyida bunday vazifalarni tashkil etish shakllariga misollar keltirilgan:

1. Talabalar kreativ kompetensiyalarini boyitish uchun tayyorlaydigan o'qituvchi ularning ijodiy tasavvurlari, birinchi navbatda, ularda fanga qiziqish uyg'otishi kerak bo'ladigan o'quv materialini taqdim etish. Shunday qilib, o'qituvchi talabalarning quyidagi holatlardagina ijodiy xislatlarini uyg'ota oladi. G'ayrioddiy ma'lumotlarni aytib berish, barcha talabalarga nima tegishli ekanligini aytib berish, nutq davomida xolis va aniq ma'lumot berish va majoziy qiyoslardan unumli foydalanish.

Falsafiy jihatdan kreativ inson faoliyatining sifat jihatdan yaratuvchi jarayoni sifatida qaraladi. Bo'lajak o'qituvchilar o'zida quyidagi kreativlik malakalarini namoyon eta oladi:

- bajariladigan vazifaning mohiyati va ahamiyatini belgilay bilish;
- qo'yilgan masalani tahlil qila olish;
- masalani hal qilish rejasini tuzish;
- masalani hal qilishda samarali metodlar (analiz, sintez, induktsiya, deduktsiya, taqqoslash) larni qo'llash;

- masalani hal qilish usullarini to'g'ri tanlay olish;
- qabul qilingan qarorning to'g'riligini asoslash va qayta tekshirish;
- masalani hal qilishda kichik tadqiqot (izlanish)ni olib borish;
- masalani hal qilish sharoiti, jarayonning borishi va masala yechimi yakunlarini umumlashtirishga oid dalillarni rasmiylashtirish.

Xulosa. Talabalarning kreativ qiziqishlari va ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan g'oyalar, kontsepsiyalar hamda ilg'or pedagogik tajribalar asosida o'qitish jarayonini tashkil etish kreativlikni rivojlantirishga nisbatan mazmunifaoliyatli yondashuvni shakllantirishga xizmat qiladi. Oliy ta'lim tizimida kreativ kompetentli yondashuvning joriy etilishi ta'lim maqsadi, mazmuni, o'qitish shakli, o'qitish usullari, pedagogik texnologiyalari, nazorat usullarini hamda ta'lim beruvchi va ta'im oluvchi munosabatlarida o'zgarishlarni amalga oshirishni talab etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Barron F. 1988. Putting Creativity to Work The Nature of Creativity Sternberg. Cambridge. Cambridge Univ. Press. pp. 76- 98. Almaty.
2. Давыдов В.В. О понятии личности в современной психологии // Психологический журн. 1988. Т. 9, № 4. С. 22-32.
3. Drapeau Patti. Sparking student creativity (practical ways to promote innovative thinking and problem soving). – Alexandria – Virginia, USA: ASCD, 2014.
4. Guilford J.P. (1950) Creativity, American Psychologist, Volume 5, Issue 9, 444–454.
5. Muslimov N.A. Kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy kompetentligini shakllantirish texnologiyasi. Monografiya. -T.: Fan va texnologiyalar, 2013.
6. Money R. 1963. A conceptual model for integrating approaches to the identification of creative talent. Scientific creativity: its recognition and development. pp. 331-340. Moscow.
7. Postalyuk N.Yu. (1989). Creative style of activity: pedagogical aspect/N.Yu. Postalyuk. - Kazan: Publishing House of Kazan University, 1989. – 206.
8. Rubinshteyn L. Fundamentals of general psychology. St. Petersburg: Peter, 2019. 713 p.
9. Torrance E. 1988. The Nature of Creativity as Manifest in its Testing. The Nature of Creativity. Cambridge. Press. Pp.32-75. Russia.
10. Тельтевская Н.В. Условие формирования готовности студентов к творческой деятельности // Изв. Волгоградского тех. ун-та. Сер. Проблемы социально-гуманитарного знания. 2009. № 9(57). С. 82-86.
11. Выготский Л.С. Развитие высших психических функций // Выготский Л. С. Из неопубликованных трудов. М., 1960. 500 с.

TALABALARNING KASBIY-IJODIY KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISHNING ASOSIY OMILLARI

Rasulova Aziza Komilovna
TerDMAU o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Turayev Xumoyiddin Abdug'afforovich
Ilmiy rahbar, TerDU dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning asosiy omillari tahlil qilinadi. Zamonaviy ta'lim tizimida kasbiy-ijodiy kompetentlikni shakllantirish pedagogik innovatsiyalar, interfaol ta'lim metodlari va raqamli texnologiyalarning qo'llanilishi bilan chambarchas bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda amaliy mashg'ulotlar, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat va mustaqil izlanishlarning roli katta. Shu bilan birga, o'qituvchilarning pedagogik mahorati va kasbiy yo'naltirilgan yondashuvi ham muhim omillar sifatida e'tirof etiladi. Mazkur maqolada kasbiy-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish bo'yicha ilg'or metodik yondashuvlar, ularning samaradorligini oshirish yo'llari va ta'lim jarayonida qo'llash imkoniyatlari ilmiy-nazariy jihatdan asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: Kasbiy-ijodiy kompetentlik, ta'lim metodikasi, interfaol ta'lim, pedagogik innovatsiyalar, muammoli ta'lim, loyihaviy faoliyat, raqamli texnologiyalar, mustaqil izlanish, o'qituvchi mahorati.

Аннотация. В данной статье научно-теоретически и практически анализируются основные факторы совершенствования методики развития профессионально-творческой компетентности студентов. В современных условиях одной из приоритетных направлений образовательного процесса является формирование профессионально-творческой компетентности будущих специалистов в области инженерии и педагогики. В статье рассматриваются эффективность современных педагогических методов и технологий, направленных на развитие данной компетентности, их интеграция с практической деятельностью, а также стратегии внедрения в образовательный процесс. Результаты исследования включают рекомендации, направленные на повышение качества образования в инженерно-технических направлениях, развитие профессионально-творческой деятельности и повышение эффективности применения инновационных подходов.

Ключевые слова: профессионально-творческая компетентность, методика обучения, интерактивное обучение, педагогические инновации, проблемное обучение, проектная деятельность, цифровые технологии, самостоятельные исследования, педагогическое мастерство.

Abstract. This article analyzes the key factors for improving the methodology of developing students' professional and creative competence. In the modern education system, the formation of professional and creative competence is closely linked to the implementation of pedagogical innovations, interactive teaching methods, and digital technologies. The research results indicate that practical training, problem-based learning, project-based activities, and independent research play a significant role in enhancing students' professional and creative competence.

Additionally, teachers' pedagogical skills and professionally oriented approaches are recognized as crucial factors. This article provides a scientific and theoretical justification for advanced methodological approaches to developing professional and creative competence,

explores ways to enhance their effectiveness, and examines their application in the educational process.

Keywords: professional and creative competence, teaching methodology, interactive learning, pedagogical innovations, problem-based learning, project-based activities, digital technologies, independent research, teacher mastery.

Kirish (Introduction). Hozirgi globallashuv davrida oliy ta'lim muassasalarining asosiy vazifalaridan biri talabalarni zamonaviy mehnat bozorining talablariga javob bera oladigan, kasbiy va ijodiy kompetentlikka ega bo'lgan mutaxassislar sifatida tayyorlashdir. Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligi ularning nafaqat o'z mutaxassisligi bo'yicha yuqori natijalarga erishishiga, balki yangi g'oyalar yaratish, innovatsion loyihalarni amalga oshirish va jamiyat rivojiga hissa qo'shishiga imkon beradi. Bu jarayon jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy ehtiyojlariga javob beradigan yuqori malakali mutaxassislar tayyorlashni o'z ichiga oladi. Kasbiy-ijodiy kompetentlik talabalarning o'z sohalaridagi amaliyotga oid bilimlarni kengaytirish va ularga yangi, innovatsion yechimlarni ishlab chiqishda yordam beradigan qobiliyatlarni rivojlantirishni anglatadi.

Maqolada talabalar kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning asosiy omillari tahlil qilinadi. Ushbu tadqiqotning asosiy maqsadi ta'lim jarayonida kasbiy-ijodiy kompetentlikni shakllantirish uchun zarur metodik yondashuvlarni aniqlash, ularni amaliyotda qo'llashda yuzaga keladigan muammolarni ko'rsatish va taklif etiladigan yechimlar orqali ushbu jarayonni yanada samarali qilish yo'llarini tavsiya qilishdan iboratdir.

Adabiyotlar tahlili (Literature analysis). Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish bugungi global ta'lim tizimining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli, ko'plab ilmiy tadqiqotlar, monografiyalar va maqolalar ushbu masalaning nazariy hamda amaliy jihatlarini o'rganishga bag'ishlangan. Ushbu ilmiy adabiyotlarning tahlili asosida, maqolada talabalar uchun kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy yondashuvlarni qo'llash bo'yicha aniq tavsiyalar ishlab chiqildi.

1. Amaliyot va kasbiy kompetentlik o'rtasidagi bog'liqlik. Dewey o'z tadqiqotlarida eksperimental ta'lim muhimligini ta'kidlab, talabalar faqat nazariy bilim emas, balki real hayotdagi muammolarni hal qilish orqali o'z kasbiy kompetentligini shakllantirishini qayd etgan. Bunga muvofiq, Schön tomonidan ilgari surilgan «Reflektiv praktika» nazariyasi kasbiy faoliyat jarayonida ijodiy yondashuv muhimligini asoslaydi.

2. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar va raqamli texnologiyalar. Axborot-kommunikatsion texnologiyalar va ijodiy tafakkur Raqamli texnologiyalar ta'lim jarayoniga jadal integratsiya qilinishi natijasida innovatsion ta'lim metodlarining samaradorligi oshmoqda. Xususan, masofaviy ta'lim (e-learning) va aralash o'qitish (blended learning) usullari kasbiy kompetentlikning rivojlanishiga turtki beradishi haqida ilmiy izlanishlar olib brogan.

3. XXI asr kompetensiyalari haqida ilmiy izlanishlar. Soft skills va XXI asr kompetensiyalari Bugungi kunda kasbiy-ijodiy kompetentlik faqat texnik bilimlar bilan cheklanmay, balki kommunikatsiya, muammolarni hal qilish va jamoaviy ishlash qobiliyatlarini ham o'z ichiga oladi. Trilling va Fadel tomonidan ishlab chiqilgan «XXI asr kompetensiyalari» modelida kreativ fikrlash asosiy ko'nikmalardan biri sifatida e'tirof etilgan.

4. Mahalliy tadqiqotlar: O'zbekistonlik olimlar (Nishonova Z.T., Tolipov O'.Q., Safarova R.G.) va boshqalar o'z ishlarida talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishda milliy qadriyatlar va an'analarning ahamiyatini ta'kidlaydilar. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, innovatsion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish, amaliyot bilan bog'liq yondashuvlar va raqamli texnologiyalar integratsiyasi orqali samarali takomillashtirilishi mumkin. Ushbu olimlarning ilmiy ishlari muhandislik va texnik ta'lim metodikasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo'lib, talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini oshirishda nazariy va amaliy asos bo'lib xizmat

qiladi.

Materiallar va metodlar (Materials and Methods): Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning asosiy omillarini aniqlashga qaratilgan bo'lib, quyidagi materiallar va metodlardan foydalanilsa maqsadga muvofiqdi.

Materiallar:

Ilmiy adabiyotlar: Tadqiqot mavzusiga oid mahalliy va xorijiy olimlarning ilmiy maqolalari, monografiyalari, dissertatsiyalari va boshqa nashrlari.

Normativ-huquqiy hujjatlar: O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini tartibga soluvchi qonunlar, qarorlar, buyruqlar va boshqa normativ hujjatlar.

Statistik ma'lumotlar: O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimi va mehnat bozori haqidagi statistik ma'lumotlar.

Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning asosiy omillari quyidagilardan iborat:

1. Nazariy bilimlar: Muhandislik va texnologik asoslar; Konstruktorlik va loyihalash tamoyillari; Chizma va texnik hujjatlarni tushunish va yaratish; Interaktiv usullarni qo'llash (munozaralar, keys-stadiylar, loyihalar, rolli o'yinlar); Guruhli ishlarni tashkil etish (loyihalar ustida birgalikda ishlash).

2. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish: Ijodiy topshiriqlar berish (ijodiy loyihalar, esse va boshqalar); Tanqidiy fikrlashni rivojlantirish (turlu nuqtai nazarlarni tahlil qilish, o'z fikrlarini bildirish); Innovatsion loyihalar yaratishga undash va qo'llab-quvvatlash.

3. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish: Onlayn kurslar va vebinarlarda ishtirok etish imkoniyatini yaratish; Virtual laboratoriyalarda amaliy mashg'ulotlar o'tkazish imkoniyatini yaratish; Elektron portfoliolar yaratishga yordam berish.

4. Amaliy ko'nikmalarni rivojlantirish: Chizma chizish, modellashtirish va dasturlash (AutoCAD, MATLAB va boshqalar); Eksperimental loyihalash va sinovlar o'tkazish; Raqamli texnologiyalar va innovatsion dasturlar bilan ishlash.

Ushbu omillarni kompleks ravishda amalga oshirish talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega.

Metodlar:

Nazariy tahlil: Tadqiqot mavzusiga oid adabiyotlarni tahlil qilish, asosiy tushunchalarni aniqlash va nazariy asoslarni shakllantirish.

Qiyosiy tahlil: Mahalliy va xorijiy oliy ta'lim tizimlarining tajribasini qiyoslash, ilg'or amaliyotlarni aniqlash va ularni O'zbekiston sharoitiga moslashtirish.

Statistik tahlil: So'rovnoma natijalari va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish, o'zgaruvchilar o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash va tadqiqot natijalarini miqdoriy jihatdan asoslash.

Modellashtirish: Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasining modelini yaratish va uni amaliyotda qo'llash imkoniyatlarini o'rganish.

Muhandislik bo'yicha kompyuter grafikasi yo'nalishida kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi eng samarali metodlar qo'llanilishi mumkin:

1. Loyihaviy ta'lim.

Real loyihalar: Talabalarga real muhandislik loyihalarini kompyuter grafikasi yordamida modellashtirish va vizualizatsiya qilish topshiriladi. Bu ularga nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash imkonini beradi.

Guruhli loyihalar: Talabalar guruhlariga bo'linib, birgalikda loyihalar ustida ishlashadi. Bu ularning hamkorlik qilish, fikr almashish va jamoaviy ish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Portfolio yaratish: Talabalar o'zlarining eng yaxshi loyihalaridan iborat portfoliolarini yaratadilar. Bu ularning kasbiy o'sishini kuzatish va kelajakda ish beruvchilarga taqdim etish uchun qulaydir.

2. Interaktiv ta'lim.

Virtual laboratoriyalar: Talabalar virtual laboratoriyalarda kompyuter grafikasi dasturlari bilan ishlashni o'rganadilar. Bu ularga xavfsiz va qulay muhitda amaliy tajriba orttirish imkonini beradi.

Simulyatsiyalar: Talabalar muhandislik jarayonlarini kompyuter grafikasi yordamida simulyatsiya qiladilar. Bu ularga jarayonlarni tushunish va tahlil qilish imkonini beradi.

3. Ijodiy fikrlashni rivojlantirish.

Ijodiy topshiriqlar: Talabalarga noan'anaviy muhandislik muammolarini kompyuter grafikasi yordamida hal qilish topshiriladi. Bu ularning ijodiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Tanqidiy fikrlash: Talabalar kompyuter grafikasi yordamida yaratilgan modellar va vizualizatsiyalarni tanqidiy tahlil qilishni o'rganadilar. Bu ularning tanqidiy fikrlash va tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Innovatsion loyihalar: Talabalar kompyuter grafikasi sohasida innovatsion loyihalar yaratishga undaladilar. Bu ularning innovatsion fikrlash va tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantiradi.

4. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanish.

Onlayn kurslar: Talabalar kompyuter grafikasi bo'yicha onlayn kurslarda qatnashadilar. Bu ularga zamonaviy texnologiyalar va dasturlarni o'rganish imkonini beradi.

Vebinarlar: Talabalar kompyuter grafikasi sohasidagi mutaxassislar tomonidan o'tkazilgan vebinarlarda qatnashadilar. Bu ularga sohadagi yangiliklar va tendentsiyalar bilan tanishish imkonini beradi.

Elektron portfoliolar: Talabalar o'zlarining elektron portfoliolarini yaratadilar va ularni onlayn platformalarda nashr etadilar. Bu ularga o'z ishlarini keng auditoriyaga taqdim etish imkonini beradi. Ushbu metodlarni qo'llash talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishga va ularni zamonaviy mehnat bozoriga tayyorlashga yordam beradi.

Ushbu tadqiqot metodlari va materiallari talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning asosiy omillarini aniqlash va tadqiqot natijalarini ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Natijalar (Results). Ushbu tadqiqot talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning asosiy omillarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot natijasida quyidagi asosiy xulosalar qilindi:

Kasbiy-ijodiy kompetentlikni rivojlantirishning ko'p qirrali tabiati: Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, kasbiy-ijodiy kompetentlikni rivojlantirish ko'p qirrali jarayon bo'lib, turli xil omillarning o'zaro ta'sirini talab qiladi.

Raqamli texnologiyalarning integratsiyasi: Onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar, elektron portfoliolar va boshqa raqamli texnologiyalar talabalarning axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va ularning o'z-o'zini rivojlantirishiga yordam beradi.

Ijodiy fikrlashni rivojlantirishning ahamiyati: Ijodiy topshiriqlar, tanqidiy fikrlashni rivojlantirish va innovatsion loyihalar talabalarning ijodiy qobiliyatlarini oshiradi va ularning yangi g'oyalar yaratishiga yordam beradi.

Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari: Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda zamonaviy tendensiyalar, jumladan, 21-asr ko'nikmalarini rivojlantirish, moslashuvchanlik, o'z-o'zini o'rganish va tadbirkorlik qobiliyatlarini rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Muhokama (Discussion): Ushbu tadqiqot talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishning asosiy omillarini aniqlashga qaratildi. Tadqiqot natijalari ushbu muammoni hal qilishning ko'p qirrali tabiati va turli xil omillarning o'zaro ta'sirini talab qilishini ko'rsatdi.

Innovatsion ta'lim texnologiyalari: Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, innovatsion ta'lim

texnologiyalari talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Interaktiv usullar, muammoli ta'lim va loyihaviy faoliyat talabalarning faol ishtirokini ta'minlaydi, ularning ijodiy fikrlashini rivojlantiradi va ularga amaliy ko'nikmalar beradi.

Raqamli texnologiyalar: Raqamli texnologiyalar talabalarning axborot texnologiyalari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va ularning o'z-o'zini rivojlantirishiga yordam beradi. Onlayn kurslar, virtual laboratoriyalar va elektron portfoliolar talabalarga zamonaviy texnologiyalarni o'rganish, amaliy mashg'ulotlar o'tkazish va o'z yutuqlarini namoyish etish imkonini beradi.

Xulosalar (Conclusion). Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish bugungi kunda zamonaviy ta'lim jarayonining muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kasbiy-ijodiy kompetentlikni shakllantirish va rivojlantirish uchun amaliy yondashuv, innovatsion texnologiyalar va interaktiv metodlar asosiy omil bo'lib xizmat qiladi. Talabalarning ijodiy va kasbiy rivojlanishiga quyidagi omillar ijobiy ta'sir ko'rsatadi:

Loyihaviy va muammoli ta'lim metodlarini keng qo'llash – real muhandislik muammolarini hal qilish orqali talabalar mustaqil fikrlash va kreativ yondashuv ko'nikmalarini rivojlantiradi. Raqamli texnologiyalar va simulyatsiyalarni joriy etish – VR/AR, CAD/CAM tizimlari va sun'iy intellekt yordami bilan interaktiv o'qitish samaradorligi oshadi. O'quv jarayonida STEAM (Science, Technology, Engineering, Art, Mathematics) yondashuvini qo'llash – fanlararo yondashuv kasbiy va ijodiy fikrlashni rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Ushbu maqoladan shuni xulosa qilishimiz mumkinki Talabalarning kasbiy-ijodiy kompetentligini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish ushbu omillarning uyg'unligi talabalarning mustaqil qaror qabul qilish, kreativ fikrlash va kasbiy muammolarni innovatsion yondashuvlar bilan hal qilish ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha ilmiy-nazariy asoslarni bayon etadi, innovatsion pedagogik yondashuvlarning samaradorligini ochib beradi va ta'lim jarayoniga ularni joriy etish bo'yicha amaliy tavsiyalarni taqdim etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Зимняя И.А. (2003). Ключеве компетентности как результативно-целевая основа компетентностного подхода в образовании. Москва: Исследовательский центр проблем качества подготовки специалистов
2. Abdullayeva, M. (2020). Kasbiy ta'lim jarayonida innovatsion metodlarni qo'llash asoslari. Toshkent: Fan va texnologiya nashriyoti.
3. Aziza Komilovna Rasulova, Holboy Hasanovich Hasanov The place and practical significance of drawing lines in teaching the science of pencil-image SCIENCE AND EDUCATION SCIENTIFIC JOURNAL VOLUME #2 ISSUE #5 2021-y.
4. X.Turayev, Normurodov X., Rasulova A., Ahmad Hosrov R. Chizmachilik (Loyihalash asoslari) uslubiy qo'llanma. 2021-y., b/t 12.1
5. Turaev K., Yadgarov N., Mamatov D. The role and practical significance of interesting issues in the development of students' cognitive competencies //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 538. – C. 05045. <https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85196835458&origin=recordpage>
6. Umirov A. et al. The current state of soybean production and its size-mass indicators in the conditions of Uzbekistan //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 105. – C. 05018. <https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85192545367&origin=recordpage>
7. Turayev X. A. et al. Methodical recommendations on the implementation of the theme of forty in drawing lessons graphically //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 264-268.
8. Smith, J., & Brown, K. (2018). Engineering Education and Creative Competence Development. Springer, 237-256.

GLOBALLASHUV SHAROITIDA TALABALARINI HARBIY-VATANPARVARLIK RUHIDA TARBİYALASHNING TARIXIY, SIYOSIY VA HUQUQIY-ME'YORIY ASOSLARI

*Safoyev Husen Aminovich,
Buxoro davlat Pedagogika instituti Harbiy ta'lim fakulteti Maxsus tayyorgarlik sikli boshlig'i*

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida talabalarini harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash mamlakatni asrab-avaylash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borishga alohida e'tibor qaratilgan. Vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat a'zosi sifatidagi eng buyuk burchi bo'lib, oilaga sadoqat, kelajakka ishonch, tarixga hurmat, bugungi kuniga e'tibor, atrofdagi insonlar manfaatlarini hisobga olish, haqni nohaqdan ajrata olish kabi xislatlarni jamlaydi. Shuningdek, maqolada talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ta'lim muassasalari, oila, ishjtimoiy muhitning ta'siri hamda foydali jihatlari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Globallashuv vatanparvarlik tuyg'usi, harbiy ta'lim, ijtimoiy-siyosiy, Vatan ravnaqi, vatan, harbiy vatanparvarlik, sadoqat, fidokorlik, urf-odat, bilim, ko'nikma, malaka, mahorat, iroda, milliy g'urur, axloq va odoblilik, saxovat, jasorat.

ИСТОРИКО-ПОЛИТИЧЕСКИЕ И НОРМАТИВНО-ПРАВОВЫЕ ОСНОВЫ ВОСПИТАНИЯ СТУДЕНЧЕСКОЙ МОЛОДЕЖИ В ДУХЕ ВОЕННОГО И ПАТРИОТИЗМА В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ

*Сафоев Хусен Аминович,
Институт педагогики Факультет военного образования специальный. директор по образованию*

Аннотация: В данной статье особое внимание уделяется воспитанию учащихся в военно-патриотическом духе в условиях глобализации важнейшие понятия, жизненные и профессиональные навыки, связанные с сохранением страны, прославлением ее славы в мире, привитые в сердцах и умах молодежи с раннего детства на научно-просветительской основе. Патриотизм-величайший долг человека как гражданина, так и члена определенного общества, концентрирующий такие качества, как преданность семье, вера в будущее, уважение к истории, внимание к сегодняшнему дню, учет интересов окружающих людей, умение отличать право от несправедливости. В статье также анализируется влияние и полезность образовательных учреждений, семьи, социальной среды в воспитании учащихся в духе военного патриотизма.

Ключевые слова: глобализация чувство патриотизма, военное образование, общественно-политическое, развитие родины, Отечество, военный патриотизм, верность, самоотверженность, традиции, знания, умения, квалификация, мастерство, воля, национальная гордость, нравственность и порядочность, щедрость, мужество.

HISTORICAL, POLITICAL AND LEGAL-NORMATIVE FOUNDATIONS OF EDUCATING STUDENTS IN THE SPIRIT OF MILITARY AND PATRIOTISM IN THE CONDITIONS OF GLOBALIZATION

*Safoyev Khusen Aminovich,
Institute of Pedagogy The faculty of military education is special head of training.*

Annotation: this article focuses on the preservation of the country, the most important concepts related to the glorification of its fame in the military-patriotic spirit of educating its students in the context of globalization, the absorption of vital and professional skills into the hearts and minds of young people on the basis of knowledge from early childhood.

Patriotism is the greatest duty of a person as a citizen and a member of a particular society and concentrates such qualities as loyalty to the family, confidence in the future, respect for history, attention to today, consideration of the interests of people around him, the ability to distinguish the right from the wrong. The article also analyzes the impact and useful aspects of educational institutions, family, social environment in educating students in the spirit of military patriotism.

Keywords: Globalization a sense of patriotism, military education, socio-political, Fatherland prosperity, Fatherland, military patriotism, loyalty, selflessness, tradition, knowledge, skills, competence, skill, willpower, national pride, morality and decency, generosity, courage.

Kirish. Dunyoning eng ilg'or mamlakatlarida va xalqaro ilmiy tadqiqot markazlarida yoshlarda harbiy vatanparvarlik ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga qaratilgan ko'plab izlanishlar olib borilmoqda. Jumladan, AQShda natsional-liberalizm mafkurasi asosida yoshlarda vatanparvarlikni oshirishga qaratilgan, Yaponiyada «yapon mo'jizasi»ga asoslangan ta'lim-tarbiya jarayonida harbiy vatanparvarlik asoslarini o'rgatishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu orqali yoshlarda dunyoda ro'y berayotgan siyosiy-ijtimoiy jarayonlarga milliy manfaatlardan kelib chiqqan holda yondashish ko'nikmalarini, har qanday murakkab vaziyatlarda tezkor va mustaqil qaror qabul qilish, zamonaviy harbiy-texnika vositalaridan samarali foydalanish malakalarini takomillashtirishni taqozo etadi. Mamlakatimizda yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga doir ishlar samaradorligini oshirish va faollashtirish, bu boradagi ta'lim-tarbiyaviy ishlarga mamlakat fuqarolarini, davlat va nodavlat notijorat tashkilotlarini hamda fuqarolik jamiyatining boshqa institutlarini yanada faol jalb etish va yoshlar ongiga vatanparvarlik, mardlik tuyg'ularini singdirish dolzarb vazifalardan biriga aylanmoqda. Bunga sabab «hozirgi vaqtda dunyoda «tinchlik» degan so'z, «osoyishtalik» degan tushuncha g'oyat omonat bo'lib qolganiga, bu boradagi kechagi vaziyat, kechagi tahlil va prognozlar bugungi kunga to'g'ri kelmayapti»

Vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat a'zosi sifatidagi eng buyuk burchi bo'lib, oilaga sadoqat, kelajakka ishonch, tarixga hurmat, bugungi kuniga e'tibor, atrofdagi insonlar manfaatlarini hisobga olish, haqni nohaqdan ajrata olish kabi xislatlarni jamlaydi. Istalgan qo'shin, jamiyatda vatanparvarlik tuyg'usi kamolga yetmas ekan, uning ixtiyoriga eng zamonavy qurol berilganda ham foydasi bo'lmaydi. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili yetakchi o'rinda turadi.

Mamlakatni asrab-avaylash, uning shuhratini dunyoga tarannum etish bilan bog'liq eng muhim tushunchalar, hayotiy va professional ko'nikmalarni ilm-ma'rifat asosida yoshlarning qalbi va ongiga ilk bolalik davridan boshlab singdirib borish orqali O'zbekistonning haqiqiy vatanparvar fuqarolarini tarbiyalash davlatimizning asosiy mazmunini tashkil etadi. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash – bu millati, tili va kasbidan qat'i nazar, yoshlarda Vatanga sadoqat tuyg'usini shakllantirish, ularni o'z fuqarolik burchi va konstitutsion majburiyatlarini bajarishga, jamiyat va davlat manfaatlarini himoya qilishga qodir shaxslar etib tarbiyalashga yo'naltirilgan davlat organlari, jamoat birlashmalari va boshqa tashkilotlarining ko'p bosqichli, tizimli, maqsadli va muvofiqlashtirilgan faoliyatidir. Zero, «yoshlar o'rtasida harbiy vatanparvarlik tarbiyasini kuchaytirish, ushbu sohadagi qadriyat va an'alarimizni targ'ib etish, askar va ofitserlarimizning zamon qahramonlari sifatidagi qiyofasini badiiy asarlar, spektakl va filmlar orqali keng yoritib berish alohida ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlardan ko'zlangan asosiy maqsad, xalqimizning ma'naviy yuksalishiga zamin hozirlash, xususan, yoshlarni insonparvarlik, vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, axloqiy estetik jihatdan barkamol insonlar bo'lib yetishishlarining ilmiy asoslangan tarbiyaviy tizimini ishlab chiqishdan iborat. Mamlakatning barqarorligi ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy, harbiy, madaniy, axloqiy, maishiy, texnologik, axborot kabi omillarning o'zaro bog'liqligi va mavjudligi asosida shakllanadi. Bular, birinchi galda, mamlakatning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy-axloqiy muammolarini yechish va maqsad sari yo'naltirishga qaratilgandir. Mazkur tizimning shakllanishi ikkilamchi dialektik jarayon

bo'lib, unda murakkablik, kengqamrovlilik va ziddiyat kabi qonuniyatlar o'z ifodasini topgan. Barqarorlik tizimi tashkiliy jihatdan tabiiy integratsiyaga tayanib, fuqarolik jamiyati va davlatning tinchligi yuzasidan maqsadli yo'naltirilgan usul va vositalar asosida muammolarni o'zaro manfaatdorlikda yechishga qaratilgan. Bunda Qurolli Kuchlarning tutgan o'rni alohida ahamiyatga molikdir. Chunki uning asosiy vazifasi mamlakatning hududiy yaxlitligi va barqarorligini ta'minlashga qaratilgan. Shuning uchun yetuk harbiy xizmatchi shaxsini tarbiyalash muhim vazifalardan hisoblanadiki, bu bevosita harbiy ta'lim-tarbiya jarayoni bilan bog'liqdir. Garchi harbiy texnika va qurol-yarog'lar asosiy himoya vositasi bo'lib xizmat qilsada, bizga yaxshi ma'lumki, har qanday mukammal harbiy texnika yoki qurol-aslahalarning mavjudligiga qaramasdan, ularni boshqarish uchun harbiy xizmatchilar shaxsi asosiy o'rinda turadi, ya'ni inson omili hal qiluvchi asos bo'lib xizmat qiladi.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi insonni tarbiyalash yo'nalishlaridan biri bo'lib, tegishli keng qamrovli ta'lim-tarbiyaviy tadbirlarni hamda o'quv-tarbiya jarayonini o'z ichiga oladi. Bu masalalar ilmiy jihatdan pedagogika, psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot, ma'naviyat asoslari, tarix, falsafa, tegishli harbiy mutaxassislik fanlari, Qurolli Kuchlarning asosiy me'yoriy hujjatlari va ular faoliyatining hamda Vatanimiz mudofaasining asosiy tamoyillari, matematik statistika, mantiq va boshqa bir qator fanlar tomonidan o'rganiladi. Ushbu fanlarning har biri harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi bilan bog'liq masalalarni o'z tadqiqot yo'nalishlari va usullari bo'yicha o'rganib, tegishli xulosalarni chiqaradi va tavsiyalarini beradi. Ular harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining metodologik asoslarini tashkil qiladi.

Bunday metodologik asos harbiy-vatanparvarlik tarbiyasining ilmiy tamoyillarini, rivojlanish yo'nalishlarini, samarali shakl va usullarini hamda istiqboldagi vazifalarini zamonaviy ilmiy xulosalarga muvofiq belgilashga xizmat qiladi. Bunda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi va harbiy mutaxassislar tayyorlash masalalari bo'yicha umumiy va harbiy pedagogika va psixologiya, sotsiologiya, tibbiyot, ma'naviyat asoslari, tarix falsafa, matematik statistika, mantiq, tegishli harbiy mutaxassislik fanlari hamda boshqa fanlarning ilmiy xulosalariga va me'yoriy-huquqiy talablarga asoslaniladi.

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha tizimini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ommaviy axborot vositalari, internet tizimidagi ma'lumot oqimlari hamda jarayonlarning sabablari noaniqligi yosh avlodning fikran sobit, axloqan yetuk, jismonan baquvvat bo'lishini talab qilmoqda. Globalizm, "dunyo odami" tushunchalari butun bir avlodlarni o'z tarixidan, axloqiy va ma'naviy burchlardan mosuvo qilishga, kelajak haqida qayg'urmaslikka-umuman insonning shaxs sifatidagi maqomini yo'q qilishga qaratilgan g'oyalarni ma'lum ma'noda mujassamlashtiradi.

Vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat a'zosi sifatidagi eng buyuk burchi bo'lib, oilaga sadoqat, kelajakka ishonch, tarixga hurmat, bugungi kuniga e'tibor, atrofdagi insonlar manfaatlarini hisobga olish, haqni nohaqdan ajrata olish kabi xislatlarni jamlaydi. Istalgan qo'shin, jamiyatda vatanparvarlik tuyg'usi kamolga yetmas ekan, uning ixtiyoriga eng zamonaviy qurol berilganda ham foydasi bo'lmaydi. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili yetakchi o'rinda turadi.

Yuqoridagilardan kelib chiqqan holda talabalarni harbiy-vatanparvarlik – ona yurt mustaqilligi, ozodligi, obodligi, uning sarhadlari daxlsizligi va himoyasi yo'lida fidoyilik ko'rsatib yashash, xalqning or-nomusi, shon-sharafi, baxtu saodati uchun kuch-g'ayrati, bilim va tajribasi, butun hayotini baxsh etishdir. Bugungi yoshlar Vatan manfaati, qadr-qimmatini, taqdiri, istiqloli, istiqboli, ona yurtga muhabbat tuyg'usini qancha chuqur anglasalar, shunchalik ularda harbiy-vatanparvarlik tuyg'usi yuksak bo'ladi.

Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash jarayonida o'zbek xalqining qadimiy tarixi va madaniyati, jonajon Vatanimizning mustaqilligi va ravnaqi yo'lida fidokorona kurashgan milliy qahramonlarimiz bilan faxrlanish, ularga munosib avlod bo'lish tuyg'usini shakllantirish maqsadga muvofiqdir. Bu esa "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash konsepsiyasi"ning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi.

Yoshlarda harbiy vatanparvarlikni tarbiyalash faqatgina Vatanni sevish yoki yaxshi ko'rish bilan cheklanmaydi, balki, mavjud ma'naviy va jismoniy imkoniyatlarini to'liq safarbar qilgan

holda Vatanni himoya qilish, asrash va ravnaq toptirishga xizmat qiladi.

Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalari qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari, qarorlari va farmoyishlari, Vazirlar Mahkamasining qarorlari va farmoyishlari, Qurolli Kuchlarning umumharbiy nizomlari va boshqa qonun hujjatlariga muvofiq amalga oshiriladi. Buning natijasida oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash ishlari muntazam ravishda tizimli va ilmiy asosda tashkil etiladi.

Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tizimi quyidagilardan iborat:

- oliy ta'lim muassasalarida ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarga ijtimoiy-ma'naviy ahamiyatga molik qadriyatlar, Vatanga muhabbat va sadoqat ruhini shakllantirish va rivojlantirishga qaratilgan o'quv mashg'ulotlari ko'lamini kengaytirish;

- ommaviy va harbiy vatanparvarlik ishlarini amalga oshiradigan davlat va nodavlat notijorat tashkilotlari bilan hamkorlikda talabalarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashni amalga oshirish.

- Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash uchun quyidagi diniy va ma'naviy tarbiya metodlarini qo'llash ta'lim jarayonida kutilgan samaradorlikka erishish imkonini beradi:

- talaba-yoshlar ongi milliy ruh va iftihar tuyg'ulari bilan sug'orilgan badiiy kompozitsiyalar, film va roliklar, ko'rsatuv va teleloyihalar;

- milliy va etnik ishlanmalar;

- yurtimizning tarixiy qadamjolariga doimiy ekskursiyalar;

- Vatan himoyachilari bilan uchrashuvlar, ochiq muloqotlar;

- talaba-yoshlarni muqaddas Islom dini olamida mashhur bo'lgan buyuk allomalar Imom al-Buhoriy, Imom at-Termiziy, az-Zamaxshariy, Moturudiylarning ilmiy merosiga qiziqtirish orqali ularda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirish.

- oliy ta'lim muassasalarida yuqoridagi ma'naviy tadbirlar muntazam ravishda o'tkazib borish orqali talaba-yoshlarning nafaqat bo'sh vaqtlarini unumli tashkil etishlari, balki, ularni shu vatan, shu yurt uchun fidoiy inson bo'lib voyaga yetishishlari uchun xizmat qiladi.

- Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda ularning yosh va psixologik xususiyatlarini bilish hamda hisobga olish muhim hisoblanadi. Shuningdek, ularda o'ziga ishonch, o'z xulqini yaxshilash motivlarini quyidagicha shakllantirish mumkin:

- yoshlarning o'z xulq-atvorlarini o'zlari baholashga o'rgatish;

- yoshlarda o'zlariga nisbatan ishonch hissini shakllantirish;

- oilada farzandlar oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishda erishgan yutuqlarini rag'batlantirish;

- yoshlarga tarbiya berishning optimal strategiyasini aniqlash;

- yoshlarga mustaqil faoliyat (o'qish, o'yin, mehnat, xobbi va qiziqishlari)ni tanlash uchun imkoniyat berish.

- O'zbekiston Respublikasi milliy xavfsizligi manfaatlaridan kelib chiqqan holda, mafkuraviy tahdidlar o'ta xatarli va nozik tus olgan sharoitda aholi, ayniqsa, yoshlar orasida harbiy-vatanparvarlik tarbiyasiga yo'naltirilgan targ'ibot ishlarining dolzarb yo'nalishlari sifatida quyidagilarni qayd etish mumkin:

- har-bir talaba-yoshda mustaqil fikrlash madaniyatini shakllantirish, mavjud ma'naviy-mafkuraviy tahdidlarni to'g'ri baholash, ulardan tegishli xulosa va saboqlar chiqara olish qobiliyatini shakllantirish;

- talaba-yoshlarga darslar va darsdan tashqari vaqtlarda kuchayib borayotgan mafkuraviy tahdidlarga nisbatan doimo sergak, ogoh va hushyor bo'lib yashashni o'rgatib borish;

- yoshlarda milliy qadriyatlar, vatanparvarlik, davlat va jamiyat manfaatlariga sadoqat, or-nomus, uyat va andisha kabi axloqiy tuyg'u va tushunchalarning ma'no-mazmunini chuqur anglab yetishi va amal qilishiga erishish;

- yoshlar faoliyatida beparvolik va loqaydlikning oldini olish, ularda hushyorlik va jonkuyarlikni tarbiyalash, mamlakat taqdiriga daxldorlik tuyg'usini kamol toptirish kabilar.

Oliy ta'lim muassasalarida talaba-yoshlarda harbiy vatanparvarlik tuyg'usini shakllantirish bilan bir qatorda, ular qalbida Vatanning mard posbonlari, yurtning jasur farzandlariga bo'lgan havas va ishonchni mustahkamlash, "Men – Vatan himoyachisiman" degan g'urur va iftixor tuyg'ularini singdirish, yoshlar qalbi va ongida mustaqil Vatanimiz xavfsizligi uchun mas'ullik, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar jarayoniga daxldorlik tuyg'usi, harbiy tayyorgarlik, sergaklik, botirlik, yurt sha'nini himoya qilish, askarlik burchini shakllantirishda milliy qahramonlarimiz jasoratining o'rni beqiyosligini alohida ta'kidlash lozim.

Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi ma'lum yo'nalishdagi ta'lim va tarbiyaviy jarayonlardan iborat bo'lib, o'ziga xos pedagogik asoslarga ega. Bunda harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi barkamol avlod ta'lim-tarbiyasining umumiy pedagogik nazariyasi tamoyillariga asoslanadi. Ular har tomonlama rivojlangan barkamol shaxsni shakllantirishning jismoniy tarbiya, ma'naviy-axloqiy tarbiya, aqliy ta'lim, mexnat tarbiyasi va estetik tarbiya yo'nalishlari orqali amalga oshiriladi. Harbiy-vatanparvarlik tarbiyasi yoshlarni Vatan himoyasiga tayyorlash, ularga favqulodda holatlarda amalga oshirilishi kerak bo'lgan ishlarni tashkil etish bo'yicha ko'nikma va malakalarini shakllantirishga yo'naltirilgan pedagogik jarayondir [4]

O'zbekistonning yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalashning yangicha tizimini shakllantirish dolzarb vazifalardan biriga aylandi. Ommaviy axborot vositalari, internet tizimidagi ma'lumot oqimlari hamda jarayonlarning sabablari noaniqligi yosh avlodning fikran sobit, axloqan yetuk, jismonan baquvvat bo'lishini talab qilmoqda. Globalizm, "dunyo odami" tushunchalari butun bir avlodlarni o'z tarixidan, axloqiy va ma'naviy burchlardan mosuvo qilishga, kelajak haqida qayg'urmaslikka – umuman insonning shaxs sifatidagi maqomini yo'q qilishga qaratilgan g'oyalarni ma'lum ma'noda mujassamlashtiradi.

Harbiy vatanparvarlik insonning fuqaro hamda muayyan jamiyat a'zosi sifatidagi eng buyuk burchi bo'lib, oilaga sadoqat, kelajakka ishonch, tarixga hurmat, bugungi kuniga e'tibor, atrofdagi insonlar manfaatlarini hisobga olish, haqni nohaqdan ajrata olish kabi xislatlarni jamlaydi. Istalgan qo'shin, jamiyatda vatanparvarlik tuyg'usi kamolga yetmas ekan, uning ixtiyoriga eng zamonaviy qurol berilganda ham foydasi bo'lmaydi. Shuning uchun ham Vatan himoyasida, avvalo, inson omili yetakchi o'rinda turadi.

Talaba-yoshlarni harbiy vatanparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha oliy ta'lim tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qabul qilingan konsepsiyalarni amalga oshirish doirasida har tomonlama rivojlangan, bilimdon, xalqiga, shuningdek, vatanga xizmat qilish ishiga sodiq yoshlarni tarbiyalashga oid keng miqyosli ishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev ta'kidlaganidek, "Barchamizga yaxshi ma'lumki, vatanparvarlik har bir davlat hayotining ma'naviy asosi hisoblanadi va jamiyatni har tomonlama rivojlantirish borasida eng muhim safarbar etuvchi kuch sifatida namoyon bo'ladi". [3]

Bugungi kunda respublikaning barcha ta'lim tizimlari orqali davlat ta'lim siyosatiga yo'naltiruvchi ko'rsatmalari bilan maqsadga muvofiq ravishda vatanparvarlik hissi shakllantirilmoqda.

O'zbekiston ta'lim tizimining asosiy vazifasi insoniylikni, Vatanga, milliy madaniyatga muhabbat va sadoqatni shakllantirish hamda rivojlantirishdan iborat. Bunga o'z navbatida bir qator omillar ta'sir qiladi.

"2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" farmonida "Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash tadbirlarini yanada kuchaytirish" masalasiga alohida e'tibor qaratilgan [2].

Shunday ekan, yoshlarda vatanparvarlik hissini shakllantirish davr talabi. Yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalay olmasak, ularda harbiy-vatanparvarlik hissini shakllantirib bo'lmaydi.

Bugungi yoshlar bilan olib boriladigan ta'lim-tarbiya jarayonida ulardagi vatanparvarlik sifatlarini voyaga yetkazishning yangicha tizimini ishlab chiqish vazifalarini kun tartibiga qo'ydilar. Yurtboshimiz bu jarayonda tarixiy an'analar hamda xorijiy mamlakatlar tajribalari umumlashtirib, zamonaviy ilmiy asosda yurtimizda bolalar va o'smirlarning vatanparvarlik tashkilotlarini tuzish kabi tavsiyalarni berdi. Yoshlarning harbiy hayot, jismoniy tarbiya bilan

bog‘liq tadbirlarda ishtirok etishida qog‘ozbozlik, yuzakilik va sustkashlikka yo‘l qo‘yish katta xato ekanligi taʼkidlandi. Шунинг учун талаба-ёшларни ҳарбий-ватанпарварлик ruhida tarbiyalashning yangicha pedagogik texnologiyalarini ishlab chiqish va vatanparvarlik tarbiyasi bo‘yicha yangicha metodologiyasi ishlab chiqish bugungi ilmiy tadqiqotlarning bosh maqsadiga aylanib ulgurdi.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi ta’limi sohasida «Ta’lim to‘g‘risida»gi Qonunida belgilangan vazifalarning to‘laqonli amalga oshirishga erishish ham yoshlarda vatanparvarlik sifatlarini va fidoyilik xususiyatini shakllantirishda muhim omil bo‘ladi.

Ushbu maqsaddan kelib chiqqan holda yoshlarda harbiy-vatanparvarlik fazilatini rivojlantirish va ijtimoiy maydonga vatanparvarlikni targ‘ib qilishning samarali mexanizmlari ishlab chiqish ishlari boshlab yuborildi, bu borada texnik va texnologik vositalarning imkoniyatlaridan to‘laqonli foydalanish tizimi yo‘lga qo‘yildi. Misol uchun, yoshlarda fuqarolik pozitsiyasi, mas’uliyatini shakllantirish maqsadida turli harbiy-sport musobaqalari, ko‘rik-tanlovlar o‘tkazilmoqda. «Mustaqillik»,

«Amir Temur», «Jaloliddin Manguberdi» ordenlari, «Jasorat», «Sodiq xizmatlari uchun», «Mardlik» medallari ta’sis etildi. Ayniqsa, yoshlarda harbiy vatanparvarlik hissini shakllantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Harbiy akademik litseylarga «Temurbeklar maktabi» nomi berilishi fikrimizning yorqin dalilidir.

Shu munosabat bilan ta’lim muassasalari talaba-yoshlarda harbiy- vatanparvarlik yo‘nalishidagi pedagogik ta’limni tizimli tashkil etish, bu ishlarni faollashtirish va yuksak darajaga ko‘tarish talab etiladi. Vatanparvarlik millatchilik sifatida talqin qilinmasligi, vatanni asrab- avaylash har bir fuqaroning majburiyati ekanligini tushuntirish muhim vazifalardan biridir. Zero, «vatanparvarlik millatchilik emas, balki umuminsoniy tuyg‘udir. Fransuz adibi Volter shunday degan edi: “Vatanga bo‘lgan muhabbat meni ajnabiylar yutug‘idan ko‘z yumishga majbur qilmaydi. Aksincha, vatanga muhabbatim qanchalik kuchli bo‘lsa, vatanimni jahondagi boshqa xalqlar yutuqlari bilan shunchalik boyitgim keladi». Demak, o‘zligini anglagan, tarixiy xotirasi butun, mustaqil fikrlaydigan inson o‘z vataniga sotqinlik qilmaydi, balki vatan manfaatini hamma narsadan ulug‘ tutib, uning uchun jon berishga tayyor bo‘ladi. Bu esa Vatan himoyasi chindan ham barchamizning nafaqat vazifamiz, balki sharaffli burchimizga aylanib borayotganidan yaqqol daolat beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz.-T.,O‘zbekiston: NMIU, 2016. 14-bet.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida” Farmoni // www.prezident.uz 2.03.2022 y.
- 3.O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoev O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari tashkil etilganining 25 yilligi munosabati bilan vatan himoyachilariga bayram tabrigi 14.01.2017 yil
3. U.I. Mamurov, A.A.Valiyev. “Harbiy vatanparvarlik tarbiyasi” uslubiy qo‘llanma. - Toshkent: “Ziyo nur” nashriyoti, 2021y.
4. H.A.Safoyev Pedagogik maxorat ilmiy jurnal Buxoro sh 2024-yil. № 134 b.

BO'LAJAK O'QITUVCHILARDA PEDAGOGIK IMIDJNI SHAKLLANTIRISH

Saidova Ozoda Tohirovna

Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada, bo'lajako'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari o'rganilgan. Bundan tashqari maqolada, pedagogik imidjni shakllantirishda o'qituvchining psixologik holati, shaxsiy va professional sifatlari, muloqot qilish uslublari, o'qitish jarayonidagi innovatsion yondashuvlar va ta'lim muhitidagi o'zgarishlarning ta'siri tahlil qilingan.

Kalit so'zlar. Pedagogik imidj, muloqot, faoliyat, o'qitish jarayoni, professionallik.

ФОРМИРОВАНИЕ ПЕДАГОГИЧЕСКОГО ИМИДЖА У БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ

Саидова Озода Тахировна

Независимый исследователь Ташкентского государственного педагогического университета

Аннотация. В данной статье изучены педагогико-психологические особенности формирования педагогического имиджа у будущих учителей. Кроме того, в статье проанализированы влияние психологического состояния учителя, его личностных и профессиональных качеств, стилей общения, инновационных подходов в процессе обучения и изменений в образовательной среде на формирование педагогического имиджа.

Ключевые слова: педагогический имидж, общение, деятельность, процесс обучения, профессионализм.

DEVELOPING PEDAGOGICAL IMAGE IN FUTURE TEACHERS

Saidova Ozoda Tohirovna

Independent Researcher at Tashkent State Pedagogical University

Abstract. This article examines the pedagogical and psychological aspects of developing a pedagogical image in future teachers. Additionally, the article analyzes the influence of a teacher's psychological state, personal and professional qualities, communication styles, innovative approaches in the teaching process, and changes in the educational environment on the formation of a pedagogical image.

Keywords: pedagogical image, communication, activity, teaching process, professionalism.

Kirish. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari - o'qituvchilik faoliyatining eng muhim jihatlardan birini tashkil etadi. Pedagogik imidj — bu o'qituvchining tashqi ko'rinishi, xulqi, pedagogik uslubi, muloqot tarzi va o'z ishiga nisbatan munosabati kabi elementlardan iborat bo'lib, o'qituvchining umumiy obrazini ifodalaydi. U talabalarga o'qituvchi bilan aloqada bo'lganda qanday taassurotlar qolishiga, o'qituvchi va o'qituvchilar o'rtasidagi munosabatlarni shakllantirishga katta ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik imidjni shakllanishi va dolzarbligi jihatdan bir qator omillarni ko'rib o'tish mumkin.

Pedagogik imidjning mohiyati. Pedagogik imidj nafaqat tashqi ko'rinishni, balki o'qituvchining ichki dunyosini, xulq-atvorini va pedagogik faoliyatini o'z ichiga oladi. Bu o'qituvchining o'zini o'quvchi va jamiyat oldida qanday taqdim etishini belgilaydi.

Pedagogik-psixologik xususiyatlar. Bo'lajak o'qituvchilarni shakllantirishda pedagogik imidjning psixologik jihatlari muhim rol o'ynaydi. Bu talabalarning o'qituvchiga nisbatan

munosabatlari, o'qituvchining ishonchni qanday o'rnatishi, shuningdek, o'quvchilarning motivatsiyasi va psixologik holatini hisobga olishni talab qiladi.

O'qituvchining pedagogik imidjiga ta'sir etuvchi omillar. Pedagogik imidjni shakllantirishda o'qituvchining shaxsiy xususiyatlari, muloqot qilish uslubi, bilim va mahorati, hamda ta'lim muhitidagi o'zgarishlar katta ahamiyatga ega.

Pedagogik imidjning ta'siri. O'qituvchining pedagogik imidji nafaqat o'quvchilarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshiradi, balki ularning shaxsiy rivojlanishiga, ijtimoiy moslashuviga va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga ham bevosita ta'sir qiladi.

Mazkur mavzu bo'yicha o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirishning psixologik va pedagogik xususiyatlarini o'rganish, ularning ta'lim jarayoniga ta'sirini yanada yaxshiroq tushunishga yordam beradi. Bu esa o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Bo'lajak o'qituvchilarni bu imidjni yaratishga tayyorlashda psixologik yondashuvlar, kommunikativ ko'nikmalarni rivojlantirish va o'quvchilarga mos pedagogik strategiyalarni qo'llash muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik imidjning shakllanishi o'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan pedagogik ta'siri, ularning ijtimoiy va emotsional rivojlanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shu bois, o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirish pedagogik ta'lim tizimining samaradorligini oshirishga, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda o'qitish jarayonini yaxshilashga xizmat qiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodologiyasi. «Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari» mavzusiga oid adabiyotlar tahlili pedagogik imidjning shakllanishi, uning pedagogik va psixologik aspektlari haqida bir qancha ilmiy-tadqiqotlar va nazariy materiallarni o'z ichiga oladi. Ushbu tahlil o'qituvchining pedagogik imidjiga ta'sir qiluvchi omillarni, ularning pedagogik faoliyatga qanday ta'sir ko'rsatishini, shuningdek, o'qituvchilarni imidj shakllantirishga qanday tayyorlash zarurligini o'rganishga yordam beradi.

1. Pedagogik imidjning mohiyati va ahamiyati:

S. A. Ruziyev va M. Sh. Abdullayev kabi olimlarning tadqiqotlariga ko'ra, pedagogik imidj o'qituvchining tashqi ko'rinishi, xulqi, muloqot tarzi va pedagogik mahorati kabi elementlardan iborat bo'lib, talabalarning o'qituvchiga bo'lgan munosabatini shakllantirishda katta rol o'ynaydi. Ruziyevning «Pedagogik faoliyat va uning nazariy asoslari» asarida pedagogik imidjning asosiy komponentlari haqida batafsil so'z yuritiladi. Uning fikriga ko'ra, o'qituvchining imidji nafaqat tashqi ko'rinish, balki o'qituvchining ichki dunyosi, pedagogik mahorati va kasbiy etikasi bilan ham chambarchas bog'liq.

M. Sh. Ahmedov va R. M. Husainov pedagogik imidjni shakllantirishda o'qituvchining shaxsiy fazilatlarini, bilim va mahoratining muhimligini ta'kidlaganlar. Ular pedagogik imidjning shakllanishi o'qituvchining o'zini o'quvchilar va jamiyat oldida qanday namoyon qilishiga ta'sir qiladi, bu esa o'quvchilarning muvaffaqiyatlariga bevosita ta'sir qiladi.

2. Pedagogik-psixologik jihatlar:

A. I. Zimniya va Boris Bim-Bad kabi psixologlar pedagogik imidjning shakllanishida psixologik omillarning ahamiyatini o'rganganlar. Zimniy pedagogik imidjning o'qituvchining psixologik holati, o'quvchilarga nisbatan psixologik yondashuvi va ularning ehtiyojlarini hisobga olishda muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. O'qituvchining psixologik yondashuvi o'quvchilarning motivatsiyasini shakllantirishda, ularning emotsional holatini boshqarishda bevosita ta'sir ko'rsatadi.

L. A. Zankovning psixologik yondashuvlari pedagogik imidjning shakllanishida o'qituvchining o'zini qanday tutishi, o'z shaxsiy xususiyatlarini boshqarish qobiliyati va o'quvchi bilan muloqot qilish uslubi hamda ijtimoiy-psixologik faktorlarni hisobga olish

zarurligini ko'rsatadi.

3. O'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirish metodikasi:

S. A. Rogovning «Pedagogik texnologiyalar va metodlar» asarida o'qituvchining pedagogik imidjini shakllantirish uchun zarur bo'lgan metodik yondashuvlar va texnikalar haqida batafsil ma'lumotlar mavjud. U o'qituvchilarni professional va psixologik jihatdan tayyorlashda o'qitishning interaktiv metodlari, innovatsion pedagogik texnologiyalar va o'qituvchi-oqituvchi o'rtasidagi ijobiy aloqalar muhimligini ta'kidlaydi.

B. V. Karpov o'qituvchilarni pedagogik imidjni shakllantirishga doir metodik vositalar va psixologik tayyorgarlikning ahamiyatini o'rganib, o'qituvchining kommunikativ ko'nikmalarini rivojlantirish zarurligini qayd etgan. O'qituvchi va o'quvchi o'rtasidagi samarali muloqot o'qituvchining imidjini ijobiy tomonga o'zgartiradi.

4. O'qituvchining pedagogik imidjiga ta'sir etuvchi ijtimoiy va madaniy omillar:

M. M. Bachtin va E. V. Klochkoning ishlari pedagogik imidjning shakllanishida ijtimoiy va madaniy omillarning o'rnini o'rgangan. Ular o'qituvchining ijtimoiy pozitsiyasi, jamiyatdagi o'rnini va ta'lim muhitidagi o'zgarishlar imidjga bevosita ta'sir ko'rsatishini ta'kidlaydi. Madaniy jihatlar, ayniqsa, o'qituvchining milliy va madaniy qadriyatlarni o'zlashtirishi, bu qadriyatlarni o'quvchilarga etkazishdagi roli ham pedagogik imidjga ta'sir etuvchi omillardan biridir. Pedagogik imidjni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari haqida amalga oshirilgan adabiyotlar tahlili o'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatlarining o'quvchilarning ta'lim jarayoniga qanday ta'sir ko'rsatishini tushunishga yordam beradi.

Adabiyotlar, shuningdek, o'qituvchilarning pedagogik imidjini shakllantirishda metodik yondashuvlar, psixologik komponentlar va ijtimoiy madaniy omillarni hisobga olishning muhimligini ta'kidlaydi. Bu bilimlar bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash jarayonini samarali qilishda zarur vosita bo'lib xizmat qiladi.

Muhokama. «Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari» mavzusi, ta'lim tizimidagi zamonaviy o'zgarishlarga muvofiq, muhim pedagogik va psixologik jihatlarni o'rganadi. Pedagogik imidj — bu o'qituvchining tashqi ko'rinishi, xulq-atvori, pedagogik mahorati va o'quvchilar bilan aloqalarini shakllantirishda asosiy omil hisoblanadi. Ushbu muhokama, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirish jarayonining muhim pedagogik-psixologik jihatlarini, shuningdek, bu jarayonda yuzaga keladigan turli qiyinchiliklar va imkoniyatlarni tahlil qilishga qaratilgan.

1. Pedagogik imidjning o'quvchilarga ta'siri: Pedagogik imidjning asosiy ta'siri o'quvchilarga to'g'ridan-to'g'ri tegishli. O'qituvchining imidji uning o'quvchilarga bo'lgan munosabatlarini shakllantiradi. O'quvchilar o'qituvchiga qanday munosabatda bo'lishini ko'pincha uning tashqi ko'rinishi, xulqi va o'quvchi bilan qanday aloqada bo'lishiga qarab belgilaydi. Misol uchun, o'qituvchining ishonchli va ijobiy imidji o'quvchilarning o'qish motivatsiyasini oshiradi, lekin agar o'qituvchining imidji salbiy bo'lsa, bu o'quvchilarning psixologik holatiga va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatlariga zarar etkazishi mumkin.

2. O'qituvchining shaxsiy va kasbiy sifatleri: Pedagogik imidjni shakllantirishda o'qituvchining shaxsiy va kasbiy xususiyatlari muhim ahamiyatga ega. O'qituvchi o'zining pedagogik mahoratini, kasbiy etikasini, bilim va ko'nikmalarini muntazam ravishda rivojlantirib borishi zarur. Shaxsiy xususiyatlar, masalan, empatiya, sabr-toqat, etibor, va muloqot qilish qobiliyati o'quvchi bilan samarali aloqalar o'rnatishda katta rol o'ynaydi. Shu bilan birga, o'qituvchining kasbiy ko'nikmalari, masalan, darslarni tashkil etish va o'qitish metodlari, o'quvchilarning muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

3. Pedagogik-psixologik yondashuvlarning roli: Pedagogik imidjning shakllanishi psixologik jihatdan o'qituvchining o'quvchilar bilan munosabatini aniqlaydi. O'qituvchi o'quvchilarning individual xususiyatlarini hisobga olgan holda pedagogik yondashuvlarni qo'llashga harakat qilishi lozim. O'quvchilarni o'zlashtirish jarayonida ular bilan ishlashda psixologik yondashuvlarning ahamiyati katta. Bu yerda o'qituvchining psixologik etakchilik

qobiliyati, o'quvchilarning ehtiyojlariga qarab turli pedagogik usullarni qo'llay olish qobiliyati juda muhim. Pedagogik imidjning shakllanishi, shuningdek, o'qituvchining o'quvchilarning psixologik holatiga qanday moslashishiga bog'liq.

4. Innovatsion metodlar va pedagogik imidj: Hozirgi kunda ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalar va interaktiv metodlarni qo'llash zarurati oshib bormoqda. O'qituvchilarning pedagogik imidjini shakllantirishda bu metodlarning qo'llanilishi imidjning samaradorligini oshiradi. Masalan, o'qituvchilar darslarni ilg'or pedagogik texnologiyalar, masalan, multimedia va zamonaviy interaktiv vositalar yordamida o'tkazish orqali o'quvchilarning diqqatini jalb qilishi va o'qish motivatsiyasini oshirishi mumkin. Shu bilan birga, o'qituvchining innovatsion pedagogik metodlarni qo'llashi uning zamonaviy ta'lim tizimidagi ahamiyatini oshiradi.

5. Pedagogik imidjning ijtimoiy va madaniy omillari: Pedagogik imidjning shakllanishida ijtimoiy va madaniy omillar ham muhim rol o'ynaydi. Jamiyatda o'qituvchiga nisbatan qilingan talablar, o'qituvchining etikasiga bo'lgan yondashuv va madaniy qadriyatlar, o'qituvchining pedagogik imidjini shakllantirishda muhim omillar sifatida qaraladi. Jamiyatning ta'lim sohasidagi rivojlanishi va o'qituvchiga bo'lgan ehtiyojlar uning pedagogik imidjining shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi.

6. Bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashdagi muammolar: O'qituvchilarni pedagogik imidjni shakllantirishga tayyorlash jarayonida ayrim muammolar mavjud. Bunga o'qituvchilik kasbining murakkabligi, pedagogik faoliyatning psixologik va kasbiy jihatlarini chuqur o'zlashtirishning qiyinligi, hamda ta'lim tizimidagi mavjud kamchiliklar sabab bo'lishi mumkin. Shuningdek, pedagogik imidjni shakllantirishda talabalarning individual xususiyatlari, ularning ijtimoiy va madaniy qiyofalari ham muhim omillar sifatida ko'rib chiqilishi kerak.

Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari zamonaviy ta'lim tizimining muhim jihatidir. Pedagogik imidj nafaqat o'qituvchining tashqi ko'rinishi, balki uning kasbiy va psixologik sifatleri, muloqot uslublari va innovatsion metodlarni qo'llash qobiliyatiga ham bog'liqdir. O'qituvchilarni imidj shakllantirishga tayyorlashda ijtimoiy, madaniy va pedagogik-psixologik omillarni hisobga olish zarur. Bu jarayon o'quvchilarning ta'limdagi muvaffaqiyatlarini oshirishga va ta'lim tizimining samaradorligini ta'minlashga yordam beradi.

Xulosa. Bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari ta'lim tizimining samarali ishlashida muhim ahamiyatga ega. Pedagogik imidj nafaqat o'qituvchining tashqi ko'rinishi, balki uning shaxsiy xususiyatlari, kasbiy mahorati, muloqot uslubi va pedagogik yondashuvlari bilan ham chambarchas bog'liqdir. O'qituvchining pedagogik imidji o'quvchilarning o'qish motivatsiyasi, ularning psixologik holati va ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Shuningdek, pedagogik imidjning shakllanishida psixologik omillar, o'qituvchining o'quvchilarga bo'lgan munosabati va ularning ehtiyojlarini tushunish qobiliyati muhim o'rin tutadi. Pedagogik-psixologik yondashuvlar, shuningdek, o'quvchilarning individual xususiyatlarini inobatga olish va o'qituvchining ijtimoiy-emotsional intellektini rivojlantirish zaruriyatini ta'minlaydi.

Innovatsion pedagogik metodlar va texnologiyalarni qo'llash o'qituvchining pedagogik imidjini yanada samarali shakllantirishga yordam beradi. Shuningdek, o'qituvchining kasbiy va psixologik tayyorgarligi, uning professional o'sishi va ta'lim muhitiga moslashish qobiliyati pedagogik imidjning muvaffaqiyatli shakllanishi uchun muhim omillardir.

Ijtimoiy va madaniy omillar ham o'qituvchining pedagogik imidjiga ta'sir qiladi. O'qituvchilarni tayyorlashda jamiyatning ta'limga bo'lgan yondashuvi, o'qituvchining jamiyatdagi o'ri va madaniy qadriyatlar ham muhim rol o'ynaydi. Shunday qilib, bo'lajak o'qituvchilarda pedagogik imidjni shakllantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari,

nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki o'quvchilarning ijtimoiy va shaxsiy rivojlanishiga ham katta ta'sir ko'rsatadi.

O'qituvchilarning pedagogik imidjini shakllantirishda, shuningdek, kasbiy va psixologik tayyorgarlikni yanada kuchaytirish, pedagogik yondashuvlarni modernizatsiya qilish va o'qituvchining ijtimoiy va madaniy moslashuvchanligini rivojlantirish zarur. Bu jarayon bo'lajak o'qituvchilarni yanada sifatli va samarali ta'lim berishga tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. Норбошева, М. А. (2021). Мактабгача ёшдаги болаларнинг оила давридаги тасаввурларини ўрганиш. *Инновации в педагогике и психологии*, 4(6).

2. Salomova, G. (2014). The reflection features of abbreviations and acronyms of the english language. In *The Second International conference on development of pedagogical science in Eurasia* (pp. 174-176).

3. Саломова, Г., Жумаева, Н., & Хамраева, Д. (2018). Методические принципы современных методик обучения английскому языку. *Наука XXI века*, (4).

4. Abdinazarovna, S. G. (2020). the reflection features of abbreviations and acronyms of the english, russian and uzbek languages. *Тил, таълим, таржима»халқаро журнали*, 2(1).

KOMPYUTER GRAFIKASI VOSITASIDA TALABALARNING MAXSUS KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA OID METODIK TAVSIYALAR

Sattarov Shavkat Yuldashevich
TerDU o'qituvchisi, mustaqil izlanuvchi

Turayev Xumoyiddin Abdug'afforovich
Ilmiy rahbar, TerDU dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Mazkur maqolada kompyuter grafikasi vositalari yordamida talabalarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishga oid metodik tavsiyalar yoritilgan. Zamonaviy texnologik ta'lim jarayonida kompyuter grafikasi, ayniqsa, AutoCAD, SolidWorks, 3ds Max kabi dasturlarni qo'llash orqali talabalar dizayn, modellashtirish va konstruktorlik ko'nikmalarini rivojlantirish imkoniyatlari tahlil qilinadi. Maqolada maxsus kompetensiyalarni shakllantirishda vizualizatsiya, interaktiv o'qitish va loyihaviy yondashuv metodlarining ahamiyati yoritilib, pedagogik texnologiyalar asosida samarali o'qitish metodlari taklif etiladi. Tadqiqot natijalariga asoslanib, texnologik ta'lim yo'nalishida kompyuter grafikasi vositalarini integratsiya qilish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kompyuter grafikasi, maxsus kompetensiyalar, texnologik ta'lim, vizualizatsiya, modellashtirish, interaktiv o'qitish.

Аннотация. В данной статье рассматриваются методические рекомендации по развитию специальных компетенций студентов с использованием инструментов компьютерной графики. Анализируются возможности развития навыков проектирования, моделирования и конструирования студентов в процессе технологического обучения с применением таких программ, как AutoCAD, SolidWorks, 3ds Max. В статье подчеркивается значение визуализации, интерактивного обучения и проектного подхода в формировании специальных компетенций, а также предлагаются эффективные методики обучения на основе педагогических технологий. На основе результатов исследования разработаны практические рекомендации по интеграции инструментов компьютерной графики в технологическое образование.

Ключевые слова: компьютерная графика, специальные компетенции, технологическое образование, визуализация, моделирование, интерактивное обучение.

Annotation. This article presents methodological recommendations for developing students' specialized competencies using computer graphics tools. The study analyzes opportunities for enhancing students' design, modeling, and engineering skills through technological education by utilizing software such as AutoCAD, SolidWorks, and 3ds Max. The article highlights the importance of visualization, interactive learning, and project-based approaches in shaping specialized competencies. It also proposes effective teaching methodologies based on pedagogical technologies. Based on research findings, practical recommendations are developed for integrating computer graphics tools into technological education.

Keywords: computer graphics, specialized competencies, technological education, visualization, modeling, interactive learning.

Kirish (Introduction). Zamonaviy texnologik ta'lim jarayonida kompyuter grafikasi vositalaridan samarali foydalanish talabalarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim omillardan biri hisoblanadi. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining jadal rivojlanishi ta'lim jarayonida yangi metod va vositalarni qo'llash zaruratini tug'dirmoqda. Ayniqsa, texnik va muhandislik yo'nalishlarida o'qiyotgan talabalarning grafik madaniyatini shakllantirish, loyihalash va modellashtirish ko'nikmalarini rivojlantirish bugungi kun

ta'limining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi.

Kompyuter grafikasi vositalari, jumladan, AutoCAD, SolidWorks, 3ds Max kabi dasturlar talabalar tomonidan turli loyihalarni yaratishda, chizmalar tayyorlashda va ularni vizuallashtirishda keng qo'llanilmoqda. Bu jarayon nafaqat an'anaviy grafik savodxonlikni oshirishga, balki talabalarning mustaqil ijodiy fikrlashini rivojlantirishga ham xizmat qiladi. Shuningdek, raqamli texnologiyalar yordamida o'qitish jarayoni yanada interaktiv va samarali bo'lib, bu o'z navbatida ta'lim sifatini oshirishga olib keladi.

Mazkur maqolada kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanish orqali talabalarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish masalalari ko'rib chiqiladi. Shuningdek, interaktiv o'qitish, vizualizatsiya va loyihaviy yondashuv asosida maxsus kompetensiyalarni shakllantirish usullari tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari texnologik ta'lim tizimida kompyuter grafikasi vositalarini samarali qo'llash bo'yicha amaliy tavsiyalarni ishlab chiqishga yo'naltirilgan.

Adabiyotlar tahlili (Literature analysis). Kompyuter grafikasi vositalari yordamida talabalarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish masalasi bo'yicha olib borilgan ilmiy tadqiqotlar so'nggi yillarda sezilarli darajada rivojlandi. Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar, jumladan, AutoCAD, SolidWorks, 3ds Max, Blender va boshqa grafik dasturlarni qo'llash talabalarning muhandislik va texnik loyihalash ko'nikmalarini rivojlantirishga xizmat qilmoqda.

Ilmiy manbalarda kompyuter grafikasi vositalari o'quv jarayoniga integratsiya qilinishi orqali ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha turli yondashuvlar taklif etilgan. J. Duffy (2019) o'z tadqiqotlarida 3D-modellashtirish va vizualizatsiya vositalari talabalar ijodiy tafakkurini rivojlantirishini va real muammolarni hal etish qobiliyatini shakllantirishini ta'kidlaydi. R. A. Bartle (2021) esa AR (Augmented Reality) va VR (Virtual Reality) texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etishning samaradorligi haqida fikr bildiradi.

O'zbekistonlik tadqiqotchilar ham ushbu yo'nalishda izlanishlar olib bormoqda. Jumladan, T. Xudoyberdiyev (2022) o'z asarlarida texnologik ta'limda kompyuter grafikasi asosida mustaqil ta'lim metodikasini takomillashtirish zarurligini ta'kidlaydi. Shuningdek, M. Yoqubov (2023) o'z tadqiqotida dasturiy vositalardan foydalanish orqali talabalarning konstruktorlik kompetensiyalarini rivojlantirish usullarini ko'rib chiqadi.

Shuningdek, Rossiya, AQSh, Xitoy va Yevropa davlatlari tajribasi ko'rsatadiki, kompyuter grafikasi vositalaridan samarali foydalanish uchun modulli o'qitish, masofaviy ta'lim platformalari va sun'iy intellekt asosida adaptiv o'qitish texnologiyalarini joriy etish muhim ahamiyatga ega. P. Johnson (2020) ta'kidlashicha, talabalarning grafik dasturlar bilan ishlash kompetensiyalarini oshirish uchun gorizont va vertikal integratsiyalangan o'quv dasturlaridan foydalanish samarali hisoblanadi.

Mazkur tahlillar shuni ko'rsatadiki, kompyuter grafikasi vositalarini o'quv jarayoniga tatbiq etish orqali talabalarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha tizimli yondashuv ishlab chiqish zarur. Ilmiy manbalar va tajribalar shuni tasdiqlaydi-ki, bu jarayonda innovatsion pedagogik texnologiyalar, loyihaviy yondashuv va interaktiv o'qitish metodlarining integratsiyasi katta ahamiyat kasb etadi.

Materiallar va metodologiya (materials and methodology). Tadqiqot davomida quyidagi asosiy materiallar va texnologik vositalardan foydalanildi:

1. Dasturiy vositalar.

Talabalarning grafik kompetensiyalarini rivojlantirishda quyidagi kompyuter dasturlaridan foydalanildi:

2D chizmachilik va loyihalash uchun:

AutoCAD – muhandislik va arxitektura chizmalari yaratish

CorelDRAW – grafik dizayn va texnik illyustratsiyalar

3D modellashtirish va konstruktorlik uchun:

SolidWorks – muhandislik va sanoat loyihalarini ishlab chiqish

3ds Max – obyektlarni uch o'lchamli modellashtirish va vizualizatsiya qilish

Blender – interaktiv modellashtirish va animatsiya

Vizualizatsiya va render texnologiyalari uchun:

Lumion – arxitektura va muhandislik ob'ektlarini realistik vizualizatsiya qilish

V-Ray – 3D grafik obyektlarini yorug'lik va materiallar jihatdan realistik tasvirlash

Grafik dizayn va chizma yaratish uchun:

Adobe Illustrator – vektor grafikasida chizmachilik

Adobe Photoshop – texnik grafikalar va tasvirlar bilan ishlash

2. Pedagogik materiallar.

Darsliklar va metodik qo'llanmalar:

«Kompyuter grafikasi asoslari»

«Texnologik ta'limda vizualizatsiya usullari»

«Muhandislik grafikasi va 3D modellashtirish»

Elektron resurslar va masofaviy ta'lim platformalari:

Moodle – o'quv jarayonini boshqarish va test sinovlarini o'tkazish

Coursera, Udemy – 3D modellashtirish bo'yicha xalqaro onlayn kurslar

Tadqiqot eksperimental-pedagogik yo'nalishda olib borildi va quyidagi metodologik asoslarga tayandi:

3. Baholash materiallari.

Qobiliyatga asoslangan baholash rubrikalari:

- texnik chizmalarning aniqligi (50%)

- ijodkorlik va dizayn yondashuvi (30%)

- dasturiy ta'minotdan to'g'ri foydalanish (20%)

Tengdoshlarni baholash sessiyalari:

- talabalar o'z ishlarini taqdim etadilar va tengdoshlaridan konstruktiv fikr oladilar.

- dizayn fikrlash va aniqligini yaxshilash uchun interaktiv tanqidlar.

Rubrika - bu baholash mezonlari ko'rsatilgan jadval yoki ko'rsatma bo'lib, u o'quvchilarning ishlarini adolatli va tizimli baholashga yordam beradi.

Mezonlar	A'lo (5)	Yaxshi (4)	Qoniqarli (3)	Qoniqarsiz (2)
Chizmalar aniqligi	Juda aniq va to'g'ri	Ba'zi xatolar bor, lekin asosiy jihatlar to'g'ri	Ko'plab kichik xatolar	Jiddiy xatolar, tushunarsiz
Tutashma (tangency) tushunchasi	To'liq va aniq qo'llanilgan	Ba'zan noto'g'ri qo'llangan	Cheklangan darajada tushunilgan	Umuman tushunilmagan
Grafik dasturlardan foydalanish	AutoCAD imkoniyatlaridan to'liq foydalangan	Asosiy funksiyalarni ishlatgan	Cheklangan darajada foydalangan	Dasturdan to'g'ri foydalana olmagan

4. Mulohaza va uzluksiz takomillashtirish.

Masalan, agar siz talabalarining grafik savodxonlik bo'yicha loyihalarini baholamoqchi

bo'lsangiz, rubrika quyidagicha bo'lishi mumkin:

Mezonlar A'lo (5) Yaxshi (4) Qoniqarli (3) Qoniqarsiz (2)

Chizmalar aniqligi Juda aniq va to'g'ri Ba'zi xatolar bor, lekin asosiy jihatlar to'g'ri Ko'plab kichik xatolar Jiddiy xatolar, tushunarsiz

Tutashma (tangency) tushunchasi To'liq va aniq qo'llanilgan Ba'zan noto'g'ri qo'llangan Cheklangan darajada tushunilgan Umuman tushunilmagan

Grafik dasturlardan foydalanish AutoCAD imkoniyatlaridan to'liq foydalangan Asosiy funksiyalarni ishlatgan Cheklangan darajada foydalangan Dasturdan to'g'ri foydalana olmagan 4. Mulohaza va uzluksiz takomillashtirish.

O'z-o'zini baholash shakllari:

- talabalar o'zlarining yutuqlari, kuchli tomonlari va yaxshilanishi kerak bo'lgan sohalari haqida fikr yuritadilar.

Teskari aloqa davrlari:

- grafik mahoratini yaxshilash uchun o'qituvchilar bilan muntazam ravishda fikr-mulohaza seanslari.

Iterativ dizayn vazifalari:

- o'quvchilarni fikr-mulohazalar asosida oldingi grafik loyihalarni qayta ko'rib chiqish va yaxshilashga undash.

Iterativ dizayn - bu sizning g'oyangiz yoki mahsulotingizning asl nusxasini doimiy ravishda qayta ko'rib chiqish, nima ishlashini va nima ishlamasligini bilib, keyin modifikatsiya qilish usulidir.

Tadqiqot metodlari. Tadqiqotda quyidagi ilmiy usullar qo'llanildi:

Nazariy tahlil - Ilmiy va metodik adabiyotlar, o'quv dasturlari va ilg'or xorijiy tajribalar tahlil qilindi. Kompyuter grafikasi vositalarining texnologik ta'limdagi o'rni baholandi.

Eksperimental tadqiqot - Tajriba-sinov mashg'ulotlari tashkil etilib, grafik dasturlarning ta'lim jarayoniga ta'siri o'rganildi. Talabalar bilim va ko'nikmalarining shakllanishi kuzatildi.

Anketaviy so'rov va suhbatlar - Talabalar va pedagoglar o'rtasida kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanish samaradorligi bo'yicha fikr-mulohazalar yig'ildi. O'qitish jarayonining muammolari va imkoniyatlari baholandi.

Matematik-statistik usullar - Eksperimental natijalarni statistik qayta ishlash uchun SPSS va Excel dasturlari qo'llanildi. Olingan natijalarning ishonchligi hisoblandi va pedagogik samaradorlik baholandi.

Eksperimental tadqiqot bosqichlari:

Tayyorlov bosqichi - Kompyuter grafikasi vositalarining texnologik ta'limdagi roli tahlil qilindi. O'quv dasturlari va trening materiallari ishlab chiqildi.

Asosiy bosqich - Talabalarga kompyuter grafikasi bo'yicha maxsus mashg'ulotlar o'tkazildi. 2D va 3D modellashtirish bo'yicha loyihaviy topshiriqlar berildi.

Natijalarni tahlil qilish bosqichi - Eksperiment yakunlari baholandi va statistik ma'lumotlar tahlil qilindi. Kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanish samaradorligi baholandi.

Mazkur bo'limda ta'kidlangan materiallar va metodlar asosida kompyuter grafikasi vositalarining talabalarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishdagi samaradorligi aniqlanadi. Tadqiqot metodologiyasi esa innovatsion pedagogik yondashuvlarni o'z ichiga olgan bo'lib, bu o'quv jarayonining interaktivligini oshirishga xizmat qiladi.

Natijalar (Results). Ushbu tadqiqot natijasida kompyuter grafikasi vositalari yordamida talabalarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi natijalarga erishildi:

1. Kompyuter grafikasi vositalarining ta'lim jarayonidagi samaradorligi aniqlandi. 2D va 3D modellashtirish dasturlari orqali talabalar chizma va loyihalash ko'nikmalarini mustahkamladi; AutoCAD, SolidWorks, 3ds Max, Blender kabi dasturlarni o'zlashtirish natijasida talabalar real loyihalarni ishlab chiqish imkoniyatiga ega bo'ldi; Grafik dasturlar yordamida muhandislik, arxitektura va texnologik loyihalarni vizuallashtirish samaradorligi oshdi.

2. Talabalarining maxsus kompetensiyalari rivojlandi. Analitik va kreativ tafakkur rivojlanib, talabalar o'z dizayn va loyihalarini innovatsion yondashuv asosida ishlab chiqdi; Loyihalash va konstruktorlik ko'nikmalari oshdi, talabalarining texnologik fikrlashi shakllandi; Texnik topshiriqlarni mustaqil bajarish qobiliyati rivojlandi, talabalar real muammolarni grafik vositalar orqali yechishga o'rgandi.

3. O'qitish metodikasining samaradorligi baholandi. Eksperimental guruh talabalarining natijalari an'anaviy ta'lim olgan guruhlariga nisbatan 15-20% yuqori bo'ldi; Masofaviy va mustaqil ta'lim uchun grafik dasturlardan foydalanish samaradorligi oshdi; Vizualizatsiya va interaktiv o'qitish usullari qo'llanilganda, talabalar materialni yaxshiroq o'zlashtirdi.

4. O'qituvchilar va talabalar uchun metodik tavsiyalar ishlab chiqildi. Grafik dasturlar asosida modulli o'quv dasturi taklif etildi; Talabalar bilim darajasiga qarab bosqichma-bosqich o'qitish metodikasi ishlab chiqildi; Amaliy topshiriqlar va loyihaviy yondashuv asosida darslarni tashkil etish bo'yicha uslubiy ko'rsatmalar tayyorlandi.

Natijalar shuni ko'rsatdiki, kompyuter grafikasi vositalari ta'lim jarayonida samarali qo'llanganda talabalar mustaqil va ijodiy fikrlashga o'rganadi, muhandislik va texnik loyihalash ko'nikmalarini rivojlantiradi. Ushbu metodika texnologik ta'lim sifatini oshirish va talabalarining kasbiy kompetensiyalarini mustahkamlash uchun samarali vosita hisoblanadi.

Muhokama (Discussion). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kompyuter grafikasi vositalarini ta'lim jarayoniga integratsiya qilish talabalar maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Zamonaviy ta'limda AutoCAD, SolidWorks, 3ds Max, Blender, Adobe Illustrator kabi grafik dasturlarni qo'llash nafaqat texnik bilimlarni mustahkamlashga, balki talabalarining ijodiy fikrlashi va muhandislik masalalarini yechish qobiliyatini rivojlantirishga ham yordam beradi.

1. Talabalarining maxsus kompetensiyalariga ta'siri. Tadqiqot davomida aniqlanganidek, grafik dasturlardan foydalanish talabalar quyidagi kompetensiyalarini rivojlantirishga xizmat qildi:

Analitik va muhandislik tafakkur – talabalar o'z loyihalarini aniq tahlil qilish va chizma asosida loyihalashga o'rgandi.

Ijodiy va kreativ yondashuv – 3D modellashtirish va dizayn asosida innovatsion g'oyalar ishlab chiqish imkoniyati oshdi.

Texnologik jarayonlarni tushunish va mustaqil loyihalash – talabalarining mustaqil ishlashi uchun yetarli bilim va ko'nikmalar shakllandi.

2. An'anaviy ta'lim bilan taqqoslash. An'anaviy usullar bilan taqqoslaganda, kompyuter grafikasi asosida o'qitish quyidagi afzalliklarga ega ekanligi aniqlandi:

Ta'lim samaradorligi oshdi – grafik vositalardan foydalangan talabalar topshiriqlarni 15-20% tezroq va aniqroq bajardi.

Nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog'lash imkoniyati – talabalarga real loyihalar yaratish orqali o'rganish imkoniyati berildi.

Mustaqil ta'lim imkoniyatlari kengaydi – talabalar raqamli platformalar orqali grafik dasturlarni o'zlashtirishga muvaffaq bo'ldi.

Shu bilan birga, tadqiqot jarayonida muayyan qiyinchiliklar ham kuzatildi:

Dasturlarni o'zlashtirishda boshlang'ich qiyinchiliklar – ayrim talabalar grafik vositalarni ishlatishda vaqt talab qiluvchi o'quv jarayoniga duch kelishdi.

Texnik jihatdan murakkablik – kuchli kompyuter jihozlari va dasturiy ta'minot talab etiladi.

O'qituvchilarning yetarli tayyorgarligi zarur – o'qituvchilarni maxsus kurslar asosida tayyorlash lozim.

3. Ilg'or tajribalar bilan solishtirish. Dunyo tajribasiga murojaat qilsak, AQSh, Germaniya, Janubiy Koreya kabi mamlakatlarda STEM-ta'lim va kompyuter grafikasi integratsiyalashuvi yuqori natijalar bermoqda. Masalan:

P. Johnson (2020) tadqiqotida 3D modellashtirish va virtual reallik asosida o'qitish muhandislik va texnologik yo'nalishlar bo'yicha talabalar qiziqishini sezilarli oshirishi ko'rsatilgan.

R. A. Bartle (2021) esa AR (Augmented Reality) va VR (Virtual Reality) texnologiyalarini qo'llash ta'lim samaradorligini 30% ga oshirishini ta'kidlaydi.

Bizning tadqiqot natijalari ushbu xalqaro tajribalar bilan mos keladi va kompyuter grafikasi vositalari zamonaviy ta'limda innovatsion yondashuv sifatida samarali ekanligini tasdiqlaydi.

Muhokama natijasida aniqlandi:

Kompyuter grafikasi vositalari talabalar maxsus kompetensiyalarini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi; An'anaviy va interaktiv metodlarni uyg'unlashtirish o'quv jarayonining sifatini oshiradi; O'qituvchilarni qayta tayyorlash va resurs bazasini mustahkamlash muhim ahamiyatga ega.

Kelajakda tadqiqotni kengaytirish uchun AR/VR texnologiyalari, sun'iy intellekt bilan integratsiyalashgan grafik dasturlar va individual ta'lim platformalarini joriy etish masalalarini o'rganish tavsiya etiladi.

Xulosalar (Conclusion). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatdiki, kompyuter grafikasi vositalari yordamida talabalarning maxsus kompetensiyalarini rivojlantirish zamonaviy ta'lim jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu metodika muhandislik, texnologiya va dizayn sohalarida talabalar bilim va ko'nikmalarini oshirish uchun samarali vosita ekanligi isbotlandi.

Asosiy xulosalar: Kompyuter grafikasi vositalaridan foydalanish ta'lim jarayonining samaradorligini oshiradi; 2D va 3D modellashtirish dasturlari (AutoCAD, SolidWorks, 3ds Max, Blender) orqali talabalar texnik tafakkurini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ldi; Grafik loyihalash orqali muhandislik masalalarini vizuallashtirish va mustaqil yechish qobiliyati oshdi; Talabalarning maxsus kompetensiyalari shakllandi va rivojlandi; Analitik va ijodiy tafakkur rivojlanib, real muammolarni yechishga yo'naltirilgan loyihaviy ishlarga qiziqish oshdi; Mustaqil ta'lim olish va masofaviy o'qitish imkoniyatlari kengaydi; An'anaviy ta'lim metodikalariga nisbatan yangi yondashuvning afzalliklari aniqlandi; Kompyuter grafikasi asosida loyihaviy ta'lim metodikasini joriy etish orqali talabalar ijodkorligi va muammolarni hal qilish qobiliyatlari oshdi; Virtual va interaktiv o'qitish vositalari (AR/VR, simulyatsiyalar) qo'llanilganda talabalar bilimini mustahkamlash yanada samarali bo'lishi kuzatildi; O'qitish metodikasini takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqildi; Kompyuter grafikasi asosida modulli o'quv dasturlarini ishlab chiqish tavsiya etiladi; O'qituvchilar uchun maxsus kurslar tashkil etish, chunki grafik dasturlarni samarali o'rgatish uchun texnik va pedagogik kompetensiyalar zarur; Mustaqil ta'lim uchun onlayn platformalar va raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish lozim.

Kelajak istiqbollari: AR/VR va sun'iy intellekt texnologiyalarini kompyuter grafikasi ta'limiga integratsiyalash; Murakkab texnologik loyihalarni ishlab chiqish va vizualizatsiya qilish metodikasini takomillashtirish; Talabalarning mustaqil ishlash va tadqiqot olib borish ko'nikmalarini yanada rivojlantirish uchun moslashuvchan ta'lim platformalarini yaratish; Ushbu tadqiqot natijalari kompyuter grafikasi vositalaridan samarali foydalanish orqali texnologik ta'lim sifati oshirishini va talabalarning maxsus kompetensiyalari yanada rivojlanishini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Bartle, R. A. (2021). *Augmented Reality and Virtual Reality in Engineering Education: A New Approach to Learning*. Springer.
2. Johnson, P. (2020). 3D Modeling and Simulation in Higher Education: Enhancing Student Engagement and Creativity. *IEEE Transactions on Education*, 63(4), 402-410.
3. Cheng, K. & Lee, J. (2019). *Computer-Aided Design in Engineering Curriculum*:

Benefits and Challenges. *International Journal of Educational Technology*, 14(2), 85-97.

4. Liu, D., & Wang, Y. (2020). Advancements in Computer Graphics for STEM Education: A Review. *Journal of Educational Technology & Society*, 23(1), 45-58.

5. Xolmatov, U., & Karimov, R. (2021). Muhandislik grafikasi va kompyuter grafikasi fanlarida raqamli texnologiyalarni qo‘llash metodikasi. *O‘zbekiston Pedagogika Jurnal*, 3(5), 122-134.

6. Nurbekov, S. (2019). *Texnologik ta’limda innovatsion yondashuvlar va kompyuter grafikasi asosida o‘qitish*. Toshkent: Fan va Texnologiya.

7. UNESCO. (2021). *The Role of Digital Tools in Higher Education: A Global Perspective*. Paris: UNESCO Publishing.

8. Shvets, M. & Petrov, I. (2020). Application of 3D Visualization in Engineering Education. *Computer Science and Engineering Journal*, 11(3), 210-225.

9. Turayev X.A., Sattarov Sh.Y., Muhammadiyev E.T. (2024). *Muhandislik kompyuter grafikasi*. Toshkent: Lesson-Press nashriyoti, 119-216-betlar.

10. Turaev K., Yadgarov N., Mamatov D. The role and practical significance of interesting issues in the development of students’ cognitive competencies //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 538. – C. 05045. <https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85196835458&origin=recordpage>

11. Umirov A. et al. The current state of soybean production and its size-mass indicators in the conditions of Uzbekistan //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 105. – C. 05018. <https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85192545367&origin=recordpage>

12. Turayev X. A. et al. Methodical recommendations on the implementation of the theme of forty in drawing lessons graphically //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 264-268.

MALAKALI MUHANDISLAR TAYYORLASHDA IQTISODIY RIVOJLANGAN KORXONALAR BILAN HAMKORLIK QILISH

Siddiqova Sadoqat G'afforovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Saidjonova Parvina Shuxratovna

Buxoro muhandislik-texnologiya instituti, mustaqil tadqiqotchi

Annotatsiya. Mazkur maqolada oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilarni malakali mutaxassislar sifatida tayyorlash uchun iqtisodiy rivojlangan korxonalar bilan hamkorlik qilishdagi mavjud muammolar, mazkur korxonalarni tanlash mezonlari, dual ta'limdan foydalanadigan oliy ta'lim muassasalari tajribasi o'rganilgan va yoritib berilgan.

Tayanch iboralar: dual ta'lim, oliy ta'lim, korxonalar, ta'lim muassasasi, korxonalar faoliyati, mutaxassis, amaliyot, tanlash mezonlari, tajriba, dual ta'lim dasturlari, kasbiy ko'nikmalar.

СОТРУДНИЧЕСТВО С ЭКОНОМИЧНО РАЗВИТЫМИ ПРЕДПРИЯТИЯМИ В ПОДГОТОВКЕ КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ ИНЖЕНЕРОВ

Сиддикова Садокат Гаффоровна

ректор Бухарского инженерно-технологического института, доктор философских педагогических наук

Саиджонова Парвина Шухратовна

Бухарский инженерно-технологический институт, свободный соискатель

Аннотация. В данной статье изучены и освещены существующие проблемы сотрудничества с экономически развитыми предприятиями по подготовке выпускников высших учебных заведений в качестве квалифицированных специалистов, критерии выбора этих предприятий, опыт высших учебных заведений, использующих дуальное образование.

Ключевые слова: дуальное образование, высшее образование, предприятие, образовательное учреждение, предпринимательская деятельность, специалист, практика, критерии отбора, опыт, программы дуального образования, профессиональные навыки.

COOPERATION WITH ECONOMICALLY DEVELOPED ENTERPRISES IN THE TRAINING OF QUALIFIED ENGINEERS

Sadokat Siddikova,

Rector of the Bukhara Engineering Technological Institute, Doctor of Philosophical and Pedagogical Sciences

Saidzhonova Parvina Shukhratovna

Bukhara Institute of Engineering and Technology, independent researcher

Annotatsion. This article examines and highlights the existing problems of cooperation with economically developed enterprises in training graduates of higher education institutions as qualified specialists, the criteria for choosing these enterprises, and the experience of higher education institutions using dual education.

Keywords: dual education, higher education, enterprise, educational institution,

entrepreneurial activity, specialist, practice, selection criteria, experience, dual education programs, professional skills.

KIRISH. Malakali mutaxassislarni tayyorlash masalasi, nafaqat ta'lim sohasidagi, balki iqtisodiy rivojlanish uchun ham muhim masaladir. O'zbekiston kabi rivojlanayotgan mamlakatlar uchun malakali kadrlar tayyorlash va ularni mehnat bozoriga tayyorlash, iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni oshirishning muhim omili bo'lib qolmoqda. Bunda iqtisodiy rivojlangan korxonalar bilan hamkorlik qilish ayniqsa zarurdir, chunki ular o'z tajribalari bilan ta'lim tizimini boyitish, talabalar uchun amaliy ko'nikmalarni shakllantirish va ishlab chiqarish sohasidagi yangiliklarga moslashish imkoniyatlarini taqdim etadi. Hamkorlikning muhimligi va afzalliklarini bir necha omillarda ko'rish mumkin. Jumladan, iqtisodiy rivojlangan korxonalar va ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik, ikki tomon uchun ham foydali. Korxonalar uchun bu, o'z ehtiyojlarini qondirish, malakali kadrlar bilan ta'minlanish va ijtimoiy mas'uliyatni bajarish imkoniyatini yaratadi. Ta'lim muassasalari esa talabalar uchun real ish sharoitlariga moslashtirilgan amaliyotlarni tashkil etish, soha yangiliklarini o'rgatish va joriy bozordagi talablarni yoritish imkonini beradi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2025-yil 16-yanvar "Oliy ta'lim tizimida dual ta'limni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 14-sonli qarori ham aynan shu masalalar yechimiga qaratilgan bo'lib, oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirishning asosiy yo'nalishlariga innovatsion ta'lim texnologiyalarini o'quv jarayoniga joriy etish, jumladan integrativ o'qitish elementlarining imkoniyatlaridan foydalanib ta'lim dasturlarini amalga oshirish, talabalarning mustaqil ishlari ko'lamini kengaytirish masalalarini ko'zda tutadi. Bundan tashqari, korxonalar talabalarga o'z faoliyat sohasida ishlab chiqarish jarayonlari, biznes strategiyalari, texnologik yangiliklar va ilg'or boshqaruv metodologiyalarini o'rgatish orqali ularning malakalarini oshirishi mumkin. Shuningdek, bu hamkorlik orqali ta'lim muassasalari o'z dasturlarini yangilab, amaliy va nazariy bilimlarni integratsiyalash imkoniyatiga ega bo'lishadi.

Malakali mutaxassislar tayyorlashda korxonalarining roli beqiyos bo'lib, iqtisodiy rivojlangan korxonalar, ayniqsa innovatsion va yuqori texnologiyali sohalarda faoliyat yuritadiganlar, o'z ishchi kuchini yuqori malakali mutaxassislar bilan ta'minlashga intilishadi. Shuning uchun, ta'lim tizimi va korxonalar o'rtasidagi hamkorlik orqali talabalar va yosh mutaxassislarning bilim va ko'nikmalarini ishlab chiqarish sohasiga moslashtirish, iqtisodiy samaradorlikni oshiradi.

Ishlab chiqarish jarayonlari, loyiha boshqaruvi, marketing, menejment, informatika va texnologiya kabi sohalarda chuqur bilimga ega mutaxassislar yetishishi zarur. Korxonalar o'z tajribalaridan foydalangan holda, ta'lim dasturlarini yangilash va amaliyotlarni o'tkazish orqali mutaxassislarning yuqori darajadagi malakasini shakllantirishi mumkin.

Hamkorlikni amalga oshirishning asosiy yo'nalishlarini ko'rib o'tamiz. Amaliyotlar va stajirovkalar – talabalar uchun ishlab chiqarish yoki xizmat ko'rsatish sohasida amaliyot o'tash imkoniyatlarini yaratish talabi bo'lib, bu talabalarni ishga tayyorlashda yordam beradi va ishga joylashishda katta afzalliklarga ega bo'lishadi.

Ta'lim muassasasining muhandis-pedagoglari va korxonadan belgilangan amaliyotchi mutaxassislarning kurslar va seminarlarda qatnashishi – korxonalar o'z tajribalarini baham ko'rishi, yangi texnologiyalar va usullarni o'rgatish maqsadida ta'lim muassasalari bilan seminarlar, treninglar va master-klasslar tashkil qilishlari mumkin.

Hamkorlikdagi loyihalar va tadbirlar – korxonalar va ta'lim muassasalari birgalikda tadqiqot loyihalarini amalga oshirishi, yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish yoki ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish bo'yicha ilmiy izlanishlar olib borishi mumkin. Bu nafaqat talabalarga amaliy tajriba berish, balki ilmiy innovatsiyalarni rivojlantirishga ham

xizmat qiladi.

Korxonalarining ta'lim dasturlariga integratsiyasi masalasi – korxonalar ta'lim muassasalariga o'z ekspertizalarini kiritib, mavjud ta'lim dasturlarini yangilash va ishlab chiqarishning real sharoitlariga moslashtirishga yordam berishi mumkin. Bu talabalar uchun zamonaviy va dolzarb bilimlarni olish imkonini yaratadi.


Korxonalarda iqtisodiy rivojlanish va kadrlar tayyorlashning aloqasi ham malakali mutaxassislar tayyorlashning iqtisodiy rivojlanishdagi o'rnini belgilaydi. Ayrim davlatlar uchun rivojlanayotgan sanoat va xizmat sohaslarini qo'llab-quvvatlashda, malakali kadrlarning yetishmasligi muammo bo'lishi mumkin. Iqtisodiy rivojlangan korxonalar bilan hamkorlik bu muammoni hal etishda asosiy omil bo'lib, yoshlarning ishbilarmonlik qobiliyatlarini oshirishga xizmat qiladi.

Shuningdek, malakali kadrlar tayyorlashning muvaffaqiyatli amalga oshirilishi, mehnat bozori talablariga moslashish, ishlab chiqarish jarayonlarini modernizatsiya qilish va umumiy iqtisodiy o'sishni tezlashtirishga yordam beradi.

MUHOKAMA. Oliy ta'lim muassasasi o'z-o'zini baholovchi, talaba hayotidagi yangi bosqichni belgilaydigan ta'lim bo'g'ini bo'lib, ta'lim muassasasida o'quv faoliyatini tizimli, keng qamrovli, ijtimoiy jihatdan yuqori darajada tashkil etishga xizmat qiladi. Zamon talablariga javob bera oladigan mutaxassis kadrlarni tayyorlash, malaka talablari, o'quv rejaları va fan dasturlarini ish beruvchilarning talablari asosida takomillashtirib borish oldimizda turgan dolzarb masalalardan biridir [1].

Integrativ ta'lim atrof-muhit ta'sirida o'z-o'zini anglash ehtiyojini yuzaga chiqaradi. Ta'lim tizimida integratsiyani joriy etish bugungi kunda ta'lim muassasasi va jamiyat oldidagi qator vazifalarni hal qilish imkonini beradi. Olimlar integrativ-pedagogik konsepsiyalar haqida, ya'ni u yoki bu sohadagi integrativ-pedagogik faoliyat mazmuni va yo'nalishini belgilab beruvchi tizimlashtirilgan qarashlar, qoidalar va g'oyalarning birligi to'g'risida so'z yuritmoqdalar.

Ta'limda integratsiya umumdidaktik tamoyilining psixologik-pedagogik asoslari ustida izlanishlar olib borib, "ta'lim berishda integratsiya" tushunchasida uchta o'zaro bog'liq elementlarni kiritish mumkin (1-rasm):



1-rasm. Ta'lim berishda integratsiyani ta'minashning o'zaro bog'liq elementlari

o'quv jarayonini o'rganishning turli bosqichlarida uning qismlari orasidagi zaruriy aloqa

va to'g'ri o'zaro munosabatni o'rnatish;

o'qitishning turli xil bosqichlarida fan, o'quv materialini o'rganish shakllari va usullarining o'zaro aloqasini o'rnatish;

talabalarning bilimlariga, ularning ichki va fanlararo mantiqiy aloqani o'rnatish olish mahoratiga bo'lgan talablarni aniqlash.

Bizningcha, o'qitishda integratsiya tamoyilining universalligi, o'qitishning barcha tarkibiy tashkil etuvchilariga o'zaro bog'liq va o'zaro shartlashgan ta'sirda aks ettiriladi. Haqiqatdan ham, bu tamoyil o'qitishning barcha davri va bosqichlarini, uning barcha tashkil etuvchilarini va butun tizimini qamrab oladi.

Talabalarning bilimlarini muvaffaqiyatli shakllantirish, ularni tarbiyalash va shaxsiy fazilatlarini rivojlantirish ko'p jihatdan talabalar faoliyatini boshqarish uchun qaysi psixologik-pedagogik nazariya asos bo'lishiga bog'liq. Zamonaviy psixologik-pedagogik fanlarda ta'lim va tarbiya jarayonining bir qator tushunchalari mavjud bo'lib, ular ma'lumotni qabul qilish va o'zlashtirish mexanizmining, talabalarni tarbiyalash, bilim, ko'nikma, malakalarni shakllantirish jarayonining ma'lum jihatlarini ochib beradi [3].

Ta'lim integratsiyasi deyilganda, nafaqat bilimlarning fanlararo bog'lanishi, balki o'qitish texnologiyalari, ta'lim metodlari va shakllari integratsiyasi ham tushuniladi. O'quv jarayonida samaradorlikka erishish uchun integratsiyaning turli darajalaridan foydalanish mumkin. Masalan,

o'quv dasturlaridagi integratsiya (mavzulararo uyg'unlik);
modullashgan integratsiya (turdosh o'quv fanlariga oid bilim va tushunchalarni tizimlashtirgan holda taqdim etish);

integrativ dasturlar (dasturlarda bir necha o'quv predmeti yoki o'quv fanlariga oid mavzularni uyg'unlashtirgan holda taqdim etish);

mavzulararo integratsiya (ayni bir kurs doirasida beriladigan o'quv materiallarini boshqa bir kurs o'quv materialini bilan uyg'unlashtirish);

mavzularni ketma-ket bayon etish asosidagi integratsiya (o'quv materialini bayon etishdagi konsentrizm tamoyili, ya'ni oldingi o'quv materialining keyingisini mazmunan to'ldirishi);

axborot texnologiyalari asosidagi integratsiya (o'quv fanlarini kompyuter texnologiyalari asosida o'qitish).

Izlanishlar shuni ko'rsatadiki, oliy ta'limda o'quv jarayonini ixtisoslik fanlari integratsiyasini ta'minlash asosida tashkil etish talabalarning bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ularning mustaqil ishlash qobiliyatlarini va amaliy ko'nikmalarini o'rganish darajalarini rivojlantirishda ijobiy samara beradi. [5; 25-b.]. Demak, oliy ta'limda ixtisoslik fanlarining integratsiyasini ta'minlash orqali talabalarning fanlarni samarali o'zlashtirishiga erishish mumkin. Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga joriy qilish bilan birga ixtisoslik fanlari integratsiyasiga yo'naltirilgan fan dasturlari asosida o'qitish – o'quv maqsadlariga kafolatli erishishni ta'minlaydi.

Integratsiya – obyektiv hayotiy jarayon bo'lib, hozirgi globallashtayotgan hayotning integratsiyalashuv jarayonida mustaqillikni saqlab qolish masalasini ilgari suradi. Bu esa xalqaro hamkorlikda quyidagi prinsiplarga qat'iy amal qilishni taqozo etmoqda:


integratsiyalashgan birlashmalarga faqat tomonlarning tengligi asosida qo'shilish lozim (hatto siyosiy-iqtisodiy potensial turli-tuman bo'lgan taqdirda ham);

milliy manfaatlar deklaratsiyasiga asoslanish, ularning mintaqaviy va boshqa manfaatlar oldida ustuvorligi;

ishtirok etishning ixtiyoriyligi va u yoki bu ittifoqni tanqid qilish imkoniyati mavjudligi.

Psixologiyada integratsiya murakkab psixologik rivojlanish qonuniyatlari, yosh bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlarni o'rganish, bilimlarni bosqichma-bosqich o'zlashtirish, faoliyatning yetakchi turlari o'zgarishi doirasida ko'rib chiqiladi. Pedagogik jihatdan esa

integratsiya didaktik tamoyil (o'quv jarayonining mazmuni, tashkiliy shakl va usullarini belgilab beruvchi asosiy qoida), shart-sharoit (ta'lim jarayonini samarali tashkil etishga ko'maklashuvchi holatlar), harakatga keltiruvchi kuch (ta'lim jarayonini amalga oshirishga yordam beruvchi omil), ta'lim rivojlanishi va tarbiya jarayonida majburiy bajarilishi kerak bo'lgan talab sifatida izohlanadi.



2-rasm. Integrativ ta'lim jarayonida tuzilmaviy komponentlar o'zaro aloqadorligi natijasi

Talabalarda mustaqil bilim olish ko'nikmasi va malakalarining shakllantirilishi oliy ta'lim muassasasidagi integrativ o'quv jarayoni nazariy-amaliy, psixologik-pedagogik, tashkiliy-loyihalash, kommunikativ tuzilmaviy komponentlar o'zaro aloqada bo'ladigan shart-sharoitlarda yuzaga chiqadi (2-rasm). Demak, bular quyidagilardan iborat:

- bilimlarni fanlararo bog'lash hisobiga talabalarda ularning kelgusi kasbiy faoliyati haqida to'la tasavvurni shakllantirish;
- fanlararo integratsiya vositasida ixtisoslik fanlarini o'qitish jarayonida talabalarnig o'z-o'zini baholash tizimiga o'tish;
- mustaqil bilim olish mexanizmi sifatida kreativ fikrlash va integrativ hisoblangan kompetensiyani yuzaga keltirish.

Ko'rinib turibdiki, fanlar integratsiyasini ta'minlash mavzularning takrorlanmasligi, vaqtni tejash, ya'ni kam vaqt sarflab katta hajmdagi materialni o'zlashtirish imkonini beradi va o'zida tashkilotchilik vazifasini ham ifodalaydi. Yuqorida ko'rsatilganlar hisobga olinganda o'qitishning rentabelligi ham oshadi [5].

Ilmiy bilimning informativligi muammosiga nisbatan qiziqish fanning hozirgi davrdagi rivojlanish qonuniyatlari, avvalo uning samaradorligini oshirishga ko'maklashuvchi bilishdagi integratsiya jarayonlari bilan belgilanadi. Fan integratsiyalashuvining muhim unsurlaridan biri bo'lgan ilmiy axborot integratsiyasi ilmiy axborotning bir-biriga, fanning bir tarmog'idan boshqa tarmog'iga o'tishida namoyon bo'ladi. Hozirgi zamon fanining mantiqiy-gnoseologik asoslaridan biri sanalgan integratsiya ilmiy bilimning informativlik darajasi va asosiy informatsion imkoniyatlarini o'zgartiradi. Bu bilimning bir darajadan boshqa darajasiga, narsalar va hodisalar mazmunini yanada teranroq aks ettiruvchi bilimga o'tish bilan bog'liq. Integrativ jarayonlar nazariy tizimlarning teranlik darajasini oshirib, nazariya va empirik ma'lumotlarning qo'llanish doirasini kengaytiradi. Nazariya mazmunining yanada teranlashuvi

informativlik darajasining oshishiga sabab bo'ladi, tushunchalar haqidagi axborotning integrativ jarayonlarga ta'sir ko'rsatish imkoniyatini ro'yobga chiqarishga ko'maklashadi [7].

Integratsiya ta'lim turlari hamda o'quv fanlari orasidagi integratsiyani anglatib, birinchidan, ta'limning navbatdagi turi mazmuni avvalgisini nafaqat davom ettirishi, mazmunan o'zaro uzviy bog'langan holda keyingi ta'lim turida rivojlantirilib borilishi lozim, shuningdek, fanlararo integratsiya amalga oshirilishi zarur.

XULOSA. Demak, malakali mutaxassislar tayyorlash uchun iqtisodiy rivojlangan korxonalar bilan hamkorlik qilishda integratsiya – bu ta'lim turlari orasida, fanlararo va mavzulararo o'zaro bog'liqlik va munosabatlarni to'g'ri o'rnatilishini ta'minlashdan iborat jarayon bo'lib, ta'limning sifatiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim tushuncha sifatida uning ma'lum bosqichi, fan yoki mavzularining muayyan ketma-ketlik va izchilligini ta'minlash, uning falsafiy va pedagogik-psixologik jihatlarini puxta o'rganish va amalda tatbiq etish orqali talabalar bilimni chuqurlashtirish va rivojlantirishga xizmat qiladi.

Malakali mutaxassislarni tayyorlash uchun iqtisodiy rivojlangan korxonalar bilan hamkorlik qilish, nafaqat ta'lim tizimi uchun, balki jamiyatning barcha sohalari uchun muhimdir. Bu hamkorlik o'zaro manfaatlarga asoslangan bo'lib, talabalarga zamonaviy bilim va amaliy ko'nikmalarni taqdim etish, shuningdek, iqtisodiy o'sishni qo'llab-quvvatlashga imkon yaratadi. Uzoq muddatda, bunday hamkorlikning samaralari mamlakatning iqtisodiy barqarorligi va raqobatbardoshligini oshirishga olib keladi.

Bunday yondashuv, davlat, ta'lim muassasalari va korxonalar o'rtasida mustahkam hamkorlikni o'rnatish orqali muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Abdirasilov S., Ikromov X. Tasviriy san'at fanini o'qitishda ta'lim integratsiyasi va innovatsiyasi // Pedagogik ta'lim. – Toshkent, 2008. – № 2. – B. 84.
2. Aliev I.T. Matematika fani o'quv dasturlarida integratsiya muammosi // Uzluksiz ta'lim. – Toshkent, 2004. – № 5. – B. 71-76.
3. Afanaseva I.V. Voprosy integratsii nauki i obrazovaniya // Ta'lim texnologiyalari. – Toshkent, 2007. – № 4 – S. 24-25.
4. Nishonqulov, S. F. O. G. L., & Solidjonov, D. Z. O. G. L. (2021). Ta'lim biznesida raqamli innovatsion texnologiyalar. *Science and Education*, 2(6), - 233-238.
5. Saidjonova, P.S. (2024). Oliy ta'lim tizimida pedagogik faoliyatning mazmuni va maqsadi. *Educational Research in Universal Sciences*, 3(4 special), 270-274.
6. Sh, T. Z., & Kh, S. K. (2020). Innovative forms of education in Uzbekistan. *International journal of innovations in engineering research and technology. IJIERT*, 7(4), 258-261.
7. Siddiqova, S. G. (2019). Elektron ta'lim resurslarining yangi avlodi: tahlillar, arxitektura, innovatsion sifatlar. *Ta'lim, fan va innovatsiya. Ma'naviy-ma'rifiy, ilmiy-uslubiy jurnal*, 1, 91-95.
8. Solidjonov, D. (2021). Modern education and useful methods for teaching. *Scienceweb academic papers collection*.
9. To'xtayeva, Z., & Rahmatova, B. (2023). Dizaynerlikda pedagogik texnologiyalar. *Центральноазиатский журнал образования и инноваций*, 2(10 Part 2), 128-131.
10. Xayrullo, D., Olim, A., & Bekzod, I. (2023). Mashinali o'qitish texnologiyalarini co2 yordamida ekstraksiyalash jarayonida qo'llash. *Innovations in Technology and Science Education*, 2(9), 470-476.
11. Yo'ldashev A., Solidjonov D. (2022). Yangi innovatsion texnologiyalar va ularni ta'lim olish muhitida qo'llanishi. *Yosh Tadqiqotchi Jurnal*, 1(3), 198–204.
12. Сиддикова, С.Г., и Саиджонова, П.С. (2024). Вопросы цифровизации медицины в узбекистане. *международная наука, образование и новые технологии обучения*. 1 (4), 168-172.

OLIV TA'LIM MUASSASALARIDA INNOVATSION RIVOJLANISH JARAYONLARINI BOSHQARISHDA YUZAGA KELADIGAN NIZOLI VAZIYATLARNI HAL ETISH MODELLARI

Soxibov Akram Rustamovich
Shahrisabz davlat pedagogika instituti p.f.n., professor

Аннотация: Bugungi globalashuv jarayonida xalqaro ta'lim tizimining yangicha tipdagi innovatsion rivojlanish yo'liga o'tib borish yo'lida shunday holatlar ham yuzaga kelmoqdaki, bunda an'anaviy va innovatsion ta'lim tizimlarining bir-biri bilan o'rin almashinuvi natijasida mazkur tizimlarning o'zaro farqli jihatlari ular orasida nizoli vaziyatlar yuzaga kelishi ko'zga tashlanmoqda. Mazkur maqolada Oliy ta'lim muassasalarida innovatsion rivojlanish jarayonlarini boshqarishda yuzaga keladigan nizoli vaziyatlarni hal etish modellari, haqida batafsil ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: globalashuv, xalqaro ta'lim tizimi, innovatsion rivojlanish, innovatsion rivojlanishi, boshqarish, rahbarlar, oliy ta'lim muassasalari, nizoli vaziyatlar.

MODELS FOR RESOLVING CONFLICT SITUATIONS THAT ARISE IN THE MANAGEMENT OF INNOVATIVE DEVELOPMENT PROCESSES IN HIGHER EDUCATION INSTITUTIONS

Sokhibov Akram Rustamovich,
PhD, Professor, Shakhrisabz State Pedagogical Institute

Abstract: In today's globalization process, as the international education system moves towards a new type of innovative development, there are also situations where, as a result of the replacement of traditional and innovative education systems with each other, the differences between these systems become apparent, leading to the emergence of conflict situations. This article provides detailed information on models for resolving conflict situations that arise in the management of innovative development processes in higher education institutions.

Key words: globalization, international education system, innovative development, innovation development, management, leaders, higher education institutions, conflict situations.

МОДЕЛИ РАЗРЕШЕНИЯ КОНФЛИКТНЫХ СИТУАЦИЙ, ВОЗНИКАЮЩИХ ПРИ УПРАВЛЕНИИ ПРОЦЕССАМИ ИННОВАЦИОННОГО РАЗВИТИЯ В ОРГАНИЗАЦИЯХ ВЫСШЕГО ОБРАЗОВАНИЯ

Сохибов Акрам Рустамович
Шахрисабзский государственный педагогический институт, профессор

Абстрактный: В современных условиях глобализации, в настоящее время международная система образования переходит на новый тип инновационного развития, возникают ситуации, когда в результате замены традиционных и инновационных систем образования друг на друга проявляются различные аспекты этих систем, приводит к возникновению конфликтных ситуаций между ними. В статье подробно изложены модели разрешения конфликтных ситуаций, возникающих при управлении процессами инновационного развития в высших учебных заведениях.

Ключевые слова: глобализация, международная система образования, инновационное развитие, инновационное развитие, управление, лидеры, высшие учебные заведения, конфликтные ситуации.

Hozirgi kunda xalqaro ta'lim tizimining yangicha tipdagi innovatsion rivojlanish yo'liga

o‘tib borish yo‘lida shunday holatlar ham yuzaga kelmoqdaki, bunda an’anaviy va innovatsion ta’lim tizimlarining bir-biri bilan o‘rin almashinuvi natijasida mazkur tizimlarning o‘zaro farqli jihatlari ular orasida nizoli vaziyatlar yuzaga kelishi ko‘zga tashlanmoqda. Bunday vaziyatlarni tadqiqotchi-olimlar OTM lar innovatsion rivojlanishidagi nizolar nomi ostida belgilab, ularni hal qilish va boshqarish eng muhim zarurlardan biriga aylanmoqda. Oliy ta’lim muassasalarida innovatsion rivojlanishdagi nizolarni boshqarish o‘zida bu innovatsion rivojlanish jarayoni ishtirokchilarining o‘zaro kelishuviga erishishni namoyon qilib, bunday kelishuv nizolarning konstruktiv modernizatsiyalashgan salohiyatini maksimal darajadagi samarali qo‘llashni ta’minlaydi.

OTM lardagi innovatsion rivojlanish nizolari nafaqat muqarrar vaziyat, balki ko‘p jihatdan konstruktiv bo‘lgani uchun ham yaqqol ko‘zga tashlanadiki, garchi masala hal qilinishini talab etsa ham, OTM da yuzaga kelgan bunday nizolarni nafaqat oldini olishga barcha kuch-g‘ayratlarni safarbar etishga zarurat yo‘qdir. Bunda yanada istiqbolliroq bo‘lib nizoli o‘zaro harakatlarni bashorat qilish, modelni tuzib chiqish va tartibga solish jarayonlari asosida ularning imkoniyatlaridan foydalanish hisoblanadi. Aynan mana shu jihat OTM lardagi innovatsion rivojlanish nizolarini venchurli boshqarish mazmunini tashkil etadi. Mana shunday boshqaruvning zaruriy elementi bo‘lib innovatsion nizolarni tahliliy modellashtirish hisoblanadi.

Modellashtirish – bilimlarning barcha sohalaridagi tadqiqotlarning asosiy metodi va faoliyatning turli xil sohalarida qaror qabul qilish uchun foydalaniadigan murakkab tizimlarning xususiyatlarini baholashning ilmiy asoslangan metodidir.

Model (lotinchadagi modulus – o‘lchov, namuna, me‘yor) deganda ilm-fanda keng ma’noda analog, original narsaning “o‘rinbosari” (voqelik fragmenti) tushunilib, u ma’lum bir shart-sharoitlarda tadqiqotchini qiziqtirayotgan original xossalarini takror hosil qilib beradi.[1].

M.Vartofskiy modellarni biron-bir narsa bilan taqqoslanadigan “tasvir”lar shaklida olib qaraydi. “Tasvir” ob’ektga “o‘xshash” bo‘lishi yoki turli xil ko‘rinishlardagi ob’ektning o‘zidek namoyon bo‘lishi mumkin bo‘lib, bunda u xaritaning konturlarini ketma-ketlikda aks ettirishning eng sodda vaziyatlaridan tortib to o‘z qarashlari, moyilliklari, xulq-atvori bilan uni aks ettiruvchi, taqdim etuvchi millat “vakili” singari vaziyatlargacha yuzaga keltirilishi mumkindir [2].

Modelning axborotli jihati N.N.Moiseevning ta’rifida ta’kidlab o‘tiladi. Uning ta’rifiga ko‘ra, “model deganda predmet (hodisa) haqida to‘la ravishda ma’lum bir belgilangan, cheklangan axborotlarni beruvchi, uning u yoki bu ayrim xossalarini aks ettiruvchi soddalashtirilgan, agarda kerak bo‘lsa – bir qolipga solingan bilimni tushunamiz. Modelni axborotlarni kodlashtirishning maxsus bir shakli sifatida ham olib qarash mumkin. Dastlabki axborot ma’lum bo‘ladigan va biz faqat bosha tilgagina tarjima qiladigan odatdagi kodlashtirishdan farq qilib, model qanday tildan foydalanilishidan qat’iy nazar ilgari kishilarga ma’lum bo‘lmagan axborotlarni ham kodlashtiradi. Aytish mumkinki, model o‘zida potansial bilimga ega bo‘ladi, odam bu bilimni tadqiq qilish bilan undan o‘zining hayotiy ehtiyojlari yo‘lida foydalanishi mumkin. Mana shu maqsadlarda ilm-fan doirasida tahlilning maxsus metodlari rivojlantirilgandir. Aynan mana shu bilan modelli bayon qilish, tavsiflashning oldindan aytib beruvchilik qobiliyati shartlanadi” [3].

Modellar mazmuniy va formal (shaklli) turlarga ajratilishi qabul qilingan. Bundan tashqari modellar ikkita o‘zaro bog‘langan bosqichlardan – modelni shakllantirish (vazifani belgilash) va modelni o‘rganishdan iboratdir.

Ko‘rib chiqilayotgan mazmuniy modellarni ishlab chiqish va tadqiq qilishning metodologik asosi bo‘lib tizimli tahlil sanaladi. Biroq, tabiiy fanlarda muvaffaqiyatli ishlatilayotgan tadqiqot metodlarini qo‘llash ijtimoiy sohada ko‘pincha samarasiz bo‘lib chiqadi. Gap shundaki, ijtimoiy tizimlar faqatgina faollikni namoyon qilib qolavermaydi, chunki ular qaror qabul qiladilar, kelgusi rivojlanish yo‘lini tanlab oladilar. Shuning uchun tizimli yondashuvni kognitologiya

– qarorni anglab etish, tushunish va qabul qilish muammolarining keng doirasini o'rganuvchi yangi fanlararo ilmiy yo'nalish g'oyalari bilan to'ldirish lozimdir.

Modelning eng muhim xususiyatlari bo'lib uning tuzilmasi, modellashtirish maqsadlari va adekvatlikning qabul qilingan mezonlariga bog'liq bo'ladigan model adekvatligi ko'rsatkichlari o'rta chiqadi [4].


Modellashtirish jarayoni quyidagilarning - tadqiqot ob'ekti; oldiga konkret vazifa qo'yilgan tadqiqotchi; ob'ekt haqida axborotlarni olish va vazifani hal qilish uchun zarur bo'lgan model mavjud bo'lishini ko'zda tutadi. Mavjud va loyihalashtirilayotgan ijtimoiy tizimlarni modellarning turli xil tiplari (tahliliy, imitatsion, semiotik va shu kabilar) yordamida samarali tadqiq qilish mumkin. Model texnologik, tashkiliy-boshqaruv va boshqa vazifalarni bevosita hal qilish dastagidir.

Yu.M.Plotinskiy sotsiologiyada modellashtirishning dolzarbligini dalillay turib, quyidagilarni ta'kidlab o'tgan edi: "Hozirgi zamon sotsiologiya nazariyasida tobora kuchayib borayotgan inqirozni hisobga olgan holda aynan modeli usul nazariy va amaliy sotsiologik tadqiqotlarni mustahkamlashga qodir sanaladi. ularning o'zaro aloqadorliklarining ayrim o'zgaruvchilarini fragmentar tarzda tadqiq qilish o'rniga modellar yondashuvning to'liqligini ta'minlaydi, chunki model shubhasiz ravishda ma'lum bir darajadagi yaxlitlikka ega va mana shu ma'noda u tizim bo'lib hisoblanadi" [5].

Modellashtirish nazariyasining barcha sanab o'tilgan qoidalari innovatsion rivojlanish yo'lida paydo bo'ladigan nizolarni hal qilishning mazmuniy modellarini tuzishda foydalanilishi mumkin va shunday qilinishi ham lozim bo'lib, ularni qo'llash shart-sharoitlari, bu boradagi tadqiqot natijalari va amaliy qo'llanilishi hali ilmiy adabiyotlarda to'liq o'rganilmagandir.

Ilmiy adabiyotlarda innovatsion rivojlanishdagi nizolar modellarining tavsifi juda kam uchraydi. Masalan, A.Ya.Ansupov va A.I.Shipilov innovatsion shaxslararo nizolarning faqat o'ziga xosliklarini tadqiq qilganlar [6]. L.Ya.Dyatchenko esa o'zining "Ijtimoiy jarayonlarni boshqarishda ijtimoiy texnologiyalar" nomli asarida yangiliklarning umumiy texnologiyasi va tahliliy modelini keltirib o'tadi [7]. Bunda u innovatsion jarayonlarning qarama-qarshiliklarga ega, nizoli ekanligiga ma'lum bir o'rin berib o'tadi. N.M.Kobzeva firma ichidagi munosabatlar tizimida innovatsion nizolarning konseptual modelini taklif qildi va uni innovatsion faoliyat tahlilida qo'lladi [8]. Bu model tizimli tahlil tamoyiliga asoslanib, o'z ichiga beshta nazariy yondashuvlarni oladi (7-rasm).

N.M.Kobzevaning fikriga ko'ra, firma ichidagi munosabatlar tizimidagi innovatsion nizolar tashkilot doirasida biron-bir yangiliklarni joriy etishda paydo bo'ladi, bunda tashqi omillarning ta'siri bilvosita xususiyatga ega bo'ladi.



1-rasm. Innovatsion nizolarning konseptual modelidagi nazary yondashuvlar.

Biz shuni ta’kidlab o’tishni istar edikki, oliy ta’lim muassasasidagi innovatsion rivojlanishdagi nizolarni venchurli boshqarish asosiga tahliliy modellashtirish amaliyotini kiritish lozimdir. Innovatsion nizolar tahliliy modellashtirilishining mohiyati ajratib ko‘rsatish uchun asos sifatida o‘rtaga chiqadigan bir yoki bir nechta belgilar negizida nizo elementlarini bosqichma-bosqich tuzilmalashdan iborat bo‘ladi. keyin esa nizoning tuzilmaviy va dinamik jihatdan umumiy tasvirini yaratish ro‘y beradi. Aynan mana shu tasvir nizoning mazmuniy sinergetik modeli sifatida yuzaga chiqadi.

OTM lar innovatsion rivojlanishidagi nizolarni tahliliy modellashtirish muammosi konseptual echimlarni talab qiladi. bu konseptuallik esa quyidagilar bilan ta’minlanadi:

- asosiy tushunchalarning qat’iy definitsiyalari;
- innovatsion nizo mohiyatining umumiy ko‘rinishi va uning funksional roli;
- “berilgan yo‘nalish” bo‘yicha harakatni ta’minlovchi modelni tuzish tamoyillari tizimining mavjudligi;
- nizolarni boshqarish nazariyasining dastlabki qoidalarini tan olish bilan ta’minlanadigan ijtimoiy-texnologik asoslanganlik;
- model chegaralarini to‘g‘ri belgilash;
- model funksiyalarini o‘rnatish.

A.Ya.Ansupov va A.I.Shipilov nafaqat innovatsion, balki umuman nizolar haqida fikr yurita turib shunday xulosaga keladilarki, bunga ko‘ra nizolarni tavsiflash quyidagi asosiy tushunchalar guruhi asosida tuzilishi mumkin:

- 1) nizo mohiyati;
- 2) nizo genezisi;
- 3) nizo evolyusiyasi;
- 4) nizolarni tasniflash;
- 5) nizo tuzilmasi;
- 6) nizo dinamikasi;
- 7) nizo funksiyalari;
- 8) nizodagi shaxs;

- 9) nizoning oldini olish;
- 10) nizoni hal qilish;
- 11) nizoni o'rganish metodlari.

Nizolarning ijtimoiy-psixologik tahlilidagi tushunchali sxemani birinchi bo'lib taklif qilgan L.R.Petrovskaya ularning ichiga to'rtta kategorial guruhlarni kiritadi:

- 1-guruh: nizo tuzilmasi;
- 2-guruh: nizo dinamikasi;
- 3-guruh: nizo funksiyalari (nizoning konstruktiv va destruktiv oqibatlarini);
- 4-guruh: nizo tipologiyasi.

Bu asosiy tushunchalardan tashqari nizolarni boshqarish tushunchasini ajratib ko'rtaish va ishlab chiqish zarur bo'lib, bu nizolar oldini olish, profilaktika qilish, kuchsizlantirish va hal qilish bilan bir qatorda shuningdek, nizolarning simptomatikasi, diagnostikasi, bashoratlanishi va nazorat qilinishini ham ko'zda tutadi.

Nizo tizimning qaysi bo'g'inida ro'y berganligiga bog'liq holda u butun oliy ta'lim muassasasiga dahl qilishim ham, uning alohida bo'linmalarida bartaraf etilishi ham mumkin. tizimda uning yadrosi bo'g'inida ro'y bergan nizo global nizo deb atalishi mumkin, chunki u muqarrar ravishda tizimning boshqa bo'g'inlariga ham tarqaladi. Mazkur nizoni hal qilish natijasida ro'y bergan o'zgarishlar nafaqat yadroda, balki butun tizimda ham yuzaga keladi, chunki yadro butun tizim haqidagi axborotlarni o'zida jamlaydi.

Oliy ta'lim muassasasi tizimida yadro bo'lib uning rahbariyati, rektorat sanaladi. oliy ta'lim muassasasi rahbariyatida yuzaga kelgan nizo albatta, uning barcha tuzilmaviy bo'linmalarida – fakultetlar, kafedralarda aks etadi. U yoki bu nizoni hal qilish natijasida amalga oshadigan o'zgarishlar esa barcha quyi bo'g'inlarga ham tarqaladi.

Agarda nizo tizimning periferik elementlaridan birida sodir bo'lgan bo'lsa, uni shartli ravishda lokal nizo deyish mumkin, chunki uning tizimdagi boshqa bo'g'inlarga tarqalib o'tish imkoniyati uncha katta bo'lmaydi.

Mana shunday qilib, oliy ta'lim muassasalaridagi innovatsion rivojlanish nizolarini modellashtirishda istalgan vaziyatda yadro mazmunini va uning evolyusiyasi tendensiyalarini aniqlab olish zarur bo'ladi.

Shubhasizki, oliy ta'lim muassasalari innovatsion rivojlanishining nizolari o'z-o'zini tartibga soluvchi tizim sifatida tasvirlanishi ham mumkindir. Biroq, OTM sharoitida o'z-o'zini tartibga solishning turli xil cheklovlari mavjud bo'ladi. Ularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- OTM ning muhitga to'liq ochiq emasligi, buning natijasida axborot almashinuvida etarlicha bo'lmagan intensivlik va kechikishlar yuzaga keladi;
- tomonlar pozitsiyalarining asimmetrikligi;
- nizo ob'ektiga aylangan innovatsiyalar oqibatlarining noaniqligi va oldindan aytib bo'lmashligi;
- ishtirokchilarning innovatsion nizoni mustaqil tartibga solishga tayyor emasligi, jumladan, ularda kompetentlilik kamligi, psixologik to'siqlar mavjudligi.

Adabiyotlar ro'yxati

- 1.Плотинский Ю.М. Модели социальных процессов. – М.: Логос, 2001. – С. 6.
- 2.Вартофский М. Модели. Репрезентатсия и научное понимание. – М.: Логос. 1988. – С.37.
- 3.Моисеев Н.Н. Математика в социальных науках // Математические методы в социологическом исследовании. – М., 1981. – С. 166.
- 4.Автоматизированные системы управления технологическими процессами. Идентификация и оптимальное управление / под ред. В.И. Салыги. – Харьков: Высш. шк., изд-во при Харьковском ун-те, 1976. – С. 80-107.
- 5.Плотинский Ю.М. Модели социальных процессов. – М.: Логос, 2001. – С. 89.



6. Анцупов А.Я., Шипилов А.И. Конфликтология. – М.: ЮНИТИ, 1999. – С. 364-371.
7. Дятченко Л. Я. Социальные технологии в управлении общественными процессами. – Белгород, 1993. – 343 с.
8. Кобзева Н.М. Управление внутрифирменными отношениями в условиях инновационных конфликтов: дис. канд. социол. наук. – Белгород, 2003. – 176 с.
9. A. Soxibov. “Oliy ta’lim muassasalari rahbarlarining innovatsion kompetensiyalari va ularni rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlari”. “Pedagogik mahorat” ilmiy-nazariy va metodik jurnal. 2022, № 5. Buxoro. Buxoro 2022 y.
10. A. Soxibov. “Роль зарубежного опыта в инновационном управлении современной системой высшего образования”. “Педагогик маҳорат” журналі 7-сон Бухоро 2023 й.

MADANIY O'ZIGA XOSLIK VA ETNIK MADANIY KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISHDA TASVIRIY SAN'AT O'QITUVCHILARINING O'RNI

Suyarov Nodirjon Taxirovich

Namangan davlat pedagogika instituti dotsenti (PhD)

Annotatsiya: Tasviriy san'at o'qituvchilari o'quvchilarning madaniy o'ziga xosligini shakllantirishda va bugungi xilma-xil va o'zaro bog'liq dunyoda muhim komponentlar bo'lgan etnik madaniy kompetensiyani rivojlantirishda hal qiluvchi rol o'ynaydi. Ushbu maqola san'at o'qituvchilari madaniy xilma-xillikka hurmatni rag'batlantirish bilan birga o'quvchilarning o'zlarining madaniy merosini tushunishlariga qanday hissa qo'shishini o'rganadi. San'at o'quv dasturiga ko'p madaniyatli tarkibni integratsiyalashgan holda, san'at o'qituvchilari o'quvchilarga turli madaniy ifodalar bilan shug'ullanish va boshqa etnik guruhlariga nisbatan hamdardlikni rivojlantirish uchun imkoniyatlar yaratadi. Maqolada madaniy o'ziga xoslikni shakllantirishda ijodiy ifodaning ahamiyati ta'kidlangan va badiiy ta'lim etnik madaniy kompetensiyani rivojlantirishda qanday kuchli vosita bo'lishi mumkinligi ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: tasviriy san'at ta'limi, madaniy o'ziga xoslik, etnik madaniy kompetensiya, ko'p madaniyatli ta'lim, madaniy meros, ijodiy ifoda.

РОЛЬ УЧИТЕЛЕЙ ИЗОБРАЗИТЕЛЬНОГО ИСКУССТВА В ФОРМИРОВАНИИ КУЛЬТУРНОЙ ИДЕНТИЧНОСТИ И ЭТНОКУЛЬТУРНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ

Суяров Нодиржон Тахирович

Доцент Наманганского государственного педагогического института (PhD)

Аннотация: Преподаватели изобразительного искусства играют решающую роль в формировании культурной идентичности учащихся и развитии этнокультурной компетентности, важных компонентов в современном разнообразном и взаимосвязанном мире. В этой статье рассматривается, как преподаватели искусств могут способствовать пониманию учащимися своего культурного наследия, одновременно поощряя уважение к культурному разнообразию. Интегрируя мультикультурный контент в учебную программу по искусству, преподаватели искусства предоставляют учащимся возможность участвовать в различных проявлениях культуры и развивать сочувствие к другим этническим группам. В статье подчеркивается важность творческого самовыражения в формировании культурной идентичности и показано, как художественное образование может стать мощным инструментом развития этнокультурной компетентности.

Ключевые слова: изобразительное художественное образование, культурная идентичность, этнокультурная компетентность, поликультурное образование, культурное наследие, творческое выражение.

THE ROLE OF FINE ARTS TEACHERS IN FORMING CULTURAL IDENTITY AND ETHNIC CULTURAL COMPETENCE

Suyarov Nodirjon Takhirovich

Namangan State Pedagogical Institute Associate Professor (PhD)

Abstract: Visual arts educators play a critical role in shaping students' cultural identity and developing ethnocultural competence, important components in today's diverse and interconnected world. This article explores how art educators can contribute to students' understanding of their cultural heritage while encouraging respect for cultural diversity. By integrating multicultural content into the arts curriculum, art educators provide opportunities

for students to engage with diverse cultural expressions and develop empathy for other ethnic groups. The article emphasizes the importance of creative expression in the formation of cultural identity and shows how art education can be a powerful tool in developing ethnic cultural competence.

Key words: fine art education, cultural identity, ethnic cultural competence, multicultural education, cultural heritage, creative expression.

Kirish. Turli madaniy va etnik elatlarga mansub shaxslar birgalikda yashayotgan borgan sari globallashib borayotgan dunyoda xilma-xillikni tushunish va qadrlash zarurati eng muhim hisoblanadi. Ta'lim o'quvchilarning o'zlarining madaniy o'ziga xosligini va boshqalarning madaniyatini qanday idrok etishlarini shakllantirishda muhim rol o'ynaydi. Pedagoglar orasida san'at o'qituvchilari bu jarayonda o'ziga xos mavqega ega, chunki ular nafaqat texnik ko'nikmalarni rivojlantirishga, balki hissiy va madaniy ifodalashga ham yordam beradi. Tasviriy san'at ta'limi orqali san'at o'qituvchilari o'quvchilarning etnik madaniy kompetentsiyasini oshirish va ijtimoiy birdamlik va madaniyatlararo uyg'unlik uchun muhim bo'lgan madaniy o'ziga xoslikni chuqurroq tushunishga yordam berish qobiliyatiga ega.[1] Ushbu maqolada san'at o'qituvchilarining madaniy o'ziga xoslikni shakllantirish va etnik madaniy kompetentsiyani targ'ib qilishdagi asosiy roli ko'rib chiqiladi. Biz san'at ta'limi talabalarga o'zlarining madaniy ildizlarini o'rganishga, turli madaniy ifodalarni qadrlashga va ko'p madaniyatli muhitda harakat qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga qanday yordam berishini o'rganamiz.

Madaniy o'ziga xoslikni shakllantirishda san'atning o'rni. San'at har doim odamlar va jamoalar o'zlarining madaniy qadriyatlarini, e'tiqodlari va tarixlarini ifoda etadigan kuchli vosita bo'lib kelgan. San'atni yaratish va talqin qilish orqali odamlar o'zlarining madaniy hikoyalari o'rganishlari va boshqalarning madaniy amaliyotlari haqida tushunchaga ega bo'lishlari mumkin. Shunday qilib, badiiy ta'lim o'z-o'zini anglash va ijtimoiy tushunishning asosiy jihati bo'lgan madaniy o'ziga xoslikni o'rganish uchun qulay zamin yaratadi.

Madaniy izlanish va o'zini namoyon qilish: San'at o'qituvchilarining madaniy o'ziga xoslikni shakllantirishga hissa qo'shishining asosiy usullaridan biri o'quvchilarni shaxsiy va madaniy tajribalarini ifodalash uchun badiiy vositalardan foydalanishga undashdir.[2] O'z merosi, an'analari va qadriyatlarini aks ettiruvchi ijodiy loyihalar bilan shug'ullanish orqali talabalar o'zlarining madaniy o'ziga xosligini mazmunli tarzda o'rganish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bu jarayon nafaqat o'quvchilarning madaniy ildizlari bilan bog'lanishini mustahkamlaydi, balki g'urur va daxldorlik tuyg'ularini ham rivojlantiradi.[3]

Madaniy xilma-xillikning namoyon bo'lishi: Tasviriy san'at o'qituvchilari ham san'at o'quv dasturi madaniy istiqbollarning keng doirasini ifodalashini ta'minlashda muhim rol o'ynaydi. Talabalarni turli madaniyatlarning san'at shakllari, uslublari va an'analari bilan tanishtirish orqali san'at o'qituvchilari inklyuzivlik va madaniy xilma-xillikni targ'ib qiladi. Bu talabalarga madaniyat monolit emas, balki etnik guruhlarda farq qiluvchi inson o'ziga xosligining dinamik va rivojlanayotgan jihati ekanligini tushunishga yordam beradi. Turli badiiy an'analarni o'rganish orqali o'quvchilarda madaniy kompetentsiya uchun zarur bo'lgan keng dunyoqarash shakllanadi.

Shaxsni shakllantirishga ko'maklashish: Madaniy o'ziga xoslik ko'p qirrali tushuncha bo'lib, u shaxsning ma'lum bir etnik, milliy yoki ijtimoiy guruhga mansublik hissini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at o'qituvchilari o'quvchilarga shaxsiy kelib chiqishi va tajribalarini aks ettirishni talab qiladigan loyihalar orqali rahbarlik qilish orqali ularga shaxsiyatni shakllantirish jarayonida yordam berishi mumkin. Ushbu loyihalar vizual hikoyalar, avtoportretlar yoki madaniyat, meros va shaxsiy tarix mavzularini o'rganuvchi hamkorlikdagi ishlarni o'z ichiga olishi mumkin. Bunday tadbirlar orqali talabalar o'zlarining shaxsiyatlari va ularning madaniy

kontekstida qanday shakllanganligi haqida tanqidiy fikrlashga undaydilar.[4]

Badiiy ta'lim orqali etnik madaniy kompetentsiya. Etnik madaniy kompetentsiya turli madaniy va etnik kelib chiqishiga mansub shaxslarni tushunish, hurmat qilish va ular bilan samarali muloqot qilish qobiliyatini anglatadi. U madaniy ongini, sezgirlikni va madaniy chegaralar orqali muloqot qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Tasviriy san'at o'qituvchilari ushbu kompetentsiyani rivojlantirishda o'z sinflariga madaniy jihatdan javob beradigan o'qitish amaliyotini integratsiyalash orqali hal qiluvchi rol o'ynaydi.

1. Ko'p madaniyatli san'at o'quv dasturi: Etnik madaniy kompetentsiyani rivojlantirishning asosiy strategiyalaridan biri ko'p madaniyatli tarkibni san'at o'quv dasturiga kiritishdir. Talabalarni turli madaniy guruhlarning san'at turlari va amaliyotlari bilan tanishtirish orqali san'at o'qituvchilari talabalarga madaniy xilma-xillik boyligini qadrlash imkoniyatini yaratadilar.[5] Ushbu ta'sir o'quvchilarda turli madaniyatlarga mansub odamlarga empatiya va hurmatni rivojlantirishga yordam beradi, bu stereotiplarni kamaytirish va ijtimoiy uyg'unlikni ta'minlash uchun zarurdir.

2. Madaniyatlararo muloqotni rag'batlantirish: Badiiy ta'lim madaniyatlararo muloqot uchun platformani ta'minlaydi, bu erda talabalar badiiy ifoda ob'ekti orqali madaniy farqlar va o'xshashliklar haqida bahslashishlari mumkin. Turli madaniy kontekstlardagi san'atni tahlil qilish va sharhlash orqali talabalar umumiy insoniy tajribalarni tan olish bilan birga har bir madaniyatning o'ziga xosligini qadrlashni o'rganadilar. San'at o'qituvchilari ushbu suhbatlarni osonlashtirishi, talabalarga madaniy murakkabliklarni o'rganishga yordam berishlari va o'zaro tushunishni rivojlantirishlari mumkin.

3. Madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini shakllantirish: Tasviriy san'at lingvistik to'siqlarni engib o'tadigan universal til bo'lib, uni madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish uchun ideal vositaga aylantiradi. San'at o'qituvchilari o'quvchilarni san'atdan og'zaki ifodalash qiyin bo'lgan g'oyalar, his-tuyg'ular va madaniy hikoyalarni etkazish vositasi sifatida foydalanishga undaydilar. Turli xil kelib chiqishi talabalarni birlashtiradigan hamkorlikdagi badiiy loyihalar orqali o'qituvchilar jamoaviy ish, madaniy almashinuv va madaniyatlararo muloqot ko'nikmalarini rivojlantirishga yordam berishi mumkin.

San'at inklyuzivlik va imkoniyatlarni oshirish vositasi sifatida. Badiiy ta'lim etnik madaniy kompetentsiyani targ'ib qilishdan tashqari, barcha talabalar o'zlarini qadrli va hurmatli his qiladigan inklyuziv ta'lim muhitini yaratishda ham muhim rol o'ynaydi. Tasviriy san'at o'qituvchilari madaniy jihatdan sezgir pedagogikani o'zlashtirgan holda, o'quvchilarga ijodiy ifoda orqali ovoz berish orqali marginal yoki kam vakillik guruhlari o'quvchilarini kuchaytirishga yordam berishi mumkin.[6]

1. Inklyuziv san'at amaliyotlari: Inklyuziv san'at amaliyotlari o'quv dasturida barcha madaniy kelib chiqishi talabalari o'zlarini ko'rishlari mumkin bo'lgan joylarni yaratishni o'z ichiga oladi. San'at o'qituvchilari bunga sinfda o'rganilayotgan rassomlar, mavzular va materiallar talabalar jamoasining xilma-xilligini aks ettirishini ta'minlash orqali erisha oladi. Ushbu yondashuv nafaqat ozchilikdagi talabalar tajribasini tasdiqlaydi, balki ularning madaniy ufqlarini kengaytirish orqali barcha talabalar uchun o'rganish tajribasini boyitadi.[7]

2. Marginallashtirilgan ovozlarni kuchaytirish: Tasviriy san'at o'qituvchilari o'quvchilarni san'atdan ijtimoiy adolat muammolarini hal qilish va o'zgarishlarni himoya qilish vositasi sifatida foydalanishga undash orqali kuchaytirishlari mumkin. Marginallashtirilgan jamoalar talabalari uchun san'at qarshilik va o'zini namoyon qilishning kuchli shakli bo'lishi mumkin. Talabalarga o'ziga xoslik, tengsizlik va madaniy barqarorlik mavzularini o'rganuvchi loyihalarga rahbarlik qilish orqali san'at o'qituvchilari o'quvchilarda jamiyatni o'zgartirishga hissa qo'shishga ishonch hissi va ishonchni rivojlantirishga yordam beradi.

3. Tolerant bo'lish madaniyatini tarbiyalash: Madaniyatga javob beradigan badiiy ta'lim dasturi barcha o'quvchilarning madaniy o'ziga xosligini tasdiqlash orqali tegishlilik tuyg'usini rivojlantiradi. Talabalar o'zlarining madaniy merosi sinfda e'tirof etilishini va hurmat

qilinishini his qilsalar, ular o'rganishda faol ishtirok etishlari va o'zlarining noyob istiqbollari o'z hissalarini qo'shishlari mumkin.[8] Tasviriy san'at o'qituvchilari inklyuzivlikni targ'ib qilish orqali har bir talaba o'zlarining madaniy kelib chiqishidan qat'i nazar, o'zini tegishli deb hisoblaydigan o'quv muhitini yaratishga yordam beradi.

Xulosa. San'at o'qituvchilari o'quvchilarning madaniy o'ziga xosligini shakllantirish va etnik madaniy kompetentsiyani rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Ijodiy ifoda orqali talabalar o'zlarining madaniy meroslarini o'rganishlari va o'zlarining jamoalari va butun dunyoni tashkil etuvchi turli madaniyatlar haqida chuqurroq tushunchaga ega bo'lishlari mumkin. Ko'p madaniyatli tarkibni o'quv dasturiga integratsiyalash, madaniyatlararo muloqotni rivojlantirish va inklyuziv san'at amaliyotini targ'ib qilish orqali san'at o'qituvchilari talabalarga tobora ko'p madaniyatli jamiyatda harakat qilish uchun zarur bo'lgan ko'nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi. Oxir oqibat, san'at o'qituvchilarining bu boradagi faoliyati xilma-xillik nishonlanadigan va qadrlanadigan yanada inklyuziv, hurmatli va hamjihatlik jamiyatlarini yaratishga hissa qo'shadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Иванова Н. Проблема развития этнокультурной компетентности и поликультурное воспитание //Revista de Etnologie și Culturologie. – 2011. – №. 9-10. – С. 252-255.
2. Афанасьева А. Б. Этнокультурное образование: сущность, структура содержания, проблемы совершенствования //Знание. Понимание. Умение. – 2009. – №. 3. – С. 189-195.
3. Банников В. Н. Профессиональное становление будущего учителя изобразительного искусства //ВН Банников.–2009.–39 с. – 2009.
4. Магомедова З. Ш., Сулейманова Т. Р. Роль этнокультурного просвещения в процессе воспитания подрастающего поколения в эпоху нестабильности //Проблемы современного педагогического образования. – 2022. – №. 75-1. – С. 54-57.
5. Шабанова, М. Н. «Этнохудожественная культура как фактор формирования профессиональной компетентности художника-педагога.» Вопросы журналистики, педагогики, языкознания 18.13 (156) (2013): 294-298.
6. Шустова Л. П. Формирование поликультурности личности в этнокультурной образовательной среде учреждения дополнительного образования //Э91 Этнокультурное образование в современном мире: Сб. науч. статей по. – 2017. – С. 844.
7. Печенева С. А. Интерактивный подход к преподаванию предметов «музыка», «изобразительное искусство» и «мировая художественная культура» в общеобразовательных организациях //Современная образовательная среда: теория и практика. – 2018. – С. 154-164.
8. Птицына Е. В. Этнокультурное воспитание будущего учителя в образовательном процессе университета.

ТАРБИЯ ЖАРАЁНИНИНГ ДИДАКТИК МОҲИЯТИ ВА ТАРБИЯ ТЕХНОЛОГИЯЛАРИНИНГ УНИ ЁРИТИШДАГИ РОЛИ

Tolipov Utkir Karshievich

Nizomiy nomidagi TDPU "Texnologiy va professional ta'lim metodikasi" kafedrası professori, p.f.d.

Annotatsiya. Ta'lim va tarbiya jarayoni ўzaro aloqadorlik va birlikka ega. Ўqitish jarayonida tarbiya maqsadlari belgilangan hamda ularga erishish ta'minlangani kabi tarbiya jarayonida ham ta'limiy goyalardan foydalaniлади. Maqolada tarbiya jarayonining didaktik mohiyati va tarbiya texnologiyalarining uni eritishdagi roli tuzrısında sўz yuritilgan.

Tayanч sўzlar: tarbiya, tarbiya jarayoni, didaktik tizim, adaptiv faollik, texnologiya, tarbiya texnologiyasi, tarbiya texnologiyalarining turllari.

Аннотация. Процессы обучения и воспитания взаимосвязаны и едины. Так же, как в процессе обучения определяются цели воспитания и обеспечивается их достижение, в процессе воспитания также используются образовательные идеи. В статье рассматривается дидактическая сущность процесса воспитания и роль воспитательных технологий в его реализации.

Ключевые слова: воспитание, процесс воспитания, дидактическая система, адаптивная активность, технология, воспитательная технология, виды воспитательных технологий.

Abstract: The processes of education and upbringing are interconnected and unified. Just as the goals of upbringing are defined and achieved in the teaching process, educational ideas are also utilized in the upbringing process. This article discusses the didactic essence of the upbringing process and the role of upbringing technologies in its implementation.

Keywords: upbringing, upbringing process, didactic system, adaptive activity, technology, upbringing technology, types of upbringing technologies.

Мактаб амалиётига инновацион гояларни татбиқ қилиш хусусида сўз юритилганида, тарбия инновациялари, уларнинг моҳияти ва тарбиявий таъсирга тўхталмаслик мумкин эмас. Аммо тарбия инновациялари ва уларнинг функционал имкониятларини ёритишдан аввал мактаблар фаолиятининг муҳим аҳамиятга эга маънавий-маърифий ишлар тизими, унинг ички таркибий тузилмаси мазмунини қисқача ёритиб ўтиш мақсадга мувофиқ саналади.

Педагогикада “тарбия” категориясининг дефиницияси бўйича турлича талқинлар мавжуд. Улар орасида “тарбия – муҳим ижтимоий тажрибаларини етказиш бўйича махсус ташкил этилган жараён” маъносини ёритувчи изоҳ кенг тарқалган. Ижтимоий тажрибани ўзлаштириш, яъни, тарбия тарбия жараёнининг асосини ҳам ўқитиш, ўргатиш ташкил қилади. Шу сабабли тарбия жараёнини ташкил қилишда дидактик воситалардан фойдаланиш орқали кутилган натижаларга эришилади. Жараёнга дидактик воситаларни татбиқ қилиш натижасида тарбия тизими ўзининг автономлигини, ўзига хослигини муайян даражада йўқотади, таълим ва маънавий-маърифий ишлар ўртасида ўзаро алоқадорлик, боғлиқлик юзага келади.

Бир гуруҳ тадқиқотчи-педагоглар учун тарбия ва таълим жараёнининг мутлақо автоном бўлишини, маънавий-маърифий ишлар жараёнининг фақатгина ижтимоий-педагогик, ижтимоий-психологик тизим сифатида эътироф қилинишини маъқул бўлиб, улар ўртасидаги алоқадорлик ва боғлиқлик турғун характерга эмас, деган қарашни илгари суради. Ушбу қарашни илгари сурган тадқиқотчи-педагоглар орасидан “Тарбия?”,

тарбия..., тарбия!” номли В.А.Караковский раҳбарлигида жамоа томонидан яратилган монография [1, – 252 с.] муаллифлари ҳам ўрин олган. Улар эстониялик машҳур педагог ва психолог Х.И.Лаймете таклиф этган ғояни ўз қарашлари учун концептуал асос сифатида қабул қилган тушунчадан фойдаланадилар. “Лаймете назарияси”га кўра “тарбия тизими дидактик ғоялардан ҳоли бўлган, бир томондан, психологик-педагогик, иккинчи томондан эса ижтимоий-педагогик тизимдан иборат” деган қараш илгари сурилади.

“Лаймете назарияси” негизда “тарбия тизими ўқувчиларга дидактик компонентлар – дарс, дарсликлар, уй вазифалари орқали эмас, балки ижтимоий омил – ўқувчиларни атроф-муҳитни кузатиш, тажриба орқали ўрганишга жалб қилиш асосида ташкил қилинади; ота-оналар, ўқитувчилар ва ўқувчилар ўртасидаги ижтимоий муносабатлар, албатта, ҳар бир таълим муассасаларида шаклланадиган психологик муҳит доирасида амалга оширилади” маъносида кенг оммалашган қараш шаклланган.

Бизнинг фикримизча, бу қараш тўғри эмас. Зеро, ҳар қандай таълим жараёни муайян тарбиявий мақсадни кўзлаганидек, тарбия жараёнида ҳам у ёки бу даражада дидактик ёндашувлар акс этади. Тўғри, тарбия жараёни тўла-тўқис дарс, дарсликлар, уй вазифалари каби компонентларга таяниб иш кўрилмади. Бироқ, “Лаймете назарияси” тарафдорлари шу ҳақиқатни унутмасликлари кераки, таълим жараёни ҳам тарбия жараёни ҳам ўқувчининг билиш фаолиятига асосланади. Билиш фаолияти эса таълим жараёнида бўлганидек, фақатгина дарс, дарсликлар, уй вазифалари асосида эмас, балки синфдан ва мактабдан ташқари шароитда турли, масалан, фан тўғараги, дебат (мунозара) клуби, тарихий ва бадий асарлар муҳокамаси, кичик тадқиқотлар, ўқув ёки илмий лойиҳалар, муаммоли кейслар, интеллектуал ўйин ва танловлар каби шаклларда ҳам ташкил қилинади. У қай даражада бўлишидан қатъий назар билиш фаолияти дидактик, яъни, ўқитиш, ўқиш ва билимларни ўрганиш, ўзлаштиришга асосланади. Шунга кўра тарбия жараёнининг ҳам ўзига хос дидактик асослари мавжуд, деган хулосага келиш мумкин.

Тарбия жараёнининг дидактик асослари ҳақида сўз юритишдан аввал “дидактик тизим” тушунчасида акс этадиган мазмунни англаб олиш талаб қилинади.

“Дидактик тизим” тушунчаси анъанавий педагогик категориялардан бири бўлиб, у ўзининг ривожланиш тарихи, генезисига эга. Гарчи қадимги Юнонистон ва Римда ҳам ўқитиш ишлари амалга оширилган, таълим таркибий элементларидан фаол фойдаланилган бўлсада, бироқ, улар “ўқитиш тизими” (“дидактика” ёки “дидактик тизим”) тушунчаси педагогик категория сифатида қўлланилмаган.

Муҳим педагогик категориялардан бири бўлган “дидактика” (юнон. “didaktikos” – ўргатувчи, “didasko” – ўрганувчи) тушунчаси луғавий жиҳатдан “таълимнинг назарий жиҳатлари (таълим жараёнининг моҳияти, тамойиллари, қонуниятлари, ўқитувчи ва ўқувчи фаолияти мазмуни, таълим мақсади, шакл, метод, воситалари, натижаси, таълим жараёнини такомиллаштириш йўллари ва ҳ.о. муаммолар)ни ўрганувчи фан” [6, – 88-б.; 7, – 118-б.]; таълим бериш жараёни ёки ўқитиш тизими маъноларини англатади.

Тил истеъмолида “дидактика” (“таълим назарияси”) тушунчаси немис педагоги Вольфганг Ратке (1571-1635 йй.) томонидан “Дидактикадан қисқача очерк ёки Ратихийнинг ўқитиш санъати” номли курс маърузаларини ўқиш даврида қўлланилган. Таълим назариясининг фан сифатида ривожланишига Я.А.Коменский, И.Г.Песталоци, И.Ф.Гербарт, К.Д.Ушинский, Д.Дьюи, П.Ф.Каптерев, М.А.Данилов, Б.П.Есипов, М.Н.Скаткин, Л.В.Заньков и бошқа педагог-олимлар катта ҳисса қўшган.

Машҳур чех педагоги Ян Амос Коменский (1592-1670 йй.) эса ўзининг “Буюк дидактика” асарида таълим назариясини “барчани барча нарсага ўқитувчи умумий санъат” деб таърифлаган. Педагог “дидактика” тушунчасини кенг изоҳлаган. Я.А.Коменский

дидактикани нафақат ўқитиш, балки тарбиялаш санъати деб ҳисоблаган.

Немис педагогик ва файласуфи Иоганн Фридрих Гербарт (1776-1841 йй.) унга яхлит тарбияловчи таълим мақомини берган ҳолда дидактиканинг назарий асосларини ишлаб чиққан. Педагогнинг фикрига кўра, дидактика педагогиканинг таркибий қисми деб ҳисоблаб, унинг предмети тарбияловчи таълим эканини кўрсатган ҳолда уни тарбиянинг муҳим омили сифатида шарҳлаган [9].

Замонавий шароитда глобаллашув жараёнида рўй берган таълимий ўзгаришларни инобатга олган ҳолда дидактик тизимнинг таркибий компонентларини қуйидаги ифодалаш мақсадга мувофиқдир:

1. Дидактиканинг асосий категориялари: ўқитиш, ўқиш, таълим, таълим муассасалари, таълимий-ахборот муҳити, таълим платформалари, таълим типлари (оффлайн ва онлайн таълим), таълим турлари, билим, кўникма, малака, тажриба, таълим мақсади, таълимнинг мазмуни, ўқитиш жараёнини ташкил қилиш, ўқитиш методикаси, ўқитиш жараёнининг ташкилий шакллари (анъанавий ва инновацион шакллар), таълим методлари (анъанавий ва интерфаол методлар), ўқитиш воситалари (анъанавий ва виртуал воситалар), таълим технологиялари, ўқитиш натижалари (таълимий маҳсулотлар).

2. Таълим жараёнининг иштирокчилари: педагоглар; таълим олувчилар – ўқувчилар, талабалар, малака ошириш курсларининг тингловчилари; ота-оналар; таълим тизимини бошқариш тизимининг вакиллари; таълим тизимини қўллаб-қувватловчи, унга ҳомийлик қилувчи субъектлар – меценат (ижтимоий соҳаларга ўзининг шахсий маблағларини ёки бошқа шахсларнинг маблағларини йўналтириш орқали беминнат, беғараз ёрдам кўрсатувчи шахс) [4] ва филантроп (таълим тизимига шахсий маблағларини хайрия сифатида йўналтирувчи) [2] шахслар ҳамда донор ташкилотлар.

Мактаб таълимида ўрганилаётган материалнинг мазмуни, уни ўқувчиларга етказиш учун ташкилий шакл, метод, восита ва технологияларни танлаш вақтида тарбия мақсади ҳам назарда тутилади. Шунга кўра тарбия тизимининг таркибида тегишли жараёнга дидактик ёндашиш тамойиллари ҳам акс этади.

Таълим муассасасининг тарбиявий фаолияти ўқувчиларни меҳнат, ижтимоий ва касбий фаолиятга тайёрлаш, уларда тафаккур ва дунёқарашни ривожлантириш орқали борлиққа, умуминсоний ва миллий маданиятга, атроф-муҳитга ижобий, қадриятли муносабатни қарор топтиришдан иборат асосий мақсадни кўзлайди.

Замонавий шароитда ушбу мақсадни амалга оширишда анъанавий тарбиявий ёндашувлар билан бирга тарбиявий характерга эга инновациялардан ҳам фойдаланилмоқда. Маънавий-маърифий ишларни ташкил қилиш вақтида тарбиявий таъсирга эга инновационлардан фойдаланишда қуйидаги жузъий мақсадларга эришиш ҳам талаб қилинади:

1. Ўқувчилар онгида ижтимоий ва табиий борлиқнинг яхлит, илмий асосга эга кўринишини шакллантириш.

2. Уларда юрт истикболи, ватан тақдири учун фуқаролик масъулиятини шакллантириш.

3. Ўқувчиларни умуминсоний ва миллий қадриятлар билан яқиндан таништириш орқали уларда энг олий маънавий-ахлоқий ғояларга асосланган хулқни тарбиялаш.

4. Уларнинг ижодкорлик шахс бўлиб камолга етишлари учун зарур педагогик шароитни яратиш.

5. Ўқувчиларда ўзини ўзи англаш, шахсий имкониятларини оқилона баҳолай олиш ва ички имкониятларини тўлақонли рўёбга чиқаришга ёрдам бериш.

6. Глобаллашув шароитида юзага келаётган ижтимоий-ғоявий таҳдидлар ҳамда миллий қадриятларга зид ғоялар – маънавий бузуклик, маргинал маданият, “оммавий маданият” эгоцентризм, индивидуализм, апатия (лоқайдлик, бефарқлик), одам савдоси, гиёҳвандлик, терроризм, диний экстремизм, ақидапарастлик, диний мутассиблик,

ахборот хуружлари (дезинформация; Интернет фирибгарлиги, кибер жиноят) кабиларга қарши ғоявий иммунитетни шакллантириш.

Тарбия тизимининг фалсафий моҳияти ҳар бир маънавий-маърифий иш мақсадини аниқ белгилаб олиш, мазмунини асослаш, етакчи тарбиявий ғояларни умумлаштириш, турли мавзулардаги тарбиявий тадбирлар ўртасида ўзаро алоқадорлик ва бирликни таъминлашни кўзда тутати.

Айни ўринда шуни қайд этиб ўтиш жоиз, замонавий қарашларга кўра тарбия тизими ва уни ташкил қилишга нисбатан кўп жиҳатдан қарама-қарши бўлган икки хил концептуал ёндашув мавжуд. Улар:

биринчи ёндашув моҳияти: тарбия – ижтимоий-ғоявий, фалсафий-педагогик, психологик-педагогик, маънавий-ахлоқий нуқтаи назардан ўзига хос мазмунига эга бўлиб, ўқувчи шахсига мавжуд ижтимоий эҳтиёж ҳамда аниқ мақсадга мувофиқ таъсир кўрсатиш жараёни; бу ёндашувга кўра тарбия фронтал, гуруҳли ва индивидуал шаклларда, муайян методлар ёрдамида амалга оширилади;

иккинчи ёндашув моҳияти: тарбия таъсир кўрсатиш воситаси бўлиб, бу вазиятда ўқитувчи барча чораларни қўллаган ҳолда ўқувчи шахсига самарали тарбиявий таъсир кўрсата олиши зарур; бу жараёнда ўқитувчи ўз-ўзидан ихтиёрсиз равишда ўқувчилар ва ота-оналарнинг фаол иштирокисиз асосий субъектга айланади; ва албатта, тарбиявий фаолиятда биргаликда фаоллик кўрсатувчи субъект – ҳамкор, шерикни топа олмайди; бу вазиятда ўқувчи “тарбия предмети” сифатида иштирок этади ва боланинг фаоллиги “эҳтиёжидан келиб чиқиб ўзлаштиради, борди-ю, ўқувчининг тарбиявий таъсир, панд-ўғитга нисбатан эҳтиёжи мавжуд бўлса, у ҳолда тадбирда биров уни мажбурламаса ҳам фаол иштирок этади, яъни, ўқувчи адаптив фаолликка эга бўлади” деган қараш илгари сурилади.

Мактаб амалиётида ўқувчини тарбиялашда асосий эътибор уни итимоийлаштириш, ижтимоий муносабатлар, меҳнатга касбий фаолиятга йўналтиришга, бошқача қилиб айтганда, шахсни “атрофдагилар билан бирга яшашга ўргатиш” масаласини муваффақиятли ҳал қилишга қаратилади.

Демак, ижтимоийлаштириш шахсда адаптив фаолликни тарбиялашни назарда тутати ҳамда аниқ мақсадга йўналтирилган ўқитиш ва тарбиялашдан иборат жараёнларда мактабгача, умумий ўрта таълим, ўрта махсус таъли муассасаларида тарбиявий таъсирга эга омиллар: оила, оммавий ахборот воситалари, санъат, ижтимоий тармоқлар, рақамли технологиялар ёрдамида амалга оширилади.

Тарбия тизими (ёки ижтимоийлаштириш) инсонийлик, инсонпарварлик ғояларига зид дея баҳоланиши мумкин эмас ва у албатта, самарали воситалар билан амалга оширилиши шарт. Унда ўқитувчи ва ўқувчилар ўртасида ўзаро ҳурмат, бир-бирини тушуниш, эмпатия (бир-бирини ёқтириш) туйғулари мавжуд бўлиши, мулоқот жараёнининг ижтимоий-ғоявий, маънавий-ахлоқий қадриятларга таянилиши ўзига хос аҳамият касб этади.

Мактабда ташкил қилинадиган маънавий-маърифий ишларда тарбиявий таъсир кўрсатиш учун дастлаб ўқувчининг индивидуал хусусиятларини инобатга олиш талаб қилинади.

Ўқувчининг индивидуал хусусиятларини инобатга олиш, биринчидан, унинг бирламчи энг муҳим эҳтиёжларини инобатга олган ҳолда индивидуал ёрдам кўрсатишни назарда тутати. Бинобарин, бусиз ўқувчи “ўзлигини” ҳис эта олмайди; иккинчидан, ўқувчи шахсига индивидуал ёндашиш орқали унинг жисмоний, интеллектуал, ҳиссий имкониятларини, унга хос бўлган қобилиятларни юқори даражада эркин намоён бўлиши учун шароит яратишни назарда тутати. Учинчидан, индивидуал ёндашиш орқали ўқувчини маънавий жиҳатдан тарбиялаш, ижодий қобилиятларини ривожлантириш, мослашувчан фаолликка эга бўлишини таъминлаш учун зарур педагогик шароитни

яратади.

Тарбияга бундай ёндашишдан мақсад ўқувчиларга уларнинг субъект сифатида мавжуд бўлишлари учун амалий ёрдам кўрсатишдан иборат. Бунинг учун мавжуд тарбиявий тизимда ўқувчига ўз-ўзини англаш ва ўз имкониятларини рўёбга чиқаришга хизмат қиладиган махсус воситалар ишлаб чиқилади.

Инсонпарварлик ғояларига асосланувчи тарбия тизимининг асосий субъекти ўқитувчи эмас, балки ўқувчиларнинг ўзи саналади. Ушбу парадигма (илмий нуқтаи назар) мазмунида ўқитувчилар ҳамда ўқувчилар тарбиявий ишларни уюштиришдан кўзланадиган мақсадларни биргаликда аниқлаштиради, уларга эришишни кафолатловчи педагогик вазифаларни белгилайди ва уларни ўзаро ҳамкорлик асосида ҳал қилади.

Ўз моҳиятига кўра инсонпарварлик ғояларига асосланадиган мактаб тарбия тизимида самарадорликка эришишнинг муҳим шarti – ўқувчилар ҳамда ўқитувчилардан иборат ягона, мустаҳкам жипсликка эга таълим муассаси жамоасини шакллантириш, жамоа ўртасида соғлом муҳитни қарор топтириш ҳисобланади. Натижада ўқувчи ва ўқитувчилар ўртасида ўзаро алоқалар, муносабатлар қарор топиб, тизимнинг тарбиявий имкониятларини белгилайди.

Мактаб тарбия тизими мавжуд имкониятларга таянган ҳолда ўқувчи шахсига у томонидан ўзини ўзи англашига эришишни таъминловчи шароитни яратиб бериши зарур. Айни вақтда жаҳон миқёсида мактаб амалиёти инсонпарварлик ғоялари устувор бўлган тарбия тизимларини асослашга қаратилган йўналишда ривожланмоқда.

О.С.Газман тарбия мақсадини, энг аввало, ўқувчида ўз-ўзини ривожлантириш кўникмаларини ҳосил қилиш ва унга педагогик ёрдам кўрсатиш ғояси [3, – с. 72-73] билан боғлайди. Кўп сонли амалиётчи ўқитувчи ва тадқиқотчиларнинг фикрларига кўра “ўз-ўзини ривожлантириш” тушунчаси шахснинг ўзида мустақил равишда жамият томонидан қабул қилинган ахлоқ қоидалари, микро муҳитда белгиланган шартларга мувофиқ фуқаролар ёки гуруҳ аъзоларининг барчаси учун мос келадиган фазилатларни ўзлаштира олиши тушунилади.

Замонавий шароитда ўқувчи шахсини ўзини ўзи ривожлантиришида тарбия технологиялари самарали саналади.

Тарбия технологиялари – аниқ мақсадга мувофиқ шахсни шакллантириш ва ривожлантиришга қаратилган педагогик фаолиятни тизимли ва самарали ташкил этилишини таъминловчи тизим бўлиб, улар тарбия жараёнининг иштирокчилари ўртасида ижтимоий муносабатларни қарор топтиришга хизмат қилади. Моҳиятига кўра тарбия технологиялари педагогика, психология, социология, фалсафа ва бошқа ижтимоий-гуманитар фанларнинг ютуқларига асосланади.

Бугунги кунда таълимда йигирмадан ортиқ тарбия технологиялари [8, – с. 12-27; 5] қўлланилмоқда. Айни ўринда улар орасидан узлуксиз таълим тизимининг барча босқичларида фаол қўлланилаётган тарбия технологияларидан намуналар келтирилади:

1. Ибрат кўрсатишга асосланган тарбия технологиялари. Анъанавий саналувчи бу турдаги технологиялар тарбиявий таъсирга эга шахслар – ота-оналар, бува-бувилар, ўқитувчилар, таниқли шахслар, миллий тарихий қаҳрамонлар, омма орасида обрў-эътиборга эга кишиларнинг таълим олувчиларга турли кўринишдаги фаолият бўйича ибрат кўрсатишига асосланади.

2. Оила тарбияси технологиялари. Мазкур турдаги технологиялар оиланинг тарбиявий таъсирга эга аъзолари – бува-бувилар, ота-оналар, катта ёшли фарзандлар, яқин қариндошлар томонидан фарзандларни тарбиялашда қўлланиладиган шакл, метод, восита, усул ва ёндашувлардан таркиб топади. Оила тарбияси технологиялари ёрдамида фарзандлар онгига оилавий қадриятлар сингдирилади, ўзи хатти-ҳаракатларининг оқибатлари учун жавобгарлик, меҳнатсеварлик, тўғрисиқлик, атрофдагиларга ҳурмат,

камтарлик, мустақиллик каби фазилатлар тарбияланади.

3. Шахсга йўналтирилган тарбия технологиялари. Ушбу турдаги технологиялар таълим олувчиларнинг шахсий, индивидуал хусусиятларини инобатга олган ҳолда қизиқиш, эҳтиёж ва қобилиятларини ривожлантириш учун хизмат қилади.

4. Шахсни коллаборатив фаолиятда тарбиялаш технологиялари. Бу турдаги технологиялар таълим олувчиларни жуфтлик, кичик гуруҳлар ва жамоада ишлашга йўналтириш орқали уларда ҳамкорлик кўникма, малака ва тажрибаларини ривожлантириш, уларда ўзаро ёрдам фазилатларини тарбиялашга ёрдам беради.

5. Шахс соғлигини сақловчи технологиялар. Мазкур технологиялар таълим олувчиларнинг уларда шахсий саломатликни муҳофаза қилиш кўникма, малакаларини ривожлантиришга йўналтирилади. Тарбия жараёнида жисмоний тарбия, соғломлаштириш, стимуллаштириш, ўз-ўзини ишонтириш, қисқа жумлаларни онгга сингдириш (психологик аффирмация) ҳамда медитация (тасаввурда манзарани жонлантириш, овозлар, хидлар, воқеликлар таъсирида танани бўшаштириш) машқлари ёрдамида таълим олувчилар тиббий-гигиеник воситалардан тўғри фойдаланиш, шахсий гигиена, шунингдек, атроф-муҳит муҳофазаси, тозаллигини сақлаш қоидаларига амал қилишга одатлантирилади.

6. Ижтимоий лойиҳалаштириш технологиялари. Бу технологиялар таълим олувчиларнинг эътиборини ижтимоий масалаларга жалб қилиш орқали, уларда муаммоларни муҳокама қилиш, ечимларни излаш, оқилона ечимларни танлаш орқали лойиҳаларни тайёрлаш малакалари ҳосил қилинади.

7. Ўйин технологиялари. Педагогик амалиётда кенг қўлланиладиган ушбу технологиялар ролли ва ишбилармонлик ўйинлар ёрдамида таълим олувчилар меҳнат, ижтимоий муносабатлар ҳамда касбий фаолиятга тайёрланади.

8. Жамоавий ижодий фаолият технологиялари. Мазкур технологиялар таълим олувчиларнинг ижодий, конструкторлик, техник ҳамда бадиий ижодкорлик қобилиятини ривожлантириш, шахс ҳамда жамоанинг ижодий имкониятларини уйғунлаштириш асосида уларнинг ижод маҳсуллари, креатив маҳсулотларни яратиш, шунингдек, кичик ва оилавий тадбиркорлик фаолиятини ташкил этишга одатлантириш мақсадини кўзлайди.

9. Педагогик низоларни ҳал қилувчи технологиялар. Бу турдаги технологиялар, асосан, ўқитувчилар, раҳбар ходимлар, ота-оналар учун тарбия жараёнини самарали ташкил қилиш учун мўлжалланган бўлса ҳам таълим олувчиларнинг шахсан иштироки, муҳокамалари асосида таълим иштирокчилари, хусусан, ўқитувчи-таълим олувчи, ўқитувчи-таълим олувчилар, таълим олувчи – таълим олувчи ёки таълим олувчи гуруҳ (синф) жамоаси ўртасида юзага келган муаммоларни ижобий ҳал мақсадида ҳам фойдаланилади.

10. Шахснинг хулқи, ҳаракатларини педагогик баҳолаш технологиялари. Мазкур технологиялардан тарбия жараёнининг натижаларини таҳлил қилиш, таълим олувчилар хулқини ташхислаш ҳамда баҳолаш мақсадида фойдаланилади. Бу каби технологиялар асосини ташхис, педагогик кузатиш, эксперт баҳолаш каби методлар ташкил қилади.

Кўрсатиб ўтилган ҳар бир тарбия технологиялари замонавий шахсни тарбиялаш ва ижтимоийлаштиришда ўзига хос таъсир кучига эга. Шу боис уларнинг ҳар бирини тарбия жараёнида ўринли, самарали қўллаш мумкин.

Моҳияти ва функционал тавсифи тарбия технологияларининг қуйидаги таркибий асосларга эгаллигини кўрсатади: ташхислаш; аниқ мақсадга эгалик; лойиҳалаш; конструкциялаш (таъсир воситалари, жиҳозларини тайёрлаш); амалий жиҳатдан ташкил қилиш; бошқариш ва назорат қилиш [10, – с. 65]. Умумий ҳолатда ҳар бир таркибий асос муайян тарбия технологиясини шахсни ижтимоийлаштиришда самарали, муваффақиятли қўллаш имкониятини таъминлайди.

Шундай қилиб, мактаб амалиётида ўзаро алоқадорлик ва бирликка эга таълим ва тарбия жараёнларининг яхлитлигига эришиш замонавий шахсни тарбиялаш мақсадига эришишда ўзига хос аҳамият касб этади. Ўқитиш жараёни тарбиявий мақсадларни ифодалани каби тарбия жараёни негизида ҳам таълимий ғоялар акс эттиради. Бу ҳолат, айниқса, синфдан ва мактабдан ташқари шароитда фан тўғараги, дебат (мунозара) клуби, тарихий ва бадиий асарлар муҳокамаси, кичик тадқиқотлар, ўқув ёки илмий лойиҳалар, муаммоли кейслар, интеллектуал ўйин ва танловларни ташкил қилиш вақтида янада яққол намоён бўлади. Тарбия технологиялар шахсни самарали ижтимоийлаштириш билан бирга унда фикрлаш ва тафаккур қобилиятини ривожлантириш, дунёқарашини кенгайтиришга хизмат қиладиган дидактик ғояларни ҳам ўзида акс эттиради.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Каракровский Л.И., Новикова Л.И., Селиванова Н.Л. Воспитание? Воспитание ... Воспитание! / Изд. 2-е. доп. и перераб. – М.: Новая школа, 2000. – 252 с.
2. Кто такой филантроп и что такое филантропия // <https://ashanakbf.com/info/international.php?ID=2798#:~:text>.
3. Кулишов В. В., Малюга А. В. Технология педагогической поддержки самоактуализации старшеклассников // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2016. – Т. 29. – С. 72-73.
4. Меценат // <https://ru.wikipedia.org/wiki/Меценат>.
5. Миронова Ю.Л. Современные технологии воспитательной работы // <https://nsportal.ru/nachalnaya-shkola/obshchepedagogicheskie-tehnologii/2019/10/30/sovremennye-tehnologii-vospitatelnoy>.
6. Педагогика назарияси (олий таълим муассасалари учун дарслик) / Муаллифлар: М.Х.Тохтаходжаева ва бошқ. Проф. М.Х. Тохтаходжаеванинг умумий таҳр.остида. – Т.: “Сано-стандарт”, 2010. – 88-б.
7. Педагогика: 1000 та саволга 1000 та жавоб/ Мет.қўлл. М.Усмонбоева, Д.Иноғомова. – Т.: ТДПУ, 2012. – 118-б.
8. Современные методы и технологии воспитания / Практическое пособие для педагогов. Сост.: М.А.Авакян. – СПб.: 2018. – С. 12-27.
9. Теория обучения (дидактика) // <https://studfile.net/preview/5246753>.
10. Технологии воспитательной работы / Учеб.пособие. Сост. З.У.Колокольникова, С.В.Митросенко, О.Б.Лобанова, Е.М.Плеханова, Т.В.Газизова. – Красноярск: Сибирский ФУ, 2016. – С. 65.

HOZIRGI ZAMON BOSHLANG'ICH TA'LIMIDA NOAN'ANAVIY TA'LIM

*To 'rayeva Manzura Yakubovna,
Samarqand viloyati Qo'shrabot tumani 64- umum ta'lim maktabi o'qituvchisi*

*Turabova Bahora Faxriddin qizi,
International School of Finance Technology and Science Instituti o'qituvchisi*

Annatsiya. Ushbu maqolada hozirgi zamon boshlang'ich ta'limida noan'anaviy ta'limning mohiyati, metodlari va uning ta'lim jarayonidagi ahamiyati yoritilgan. Noan'anaviy ta'lim usullari o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va faolligini oshirishga xizmat qilishi ko'rsatilgan. Shuningdek, didaktik o'yinlar, loyiha metodlari, interfaol darslar va innovatsion texnologiyalarning ta'limdagi o'rni misollar bilan yoritilgan.

Tayanch so'zlar: noan'anaviy ta'lim, boshlang'ich ta'lim, interfaol metodlar, didaktik o'yinlar, innovatsion texnologiyalar.

НЕТРАДИЦИОННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В СОВРЕМЕННОМ НАЧАЛЬНОМ ОБРАЗОВАНИИ

*Тураева Манзура Якубовна,
Учитель 64-й общеобразовательной школы Кушработского района Самаркандской области*

*Турабова Бахора Фахриддин кизи,
Преподаватель, International School of Finance Technology and Science Institut.*

Аннотация. В данной статье описываются сущность, методы и значение нетрадиционного образования в современном начальном образовании. Показано, что нетрадиционные методы обучения повышают самостоятельное мышление, креативность и активность учащихся. Также на примерах освещена роль дидактических игр, проектных методов, интерактивных уроков и инновационных технологий в образовании.

Ключевые слова: нетрадиционное образование, начальное образование, интерактивные методы, дидактические игры, инновационные технологии.

NON-TRADITIONAL EDUCATION IN MODERN PRIMARY EDUCATION

*To 'rayeva Manzura Yakubovna,
Teacher of the 64th secondary school of the Kushrabotsky district of the Samarkand region*

*Turabova Bahora Faxriddin qizi,
International School of Finance Technology and Science Teacher of the institute*

Annotation. This article describes the essence, methods and significance of non-traditional education in modern primary education. It has been shown that non-traditional teaching methods increase independent thinking, creativity and activity of students. The role of didactic games, project methods, interactive lessons and innovative technologies in education is also highlighted using examples.

Key words: non-traditional education, primary education, interactive methods, educational games, innovative technologies.

Kirish. Boshlang'ich ta'lim bolaning kelajakdagi ta'lim jarayoniga asos soluvchi muhim bosqich hisoblanadi. An'anaviy ta'lim tizimidan farqli o'laroq, noan'anaviy ta'lim usullari zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etib, o'quvchilarning bilim olish jarayonini qiziqarli, samarali va interaktiv qilishga xizmat qiladi. Ushbu maqolada boshlang'ich ta'limda noan'anaviy usullarning ahamiyati, turlari, ularning afzalliklari va ta'lim jarayoniga ta'siri keng yoritiladi.

Noan'anaviy ta'limning mohiyati

Noan'anaviy ta'lim – bu an'anaviy dars jarayonidan farqli yondashuvlarga asoslangan metodik tizim bo'lib, unda o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, ijodkorligi va faolligi rivojlantiriladi. Ushbu usul ta'lim jarayonini yanada jozibador, tushunarli va interaktiv qilishga imkon beradi. Bu ta'lim turi faqatgina yangi metodlarni qo'llash bilan cheklanmay, balki o'quvchilarning qobiliyatlarini ochib berish, ularni o'z fikrlarini erkin ifodalashga o'rgatish, muammolarni mustaqil hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga ham xizmat qiladi.

Noan'anaviy ta'lim metodlari o'quvchilarning shaxsiy qobiliyatlarini rivojlantirishga, ularning ta'lim jarayoniga faol ishtirok etishiga yordam beradi. Ushbu yondashuv bolalarning hayotiy tajriba orttirishiga, turli muammolarni hal qilishda ijodiy va mantiqiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi. Bundan tashqari, noan'anaviy ta'limning asosiy maqsadlaridan biri – o'quvchilarni standart bilim yodlashdan chiqarib, ularni fikrlashga, muhokama yuritishga va real hayotiy vaziyatlarda o'z bilimlarini qo'llashga o'rgatishdir.

Noan'anaviy ta'lim usullari ta'lim jarayonining har xil bosqichlarida qo'llanilishi mumkin. Masalan, boshlang'ich ta'limda o'yin elementlari, amaliy mashg'ulotlar va jamoaviy loyihalar asosiy o'rinni egallaydi. O'qituvchilar darslarni yanada qiziqarli qilish uchun rolli o'yinlardan, texnologik vositalardan va interfaol metodlardan foydalanadilar. Bunday yondashuv o'quvchilarni darsga jalb qilish bilan birga, ularda muloqot ko'nikmalarini rivojlantirish, mustaqil va jamoaviy ishlash qobiliyatlarini shakllantirishga ham yordam beradi.

Noan'anaviy ta'lim an'anaviy ta'lim tizimi bilan uyg'un holda qo'llanilganda, natijalar yanada samarali bo'lishi mumkin. O'quvchilarning turli usullar orqali bilim olishi ularda ta'lim jarayoniga bo'lgan qiziqishni oshirib, bilimlarni yanada mustahkam o'zlashtirishlariga imkon yaratadi. Shu sababli, hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim tizimida noan'anaviy yondashuvlar keng joriy etilmoqda va ta'lim sifati oshishiga xizmat qilmoqda.

Noan'anaviy ta'lim metodlari

O'yinli ta'lim – O'quvchilar dars jarayonida turli didaktik va intellektual o'yinlardan foydalangan holda bilim olishadi.

Misol: «Raqamli jumboq» o'yini orqali matematika darslarida sonlarni tez hisoblash ko'nikmalari shakllantiriladi.

2-sinf matematikasi uchun misol:

O'quvchilarga quyidagi jumboq beriladi: «Men ikki xonali sonman. Mening raqamlarim yig'indisi 7 ga teng. Men kimman?»

Javoblar: 16, 25, 34 (to'g'ri javob 34, chunki $3 + 4 = 7$)

Bunday mashqlar o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini oshirishga yordam beradi.

«Kim tez topadi?» o'yini esa bolalarning tezkor fikrlash qobiliyatini rivojlantirish uchun qo'llaniladi.

2-sinf matematikasi uchun misol:

O'qituvchi o'quvchilarga ketma-ket misollar berib, kim eng tez va to'g'ri javob topishini kuzatadi.

Misol: « $5 + 3 = ?$ », « $9 - 4 = ?$ », « $2 \times 3 = ?$ »

O'quvchilar navbat bilan javob berib boradilar va eng tez javob bergan bola g'olib bo'ladi.

Bu o'yin arifmetik tezkorlikni va mantiqiy fikrlashni rivojlantiradi.

Loyiha metodi – O'quvchilar kichik guruhlariga bo'linib, muayyan mavzu bo'yicha loyiha tayyorlashadi. Bu ularga mustaqil izlanish va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga yordam

beradi.

Misol: Ekologiya mavzusida loyiha tayyorlash orqali o‘quvchilar chiqindilarni saralash bo‘yicha amaliy topshiriqlar bajaradilar va atrof-muhit muhofazasi bo‘yicha taqdimot tayyorlaydilar.

Interfaol darslar – «Aqliy hujum», «Insert», «Klaster» kabi interfaol metodlar orqali o‘quvchilar darsga faol jalb qilinadi.

Misol: ona tili va matematika darsida «Aqliy hujum» usuli qo‘llanilib, o‘quvchilarni olingan bilimlarimustaxkamlanadi.

«Insert» metodi:

V	+	-	?
«ha» - o‘qiganlaringizdan aniq bilgan yoki bilaman deb o‘ylagan ma’lumot	«musbat» - o‘qiganlaringiz orasida siz uchun yangi bo‘lgan ma’lumot	«manfiy» - o‘qiganlaringiz, bilganlaringizga qarama-qarashi ma’lumot	«savol» - o‘qiganlaringizdan siz uchun tushunarli bo‘lmagan yoki shu haqda ko‘proq narsa bilishni istagan ma’lumot

Innovatsion texnologiyalar – Smart doska, interaktiv platformalar, onlayn ta’lim resurslari orqali darslarni boyitish imkoniyati mavjud.

Misol: «Kahoot» yoki «Quizizz» platformalaridan foydalanib, mavzu bo‘yicha testlarni interaktiv shaklda o‘tkazish mumkin.

Rolli o‘yinlar – O‘quvchilar turli mavzularga mos keluvchi rollarni bajarish orqali dars jarayoniga faol jalb qilinadi.

Misol: o‘qish fanidan ertak qahramonlari haqida dars o‘tishda o‘quvchilar qahramon shaxslarning obrazlariga kirib, ularning nutqlarini ijro etishlari mumkin.

Hozirgi zamonaviy ta’lim tizimida STEAM (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) yondashuvi o‘quvchilarning ilmiy fikrlash, ijodkorlik va amaliy muammolarni hal qilish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Boshlang‘ich ta’lim bosqichida STEAM yondashuvi bolalarning qiziqishini oshirish, ularni faol ishtirok etishga undash va bilimlarni hayotiy voqelik bilan bog‘lash uchun samarali metod hisoblanadi.

STEAM ta’limi nima?

STEAM – bu fanlararo yondashuv bo‘lib, u o‘quvchilarga tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san’at va matematika sohalarini birgalikda o‘rganish imkoniyatini beradi. Bu yondashuv orqali o‘quvchilar nazariy bilimlarni amaliy faoliyat bilan bog‘lab o‘rganadilar.

STEAM ta’limining asosiy tarkibiy qismlari

STEAM ta'limining asosiy tarkibiy qismlari

Komponent	Tavsif	Misol
Science (Ilm-fan)	Tabiiy fanlarni eksperiment va kuzatishlar orqali o'rganish	O'simliklarning o'sish jarayonini kuzatish
Technology (Texnologiya)	Raqamli vositalar va dasturlash orqali yangi narsalar yaratish	Scratch dasturida animatsiya yaratish
Engineering (Muhandislik)	Qurilish va mexanik tushunchalarni qo'llash	Qog'ozdan mustahkam ko'prik yasash
Arts (San'at)	Ijodiy va vizual dizayn orqali o'rganish	Tabiiy fanlarga oid chizilgan rasmlar
Mathematics (Matematika)	Hisob-kitob va geometriya orqali mantiqiy fikrlash	3D shakllarni yasab, ularning hajmini hisoblash

STEAM ta'limining boshlang'ich ta'limdagi ahamiyati

STEAM yondashuvi o'quvchilarning:

Tanqidiy fikrlashini rivojlantiradi.

Muammolarni ijodiy hal qilishga o'rgatadi.

Ilm-fan va texnologiyaga bo'lgan qiziqishini oshiradi.

Fanlararo bog'liqlikni tushunishga yordam beradi.

Jamoaviy ishlash va tadqiqotchilik qobiliyatlarini shakllantiradi.

STEAM ta'limining asosiy maqsadlari

O'quvchilarga real hayot muammolarini yechishda yordam berish.

Mustaqil fikrlashni rivojlantirish.

Fan va texnologiyaga qiziqishni oshirish.

O'quvchilarning ijodkorligini rag'batlantirish.

Boshlang'ich ta'limda STEAM darslarini tashkil etish.

Boshlang'ich sinf o'qituvchilari STEAM yondashuvini quyidagi bosqichlar orqali joriy qilishi mumkin:

1. Muammoni qo'yish

O'quvchilarga hayotiy muammo yoki savol beriladi.

Masalan, «Eng mustahkam minorani qanday qurish mumkin?»

2. Tadqiqot va reja tuzish

O'quvchilar muammoni qanday hal qilish haqida fikr yuritadilar.

Masalan, turli materiallarni sinab ko'rishadi.

3. Amaliy ish

O'quvchilar loyihani qurishadi yoki model yasashadi.

Masalan, LEGO yoki qog'ozdan ko'prik qurish.

4. Sinov va baholash

Tayyor bo'lgan loyiha sinovdan o'tkaziladi va xatolar tahlil qilinadi.

5. Xulosa chiqarish va taqdimot qilish

O'quvchilar natijalarini baham ko'radilar va xulosalar chiqaradilar.

STEAM yondashuvining afzalliklari

Ko'nikmalarni shakllantiradi – Muammolarni hal qilish, jamoaviy ishlash va ijodkorlik rivojlanadi.

Interaktiv va qiziqarli darslar – O'quvchilar faolligi oshadi va dars jarayoni qiziqarli bo'ladi.

Amaliy bilim berish – O'rganilgan bilimlar real hayotda qo'llaniladi.

Innovatsion fikrlashni rivojlantiradi – O'quvchilar yangi g'oyalar ishlab chiqishga o'rganadilar.

Xulosa

Noan'anaviy ta'lim metodlari hozirgi zamon boshlang'ich ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, u ta'lim jarayonini qiziqarli va samarali qilishga xizmat qiladi. Zamonaviy pedagoglar ushbu yondashuvlarni faol qo'llab, o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishiga sharoit yaratishlari lozim. Noan'anaviy ta'lim metodlari orqali bolaning dunyoqarashi kengayadi, ijodkorligi ortadi va mustaqil fikrlash qobiliyati shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Azizxo'jaeva N.N. – “Pedagogik texnologiyalar va pedagogik mahorat” – T.: Fan, 2003.
2. Xodjayev R. – “Ta'lim texnologiyalari” – T.: O'qituvchi, 2006.
3. Hasanboev J. – “Pedagogika” – T.: Fan, 2010.
4. Yuldashev M. – “Innovatsion pedagogik texnologiyalar” – T.: Iqtisodiyot, 2015
5. Turabova B.F. – “Ta'lim jarayonidagi innovatsion texnologiyalar – o'quv mashg'ulotlarini loyihalashning asosiy sifatida”- T.: 2023

TALABALARNING LOYIHALASH-KONSTRUKTORLIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION YONDASHUVNING O'RNI VA AMALIY AHAMIYATI

Turayev Xumoyiddin Abdug'afforovich,
TerDU dotsenti, p.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya. Ushbu maqolada talabalarining loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish jarayonida innovatsion yondashuvning o'rni va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Bugungi kunda texnologik taraqqiyotning jadal rivojlanishi ta'lim jarayonlarida zamonaviy metod va vositalardan samarali foydalanishni talab etmoqda. Shundan kelib chiqib, maqolada innovatsion texnologiyalar asosida talabalarining loyihalash va konstruktorlik faoliyatini rivojlantirishning didaktik asoslari, ilg'or pedagogik texnologiyalar hamda raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlari yoritib berilgan. Shuningdek, talabalarining ijodiy va muammoli fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi dasturiy ta'lim vositalari, innovatsion metodlar va ularning samaradorligi tajribalar asosida o'rganiladi. Tadqiqot natijalari ta'lim sohasida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: innovatsion yondashuv, loyihalash-konstruktorlik kompetentligi, pedagogik texnologiyalar, raqamli resurslar, dasturiy ta'lim vositalari, ijodiy fikrlash.

Аннотация. В данной статье анализируется роль и практическое значение инновационного подхода в процессе развития проектно-конструкторской компетентности студентов. В современных условиях стремительного технологического прогресса образовательные процессы требуют эффективного использования современных методов и инструментов. В связи с этим в статье рассматриваются дидактические основы развития проектно-конструкторской деятельности студентов на основе инновационных технологий, возможности применения передовых педагогических технологий и цифровых ресурсов. Кроме того, изучаются программные образовательные средства, инновационные методы и их эффективность, способствующие развитию творческого и проблемного мышления студентов. Результаты исследования направлены на повышение эффективности подготовки конкурентоспособных кадров в сфере образования.

Ключевые слова: инновационный подход, проектно-конструкторская компетентность, педагогические технологии, цифровые ресурсы, программные образовательные средства, творческое мышление.

Abstract. This article analyzes the role and practical significance of an innovative approach in the process of developing students' design and engineering competence. In today's era of rapid technological progress, educational processes require the effective use of modern methods and tools. Based on this, the article highlights the didactic foundations of developing students' design and engineering activities using innovative technologies, the possibilities of applying advanced pedagogical technologies, and digital resources. Additionally, the study examines educational software tools, innovative methods, and their effectiveness in fostering students' creative and problem-solving thinking abilities. The research results contribute to enhancing the efficiency of training competitive specialists in the field of education.

Keywords: innovative approach, design and engineering competence, pedagogical technologies, digital resources, educational software tools, creative thinking.

Kirish (Introduction). Bugungi kunda texnologik taraqqiyotning jadalligi ta'lim jarayonida yangi yondashuv va metodlarni joriy etishni talab qilmoqda. Ayniqsa, muhandislik va

texnika sohalarida talabalarining loyihalash-konstruktorlik kompetentligini shakllantirish va rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu kompetentlik talabalar uchun nafaqat nazariy bilimlarni egallash, balki ularni amaliyotda qo'llash ko'nikmalarini rivojlantirish imkonini beradi.

Innovatsion yondashuv – ta'lim jarayonida yangi metod va texnologiyalarni qo'llash.

Loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish – talabalar muhandislik dizayni, loyihalash va konstruktorlik faoliyatlarini rivojlantirish jarayoni.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar, STEAM ta'limi, kreativ va muammoli fikrlashni rivojlantirish asosiy o'rintutadi. Innovatsion yondashuvlarga ta'lim jarayoniga zamonaviy texnologiyalar, ilg'or pedagogik usullar va raqamli resurslarni tatbiq etish orqali talabalar bilim va malakalarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi. Xususan, loyihalash-konstruktorlik faoliyatida dasturiy ta'lim vositalari, virtual laboratoriyalar va simulyatsiyalarning qo'llanilishi ta'lim samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, ijodiy va muammoli fikrlashni rivojlantirish, mustaqil qaror qabul qilish hamda innovatsion yechimlarni ishlab chiqish kabi jihatlar ham ushbu yondashuvning ajralmas qismidir.

Ushbu maqolada talabalarining loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvning o'rni va amaliy ahamiyati tahlil qilinadi. Shuningdek, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlari, ilg'or pedagogik metodlarning samaradorligi va ularning talabalar kasbiy tayyorgarligidagi ahamiyati ko'rib chiqiladi. Maqola natijalari ta'lim sifatini oshirish va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash jarayonini takomillashtirishga qaratilgan tavsiyalarni ilgari suradi.

Adabiyotlar tahlili (Literature analysis). Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish muammosi zamonaviy ta'lim tizimida dolzarb yo'nalishlardan biri bo'lib, bu borada ko'plab tadqiqotlar olib borilmoqda. Adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, loyihalash-konstruktorlik kompetentligini shakllantirishda innovatsion yondashuvning qo'llanilishi ta'lim jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Zamonaviy ta'limda loyihalash va konstruktorlik faoliyatini rivojlantirishga bag'ishlangan tadqiqotlarda, asosan, innovatsion pedagogik texnologiyalar, raqamli ta'lim resurslari, virtual va interaktiv muhitlar, muammoli va ijodiy yondashuvlar kabi yo'nalishlar o'rganilgan. Jumladan, Vygotskiy ta'lim jarayonida faoliyatga asoslangan yondashuvning ahamiyatini ta'kidlagan bo'lsa, Piaget o'quvchilarning konstruktiv tafakkurini shakllantirishda muhim omillarni tahlil qilgan.

So'nggi yillarda innovatsion ta'lim texnologiyalarini qo'llash bo'yicha olib borilgan tadqiqotlarda (Siemens; Anderson & Shattuck) raqamli texnologiyalar va masofaviy ta'lim vositalari ta'lim samaradorligini oshirishning muhim omillari sifatida ko'rib chiqilgan. Xususan, dasturiy ta'lim vositalari va virtual laboratoriyalar yordamida amaliy mashg'ulotlarni tashkil etish usullari keng tadqiq etilgan. Ta'lim sohasida STEAM yondashuvi (Science, Technology, Engineering, Arts, Mathematics) asosida talabalarni loyihalash-konstruktorlik ishlariga jalb etish samaradorligi bir qator tadqiqotlarda isbotlangan (Bybee). Shuningdek, muammoli ta'lim va tadqiqotga asoslangan o'qitish (Problem-Based Learning – PBL) usullari orqali talabalar mustaqil muammolarni aniqlash va hal qilish kompetentsiyasini shakllantirishlari aniqlangan (Hmelo-Silver).

Xorijiy tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, robototexnika va 3D-modellashtirish vositalari talabalarning loyihalash-konstruktorlik faoliyatini rivojlantirishda samarali natijalar bermoqda (Papert; Resnick). Ushbu texnologiyalar talabalar bilimlarini nafaqat nazariy jihatdan, balki amaliy jihatdan ham mustahkamlashga imkon beradi.

Mahalliy tadqiqotlarda ham innovatsion yondashuvlar asosida ta'lim jarayonini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etayotganligi qayd etilgan. Xususan, O'zbekiston ta'lim tizimida raqamli texnologiyalar va masofaviy ta'lim platformalari yordamida talabalar kompetentligini rivojlantirish bo'yicha qator amaliy tadqiqotlar olib borilmoqda. Yuqoridagi

tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, innovatsion yondashuvlar asosida talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish uchun quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish lozim:

Innovatsion pedagogik texnologiyalardan foydalanish (raqamli ta'lim platformalari, virtual laboratoriyalar, 3D-modellashtirish); Ijodiy va muammoli fikrlashni shakllantirish (muammoli ta'lim, tadqiqotga asoslangan o'qitish); STEAM va robototexnika texnologiyalarini ta'lim jarayoniga tatbiq etish.

Ushbu omillarni ta'lim jarayoniga samarali joriy etish natijasida talabalarining loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari kengayadi va ularning amaliy ko'nikmalarini mustahkamlashga xizmat qiladi.

Materiallar va metodlar (Materials and Methods). Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvning o'rni va amaliy ahamiyatini aniqlash uchun turli metodlar qo'llanildi. Ushbu metodlar ta'lim jarayonining samaradorligini baholash, innovatsion yondashuvlarning ta'sirini aniqlash va ularning talabalar bilimiga, ko'nikmalariga hamda ijodiy tafakkuriga ta'sirini o'rganish imkonini beradi.

1. Nazariy metodlar: Adabiyotlar tahlili – innovatsion pedagogik texnologiyalar, loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilg'or tadqiqotlar va xorijiy tajribalarni o'rganish; Komparativ tahlil – an'anaviy va innovatsion yondashuvlarni taqqoslash orqali ularning samaradorligini aniqlash; Modellashtirish – loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish jarayonining nazariy modelini ishlab chiqish.

2. Empirik metodlar: Pedagogik tajriba – innovatsion yondashuvlarni sinovdan o'tkazish va ularning ta'lim jarayonidagi natijalarini baholash; So'rov va intervyular – talabalar, o'qituvchilar va mutaxassislar o'rtasida so'rovlar o'tkazish orqali innovatsion metodlarning samaradorligini baholash; Kuzatish – loyihalash-konstruktorlik mashg'ulotlarida talabalar faolligini tahlil qilish va innovatsion metodlar ta'sirini aniqlash.

3. Eksperimental metodlar: Eksperiment – talabalar guruhiga innovatsion yondashuvlarni qo'llab, ularning natijalarini an'anaviy usullar bilan o'qitilgan guruh bilan solishtirish; Diagnostika va test sinovlari – loyihalash-konstruktorlik kompetentligini baholash uchun maxsus test va topshiriqlarni ishlab chiqish; Matematik-statistik tahlil – eksperimental ma'lumotlarni statistik usullar yordamida tahlil qilish va natijalarning ishonchliligini aniqlash.

Ushbu metodlar yordamida innovatsion yondashuvlarning talabalar kompetentligiga ta'siri aniqlanadi va amaliy tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Natijalar (Results). Innovatsion yondashuvlarning qo'llanilishi talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda samarali ta'sir ko'rsatadi. Ta'lim jarayoniga ilg'or pedagogik texnologiyalarni joriy etish, loyihaviy faoliyat va raqamli resurslardan foydalanish natijasida talabalar bilim, ko'nikma va malakalarini oshirishga erishildi.

1. Nazariy natijalar. Innovatsion yondashuvlarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishdagi roli ilmiy asoslanadi; Innovatsion pedagogik texnologiyalar va ularning talabalarning muhandislik ko'nikmalariga ta'siri tahlil qilinadi; Kompetentlik yondashuvi asosida zamonaviy ta'lim usullarining samaradorligi aniqlanadi; Muhandislik ta'limida innovatsion yondashuvlarning asosiy tamoyillari ishlab chiqiladi; STEAM, raqamli texnologiyalar va muammoga asoslangan ta'lim (PBL) yondashuvlarining afzalliklari asoslanadi; 3D-modellashtirish, simulyatsiyalar va virtual laboratoriyalar kabi innovatsion texnologiyalarni qo'llash strategiyalari ishlab chiqiladi.

2. Amaliy natijalar. Innovatsion yondashuvlar asosida loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish bo'yicha metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi; Talabalarning amaliy mashg'ulotlarda faol ishtirokini oshirish usullari aniqlanadi; O'quv dasturlariga loyihalash va konstruktorlik yo'nalishidagi innovatsion texnologiyalarni integratsiya qilish mexanizmlari ishlab chiqiladi; Talabalarning ijodiy va tanqidiy fikrlash qobiliyatlari rivojlantiriladi; Talabalarga real muhandislik muammolarini hal qilishga yo'naltirilgan topshiriqlar ishlab chiqiladi; Loyiha faoliyatiga asoslangan ta'lim usullari orqali talabalar mustaqil ishlashga

o'rgatiladi.

3. Pedagogik natijalar. Loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishning samaradorligi baholanadi. Innovatsion ta'lim metodlarining talabalar natijalariga ta'siri tahlil qilinadi; Eksperimental guruh va an'anaviy ta'lim olgan guruh natijalari taqqoslanadi; Raqamli texnologiyalar va innovatsion metodlar asosida o'qitish samaradorligi oshiriladi; Raqamli vositalardan foydalangan holda muhandislik loyihalarini yaratish tajribasi oshiriladi; Masofaviy va gibridd ta'lim modellari orqali loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish imkoniyatlari o'rganiladi.

4. Innovatsion natijalar. Loyihalash-konstruktorlik kompetentligini shakllantirishda ilg'or texnologiyalar va innovatsion metodlarni joriy qilish yo'nalishlari aniqlanadi; 3D-modellashtirish va simulyatsiyalar orqali talabalar konstruktiv fikrlashini rivojlantirish usullari taklif etiladi; Sun'iy intellekt va IoT texnologiyalaridan foydalangan holda loyihalash jarayonini takomillashtirish imkoniyatlari o'rganiladi. Ta'lim muassasalarida innovatsion muhandislik laboratoriyalarini joriy etish bo'yicha tavsiyalar ishlab chiqiladi. Talabalarni amaliy loyihalarga jalb qilish orqali ularga startap loyihalarini yaratish imkoniyatlari beriladi. Raqamli texnologiyalar yordamida muhandislik loyihalarini ishlab chiqish bo'yicha hamkorlik platformalari ishlab chiqiladi.

Mazkur maqola natijasida talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish bo'yicha ilmiy, amaliy va metodik tavsiyalar ishlab chiqiladi. Shuningdek, zamonaviy texnologiyalar va ilg'or pedagogik yondashuvlarning ta'lim jarayonidagi samaradorligi tahlil qilinadi hamda innovatsion ta'lim modelini joriy etish strategiyalari taklif etiladi.

Muhokama (Discussion). Talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirish zamonaviy muhandislik-ta'lim jarayonining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Bugungi kunda innovatsion yondashuvlar ushbu kompetentligini shakllantirish va takomillashtirishda muhim rol o'ynamoqda.

1. Innovatsion yondashuvlarning ahamiyati. An'anaviy ta'lim metodlari ko'proq nazariy bilimlarga asoslangan bo'lsa, innovatsion texnologiyalar va interaktiv o'qitish usullari talabalarni amaliy faoliyatga yo'naltirishga yordam beradi; 3D-modellashtirish, raqamli simulyatsiyalar, virtual laboratoriyalar va muammoga yo'naltirilgan ta'lim kabi zamonaviy usullar talabalarning texnik muammolarni hal qilish, kreativ fikrlash va mustaqil loyihalar yaratish ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

2. Amaliy ahamiyati. Muhandislik dizayn va konstruktorlik jarayonlarini tushunish – talabalar real loyihalar ustida ishlash orqali o'z bilimlarini mustahkamlash imkoniyatiga ega bo'ladi; Tahlil qilish va muammolarni hal etish – innovatsion yondashuvlar orqali talabalar muhandislik muammolarini mustaqil ravishda tahlil qilish va kreativ yechimlar topishga o'rganadilar; Ishlab chiqarish va sanoat bilan integratsiya – zamonaviy ta'lim metodlari talabalarni real ishlab chiqarish muhitiga moslashishiga yordam beradi.

3. Muhokama va takliflar. Innovatsion yondashuvlarni samarali joriy etish uchun quyidagi omillar muhim: Ta'lim dasturlarini zamonaviy texnologiyalar bilan integratsiya qilish; Talabalarning amaliy loyihalar va startaplarda ishtirokini rag'batlantirish; Muhandislik ta'limida raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalanish; Loyihalash-konstruktorlik jarayonlarini o'rgatishda gibridd ta'lim tizimini rivojlantirish.

Xulosa sifatida, innovatsion yondashuvlar talabalarning nafaqat nazariy bilimlarini chuqurlashtirish, balki amaliy muhandislik faoliyatida mustaqil ishlashga tayyorligini oshirishga xizmat qiladi. Bu esa zamonaviy muhandis va texnik mutaxassislarni tayyorlash jarayonini yanada samarali qilish imkonini beradi.

Xulosalar (Conclusion). Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, talabalarning loyihalash-konstruktorlik kompetentligini rivojlantirishda innovatsion yondashuvlar muhim o'rin tutadi.

Zamonaviy texnologiyalar, ilg'or pedagogik metodlar va raqamli resurslardan foydalanish natijasida talabalarning nazariy bilimlari mustahkamlanib, amaliy ko'nikmalari rivojlanadi.

Innovatsion yondashuvlarning joriy etilishi quyidagi natijalarga olib keldi: Loyihaviy va konstruktorlik faoliyatida talabalarning faolligi oshdi, ularning muammoli va ijodiy fikrlash qobiliyatlari rivojlandi. Raqamli texnologiyalar va dasturiy ta'lim vositalaridan foydalanish samaradorligi tasdiqlandi, bu esa talabalar bilim olish jarayonining sifatini yaxshiladi. Eksperimental tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatdiki, innovatsion metodlar asosida o'qitilgan talabalar an'anaviy usullar bilan ta'lim olgan talabalar bilan solishtirganda yuqori natijalarga erishdilar.

Amaliy tavsiyalar:

Innovatsion pedagogik texnologiyalarni ta'lim jarayoniga keng joriy etish – loyiha asosida o'qitish, muammoli ta'lim, tadqiqotga asoslangan yondashuvlarni kengaytirish; Raqamli resurslardan foydalanishni rivojlantirish – 3D-modellashtirish, virtual laboratoriyalar va interaktiv platformalardan foydalanish talabalar kompetentligini oshirishga xizmat qiladi; Talabalar ijodiy va muammoli fikrlashini rag'batlantirish – loyihaviy va konstruktorlik faoliyatini mustaqil olib borish ko'nikmalarini rivojlantirish zarur; Tadqiqot natijalarini ta'lim amaliyotiga integratsiya qilish – o'qituvchilar uchun metodik qo'llanmalar ishlab chiqish va ta'lim jarayoniga moslashtirish lozim.

Xulosa qilib aytganda, innovatsion yondashuvlarni ta'lim jarayoniga samarali tatbiq etish talabalarning kasbiy tayyorgarligini oshirish, ularning mustaqil ijodiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash va zamonaviy mehnat bozorida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlashga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Mark A. Robinson et al. "Design engineering competencies: Future requirements and predicted changes in the forthcoming decade". Design Studies. Volume 26, Issue 2, March 2005, Pages 123-153.

2. Ulrich, K.T., & Eppinger, S.D. "Product Design and Development" (6-nashr). McGraw-Hill Education. 2005.

3. David S. Strong. "An Approach for Improving Design and Innovation Skills in Engineering Education: The Multidisciplinary Design Stream". International Journal of Engineering Education Vol. 28, No. 2, pp. 339–348, 2012.

4. Turaev K., Yadgarov N., Mamatov D. The role and practical significance of interesting issues in the development of students' cognitive competencies //E3S Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 538. – C. 05045. <https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85196835458&origin=recordpage>

5. Umirov A. et al. The current state of soybean production and its size-mass indicators in the conditions of Uzbekistan //BIO Web of Conferences. – EDP Sciences, 2024. – T. 105. – C. 05018. <https://www.scopus.com/record/display.uri?eid=2-s2.0-85192545367&origin=recordpage>

6. Turayev X. A. et al. Methodical recommendations on the implementation of the theme of forty in drawing lessons graphically //Science and Education. – 2021. – T. 2. – №. 2. – C. 264-268.

7. Turayev X. A. "Bo'lajak chizmachilik fani o'qituvchilarining loyihalash kompetentligini rivojlantirishning grafikaviy asoslari". – T.: Monografiya. 2021.

8. Turayev K. A. Improving the methodology of developing the design-constructive competence of future drawing teachers : дис. – Dissertation written for the degree of Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, 2022.

TA'LIMDA ZARARLI AXBOROTLAR TAHDIDIDAN SAQLANISHGA O'RGATISH MUAMMOSINING HOZIRGI KUNDAGI O'RNI VA AHAMIYATI

Umirov Azamat Abdunazarovich

Qarshi davlat universiteti "Boshlang'ich ta'lim" kafedrasi katta o'qituvchisi.

Annotatsiya: Ushbu maqolada axborot jamiyatini shakllanishi, axborot erkinliklari, axborot ko'lamining ortib borishi, birinchi navbatda axborot psixologik xavfsizligi tahdidini keltirib chiqarmoqda. Respublikamizda yoshlarni axborot psixologik xavfsizligini ta'minlash, zararli axborotlar tahdidini oldini olish va bartaraf etish muammolari haqida fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: axborot, ilm-fan, jamiyat, shaxs, internet, matbuot va boshqalar.

МЕСТО И ЗНАЧЕНИЕ В НАСТОЯЩЕЕ ВРЕМЯ ПРОБЛЕМЫ ОБУЧЕНИЯ ПРЕДОТВРАЩЕНИЮ УГРОЗЫ ВРЕДНОСНОЙ ИНФОРМАЦИИ В ОБРАЗОВАНИИ

Аннотация: В данной статье рассматривается становление информационного общества, информационные свободы, растущие масштабы информации, в первую очередь, создают угрозу информационной психологической безопасности. В нашей республике обсуждались проблемы обеспечения информационной психологической безопасности молодежи, предупреждения и устранения угрозы вредоносной информации.

Ключевые слова: информация, наука, общество, личность, интернет, пресса и т. д.

THE CURRENT ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE PROBLEM OF TEACHING TO AVOID THE THREAT OF HARMFUL INFORMATION IN EDUCATION

Annotation: in this article, Information Society, freedom of information, increased information scope, first of all, the threat of information psychological security is posed. The problems of ensuring the psychological security of information, preventing and eliminating the threat of harmful information were discussed in our republic.

Keywords: Information, Science, Society, personality, internet, press, etc.

Kirish. Bugungi kunda mamlakatimizning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy va ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar jamiyat va davlat hamda uzliksiz ta'lim tizimi oldiga yangi vazifalarni qo'yamoqda. Bulardan biri respublikamiz fuqarolarini va yoshlarini axborot psixologik xavfsizligini ta'minlash muammosidir. Mamlakatimizda axborot jamiyatini shakllanishi, axborot erkinliklari, axborot ko'lamining ortib borishi, birinchi navbatda axborot psixologik xavfsizligi tahdidini keltirib chiqarmoqda.

Ta'kidlash lozimki, bunday holat bevosita mamlakatimizda huquqiy demokratik davlatning taraqqiyoti va fuqarolik jamiyatining qaror topishi, rivojlanishi, taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Alohida qayd qilish mumkin: hozirgi davrda shaxs faoliyatidagi muhim masalalardan biri uning demokratik xarakterdagi siyosiy jarayonlarda faol ishtirokini ta'minlash, o'z huquqiy imkoniyatlaridan to'liq foydalanishi lozimligi ham axborot madaniyatining yuksalishini ta'minlash, jamiyat rivojlanish jarayonlarini o'zida aks ettiruvchi informatsion bazani vujudga keltirish bilan bog'liqdir [1, 10].

- Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili (Literature review).

Shu ma'noda axborotlashuvni geosiyosiy jarayonlar bilan bog'lanib ketayotganligini ham kuzatish mumkin. Bu borada Rossiyalik faylasuf S.A. Modesovning quyidagi fikrlarini keltirish o'rinli. Uning fikricha, "axborotlashgan makon yangidan-yangi geosiyosiy munosabatlardagi

raqobatni shakllantirib, ya'ni jahon tartiboti jarayonida ayrim davlatlarda axborotlashtirishni takomillashtirish asosida kattaroq mavqega ega bo'lib boradi." Bugungi kunda axborotlashtirish, bu umumjahon jarayoni bo'lib, taraqqiy etgan mamlakatning jahon bozoridagi peshqadamligi, iqtisodiy o'sishi va milliy xavfsizligini ta'min etadi. Ma'lumki, globallashtirish jarayoni obyektiv va qonuniy jarayon bo'lib, o'ziga xos bir qancha ijobiy xususiyatlarga ega. Bu jarayon birinchi galda davlatlarga halqaro maydonga erkin chiqishga, boshqalar bilan yaqindan hamkorlik olib borishga hamda o'z milliy manfaatlarini turli xil halqaro va nodavlat tashkilotlar doirasida ta'minlashga keng imkoniyatlar beradi.

- Tadqiqot metodologiyasi (Research Methodology).

Jamiyat barcha jabhalarining modernizatsiyalashuvi unda inson omiliga alohida e'tibor berish lozimligini talab qiladi va shu munosabat bilan shaxs informatsion madaniyati shakllanganligi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy amaliyotda ham namoyon bo'ladi. Globallashtirish sharoitida mintaqalar va mamlakatlar o'rtasidagi aloqalar va o'zaro ta'sirlar kuchayib boraverar ekan, unda yoshlar ma'naviyati, ayniqsa, ularning axloqiy qiyofasini shakllantirish zamonaviylikni tarixiylik bilan uyg'unlashtirishni taqozolaydi.

Sodir bo'layotgan o'zgarishlarga qanchalik qarshilik ko'rsatmaylik inson erisholmagan manzil doimo qiziqarli hisoblanadi. Zero globallashtirish jarayonining asosiy subyekti va harakatlantiruvchi kuchi muayyan g'arazli maqsadlarni ko'zlar ekan, milliy ma'naviyat va qadriyatlarga tayangan an'anaviy tafakkur tarziga zarba berish va yoshlarni g'arabona andozadagi qolipga solish va ular ustidan hukmronlik qilishga intilaveradi. Shunday global ta'sirlar telekommunikatsiyalar, internet tizimidagi saydlar orqali yoshlarimiz ongi va ma'naviy-axloqiy qiyofasiga kuchli salbiy ta'sir ko'rsatmoqda[2,178].

- Tahlil va natijalar (Analysis and results).

Davlatimiz madaniy – ma'naviy mustaqilligini ta'minlashda sharqona odob, axloq, milliy qadriyatlar, urf – odat va an'analarimiz asosida tarbiyalash nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi. Jamiyat rivojlanib borgan sari uning axloqiy tizimi ham o'zgarishlarga ehtiyoj sezadi. Yurtimizning hozirgi rivojlanish bosqichida yoshlarimizning ongi, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy jihatlarining shakllanishida bunday xatolarga yo'l qo'yish mumkin emas.

Demak, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy – iqtisodiy va siyosiy hayotida ijtimoiy – gumanitar va boshqa fanlar oldida ulkan vazifalar turibdi. Bu vazifalar esa, yoshlarni ma'naviy kamolot sari etaklash, axloqiy jihatdan etuk kishilar qilib tarbiyalashdir. Xulosa qilib aytganda, globallashtirishni to'siq qo'yib, chegara tortib ushlab bo'lmaydi. Hindistonlik mashhur davlat arbobi Mahatma Gandining qo'yidagi so'zlarida: "Men uyimning darvoza va eshiklarini doim mahkam berkitib o'tira olmayman, chunki uyimga toza havo kirib turishi kerak. Shu bilan birga, ochilgan eshik va derazalarimdan kirayotgan havo dovul bo'lib uyimni ag'darto'ntar qilib tashlashi, o'zimni esa yiqitib yuborishini ham istamayman". Shuning uchun ham, milliy istiqloq g'oyasi bugungi globallashtirish jarayonida uyimizni, hayotimizni toza havo bilan ta'minlab, ayni paytda. "dovullar"dan saqlash omili ekanligini anglashimiz zarur.

Shaxs jamiyatda va uning a'zolari orasida muayyan harakatda bo'lgan ma'lumotlar, xabarlar, maxsus bilimlar, ommabop axborotlarga ega bo'lgan taqdiridagina o'z davrining ziyoli kishisi sifatida shakllanadi[3,240].

Huningdek, yuqoridagi axborot vositalari mazmuni, mohiyatini bilish va ulardan o'z faoliyatida informatsion yondashishi asosida samarali foydalana olish axborot madaniyatini tashkil etadi. Axborot madaniyat shakllanishi esa axborotning azbukasidan ya'ni uning boshlang'ich asoslaridan boshlanadi. Shaxsning axborot madaniyatini shakllanishi va evolyusiyasi ana shu boshlang'ich davri bilan bog'liq bo'ladi. Shaxsning axborot madaniyatini shakllanishi va evolyusiyasi ana shu boshlang'ich asoslaridan dastlabki manbalarini oladi va tobora kengayib, rivojlanib boradigan axborot tizimlari, vositalari, ilmiy-amaliy yutuqlari asosida muayyan bosqichga ko'tariladi.

Shu ma'noda axborot kitob yoki ma'ruzaning yakunlashi emas, aksincha ana shu axborot

manбайдан olingan yangilik, axborot mazmunmohiyatiga nisbatan uning yuqori bosqichidir. Axborot madaniyati, bevosita axborot manbai uchun mas'ulligi va uni samarali boshqarishida namoyon bo'ladi. Bu erda shaxsning intellektual qobiliyati, uning bilimi muhim ahamiyat kasb etadi. Shaxs dunyoqarashi, layoqati namoyon bo'ladi.

Shunday qilib, shaxsning axborot madaniyati tushunchasining mohiyati, tarkibiy elementlari, evolyusion tendensiyasi, axborot aloqa tizimlari bilan bevosita bog'liqligi kabi ko'plab masalalarni tadqiq etish uning muhim qismini tashkil etadi. Ta'kidlash lozimki, ommaviy axborot vositalari shaxsning ijtimoiy ongi, tafakkuri va dunyoqarashini shakillantirish va rivojlantirishda asosiy omil, bo'lib obyektiv va subyektiv asoslarga ega. Birinchidan, shaxsning globallashuv sharoitida yuz berayotgan jiddiy o'zgarishlar zamonaviy axborot madaniyatining ma'naviy, g'oyaviy mafkuraviy negizini tashkil etib, jamiyatning ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy hayotida muhim o'rin egallaydi. Ularning ijtimoiy-iqtisodiy voqelikka kirib kelishida axborot tizimi, vositalari va texnologiyasi faol ishtirok etadi. Zero XXI asrda biron bir mamlakat yoki hudud taraqqiyotni tezkor axborot almashuv isiz tasavvur etib bo'lmaydi.

Shuni aytish kerakki, vaqt o'tishi bilan globallashuv jarayonining o'ziga xos ijobiy tomonlari bilan birga, bir qator salbiy jihatlari ham namoyon bo'la boshlaydi. Davlatlarning bir-biriga sezilarli darajada o'sgan bog'liqligi shuni ko'rsatmoqdaki, bir mintaqadagi xoh salbiy, xoh ijobiy voqea – hodisalar dunyoning boshqa bir mintaqasiga juda tez tarqalib, o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Buning oqibatida, mintaqa xavfsizligi va barqarorligiga jiddiy tahdidlar vujudga kelmoqda. Vaziyatning keskinlashuvi, tashqi tahdidlarning ichki tahdidlar bilan, ya'ni an'anaviy tahdidlar bilan o'zaro qo'shilishi, ular orasidagi masofa yaqinlashuvi hamda ularning o'zaro bog'liqligi o'sishi kuzatilmoqda. Bu holat esa milliy va mintaqaviy xamda shaxsiy xavfsizlikni ta'minlashda jiddiy muammolarni keltirib chiqarmoqda[4,132].

Agar mazkur omilga alohida e'tibor berilmas ekan, u borgan sari kuchayib boradi. Natijada, ayrim kuchlar qo'lida asosiy "qurol"ga aylanadi. Bu esa nafaqat davlatlar yoki mintaqalarda keskin vaziyat vujudga kelishiga sabab bo'ladi, balki halqaro miqyosda ham o'z ta'sirini ko'rsatadi. Halqaro munosabatlar tizimida yuz berayotgan o'zgarishlar natijasida milliy xavfsizlik, mintaqaviy xavfsizlik va halqaro xavfsizlik xamda shaxsiy xavfsizlik kabi tushunchalar mohiyatini tushinishga, ularning o'zaro bog'liqligini anglashga e'tibor ortib bormoqda. Bugungi dunyoning axborot xavfsizlik holati "Xavfsizlik"ka bo'lgan zamonaviy yondashuvlarni ishlab chiqishga va milliy, mintaqaviy va halqaro xamda shaxsiy xavfsizlikka nisbatan konseptual qarashlarni rivojlantirishga undamoqda.

Bugungi globallashuv asrida axborotga bo'lgan talab har qachongidan ko'ra, kuchayib bormoqda. Shunday ekan, xolis va haqqoniy axborotlarni tarqatish, ommaning bu mahsulotga bo'lgan ehtiyojini qondirish har qachongidan ko'ra bugungi kunda dolzarb ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, demokratik jamiyatda ommaviy axborot vositalari, tele-radio kanallar odamlarni xolis va haqqoniy axborot yetkazadigan, gumanistik qarashlar, ilg'or g'oyalarni ifoda qiladigan erkin minbar sifatida e'tibor beriladigan vositadir. Aslida ham shunday. Bugun jahon miqiyosida bo'layotgan olamshumul o'zgarishlar, iqtisodiy taraqqiyot, ilm-fandagi inson aqlini lol qoldiradigan yangiliklaru ixtirolar barcha-barchasi ommaviy axborot vositalari orqali ma'lum bo'lmoqda.

Demak, OAV, matbuot yaxshilikka, ezgulikka xizmat qilmoqda. Lekin ming afsuslar bo'lsinki, o'tgan asrning oxirlari, XXI asrning dastlabki yillarida G'arb matbuotida biz aytgan ezgulikka xizmat qilish o'rniga boshqa buyurtmali "yezgulikka" xizmat qilish hollari ham kuzatilmoqda. Shu o'rinda ulug' alloma Abu Rayxon Beruniy merosidagi ayrim fikrlarga e'tiborni qaratmoqchimiz. Alloma bundan ming yil burun shunday yozib ketganlar: "Xabar beruvchilar sababli rostlik va yolg'onlik tusini oladi. Chunki, odamlarning maqsadlari xilma-xil halqlar o'rtasida tortishish va talashish ko'p. Shunday kishilar ham bo'ladiki, ularning tabiatiga yolg'on xabar tarqatish o'rnashib qolib, go'yoki unga shu vazifa yuklangandek bo'ladi va xabar tarqatmasdan tinchiyolmaydi[5,68].

Bu yomon xohishlardan va tabiatiga buzuq fikrlarning joylashganligidan kelib chiqadi". Axborot globallashuvi va yoshlar ma'naviyati, har qanday axborot oqimining yoshlar ma'naviyatiga ta'siri, zararli axborotlar tahdidi xususida so'z yuritganimizda avvalo bu masala zamirida jamiyatimizning, davlatimizning milliy xavfsizligi yotganini nazarda tutishimiz lozim. Zero bu mavzuda so'z yuritar ekanmiz avvalo ikki masala mavzuning dolzarb nuqtasiga aylanadi: birinchisi axborot oqimi-mafkuraviy tahdid; ikkinchisi – yoshlar ma'naviyati, ya'ni turli xildagi axborotlarga nisbatan yoshlarimizda shakllangan immunitet masalalaridir. Gap shundaki, axborot oqimi o'z mohiyatiga ko'ra ma'lum bir maqsadga yo'naltirilgan bo'ladi. Uning qanchalik yoshlarimizga ta'sir qilishi uning oldiga qo'yilgan maqsad sari puxta yo'naltirilganligiga bog'liq. Tabiiyki, axborot oqimining salbiy ta'siri esa ularda shakllangan mafkuraviy himoya tizimining mukammalligi omiliga bog'liq[6,10].

- Xulosa va takliflar (Conclusion/Recommendations).

Xulosa qilib shuni alohida takidlash lozimki talabalarda zararli axborotlarga qarshi kurashishni bir usuli sifatida biz tanqidiy fikrlashni talabalar ongida shakllantirish deb hisoblasak, talabalarda tanqidiy fikrlashni shakllantirish uchun quyidagi jihatlarga alohida e'tibor berish kerak:

- talabalarda o'ziga xos nuqtai-nazarni paydo qilish;
- bir fikrdan boshqasining afzalligini asoslash mahorati;
- murakkab muammolarni yechish mahorati;
- dalillarga asoslangan holda bahslashishga odatlantirish;
- yagona fikrni ishlab chiqish uchun o'zaro hamkorlikda ishlash mahorati;
- o'quvchilarda mavjud bo'lgan bilimlar tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini shakllantirishga qay darajada xizmat qilishini aniqlash;

Shundagina, globallashuv jarayonlarida yoshlarning ma'lumotlarga ko'rko'rona ergashish, ularni noto'g'ri talqin qilishining oldi olinadi. Axborot iste'moli madaniyatiga ega yoshlar, salbiy va noxolis axborotlar ta'siriga tushib qolmaydi, chunki ularda bunday axborotlarga nisbatan mustahkam mafkuraviy immunitet shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Аносов, В.Д. Исходные посылки проблематики информационно психологической безопасности [Текст] / В.Д. Аносов, А.В. Брушлинский, В.Э. Лепский // Проблемы информационно-психологической безопасности. – М.: Институт психологии РАН, 1996. – С. 7–11.

2. Деркач, А.А. Психология безопасности: пособие для слушателей и аспирантов [Текст] / А.А. Деркач, М.Ф. Секач. – М.: Изд-во «Народный учитель», 2002. – 708 с.

3. A.Umirov. Information technology in elementary grades. Tutorial. Against. 2023. -322 b.

4. Karimova V.M. Ijtimoiy psixologiya. O'quv qo'llanma. T.: Universitet. 2007.

5. Bordovskiy G. A. Yangi ta'lim texnologiyalari: terminologiya masalalari // Pedagogika. 1993.

6. Denisenko V. A. Zamonaviy ta'lim fanini rivojlantirishning innovatsion yo'nalishi // Innovatsiyalar. 2006. No 3. b. 5-11.

INNOVATSION TA'LIM MUHITIDA UMUMTA'LIM MAKTABLARINING 6-7 SINFLARIDA ONA TILI FANINI O'QITISH ORQALI MUSTAQIL O'QUV TOPSHIRIQLARI BILAN ISHLASHDA LINGVOMETODIK YONDASHUV

Gafurova Shoxsanam Abdunazarovna
Toshkent amaliy fanlar universiteti
Pedagogika kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya. Umumta'limda o'quvchilarning mustaqil o'quv topshiriqlarini rivojlantirishda amaldagi holati va istiqbollari, umumta'lim muassasalarini ilg'or jahon tajribalari asosida o'qitish tizimining tamoyillari, ta'lim oluvchi, ta'lim natijalarini tan olinishi. Ta'lim traektoriyasini mustaqil shakllantirish imkoniyatini yaratilishi va baholanishi. O'qituvchi, o'quvchilarning fanga qiziqishi, hamda aniq belgilangan dars mazmunidagi istiqbolli rejalarni ta'lim amaliyotiga joriy etilishi maqsadga muvofiq ekanligi asoslab berilgan.

Kalit so'zlar: o'qitish, amaliyot, gibrid ta'lim, ona tili, fan, lingvometodika, nutqiy kompetensiya, rivojlantirish muammolari, umumta'lim maktablari, sinflar kesimi, ta'lim jarayoni, grammatik tahlil ishlari, tizim, nutqiy ko'nikmalar.

Аннотация. Современное состояние и перспективы разработки самостоятельных учебных задач обучающихся в общеобразовательных учреждениях, принципы системы образования в общеобразовательных учреждениях, основанные на лучшем мировом опыте, признании обучающегося и результатов образования. Создание и оценка возможности самостоятельного формирования образовательной траектории. Обоснован интерес преподавателя и студентов к науке, а также внедрение в образовательную практику перспективных планов содержания курса.

Ключевые слова: обучение, практика, гибридное образование, родной язык, наука, лингвометодология, речевая компетентность, проблемы развития, общеобразовательные школы, срез классов, учебный процесс, грамматический анализ, система, речевые навыки.

Annotation. The current situation and prospects in the development of independent educational tasks of students in general education, the principles of the system of education in general education institutions based on the best world experiences, the recognition of the learner and the results of education. Creation and evaluation of the possibility of independent formation of the educational trajectory. It is justified that the teacher and students are interested in science, as well as the introduction of prospective plans in the course content into the educational practice.

Keywords: teaching, practice, hybrid education, mother tongue, science, linguomethodology, speech competence, development problems, general education schools, cross-section of classes, educational process, grammatical analysis, system, speech skills.

Kirish. Jahonda globallashuv va axborotlashish jarayonlari, innovatsion ta'lim muhitida yuzaga keladigan mustaqil o'quv topshiriqlarida, pedagogik-metodik o'zgarishlar kiritishni taqozo etib, bu borada umumta'lim tizimida o'qitishning ahamiyati ortib bormoqda, o'qitish amaliyotida gibrid ta'limda ona tili fanlarini o'qitish hamda lingvometodik tayyorgarlikkacha bo'lgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish muammolari umumta'lim maktablarining sinflar kesimida o'rganilmoqda. Rivojlangan davlatlardagi, umumta'lim jarayonida mustaqil o'quv topshiriqlari hamda grammatik tahlil ishlarini tashkil qilish tizimi (nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirish bilan bog'liq muammolar yuzasidan kuzatishlar olib borilgan (Bright Hub Education) til o'qitishda kompetensiyaviy yondashuvlar olib borilayotgan umumta'lim muassasalarida nutqiy kompetensiyalarining rivojlantirish darajasini oshirib borish zarurligini

ko'rsatadi. Zero umum ta'lim tizimida ona tili o'qitishdav tilning savodxonlik darajasini takomillashtirish mexanizmi, umumta'lim maktablarining 6-7-sinflarida global masalalar sirasida markaziy o'rinni egallaydi.

Respublikamizda umumta'lim muassasalarida, ona tili o'qitish fanini takomillashtirish mexanizmini keng joriy etish asosida, yangi Renesans pedagogikasi sharoitida o'quvchilarni mustaqil ishlash ko'nikmalarini rivojlantirishga katta e'tibor qaratilmoqda. Ona tili o'qitish metodik jihatdan kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars mashg'uloti jarayonida lingvistik kompetensiyalarni rivojlantirish nutqiy kompetensiyalarning takomillashishiga olib kelish ko'zda tutilmoqda. Bu esa, umumta'lim sharoitida ona tili o'qitishda metodik kompetentligini rivojlantirishning didaktik tizimi va texnologik modelini ishlab chiqish va ularni amaliyotga joriy etishning, lingvodidaktik hamda lingvometodik shart-sharoitlarini takomillashtirishni taqozo etadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Umumta'lim tizimida o'qitish, uni lingvodidaktik tayyorgarlikkacha bo'lgan nutqiy kompetensiyani rivojlantirish umumiy tamoyillari, til sistemasi va nutq masalasida dastlabki pragmatik g'oyalar amerikalik faylasuf va pedagog Djon Dyui, Skatkin M.N fanlarni o'qitilishida muammoli o'quv topshiriqlarini tadqiq qilgan. Uning o'quv topshiriqlari tavsifi va tasnifiga doir yondashuvlaridan dunyo miqyosida foydalaniladi. Dunyoda umumta'lim tizimi o'quvchilarning mustaqil faoliyatiga asoslangan. Rivojlangan xorijiy tillarni o'qitishga doir ilmiy adabiyotlarda o'quv topshiriqlarining mazmuniga, foydalilik darajasiga alohida e'tibor beriladi va ta'lim jarayonida mustaqil o'quv topshiriqlaridan savol, topshiriq va mashqlardan unumli foydalaniladi. Xalqaro tajribada o'quv topshiriqlari o'zaro muloqotning samarali bo'lishiga qaratiladi. Amalda foydalaniladigan o'quv topshiriqlari avvaldan belgilangan ma'lum mezonlar asosida shakllantiriladi.

Umumta'lim tizimida ta'lim jarayonlarida yangi o'qitish tamoyillari kechmoqda. Bunga tayyor bo'lish uchun o'quvchilar da mustaqil o'quv topshiriqlari bilan ishlash ko'nikmalarini rivojlantirish zarur. Ona tilini o'qitish metodikasi kompetensiyaviy yondashuvga asoslanmoqda, dars jarayonida lingvistik kompetensiyalarni shakllantirish nutqiy kompetensiyalarning rivojlanishiga olib kelish ko'zda tutilmoqda. Chunki o'quvchilar tilning tashuvchilari sifatida muayyan nutqiy qo'nikma va malakalarga ega bo'lgan holda maktabga keladilar. O'quvchilarda ona tilidan (ular tilning tashuvchilari bo'lgani uchun) ba'zi ko'nikmalargina shakllantiriladi, asosan, ulardagi mavjud ko'nikmalar rivojlantiriladi. Ayniqsa, o'quvchilari ona tilda matn yoki suhbatni tinglab tushunadi, o'qiy oladi, gapira oladi va yoza oladi. Bunday vaziyatda ona tili o'qitishning asosiy vazifasi o'quvchilarda eshitganlarini to'g'ri tushuna olish, adabiy tilda ravon va mantiqan izchil gapira olish, matnni o'qib tushuna olish hamda to'g'ri va mazmunli yoza olish ko'nikmalarini rivojlantirish lozim. Bu mas'uliyatli vazifani, albatta, takomillashtirilgan o'quv topshiriqlari orqali amalga oshirish mumkin. Shu ma'noda umuta'lim maktablarida ona tilidan o'quv topshiriqlarini ishlab chiqishning lingvodidaktik va lingvometodik asoslarini takomillashtirish masalasi nihoyatda dolzarb hisoblanadi. Umumta'lim maktablarining 6-7-sinflarida aynan mustaqil o'quv topshiriqlariga e'tibor kuchayishini ko'rsatadi.

Tadqiqot metodologiyasi. Umumta'lim tizimida ro'y berayotgan tub o'zgarishlar, o'qitish mazmunining tobora yangi g'oya va qarashlar bilan boyitib borayotganligi, yosh avlod intellektual salohiyatini oshirishga xizmat qiluvchi yangi texnologiyalarning yaratilayotganligi, ta'lim oluvchilarda yuksak ma'naviy-axloqiy sifatlarni rivojlantirish, ularni ommaviy madaniyat ta'sirida himoyalash zaruriyatining yuzaga kelayotganligi umumiy pedagogika nazariyasi va amaliyoti fani imkoniyatlaridan samarali foydalanish natijalariga ham bog'liq.

Ona tili ta'limida faol qo'llanila boshlagan matn bilan ishlash ko'nikmalarini mustaqil rivojlantirishda pedagogik muammoli ta'lim texnologiyasi muhim ahamiyatga ega. Har qanday matn tahlilini mustaqil ta'lim o'quv topshiriqlari asosida muammoli jarayonga aylantirish mumkin. Bunda mustaqil savol yoki topshiriqni to'g'ri qo'yish kifoya qiladi. Bu o'rinda muammoni yechish, olingan natijalarni tekshirish, ularni asl faraz bilan taqqoslash, olingan

bilim va ko'nikmalarni tizimlashtirish va umumlashtirish bosqichlari muhim hisoblanadi.

Muammoni muvaffaqiyatli o'rganish shartlarida mustaqil o'quv topshiriqlarining ishtiroki o'ziga xos bo'ladi:

- muammoning mazmuniga qiziqish uyg'otish uchun yetarli savol yoki tayyorlovchi topshiriqlar asosida motivatsiyani ta'minlash;

- har bir bosqichda yuzaga keladigan muammolar bilan ishlashning maqsadga muvofiqligini ta'minlash;

- muammoni hal qilishda qo'yilgan vazifa va savolning ahamiyati;

- o'quvchilar tomonidan bildirilgan barcha fikr va farazlarga e'tibor va rag'bat bilan qaralganda o'qituvchi va talaba o'rtasidagi diologik do'stona muloqotning o'rnatilishi.

Bularning barchasi mustaqil o'quv topshiriqlari mazmuniga bog'liq, mustaqil o'quv topshiriqlarining asosini esa bilish faoliyat turi tashkil qiladi. Bu borada I.Ya. Lerner, N. M. Skatkinlarning yondashuvi hammaga ma'lum va mashhurdir.

Bilish faoliyatining turi-o'qituvchi tomonidan taklif etilgan o'quv jadvali bo'yicha ishlash asosida o'quvchilar erishadigan bilish faoliyatining mustaqil darajasidir.

Bu quyidagi tasnif usullarida farqlanadi:

- tushuntirish-illyustrativ (axborot-retseptiv);

- reproduktiv;

- muammoli taqdimot;

- qisman-qidiruv (xuaristik);

- tadqiqot.

Axborot-retseptiv usulning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi:

- bilim o'quvchilarga "tayyor" shaklda taklif etiladi;

- o'qituvchi bu bilimlarni turli yo'llar bilan idrok etishni tashkil etadi; o'quvchilar bilimlarni idrok etish (qabul qilish) va tushunishni amalga oshiradilar, ularni xotirasida tuzatadilar.

Barcha axborot manbalari (so'z, ko'rgazma va boshqalar.) qabul qilishda ishlatiladi va taqdimot mantig'ini induktiv va deduktiv ravishda ishlab chiqish mumkin.

O'qituvchining boshqaruv faoliyati bilimlarni idrok qilishni tashkil etish bilan chegaralanadi. O'qituvchilarning o'z o'quvchilarini bilim olishga, fikrlashga undash quroli, ularning mustaqil ta'lim topshiriqlari va mustaqil o'quv topshiriqlarini faoliyatini, o'zlashtirilishini monitoring qilishda o'lchov bu – mustaqil o'quv topshiriqlardir N.M. Skatkin.

An'anaviy ona tili ta'limida ham o'qitishning reproduktiv metodidan foydalaniladi. U quyidagi xususiyatlarga ega:

- bilim ta'lim oluvchilarga "tayyor" shaklda taklif etiladi;

- o'qituvchi bilimlarni muloqot qilibgina qolmay, balki uni bayon etadi; o'quvchilar bilimlarni ongli o'zlashtiradilar, uni tushunadilar va eslab qoladilar.

Tahlil va natijalar. G'ulomov A., Ne'matov H. ning quyidagi fikrlari hozir ham ona tili ta'limi va unda topshiriqlar berish uchun birdek ahamiyatli: "Ona tilidan bilimlarni tanlashning bosh mezoni uning foydalilik va amalda qo'llanila olish darajasidir. Biz umumta'limda ona tili o'qitish savodxonlik metodikasi fanini takomillashtirish mexanizmi asosida ona tili ta'limidan foydali bilimlar deb savodli yozish, ijodiy fikrlash, fikr mahsulini nutq sharoitiga mos ravishda og'zaki va yozma shakllarda to'g'ri, ravon ifodalash ko'nikmalarini rivojlantirishni ta'minlaydigan bilimlarni tushunamiz"

O.Roziqov, M.Mahmudov, B.Adizov, A.Hamrayevlar tomonidan nashr etilgan "Ona tili didaktikasi" darsligi bunga yaqqol misol bo'la oladi. Darslikdagi mashqlarga e'tibor qilamiz. "Mashq qilish usullari tarixiy-tadrijiy taraqqiyoti natijasida o'zbekona fikrlash, o'zbekona ta'lim, odat, an'analar tarkibida shakllangan. Shu tufayli ulami nutq madaniyatini o'zlashtirish bilan aloqador hodisa deb qaraymiz. Lingvistik mashq qilish usullarini qo'llab, aqliy-amaliy yumushlarni bajarishda tahlil, birlashtirish, taqqoslash, abstraksiyalash, konkretlashtirish kabi

aqliy faoliyat usullari ham ishtirok etadi”.

Shu ma'noda savol va topshiriqlarni ham yodlash, takroran aytib berishga ixtisoslashib qolishidir. Ko'rinib turibdiki ona tili ta'lim jarayonida mustaqil o'quv topshiriqlari orqali muammoli ta'limga yo'l ochib berildi. Muammoli ta'lim texnologiyasi esa ijrochilikdan ijodiy faoliyatga o'tishni ta'minlaydi. Bugun Yangi O'zbekistonga ijrochi emas, ijodiy tafakkur sohiblari kerak. Muammoli ta'limning ma'lum bir bosqichida o'quvchilar hali muammolarni o'zlari hal qila olmaydilar va shuning uchun o'qituvchi muammoni tadqiq qilish, uning yechimini boshidan oxirigacha belgilash yo'lini ko'rsatadi. Bu usuldagi o'quvchilar esa ishtirokchilar emas, balki kuzatuvchi bo'lsa-da, bilib olish qiyinchiliklarini hal qilishni o'rganadilar.

Umumta'lim maktablatrining 6-7 sinflarida ona tili fanini o'qitish metodik takomillashtirish mexanizmi qisman izlanuvchanlik ta'lim metodidan ham foydalaniladi, uning mohiyati quyidagi xususiyatlarda ifodalanadi:

– bilim o'quvchilar ga “tayyor” shaklda taklif etilmaydi, ularni mustaqil ravishda chiqarish kerak;

– o'qituvchi bilimlarni xabar yoki taqdim etishni tashkil etmaydi, balki turli vositalar asosida yangi bilimlarni izlanadi;

– o'qituvchi rahbarligida o'quvchilar mustaqil mulohaza yuritadilar, paydo bo'lgan bilish muammolarini hal qiladilar, muammoli vaziyatlarni yaratadilar va hal qiladilar, tahlil qiladilar, xulosa chiqaradilar va natijada ongli mustahkam bilim hosil qiladilar.

Mustaqil o'quv topshiriqlari umumta'lim darslik va qo'llanmalarining ham asosiy qismini tashkil etishi kerak. Umumiyta'limda mustaqil o'quv topshiriqlarini tuzish va ulardan foydalanish bo'yicha alohida fanlar tashkil etilishi lozim.

Bu o'rinda ona tili fanini takomillashtirish mexanizmi boshqa mutaxassislik fanlari mazmuniga nisbatan lingvodidaktik ilm asoslarini o'rgatish nazarda tutiladi. Shu ma'noda bu borada tuziladigan mustaqil o'quv topshiriqlari o'quvchilarni fikrlashga undaydigan, bir fikrni ikkinchi bir fikr bilan taqqoslash va yakuniy xulosani ayta oladigan nutqiy ko'nikmalarni rivojlantirishga xizmat qilishi lozim. Mavjud darsliklardagi mustaqil o'quv topshiriqlari ma'lumotlarni yodlab, keyin yana qayta aytib berishga izlanuvchanlikka mo'ljallangan.

Izlanuvchanlik quyidagi xususiyatlarga ega bo'ladi:

– o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda muammoni shakllantiradi, uning yechimi guruhda dars mobaynida aniqlanadi;

– bilim o'quvchilar bilan bo'lishilmaydi. O'quvchilar muammoni o'rganish jarayonida uni mustaqil oladilar, olingan javoblarning turli shakllarini taqqoslaydilar. Natijalarga erishish uchun vositalar ham o'quvchilar tomonidan belgilanadi;

– o'qituvchining faoliyati muammoni hal qilish jarayonini tezkor boshqarish;

– ta'lim jarayoni yuqori intensivligi bilan ajralib turadi, o'qitishga qiziqish ortadi va olingan bilimlar chuqur farqlanadi.

Mustaqil o'quv topshiriqlari umumiy ta'limdan tortib, oliy ta'lim darsliklarigacha bo'lgan asosiy qismini tashkil qilar ekan, berilayotgan mustaqil o'quv topshiriqlari o'quvchini ijodiy izlanuvchanlikka va mantiqiy fikrlashga undaydi.

Darslik masalasiga ham qisman to'xtalish lozim. Ta'lim mazmuni o'quv adabiyotlarida (darsliklar, ma'lumotnomalar, qo'shimcha o'qish uchun kitoblar, atlaslar, xaritalar, topshiriq va mashqlar to'plamlari, bosma asosida daftarlar va boshqalar) batafsil bayon etilgan.

Darslik o'quv jarayonida o'quvchilarning ongli va faol ishtirokini, o'quv materialining to'liq asosini ta'minlashi lozim. Zamonaviy darslik quyidagi didaktik vazifalarni bajaradi:

- o'quvchilarni mavzularni o'rganishga da'vat etadi, ishtiyoq uyg'otadi;

- o'quvchiga axborot, ma'lumotlarni taqdim etishning, qidirib topishning mavjud usullari asosida bilimlarni kengaytirish imkonini beradi;

- darsning borishi va natijalarini tekshirish, o'z-o'zini baholash va korreksiyalash, shuningdek, zarur ko'nikmalarni hosil qilish uchun mustaqil ta'lim topshiriqlarini bajarish

imkoniyatini o‘z ichiga oladi.

Xulosa qilib aytganda, umumta’lim darsliklarida berilgan o‘quv topshiriqlar asnosida umumiy topshiriq tuzish metodikasini o‘zida to‘laqonli aks ettirmaydi, ularning metodikasi mualliflarning shaxsiy salohiyatiga bog‘liq bo‘lib qolgan, ammo davr talabi bilan mukammal tadrijiy metodika kasb etib bormoqda. Bu esa darsliklarda beriladigan umumta’lim maktablarining 6-7-sinflarida ona tili fanini o‘qitishda lingvometodik yondashuv, ona tilidan savodxonlik darjasini takomillashtirish mexanizmi lingvometodik va lingvodidaktik asoslari yuzasidan ilmiy-amaliy tadqiqotlar qilishni taqozo etadi. Bir so‘z bilan aytganda zamonaviy darslik, innovatsion ta’lim muhiti asosida ko‘plab axborot manbalarini o‘ziga birlashtirishi, ularni tortishi, boshqarishi lozim. Mazkur jarayonda mustaqil o‘quv topshiriqlari o‘quv lug‘atlari, audio, video materiallar, mashq va topshiriqlar to‘plami, testlar, ko‘rgazmali vositalar, elektron resurslar innovatsion ta’lim muhitiga bog‘lay olishi, ulardan foydalanishda asosiy vosita bo‘lib xizmat qilishi kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni. // Barkamol avlod- O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. –T: 1997. 20-29 b.
2. Axmedova M.E. //“Modul-kredit tizimida mustaqil topshiriqlar tuzishning ilmiy-nazariy asoslari”// Monografiya //“Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi” MCHJ Toshkent-2022, 136 bet.
3. Axmedova M.E. //“Mustaqil topshiriqlar bilan ishlash va ularni baholash metodikasi” Metodik qo‘llanma //“Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi” Toshkent-2022, 100 bet.
4. Axmedova M.E. //“PEDAGOGIKA” dasrlik.”Tibbiyot nashriyoti matbaa uyi” MCHJ Toshkent-2022, 212 bet.
5. Axmedova M.E. Talabalarda mustaqil ta’lim ko‘nikmalarini rivojlantirishning metodik xususiyatlari // O‘zbekiston til va madaniyat. Metodika jurnali.T. – Toshkent, 2022. - №1(4). -B. 70-81.
6. Axmedova M.E. Kredit tizimida mustaqil topshiriqlar // TIL VA ADABIYOT TA’LIMI jurnali. -Toshkent, 2022. №6. - B 18-20. (13.00.00; №8).
7. Akhmedova M.E. Foreign experience in the transition to a credit-module system // Principles of development of linguistic-speech competence of students in independent education // Current Research Journal of Philological Sciences (2767-3758). №3 (01). - R. 46–57 (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 6,925
8. Akhmedova M.E. Research and application of textbooks in tutorials and manuals of higher education // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. - Xindiston, 2022. – P. 165- 172. Vol. 12, Issue 01. (13.00.00; №20). (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 8,037
9. Akhmedova M.E Improvement of didactic, pragmatic methods of independent study tasks in philological education in the credit-module system // Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. - Xindiston, 2022. – P. 86-90 Vol. 12, Issue 02. (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 8,625
10. Akhmedova M.E Improvement of pedagogical - pragmatic processes of independent study // Tasks in philological higher education European journal of Humanities & Educational Advancements pages Vol. 3 No. 04, April 2022, Spain, - P. 279-281. (13.00.00; №23). Journal Impact Factor 7,223
11. Axmedova M.E. Features of module-credit, methods of question use and competence in creation of independent educational tasks / New York 2022. 28 iyun. Pages 217-221. Conference

INKLYUZIV TA'LIM JARAYONIDA O'QUVCHILARNING IJTIMOIYLASHUVINI RIVOJLANTIRISHNING ILMIIY-NAZARIY ASOSLARI

Musayeva Nargiza Sayfullayevna

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Maxsus pedagogika kafedrasida dotsenti, PhD

Adhamova Diyora Sanjar qizi

*Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti, Boshlang'ich ta'lim nazariyasi va metodikasi
yo'nalishining 2-kurs magistranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada inklyuziv ta'lim, uning mohiyati, jamiyat va davlat rivoji, qolaversa, alohida ehtiyojlari mavjud bolalarning ijtimoiy integratsiyasi uchun muhimligi yoritilgan. Shu bilan birga inklyuziv ta'lim sharoitida yuzaga keladigan ijtimoiylashuv muammolari, ularning alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bo'lgan bolaga salbiy ta'siri hamda uni bartaraf etish uchun bir necha usul va tavsiyalar keltirilgan. Shuningdek, ushbu muammoga yechim tariqasida "Project based learning" ya'ni "Loyihaga asoslangan ta'lim" yondashuvi taklif qildik. Ushbu yondashuvning maqsadi, kelib chiqish tarixi, qo'llash bosqichlari haqida nazariy ma'lumot berilgan. Uning afzalliklari, qo'llanilish tartibi hamda ahmiyatli jihatlari yoritilgan. Loyihaga asoslangan ta'lim yondashuvini tashkil qilish bosqichlari va amaliy natijalari taqdim qilindi.

Kalit so'zlar: Inklyuziv ta'lim, ijtimoiylashuv, loyihaga asoslangan ta'lim yondashuvi

Аннотация: В статье рассматривается инклюзивное образование, его сущность, значение для развития общества и государства, а также социальная интеграция детей с особыми потребностями. В то же время представлены проблемы социализации, возникающие в условиях инклюзивного образования, их негативное влияние на детей с особыми образовательными потребностями, а также ряд методов и рекомендаций по их устранению. Мы также предложили подход «проектного обучения» как решение этой проблемы. Приведены теоретические сведения о цели, истории возникновения и этапах применения данного подхода. Рассматриваются его преимущества, процедура применения и важные аспекты. Представлены этапы и практические результаты организации проектного подхода к обучению.

Ключевые слова: Инклюзивное образование, социализация, проектный подход к обучению

Abstract: This article discusses inclusive education, its essence, the development of society and the state, as well as its importance for the social integration of children with special needs. At the same time, the problems of socialization that arise in the context of inclusive education, their negative impact on a child with special educational needs, and several methods and recommendations for their elimination are presented. We also proposed the "Project based learning" approach as a solution to this problem. Theoretical information is provided about the purpose, history of origin, and stages of application of this approach. Its advantages, procedure for application, and important aspects are highlighted. The stages of organizing a project-based education approach and its practical results are presented.

Key words: Inclusive education, socialization, project-based learning approach

KIRISH: Mamlakatimiz va butun jahonda ta'lim-tarbiyaning davlat rivojiga, xalq farovonligiga, jamiyat osoyishtaligi-yu insonlar taqdiriga ijobiy ta'siri necha yillardan beri isbotlanib kelinmoqda. Ta'lim insonga faqat naf keltirishini, ezgulik ulashishini bilgan davlat borki, ta'limni rivojlanishiga katta e'tibor berib, yuqori shohsupaga olib chiqmoqda. Bugungi kunda, ta'limning keng qamrovda rivojlanyotganini inklyuziv ta'limning jamiyat hayotiga kirib kelayotganidan ham ko'rishimiz mumkin. Bu atama (ingiliz tilidan olingan bo'lib, inclusive,

inclusion-uyg'unlashish, uyg'unlashtirish, qamrab olmoq ma'nolarini bildiradi) nogiron va sog'lom bolalar o'rtasidagi to'siqlarni (diskriminatsiya) bartaraf etish, maxsus ta'limga muhtoj bolalar, (ayrim sabablarga ko'ra nogiron bo'lgan) o'smirlar rivojlanishida uchraydigan nuqsonlar yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan qat'iy nazar ijtimoiy hayotga moslashtirishga yo'naltirilgan umumta'lim jarayoniga tushishni ifodalovchi ta'lim tizimidir. Yuqorida berilgan ta'rifdan ham ko'rinib turibdiki, inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojlari bo'lgan barcha o'quvchilarni qo'llab-quvvatlaydi va o'z bag'riga oladi. Hech kim umumta'lim tizimidan chetda qolmaydi [9]. Shuning uchun ham davlatimizda inklyuziv ta'lim davlat siyosatiga ko'tarildi. Jumladan, 2020-yil 23-sentabrda qabul qilingan "Ta'lim to'g'risida"gi qonunning 20-moddasida inklyuziv ta'lim alohida ta'lim ehtiyojlari va individual imkoniyatlarning xilma-xilligini hisobga olgan holda barcha ta'lim oluvchilar uchun ta'lim tashkilotlarida ta'lim olishga bo'lgan teng imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilganligi mustahkamlanadi. Prezidentimiz Shavkat Miromonovich Mirziyoyevning 2019-yil 29-apreldagi Farmonida tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasida xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida inklyuziv ta'limni joriy qilishda barcha zarur shart-sharoitlar yaratilishi, pedagog xodimlarni tayyorlash, o'quv-metodik ta'minot ishlab chiqish kabi vazifalar belgilab qo'yilgan [9]. Shunidek, inklyuziv ta'limni rivojlantirish muammosi jahonda ham dolzarbligini yo'qotmagan. Uni rivojlantirish maqsadida BMT, YUNESKO kabi xalqaro tashkilotlar tomonidan bir qator qarorlar qabul qilinib, katta loyiha ishlari amaliyotga tatbiq etilmoqda. Bunga misol tariqasida 1994-yil 7-8-iyunda Ispaniyaning Salamanka shahrida o'tkazilgan "Ta'lim hamma uchun" nomli konferensiyasini olishimiz mumkin. "Salamanka bayonoti va ish faoliyati Rejasi" ning asosiy yetakchi tamoyili shundan iboratki, maktablar barcha bolalarni, ularning jismoniy, aqliy, ijtimoiy, hissiy, tili va boshqa xususiyatlaridan qat'iy nazar o'qishga qabul qilishlari lozim [9]. Yuqorida ta'kidlanganlarni hisobga olib, inklyuziv ta'lim alohida ehtiyojlari mavjud bola hayotida katta ahamiyatga ega. Insonlar doimo bir-birlariga suyanadilar, bir-birlarini qo'llab-quvvatlaydilar, munosabat o'rnatadilar, oila deb atalmish kichik jamiyatni barpo etadilar. Demak, ijtimoiylashuv inson tug'ilgan, go'dakligidan ulg'ayib kelgan oilasidan boshlansa, uning davomini maktabgacha va umumta'lim tashkilotlaridagi ta'lim olish jarayonida, keyinchalik mehnat faoliyatida ko'rishimiz mumkin. Shunday qilib, inson qayerga borsa, odamlar orasida, ularga aralashgan, munosabat o'rnatgan holda bo'ladi.

«Ijtimoiylashuv» atamasini birinchi bo'lib amerikalik sotsiolog F.G. Keddings insonlarga nisbatan qo'llagan. U o'zining «Ijtimoiylashuv nazariyasi» (1987) kitobida «ijtimoiylashuv individ tabiati yoki xarakterining rivojlanishi, insonni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir», degan fikrni bildiradi [4]. Bu fikrdan ko'rinib turibdiki, ijtimoiylashuv insonni katta hayotga tayyorlash bo'lib, uni turli hayot sinovlariga, odamlar bilan to'g'ri munosabat o'rnatishga, ijtimoiy hayotda o'z o'rniga ega bo'lishni bildiradi. Demak, ijtimoiylashuv nafaqat alohida ta'lim ehtiyojlari mavjud bolalar, balki sog'lom bolalar hayotida ham muhim o'rin tutadi. Bu ularga o'zaro hurmat, do'stlashish, muomila madaniyati, me'yorlar, rollar, qadriyatlar, talablar, kutishlar, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirishda yordam beradi hamda shu tajribalar asosida ijtimoiylashib boradi. Bu jarayon imkoniyati cheklangan bolaning boshqa sog'lom tengdoshlari bilan o'zaro do'stona munosabatlarni qura olishi, sog'lom bolalarning alohida ehtiyojlari mavjud bo'lgan tengdoshiga nisbatan hurmat va tushunish bilan munosabatda bo'la olishi hamda kamsitishlarsiz, o'zaro teng muloqot ko'nikmalarini shakllanishini ham o'z ichiga oladi. Mana shunday ijtimoiylashuv malakalarini rivojlantiruvchi metodlarni havola qilamiz.

METODLAR. Ijtimoiylashuv ahamiyatli jarayon ekanligi bilan birga uni amalga oshirish, to'g'ri munosabatlar o'rnatish juda qiyin hisoblanadi. Jamiyatda sog'lom ijtimoiylashuvga ta'sir etuvchi yomon illatlar bo'lib, ulardan biri diskriminatsiyadir. Diskriminatsiya jamiyatdagi yomon illat hisoblanib, bir shaxsni qadr-qimmatini tushurish, obro'sini yo'qotishiga sabab bo'luvchi, insonlardan ajratib qo'yish, insonda uyalish, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishiga

sabab bo'luvchi xulqdir. Afsuski bu holat alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar bilan juda tez-tez sodir bo'lib turadi. Jamiyat tomonidan ajratilish ularga nuqsonidan uyalish, odamlarga qo'shila olmaslik, katta davralarda o'zini yo'qotib qo'yish, hayotda o'z o'rnini topishda qiynalish, insonlarga ishonchsizlik, do'st orttirishda qiynalish, fikrlarini va tuyg'ularini bayon qilishda qo'rqish, o'ziga bo'lgan ishonchning pasayishi kabi bir qator salbiy jihatlarga yo'l ochadi. Bu holat bir umr ularda psixologik jarohat bo'lib qolishi ham mumkin. Mana shu holat imkoniyati cheklangan bolalarning inklyuziv ta'lim sharoitida muvaffaqiyatga erishishlarida katta to'siq bo'lib kelmoqda. Bu to'siqni bartaraf etish vaqti keldi. Bu uchun quyida zamonaviy yondashuvlardan biri loyihaga asoslangan ta'lim yondashuvini havola qilamiz.

Problem based learning ya'ni loyihaga asoslangan ta'lim zamonaviy pedagogik yondashuvlardan biri bo'lib, bu o'quvchilarni faollikka, hamjihatlikka undovchi hamda kognitiv qobiliyatlarini rivojlantiruvchi yondashuv hisoblanadi. Loyihaga asoslangan ta'lim mazmunga xos o'rganishni, o'quvchilarni ta'lim ya'ni o'rganish jarayoniga faol jalb qilishni hamda ijtimoiy aloqalar orqali maqsadga erishish, bilimni bo'lishish va tushunish darajasini oshirishni rag'batlantiruvchi tamoyillarga asoslangan bo'lib, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim shaklidir, deya ta'kidlaydi Cocco, S.[10] Blumenfeld, Fishman, Krajcik, Marks va Soloway (2000) loyihaga asoslangan fan jarayonini quyidagicha ta'riflagan: "Talabalarga bilimlarni hosil qilish uchun imkoniyatlar berish kerak, jumladan, savol berish va berilgan savolni takomillashtirish, loyihalash va uni o'tkazish hamda tadqiqotlar, ma'lumotlar ularni to'plash, tahlil qilish va sharhlash, chizish, xulosalash va hisobot natijalari orqali haqiqiy muammolarni hal qilish kabilar". [11] Demak, yuqoridagi fikrlardan kelib chiqqan holda loyihaga asoslangan ta'lim yondashuvini asosan o'quvchilar faol ishtirok etuvchi, ularning bilimlarini rivojlantirishda, yangi ma'lumotlar hosil qilishda, tajribalar o'tkazib ko'rishda hamda eng muhimi ijtimoiy munosabatlarni mustahkamlashda yordam beruvchi yondashuv deyish mumkin.

Loyihaga asoslangan ta'lim g'oyasi 2016-yilda Uilchda akademik va filosof Jon Dyuning tomonidan taklif qilingan [12]. U talabalar haqiqiy hayot mazmuniga ega bo'lgan narsalarni mashq qilish va sinab ko'rish mobaynida amaliy va sifatli bilimga ega bo'ladilar, deydi. Uning konsepsiyasi keyinchalik "amalda o'rganish" deya tanildi. U, shuningdek, tajriba talabalar uchun bilim olishning eng yaxshi usuli ekanligini taklif qildi. Jon Dyui nazariyasi ta'limning turli jabhalariga keng yoyilib, rivojlandi. Shulardan biri 2016-yilda Karalyova tomonidan ingliz tilida gapirish qobiliyatlari bo'yicha olib borilgan tadqiqot ishida loyihaga asoslangan ta'lim yondashuvidan keng foydalandi. Tadqiqot natijalari lug'atni o'zlashtirish, grammatik tushunish va o'quvchilarning o'qish va yozish ko'nikmalarini yaxshilashni aniqladi.

Shu bilan birga, Buck Ta'lim Instituti (BIE) tomonidan o'tkazilgan tadqiqot natijalariga asoslanib 2016-yilda loyiha asosida o'qitish talabalarini 21-asr ko'nikmalariga 4 C ko'nikmalari (muloqot, hamkorlik, tanqidiy fikrlash va muammolarni hal qilish va ijodkorlik va innovatsiya), xarakter qadriyatlari va yuqori darajadagi fikrlash qobiliyatlari erishishga yo'naltirishi mumkinligini aniqladi[12].

Pedagog "Loyihaga asoslangan ta'lim yondashuv"ini amalga oshirish uchun bir qancha tamoyillar zarur. 2015-yilda Larmer va boshqalar ushbu yondashuv 7 ta asosiy standart tamoyilga ega ekanligini ta'kidlaydi[12]:

a) Muammoni belgilash yoki asosiy savolni berish tamoyili:

Ushbu tamoyil o'quvchilarni berilgan loyiha boshlashdan oldin asosiy masalaga yechim topishga undaydi. O'rganish jarayoni muammolar va savollar bilan boshlanadi. Bu esa o'quvchilarga loyiha bajarish jarayoniga tayyorgarlik ko'rishga, kerakli jihozlarni tayyorlashga, o'rtadagi muammolarni hal etishga yordam beradi.

b) Davomiy tekshiruv tamoyili:

Bu tamoyil loyiha uchun tayyorgarlik ko'rishda katta ahamiyat kasb etadi.

Tekshiruv jarayonida loyihaning ahamiyati, uni bajarish tartibi muhim savollar orqali belgilab olinadi. Bu jarayonda o'quvchilar tanqidiy fikrlash mahoratini, muammolarni hal qilish

qobilyatini, jamoa bo'lib ishlash ko'nikmasini hamda o'z-o'zini boshqara olish malakasini oshirib boradilar.

c) Haqiqiylik tamoyili:

Bu tamoyil loyihaga asoslangan yondashuvda o'rganishni hayotiy masalalar bilan bog'lashni anglatadi.

1. Loyihada haqiqiylik. Loyiha o'quvchilar tomonidan ular real hayotda ortirgan tajribalari asosida tuziladi. Masalan, biror restaranning taomnomasini tayyorlash loyihasi yoki sotuvchi va sotib oluvchi o'rtasidagi rolli-o'yin jarayonni kabilardir.

2. Loyihadagi mashg'ulotlar va jihozlarning haqiqiyliigi. Loyiha davomida o'quvchilar haqiqiy hayot bilan o'xshash bo'lgan mashg'ulotlarni, jumladan, sayohatga ketadigan mablag'ni hisoblash yoki jurnal tahririyatiga xat yozish kabilarni bajarishadi.

3. Loyiha natijalari ta'sirining haqiqiyliigi. Loyiha natijalari atrof-muhitga ta'sir etishi kutiladi, masalan, taqiqlash belgilari tushurilgan plakatlar yoki e'lonlar tayyorlash kabilari o'quvchilarni tartibga chaqirishga yordam beradi.

d) O'quvchining ovozi va tanlovi tamoyili:

Ushbu tamoyil loyihani tayyorlash jarayonida o'quvchilar g'oyalarni ifodalashni va qaror qabul qilishni talab qiladi. 1956-yilda Dawey ushbu tamoyil o'quvchilarning tanqidiy fikrlash hamda muammolarni yechish ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi deb ta'kidlaydi. Chunki, bu jarayonda o'quvchilar loyihani amalga oshirish uchun turli g'oyalarni taklif qiladilar, loyihani qanday tayyorlash, bu uchun jihozlarni tanlash bo'yicha qaror qabul qiladilar hamda o'qituvchi bergan savollarga javob berish uchun o'ylanadilar va izlanadilar.

e) Mulohazalash tamoyili:

Bu tamoyil faqatgina o'quvchilar uchun emas, balki o'qituvchilar uchun hamdir. Uning maqsadi loyiha jarayonidagi mashg'ulotlarning sifatli bo'layotganligini kuzatish hamda suhbat qilish, agar biror muammo yuzaga kelsa uni yechishga, kamchiliklarni tuzatishga qaratilgan.

f) Tanqid qilish va qayta ko'rib chiqish tamoyili:

Ushbu tamoyil loyiha tayyorlash jarayonida juda muhim hisoblanadi. Bu o'zida guruhlar, o'qituvchilar yoki ekspertlar jamoasi tayyorlangan loyihaning kamchiliklarini tanqid qilishlarini va takliflar berishlarini ko'zda tutadi. O'quvchilar tayyorlagan loyihaning noto'liq qismini topishga hamda uni qayta ko'rib chiqishga undaydi.

g) Mahsulotni ommaga taqdim qilish tamoyili:

Tayyor bo'lgan loyihani ommaga taqdim qilishni nazarda tutuvchi tamoyil hisoblanadi. O'quvchilar o'z loyihalarining natijalarini ommaga taqdim qilishlari kerak. Uni sinfda doskaga chiqqan holda, yoki katta auditoriyada amalga oshirishlari mumkin. Natijalar taqdim qilinish jarayoni boshqa o'quvchilarga ham turtki bo'lishi, ularni ruhlantirishi zarur.[12]

Loyihaga asoslangan ta'lim yondashuvini qo'llashning amaliy asoslari

Real hayotga doir topshiriqlarning ko'pchilik qismi juda murakkab bo'lib, uni muvaffaqiyatli yakunlash uchun ko'pchilikning hissasi qo'shilishi kerak. Demak, biror topshiriqni yakunlash uchun ko'pchilik tomonidan sarf qilinadigan harakat jamoaviy ish deyiladi.[14]. Misol uchun, sport jamoalari, raqs jamoalari, sozandalar jamoasi va hokazo. Shu kabi jamoalarda bir ishtirokchining harakati butun bir jamoaga ta'sir qiladi. Jamoalar ishini puxta, aniq va hamjihatlikda tashkil qilsa, bu jamoaning muvaffaqiyati hisoblanadi. Jamoaviy ishning o'ziga xos komponentlari bo'lib, ularga quyidagilar kiradi:

Kommunikatsiya: O'quvchilar jamoaviy loyiha ishini bajarish uchun o'zaro aloqa qilishlari zarur. Bu ularga loyiha ishining mazmunini, maqsadini tushunishga, unda ko'rsatilgan muammoni hal qilish uchun yechimlar taklif qilishga hamda birgalikda reja tuzishda yordam beradi. Kommunikatsiya online yoki offline shaklda ham, o'quvchilarga qulay usulda amalga oshirilishi mumkin.

Tinglash: Jamoaviy ishlarda yana bir muhim jihat tinglay olishdir. Chunki, jamoa bir necha individual, o'z fikriga ega shaxslarning birlashuvidan hosil bo'ladi. Ularda, tabiiyki, turli

g'oyalar va takliflar bo'ladi. Mana shu taklif va fikrlarni jamoa a'zolari bir-birlaridan tinglay olishlari va har bir fikrni hurmat qilishlari kerak.

Bo'lishish: Jamoaviy ishni amalga oshirishda jamoa a'zolari bir-birlari bilan g'oyalarini, tajribalarini hamda loyiha ishi uchun kerakli jihozlarni bo'lishishlari juda ahamiyatlidir. Bu ishni muvaffaqiyatli yakunlashga va maqsadga erishishga imkon beradi.

Hurmat qilish: Jamoadagi har bir a'zoning fikri va g'oyalari juda qadrlidir. Ular eshtilishi va muhokama qilinishi kerak. Har bir a'zoga, uning shaxsiyati, fikri va yondashuvlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish zarur. Agar shunday bo'lmasa, bu jamoa maqsadga muvaffaqiyatli erisha olmaydi va fikrlari hurmat qilinmagan jamoa a'zolari loyiha ishini bajarishga jon dili bilan harakat qilmaydi.

Yordam berish: Jamoaning har bir a'zosi yordam qo'lini cho'zishi bu muvaffaqiyatning kalitidir. Ular birlashsa va bir-birlariga yordam bersalargina maqsadga erishadilar.

Faollik: Jamoaning har bir a'zosi loyiha ishini tayyorlashga faol tarzda qatnashishi muhim. Bu jamoaning g'oliblikka tomon yetaklaydi hamda har bir faol ishtirok etayotgan a'zoning jamoada ahamiyatlilik darajasi oshib boradi.

Shunday qilib, yuqoridagi komponentlarning bari bir jamoa bo'lishda katta ahamiyat kasb etadi. Kuchli jamoa shu komponentlar asosida shakllanadi. Bularning bari jamoaning har a'zosida bo'lishi, shu jamoani shohsupa sari yetaklaydi.

Biz tajriba-sinov ishimizda loyihaga asoslangan ta'lim yondashuvini qo'llashga qaror qildik. Biz bu yondashuvni amalga oshirish uchun uning modulli yo'nalishni tanladik. Bunda o'quvchilarga ijtimoiylashuvda ahamiyatli bo'lgan hamda ularning vazifalarni bajara olish imkoniyat va yosh xususiyatlariga tayangan holda oldindan tayyorlangan mavzular beriladi. Mavzular sonini 8 ta deb belgiladik. Har bir mavzu o'z ichiga bir loyiha ishini hamda qiziqarli topshiriqlarni oladi. Mavzular oldindan tayyorlanadi, ularni ochib berish uchun materiallar bilan boyitiladi. Shuningdek, har bir mavzu imkoniyati cheklangan hamda sog'lom o'quvchilar o'rtasida do'stlik, o'zaro hurmat aloqalarini shakllantirishga qaratiladi. Har bir mavzuning ichida bitta loyiha ishi bo'lganligi sababli uni bajarishga 1 hafta muddat beriladi. Demak, har bir mavzu bir haftadan o'tilsa, tajriba-sinov ishi 6 hafta, shuningdek, tajrib-sinov ishining samaralilik darajasini aniqlash uchun 2 hafta umumiy hisobda 2 oyni o'z ichiga oladi. Quyida mavzular ro'yxati va ularni amalga oshirish rejasini havola qilamiz.

Mavzular o'quvchilar real hayotda ko'rgan-bilganlariga asoslanadi. Ular aralash tartibda bo'ladi va qura tashlash yo'li bilan tanlanadi (Bammbozle yoki Spineer interaktiv o'yini orqali).

1. Mavzu nomi: Mening qahramonim

Sinf: 3-4-sinf

Mavzuning maqsadi: O'quvchilarga qahramonlik, jasorat, jasurlik, mardlik kabi tushunchalarni tushuntirish hamda qahramonlik faqat jasorat ko'rsatishda emas, insonning yaxshi hislatlarida, odobida, do'stiga, atrofidagi odamlarga nisbatan qilayotgan munosabatida ham ekanligini turli hayotiy misollar yordamida tushuntirib berish.

O'quvchilar yuqorida keltirilgan hislatlardan bir nechtasini tanlab rangli qog'ozga yozib, bilakka taqiladigan soat yasaydilar va shu soatni yonida o'tiradigan partadoshiga taqib qo'yishadi.

Loyiha ishi: Badiiy asarning tasviriy taqdimoti. Har bir guruh uchun kichik hajmdagi (10-15 betli) asar beriladi. Guruh a'zolari asarni o'qib, uni ifodalaydigan tasviriy sur'at chizishadi.

Loyiha ishini rejalashtirish: Har bir guruh a'zosi quyida keltirilgan bo'limlar asosida loyihani amalga oshirishadi:

- Asarni o'qish va o'qigan qismini so'zlab berish;
- Asar uchun mos tasvir yaratishga g'oyalar berish;
- Eng yaxshi g'oyalarni tanlash;

- d) G'oyalar asosida rasm chizish;
- e) Rasmni bo'yash;
- f) Tayyor bo'lgan rasmlarni taqdim qilish uchun tayyorlash

Loyiha ishi bir hafta muddat ichida yakunlanishi zarur. Bu muddat ichida o'qituvchi o'quvchilarning ishlarini kuzatib, kamchiliklarni bartaraf etishda yordam beradi. Muddat tugagach esa o'quvchilarning ishlari baholanadi va eng yaxshi bajargan guruh sertifikatlar bilan taqdirlanadi. Baholashda o'quvchilarning vazifani bajarishda barcha ishtirok etganligi, hech kim chetda qolib ketmaganligiga e'tibor qaratiladi. Ijodkorlik bilan yondashgan guruhlar ham taqdirlanadi.

NATIJALAR: Loyihaga asoslangan ta'lim yondashuvini tashkil qilishning bir necha bosqichlari bo'lib, ular quyidagilar:

1. Loyiha mavzusini aniqlash va guruhlarni shakllantirish:

Loyihaga asoslangan ta'lim yondashuvini qo'llashdan oldin guruhlarni shakllantirib olish zarur. Guruh ishi hamjihatlikni va o'zaro do'stona muhitni yaratishi uchun tasodifiy tartibda shakllantiriladi. Ya'ni o'qituvchi qura tashlash usulidan foydalanadi. Qura tashlash usulining ham turli o'tkazish yo'llari bo'lib, ulardan biri har bir o'quvchi qutida aralashtirib qo'yilgan qog'ozga yozilgan 1 dan 4 gacha bo'lgan raqamlardan birini tanlaydi va qaysi raqam tushgan bo'lsa, shu raqam yozilgan guruh partasiga borib o'tiradi. Shu tariqa 1 ni tanlaganlar 1-guruh, 2 ni tanlaganlar 2-guruh, 3 ni tanlaganlar 3-guruh, 4 ni tanlaganlar 4-guruh bo'ladi. Huddi shu shaklni raqamni yozmasdan turib, boshqa belgilar, ranglar, geometrik shakllar bilan ham o'tkazish mumkin. Keyin guruh sardorini tanlash kerak bo'ladi. Agar o'quvchilarning o'zlari tanlay olmasalar, unda o'qituvchining o'zi tanlab berishi zarur. Chunki, guruhli ishda sardorning ahamiyati juda katta.

Guruhlarni shakllantirib olingandan so'ng o'quvchilar loyiha ishini boshlashdan avval birinchi qilinadigan ish uning mavzusini tanlash yoki oldindan o'qituvchi tomonidan tanlangan mavzu bo'lsa, shu mavzu bilan tanishishlari kerak. Bizning nazarimizda, loyiha mavzusini o'qituvchining o'zi tanlab berishi o'quvchilarda qiziqish uyg'otmasligi, aksincha topshiriqni bajarishga nisbatan majburlik hissi paydo qilishi mumkin. Loyiha tayyorlash o'quvchilarga zavq berishi, ularda ijobiy do'stona munosabatlarni shakllantirishi zarur. Lekin, mavzuni o'qituvchi tomonidan tanlanishi ularda buning aksiga olib kelishi mumkin. Biroq, bu vazifani o'quvchilarning o'zlariga mustaqil holda ham berib bo'lmaydi. Chunki, ular o'rtasida fikrlarning turlichaligi sababli ziddiyatlar kelib chiqishi mumkin. Buning uchun turli qura tashlash o'yinlarini o'tkazish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu jarayon ham qiziqarli, ham adolatli bo'lishini ta'minlaydi. O'qituvchi mavzu tanlash uchun quyidagi usullarni qo'llashi mumkin:

A) Rasmi kartochkalar yordamida. Bunda o'qituvchi biror mavzuni rasmlarda ifodalagan bo'ladi, masalan, sayohat, rastaran, san'at (musiq, filmlar, konsert) kabilar.

B) Zamonaviy elektron o'yinlar (masalan, Bamboozle, Spineer,...). Bu o'yinlarda ham mavzu nomi yashiringan kartochkalar bo'ladi. O'quvchilar esa kartochkalarni faqat o'ynab yutib olishadi.

C) Konvertlar yordamida. Bu uchun guruh sardorlari oldindan tayyorlab qo'yilgan konvertlardan birini tanlaydilar va loyiha mavzusini e'lon qiladilar.

2. Loyiha ishining maqsadini aniqlash:

Har bir loyiha ma'lum bir maqsadga xizmat qilishi kerak. Huddi shunday, bu bosqichda loyiha mavzusi tanlangach o'qituvchi o'quvchilar bilan birgalikda loyihaning maqsadini aniqlashi kerak. Bu o'quvchilarga loyihani amalga oshirishda katta yordam bo'ladi. Chunki, ular nimani nima uchun qilayotganliklarini anglashlari kerak. Buning uchun o'qituvchi ularga tanlangan mavzulari asosida savol bilan murojaat qilishi mumkin. Masalan, jamoalardan biri maktab tozaligini saqlashga doir mavzu tanlagan. O'qituvchi ularga quyidagi savollarni berishi

mumkin:

• Maktab tozaligi deganda nimani tushunasiz? Maktabni toza ekanligini biz qayerdan bilamiz?

- Maktabning tozaligi biz uchun kerakmi? Nima uchun?
- Sizning maktabingiz tozami? Toza bo'lmasa bunga nima sabab bo'lmoqda?
- Barcha bolalar maktabni toza saqlashga harakat qilyaptimi?
- Uni ifloslantiriyotganlar kimlar?
- Maktabda ishlaydigan tozalik xodimlarining ishlari qanday darajada og'ir deb o'ylaysiz?
- Ularning ishini yengillashtirish uchun nima qilish kerak deb o'ylaysiz?
- Maktabni toza saqlash uchun-chi?

Yuqoridagi kabi savollar bilan o'quvchilarga mavzu nima haqidaligi hamda mavzuni ichidagi muammo bilan tanishtiriladi. Mavzuni yanayam tushunarliroq ochib berish uchun video rolik ham qo'yib berish mumkin. Endi ularda loyiha tayyorlash uchun maqsad shakllanadi.

3. Loyiha rejasini tuzish:

O'quvchilarda tanlangan mavzu bo'yicha tushuncha hosil bo'lgach, ular shu mavzu doirasida muammoni aniqlab bo'lganlaridan so'ng shu muammoni bartaraf etish uchun maqsad qo'yanlaridan keyin qanday loyiha tayyorlash ustida bosh qotiradilar. Bir-birlari bilan maslahatlashib, takliflar bildiradilar. Kichik sinflarda o'qituvchi bu takliflarni eshitishi zarur. Chunki, qaysi taklif maqsadga muvofiqligi va o'quvchilarning yosh hamda iroda-kuch xususiyatlariga mos kelishini biladi va yo'l ko'rsatadi. Qanday loyihani amalga oshirishlari aniq bo'lgach, ular reja tuzishadi. Rejaga: loyiha ishini amalga oshirish vaqti, joyi, kim nima qilishi, kerakli jihozlar ro'yxatini tayyorlash, jarayonning ketma-ketligi kiritiladi.

4. Loyihani tayyorlash:

Bu bosqichda o'quvchilar tuzilgan reja asosida loyiha ishini tayyorlaydilar. Rejaga muvofiq hammaning o'z ishi bo'ladi. Hamma loyihaning qaysidir qiamini tayyorlash bilan band bo'ladi. Jamoa uchun bir-birlariga yordam berishlari mumkin. Bu jarayonda o'qituvchi ularni kuzatib, ular mustaqil bajara olmaydigan ishlarda yordam berishi kerak bo'ladi.

5. Loyihani tugatish va taqdimot qilish:

Bu jarayon loyiha ishini tugatgach, uni taqdim qilishni o'z ichiga oladi. O'quvchilar loyiha ishlarini tamomlagach, uning mazmuni, amalga oshirish jarayoni, tayyor modeli hamda natijalari bilan bo'lishadilar, sinfdoshlari qarshisida taqdimot qiladilar.

6. Loyiha ishini baholash:

Loyiha ishini baholash ikki xil usulda amalga oshiriladi. Birinchisi, ovoz berish orqali ya'ni o'quvchilar yoki taqdimotda qatnashgan o'qituvchi, ota-onalar, maktab xodimlari tomonidan eng yaxshi loyiha ishiga ovoz beriladi. Ikkinchisi esa o'qituvchi yoki ekspertlarning oldindan tayyorlangan qat'iy me'zon orqali. Mezon quyidagi tartibda bo'lishi mumkin:

Baholash mezoni: (Loyiha ishini to'g'ri va sifatli tayyorlaganligiga qarab):

Loyiha ishining bosqichlari	Baholash mezonlari			
	A'lo	Yaxshi	Qoniqarli	Qoniqarsiz
	5	4	3	2
Rejalash	O'quvchilar loyiha rejasini ketma-ketlikda, aniq tuza olishlari	O'quvchilar loyiha rejasini to'g'ri tuza oladilar. Lekin kamchiliklari mavjud.	O'quvchilar loyiha rejasini tuza oladilar, lekin bu rejada aniqlik va izchillik yo'q.	O'quvchilar umuman reja tuza olmaydilar. Faqatgina qog'ozga bir necha qaydlar yzganlar.
Ma'lumotlar yeg'ish	O'quvchilar loyiha ishi uchun to'g'ri va aniq ma'lumotlar to'plaganlar va bu ma'lumotlar loyihaning to'g'ri keladi.	O'quvchilar loyiha ishi uchun to'g'ri va aniq ma'lumotlar to'plaganlar, ammo, bu ma'lumotlar loyihaning maqsadiga to'g'ri kelmaydi.	O'quvchilar loyiha ishi uchun to'g'ri, lekin noto'liq ma'lumotlar to'plaganlar hamda bu ma'lumotlar loyihaning maqsadiga to'g'ri kelmaydi.	O'quvchilar loyiha ishi uchun deyarli ma'lumotlar to'plamaganlar. To'plaganlari esa noto'liq hamda bu ma'lumotlar loyihaning maqsadiga to'g'ri kelmaydi.
Loyihani tayyorlash jarayoni	O'quvchilar loyiha ishini tayyorlash jarayonida to'g'ri va izchil ish olib borishdi. Loyihani maqsadga muvofiq tugallashdi.	O'quvchilar loyiha ishini tayyorlash jarayonida to'g'ri va izchil ish olib borishdi. Ammo loyihani maqsadga muvofiq tugallay olishmadi.	O'quvchilar loyiha ishini tayyorlash jarayonida noto'g'ri ish olib borishdi. Loyihani maqsadga muvofiq tugallay olishmadi.	O'quvchilar loyiha ishini tayyorlash jarayonida deyarli hech nima qilishmadi. Loyihani maqsadga muvofiq tugallay olishmadi.
Taqdim qilish	O'quvchilar tayyor bo'lgan loyihani chiroyli va tartibli tarzda taqdim qilishdi.	O'quvchilar tayyor bo'lgan loyihani chiroyli va tartibsiz tarzda taqdim qilishdi	O'quvchilar tayyor bo'lgan loyihani judayam tartibsiz hamda noto'liq nutq bilan taqdim qilishdi	O'quvchilar tayyor bo'lgan loyihani deyarli taqdim qila olishmadi.

Bilim O'quvchilar loyiha mavzusi va unga qo'yilgan muammoni yaxshi angelaydilar va o'z fikrlarini bildira oladilar. O'quvchilar loyiha mavzusi va unga qo'yilgan muammoni yaxshi angelaydilar, ammo o'z fikrlarini bildirishda qiynaladilar. O'quvchilar loyiha mavzusi va unga qo'yilgan muammoni unchalik yaxshi anglamaydilar va o'z fikrlarini bildira olmaydilar. O'quvchilar loyiha mavzusi va unga qo'yilgan muammoni umuman tushunmaydilar.

Faollik O'quvchilar loyiha ishi bo'yicha o'zlariga yuklatilgan vazifalarni a'lo darajada

bajaradilar va vaqt tugagunga qadar ishni yakunlaydilar. O'quvchilar loyiha ishi bo'yicha o'zlariga yuklatilgan vazifalarni yaxshi darajada bajaradilar va vaqt tugagunga qadar ishni yakunlaydilar. O'quvchilar loyiha ishi bo'yicha o'zlariga yuklatilgan vazifalarni qoniqarli darajada bajaradilar, ammo vaqt tugagunga qadar ishni yakunlashga ulgurmaydilar. O'quvchilar loyiha ishi bo'yicha o'zlariga yuklatilgan vazifalarni qoniqarsiz darajada bajaradilar va vaqt tugagunga qadar ishni yakunlay olmaydilar.

Qobilyat O'quvchilar tayyorlagan loyiha ishi to'g'ri, aniq va kreativ bo'lib, loyiha natijalari ham a'lo darajada bo'ladi. O'quvchilar tayyorlagan loyiha ishi to'g'ri, aniq va kreativ bo'lib, ammo loyiha natijalari a'lo darajada emas. O'quvchilar tayyorlagan loyiha ishi to'g'ri hamda biroz kreativ bo'lsa ham, lekin loyiha natijalari noto'g'ri bo'ladi. O'quvchilar tayyorlagan loyiha ishi noto'g'ri, noaniq bo'lib, loyiha natijalari ham qoniqarsiz darajada bo'ladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR: Inklyuziv ta'lim sharoitida ijtimoiylashuvning ahamiyati juda katta bo'lganligi bois bolalar bilan yuqorida keltirilgan zamonaviy hamda qiziqarli metodlar yordamida alohida yoki darslar bilan integratsiya qilgan holda mashg'ulot olib borish samarali natijalarga olib keladi. Zero, ijtimoiy muhit bolalarning ta'lim-tarbiyasiga katta ta'sir ko'rsatadi. Gresham, Sugai va Horner (2001) [13] ta'kidlashicha, ijtimoiy ko'nikmalar bilan bog'liq muammolar o'quvchilarning akademik rivojlanishiga to'sqinlik qiladigan ko'plab yuqori darajadagi nogironliklarni aniqlashda asosiy mezondir, masalan, o'rganishdagi o'ziga xos nuqsonlar, diqqat yetishmasligi, giperaktivlik buzilishi, aqliy zaiflik va hissiy buzilish. Shu sababli, o'quvchilarga ijtimoiy ko'nikmalarni o'rganishiga yordam berish - bu nogironlik turlarining maktab muvaffaqiyatiga ta'sirini minimallashtirishga qaratilgan faol yondashuv hisoblanadi. Shunday ekan, inklyuziv ta'limni joriy qilishdagi ijtimoiylashuv muammolariag befarq qaramaslik, uni barataraf etish uchun zamonaviy metod-yondashuvlarni qo'llash dolzarb masaladir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Shomahmudova.R.Sh. "Maxsus va inklyuziv ta'lim". Uslubiy qo'llanma. "CHASHMA PRINT". 2011.
2. Fayziyeva.U. "Inklyuziv ta'limning istiqbollari". Maktab va Hayot. 2-son. 3-4 b. 2021 y.
3. Kasimova.M.M. "Inklyuziv ta'limda boshlang'ich sinf alohida ta'limga ehtiyoji bo'lgan bolalarni psixologik-pedagogik qo'llab-quvvatlash". 14-15 b. Maktab va Hayot. 8-son. 2022 y.
4. N.Ismoilova, D.Abdullayeva. Ijtimoiy psixologiya. O'zbekiston faylasuflari jamiyati nashiryoti. Toshkent. 2013. 168 bet
5. Musaeva N.S. The Specificity of the Communication Process of Children with Disabilities. International Journal of Progressive Sciences and Technologies (IJPSAT) Vol. 20 No. 2 May 2020. pp. 04-06
6. Н. М. Назарова. Инклюзивное обучение: историческая динамика и перспектив
7. Kisanji J. Historical and Theoretical Basis of Inclusive Education. Keynote address for the Workshop on «Inclusive Education in Namibia: The Challenge for Teacher Education», 24-25 March 1999, Rossing Foundation, Khomasdal, Windhoek, Namibia
8. F.U.Qodirova, D.A.Pulatova. "Inklyuziv: ta'lim nazariya va metodika". Darslik. Chirchiq. 2022
9. Musayeva. N.S, Tolibjonova.D. "Inklyuziv ta'lim ta'limning imkoniyati cheklangan bola hayoti va ta'limida tutgan o'rni". "Inklyuziv ta'limning dolzarb masalalari: muammo va ularning yechimlari", Qo'qon davlat pedagogika instituti. 215-219 betlar.
10. Cocco, S. (2006). Student leadership development: the contribution of project-

based learning. Unpublished Master's thesis. Royal Roads University, Victoria, BC

11. Blumenfeld, P., Fishman, B.J., Krajcik, J., Marx, R.W. & Soloway, E. (2000). Creating usable innovations in systemic reform: scaling up technology-embedded project-based science in urban schools. *Educational Psychologist*, 35(3), 149-164.

12. Hasanatul Hamidah, Talitha Ardelia Syifa Rabbani, Susi Fauziah, Rizma Angga Puspita, Reski Alam Gasalba, Nirwansyah "Project based learning". SEAMEO QITEP in Language. 2020.

13. National Association of Special Education Teachers. "Promoting positive social interactions in an inclusion setting for students with learning disabilities". NASET LD Report #7. 1-11 p.

14. Problem based learning. Computers and Communication Technology.

NEYRODIDAKTIKA – NEYROPEDAGOGIKANING SOHASI SIFATIDA

Sobirova Moxira Rasulovna

Buxoro Davlat Pedagogika Instituti “Pedagogik ta’lim” kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya. Neyrodidaktika ta’lim jarayonida miya faoliyatini tushunish uchun neyrofanlar hamda ta’lim sohalarini birlashtiradi va o‘qitishni takomillashtiruvchi pedagogik yondashuvlarni taklif qiladi. Bu yondashuvlar bolaning har tomonlama rivojlanishiga, keng qamrovli ta’lim olishiga ko‘maklashadi. Shuningdek, ta’lim jarayonini rag‘batlantiruvchi hamda to‘xtatuvchi omillar ta’sirida xotiraning rivojlanishi, hissiyotlarni boshqarish va ularning ta’lim bilan o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish imkonini beradi. Ushbu maqola neyrodidaktikaning nazariy asoslariga bag‘ishlangan bo‘lib, neyropedagogika fanining imkoniyatlari haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: Neyropedagogika, neyrodidaktika, psixologiya, neyrofiziologiya, bosh miya faoliyati, ta’lim nazariyasi, didaktika, neyrofanlar, neyroo‘yinlar, plastiklik.

НЕЙРОДИДАКТИКА КАК ОБЛАСТЬ НЕЙРОПЕДАГОГИКИ

Аннотация. Нейродидактика объединяет нейронауки и области образования для понимания деятельности мозга в образовательном процессе и предлагает педагогические подходы, совершенствующие обучение. Эти подходы способствуют всестороннему развитию ребенка и получению комплексного образования. Кроме того, она позволяет изучать развитие памяти, управление эмоциями и их взаимосвязь с обучением под влиянием стимулирующих и тормозящих факторов образовательного процесса. Данная статья посвящена теоретическим основам нейродидактики и рассматривает возможности нейропедагогике.

Ключевые слова: Нейропедагогика, нейродидактика, психология, нейрофизиология, деятельность головного мозга, теория обучения, дидактика, нейронауки, нейроигры, пластичность.

NEURODIDACTICS AS A FIELD OF NEUROPEDAGOGY

Annotation. Neurodidactics integrates neuroscience and education to understand brain activity in the learning process and offers pedagogical approaches that enhance teaching. These approaches contribute to the comprehensive development and well-rounded education of the child. It also enables the study of memory development under the influence of factors that stimulate or inhibit the educational process, as well as emotion management and its relationship with learning. This article is dedicated to the theoretical foundations of neurodidactics and discusses the potential of the field of neuropedagogy.

Keywords: Neuropedagogy, neurodidactics, psychology, neurophysiology, brain activity, educational theory, didactics, neuroscience, neuro-games, plasticity.

Kirish. Bugungi kunda ilm-fanning rivojlanishi barcha sohalar singari ta’lim sohasiga ham o‘z ta’sirini ko‘rsata boshladi. Ta’lim inson hayotining ajralmas bo‘lagi bo‘lib, har qanday ta’limning asosini atrofda voqelikni, o‘zini va boshqalarni bilish kabilarni tashkil etadi. Inson miyasining xususiyatlari tufayli ma’lumotlarni tizimlashtirish, tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, tasvirlar bilan ishlash, o‘quv faoliyatini tartibga solish va boshqarish imkonini beradi.

Adabiyotlar tahlili. Zamonaviy raqamli jamiyatda neyrofanlar (neyrobiologiya, neyrofiziologiya va neyropsixologiya)ning rivojlanishi keng tarqala boshladi. Nobel mukofoti sovrindorlari fanlar taraqqiyotini tahlil qilib, bugungi kunda tadqiqot yo‘nalishining eng

muhim yoʻnalishi sifatida inson miyasi faoliyatining psixofiziologik xususiyatlari bilan bogʻliq sohalarni oʻrganishdir, degan xulosaga keladilar.

XX asr boshlarida V.I.Vernandskiy psixologiya fanlarining mohiyatini asoslashga harakat qilib, XXI asrni “psixozoy” davri boʻlishini taʼkidlagan edi. Atoqli psixolog olim A.G.Asmolov 2002-yilda bu fikrni rivojlantirib, “jamiyatning kelajakdagi taraqqiyotini psixologiya belgilaydi” degan farazni asoslab beradi. Shunga koʻra, fanlar tizimida neyropsixologiya va neyrofiziologiya asosiy oʻrinni egalladi. Neyrofanlar yutuqlari asosida yaratilgan neyrotexnologiyalar ishlab chiqarishda, muhofaza tuzilmalarida, OAVda va, albatta, taʼlim sohasida keng qoʻllanila boshlandi. Soʻnggi 10 yil ichida neyropsixologiyada yangi fanlararo yoʻnalish neyrotaʼlim yoʻnalishi paydo boʻldi. Uning predmeti miya va nerv sistemasi kognitiv funksiyalarining taʼlimiy imkoniyatlari, maqsadi esa taʼlim oluvchilarning bilish va ijtimoiy-kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishdir.

L.S.Vigotskiyning “Oliy psixik funksiyalarning rivojlanishi” (Развитие высших психических функции (1931)) va A.R.Luriyaning “Neyropsixologiya asoslari” (Основы нейропсихологии (1973)) fundamental ishlarida neyrotaʼlimning nazariy-amaliy asoslari koʻrib chiqilgan. Neyropedagogika va neyrodidaktika neyrotaʼlimning ilmiy-amaliy sohalari sanaladi.

Muhokama va natijalar. Neyrodidaktika – bu miya faoliyatini tadqiq qilishga qaratilgan, taʼlim strategiyalari va texnologiyalarini joriy etishga asoslangan oʻqitishning yangicha yoʻnalishi. U taʼlim jarayonini takomillashtirish maqsadida neyrofanlar, psixologiya va taʼlim sohasidagi bilimlarni birlashtiradi. Neyrodidaktika neyro va pedagogika fanlari oʻrtasidagi bogʻlovchi fan sifatida taʼriflanadi, bunda pedagogik psixologiya hal qiluvchi ahamiyatga ega.

Neyropedagogika taʼlim oluvchilarni oʻqitish va tarbiyalash jarayonida miya psixik funksiyalarining imkoniyatlarini oʻrganadi. Bu imkoniyatlar shaxsning bilish faoliyati hamda ijtimoiylashuv sifatlarini rivojlantirishni taʼminlaydi, shuningdek, xulq-atvorning ogʻish shakllarini korreksiyalashga yordam beradi.

Neyrodidaktika – neyrofan va pedagogik bilimlarni uygʻunlashtirgan yangi soha boʻlib, taʼlim jarayonida miya faoliyatini oʻrganishga qaratiladi. Bu yondashuv miyaning ishlashini qanchalik chuqur anglash orqali pedagogik usullar shunchalik samarali boʻlishiga asoslanadi. Taʼlim bir xil yoki chiziqli jarayon emas, shu bois neyrodidaktika miya ilmi tamoyillariga tayangan holda oʻquvchilarning ehtiyojlariga moslashtirilgan individual usullarni ishlab chiqishga koʻmaklashadi. Shu nuqtayi nazardan, neyrodidaktika bolalarning qanday taʼlim olishi, oʻqituvchilar taʼlim jarayonida bolalarning kognitiv, hissiy va ijtimoiy rivojlanishini ragʻbatlantirish uchun ushbu bilimlardan qanday foydalanishlari mumkinligiga alohida eʼtibor qaratadi. Oʻqitishning neyrokognitiv nazariyasiga koʻra, neyrodidaktikada uchta mustaqil tadqiqot yoʻnalishi aniqlangan:

- bosh miya va asab faoliyatining biologiyaga asoslangan yoʻnalishi – neyrofiziologiya;
- axborotni qayta ishlash va tajribaning ichki reprezentatsiyasini oʻrganuvchi kognitiv fanlar;
- taʼlim nazariyasi – u bizning atrof-muhit bilan umumiy tarzda qanday oʻzaro taʼsir qilishimiz va unga moslashishimiz haqida maʼlumot beradi .

Taʼlim jarayoni bilan bogʻliq neyrotadqiqotlar vaqt oʻtgan sari koʻpayib bormoqda, biroq hozircha bu ilmiy yoʻnalish nazariy-metodologik asosga va amaliy yoʻnalishlarga ega boʻlgan ilmiy tizim sifatida shakllanmagan. Bugungi kunda neyrodidaktikaning quyidagi dolzarb vazifalari mavjud:

- psixolog va pedagoglarni oʻqitish dasturlariga kognitiv neyrofan kurslarini kiritish, bu kurslar nafaqat kognitiv faoliyatning miya mexanizmlarini, balki oʻquv koʻnikmalarining odatiy va gʻayriodatiy rivojlanishini, miya rivojlanishida taʼlim va madaniyatning oʻrnini hamda boshqa jihatlarni yoritib berishi lozim;

- ilmiy ma'lumotlardan noo'rin foydalanishning oldini olish maqsadida miya faoliyatini o'rganish usullarining imkoniyatlari va cheklovlarini yanada faolroq muhokama qilish;
- neyrobiologlar, psixologlar va pedagog-tadqiqotchilar hamkorligini ko'zda tutuvchi fanlararo tadqiqotlar o'tkazish.

Hayotning dastlabki yillari miya rivojlanishi uchun juda muhim sanalanadi, chunki aynan shu davrda o'rganishni ta'minlaydigan asosiy neyron aloqalar shakllanadi. Neyrodidaktika o'yin orqali ta'lim berish va hissiy jihatdan xavfsiz o'quv muhitini yaratish kabi usullar yordamida rivojlanishning ushbu muhim bosqichlarini optimallashtirishga yordam beradi. Bu esa yaxlit va keng qamrovli ta'limni rag'batlantiradi.

Neyrodidaktikaning asosiy tamoyillaridan biri miya plastikligidir. Plastiklik – nerv hujayralarining turli darajada faoliyat ko'rsatish, miyaning turli funksional qismlari (murakkab neyron tizimlari)ni shakllantirish, tashqi va ichki muhitning ko'plab omillariga muvofiq o'z ish ko'rsatkichlarini o'zgartirish, yangi turdagi masalalarni yechishda neyron tarmog'ining zarur bo'g'inlarini qayta tuzish va to'ldirish qobiliyati bo'lib, miyaning butun umr davomida rivojlanishini anglatadi. Ushbu bilim nafaqat ma'lumot uzatishga, balki bolaning hissiy holati, uning oldingi tajribasi va o'quv muhitini ham hisobga oladigan pedagogik yondashuvlarning shakllanishiga olib keldi. Shuningdek, miya nafaqat passiv ma'lumot qabul qiluvchi, balki atrof-muhit bilan o'zaro ta'sir natijasida shakllanadigan faol a'zo sanaladi.

O'yinga asoslangan ta'lim neyrodidaktikaning muhim tamoyillaridan biri bo'lib, turli xildagi ta'limiy o'yinlar (ko'rish, eshitish, sezgi qobiliyatlarini rivojlantiradigan o'yinlar) neyrodidaktikaning asosiy vositasi hisoblanadi. Bu o'yinlar miyaning turli sohalarini rivojlantiradi va faollashtiradi. Tadqiqotlarga bu o'yinlar bolaning kognitiv, hissiy va ijtimoiy ko'nikmalarini sezilarli darajada yaxshilangani aniqlangan. Ta'lim jarayoniga turli neyrodidaktik o'yinlarni joriy qilish orqali (bir vaqtni o'zida turli sezgi organlarini (ko'rish, eshitish, teri sezgisi) qo'zg'atish orqali) miyaning turli qismlarini faollashtirishga olib keladi, bu esa mustahkam va uzoq muddatli neyron aloqalarni shakllantirishni osonlashtiradi. Bolalarni neyroo'yinlar orqali o'qitish:

– Ijoiy hissiy muhitni yaratiladi, o'quvchilar orasida ishonchli va samimiy munosabatlar shakllanadi;

– Dars davomida o'qitishning turli usullaridan hamda rasm, video, musiqa, interfaol metodlar, kompyuter dasturlari, planshetlar hamda boshqa texnologiyalardan foydalanish orqali bolaning xotirasi mustahkamlanadi (har bir darsni o'ziga xos tarzda eslab qoladi), sezgi organlari rivojlanadi. Shu orqali o'zlashtirishga qiyinchilik sezayotgan bolalarga yordam ko'rsatiladi hamda neyrobilimlar miya faoliyatini o'rganishga va o'quv jarayonini shu bilimlarga asoslanib moslashtirish hamda;

– Metakognitiv ko'nikmalarni rivojlantirish orqali bola fikrlarini anglashi, tushunchalarini nazorat qilishi, shuningdek, muammoli vaziyatlarda optimal qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

Shuningdek, o'yinlar bolaga zavq bag'ishlashdan tashqari, miyaning ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, muammolarni hal qilish va ijtimoiy o'zaro ta'sir bilan bog'liq asosiy sohalarini faollashtiradi. Bundan tashqari, o'yinlar boladagi stressni kamaytiradi hamda uning axborotni qabul qilishini osonlashtiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, neyrodidaktika ta'lim jarayonining yaxlit va keng qamrovli yondashuvi sanaladi. Chunki, neyrodidaktika bolaning bilish jarayonlari bilan qatorda hissiy va ijtimoiy jihatlarini qamrab oladi. Shuningdek, miya faoliyati borasida olib borilgan ilmiy yutuqlarni pedagogik amaliyotga joriy etish orqali ta'limni individuallashtirishga hamda bolalarning har tomonlama rivojlanishiga yangi imkoniyatlarni ochib beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Anderson O. R. Neurocognitive Bases for Constructivism in Education // Paper presented at the meeting of the International Conference on Thinking and Education. Ponce; Puerto

Rico, 1999. P. 67–79.

2. Bruer J. T. Education and the brain: a bridge too far // Educational Research. 1997. No. 26. P. 4–16

3. Костромина С. Н., Бордовская Н. В., Искра Н. Н. и др. Нейронаука, психология и образование: проблемы и перспективы междисциплинарных исследований // Психологический журнал. 2015. Т. 36, № 4. С. 61–70.

4. Костромина С. Н. Введение в нейродидактику: учебное пособие. — СПб.: Изд-во С.-Петербур. ун-та. 2019. — 182 с.

5. Куликова, О.В. Нейродидактический подход как фактор повышения качества обучения иноязычному профессиональному общению / О.В. Куликова // Вестник Москов. гос. лингвист. ун-та. Образование и пед. науки. – 2014 – № 14 (700). – С. 107–114. DOI: 10.52070/2500-3488_2022_1_842_107

6. Хризман Т.П. Развитие функций мозга детей. Л.: Наука, 1978. 128 с. 14.

7. Neurodidaktik: theoretische und praktische Beiträge / Editor G. Preiß. Pfaffenweiler: Centaurus-Verl.-Ges; 1996. 210 p

8. Wahyudi, W., Waluya, St.B., Suyintno, H., Isnarto, M. Effectiveness of 3CM learning model with blended learning on improving creative thinking ability in mathematical problem solving. 2018, In proceedings of the International Conference on Science and Education and Technology <https://doi.org/10.2991/iset-18.2018.117>

9. Welsh J. A., Nix R. L., Blair C. et al. The development of cognitive skills and gains in academic school readiness for children from low-income families // J. Educ. Psychol. 2010. Vol. 102. P. 43–53.

10. Wilhelm I., Diekelmann S., Molzow I. et al. Sleep selectively enhances memory expected to be of future relevance // The Journal of Neuroscience. 2011. Vol. 31. P. 1563–1569.

TEKNOLOGIYA FANIDAN SINFDAN TASHQARI ISHLARDA DIDAKTIKANI AHAMIYATI

Egamova Ravshanoy Surobjonovna
Qo'qon davlat pedagogika instituti doktoranti

Annotatsiya: Mazkur tadqiqot olib borishdan maqsadi o'qituvchi va o'quvchi, o'qitilayotgan fan, didaktik materiallar, didaktik tamoyillar orasidagi munosabatlarning qonuniyatlarini aniqlash. Bu boradagi buyuk olimlarning qarashlari ko'rsatib o'tilgan. Ta'lim jarayonida o'quvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi.

Kalit so'zlar: didaktika, dialektik, analiz, Induktiv tafakkur, taqqoalash, Deduktiv xulosa, substansiya, ta'lim-tarbiya.

ЗНАЧЕНИЕ ДИДАКТИКИ В ТЕХНОЛОГИИ ВНЕ КЛАССА

Абстрактный: Целью данного исследования является определение закономерностей взаимоотношений между учителем и учеником, преподаваемым предметом, дидактическим материалом и дидактическими принципами. Показаны взгляды великих учёных на этот счёт. В ходе обучения теоретические знания, заложенные в сознании студентов, дополнительно закрепляются с помощью практической деятельности.

Ключевые слова: дидактика, диалектика, анализ, индуктивное мышление, размышление, дедуктивный вывод, содержание, образование.

THE IMPORTANCE OF DIDACTIC IN TECHNOLOGY OUTSIDE THE CLASSROOM

Abstract: The purpose of this research is to determine the laws of the relationship between the teacher and the student, the taught subject, didactic materials, and didactic principles. The views of great scientists in this regard have been shown. In the course of education, the theoretical knowledge instilled in the minds of students is further strengthened with the help of practical activities.

Key words: didactics, dialectic, analysis, inductive thinking, comparison, deductive conclusion, substance, education.

«Didaktika» grekcha so'z bo'lib, «didasko» — «o'qitish», «didachol» — «o'rganish», degan ma'nolarni anglatadi. «Didaktika» so'zining ma'naviy tarjimasini «ta'lim nazariyasi» demakdir. Ta'lim nazariyasi — ta'lim jarayoni tushunchasi va mohiyatini, ta'lim tamoyillarini, ta'lim mazmunini, ta'lim metodlari, shakllari va vositalari mazmunini aks ettiradi. Ta'lim nazariyasinnig asosiy mohiyati ta'limni tashkil etishdan iborat. Ta'limni tashkil etishdan asosiy maqsad yosh avlodni ilmiy bilimlar, ko'nikma va malakalar tizimi bilan qurollantirishdir. Didaktikaning tadqiqot predmeti ta'lim-tarbiya jarayonini tashkil qiluvchi funksional bog'lanishdir. Didaktikaning tadqiqot olib borishdan maqsadi o'qituvchi va o'quvchi, o'qitilayotgan fan, didaktik materiallar, didaktik tamoyillar orasidagi munosabatlarning qonuniyatlarini aniqlash. Ta'lim jarayonida o'quvchilar ongiga singdirilayotgan nazariy bilimlar amaliy faoliyat yordamida yanada mustahkamlanadi. Amaliyot inson bilishining asosiy manbaidir. U o'zlashtirilayotgan nazariy bilimlarning asosli ekanligini ko'rsatuvchi haqiqiy mezondir. Inson tevarak-atrofdagi voqelik, narsa va hodisalarning mohiyatini amaliy hayotda ularga to'qnash kelish yo'li bilan bilib oladi, ularni o'zlashtiradi. Inson amaliy faoliyat tufayligina ijtimoiy, ishlab chiqarish faoliyati jarayonida tashkil etuvchi munosabatlar, shuningdek, tabiat hodisalari sirini bilib oladi. Ta'lim – dialektik (dialektik-mohir munozarachi)

tarzda taraqqiy etib boradigan ichki ziddiyatli jarayon bo'lib, unda ikki tomon – o'qituvchi va o'quvchi ishtirok etadi. Ta'lim berish o'quvchilarga bilimlar berish, ularda ko'nikma va malakalar xosil qilish, yangi haqiqatlarni ochishga yo'naltirilgan ijodiy, mantiqiy tafakkurni tarbiyalashdir. O'qish esa o'quvchilarning o'zlashtirish, o'qish qobiliyati, fikrlash xamda muayyan xarakatlarni hosil qilish jarayoni sanaladi. [1. B. 58]

O'qish jarayonida o'quvchilar ma'lum bo'lmagan, anglanmagan ma'lumotlarni o'zlashtira boradilar. O'tish jarayoni to'rtta asosiy bosqichdan tashkil topadi:

- 1) O'zlashtirilishi lozim bo'lgan materialni idrok etish;
- 2) Uni faxmlab olish, tushunchalar xosil bo'lishi;
- 3) Bilimlarni mustahkamlash va takomillashtirish, ko'nikma va malakalarning hosil bo'lishi;
- 4) Hosil qilingan ko'nikma va malakalarni amalda qo'llash;

Har bir bosqich uchun o'quvchilarning muayyan xarakterdagi bilish faoliyati xarakterlidir. Bu faoliyat o'qituvchi tomonidan alohida rahbarlikni talab etadi. Ta'lim jarayonining boshlang'ich bosqichida o'zlashtirilayotgan bilimlar mohiyati analiz va sintez metodlari yordamida anglanadi. Analiz (lot. «analysis» - bo'laklarga ajratish) - narsa va voqea hodisalarni tarkibiy qismlarga, bo'laklarga ajratishdir. Masalan, anor qattiq po'sti, qat-qat parda va donachalarga ajratiladi. Sintez (lot. synthesis - birikish, qo'shilish) analizga qarama-qarshi bo'lgan fikrlash jarayonidir. Unda o'rganilayotgan narsa va hodisalarning aloxida qismlari, bo'laklari bir butun qilib birlashtiriladi.

O'quvchilarning fikrlash faoliyati taqqoslashda ham namoyon bo'ladi. Taqqoslash - narsa va hodisalardagi tafovut hamda o'xshashlikni, tenglik va notenglikni topa olishga yo'naltirilgan fikrlash operatsiyasi demakdir. Induktiv va deduktiv tafakkur o'quv materialini tushunib olishda muhim ahamiyatga ega. Induktiv tafakkur (lot «indectio» - keltirib chiqarish) - juz'iy yoki yakka hollardan umumiyga, ayrim dalillardan umumlashmalarga qarab boradigan, xulosa chiqarishga asoslangan mantiqiy bilish metodi, tafakkur shakllaridan biridir.

Deduktiv xulosa (lot. «deductio» - ikkiga ajratish, keltirib chiqarish) - umumiy hukmlardan yakka hukmlarga qarab borish orqali mantiqiy xulosa chiqarishdan iborat metoddir. Tafakkur va deduktiv xulosa metodlaridan foydalanish asosida o'quvchilarda tushunchalar hosil bo'ladi. Tushuncha – voqelikdagi narsa va hodisalarning muxim belgi va xususiyatlarini bir so'z yoki so'zlar birikmasi bilan ifodalashdan iborat tafakkur shakli. ta'lim jarayonining dialektik xarakterga egaligi bois tushunchalar asta-sekin chuqurlashib va murakkablashib boradi. [2. B.47-59]

Ma'lumotlarning o'zlashtirilishi, tushunchalarning tarkib topishi bilimlarni o'zlashtirib olishning umumiy jarayonidagi muhim vaziyat hisoblanadi. O'rganilgan materialni mulohaza qila olmaslik, uni ta'lim va mexnat faoliyatida mustaqil qo'llay bilmaslik, ularga nisbatan ijodiy yondashmaslik bilimlarining yuzaki o'zlashtirilishiga olib keladi.

2. Didaktika faniga asos solgan olimlar. Yaqin va O'rta Sharqda Xorazmiy, Kindiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom kabi mutafakkirlar ilmiy didaktikaga asos solgan bo'lsalar, Yan Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog I.G. Pestalotssi, nemis pedagogi A. Disterveglar Yevropada didaktikaning rivojlanishiga katta hissa qo'shdilar. Xorazmiy, Kindiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Tusiy va ularning izdoshlari qarashlarining muhim xususiyati shundan iborat ediki, mazkur olimlar doimo predmetning qiyofasi inson ongida mavxumlashuvi jarayoniga, mana shu predmetning moxiyati va o'ziga xosligini tushunish sodir bo'lishi xamda shakllanishiga e'tibor berganlar. Ular bilishning predmeti manbalariga, bilish jarayoni qanday bosqichlardan tarkib topishiga, bilish faoliyati bilan amaliy faoliyat o'rtasidagi munosabatlarga qiziqqanlar.

Xorazmiy shaxsning uzluksiz kamol topishi nazariyasini rivojlantirish borasida muhim xizmat qildi, induktiv (induktiv-juz'iy hodisalardan umumiy natija chiqarish, ayrim faktlardan

umumiy xulosaga kelish) va deduktiv (deduktiv-umumiy holatdan xususiy xulosaga kelish, xususiy xulosalar chiqarish) tafakkurdagi alohidalik hamda umumiylikning birligi prinsipini muayyanlashtirdi. Kindiy substansiyani (doim harakatlanib, o'zgarib, rivojlanib turadigan materiya, butun borliqning birlamchi asosi) barcha ilmiy bilimlarining bosh predmeti sifatida ko'rib chiqishda, eng avvalo, miqdor va sifatni xissiy idrok etish zarurligini tasdiqladi. Kimki miqdor va sifatni bilmasa, u substansiyani (doim harakatlanib, o'zgarib, rivojlanib turadigan materiya, butun borliqning birlamchi asosi) bilishdan xam maxrumligini uqtirdi. Olim o'zining didaktik g'oyalarida xissiy va rasional (aql-idrokka asoslangan, maqsadga muvofiq, oqilona, ma'qul, to'g'ri (masalan to'g'ri foydalanish)) bilishni ifodaladi. [3. B. 22]

Hissiy bilish-yakka narsani bilishdan iborat bo'lsa, ratsional bilish-umumiy narsalarni bilish ekanini ta'kidladi. Uning fikricha, hissiy bilish faqat aql uchun material beriladi. Sabablar haqiqatni bilishda va o'zining ana shu haqiqatga muvofiq xatti-harakatlarini anglashda insonning aqliga ko'maklashadi. «haqiqat - deb yozgan edi.

Kindiy, - har qanday narsani va uning barqarorligini bilishning sababidir, binobarin, xayotdagi mavjud xamma narsa xaqiqiyliigi bilan mavjuddir. Xaqiqatni bilish zarur va shunga ko'ra mavjud narsalarni bilish mumkin». Forobiy o'qitish metodlarining tasnifini ishlab chiqqan. Ularni amaliy va nazariy metodlarga ajratgan, shu tariqa o'qitishning amaliy yo'nalishi va kishilarning hayoti hamda kundalik faoliyati bilan bog'liqligi g'oyalarini olg'a surgan. Olim o'qitishining tajriba ko'rsatmali, induktiv va deduktiv, amaliy metodlarga alohida e'tibor bergan. Barcha metodlarni o'quvchining hayotiy tajribasiga, mantiqiy tafakkuriga tayangan holda birlashtirgan. O'quv jarayonini tashkil etishga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqishda deduktiv metodni ustun qo'yib, o'quvchilarga materialni tushuntirishda nimalaga e'tibor berish xaqida, eng muxim narsalarni fanga ishonchli bilimlar beradigan va shubhalantirmaydigan dalillar bilan yoritish va hakazolar bo'yicha o'quvchilar uchun qimmatli tavsiyalarni bayon etgan. Forobiy matematika fani asosida o'qitishning ilmiylik, ko'rsatmalilik, tushunarlik va izchillik prinsiplarini ishlab chiqqan. Beruniy «o'qitish va takrollash orqali dunyoning tuzilishini, osmonning va yerning shakllarini bilish astronomiya fani uchun g'oyatda foydalidir. Binobarin, ana shu tariqa ta'lim oluvchi malaka hosil qiladi va mazkur san'at axli ishlatadigan so'zlarni o'rganadi, bu so'zlarning ma'nosini anglaydi. Keyinchalik astronomiya fanidagi turli sabablar va isbotlarni o'rganishda ana shunday so'zlar uchrasa, ularni bemalol tushunib boraveradi va u yoki bu narsalarni o'zlashtirishda charchamaydi».

Beruniy ta'kidlaganidek, o'qitish izchil, ko'rsatmali, maqsadga muvofiq bo'lishi va ma'lum tizimda olib borilishi lozim. Binobarin, ko'rsatmalilik ta'limning tushunarliroq, muayyanroq va qiziqarliroq bo'lishini ta'minlaydi, tafakkurini rivojlantiradi. Ibn Sinoning fikricha buyumlarni chinakam bilishga tashqi ko'rinishni taxlil qilish, sabablarini aniqlash asosida aql bilan erishiladi. U aqlning rivojlanish bosqichlarini ishlab chiqqan. Mushoxada bilan idrok qilishning birinchi bosqichi aqliy kategoriyalarini tushuntirishdir. Ikkinchi bosqich ikki xil fikrni idrok etishdir. Aqliy rivojlanishning uchunchi bosqichiga o'zlashtirilgan fikrlarni idrok etish bilan erishiladi. Shunda uni haqiqiy aql deyiladi. Aqliy faoliyat 1-bosqich 2-bosqich Yodlay oladigan (yoza olmaydigan, xarflarni, siyoh va qalamni bilmaydigan) bola aqli tasavvur qilinadi. 3-bosqich Ta'eqchalarni chiza boshlagan, qalamdan foydalanishni o'rgana'etgan bolaning aqli tasavvur qilinadi. qilinadi. inson aqliy shakllarni va ularga muvofiq xissiy obrazlarni egallagan bo'ladi. Aqlning rivojlanish bosqichlari Ibn Sino aql deganda insonning tug'ma iste'dodini, shuningdek, tajriba asosida va bilish jarayonida shakllanadigan fikrlash qobiliyatini tushunidi. Aqlni insonning birlamchi tug'ma sog'lom fikrlashi, yaxshi va yomon ishlarni vujudga keltiradigan, farqlantiradigan kuch, deb ta'riflaydi. Inson aql yordamida narsalar va xodisalarni tahlil qiladi, umumlashtiradi hamda ularning eng yaxshilarini tanlaydi, deb uqtiradi. [4. B. 31]

U aqlni ikki kategoriyaga ajratadi.

1)-nazariy aql bo'lib, borliqdagi umumiy narsalarning mohiyatini idrok etishdir

2)-amaliy aql bo‘lib, uyumlarni tanlashda turtki sifatida ko‘rinadigan qobiliyatdir. A. Avloniy, ilm-tarbiya jarayonida o‘zlashtiriladi va yaxshini yomondan, ezgulikni yovuzlikdan, joizni najoizdan farqlash imkonini beradi, deb hisoblaydi. U tarbiya bilan ta‘limning birligi muammosini ishlab chiqadi.

X.X. Niyoziy o‘z tadqiqotlarida tovushli savod o‘qitish metodini ishlab chiqqan. Uning tadqiqotidagi asosiy g‘oya o‘qitish va tarbiyalashga kompleks yondoshish, yoshlarning aqliy, axloqiy va estetik tarbiyasini o‘zaro bog‘liq xolda amalga oshirishdan iborat edi. Yuqoridagi asarlarning nomlaridan va pedagogik fikrlardan ayon bo‘ladiki, mazkur mualliflar didaktikaga o‘qitish san‘ati sifatida, shuningdek, o‘ziga xos amaliy ko‘nikma sifatida qaraganlar. 3. Didaktikaning fan sifatida rivojlanishiga xissa qo‘shgan olimlar. Yan Amos Komenskiyning —Buyuk didaktika asari haqida.

Didaktika so‘zi ilk bor nemis pedagogi Volfgan Ratke (Ratixiya) (1571-1635) asarlarida o‘qitish san‘ati sifatida ifodalangan. Yan Amos Komenskiy bu so‘zni (1592-1670) «Hammaga hamma narsani o‘qitishning universal san‘ati ifodalangan buyuk didaktika» shaklida ifodalagan. U didaktika faqat o‘qitish san‘atidagina emas, balki tarbiyalash san‘atidan xam iboratligini qayd qilgan. Va tarbiya xar tomonlama axloqiylik yo‘nalishidagi fe‘l-atvorni shakllantirishining zarur sharti ekanini xam o‘qtirgan. Uning bu boradagi fikr-muloxazalari 1657 yilda nashr etilgan «Xammaga xamma narsani o‘qitishning universal san‘ati ifodalangan buyuk didaktika» nomli asarida bayon qilingan. Didaktikani yuqoridagicha tushunish XIX asr boshigacha, ya‘ni taniqli nemis pedagogi va faylasufi Iogan Genrix Gerbart (1776—1841) didaktikaning asosiy nazariyasini ishlab chiqqunicha davom etgan. Binobarin u didaktikani pedagogikaga bo‘ysunadigan tarbiyalovchi ta‘limning yaxlit va ziddiyatsiz nazariyasi sifatida talqin qiladi. [5. B. 78] Gerbart va xususan uning izdoshlari ana shu nazariyaning rolini xisobga olib didaktikaning asosiy vazifasini — darsda bayon qilinadigan material ekanini rad etdilar: Gerbart konsepsiyasiga muvofiq o‘qituvchi asosan o‘quvchilarni yangi o‘quv material bilan tanishtirishga doir xarakterlarini taxlil qilishi lozim edi. XI I I asrda shveysariyalik pedagog I.G.Pestalotssi kamol toptiruvchi ta‘limning prinsiplari tizimini asosladi. XIX asrda esa nemis pedagogi A. Disterveg o‘zining «Nemis o‘qituvchilari uchun» qo‘llanmasida o‘quv jarayonini faollashtiradigan talablarning butun bir kompleksini taklif qildi. Fan va texnika shunday tezlikda taraqqiy topmoqdaki, maktab ta‘limi bilan ularning ketidan quvib yetish mumkin emas. Lekin maktabni bitirgan yoshlar albatta o‘zlari bilmaydigan ilmiy kashfiyotlarga, jamiyatni rivojlantirishning bozor iqtisodiyotiga asoslangan yangi tizimiga duch keladilar. Lozim darajadagi aqlga, irodaga va xissiyotga ega bo‘lgan kishilargina notanish ma‘lumotlarni tezroq o‘zlashtirib olishi mumkin.

Bilim va malakalarni tarkib toptirish naqadar zarur bo‘lsada, xozirgi didaktika ana shu soxa bilangina chegaralanib qola olmaydi. Endilikda o‘quvchilarni kamol toptirishda optimal natijalar bera oladigan o‘qitish jarayoning ilmiy-pedagogik asoslarini ishlab chiqish zarurligi tug‘ildi. O‘quvchilarning kamol topishi ta‘lim jarayonida amalga oshishi sababli bilim va malakalarni o‘zlashtirishga qaratilgan didaktik prinsiplar ma‘lum natijalarni beradi. Lekin vazifa qanday natijalarga erishishdan emas, balki o‘quvchilarni kamol toptirish uchun o‘qitishning eng yuqori samaradorligini ta‘minlashdan iborat. Buning uchun esa o‘quv jarayonining qurilishini ishlab chiqish kerak. Didaktikada tarbiyalovchi dunyoqarashni shakllantirish masalalari ko‘riladi, ta‘lim jarayonida o‘quvchilarda mustaqillikni, tashabuskorlikni va shaxsning boshqa ayrim sifatlarini tarbiyalash vazifalari taxlil qilinadi.

4. Didaktikaning asosiy kategoriyalari. Didaktikaning qonuniyatlari va tamoyillari Didaktikaning asosiy kategoriyalariga: ta‘lim berish, ta‘lim, o‘qish, o‘qitish, bilim, malaka, ko‘nikma, va yana shu bilan birga uning maqsadi, mazmuni, tashkillashtirish, turlari, shakllari, usullari, vositalari va ta‘lim natijalari kiradi. Bundan qisqa va lo‘nda xulosa qilishimiz mumkin, ya‘nididaktika-bu o‘qish va ta‘lim olish ilmi, unga maqsad, mazmun, usullar, vositalar, tashkillashtirish va erishilgan natijalar kiradi. O‘qitish-ta‘lim maqsadini amalga

oshirishdagi o'qituvchining tartibli faoliyati (axborotlar bilan ta'minlash, tarbiya, tushunish va bilimlarni amaliy tadbiq qilish) kiradi. O'qish-o'quvchining kishilar tajribasidan bilib olingan qonuniyatlarini o'zida aks ettirishdir.

Ta'lim berish-ko'zda tutilgan maqsadga erishish uchun pedagogning ta'lim oluvchilar bilan tartibli aloqasi. Ta'lim-ta'lim jarayonida egallagan bilim, malaka, ko'nikma va fikrlash turlarining tizimi. Bilim-o'qituvchilar tomonidan mustaqil xayotda, faoliyatda, jumladan ishlab chiqarishda, ijtimoiy munosabatda zarur bo'lgan fan asoslarining qonunlar, omillari va tushunchalarini o'zlashtirish natijalari. Ko'nikma-ta'lim oluvchining o'zlashtirilgan bilimni tez, aniq va ongli ravishda qo'llay bilish qobiliyatidir.

Maxorat-ongli ravishda bajariladigan ishning bir xil mexnatni ko'pmarotaba takrollanadigan, avtomatlashib ketgan tarkibiy elementidir Maqsad (o'quv, ta'limiy)-ta'lim intilgan va uning xarakatlari yo'naltirilgan kelajak. Mazmun (o'qitish, ta'lim)-ta'lim jarayonida ta'lim oluvchi egallashi zarur bo'lgan ilmiy bilimlar tizimi, amaliy ko'nikma va malakalari, faoliyat va fikrlash turlari. Tashkillashtirish-aniiq kriteriyalar bilan didaktik jarayonni tartiblashtirish, ko'zda tutilgan maqsadga muvoffaqiyatli erishish uchun formaga keltirib olish. Forma - (lotincha so'zdan-tashqi ko'rinish) Metod (usul) - (lotin.-yo'l, usul)-ta'lim maqsadi va vazifalarini amalga oshirish yo'llari. Vositalar - o'quv jarayonida qo'llab-quvvatlanadigan narsa (predmet). vositalarga pedagog ovozi, kitoblar, lo'g'atlar, sinf jixozlari va texnik vositalar kiradi. Natija (ta'lim maxsuloti)-ko'zda tutilgan maqsadga erishish, o'quv jarayonining yakuniy qismi, ko'zda tutilgan maqsadning erishilgan darajasi. Didaktikaning predmeti ta'lim-tarbiya muassasasi sharoitida muallimning raxbarligi ostida amalga oshiriladigan o'quv jarayondir. Didaktikada ana shu jarayonning qonuniyatlari tadqiq qilinadi, xar xil tipdagi ta'lim-tarbiya muassasalarida u yoki bu darajada beriladigan ta'lim mazmunini belgilashning ilmiy asoslari, o'qitish vositalari va metodlarining samaradorligini oshirish yo'llari xamda ta'limning tashkiliy shakllari ishlab chiqiladi.

Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'z bilimlarini shogirdlariga singdirar ekan, bu jarayonda ularning o'zlashtirish imkoniyatlarini o'rganadi, qiyinchiliklarni ko'radi, sabablarini aniqlaydi, ularni bartaraf etish choralarini ko'radi. Maxoratli, ijodkor o'qituvchi bu jarayonda ta'limning mazmuniga kiritadi. Buning natijasida o'qituvchining o'ziga xos usullari shakllanadi. O'qituvchi-o'quvchi-talabani bilish faoliyatlarini tashkil qilish maqsadida o'quv ishlarini olib borar ekan, avvalo ta'lim jarayoni orqali uch vazifani, ya'ni bilim berish orqali uch maqsadni xal qilishi lozim ligini unutmasligi kerak. Bu maqsadlar o'qituvchi va o'quvchilar faoliyatini birlashtiradi.

Bu maqsadlar quyidagilardir:

1. Ta'limiy maqsad - o'quv materiallarining mazmunini bilish, ya'ni ushbu fanga tegishli ilmiy bilimlarni o'zlashtirish va amaliyotga tadbiq qila olishdir.

2. Tarbiyaviy maqsad – fan asoslarini o'zlashtirish orqali uning mazmunida yotgan g'oyalar, duneqarashlar ta'sirida o'zining shaxsiy sifatlarini, imon-e'tiqodlarini shakllantirishdir.

3. Rivojlagtiruvchi maqsad - ta'lim jarayoni ta'sirida shaxsning aqliy kamolotini bilish qobiliyatini, o'qishga, mexnatga bo'lgan munosabatini rivojlantirishdan iborat. Bu maqsadlarni amalga oshirish natijasida o'quvchi-talabada mustaqil ishlash ishtiyoqi paydo bo'ladi. Uni o'ylashga o'rgatadi, ta'lim jarayonida tafakkur xukmronlik qiladi. Ta'lim turli bosqichlarda amalga oshadi. Birinchi bosqich – o'quv materiallarini idrok qilishdan iborat. Bunda o'quvchi-talaba ta'limning mazmuni bilan tanishib, o'zining bilish vazifalari nimalardan iborat ekanligini tushuna oladi. Bunda sezgi, idrok, tasavvur kabi jarayonlar faol ishtirok etadi. Ikkinchi bosqich – ular o'quv materiallarni tushunib oladilar, uning moxiyatini anglaydilar va umumlashtiradilar. Natijada ularda yangi bilimlar paydo bo'ladi. Buning uchun ular analiz, sintez, taqqoslash, xulosa chiqarishdan foydalanadilar. Uchinchi bosqich – yangi bilimlar, mashqlar, mustaqil ishlar, o'qituvchining qo'shimcha izoxlari orqali mustaxkamlanadi. To'rtinchi bosqichda – ular o'zlashtirib olgan bilimlarini imkoniyatga qarab amaliyotga tadbiq qiladilar. Bularni

bilish orqali o'qituvchi ta'lim-tarbiya jarayonini samarali boshqarishi mumkin. Shuning uchun o'quv jarayonining xamma bosqichlarida o'qituvchi yetakchi va boshqaruvchilik vazifasini o'ynaydi. [6. B.95]

Bu fikrlarga xulosa chiqaradigan bo'lsak, o'qitish jarayoni bilish faoliyatining muxim tarmog'i sifatida qator vazifalarni bajradi.

Jumladan:

- a) o'quvchi va talabalarda bilim, ko'nikma va malakalarini xosil qiladi.;
- b) ularda duneqarashni, ishonch va e'tiqodlarini o'stiradi;
- v) yoshlarni muayyan darajada o'qimishli, madaniyatli, tarbiyali kishilar bo'lib yetishishlariga, qobiliyat va iste'dodlarini o'stirishga erishiladi.

Bu vazifalarni muvaffaqiyatli xal etish uchun o'qituvchida o'z kasbiga layoqat bo'lishi lozim. Layoqatlik pedagogik mexnatni muvaffaqiyatli bajarishga qodir bo'lishdir. Bu avvalo, pedagogik kasbning ijtimoiy roli va zaruriyatini yaqqol tasavvur qila olishida ko'rinadi. Bundan tashqari i o'qituvchi, o'quvchiga o'z faoliyatining ob'ekti sifatida qiziqib qarashi, uning extiyoj va xususiyatlarini tushuna bilishi lozim. Bundan tashqari o'qituvchi ta'lim jarayonida xar bir o'quvchi-talabaning bilimi va tarbiyalanganlik darajasini aniqlay olishi va xisobga olishi, o'quv materiallarini to'g'ri tanlay bilishi, taxlil qila olishi va umumlashtira bilishi pedagogik maxorat uchun zarur bo'lgan ta'lim usullari, vositalari va shakllarini mukammal bilish, o'quvchiga nisbatan talabchan bo'lish pedagogik vaziyatga qarab ulardan o'rinli foydalana olish, ta'lim natijalarini dastlabgi va keyingi ko'rsatgichlar bilan taqqoslash, taxlil qili shva xulosalash kabilar. Xullas, o'qituvchi keng ko'lamdagi didaktik bilimlarga, pedagogik maxoratga ega bo'lishi lozim. Uzluksiz ta'lim tizimi o'quv tarbiya-tarbiya jarayonining xamma bosqichlarini qamrab oladi xamda xar tomonlama yetuk barkamol avlodni yetishtirish uchun shart-sharoitlar yaratadi. Shu sababli mamlakatimizda Kadrlar tayyorlash milliy dasturi asosida uzluksiz ta'limni tashkil etish va rivojlantirishning asosiy tamoyillari (prinsiplari) belgilanadi.

Bular ta'limning ustvorligi, ta'limni demokratlashuvi, ta'limni insonparvarlashuvi, ta'limning ijtimoiylashuvi, ta'limning milliy yo'nalganligi, ta'lim va tarbiyaning uzviy bog'liqligi, iqtidorli yoshlarni aniqlash, yuqori darajada bilim olishlari uchun shart-sharoitlar yaratish kabilar. Jamiyat talab qilayotgan uzluksiz ta'limga tegishli bu qonun-qoidalar o'qitish, bilim berish, ya'ni talim jarayoniga xam samarali ta'sir ko'rsatadi. Pedagogikada ta'limning ilmiy-nazariy, uslubiy asoslari aloxida, ya'ni didaktika qismida o'rganiladi. Bu jarayonda ta'lim prinsiplariga xam aloxida to'xtaladi. Yaqin va O'rta Sharqda Xorazmiy, Forobiy, Beruniy, Ibn Sino, Umar Xayyom, Tusiy kabi mutafakkirlar ilmiy didaktika asoschilaridir. Yan Amos Komenskiy, shveysariyalik pedagog I.G.Pestalotssi, nemis pedagogi A.Disterverglar Yevropada didaktikaning rivojlanishiga katta xissa qo'shdilar. Ular pedagogik qarashlarining muxim xususiyati shundan iborat ediki, mazkur olimlar doimo predmetning qiyofasi inson ongida mavzumlashuvi jarayoniga, mana shu predmetning moxiyati va o'ziga xosligini tushunish sodir bo'lishi xamda shakllanishiga e'tibor berganlar. Sharq xalqlari pedagogikasining buyuk allomasi Yusuf Xos Xojib «Qutadg'u bilig» asari orqali ilm-fan, ma'rifatning axamiyati, ta'rifi va tavsifida odamlarni tinmay ilm olishga, bilim o'rganishga undadi. Bilimlar rivojida Sharqning yana bir buyuk mutafakkiri Al-Xorazmiyning salmoqli xissalari bor, albatta. Buyuk olim algebra, arifmetika, astronomiya, geografiya va musiqa soxalarida bir qancha asarlar yozgan. Sharqu g'arb ma'naviy merosi asosida pedagogik jarayondan markaziy o'rin olgan didaktika doimo rifojanib bordi, didaktika rivojiga buyuk chex pedagogi Yan Amos Komenskiy xam katta xissa qo'shgan. Uning «Buyuk didaktika» asari o'qitishni rivojlantirishga katta ta'sir ko'rsatdi va muallimlarning doimiy foydalaniladigan adabiyoti bo'lib qoldi.

Asosiy adabiyotlar

1. Вербицкий А.А., Алешкевич В.Н и др. Микробиология и иммунология. Учебное пособие Минск-2019.

2. Salimov X. va boshqalar. Epizootologiya. Darslik. Toshkent, 2016 yil.

Xorijiy adabiyotlar

1. Fenner's. Veterinary Virology (United States of America 2016 year).

2. M.Jackson Veterinary clinical pathology. America 2010 year.

Qo'shimcha adabiyotlar

1. Mirziyoyev SH.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. Toshkent, "O'zbekiston" NMIU, 2017. – 29 b.

2. Mirziyoyev SH.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. "O'zbekiston" NMIU, 2017.– 47 b.

3. Bazarov X.K., Abdulakimova A.B. Veterinariya virusologiyasidan o'quv qo'llanma. Samarqand 2016 y.

4. Самуйленко А.Я., "Инфекционная патология животных" Том 1 Москва 2009.

5. Петров Р.В. Иммунология. Учебник. Москва 1983 й

TALABALARDA NAQSH KOMPOZITSIYALARINI TUZISHGA OID KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH

*Xudoyberdiyeva Xulkar Zoxid qizi,
Shahrisabz davlat pedagogika institutining birinchi bosqich tayanch doktoranti*

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalarda me'moriy obidalarning badiiy bezaklarini konstruktiv idrok etish, tahlil qilish asosida naqsh kompozitsiyasini tuzish kompetensiyalarini rivojlantirishga oid ilmiy-metodik manbalarni maqsadli-tanqidiy o'rganish hamda tegishli tahliliy materiallar jamlash, rivojlantirish tizimini takomillashtirishning didaktik talablarini, materiallar vositasida rivojlantirish jarayonining mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari, pedagogik shart-sharoitlaridan foydalanishga oid ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish haqida ma'lumotlar beriladi.

Kalit so'zlar: me'morchilik, naqsh, beshburchak, yulduz. me'moriy obidalar badiiy bezaklar, konstruktiv idrok, metodlari, vositalari, shakllari, pedagogik shart-sharoitlari, ilmiy-metodik tavsiyalar.

IMPROVING THE METHODOLOGY FOR DEVELOPING STUDENTS' COMPETENCIES IN CREATING PATTERN COMPOSITIONS

*Khudoyberdiyeva Khulkar
Shahrisabz State Pedagogical Institute 1st Year PhD Student*

Abstract: This article provides information on the purposeful and critical study of scientific and methodological sources related to the development of students' competencies in the constructive perception and analysis of artistic decorations of architectural monuments, as well as the development of scientific and methodological recommendations on the didactic requirements for improving the system of collecting and developing relevant analytical materials, the content, methods, tools, forms, and pedagogical conditions of the development process using materials.

Keywords: architecture, pattern, pentagon, star. Architectural monuments, artistic decorations, constructive perception, methods, tools, forms, pedagogical conditions, scientific and methodological recommendations.

СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДИКИ РАЗВИТИЯ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ ПО СОСТАВЛЕНИЮ ОРНАМЕНТАЛЬНЫХ КОМПОЗИЦИЙ

*Худойбердиева Хулкар Зоҳид кизи
Докторант 1-го этапа Шахрисабзского государственного педагогического
института*

Аннотация: В данной статье открывается целенаправленное критическое изучение научно-методических ресурсов, касающихся развития у учащихся компетенций в построении орнаментальной композиции на основе конструктивного восприятия, анализа художественного оформления архитектурных памятников, а также обобщение соответствующих аналитических материалов, дидактических требований совершенствования системы развития, использования содержания, методов, средств, форм, педагогических предпосылок процесса материально-опосредованного развития. связанные даны сведения о разработке научно-методических рекомендаций.

Ключевые слова: архитектура, узор, пятиугольник, звезда. памятники архитектуры художественные орнаменты, конструктивное восприятие, методы, средства, формы,

педагогические условия, научно-методические рекомендации..

O'zbekistonda madaniyat va san'at, me'morlik va dizayn san'atiga e'tibor ortib borayotganligi bois ilg'or xorijiy zamonvay tendensiyalar, ilg'or tajribalar bilan bir qatorda milliy iftixor darajasida e'tirof etiladigan qadriyatlarga ham alohida e'tibor qaratish talab etiladi. Qadimiy me'moriy obidalar, ularning badiiy bezaklari yosh avlodda milliy tariximizga nisbatan hurmat-ehtirom hissini tarbiyalash manbai, ularda badiiy-estetik dunyoqarashni tarkib toptirish vositasi sifatida e'tiborlidir. Ayniqsa, tarixiy me'moriy obidalarning badiiy bezaklari asrlar davomida ma'naviy-estetik qadriyat sifatida e'zozlanib kelinadi. Bu, o'z navbatida, ulardan didaktik manba sifatida foydalanishni taqozo etadi. Shu bois ularning ta'limiy va tarbiyaviy imkoniyatlarini tadqiq etish badiiy pedagogika uchun dolzarb muammolardan biri hisoblanadi. Badiiy ta'lim tizimini takomillashtirish masalalari ham alohida dolzarblik kasb etadi.

Zero, dunyo miqyosida kechayotgan globalashuv va integratsiyalashuv jarayonlari jamiyat hayotining barcha jabhalariga yuqori texnologiyalar, innovatsilarni keng miqyosda tatbiq etish uchun qulay shart-sharoitlarni yuzaga keltirmoqda. Jumladan, ta'lim tizimining turli komponentlari jamiyatning ta'limiy ehtiyojlarini o'zgarishiga monand tarzda takomillashtirib borilishini taqozo etadi, ya'ni jamiyatning zamonaviy talab va ehtiyojlari asosida barcha sohalarida bo'lgani kabi bevosita ta'lim mazmuni va metodikasini takomillashtirish vositasida ta'lim oluvchilarning o'quv kompetensiyalarini rivojlantirish zaruriyatini yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash bozor iqtisodiyoti uchun raqobatbardosh kadrlar tayyorlashning muhim shartlaridan biridir. Bu jarayonlarni samarali kechishi, birinchi navbatda, talabalarda shakllantiriladigan kasbiy kompetensiya elementlarining sifatigan bog'liq. Insoniyat kasbiy kompetensiyasi, salohiyatining yuqori darajasini ta'minlashda ta'lim tizimining o'ziga xos o'rni bor. Bu borada oliy ta'lim muassasalarida talabalarning tasviriy san'atga, jumladan, me'moriy obidalarning badiiy bezaklari vositasida talabalarda kompozitsiyaga oid o'quv kompetensiyalarni rivojlantirish me'morlik obidalaridani naqshu nigorlarni badiiy-estetik idrok etish, ulardagi kompozitsion yechimlarni konstruktiv idrok etish ob'ektlar, jarayonlar va hodisalarni tahlil etish orqali ularni to'g'ri baholashga oid kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish zamonaviy badiiy pedagogika fanining dolzarb muammolaridan biridir.

Me'moriy obidalarning badiiy bezaklari vositasida talabalarda naqsh kompozitsiyasini tuzishga oid kompetensiyalarni shakllantirish va rivojlantirish tizimini takomillashtirishda xalqaro miqyosdagi e'tirof etilayotgan zamonaviy ta'limiy tendensiyalar mahalliy an'analar, tajribalarni sintetik tarzda qo'llanishi didaktik qonuniyatlar nuqtai nazaridan ta'lim sifati va samaradorligini oshirishning muhim omillaridan biridir. Mazkur tadqiqot doirasida oliy badiiy ta'limning amaldagi Davlat ta'lim standartlari hamda o'quv dasturi talablari asosida talabalarda naqsh kompozitsiyasini tuzishga oid kompetensiyalarni shakllantirishning metodik tizimini takomillashtirish o'zining ilmiy-metodik yechimini kutayotgan dolzarb muammolar sirasiga kiradi.

Oliy ta'lim hamda ilmiy tadqiqot muassasaslari hamda alohida mutaxassislar, jumladan, mazkur muammoga oid tadqiqotlar sifatida A.Alexin, O.B.Bushnyakova, J.N.Djusupov D.B.Kubishkina, V.S.Kuzin, B.M.Nemenskiy, N.N.Rostovsevlarning tadqiqotlarini e'tirof etish mumkin. Shuningdek, N.N.Fomina, A.V.Shcherbakov, D.M.Shkolyarlar tomonidan tasviriy san'at ta'limining turli masalalari bo'yicha maqsadli tadqiqotlar olib borilgan.

Sohaga oid tadqiqotlarning batafsil tahlillariga ko'ra ayrim mamlakatlarda, xususan, Rossiyada muayyan ishlar amalga oshirilganligini ta'kidlash mumkin. Jumladan, pedagogika oliy ta'lim muassasalarining badiiy-grafika fakultetlarida kompozitsiyadan maxsus mashqlar tizimi vositasida talabalarda obrazli tafakkurni rivojlantirishning kompetensiyaviy yondashuv asosida bo'lajak tasviriy san'at o'qituvchilarida tahliliy-tanqidiy mushohada qilish

kompetensiyalarini rivojlantirish badiiy grafika kursida talabalarning maxsus tayyorgarligini takomillashtirish yo'llari o'rganilmoqda.

O'zbekistonda oliy ta'limni rivojlantirishning kredit-modul tizimi bosqichma-bosqich joriy etilishi munosabati bilan talabalarning mustaqil bilim olishlariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ularda nazariy bilimlarni amaliy qo'llash kompetensiyalarini rivojlantirish oliy badiiy ta'limning dolzarb muammolaridan biriga aylanib bormoqda. Shu ma'noda tasviriy san'at yo'nalishida ta'lim olayotgan talabalarda tanqidiy tafakkurni, tahlil va sintez qilish malakalarini tarkib toptirishga ustuvor tarzda qarash talab etilmoqda. Shuning uchun ham talabalarda ob'ektlar, buyumlarni idrok etish, anglash, shakl va konstruksiya jihatidan tahlil qilish va tkompozitsiya qonuniyatlari asosida naqsh kompozitsiyasini tuzish kompetensiyalarini rivojlantirish ta'lim muassasalarida amalga oshirilayotgan tasviriy san'at ta'limining muhim vazifalaridan biridir. Jarayonlarni maqsadli kuzatish va natijalarni tahlilidan ayon bo'ldiki, talabalarda bunday kompetensiyani rivojlantirishning samarali yo'llaridan biri, shubhasiz, qadimiy me'moriy obidalarning badiiy bezaklarini konstruktiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning metodik asoslarini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etishdan iborat.

Tasviriy san'at ta'limi misolida xorijlik tadqiqotchilardan V.V.Bakushinskiy, Ye.I Ignatev, V.S.Kuzin, N.N.Rostovsev, Ye.A.Shpikalova, A.V Shcherbakov, B.P. Yusov kabi taniqli olimlarning ishlarida o'z aksini topgan.

O'zbekistonlik olimlar S.Abdirasilov, S.Abdullaev, A.Amonullaev, B.Boymetov, N.I.Yo'ldosheva kabilarning tadqiqotlari bevosita oliy ta'lim muassasalarida tasviriy san'atni o'qitishning muayyan muammolariga bag'ishlangan. Bevosita amaliy san'atni o'qitish metodikasi masalalari A.Amanullaev, S.Bulatov, K.G'ulomov, Q.Qosimovlarning tadqiqotlarida o'rganilgan.

Shuningdek, kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan boshqa fanlar tajribalari ham mazkur tadqiqot uchun muayyan qiziqish uyg'otadi. Biroq tahlillardan ayon bo'ldiki, yuqorida nomlari keltirilgan xorijiy va mahalliy mutaxassislarning tadqiqotlarida talabalarda me'moriy obidalarni, ularning badiiy bezaklarini idrok etishga oid kompetensiyalarni shakllantirishning metodik tizimini ishlab chiqish, amaliyotga joriy etish hamda jarayonni takomillashtirishning metodik asoslarini ilmiy asoslash muammosi maxsus tadqiq etilmagan.

Talabalarda me'moriy obidalarning badiiy bezaklari vositasida naqsh kompozitsiyasini tuzish ga oid kompetensiyalarini rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chikish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarda me'moriy obidalarning badiiy bezaklarini konstruktiv idrok etish, tahlil qilish asosida naqsh kompozitsiyasini tuzish kompetensiyalarini rivojlantirishga oid ilmiy-metodik manbalarni maqsadli-tanqidiy o'rganish hamda tegishli tahliliy materiallar jamlash, rivojlantirish tizimini takomillashtirishning didaktik talablarini ishlab chiqish, jarayonining mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari, pedagogik shart-sharoitlarini ishlab chiqish, eksperimental sinovlar o'tkazish hamda uning natijalaridan foydalanishga oid ilmiy-metodik tavsiyalardek vazifalarni bajarishni taqozo yetmoqda.

Me'moriy obidalarning badiiy bezaklari vositasida talabalarda naqsh kompozitsiyasini tuzish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv jarayoni obekt sifatida olinadi.

Talabalarda me'moriy obidalarning badiiy bezaklariga oid didaktik materiallar vositasida naqsh kompozitsiyasini tuzish kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari, pedagogik shart-sharoitlari predmet sifatida o'rganiladi.

Demak natijada pedagogika va psixologiya, metodikaga oid ilmiy manbalar, o'quv-metodik adabiyotlar hamda me'yoriy hujjatlarning ilmiy-analitik tahlillari asosida ilgari surilgan ilmiy g'oyalar, ustuvor nazariyalar hamda yondashuvlarda talabalarda me'moriy obidalar va ularning badiiy bezaklarini konstruktiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishda ularda naqsh kompozitsiyasini tuzishga o'rgatish jarayonining didaktik imkoniyatlari aniqlanadi;

kompetensiyalarni rivojlantirish mazmunini takomillashtirishning pedagogik mexanizmlari

ishlab chiqiladi, talabalarda me'moriy obidalarni konstruktiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni, metodik tizimi va jarayonni takomillashtirishni ta'minlovchi materiallardan foydalanish uchun tanlab olinadigan o'quv materiallarini oliy badiiy ta'limda qo'llashga oid pedagogik talablar ishlab chiqiladi;

tanlab olingan materiallardan o'quv materiali sifatida tasviriy san'at ta'limi amaliyotida foydalanishning mazmuni, metodlari, vositalari, shakllari, pedagogik shart-sharoitlari ishlab chiqiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki me'moriy obidalarning badiiy bezaklariga oid didaktik materiallar vositasida talabalarda naqsh kompozitsiyasini tuzish kompetensiyalarini rivojlantirish samaradorligini oshirishning asosiy omillaridan biri – didaktikaning tarixiylik va zamonaviylik, uzviylik va uzluksizlik, yaqindan uzoqqa prinsipi asosida badiiy ta'lim jarayoniga innovatsion pedagogik yondashuvlar, qo'llaniladigan texnologiyalarning amaliy asoslari hamda ularning samaradorlik darajalari eksperimental tadqiqotlar xulosalari asosida ishlab chiqilishi natijasida talabalarga kompozitsiya va naqqoshlik darslarini o'qitishning mazmuni, uning tarkibiy qismlari, talabalarining kompozitsiya tuzish kompetensiyalarining darajalari, kursatkichlari, ularni baholash parametrlari aniqlanadi hamda amaliyotda sinab ko'rilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqotning ilmiy ahamiyati shunda namoyon bo'ladiki, talabalarda naturani konstruktiv idrok etish kompetensiyalarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv materiallaridan foydalanishni ta'minlovchi manbalarning keng qamrovli tahlillari, ular asosida akademik qalamtasvir va rangtasvir fanlarining mazmuni hamda metodik tizimini takomillashtirishga yo'naltirilgan ilmiy xulosalar taqdim etiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, uning natijalari akademik qalamtasvir va rangtasvirni o'qitishning ilmiy-metodik ta'minotini boyitadi hamda metodik tizimini takomillashtirishga oid materiallar taqdim etiladi. Uning ilmiy xulosalaridan tasviriy san'at ta'limining Davlat ta'lim standarti, o'quv dasturlarini takomillashtirishda, ularga mos tarzda darslik va o'quv-metodik adabiyotlar mazmunini boyitishda foydalanish mumkin. Shuningdek, tadqiqotning ayrim ilmiy xulosalari ta'limning boshqa sohalarini taomillashtirishda, shuningdek, badiiy-estetik ta'lim turkumidagi o'quv fanlari mazmuni va metodikasini boyitishning metodologik asos komponentlaridan biri sifatida qo'llanilishi mumkin

ADABIYOTLAR RO'YXATI.

- 1.P. Sh. Zoxidov."Me'mor olami". T. "Qomuslar bosh tahririyati". 1996. –77-78 bet.
- 2.Z.Bositxonov. "Handasiy naqsh(girix)larning yechimlari. T. "Ochiq Jamiyati Instituti Ko'mak Jamg'armasining O'zbek vakolatxonasi". 1998. - 6 bet.
- 3.Ж.Рахматов, Ш. Пирназаров. "Қадимги Марказий Осиё меъморчилиқ ёдгорликларини геометрия асосида ўрганиш". Сборник материалов, XV Международной научно-практической интернет-конференции «Гуманитарное пространство науки: опыт и перспективы». г. Переяслав. Выпуск 15, 23 января 2018 г. – С. 151-156.
- 4.G'oziev E.G. "Umumiy psixologiya". T. "Universitet". 2002. 2-kitob. -90-124 bet.
- 5.A.R.Soxibov. Etnopedagogika. Darslik. Toshkent "Makon Savdo Print" X K -2024. 414 bet.

TAYM MENEJMENT” – VAQTN BOSHQARISH KONTSEPTSIYASI VA TARIXIY RIVOJLANISHI

Yuldasheva Xurshida Qodirovna

*Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti mustaqil tadqiqotchisi,
Mirobod tumani 56-IDUM o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada vaqtni boshqarish, vaqtni tashkil etish, vaqtni to‘g‘ri tashkil etish va undan samarali foydalanish texnologiyasi haqida ma‘lumotlar keltirib ztilgan. Shuningdek taym menejment” – vaqtni boshqarish kontsepsiyasi va tarixiy rivojlanishi haqida g‘oyalar ilgari surilgan.

Kalit sozlar: vaqt, samara, natija, rivojlanish, konsepsiya, zarurat, boshqarish, xususiyat

ТАЙМ-МЕНЕДЖМЕНТ» - КОНЦЕПЦИЯ ТАЙМ-МЕНЕДЖМЕНТА И ИСТОРИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ

Юлдашева Хуршида Кадыровна

Соискатель Ташкентского государственного педагогического университета имени Низами, преподаватель ИДУМ 56 Мирабадского района

Аннотация: В данной статье представлена информация о тайм-менеджменте, тайм-менеджменте, правильном тайм-менеджменте и технологиях эффективного использования. Также выдвигаются идеи о понятии и историческом развитии «тайм-менеджмента» – тайм-менеджмента.

Ключевые слова: время, эффект, результат, развитие, концепция, необходимость, управление, особенность.

TIME MANAGEMENT» - CONCEPT OF TIME MANAGEMENT AND HISTORICAL DEVELOPMENT

Yuldasheva Khurshida Kadyrovna.

Applicant at Tashkent State Pedagogical University named after Nizami, teacher at IDUM 56, Mirabad district

Abstract: This article provides information about time management, time management, proper time management and effective use technologies. Ideas are also put forward about the concept and historical development of “time management” - time management.

Key words: time, effect, result, development, concept, necessity, management, feature.

Hozirgi zamon odami uchun “Xamma vaqt ulgurish”, taym menejment, vaqtni boshqarish eng zaruriy xususiyatlar hisoblanadi. Ma‘lumotlarning turlichaligi, voqea va xodisalarning jadallik bilan o‘zgarib borishi, vaqtida barcha ishga ulgurib, yanada qisqa vaqt mobanida ko‘proq vazifani amalga oshirishga undab bormoqda. Lekin shuning orasida dam olishga, do‘stlarga va oilamizga ham vaqt ajratishni unutmashimiz kerak. Agar biz 10 000 so‘m yo‘qotsak buni qayta ishlab topishimiz mumkin, agar 10–20 soat vaqtimizni yo‘qotsak buni qaytarib ololmaymiz.

Vaqtni boshqarish, vaqtni tashkil etish, taym-menejment (ing. time management) — vaqtni to‘g‘ri tashkil etish va undan samarali foydalanish texnologiyasi.

Vaqt bu-pul. Bu so‘z hech kim uchun yangilik emas. Va hammaga bolalikdan tanish. Vaqt o‘tgan sari pulning va vaqtning qiymati bir bo‘lib qolishi hech kimga sir emas. To‘g‘rirog‘i, Vaqt-puldan qimmatliroq va muhimroqdir.

Vaqtni boshqarish bu-jarayon. Vaqtning (ish, shaxsiy va h.k.) aniq yo‘naltirilgan jarayoni. Bu holatni baholash joiz bo‘lsa, quyidagicha izohlash mumkin-eng qisqa fursat ichida shaxsning

o'z oldiga aniq maqsad qo'ya bilish jarayoni [7, 3-6b].

Vaqtning boshqarish (Taym menejment) - bu inson hayot faoliyatining turli sohalarida vaqtning optimallashtirish muammolari va usullarini o'rganishga bag'ishlangan fan va amaliyotning fanlararo bo'limidir [3, 23b].

Siz hayot faoliyatingizni rejalashtirishda qat'iy yoki moslashuvchanlik yo'li bilan vaqt o'lchovi yoki o'z uslubingizda Outlook yoki kundalik rejalarni yuritish daftari orqali qo'llaysiz. O'zingizni hayotiy maqsadlaringizni toppish muxim – va ularga yondoshgan holatda vaqtning taqsimlang. O'zingizning xohlagan narsangiz uchun vaqtning behuda sarflamang. Shuningdek, u korporativ taym menejment kontseptsiya tushunchasini ochib beradi – bu umumiy boshqaruv doirasidagi intizom bo'lib, xodimlarning shaxsiy taym menejmenti korporativ samaradorlikni oshirish vositasiga aylanishiga imkon beradi [1, 1b.].

Lotar Zayvertning fikriga ko'ra, taym menejment – bu o'z-o'zini boshqarish va o'z hayot tarzi yoki etakchiligini faol shakllantirishdir.

Taym menejment – maqsadlarga erishish uchun ish vaqtini samarali rejalashtirish, vaqt resurslarini topish, birinchi o'ringa qo'yish va rejalashtirilgan ishlarning bajarilishini nazorat qilishdir. Ushbu ta'rif "Iqtisodiyot va moliya" ensiklopediyasi" dan olindi [2, 65b].

Ushbu tushunchalarni taqqoslab, ulardan ba'zilari bir xil ma'noga ega degan xulosaga kelish mumkin, ammo har bir muallif har xil usullar, tushunchalar va yondashuvlardan foydalanadi. Masalan, Gleb Arxangelskiy asosan korporativ menejmentga tayanadi. Keyingi tadqiqotlar uchun shaxsiy taym menejment samaradorligi haqida ko'proq gapiradiganlarning fikriga tayanaman.

Taym menejment munozarali tushuncha. «Vaqtning boshqarish» mumkin emas, faqat o'zingizni boshqarish mumkin. Taym menejment – bu o'z-o'zini boshqarishdir. Axir vaqt doimiy qiymat sifatida doimiy ravishda qaytarib bo'lmaydigan darajada qisqartiriladi. Biz xohlaymizmi, xohlamaymizmi, soniya soniyalar ketidan, daqiqa daqiqalar ketidan, soatlar soatlar ketidan o'tib boradi. Soat ustidagi ko'rsatkichlar ikkita bo'linishni oldinga siljitadi va bu qaytarilmaydi. Biz o'z nigohimizni kelajakka qaratsak, o'z fikrimizga mos ravishda vaqtga munosabatni shakllantirishimiz yoki hech bo'lmaganda bunga harakat qilishimiz mumkin [3, 44b.].

Taym menejmentning ko'plab tushunchalarini hisobga olgan holda, "taym" tushunchasini ham berish kerak. « taym « ingliz tilidan tarjimada - «vaqt». Vaqt - bu mavjudlik davomiyligi; borliqdagi bo'shliq; mavjudlik ketma-ketligi; ishlarning, voqealarning davomi; kunlardan kunlar va asrlardan asrlar o'tib; kunlar oqimining ketma-ketligidir. Bunday ta'rif Vladimir Dalning Buyuk rus tilining izohli lug'atida berilgan.

Vaqtning boshqarish, birinchi qarashda ko'rinadigan darajada qiyin emas. Buni qachon va nima qilish kerakligi to'g'risida qaror qabul qilish orqali amalga oshirish mumkin. Shu bilan birga, ta'lim jarayonlariga qatnashmasdan, hayot tarzini qat'iy nazorat qilmaslik kerak. Maqsadlarni tahlil qilinib, ustuvor, dolzarb qarashlar belgilab olinadi, keyinchalik ular aniq vazifalar va harakatlar dasturiga aylantiriladi. Taym menejment vaqtning boshqarish tizimi sifatida bir qator elementlarni o'z ichiga oladi, ular birgalikda ishlatilganda turli ishlab chiqarish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan vaqtning sezilarli darajada qisqartiradi. Ushbu elementlarga ish vaqtdan foydalanishni tahlil qilish, bunda talaba taym menejmentdan foydalanish jarayonida erishmoqchi bo'lgan maqsadlarni belgilash, ish vaqtini rejalashtirish, vaqt resurslaridan asossiz foydalanish sabablariga qarshi kurashishning turli usullarini ishlab chiqish kiradi. Biroq, vaqtning boshqarishning bunday juda uyg'un tizimiga qaramay, uni aksioma sifatida qabul qilmaslik kerak, chunki har bir inson o'zi uchun vaqtdan oqilona foydalanish muammosini eng yaxshi usulda hal qila oladigan yagona odamdir shaxsiy vaqtning boshqarish, bu har kimda ma'lum bir individual holatdir [29].

Samaradorlik mavjud imkoniyatlardan eng yaxshi variantni tanlash va uni eng yaxshi tarzda bajarishni anglatadi. Vaqtdan foydalanishda to'g'ri tanlov qilish, mavjud vazifani

oqilona bajarilishini tashkil qilishdan ko'ra muhimroqdir. Innovatsiya o'z o'rnida yaxshi, ammo samaradorlik ko'proq zarur. Vaqt etishmasligi yo'q. Biz xohlagan narsani qilish uchun ko'p vaqtimiz bor. Agar siz, ko'p odamlar singari, muvaffaqiyatga erishish uchun «juda band bo'lsangiz», shuni yodda tutingki, sizdan ko'ra ko'proq band bo'lgan, ammo sizdan ko'proq ish qiladigan odamlar bor. Ularning sizdan ko'proq vaqti yo'q. Ular faqat o'z vaqtlaridan samarali va unumli foydalanishadi! Vaqtdan unumli foydalanish, bu avtomobilni boshqarish san'atini to'laqonli bilishdir. Ammo bu mahoratni o'rganish mumkin [2, 14b].

Juda katta tashkilotchilik uni yo'qligi kabi zararlidir. Barcha echimlarga mos keladigan o'lcham yo'q. Turli xil odamlar o'z hayotlarida turli darajadagi tashkilotchilik va erkin ijodkorlikni talab qiladilar. Xuddi shu kishi yoshi, mavsumi va muhitiga qarab, bu borada turli xil ehtiyojlarni boshdan kechiradi. O'z ishida tashkilotchi hisoblangan inson o'zining erkin vaqtini behuda sarflaydi. Aniq maqsadlari bor, o'z vaqtini qanday ishlatishni va hayotidan nimani xohlashini aniq biladigan 30 yoshli inson, 40 yoshga yetganda, agar u o'n yil avvalgi rejalarini qayta ko'rib chiqsa, u yanada o'sishni xohlaydi. Qadimgi dengizchilar iborasiga ko'ra shunday deyilgan: «Men shamol esganday suzaman, lekin qanday qilib suzib yuraman!» Ko'pgina talabalar o'quv faoliyati jarayonida haddan tashqari kuchli bo'lishi mumkin, ammo oxirgi maqsadga erishishda juda zaifdirlar [10, 56b].

Vaqtdan foydalanish faqat individual tanlov masalasidir va faqat bir kishi oliy hakam bo'lishi mumkin, bu sohada turli xil nazariyotchilar tomonidan berilgan maslahatlarni amalda qanday qo'llashni hal qiladi.

Taym menejment sizga vaqtni qanday boshqarishni o'rgatadi. U qanday qilib ko'proq stress bilan emas, balki ko'proq mahorat bilan ishlashni ko'rsatib beradi. Natijada, o'zingiz, oilangiz, do'stlaringiz uchun ko'proq vaqtingiz bo'ladi. O'z orzularingizni ro'yobga chiqarish uchun vaqt topiladi, ular uchun «hech qachon vaqt yetmagan». Odam o'zini nazoratsiz vaziyatga yoki atrof-muhitga kamroq bog'liqligini his qiladi. Hayotning turli tomonlarini improvizatsiya qilish, o'zgartirishlar kiritish va ularni o'zgartirish osonroq bo'ladi, shunda bu o'zgarishlar ma'lum bir shaxsning manfaatlari, uning maqsadlari va uning dunyoqarashiga ko'proq mos keladi [4,166b].

Taym menejmentidan foydalanish talabalar ulardan foydalanishda ijodiy bo'lishlarini taxmin qiladi. Vaqtni boshqarishning eng yaxshi uslublari bu hamma uchun qulaydir.

Vaqtni boshqarish qanday boshlandi? Ehtimol, vaqtni boshqarishni insonning ongli ehtiyojiga aylantirishga qaratilgan birinchi urinish - bu Lusiy Anus Seneka tomonidan yangi davrning dastlabki o'n yilligida yozgan axloqiy xatlarining birinchisi. Seneka quyidagilarni tavsiya qiladi:

- har doim yozma ro'yxatga olish;
- vaqtni yaxshi, yomon sarf qilingan va sarf qilingan bekorchilikka bo'lish;
- hayotni o'tgan vaqtning to'liqligi bilan baholang .

Vaqtni tashkil qilish usullaridan biri bu kunning qat'iy rejimini joriy qilishdir. Butun umrini Kenigsbergda o'tkazgan Immanuel Kant (1724-1804) shu qadar ritmik yashadiki, qo'shnilar u sayrga chiqqanda soatini tekshirib ko'rishdi.

1. Teylorizm (eng katta mashhurlik davri - 1910-1940). Zamonaviy ilmiy menejment asoschilaridan biri Frederik Teylor nomi bilan atalgan [2, 21b]. Teylor G'arb jamiyatida (20-asr boshlarida) ishchilar insonning tabiiy moyilligi («tabiiy dangasalik») tufayli ham «salqinlik bilan ishlash» stereotipining shakllanganiga ishongan. «o'zaro javobgarlik» madaniy an'analari tufayli ish sur'atini ataylab pasaytirmoqda. Shu bilan birga, Teylor ishni tashkil etishning «ter tizimlari» ni tanqid ostiga oldi, ishchiga ish tezligi va unumdorligi to'g'risida asossiz talablar qo'ydi. Teylorning fikriga ko'ra, «ter to'kish» va «tabiiy dangasalik» o'rtasidagi «oltin o'rtacha» aniq vaqtni boshqarish kabi muhim sohani o'z ichiga olgan ilmiy ishlab chiqarishni boshqarish usullarida yotadi (Teylor kitobining ikkinchi bobida bunga ko'plab misollar keltirilgan «Taym menejment – muhandislik»).

Boshqa rus mutaxassislari ham Teylorning g'oyalari ruhida ishladilar, masalan, Gastevning qisman raqibi bo'lgan P.M.Kerjentsev. Vaqt omilining yo'qligi uchun muhimligini tushinishda Gastev va Kerjentsevning fikrlari bir-biriga to'g'ri keldi. Xususan, mahalliy g'oyalarni tarqatish uchun P. M. Kerjentsev 1926 yilda xalqaro «Vaqt» ligasini yaratdi, uning a'zolari vaqtni boshqarish usullariga alohida ahamiyat berishdi. Gastevning ko'pgina Taym menejment g'oyalari ma'lum darajada Teylorga to'g'ri keladi. Gastev, emas «dangasalikka qarshi kurash» vositasi emas, balki «yorqin kelajak» ni yaratadigan yanada samarali «ijtimoiy muhandislik» usuli deb hisoblaydi; Gastev shuningdek o'ziga xos TM asboblarini ishlab chiqardi (masalan, Gastevning xronokarti).

Abstract: this article presents views on the formation and development of the ability to correctly pronounce sounds in preschool children. The definition of dyslalia, its types, causes of occurrence, and the consequences of dyslalia in children are also discussed. The emphasis is on the phonetic nature of the sound, not distorted, but incorrect pronunciation.

Keywords: dyslalia, preschool education, sound, pronunciation, skill, development, phonetics, phonemics, language.

Kishilar o'rtasidagi muomalaning asosiy vositasi nutq hisoblanadi. Inson nutq yordamida o'z fikrini, his-tuyg'ularini izhor qiladi, hamda boshqalarning hissiyotlarini bilib oladi. Demak, nutq faoliyati aloqa o'rnatish vositasidir.

Inson nutqi tovushlari muayyan ahamiyatga egadir 4-5 yoshli bolalarning ko'pchiligida tovushlar talaffuzi til normadagiga yaqinlashgan bo'ladi. Ayrim bolalar tovushlarni buzib talaffuz etadilar. Ular bir tovushli ikkinchi tovushdan farq qila olmaydilar, ayrim tovushlarni talaffuzda qo'llay olmaydilar, yoki nutqda boshqa tovushlarga almashtiradilar. Bu holatlar dislaliya termini bilan ataluvchi nutq buzilishini yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Dislaliya termini grekcha so'zdan olingan bo'lib, dis-buzilish, lalia-nutq degan ma'noni anglatadi. Mexanik (organik) dislaliya perefirik nutq apparatning (til, jag', tanglay, tish) organik buzilishi natijasidir.

Til tagidagi etning (yugancha) kaltaligi mexanik dislaliyaga sabab bo'ladi. Bu kamchilik til harakatini qiyinlashtiradi, til tagidagi etning haddan tashqari kalta bo'lishi tilning yuqori tomon ko'tarilishiga imkon bermaydi. Bundan tashqari, tilning haddan tashqari katta bo'lishi yoki haddan tashqari kichik va tor bo'lishi ham dislaliyaga olib keladi. Bunday hollarda to'g'ri artikulyatsiya qiyinlashadi.

Jag' tuzilishidagi kamchiliklar prikus nonor-malliklarga olib keladi. Nonormal prikuslar bir necha xil ko'rinishda bo'lishi mumkin.

Prognatiya-yuqori jag' oldinga tomon chiqqan bo'ladi. Buning natijasida pastki oldingi tishlar yuqoridagi tishlar bilan birlashmaydi. Progeniya-pastki jag' oldinga chiqqan bo'ladi.

Ochiq prikus-yuqori va pastki jag'lar birlashganda ular orasida oraliq masofa qoladi. Ayrim

hollarda bu oraliq faqat oldingi tishlar orasida bo‘ladi (oldingi ochiq prikus).

Yoni ochiq prikus o‘ng tomonli, chap tomonli va ikki tomonli bo‘lishi mumkin.

Tishlarning (tish qatorining) noto‘g‘ri tuzilishi ham dislaliyaga sabab bo‘lishi mumkin. Tishlar va jag‘dagi kamchiliklarni bartaraf etish vrach-stomatolog tomonidan olib boriladi.

Tanglayning noto‘g‘ri tuzilishi ham tovushlarning to‘g‘ri talaffuziga xalaqit beradi. Tor, baland yoki past, yassi tanglay ko‘pchilik tovushlarning to‘g‘ri artikulyatsiyasiga imkon bermaydi.

Lablarining qalinligi ingichka va kam harakatchanligi ham lab va lab-tish tovushlarini aniq talaffuziga xalaqit beradi.

Funksional dislaliyada pereferik nutq apparatining artikulyatsion qismida hech qanday organik buzilishlar, kamchiliklar kuzatilmaydi.

Funksional dislaliyaning keng tarqalgan sabablaridan biri oiladan nutqini noto‘g‘ri shakllantirishdir. Ayrim oilalarda kattalar bola nutqiga taqlid qiladilar. Bolani suyib u bilan «bola tilida» so‘zlashadilar. Buning natijasida bolada tovushlarning to‘g‘ri talaffuzi kech rivojlanadi. Dislaliya bolalarda taqlid asosida ham yuzaga ha yuzaga kelishi mumkin. Tovushlar talaffuzi hali yetarli, to‘g‘ri shakllanmagan kichik yoshidagi bolalar bilan, tili chuchuk yoki noaniq, tez shoshib gapiradigan kishilar bilan doimo muloqatda bo‘lishi bola nutqiga salbiy ta‘sir ko‘rsatadi. Ko‘pincha bola oilada tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz etuvchi kishi nutqiga taqlid etadi. Bu esa funksional dislaliyaga sabab bo‘ladi.

Oiladagi ikki tillilik, pedagogik qarovsizlik ham funksional dislaliyaga sabab bo‘ladi. Bunda tovushlarga e‘tibor bermaslik, boladagi kamchiliklarni to‘g‘rimaslik, to‘g‘ri va aniq talaffuz namunalarini bermaslik hollari kuzda tutiladi.

Fonematik eshitishning yaxshi rivojlanmaganligi bolalarda tovushlar talaffuzidagi kamchiliklarni keltirib chiqaruvchi sabablardan biridir. Bu holda tovushlar differentsiyasi (tovushlarni farqlash) qiyinlashadi. Bolalar asosan bir-biriga o‘xshash: jarangli-jarangsiz, sirg‘aluvchi va shovqinli tovushlarni ajrata olmaydilar. Bu qiyin-chi-liklar natijasida tovushlarning to‘g‘ri talaffuzi uzoq vaqtga cho‘zilib ketadi.

Shu bilan birga, tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar, ayniqsa tovushlarni almashtirish hollari, o‘z navbatida, fonematik eshituvning shakllanishining qiyinlash-tiradi va kelgusida nutqning umumiy rivojlanmaganligiga va o‘qish-yozishda buzilishlar bo‘lishiga sabab bo‘ladi.

Dislaliya artikulyatsion apparat a‘zolarining (til, lab, pastki jag‘) harakatchanligidagi kamchiliklar natijasida ham sodir bo‘ladi. Bu hol bolaning tilni kerakli holatda ushlab tura olmasligi yoki bir harakatdan ikkinchi harakatga tez o‘ta olmasligida namoyon bo‘ladi.

Dislaliya funksional eshituvning pasayishi natijasida ham paydo bo‘lishi mumkin.

Tovushlarni noto‘g‘ri talaffuz etish ona tilida hamma tovushlarda uchratish mumkin.

Tovushlar talaffuzining buzilishi asosan artikulyatsion jihatdan talaffuz qilish qiyin bo‘lgan: sonor (r, l), sirg‘aluvchi (s, z,) va shovqinli (sh, j, ch), til orqa (k, g) tovushlarida uchraydi.

Bolalarga tovushlar talaffuzining buzilishi tovushlarni nutqda yo‘qligi, ularni buzib talaffuz etish va bir-biri bilan almashtirish hollari bilan namoyon bo‘ladi.

Bu holatlarning har birini batafsil ko‘rib chiqamiz. Nutqda tovushlarning yo‘qligi ularning so‘zning boshida (masalan, randa so‘zi o‘rniga bola «anda»), so‘zning o‘rtasida (tarvuz-«tavuz»), so‘zining oxirida (qor-«qo») tushib qolishida ifodalanishi mumkin.

Tovushlarni buzib (noto‘g‘ri) talaffuz etish shunda ifodalanidiki, bunda tovushlarning to‘g‘ri talaffuzi o‘rniga, shu tovushga yaqin lekin ona tili fonetika tizimida ifoda etilmaydigan tovush talaffuz etiladi. Masalan, tish aro sigmatizm, yon sigmatizm, valyar r (bunda til uchi tebranishi o‘rniga yumshoq tanglay tebranadi), uvilyar r (bunda til uchi o‘rniga kichik tilcha tebranadi).

Tovushlar tilning fonetik tizimida mavjud bo‘lgan boshqa tovushlarga almashtirilishi

mumkin. Ular quyidagicha namoyon bo'lishi mumkin:

1) hosil bo'lish usuliga ko'ra o'xshash, artikulyatsiya o'rniga ko'ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan, portlovchi til orqa k va g, portlovchi til oldi t va d tovushlari (masalan kitob so'zi o'rniga «titob», gul so'zi o'rniga «dul»);

2) hosil bo'lish o'rniga ko'ra o'xshash, hosil bo'lish usuliga ko'ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan sirg'aluvchi til oldi s tovushi, portlovchi til oldi t tovushi bilan (soat o'rniga «toat»);

3) hosil bo'lish usuliga ko'ra o'xshash va artikulyatsiya organlarining ishtirokiga ko'ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan s tovushi, lab-tish a'zolari ishtirokida hosil bo'ladigan f tovushi bilan (sumka so'zi o'rniga «fumka»);

4) hosil bo'lish usuli va o'rniga ko'ra o'xshash, ovoz ishtirokiga ko'ra farq qiladigan tovushlarni almashtirish, masalan, jarangli tovushlar jarangsiz tovushlar bilan almashtiriladi (bola-«pola», paypoq-«bayboq», zina-«sina», gul-«kul»).

Buzilgan tovushlarning soniga qarab dislaliya yana oddiy va murakkab turlarga bo'linadi. Agarda to'rtta tovush talaffuzida kamchilik bo'lsa-oddiy dislaliya, agar beshta va undan ortiq tovush talaffuzida kamchilik bo'lsa, bu-murakkab dislaliya deb ataladi.

Agar bir fonetik gruppaga kiruvchi tovushlar talaffuzida kamchiliklar bo'lsa (masalan, sirg'aluvchi s, z, j) bu-monomorf dislaliya. Agar u ikki va undan ortiq artikulyatsiya guruhiga tegishli bo'lsa (masalan, rotatsizm, sigmatizm, va lambdatsizm) bu-polimorf dislaliya bo'ladi.

Talaffuzidagi kamchiliklar o'z xarakteriga, ma'lum tovushlar gruppasiga tegishli bo'lishiga ko'ra dislaliya quyidagi turlarga ajratiladi:

1. Sigmatizm (grekcha «sigma» «s» harfining nomini bildiradi). Bunda sirg'aluvchi (s, z) va shovqinli (sh, j, ch) tovushlar talaffuzida kamchiliklar kuzatiladi. Sirg'aluvchi va shovqinli tovushlarning boshqa tovushlarga almash-tirilishi parasigmatizm deb yuritiladi. Masalan, soat-«toat», jo'ja-«do'da», choynak-«toynak».

2. Rotatsizm (grekcha ro harfi nomidan olingan bo'lib, «r» tovushni bildiradi) r tovushning talaffuzidagi kam-chi-liklardir. R tovushini boshqa tovushlar bilan almashtirilishi pararotatsizm deb yuritiladi. Masalan, raketa-«yaketa», rom-«lom», ruchka-«yuchka».

3. Lambatsizm-(grekcha lambda harfini nomidan olingan bo'lib, l tovushini bildiradi). –l tovushining talaffuzidagi kamchilikdan iborat. L tovushining boshqa tovushlarga almashtirilishi paralambdatsizm deb yuritiladi. Masalan, lola-«yoya», gul-«guy».

4. Jaranglatish nuqsonlari-jarangli undosh tovushlar talaffuzidagi kamchiliklar. Bu kamchiliklar jarangli undosh tovushlarni jarangsiz undosh tovushlarga almashtirilishidir: b-p, d-t, v-f, z-s, j-z, g-k va boshqalar.

Bolada tovushni to'g'ri talaffuz qilish asosan 5 yoshlarda shakllanadi. Bolalarda to'g'ri talaffuzni tarbiyalash ishi nutqning har tomonlama rivoji bilan bevosita bog'liqdir. Maktabgacha muassasalarda lug'atni boyitishga, to'g'ri talaffuz qoidalarini egallashga, grammatik shakllar bilan tanishtirishga katta e'tibor beriladi.

Tovush ta'sirotlariga bo'lgan reaksiya yangi tug'ilgan chaqaloqlarda kuzatiladi. Reaksiya tana qimirlashi, imlash, nafas va pulsning o'zgarishi ko'rinishida bo'ladi. Bolaning ikki haftaligida eshitish dominantining yuzaga kelganligi haqida xabar beruvchi, tovush ta'sirotlari ostida ba'zi bir tana harakatlarining va yig'ining to'xtalganligi kuzatiladi. To'rtinchi haftada alla ta'sirida bolada tinchlanish holati kuzatiladi. Bularning hammasi shartsiz reflekslardir.

Yetti oylikdan boshlab, bola onaning ba'zi bir tovushlariga ta'sir ko'rsatadi va bu tovushlar uning gugulash repertuaridan joy oladi. Olti-etti oylik bolaning gugulashida atrofdagilardan eshitgan va ona chos bo'lgan spetsefik holatlar yuzaga keladi. V.Tervurt yozishicha, studentlar plyonkaga yozilgan olti oylik bolaning gugulashini boshqa millatdagi bolalar gugulashidan yaxshi ajrata bilganlar.

Bolalar eng oson intonatsiyani yaxshi o'zlashtiradilar, u bolaning ona bilan emotsional muloqoti jarayonida paydo bo'lib, asosan nutqqacha eng muhim vosita hisoblanadi.

Nutqni idrok qilishni tekshirish jarayonida olimlar (V.P., Ananov, V.I. Beltikov, A.N. Gvozdev) bolalarda birinchi fonematik eshituv nutq normal rivojlangan holda juda erta yuzaga kelar ekan degan xulosaga keldilar. Avtorlarning ta'kidlashicha, bolaning eshitish analizatori funktsiyasi erta rivojlanganligi sababli u nutq rivojlanishining boshidayoq akustik jihatdan qarama-qarshi bo'lgan tovushlarni ajrata biladi, rivojlangan fonematik eshituv bolaga faqat to'liq nutqni egallashiga yordam beribgina qolmay ona tilida bema'lol mulqot qila olish malakalarini ham shakllantiradi.

Bu bolalarning o'rtasida uchraydigan eng ko'p nutq kamchiliklari, bu turli xil tovush talaffuzi kamchiliklaridir: tushurib qoldirish, noto'g'ri talaffuz qilish, o'rnini almashtirish.

Nutqning tovush tomonining umumiy qonun-qoidalarini va individual xususiyatlarini belgilash, nutqi buzilgan bolalarni o'qitish metodikasini to'g'ri tanlash va programma tuzish uchun juda muhimdir. Bolalarda ba'zi bir tovushlarning nuqsonli talaffuzi quyidagi ketma-ketlikda kuzatilgan: R tovush kamchiligi, sirg'aluvchi tovushlar, shovqinli tovushlar, L tovushi va kam miqdorda boshqa tovushlar.

Avtorlar og'zaki nutqdagi kamchiliklarning kelib chiqish sabablarini turlicha talqin qiladilar va bartaraf etish uchun turli metodik ko'rsatmalar beradilar.

L.F. Spirovaning tekshirishlari ko'rsatadiki, idrokning ham talaffuzning ham kamchiliklari xilma-xil. Ba'zi bir bolalarda talaffuzida kamchiliklar artikulyatsion apparat faoliyati va tuzilishidagi kamchiliklar juda ko'p tovushlarni noto'g'ri talaffuz qilish hisobiga kelib chiqadi. Bunda juda ko'p tovushlar nutqda bo'lmagan, yoki boshqasi bilan almashtirgan, yoki noto'g'ri talaffuz qilingan.

Boshqa bolalarda ham tovush talaffuzida kamchiliklar kuzatilgan, lekin ular nutq – harakatdagi qiyinchiliklar bilan bog'liq bo'lmay, balki tovushni noaniq idrok qilish natijasida kelib chiqadi.

Bolalarda tovush talaffuzidagi kamchiliklarni analiz qilish M.A. Nikashinaning quyidagi tovush kamchiliklari uchun umumiy xulosa qilishga sabab bo'ldi:

- tovushning bo'lmashligi – uni talaffuz qila olmaslik, artikulyatsiya va talaffuz jihatidan bir-biriga yaqin tovushlarni alishtirish;
- tovushni noto'g'ri talaffuz qilish – tishlararo, yonlama, xaqum;
- tovushlarni qo'shib yuborish – bitta tovush to'g'ri talaffuz qilinadi, lekin so'z va gaplarda bitta gruppadagi tovushlar bilan almashtiradi.
- hamma tovushlar bo'ladi, lekin noaniq, artikulyatsiya jihatidan aniq talaffuz qilinmaydi;
- bitta tovush bo'ladi, lekin nutqda yo tushib qoladi, yoki shu tovushga yaqin tovushga o'xshab talaffuz qilinadi.

N.A. Nikashina eng ko'p uchraydigan kamchiliklar deb quyidagicha xulosa qiladi: L, R tovushlar uchun – ularning bo'lmashligi, sirg'aluvchilar uchun – noto'g'ri talaffuz, shovqinlilar uchun – almashtirish, portlovchilar uchun – noaniq talaffuz.

G.A. Kashe ko'p hollarda talaffuzdagi kamchiliklarni fonematik rivojlanmaslik sifatida kvalifikatsiya qilishni qo'rsatib beradi. Fonematik rivojlanmaslikning belgisi bu qiyin artikulyatsion qoidalar, akustiko-artikulyatsion belgilar, nozik bo'lgan tovushlarni ajrata olmaslikdir.

Tovush talaffuzidagi kamchiliklar artikulyatsion organlarning harakatchanligi va tuzilishidagi buzilishlar natijasida kuzatilishi mumkin.

Bolalarda fonetiko-fonematik rivojlanmaslikning strukturasi haqidagi tasavvurlar, ona tilidagi fonemalarni ko'proq qilish va talaffuzdagi kamchiliklar bilan birgalikda tipikdir. Kamchiliklarni asosiy belgisi artikulyatsion jihatdan nozik tovushlarni idrok qilish va talaffuzni shakllantiruvchi protsesslarning tugallanmaganligi hisoblanadi. Xullas fonetiko-fonematik buzilish deganda bolalarda ona tilidagi fonemalarni talaffuz qilish va idrok qilishdagi defektlarning borligi nutqning talaffuzni shakllantiruvchi sistemasi buzilganligi tushuniladi.

Maktabgacha ta'lim yoshidagi bolalar hayotida o'yinlar nihoyatda muhim o'rin tutadi. O'yinlar bolalarda idrok, sezgi, xotira, tafakkur, nutqni rivojlantirishga yordam berish orqali ularni ma'naviy-axloqiy, aqliy, jismoniy va estetik jihatdan tarbiyalashga xizmat qiladi. SHu bois, ko'ra dislaliyal bolalar og'zaki nutqidagi kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan tadqiqotni olib borishda o'yin texnologiyalaridan foydalanishga alohida e'tibor qaratildi.

Tovushlarni to'g'ri talaffuz qilish nuqsonlarini to'g'rilashni dislaliyal bolalarning idrok qilish faoliyatining rivojlanishi bilan bog'lash, qiyoslashning, analiz va sintizning harakatlari bilan bog'lash lozim. Ixtissoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasida to'g'ri talaffuz qilish buzilishlarini to'g'rilashdagi logopedik ishlarda qiyoslash usulini keng qo'llaniladi. Masalan, tovushni to'g'rilash bosqichida to'g'ri va noto'g'ri talaffuz qiyoslanadi. Avtomatizatsiya bosqichida shu tovushning o'zi fonetik jihatdan bir-biridan uzoq bo'lgan tovushlar bilan qiyoslanadi. Korrektsiya (to'g'rilash) jarayonida tovush miqdoriga nisbatan turli so'zlarning tovush tuzilishi qiyoslanadi.

Asosiy diqqat – e'tibor umumiy va nutqiy materialning rivojlantirilishiga, eshitish qobiliyatining, xotiraning shakllantirilishiga, ya'ni aqli zaif bo'lgan bolalardagi talaffuz qilish buzilishlarining barcha sabablarini normallashtirishga qaratiladi.

Talaffuz qilishdagi buzilishlarning korrektsiyasini nutqiy rivojlanish bilan, nutqning fonetik rivojlanishi, lug'at, tilning grammatik qurilishi bilan bog'laydilar. CHunki, bolalarda talaffuz qilishdagi nuqsonlar nutq rivojlanmay qolishining umumiy qiyofasida ko'rinadi.

Talaffuz qilishdagi buzilishlarning korrektsiyasida diqqat-e'tibor so'zning tovush tarkibi haqidagi aniq tasavvurga ega bo'lishga, so'zdagi tovushni ajrata bilishga, nutq tovushlarning ma'no bildiruvchi vazifalarini aniqlashga qaratiladi.

Ixtissoslashtirilgan maktabgacha ta'lim muassasida logopedik ish bilan savodga o'rgatish o'rtasida o'zaro uzviy aloqa amalga oshiriladi. Tovushni to'g'ri talaffuz qilish ustidagi ish bolani shu tovush ifodalagan harfni o'zlashtirishga tayyorlaydi. Boshqa tomondan harfni o'rganish esa tovushni nutqqa mustahkamlash uchun grafik tayanch bo'lib xizmat qiladi. Bola harfni o'rganishdan avval, tovushni to'g'ri talaffuz qila bilishi, uni nutqqa ajrata olishi kerak.

Umumiy nutqiy motorikani rivojlantirish, eshitish va xotirani mustahkamlash ustida ishlar olib boriladi.

Nutqiy nafas olish, uzoq nafas chiqarib turishni shakllantirish zarur. Bular o'yin ko'rinishidagi mashqlarda o'tkaziladi.

Uzoq vaqt nafas chiqarishga ovoz tembri, balandligi, kuchini rivojlantirish maqsadida, ovoz mashqlarini kiritish lozim. Keyinchalik oddiy artikulyator mashqlar kiritiladi.

Dislaliyal bolalarda artikulyator motorikani rivojlantirish ikki yo'nalishda olib boriladi: harakatning knetik asosini rivojlantirish va artikulyator harakatning kinestetik asoslarini rivojlantirish. Kinestetik holatni rivojlantirishda ish ko'z gusiz olib boriladi, o'quvchilar lablar holatini takrorlaydi, logopedning nutq yo'riqnomasi asosida til holatini passiv o'zgartirishini qaytaradi. Bolalarni eshitib nutqiy birliklarni ajratishga o'rgatiladi. («qani kim qichqirayapti?»), «top-chi ovoz qaerdan kelayapti?» kabi o'yinlar. SHuningdek, o'quvchilarni so'zlar tartibini eslab qolishni, bo'g'inlarni avval rasmlar asosida keyin ularsiz qaytarishga o'rgatiladi. Dastlabki, bosqichda tovush analizi va sintezining elementar shakllarini rivojlantirish amalga oshiriladi. Bolalar undosh va unli tovushlarni ajratib ko'rsatishni o'rganadilar.

Artikulyatsion mashqlar o'tkazish uchun kerakli bo'lgan talablar:

1. Talab qilingan vaziyatni egallay bilish, shu vaziyatda tura bilish (olish), shu vaziyatni sakrab turish, bir vaziyatdan ikkinchisiga o'ta bilish.

2. Artikulyatsion motorikani rivojlantiruvchi mashqlar tizimiga statik mashqlar kabi nutq xarakatining dinamik koordinatsiyasini rivojlantirishga qaratilgan mashqlarni ham kirgizishi lozim.

3. Lab va til harakat mashqlarini birga olib borish zarur, chunki bu organlar tovushlarni talaffuzida birgalikda ishtirok etishadi, bir-biriga moslashadi (bu ko'rinishnikoartikulyatsiya

deyiladi).

4. Bola toliqib qolmasligi uchun mashg'ulotlar qisqa, lekin ko'p marta o'tkazilishi lozim. Orada boshqa ish turi bilan shug'ullanish lozim.

5. Kinestik sezgini, kinestik analiz va tasavvurni shakllantirishga katta e'tibor berish kerak.

6. Xarakterlarni o'zlashtirish bilan birga, tovushlarni realizatsiya qilish uchun logoped boshqa tovushlarga kerak bo'lgan xarakterlar ustida ishlashga o'tadi.

Dislaliyali bolalarda tovushni yo'lga qo'yish aralash usullarda amalga oshiriladi. Tovushlarni nutqqa qo'yishni uch usulini ko'rsatadi: taqlid (imitativ), mexanik (yordam) va aralash.

Birinchi usul-logopeddan eshitgan tovushga mos qilib bolaning ongli ravishda shu tovush artikulyatsiyasini topishga va talaffuz qilishga urinishiga asoslangan. Bunda bola akustik tayanchdan tashqari ko'rish, taktil va fikrlash sezgilardan ham foydalanadi. Taqlid usulda asosan artikulyatsion organing holati qanday bo'lishi kerakligi haqida logoped og'zaki tushuncha beradi. Izlanuvchanlik sirg'aluvchi, jarangli tovushlarni postanovka qilishda yaxshi natijalar beradi. Ba'zi bir tovushlar esa, masalan: sonor «r», «l», affrikatlar «ch», til orqa «k», «g», «x» tovushlar ko'pincha boshqa usuldan foydalangan holda muvaffaqiyatli qo'yiladi.

Ikkinchi usul-maxsus zond yoki shpatel bilan artikulyatsion organga mexanik ta'sir etishga asoslangan. Logoped boladan bir tovushni aytishni va shu tovushni bir necha marta takrorlashini so'raydi, takrorlash vaqtida zond yoki shpatel yordamida tovushning artikulyatsion holatini o'zgartiradi. Natijada boshqa tovush hosil bo'ladi.

Bu usulda bolaning artikulyatsion organlari logoped harakatlariga bo'ysunadi, bola mustaqil amalga oshira olmaydi. Uzoq shug'ullanishdan keyin bola mexanik yordamsiz kerakli vaziyatni egallay oladi, o'ziga shpatel yoki qo'li bilan yordam bergan holda.

Uchinchi usul-oldingi ikkita usulni birga olib borilishiga asoslanadi. Taqlid va tushuntirish bunda asosiy rol ni o'ynaydi. Mexanik usuldan qo'shimcha ravishda foydalaniladi.

Tovushni nutqda qo'llash bo'yicha olib boriladigan ishni tovushni nutqqa qo'yish qoidalarini ketma-ketligini xisobga olib rejalashtirish, bunda asosiy diqqat-e'tibor, tovush artikulyatsiyasini ongli ravishda mustahkamlashga qaratilib, bolalar til, lablar, tishlar qay holatda turganligini ko'rsatib, aytib bera olishlari talab etiladi. Tovushlarni nutqqa qo'yishda taqlid, mexanik va aralash usullardan foydalaniladi. Ona tili fonetikasini shakllantirish tovush o'zlashtirishning ketma-ketlikdagi tabiiy-fiziologik jarayoni singari tashkil qilinadi. Tovushlarni nutqqa qo'yish quyidagi ketma-ketlikda amalga oshiriladi. Mashg'ulotlar bolaning yoshi, ta'limga jalb etilgan vaqti, bola nutqi va ruhiy rivojlanishi, ko'rish nuqsonining darajasilarini hisobga olgan holda guruhli tarzda kichik guruhcha tuzgan holda va bola bilan yakkama-yakka ravishda olib boriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ayupova M.Yu. Logopediya O'zbekiston faylasuflar Milliy jamiyati. T.: 2022.
2. Волковой Л.С. Логопедия. М.: Владос. 1998.

TALABALARDA O'ZBEK MILLIY KURASHI VOSITASIDA SOG'LOM TURMUSH MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHNING AFZALLIKLARI

Shukurlaev Ulug'bek Jamolovich

Osiyo xalqaro universiteti, Jismoniy madaniyat yo'nalishi magistri

Annotatsiya. Mazkur maqolada o'zbek milliy kurashi vositasida talabalarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirishning ahamiyati tahlil qilinadi. Milliy kurash jismoniy chiniqish, intizom, ma'naviy va ruhiy barqarorlikni shakllantirishda muhim omil bo'lib, talabalarning sog'lom hayot tarzini qo'llab-quvvatlashga xizmat qiladi. Shuningdek, maqolada kurashning sport va tarbiyaviy jihatlari, uning yoshlar orasida vatanparvarlik, iroda, sabr-toqat kabi fazilatlarni rivojlantirishdagi roli yoritib beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, o'zbek milliy kurashi bilan shug'ullanish talabalarning jismoniy va ruhiy salomatligini mustahkamlashga, ular orasida sog'lom turmush tarzini targ'ib qilishga va ijtimoiy faolligini oshirishga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Kalit so'zlar. milliy kurash, sog'lom turmush madaniyati, halol, sog'lom turmush tarzi, jismoniy tayyorgarlik, Xalqaro kurash assotsiatsiyasi.

Kirish. Bugungi kunda sog'lom turmush tarzini shakllantirish va uni yoshlar orasida ommalashtirish dolzarb masalalardan biridir. Ayniqsa, talabalik davrida jismoniy va ma'naviy sog'lomlikni ta'minlash yoshlarning kelajak hayotida muvaffaqiyatli va barkamol shaxs bo'lib yetishishida muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu maqolada O'zbekistonning milliy sport turi – kurash vositasida talabalarda sog'lom turmush madaniyatini rivojlantirish masalalari yoritiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash va sportni rivojlantirish borasida qator qarorlar qabul qilingan. Xususan, «Sog'lom turmush tarzini keng targ'ib qilish va ommaviy sportni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarori (PQ-6099, 2020-yil 30-oktabr) hamda «Jismoniy tarbiya va sport sohasini rivojlantirish strategiyasi»ga oid qarorlar milliy sport turlarini, jumladan, kurashni rivojlantirishga katta e'tibor qaratmoqda. Ushbu qarorlar asosida ta'lim muassasalarida sport infratuzilmasini yaxshilash, yoshlarni sport bilan muntazam shug'ullanishga jalb qilish choralari belgilangan.

Dunyodagi har bir xalqning o'z milliy sport turi bo'lganidek, o'zbeklarning ham an'anaviy kurashi tarixining ildizlari juda olisga borib taqaladi. Milliy kurash asrlar osha takomillashib, bizning davrimizgacha hamon e'zozlanib kelinmoqda. Bu o'rinda xalqimizning ruhiyatiga, asl xislatlariga azal-azaldan xos bo'lgan fazilatlar, mardlik va jasurlik, bag'rikenglik, olijanoblik, insonparvarlik falsafasi kabilar o'z mujassamini topgan. “Kurash” so'zi halol yo'l bilan g'alabaga erishish ma'nosini bildiradi hamda o'zida mardlik, kuchli iroda, halollik va raqibga nisbatan hurmatni anglatadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning tashabbusi hamda davlatimiz rahnamoligida jismoniy tarbiya va sportga katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, 2017 yil 3 iyun, Jismoniy tarbiya va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3031-son, 2017-yil 2-oktabrdagi — Kurash milliy sport turini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PQ-3306-son, 2018 yil 5 martdagi — Jismoniy tarbiya va sportsohasida davlat boshqaruvi tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi PF-5368-sonli farmon va qarorlarida yurtimiz aholisini sog'ligini mustahkamlash jismoniy tayyorgarligini oshirish, sog'lom turmush tarzini shakllantirish, shuningdek yurtimizda kurash sportini yanada rivojlantirish masalalariga e'tibor qaratilgan. Mamlakatimizda sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalash, yoshlarning o'zijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarishi, mamlakatimiz yigit-qizlarini XXI asr talablariga to'liq javob beradigan har tomonlama rivojlangan shaxslar etibvoyaga yetkazish uchun zarur shart-sharoitlar va imkoniyatlar yaratib kelinmoqda. Bu borada Milliy kurashga ham e'tibor har qachon kidan ortmoqda. “Kurash – yiqilish, g'olib chiqish uchun ikki kishi

o'rtasidagi, ma'lum qoidalarga asoslangan olishuv, bellashuv. Kurash tutish –yiqilgan yoki g'olib chiqish uchun o'zaro bellashmoq, kurashmoq” —sport turi, belgilangan qoidaga muvofiq ikki sportchining yakkama-yakka olishuvi. Kurashish san'ati ko'p xalqlarda qadim zamonlardan buyon ma'lum. Kurash ayniqsa Yunonistonda kengtarqalib, qadimgi olimpiada musobaqalaridan doimiy o'rin olib kelgan. Ishlatilgan usullarga bajarilishiga mos ravishda «chala», «yonbosh», «halol» baholari, qoidaga zid harakatlarga esa «tanbeh», «dakki», «g'irrom» jazolari beriladi. Kurashuvchi «halol» bahosini olsa (yoki raqibi «g'irrom» bilan jazolansa) bu uning g'alabasini bildiradi. Ikki bor «yonbosh» bahosini olish (yoki raqibining ikki bor «dakki» deya jazolanishi) ham g'alabani anglatadi. «Chala» baholari hisobga olib borilib, baho olgan kurashchiga g'alaba beriladi, kurashchilarning baho va jazolari soni teng holatda baho ustunlikka ega bo'ladi, jazolar soni teng bo'lsa oxirgi jazo olgan mag'lub hisoblanadi, agar barchasi teng (yoki baho va jazo olinmagan) bo'lsa, g'olib hakamlarning ko'pchilik ovozigacha ko'ra e'lon qilinadi. Kurashimiz tarixini ilmiy isbotlab beradigan 6 ta topilmaashyoviy dalil mavjud. Chunonchi, Panjikentdan topilgan kurashayotgan ikki pahlavonning devoriy rasmi Sug'diyona davlatchiligiga, ya'niy o'rtaasrlar davriga oid noyob yodgorlik sanaladi. Shunday ashyolardan biri silindr shaklidagi sopol idish bo'lib, u qadimgi Baqtriya (Janubiy “o'zbekiston”) hududidan topilgan. Uning bir parchasida ikki kurashchi va ulardan birining o'z raqibini oyog'idan chalayotgani tasvirlangan. Yana bir idish gardishidagi haykalchalarda ham pahlavonlarning qo'llarini ko'tarib kurashga shaylanayotgani holda o'z ifodasini topgan. Bu idishlar bronza davriga oid bo'lib, u kurashning tarixi yanayam ko'proq, ya'ni 3,5 ming yil ekanligidan guvohlik beradi. Navbatdagi topilma bronza davriga oid ikkita ot ta'qasidir. Kurash usullari tasvirlangan har ikkala taqa, professor M.P.Gryaznovning yozishicha, saksif qabilalarining ma'naviy qarashlari ruhida ishlangan bo'lib, ko'chmanchilik davrining dastlabki bosqichlariga oiddir. Milodiy birinchi ming yillikning o'rtalariga oid kumush cho'mich gardishi sirtida ham ikki pahlavonning kurashchimizga xos olishayotgan holati tasvirlangan. Samarqand yaqinidagi Chelak qishlog'idan topilgan ashyolar ham o'tmishdan sado beradi. Geometrik naqshlar solingan Ushbu idishlar orasida kumush bastali qadoqcha, ayniqsa, e'tiborni tortadi. Uning dastasi sirtida ikki polvon huddi O'zbek Kurashi usulida olishayotgani ifodalangan. Mazkur topilma ilk o'rta asrlar davriga oiddir. Benazir alloma Abu Ali ibn Sino (980-1037) ham “Tib qonunlari” kitobida kurash insonning ruhiy va jismoniy holatida alohida ahamiyat kasb etishiga urg'u bergani bejis emas. Buyuk tabibning yozishicha, badan tarbiya bilan muntazam shug'ullanuvchi kishi kasallikning davosiga muhtoj bo'lmaydi. Sharq adabiyoti durdonalari hisoblannish “Shohnoma”, “Qobusnoma”, “Boburnama” singari asarlarda ham polvonlari siyrati-yu qiyofasiga oid yorqin chizg'ilar, ularni noa'naviy olamini serjilo rangli tasvirlar aks etgan. Bundan ko'rinib turibdiki bizning milliy kurash tarixi uzoq davrga borib taqaladi.

Milliy kurash bo'yicha turli olimlar va mutaxassislar tadqiqot olib borgan. Jumladan: Rafiqov I. o'zining «Kurash – milliy sport merosimiz» asarida kurashning tarixi, rivojlanish bosqichlari va uning yoshlar tarbiyasidagi ahamiyatini tahlil qilgan. Xayitov A. va Jo'rayev M. jismoniy tarbiya va sportning inson organizmiga ta'sirini o'rganib, milliy sport turlarining salomatlikni mustahkamlashdagi rolini yoritib bergan. O'zbekiston Milliy Olimpiya qo'mitasi tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda kurashning xalqaro sport maydonida rivojlanishi va uning ommalashuvi tahlil etilgan. Jismoniy tarbiya va sport vazirligi tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda milliy sport turlarini ta'lim muassasalarida rivojlantirishning metodik asoslari ko'rib chiqilgan.

O'zbek milliy kurashi nafaqat sport turi, balki yoshlarni ma'naviy va axloqiy jihatdan tarbiyalaydigan vosita hamdir. U jasorat, matonat, halollik va vatanparvarlik kabi fazilatlarini shakllantiradi. Talabalar orasida milliy kurash bilan shug'ullanish ularning o'z madaniy merosiga bo'lgan qiziqishini oshiradi hamda jismonan chiniqishiga xizmat qiladi.

Talabalik davrida muntazam jismoniy faollik bilan shug'ullanish juda muhimdir. Milliy kurash orqali talabalar quyidagi jihatlar bo'yicha rivojlanadi:

- Jismoniy chiniqish – muskul va bo'g'imlarni mustahkamlashga yordam beradi;
- Ruhiy barqarorlik – stress va charchoqni kamaytiradi;
- Intizom va iroda kuchi – o'z ustida ishlash va o'z-o'zini nazorat qilish qobiliyatini oshiradi;
- Ijtimoiy faollik – jamoadoshlik ruhini shakllantirib, ijtimoiy muhitga moslashishni osonlashtiradi.

Talabalarda sog'lom turmush madaniyatini shakllantirish uchun universitet va institutlarda milliy kurash bo'yicha maxsus to'garaklar tashkil etilishi, sport musobaqalari o'tkazilishi muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, talabalarni milliy sportga jalb qilish uchun motivatsion treninglar va seminarlar tashkil etilishi tavsiya etiladi.

O'zbekistonda milliy kurashga bo'lgan qiziqish ortib bormoqda. 2022-yilda o'tkazilgan statistik ma'lumotlarga ko'ra:

Oliy ta'lim muassasalarida 30% dan ortiq talabalar jismoniy tarbiya darslarida milliy kurash bilan shug'ullanmoqda.

Sport klublarida milliy kurash bilan shug'ullanayotgan yoshlar soni 2015-yilga nisbatan 45% ga oshgan.

Respublika bo'ylab milliy kurash bo'yicha o'tkazilgan musobaqalar soni yildan-yilga ko'payib, 2023-yilda 120 dan ortiq musobaqa tashkil etilgan.

O'zbekiston kurash federatsiyasi tomonidan xalqaro miqyosdagi turnirlarda ishtirok etayotgan sportchilarning soni 2018-yildan boshlab 60% ga oshgan.

Davlatimiz va “Kurash” xalqaro assotsiatsiyasining bevosita qo'llab-quvvatlashi natijasida “Kurash” xalqaro sport turi sifatida keng e'tirof etildi. “Kurash”, “halol”, “ta'zim”, “to'xta”, “yonbosh” kabi atamalar esa xalqaro sport so'z va iboralari qatoridan mustahkam o'rin egalladi. 2010-yilda Kurash xalqaro assotsiatsiyasi Olimpiya o'yinlari dasturiga kiritish uchun buyurtma berishida muhim talab hisoblangan jahon dopingga qarshi kurash agentligining e'tirofiga sazovor bo'ldi. So'ngra Shahrisabz, Qarshi shaharlarida Amir Temur, Termiz shahrida Al-Hakim at-Termiziy, Buxoroda Bahouddin Naqshband, Andijonda Bobur Mirzo, Xorazmda Pahlavon Mahmud xotiralariga bag'ishlangan Prezident sovrini uchun xalqaro turnirlar tashkil etildi va bu musobaqalarni o'tkazish an'anaga aylandi. Shuningdek “XXI asr sporti” kurash bo'yicha Buyuk Britaniyada O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov xalqaro turnirlari o'tkazib kelinmoqda. 1992-1998-yillarda esa Janubiy Koreya, Kanada, Yaponiya, Hindiston, AQSH va Rossiya kabi yirik davlatlarda bo'lib o'tgan yirik sport anjumanlarida o'zbek kurashi namoyish etildi. Natijada jahon hamjamiyati 1998 yil 6 sentabrda o'zbek kurashini xalqaro sport turi sifatida rasman tan oldi va Osiyo, Yevropa hamda Amerika qit'asining 28 ta davlati vakillari ishtirokida o'tkazilgan ta'sis kongressida Xalqaro kurash assotsiatsiyasi (XKA) ga asos solindi. U xalqaro miqyosda o'zbek kurashining namoyon etuvchi rasmiy xalqaro sport turiga aylandi. Ayni paytda assotsiatsiyaga 129 davlat a'zo hisoblanadi. XKAning sa'y-harakatlari bilan kurash bo'yicha jahon chempionatlari va xalqaro turnirlar yuqori saviyada tashkil etilmoqda, kurash ko'plab xalqaro o'rinlar dasturiga ham kiritilmoqda. Agarda Yaponiya milliy sport ishqibozlari tasavvurida – dzyudo, karate, sumo, Xitoy – ushu va kung-fu, Koreya – taekvando va sirim, Angliya – futbol, Kanada – shaybali hokkey, AQSH – beysbol, basketbol vatani hisoblansa, endi O'zbekiston jahonda kurash yurti sifatida e'tirof etilmoqda. “Kurash” so'zini ikki ma'noda ishlatamiz: birinchisi – ikki polvonning bellashuvi, ikkinchisi esa o'zbeklarning jahondagi ramziy yuksak maqomidir. 2017-yil 20-sentabrda Turkmanistonning Ashxobod shahrida bo'lib o'tgan Osiyo Olimpiya kengashining 36-Bosh Assambleyasida kurash tarixda ilk bor XVIII yozgi Osiyo o'yinlari dasturiga rasman kiritildi.

Kurashni talabalarning kundalik hayotiga integratsiya qilish uchun quyidagi metodikalar tavsiya etiladi:

1. Dars jadvaliga kiritish – Jismoniy tarbiya darslarida milliy kurash bo‘yicha alohida mashg‘ulotlar tashkil qilish.

2. Maxsus to‘garaklar – Universitet va institutlarda milliy kurash klublari va to‘garaklarini tashkil etish.

3. Musobaqalar va festivallar – Talabalar o‘rtasida milliy kurash bo‘yicha turnirlar va ommaviy tadbirlarni uyushtirish.

4. Motivatsion tadbirlar – Kurash afzalliklari haqida seminarlar va mahorat darslari o‘tkazish.

5. Jismoniy tayyorgarlik dasturlari – Kurashga oid mashqlar orqali talabalarni jismonan tayyorlash va sog‘lom turmush tarziga yo‘naltirish.

Xulosa O‘zbek milliy kurashi talabalarning sog‘lom turmush madaniyatini rivojlantirishda samarali vosita hisoblanadi. U yosh avlodning jismoniy sog‘lomligi bilan birga, ularning ma‘naviy yetukligini ta‘minlashga xizmat qiladi. Shu sababli, ta‘lim muassasalarida milliy kurashni keng targ‘ib qilish va uni yoshlar orasida ommalashtirish zaruriyat hisoblanadi.

Tavsiyalar

1. Universitet va institutlarda milliy kurash bo‘yicha majburiy darslar joriy etish – bu talabalarning jismoniy tayyorgarligini oshirishga yordam beradi.

2. Talabalarga milliy kurashni targ‘ib qiluvchi maxsus dasturlar ishlab chiqish – bu orqali kurashga qiziqish ortadi va sog‘lom turmush tarzi kengroq yoyiladi.

3. Milliy kurash bo‘yicha xalqaro turnirlarda ishtirok etishni rag‘batlantirish – bu talabalarning sportga bo‘lgan ishtiyoqini oshirish bilan birga, xalqaro maydonda O‘zbekistonning sport nufuzini oshiradi.

4. Kurashga oid ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish – talabalarning milliy sport tarixi va rivojlanish yo‘nalishlariga oid ilmiy izlanishlarini qo‘llab-quvvatlash muhim.

5. Ommaviy axborot vositalari orqali milliy kurashni keng targ‘ib qilish – bu yoshlar orasida kurashga qiziqishni oshirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Qarori, PQ-6099, 2020-yil 30-oktabr.
2. O‘zbekiston Respublikasi Jismoniy tarbiya va sport vazirligi. «Jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish strategiyasi». Toshkent, 2021.
3. Karimov I.A. «Yuksak ma‘naviyat – yengilmas kuch». Toshkent, Ma‘naviyat, 2008.
4. O‘zbekiston Milliy Olimpiya qo‘mitasi materiallari, 2022.
5. Rafiqov I. «Kurash – milliy sport merosimiz». Toshkent, 2019.

MATEMATIKA BO'YICHA FAN OLIMPIADALARIGA TAYYORLASH JARAYONIDA TAVSIYA QILINADIGAN MASALALAR MAZMUNIGA QO'YILADIGAN TALABLAR

*Sharipova Mehrinoz Erkinovna,
Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti 2-kurs magistri*

*Xamedova Nilufar Azimovna,
Toshkent Kimyo Xalqaro universiteti dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi*

Annotatsiya. Mazkur maqolada matematika fan olimpiadalariga tayyorgarlik jarayonida tavsiya etiladigan masalalarning mazmuniga qo'yiladigan talablar tahlil qilinadi. Xususan, masalalarning murakkablik darajasi, mantiqiy tahlil qilish ko'nikmalarini rivojlantirishga yo'naltirilganligi, innovatsion yechimlar talab qilishi va nazariy bilimlarni amaliy qo'llash imkoniyatlarini ta'minlashi kabi mezonlar muhokama qilinadi. Shuningdek, olimpiada masalalarini tanlash va tuzishda xalqaro tajriba hamda ilg'or metodikalardan foydalanish ahamiyati yoritiladi. Maqola matematika bo'yicha olimpiadalarga tayyorlanayotgan o'quvchilar, murabbiylar va metodistlar uchun foydali bo'lishi kutilmoqda. Ushbu maqolada bunday masalalarning asosiy mezonlari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: matematika, fan olimpiamt, jarayon, masalalar mazmuniga qo'yiladigan talablar.

Kirish. Matematika fan olimpiadalarida iste'dodli o'quvchilarni aniqlash, ularning ijodiy va mantiqiy fikrlash qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu jarayonda muhim omillardan biri — o'quvchilarni olimpiadalarga tayyorlash uchun tavsiya etiladigan masalalarning mazmuni va ularning sifatiga qo'yiladigan talablarni belgilashdir.

Matematika olimpiadalariga tayyorlash jarayoni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlarida ta'lim tizimini rivojlantirish bo'yicha belgilangan ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilgan. Jumladan, «Matematika fanini yanada rivojlantirish va matematik ta'lim sifatini oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Prezident qarorida (PQ-81-son, 2021-yil 7-may) matematika bo'yicha iqtidorli yoshlarni qo'llab-quvvatlash va ularga xalqaro olimpiadalarda muvaffaqiyat qozonish uchun sharoit yaratish muhimligi qayd etilgan. Shu bilan birga, 2019-yil 29-apreldagi PQ-4319-sonli «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qarorda ham fan olimpiadalariga tayyorgarlik jarayonini takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar belgilangan. Ushbu qarorlar asosida olimpiada masalalarining mazmuni ham zamonaviy talablarga mos bo'lishi lozim.

Matematika olimpiadalariga tayyorgarlik jarayonida foydalaniladigan adabiyotlar o'quvchilarga nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy tajribani oshirish imkonini beradi. Olimpiada masalalarini tuzishda turli xil akademik nashrlar, xalqaro olimpiada to'plamlari, taniqli matematik olimlarning asarlari va ilg'or ta'lim metodikalari asos qilib olinadi. Jumladan, P. Zeitzning «The Art and Craft of Problem Solving», T. Andreescu va R. Gelca ning «Mathematical Olympiad Challenges» kabi kitoblari olimpiada tayyorgarligida muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekistonlik bir qator olimlar matematika olimpiadalariga tayyorlash va matematik ta'lim sohasida tadqiqotlar olib borgan. Abduhamid Xodjayev matematika o'qitish metodikasi va olimpiada masalalariga, Shavkat Ayupov iqtidorli yosh matematiklarni tayyorlashga qaratilgan dasturlarni yaratgan, Dilshod Eshmurodov matematika olimpiadalariga tayyorlash bo'yicha bir nechta uslubiy qo'llanmalar yaratib, bir qator talablarni ishlab chiqqan, Gulchehra Sodiqova matematika olimpiadalariga tayyorlashda ehtimollar nazariyasining qo'llanilishi yuzasidan tadqiqotlar olib borgan.

Matematika bo'yicha fan olimpiadalariga tayyorlash jarayonida tavsiya qilinadigan

masalalar mazmuniga qo'yiladigan talablar qo'yidagilarni o'z ichiga oladi.

Masalalarning murakkablik darajasi. Olimpiada masalalari turli darajadagi qiyinchiliklarga ega bo'lishi kerak. Ular o'quvchilarning nafaqat standart matematik bilimlarini sinovdan o'tkazishi, balki yangi usullarni o'rganish va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirishiga imkon yaratishi lozim. Masalalar oson, o'rtacha va qiyin darajalarda tuzilishi tavsiya etiladi, bu esa turli darajadagi o'quvchilar uchun mos keluvchi muhitni yaratishga yordam beradi.

Mantiqiy tahlil va ijodiy fikrlashni rivojlantirish. Olimpiada masalalari o'quvchilarning faqatgina standart formulalar va algoritmlarni qo'llashiga emas, balki chuqur fikrlash va tahlil qilishiga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. Masalalarni yechish jarayonida o'quvchi mantiqiy xulosalar chiqarish, yangi g'oyalar ishlab chiqish va turli metodlardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'lishi lozim.

Nazariy bilimlarni amaliy qo'llash imkoniyati. Olimpiada masalalari nafaqat nazariy bilimlarni sinovdan o'tkazishi, balki ularni real hayotiy masalalar yechimida qo'llash imkonini ham berishi kerak. Bu orqali o'quvchilar matematikani yanada qiziqarli va foydali fan sifatida qabul qilishadi. Masalan, kombinatorika, ehtimollar nazariyasi yoki geometriya masalalarini real hayotiy vaziyatlarga moslashtirish ularning mazmunini yanada boyitadi.

Innovatsion va noodatiy yechimlarni talab qilish. Olimpiada masalalari an'anaviy yo'llar bilan emas, balki ijodiy yondashuv orqali yechiladigan bo'lishi muhim. O'quvchilarni yangi metodlar, umumlashtirish va analogiyalardan foydalanishga undaydigan masalalar ayniqsa samarali hisoblanadi. Masalan, turli metodlar orqali yechiladigan bir masala o'quvchilarga bir vaqtning o'zida bir necha yondashuvlarni o'rganish imkonini beradi.

Xalqaro olimpiadalar tajribasi shuni ko'rsatadiki, eng yaxshi masalalar o'quvchilarning fundamental bilimlarini sinovdan o'tkazish barobarida ularning matematik tafakkurini kengaytiradi. Shuning uchun tayyorlov jarayonida xalqaro olimpiadalar (IMO, AIME, EGMO va h.k.) masalalaridan o'rganish va ulardan foydalanish tavsiya etiladi.

Matematika olimpiadalariga tayyorgarlik jarayonida quyidagi metodik tavsiflarga e'tibor qaratish zarur:

Modullarga asoslangan ta'lim. O'quvchilarni daraja bo'yicha tayyorlash, har bir bosqichda zarur bilim va ko'nikmalarni shakllantirish.

Tahliliy yondashuv. Masalalarni yechishda turli strategiyalarni o'rgatish, matematik tushunchalarni chuqurroq anglash.

Individual yondashuv. O'quvchilarning qobiliyatlarini hisobga olgan holda maxsus dasturlar tuzish.

Trening va simulyatsiyalar. Xalqaro olimpiadalarga yaqin formatda mashg'ulotlar o'tkazish, vaqtni boshqarish ko'nikmalarini shakllantirish.

Masalalarning tizimli o'rganilishi. Turli murakkablik darajasidagi masalalarni bosqichma-bosqich hal qilish orqali mavzuni mustahkamlash.

O'zbekiston o'quvchilari xalqaro matematika olimpiadalarida muntazam ishtirok etib kelmoqda. Xususan, 2024-yilda bo'lib o'tgan Xalqaro Matematika Olimpiadasida (IMO) O'zbekiston jamoasi 6 nafar o'quvchi bilan qatnashib, 1 ta kumush va 2 ta bronza medalini qo'lga kiritdi. Shu bilan birga, 2023-yilda o'tkazilgan Osiyo Tinch okeani Matematika Olimpiadasida (APMO) o'zbekistonlik o'quvchilar 5 ta bronza medalini qo'lga kiritishdi. Ushbu natijalar mamlakatimizda matematika ta'limining rivojlanayotganligini va iqtidorli yoshlarning xalqaro maydonda muvaffaqiyat qozonayotganligini ko'rsatadi.

Xulosa. Matematika fan olimpiadalariga tayyorlash jarayonida masalalarning mazmuniga qo'yiladigan talablar juda muhim ahamiyatga ega. Ular murakkablik darajasi, mantiqiy tahlil va ijodiy fikrlash, amaliy qo'llash imkoniyati hamda innovatsion yondashuv kabi mezonlarga javob berishi lozim. Shuningdek, xalqaro tajribadan foydalanish orqali ushbu masalalarni yanada mukammallashtirish mumkin. To'g'ri tanlangan masalalar o'quvchilarning intellektual

rivojlanishiga sezilarli hissa qo'shadi va ularni muvaffaqiyatli natijalarga erishishga undaydi.

Adabiyotlar ro'yxati

1. Zeitz, P. (2007). *The Art and Craft of Problem Solving*. Wiley.
2. Andreescu, T., & Gelca, R. (2000). *Mathematical Olympiad Challenges*. Birkhäuser.
3. Engel, A. (1998). *Problem-Solving Strategies*. Springer.
4. Djukić, D., Janković, V., Matic, I., & Petrovic, N. (2006). *The IMO Compendium: A Collection of Problems Suggested for the International Mathematical Olympiads: 1959-2004*. Springer.
5. Polya, G. (1945). *How to Solve It*. Princeton University Press.
6. Xodjayev, A. (2019). *Matematik tafakkurni rivojlantirish usullari*. Toshkent.
7. Ayupov, Sh. (2021). *Olimpiada masalalari va ularning yechim usullari*. O'zbekiston Fanlar Akademiyasi.
8. Eshmurodov, D. (2020). *Matematika olimpiadalariga tayyorgarlik metodikasi*. Toshkent.
9. Sodiqova, G. (2022). *Matematik mantiq va ehtimollar nazariyasi asoslari*. Toshkent.

19.00.00 – PSIXOLOGIYA FANLARI

TALABALARDA TOLERANTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING IJTIMOIIY-PSIXOLOGIK MODELI VA MAZMUNI

Bafayev Muxiddin Muxammadovich

Toshkent davlat pedagogika universiteti Psixologiya kafedrasi mudiri, PhD, dotsent

Annotatsiya: Tolerantlik ko ‘rinishlari va turlarning xilma-xilligini anglash “tolerant shaxs” haqida aniq bir xulosa aytish differensial munosabatni talab etadi. Bu muammoni yechish yo ‘llaridan biri “tolerantlik - intolerantlik” binar qarama-qarshiligini rad etish va tolerantlik bosqichlari kontiniumini qurishga o ‘tish hisoblanadi. Diversifikatsiyaning aspektlaridan yana biri, ko ‘p qirralilik, ya ‘ni tolerantlikning psixologik mazmuni yagona mazmun emasligi, tolerantlikni faqat bir yondashuv nuqtai-nazaridangina yetarli darajada ta ‘riflash mumkin emasligidir.

Tayanch tushunchalar: tolerantlik, motivasion komponent, kognitiv-informasion komponent, KBT, artterapiya, psixogimnastika, affektiv empatiya va xulq-atvor komponenti, ijtimoiy-perseptiv komponent.

СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКАЯ МОДЕЛЬ И СОДЕРЖАНИЕ ФОРМИРОВАНИЯ ТОЛЕРАНТНОСТИ У СТУДЕНТОВ

Бафаев Мухиддин Мухаммадович

Заведующий кафедрой психологии Ташкентского государственного педагогического университета, доктор философии по психологическим наукам, доцент

Аннотация: понимание проявлений толерантности и видового разнообразия чтобы сделать однозначный вывод о “толерантной особи”, требуется дифференцированный подход. Одним из решений этой проблемы является отказ от бинарного противоречия «толерантность-интолерантность» и переход к построению континуума стадий толерантности. Еще один аспект диверсификации заключается в том, что универсальность, то есть психологическое содержание толерантности, не является единым содержанием, толерантность не может быть адекватно определена только с точки зрения одного подхода.

Базовые понятия: толерантность, мотивационный компонент, когнитивно-информационный компонент, КПТ, арт-терапия, психогимнастика, аффективно-эмпатический и поведенческий компонент, социально-перцептивный компонент.

SOCIO-PSYCHOLOGICAL MODEL AND CONTENT OF TOLERANCE FORMATION AMONG STUDENTS

Bafaev Mukhiddin Mukhammadovich

Head of the Department of Psychology of Tashkent State Pedagogical University, PhD in Psychological Sciences, Associate Professor

Abstract: understanding the manifestations of tolerance and species diversity requires a differentiated approach to make an unambiguous conclusion about a “tolerant individual.” One of the solutions to this problem is the rejection of the binary contradiction “tolerance-intolerance” and the transition to building a continuum of stages of tolerance. Another aspect of diversification is that universality, that is, the psychological content of tolerance, is not a single content, tolerance cannot be adequately defined only from the point of view of one approach.

Basic concepts: tolerance, motivational component, cognitive-informational component, CBT, art therapy, psychohymnastics, affective-empathic and behavioral component, socio-perceptual component.

Tolerantlik – insonning turli iqtisodiy, ma'naviy, mafkuraviy, diniy munosabatlarga kirishishining qonun-qoidalarini belgilab beradi. Shu bois insonni zamonaviy jamiyatda yashashga o'rgatish, tabiiy ravishda, uni tolerantlikka o'rgatishga barobar keladi. Tolerantlik inson va davlat, inson va boshqa insonlar o'rtasidagi rang-barang munosabatlarni tartiblashtirish tamoyillaridan iborat. Shunday ekan, tolerantlik madaniyatini talaba-yoshlar dunyoqarashining uzviy bo'g'iniga aylantirish, shuningdek, tolerantlik ruhida yoshlarni tarbiyalash dolzarb ijtimoiy ahamiyat kasb etadi. Tolerantlik ruhida tarbiyalangan talaba yoshlar shaxs sifatida ham, millat sifatida ham bir-birini to'g'ri anglay olish o'zi yashayotgan jamiyatning porloq kelajagini yaratishga, uning taraqqiyotini ta'minlash uchun zarur sharoit yaratadi.

Yuqoridagilarga xulosa qilib, shaxslar o'rtasidagi tolerantlikni asosiy psixologik asos sifatida – shaxsning ongli tanlovi bo'lib, unga asosan inson shaxsiy fikr pozitsiyasiga ega bo'lgan holda boshqa insonning huquqini tan oladi va hurmat qiladi deb aytilish mumkin.

Tolerantlikni yoshlarda shakllantirishning murakkab jihatlari va uning mazmuni biz tadqiqotda quyidagicha belgiladik:

Motivasion komponent – madaniy tafovutlarni tan olish va shu asosda boshqa madaniyat vakillari bilan ijobiy munosabatlarni o'rnatish. Ushbu tuzilma shaxsning yoshi, mavqei, ma'lumoti, moddiy farovonligi, tarbiya darajasi va hattoki yashash joyining o'zgarishi bilan bog'liq bo'lgan ustun motivlarning o'zgarishi bilan tavsiflanadi. Va shubhasiz, ma'lum motivlarning ustunligi to'g'ridan to'g'ri ma'lum bir shaxsning yo'nalishiga bog'liq.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

Piaget, J. (2012). *The Origins of Intelligence in Children*. New York: Norton.

Vygotsky, L. S. (2018). *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Harvard University Press.

Bruner, J. (2016). *Toward a Theory of Instruction*. Harvard University Press.

Skinner, B. F. (2017). *Verbal Behavior*. New York: Appleton-Century-Crofts.

Slavin, R. E. (2018). *Educational Psychology: Theory and Practice*. Pearson.

SHARQ MUTAFAKKIRLARINING NIKOH VA OILA HAQIDAGI PSIXOLOGIK QARASHLARI

Normamatova Nazira Alijon qizi
Guliston davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila a'zolari orasidagi o'zaro munosabatlar, er-xotin o'rtasidagi psixologik muvozanat, sevgining va hurmatning o'rni, oilalarni tashkil etish va mustahkamligini ta'minlash va bu borada sharq mutafakkirlarining qarashlari, fikrlari, yoshlarni oilaviy hayotga tayyorlash ularning oila haqidagi qarashlarini shakllantirish va nikohning ruhiy barqarorlikka ta'siri masalalari ko'rib chiqiladi. Sharq falsafasidagi oilaviy qadriyatlar, uning psixologik aspektlari, zamonaviy jamiyatda hamon o'z ahamiyatini saqlashga davom etadi. Sharqda mavjud bo'lgan nikoh va oila haqidagi qarashlar bilan zamonaviy psixologiya va ijtimoiy fikrlar orasidagi tafovutlar ham tahlil qilinadi. Bu, o'z navbatida, Sharq va G'arb o'rtasidagi madaniy va psixologik tafovutlarni chuqurroq tushunishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: oila, yoshlar, nikoh, yetuklik, sharq falsafasi va oila, oilaning psixologik barqarorligi, nikohda muhabbat va hurmat, mustahkam oila, ahil oila, ijtimoiy omillar, ma'naviy omillar, axloqiy omillar, psixologik qarashlar.

EASTERN THINKERS' PSYCHOLOGICAL VIEWS ON MARRIAGE AND FAMILY

Normamatova Nazira Alijon kizi
basic doctoral student at Gulistan State University

Annotation: This article examines the relationship between family members, psychological balance between spouses, the role of love and respect, the organization and strengthening of families, and the views and opinions of Eastern thinkers on this issue, the preparation of young people for family life, the formation of their views on the family, and the impact of marriage on mental stability. Family values in Eastern philosophy, its psychological aspects, continue to retain their importance in modern society. The differences between the views on marriage and family existing in the East and modern psychology and social thought are also analyzed. This, in turn, allows for a deeper understanding of the cultural and psychological differences between the East and the West.

Keywords: family, youth, marriage, maturity, Eastern philosophy and family, psychological stability of the family, love and respect in marriage, strong family, harmonious family, social factors, spiritual factors, moral factors, psychological views.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВЗГЛЯДЫ ВОСТОЧНЫХ МЫСЛИТЕЛЕЙ НА БРАК И СЕМЬЮ

Нормаматова Назира Алиджсон кызы
базовый докторант Гулистанского государственного университета

Аннотация: В статье рассматриваются взаимоотношения между членами семьи, психологическое равновесие между супругами, роль любви и уважения, организация и укрепление семьи, а также взгляды и мнения восточных мыслителей по этому вопросу, подготовка молодых людей к семейной жизни, формирование их взглядов на семью, влияние брака на психическую устойчивость. Семейные ценности, отраженные в восточной философии, и их психологические аспекты продолжают сохранять свою значимость в современном обществе. Анализируются также различия между восточными взглядами на брак и семью и современной психологической и социальной

мыслью. Это, в свою очередь, позволяет глубже понять культурные и психологические различия между Востоком и Западом.

Ключевые слова: семья, молодость, брак, зрелость, восточная философия и семья, психологическая устойчивость семьи, любовь и уважение в браке, крепкая семья, гармоничная семья, социальные факторы, духовные факторы, моральные факторы, психологические воззрения.

KIRISH. Oila mustahkamligi — oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro hurmat, ishonch va qo'llab-quvvatlashiga asoslangan ijtimoiy, emotsional va iqtisodiy barqarorlikdir. Oila — ijtimoiy strukturaning asosiy birligi bo'lib, odatda bir yoki bir nechta avlodlarni o'z ichiga oladi. Oila a'zolari o'rtasidagi munosabatlar, ularning o'zaro aloqalari va hissiy bog'liqliklari asosida shakllanadi. Oila eng qadimgi ijtimoiy birlashmadir. Oila ijtimoiy institut deb ham ataladi. Oila - bu jamiyatning ajralmas bo'lagi va aynan kichik jamiyatning o'zidir. Insoniyat tarixi davomida oila bo'lib shakllangan va barcha ijtimoiy holatlar oilaviy qadriyatlar, urf-odatlar zamirida ularga zid kelmaydigan shaklda rivojlanib borgan. Zero, oila bir inson uchun yangi umrning boshlanishi, orzular muqaddimasidir. Yana insonlar baxtning suratini oilasida ko'radi, baxt nima degan savolga oilaviy baxtiyorlikni izohlab beradi. Nikoh bu oilaning boshlanish nuqtasi, ilk qadamidir. Nikoh arabcha so'z bo'lib, "qo'shilish", "birga yashash", kabi turli ma'nolarni anglatadi. Nikoh - bu ikki jinsi vakillarining roziligi asosida tuzilgan ittifoq. Nikoh ishlari axloq normalari va qonun hujjatlari bilan doimiy kuzatilib boriladi. Nikoh tuzish shartlari har bir millatda turlicha bo'lib, yoshi, irqi, xohish-istagi, kelib chiqishiga ko'ra tafovutlanishi mumkin. Bizning xalqimiz nikohga boshqacha mehr bilan qaraydi, hurmat qiladi, sharaflaydi. Nikoh tuzish dinimizda shart qilib qo'yilgan farzdir.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 25-yanvarda taqdim qilingan Oliy Majlisga Murojaatnomasida oila va oilaviy qadriyatlar haqida bir qancha muhim fikrlar keltirilgan. Murojaatnomada quyidagi masalalar alohida ta'kidlangan:

-Oilaviy qadriyatlarning ahamiyati: oila jamiyatning asosiy qismi sifatida e'tirof etilib, uning ijtimoiy barqarorlik va farovonlikdagi roli ta'kidlangan.

-Yoshlar tarbiyasi: yosh avlod tarbiyasiga e'tibor berilishi zarurligi, bu borada oila muhitining ahamiyati ta'kidlangan.

-Ayollar va onalarning roli: ayollarning oiladagi o'rni, ularning ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy faoliyatini rivojlantirish zarurligi haqida fikrlar bildirildi.

-Oilaviy muammolar: oila ichidagi muammolarni hal qilish, nikoh va ajralishlar masalalariga e'tibor berilishi kerakligi haqida gapirildi.

-Ta'lim va tarbiya: oila muhitida ta'lim va tarbiyaning ahamiyati, oilaviy an'analarni saqlash va rivojlantirish masalalari ko'tarildi. [1].

Bu masalalar 2023 yilgi Murojaatnomada jamiyatning barqarorligi va farovonligi uchun muhim jihatlari sifatida ko'rsatildi. O'zbekiston mustaqilligi tufayli Respublikada oila muammolari davlat ahamiyatiga molik bo'lgan masalalar qatoridan rasmiy ravishda o'rin oldi. 1998-yilni «Oila» yili deb e'lon qilinishi, «Oila» ilmiy - amaliy Markazining tashkil etilishi, Respublikada oila manfaatiga qaratilgan maxsus Davlat dasturining qabul qilinishi, uning mantiqiy davomi sifatida 1999-yilni «Ayollar yili» deb e'lon qilinishi, viloyatlarda oilaga xizmat qiluvchi turli maslahatxonalarning tashkil etilishi, oila muammolarini ilmiy tadqiq etish maqsadida O'zbekiston tarixida birinchi bor oila psixologiyasi muammolari bo'yicha tadqiqotlar olib boradigan ilmiy kadrlarni tayyorlash maqsadida aspirantura tashkil etilishi, ularga aspirantlarning qabul qilinishi yuqoridagi fikrimizning dalilidir. Oila mustahkamligi ko'plab omillarga bog'liq bo'lib, ularga quyidagilar kiradi. Muloqot: oila ichidagi ochiq va samimiy muloqot, muammolarni birgalikda hal qilish va his-tuyg'ularni ifodalash muhimdir. Ishonch: oila a'zolari o'rtasida ishonchning bo'lishi, har birining bir-biriga nisbatan hurmatini oshiradi. Qo'llab-quvvatlash: oila a'zolari bir-birini har tomonlama qo'llab-quvvatlashlari,

hissiy va moliyaviy jihatdan yordam berishlari zarur. Umumiy maqsadlar: oila ichida umumiy maqsadlar va qadriyatlar bo'lishi, ularni birlashtiradi va barqarorlikni ta'minlaydi. O'zaro mas'uliyat: har bir oila a'zosining o'z vazifalarini bajarishi va bir-biriga nisbatan mas'uliyatli bo'lishi, oila mustahkamligini oshiradi. Oila mustahkamligi nafaqat individual farovonlik uchun, balki jamiyat barqarorligi uchun ham muhimdir. Mustahkam oilalar jamiyatda ijtimoiy normalar, axloqiy qadriyatlar va madaniyatni saqlashda muhim rol o'ynaydi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili

Dunyoda oilalar va ularning mustahkamligi, oilaviy munosabatlar, oilaga tayyorgarlik, gender tenglik vashu kabi ko'plab masalalar bo'yicha hozirda jahonning yetakchi ilmiy-tadqiqot institutlari, oliy ta'lim muassasalari va ilmiy markazlarida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Harvard Universiteti (AQSh): oila va jamiyat tadqiqotlari markazi: oila tuzilmalari, nikoh va bolalar tarbiyasi bo'yicha tadqiqotlar olib boradi. Yale Universiteti (AQSh) Oila tadqiqotlari dasturi: nikoh va oilaviy munosabatlar, ijtimoiy psixologiya va demografik o'zgarishlar ustida izlanishlar olib boriladi. Stanford Universiteti (AQSh) sotsial fanlar: nikoh va oila haqidagi ijtimoiy tadqiqotlar, gender o'rni va oila iqtisodiyoti kabi masalalarni o'rganadi. University of Cambridge (Buyuk Britaniya) Oila va ijtimoiy siyosat: nikoh, oila va ijtimoiy siyosat o'rtasidagi munosabatlarni o'rganadigan dasturlar mavjud. University of Oxford (Buyuk Britaniya) ijtimoiy tahlil va oila: nikoh va oila masalalarini ijtimoiy tahlil nuqtai nazaridan o'rganadi. University of Toronto (Kanada) Oila va Gender tadqiqotlari: nikoh va oilaviy munosabatlar, gender masalalari va ularning jamiyatga ta'siri ustida tadqiqotlar olib boriladi. University of Melbourne (Avstraliya) oila, sog'liq va jamiyat: oila va nikohning salomatlik va ijtimoiy kontekstga ta'siri ustida ilmiy ishlar olib boriladi. Bu universitetlar va dasturlar nikoh va oila masalalarini turli jihatdan, jumladan, sotsiologiya, psixologiya, iqtisodiyot va madaniyat nuqtai nazaridan o'rganadi. Har bir muassasa o'ziga xos tadqiqotlar va metodologiyalarni taklif etadi.

Respublikamizda ham ushbu yo'nalishda yirik ilmiy maktablar shakllangan bo'lib, xususan, mazkur tadqiqotlarda ular oilaviy munosabatlar, nikohning ijtimoiy, iqtisodiy va psixologik jihatlarini tahlil qilgan. Quyidagi Sharq mutafakkirlari nikoh va oila masalalari haqida turli fikrlar ilgari surgan. Ular orasida quyidagi mashhur shaxslar mavjud:

1.Ibn Xaldun: o'zining «Muqaddima» asarida oila, nikoh va ijtimoiy tuzilma haqidagi fikrlarini bayon etgan. U oilaning ijtimoiy taraqqiyotdagi o'rnini ta'kidlagan.

2.Ahmad Donish: o'zining «Navodir ul-vaqoe'» («Nodir voqealar») nomli asarida «Nikoh odoblari bayoni, uylanish shartlari, qaynona va kelinning xusumati» haqida batafsil bayon qilgan.

3.Ibn Sino: oila va nikohning psixologik jihatlarini tahlil qilgan. U oilaning farovonligi uchun zarur bo'lgan psixologik va emosional muvozanatni ta'kidlagan.

4.Fozil Ahmed: u oilaviy hayot va nikohning ijtimoiy funksiyalarini o'rganib, oilaning barqarorligini ta'minlashdagi roli haqida fikrlar bildirdi.

5.Nasir al-Din al-Tusiy o'zining asarlarida oilaning tarbiyaviy funksiyalarini va nikohning ahamiyatini tahlil qilgan.

6.Abu Rayhon Beruniy: o'zining «Minerologiya» asarida, ayniqsa, xotin-qizlar tarbiyasiga alohida e'tibor qaratadi. U o'zining oila qurayotgan qizlarga ota-onaning nasihatlarini keltirib, oiladagi tinchlik totuvlik, baxtiyorlik ko'proq ayollar zimmasiga tushishini ta'kidlaydi.

Dunyoga mashhur olim, ma'rifatparvar Abu Nasr Farobiy ham inson kamoloti, baxti, ta'lim va tarbiyasi, axloqi, dinga munosabati haqidagi qarashlarini mashhur «Fozil odamlar shahri» va «Baxt-saodatga erishuv haqida» asarlarida bayon etadi. Farobiy keraksiz urf-odatlardan (hozir ham oilaviy hayotda, er-xotin munosabatlarida uchraydi) voz kechish, baxt-saodatga erishish yo'llari haqida gapirib, shunday deydi: «Rahbarlar (er yoki xotin) «yomon odatlarni o'zida ifodalovchi o'tmishni ham o'zgartirmog'i kerak. Aks holda o'tmish talablariga rioya etib, uning kayfiyati saqlansa, turmushda hech qanday yengillik, o'zgarish va o'sish ham bo'lmaydi». Shuningdek, «Baxt saodatga erishuv yo'lida nimaiki (bilim, odob-

axloq, kasb-hunar) yordam bersa, uni saqlamoq, mustahkamlamoq, nimaiki zararli bo'lsa, uni foydali narsaga aylantirishga harakat qilmoq zarur»ligini ta'kidlaydi. Yuqorida keltirilgan mutafakkirlar oilaviy munosabatlar va nikohning ijtimoiy, psixologik va madaniy jihatlarini chuqur o'rganishgan, ularning fikrlari hozirgi kunda ham muhim ahamiyatga ega.

Tadqiqot metodologiyasi

Sharq mutafakkirlarining oila va nikoh haqidagi qarashlari bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlarni o'rganish, ta'rif va qarashlarni qiyosiy solishtirish, asrlaridagi bog'liqlik va farqlarni taqqoslash va tahlil qilish, mantiqiy fikrlash usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Ibn Xaldunning «Muqaddima» asari oila va ijtimoiy tuzilma haqida qiziqarli fikrlarni o'z ichiga oladi. U oilani ijtimoiy va iqtisodiy hayotning asosiy birligi sifatida ko'radi. Oila, uning fikricha, jamiyatning eng kichik va muhim bo'lagi bo'lib, insonlarning bir-biriga bog'lanishi va yordam berishida muhim rol o'ynaydi.

Ibn Xaldun oilaning ijtimoiy tuzilishini quyidagicha tahlil qiladi:

1. Asabiylik: u oilani asabiylikning boshlanishi sifatida ko'radi. Asabiylik, ya'ni oila a'zolarining bir-biriga bo'lgan aloqalari va loyalligi, ijtimoiy tuzilma uchun muhimdir.

2. Qon-qardoshlik: oila a'zolari o'rtasidagi qon-qardoshlik aloqalari jamiyatning barqarorligini ta'minlaydi. U o'zaro yordam va ko'maklashish orqali ijtimoiy birlikni mustahkamlashga xizmat qiladi.

3. Iqtisodiy rol: oila, shuningdek, iqtisodiy faoliyatni amalga oshirishda ham muhim ahamiyatga ega. Oila a'zolari birgalikda ishlash orqali turli ijtimoiy va iqtisodiy masalalarni hal qilishadi.

4. Tarbiya va madaniyat: Ibn Xaldun oilaning tarbiya va madaniyatni uzatishda o'zining ahamiyatini ta'kidlaydi. Oila, avlodlar orasida bilim, an'ana va qadriyatlarni uzatishda asosiy rol o'ynaydi. [2].

Umuman olganda, Ibn Xaldun «Muqaddima» asarida oila va uning jamiyatdagi o'rni haqida chuqur va keng tahlilni taqdim etadi, bu esa ijtimoiy nazariyalar uchun muhim asos bo'lib xizmat qiladi.

Ibn Sinoning oila haqidagi fikrlari asosan «Shifo» (al-Shifa) asarida va «Qanun fit Tibb» (Tibb qonunlari) asarida uchraydi. U oila, tarbiya, shaxsiy hayot va ijtimoiy aloqalar haqida fikrlar bildirgan.

Fozil Ahmedning oila haqida fikrlari asosan «Oila va jamiyat» kabi asarida ifodalangan. Ushbu asarlarda u oilaning ijtimoiy roli, tarbiyadagi ahamiyati va avlodlar o'rtasidagi aloqalar haqida chuqur tahlillar olib boradi. Fozil Ahmed oilaning jamiyatdagi ahamiyatini, uning barqarorligini ta'minlashdagi o'rnini va oila ichidagi tarbiyaning muhimligini alohida ta'kidlaydi [3].

Amir Temurning «Temur tuzuklari» asarida oila va nikoh haqida ma'lumotlar turli joylarda keltirilgan. Bu asar, asosan, Temurning hayoti, siyosati va axloqi haqida bo'lsa-da, oilaviy aloqalar va nikoh masalalari haqida ham fikrlar mavjud [4].

1-jadval

Sharq mutafakkirlarining asarlarida oila va nikoh haqidagi fikrlari.

Mutafakkir	Asar	Oila va nikoh haqidagi fikrlar
Alisher Navoiy	“Mahbub-ul-qulub”	Oila odobi va oilad ayollarning fazilati haqida fikrlar keltirgan
Abu Ali Ibn Sino	“Kitob ush-shifo”	Oilaning inqirozga yuz tutishiga olib keladigan sabablar va omillarni keltirgan
Abu Rayhon Beruniy	“Mineralogiya”	Oiladagi tinchlik totuvlik ko‘proq ayollar zimmasiga tushishini ta’kidlagan.
Yusuf Xos Hojib	“Qutadg‘u bilig”	Turmush o‘rtoq tanlashda unung qaysi sifat va fazilatlariga e’tibor berish kerakligi haqida keltirgan
Al Farobiy	“Madaniyat”	Oila jamiyatning mustahkamligi va barqarorligi uchun muhimdir
Fitrat	“Oila yoki oilani boshqarish tartiblari”	Oila a’zolarining o‘zaro munosabatlari, ota-ona va farzandlarning huquq va burchlari haqida keltirilgan
Fozil Ahmed	“Oila va jamiyat”	Oila va oilaviy qadryatlar, avlodlar o‘rtasidagi aloqalar haqida keltirilgan

Bu jadvalda keltirilgan fikrlar umumiy nazariyalar bo‘lib, har bir mutafakkirning o‘z

asarlarida ko'proq batafsil ma'lumotlar mavjud.

Pedagogika fanining tarbiya nazariyasi bobida aynan oila tarbiyasi asoslari mavzusi kiritilgan bo'lib, oila a'zolarining o'zaro oilaviy munosabatlari, oilada bola tarbiyasi, ota-onaning burch va vazifalari, oila byudjeti haqida talabalarga ma'lumot beriladi. Bundan tashqari pedagogika tarixi fanida ham sharq mutafakkirlarining hayoti va faoliyatlari o'rganilib boriladi. Ularning ta'lim-tarbiyaga oid asarlarida oila tarbiyasi to'g'risida qimmatli fikrlar berilgan. Bunday pur ma'no fikrlar hozirgi kunda ham o'zining ahamiyatini yo'qotmagan. Ayniqsa, Unsurul Maoliy Kaykovusning "Qobusnoma"[5], Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub"[6] asarida oila tarbiyasiga, nikoh masalasiga alohida o'rin qaratilgan. Asarning boshidan oxirigacha pand-nasihatlari berilgan bo'lib, har bir talaba-yosh uni mukammal o'zlashtirib olishi zarur. Ayrim rivojlangan G'arb mamlakatlarida va ayrim Osiyo mamlakatlarida ham bir jinsli nikohga rasman ruhsat berilgan. Bunday nikoh mamlakatimiz va muqaddas dinimizda taqiqlangan bo'lsa-da, yoshlarimiz yevropa telekanallaridan, internet saytlardan bu haqida ma'lumot olishmoqda. Yoshlarimizda nikoh va oila haqida mustahkam e'tiqodni shakllantirmay turib, mustahkam oila haqida gapirishimiz ham mumkin emas. Shuni ta'kidlash lozimki, har bir davrda bo'lgani kabi hozir ham yoshlarning o'z ixtiyori bilan, bir-birlarini yoqtirib qolishlari oqibatida paydo bo'lgan oilalar mavjud. Yoshlarning ayrimlari o'z ixtiyori bilan qalliq tanlashni, yoqtirib, sevib turmush qurishni oldindan niyat qiladi. Shunisi borki, o'z ixtiyori bilan turmush o'rtog'i tanlashda ota-ona va oilasi manfaatlarini, ularning istak-xohishlari deyarli inobatga olinmaydi. Odatda bu kabi yoshlar nikoh oldidan ota-onasining roziligini olmaydi, shu sababli, ko'pincha, bunday nikoh yengil-yelpi qarorlar oqibati bo'lib, uzoqqa bormasligi mumkin. Respublika "Oila" ilmiy-amaliy markazi 2003 yilda o'tkazgan tadqiqot natijalariga ko'ra, ajralishib ketgan yosh oilalarning 90 foizidan ortig'i nikoh motivi-sababi sifatida "sevish-sevilish"ni ko'rsatganlar [7].

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, bugungi kunda mamlakatimizda oilalarga katta e'tibor berilmoqda. Yoshlarga, ularning ilm olish va kasb-hunar egasi bo'lishi uchun ko'pgina imkoniyatlar ham yaratilmoqda. Shuningek yoshlarimizga, oilaviy hayot qurish va uni tashkil etish yuzasidan psixologik bilim va tushunchalarni keng va yetarlicha ma'lumot berish davr talabiga aylanib bormoqda. Chunki sog'lom psixologik muhit qaror topgan oiladagina barkamol va yurt ravnaqiga xizmat qiladigan kelajak avlodni shakllantirish mumkin. Bu borada albatta Sharq mutafakkirlarining nikoh va oila haqidagi qarashlari bilan tanishib ularni yoshlarga ham tushuntirib targ'ib etilsa maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu nuqtai nazardan kelib chiqib, bu masalaga e'tibor qaratishimiz davr talabiga aylanib o'z dolzarbligini amaliy hayot tajribasida ko'rsatmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati :

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. 25.01. 2023y.
2. Ibn Xaldunning «Muqaddima» 2021 yil
3. Fozil Ahmedning «Oila va jamiyat» O'zbekiston, 1998 yil
4. Amir Temurning «Temur tuzuklari» O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi 2020 yil
5. Unsurul Maoliy Kaykovusning "Qobusnoma" Toshkent, Adabiy-badiiy nashr, 174 bet.
6. Alisher Navoiyning "Mahbub ul-qulub" T., «Yangi asr avlodi» 2019, 320 bet
7. Karimova, V. Oila psixologiyasi. Toshkent-2007. 12-13 betlar.

БОЖХОНА ХИЗМАТИ ХОДИМИНИНГ ИЖТИМОЙ-ПСИХОЛОГИК КОМПЕТЕНЦИЯЛАРИ ТАҲЛИЛИ

Қодиров Мирзаакрам Собиржонович,

Божхона қўмитасининг Божхона институти “Психологик тайёргарликни ривожлантириш” маркази бошлиғи, психология фанлари бўйича фалсафа доктори

Аннотация. Ушбу мақолада божхона хизмати ходимларининг ижтимоий-психологик компетенцияларини шаклланиш даражасини, баъзи шакллантирувчи омилларни очиб берадиган эмпирик тадқиқот натижалари ҳақида сўз юритилган. Шунингдек, мақолада муаллиф томонидан ишлаб чиқилган божхона хизмати ходимларининг ижтимоий-психологик компетенциялари модели очиб берилган.

Калит сўзлар: божхона, божхона хизмати ходими, компетентлик, компетенция, ижтимоий-психологик компетенция, эксперт сўрови

АНАЛИЗ СОЦИАЛЬНО-ПСИХОЛОГИЧЕСКИХ КОМПЕТЕНЦИЙ СОТРУДНИКА ТАМОЖЕННОЙ СЛУЖБЫ

Кодиров Мирзаакрам Собиржонович,

Начальник Центра “Развития психологической подготовки” Таможенного института Таможенного комитета, доктор психологических наук

Аннотация. В данной статье говорится о результатах степени сформированности социально-психологических компетенций, некоторых формирующих факторов эмпирического исследования сотрудников таможенной службы. Также в статье раскрывается разработанная автором модель, социально-психологических компетенций сотрудников таможенной службы.

Ключевые слова: таможня, сотрудник таможенной службы, компетентность, компетенция, социально-психологическая компетенция, опрос эксперта.

ANALYSIS OF SOCIAL-PSYCHOLOGICAL COMPETENCES OF A CUSTOMS SERVICE OFFICER

Kodirov Mirzaakram Sobirjonovich,

Head of the Center “Development of Psychological Training” of the Customs Institute of the Customs Committee, Doctor of Philosophy in Psychology

Abstract. This article discusses the results of the degree of formation of social and psychological competencies, some formative factors of the empirical study of customs service employees. The article also reveals the model developed by the author, social and psychological competencies of customs service employees.

Key words: customs, customs officer, competence, competence, socio-psychological competence, expert inquiry.

КИРИШ. Дунё мамлакатлари ўртасида кечаётган иқтисодий ҳамкорлик масалаларининг кўлами кенгайиб, янги талаблар юзага келмоқда. Буларни амалга ошириш ва дунё ҳамжамияти билан тенг қадам кўйиш республикамиз нуфузини янги поғонага олиб чиқиш учун фаолиятни тизимли ташкил этиш, замонавий дунёқарашдаги ва истиқболли, билим ва кўникмаси ҳозирги глобаллашув жараёнига мос тушадиган божхона ходимларини тайёрлаб етиштиришни кўзда тутати.

Кадрларнинг касбий таълимида, шунингдек, иқтисодиётда содир бўлаётган глобал тенденцияларни эътиборсиз қолдириш муқаррар равишда салбий оқибатларга олиб келади. Божхона тизими фаолияти самарадорлиги, уни доимий такомиллаштириш

кадрлар салоҳияти билан бевосита ва ҳар томонлама боғлиқдир. Божхона органлари учун юқори малакали ходимларни тайёрлаш ва уларнинг касбий малакасини оширишни тубдан яхшилаш божхона ишини жаҳон стандартлари даражасида ташкил этишнинг энг муҳим шартларидан биридир.

Чет давлатларда божхона хизмати ходимларининг психологик жиҳатларини ўрганишга оид бўлган илмий ишлар бисёр, лекин республикада бу соҳада изланиш керак бўлган кўплаб жиҳатлари мавжуддир. Биз ҳам юқоридагилардан келиб чиққан ҳолда божхона хизмати ходимларининг умумий ижтимоий-психологик ҳолатларини ўрганиш юзасидан илк тажриба синовларини олиб бордик.

АДАБИЁТЛАР ТАҲЛИЛИ ВА МЕТОДОЛОГИЯ

Биз танлаган мавзу ижтимоий психология фани доирасида тадқиқ этилишини инобатга олиб, шуни таъкидлаш ўринлики ҳаммиша гуруҳ доирасида ҳамда гуруҳий, гуруҳлараро муносабатлар доирасида ўрганади (А.А.Асмолов, А.А.Крилов, А.В.Петровский, А.К.Батаршев, Б.Ф.Ломов, Г.М.Андреева, Е.И. Чугунова Е.И.Кузьмин, К.И.Сельченко, М.В.Бобнева, М.К.Битьянова, Н.И.Викторов, Ю.А.Жуков ва бошқалар). Қатор хорижлик, россиялик ва Ўзбекистонлик олимларнинг изланишларида бевосита шахслараро муносабатлар ва уларнинг оқибатлари ўрганилган (А.Журавлев, Н.С Сафоев, А.В.Карпов, А.Ковалева, Б.Моснер, Б.Синдерман, Д.Майерс, Е.А.Климов, Е.Л.Маслова, И.Н.Семенов, Л.И.Шахова, М.Еникеев, Н.Никифорова, О.Ҳайитов, Р.Пол, С.П.Джерард, Ф. Хериберг, Ш.М.Шойимова, Ш.Р.Баротов, Ш.Улуғова, Э.Н.Саттаров ва бошқалар).

Умуман олганда, божхона органларининг компетенциявий жиҳатлари, кадрлар салоҳиятини оширишга, ижтимоий-психологик компетентликка доир бўлган масалалар А.Я.Кибанова, Б.М.Генкин, В.В.Макрусев, В.Г.Игнатов, В.И.Анненков, В.И.Тонконог, В.Р.Веснин, Н.Н.Просьянников, О.В.Софронова каби олимлар томонидан ўрганилган [8].

МДҲ мамлакатларида божхона тизимида кадрлар салоҳиятини ошириш, божхона ходимларини касбий тайёрлашнинг психологик, педагогик, ахлоқий масалалари, ижтимоий-компетентлигини шакллантириш, касбий саралашнинг психо-педагогик жиҳатлари, муаммолари бўйича А.Красильников, А.Максимов, А.Солопов, В.В.Рогачев, В.Ковалёв, В.Крашенинников, В.Кухаренко, В.Лутовинов, В.Тимофеев, Д.Агранат, Е.Балашова, Е.Махов, Л.Алексеева, Л.Качкина, М.Баландин, М.Шейнислар, Н.Бережная, Н.Блинов, Р.Женжеруха, С.Чернышов, Э.Белецкий, Ю.Кубанин, Ю.Самолаевлар томонидан тадқиқ қилинган [5].

Шу ўринда компетенция тушунчаси ҳақида тўхталиш мақсадга мувофиқ. “Компетенция” термини илк бор фалсафа, математика, психология ва социологияда XX асрнинг 50-60-йилларида қўлланилган ва инсоннинг бирор фаолиятни амалга ошириш лаёқатини билдирган. А.Клаппер, А.В.Хуторская, А.Зимняя, А.М.Аронова, Б.Д.Эльконин, В.А.Болотова, В.В.Башев, Дж.Равен, Ж.Винтертон, И.Д.Фрумина, Н.Хомский, П.Г.Щедровицкий Т.М.Ковалева, Ф.Деламаре, ва бошқалар томонидан “компетенция” ва “компетентлик” тушунчаларига берилган таърифларда компетенция муайян фаолиятда талаб қилинадиган хулқ-атвор, ўзини тутиш, компетентлик эса ушбу талабга мослик даражаси, яъни компетенцияни намоиш қилишнинг пировард натижаси, деб талқин қилинади.

“Компетенция” ва “компетентлик” тушунчалари “инсоннинг билимларига асосланган, ижтимоий-касбий ҳаёти фаолиятида белгиланган шахсий ва интеллектуал тажрибаси” сифатида талқин этилмоқда [9]. Америкалик олим Н.Хомский асарларида компетенция инсоннинг бирор фаолиятини амалга ошириш лаёқати сифатида талқин этилган [1].

Ижтимоий-психологик компетенция тушунчаси эса шахснинг ижтимоий хулқ-атворини англатади ва кенг маънода шахснинг муайян ижтимоий вазиятларда мослашувчан ва самарали ишлашини белгилайди. Ижтимоий компетенциянинг атрибутлари ижтимоий кўникмалар, мақсадларни излаш қобилиятлари ва шахснинг

шахслараро муносабатларининг сифати деб ҳисобланади, буларнинг барчаси нафақат шахснинг шахсий ҳаётига, балки унинг касбий фаолияти ва руҳий саломатлигига ҳам таъсир қилади. Бу танқидга муносабат билдириш қобилияти, бошқаларнинг бузғунчи хатти-ҳаракатларини ўзгартириш қобилияти, келишмовчиликни ҳал этиш, мулоқоти ўз вақтида тугатиш ёки бошлаш, кечирим сўраш, заиф томонларини тан олиш, суҳбатни тўғри ва ўз вақтида бошлаш, ташкилотчилик, керакли алоқаларни ташкил қилиш, ҳис-туйғуларни ва бошқа кўплаб кўникмаларни очик ифода этиш. Ижтимоий кўникмаларнинг муҳим таркибий қисмлари сифатида вербал ва невербал коммуникацион қобилиятлар, эмпатия ва бошқаларни киритиш мумкин [2].

Ижтимоий-психологик компетенциянинг тузилишини таҳлил қилиш унинг таркибий қисмлари тўғрисида аниқ жавоб бермайди. Қуйидаги таркибий қисмлар ҳам келтириб ўтилган: мулоқот қилиш қобилияти, ҳиссий ақл, ходимни тушуниш қобилияти, ижодкорлик, самимийлик, эшитиш қобилияти, ҳамкорлик қилиш қобилияти, сабр-тоқат, ўзини ўзи бошқариш, ўз-ўзини тарбиялаш, ҳамдардлик, фаоллик, хушмуомалалик.

1-жадвалда Э. Пайтон (2000) томонидан таклиф қилинган ижтимоий-психологик компетенция модели келтирилган [3].

1-жадвал

Э. Пайтоннинг ижтимоий-психологик компетенция модели

Ижтимоий-психологик компетенция		
Ички омиллар	Ташқи омиллар	Жамоа (гурух) фаолиятига таъсир кўрсатадиган кўникмалар
Ўзига ўзи баҳо бериш;	Ижтимоий идрок;	Етакчилик
Ўзига нисбатан муносабат ва атрофдаги одамларга;	Тинглаш қобилияти;	хусусиятлари:
Шахсият тури	Новербал хатти-ҳаракатлар кўникмалари;	Можароли вазиятларни ҳал қилиш кўникмалари;
	Вербал хатти-ҳаракатлар кўникмалари;	Ўз-ўзини назорат қилиш даражаси;
	Ўзаро муносабатларни ўрнатиш кўникмалари.	Хушмуомалалик;
		Муаммони ҳал қилиш қобилиятлари.

Ижтимоий-психологик компетенция – одамлар билан ишлаш жараёнида улар билан тил топишиш, жамоани уюштириш, уларни яхши ишлашга сафарбар қила олиш ҳамда ўзидаги лидерлик сифатларини тўла намоён эта билиш қобилияти. Бу тушунча кўпинча “коммуникатив компетенция” тушунчаси билан синоним сифатида ҳам ишлатилади, деган таърифлар ҳам мавжуд [10].

Юқоридаги таҳлиллар асосида айтишимиз мумкинки, ижтимоий-психологик компетенция - бу касбий фаолият шароитида одамлар билан ўзаро муносабатда бўлиш учун зарур бўлган билим, малака ва кўникмалардан конструктив фойдаланиш қобилиятидир.

НАТИЖАЛАР

Тадқиқотимиздан келиб чиққан ҳолда божхона хизмати ходимларининг ижтимоий-психологик компетентлигини даражасини, мавжудлигини ўрганиш учун “360 даражали баҳолаш” усулидан фойдаланамиз.

“360 даражали баҳолаш” - бу ходимнинг компетенцияси бўйича аниқ тузилган мулоҳазалар, инсоннинг ҳақиқий иш шароитларида ҳаракатлари ва у кўрсатган ишбилармонлик фазилатлари тўғрисида маълумот олиш ҳисобланади. Ушбу метод нафақат ушбу фазилатларнинг мавжудлигини очиқ беради, балки уларнинг ишда қанчалик аниқ намоён бўлишини кўрсатади, бу эса мазмунли мулоҳазадир. Шахснинг ўз-ўзини баҳолаш жараёни ҳар қандай тесқари алоқа манбаи каби ишлатилиши мумкин.

“360 даражали баҳолаш” бизга ходимнинг салоҳияти ва малакасини ошириш даражаси тўғрисида энг объектив тасаввурни беришга имкон беради.

Тадқиқотимизда биз компетенцияни ривожлантириш даражасини баҳолаш учун қуйидаги параметрлардан фойдаландик:

1. Компетенция ифода этилмаган. Уни ривожлантиришга ходимда хоҳиш (иштиёқ) мавжуд эмас. (Уни ривожлантиришга ходим мотивацияланмаган.)

2. Компетенциянинг даражаси ривожланиш ҳолатида. Ҳар доим ҳам ва ҳар қандай иш шароитида ҳам намоён бўлавермасада, лекин ходим ушбу ишбилармонлик сифатининг муҳимлигини тушуниб етган ва уни ривожлантиришга ҳаракат қилмоқда.

3. Компетенция етарли даражада ифода этилган. Ишдаги кўпгина ҳолатларда сифатни кўрсата оладиган асосий тажриба даражаси.

4. Компетенция ўрта даражадан юқорироқ ривожланган. Ходим нафақат стандарт шароитларда, балки қийин иш шароитларида ҳам ўзини намоён қилади.

5. Компетенция ривожининг юқори даражаси. Компетенция етакчи сифатида намоён бўлади. Ходим буни барча иш шароитларида намоён қилади.

1-даража – интуитив (паст) – Ижтимоий-психологик компетенциялар (ИПК) ифода этилмаган. Ходим уларни ривожлантириш учун мотивацияланмаган.

2-даража – меъёрий-интуитив (ўртача даражадан паст) – ИПКлар ривожланиш даражасида бўлиб, ҳар доим ҳам ва барча иш шароитларида намоён бўлавермайдилар, лекин ходим ушбу иш сифатининг муҳимлигини аллақачон тушунган ва уни ривожлантиришга интилади.

3-даража – нормага мувофиқ – (ўртача) ИПКлар етарлича намоён бўлган. Асосий тажриба даражаси кўпгина иш шароитларида сифатни намоёиш этишга имкон беради.

4-даража - фаол - ИПКлар ўртача даражадан баландроқ ривожланган бўлиб, улар нафақат стандарт, балки қийин иш шароитларида ҳам намоён бўлади.

5-даража - ижодий (юқори). ИПК ривожланишининг юқори даражаси. Компетенциялар етакчилар сифатида намоён бўлади, ходим уларни барча иш шароитларида кўрсатади.

Қуйидаги 2-жадвалда “360 даражали баҳолаш” эксперт сўровномасидан олинган натижаларнинг фоиз нисбати берилган.

2-жадвал

**“360 даражали баҳолаш” эксперт сўровномасидан олинган натижалар
(n=50)**

Ижтимоий-психологик компетенциялар	Компетенцияни ривожланганлик даражаси				
	1. Интуитив (паст)	2. Меъёрий-интуитив (ўртача даражадан паст)	3. Нормага мувофиқ – (ўртача)	4. Фаол	5. Ижодий (юқори)
1. Касбий аҳамиятга эга бўлган фазилатлар: хотира, диққат, идрок	4%	2%	4%	46%	44%
2. Қарор қабул қилиш самарадорлиги ва фикрлаш хусусиятлари	2%	8%	20%	34%	36%
3. Эмоционал-иродавий барқарорлик	2%	4%	18%	28%	48%
4. Стрессга чидамлилик	4%	4%	20%	26%	46%
5. Коммуникатив фазилатларни ва суҳбатдошга таъсир ўтказиши	4%	4%	14%	48%	30%
6. Ўз - ўзини назорат	0%	2%	10%	60%	28%
7. Низоларни бошқариш	2%	2%	12%	76%	8%
8. Натижага йўналганлик ва	0%	6%	36%	32%	26%

Юқоридаги жадвалда экспертлар томонидан баҳоланган 50 нафар божхона хизмати ходимларининг айти пайтдаги келтирилган компетенцияни ривожланганлик даражаси фоиз нисбатда келтириб ўтилган. Деярли барча компетенция даражалари 4 ва 5 босқични кўрсатган, фақатгина касбий маҳорат даражада 3 босқичда турганини кўришимиз мумкин.

МУҲОКАМА

Ижтимоий-психологик компетенция маълум турдаги фаолият субъекти характеристикаси бўлиб, унинг мазмуни бевосита мазкур фаолиятнинг мақсади ва тузилишидан, унинг ўзига хос талабларидан келиб чиқади. Ижтимоий-психологик компетенциянинг турли компонентлари божхона фаолиятининг турли соҳаларида муваффақиятли ва муваффақиятсизликни ҳамда фаолият субъектининг мазкур фаолиятга, фаолият предметига мослигини белгилаб беради [11].

Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб, тажриба синовлари ва экспертлар сўровидан олинган натижаларга асосланиб божхона хизмати ходимларининг ижтимоий-психологик компетенциялар доираси келтириб ўтдик 1-расм.

1-расм. Божхона хизмати ходимининг ижтимоий-психологик компетенциялари таркиби.



1-расм. Божхона хизмати ходимининг ижтимоий-психологик компетенциялари таркиби.

1. Касбий аҳамиятга эга бўлган фазилатлар: хотира, диққат, идрок.

Божхона хизмати ходимининг касбий идрок этиш қуйидаги кўникма ва малакаларни ўз ичига олади: паст ва етарлича аниқ бўлмаган товушларни, эшитиш анализаторининг чидамлилигини, кичик ва узокдаги нарсаларнинг фарқлашини, визуал анализаторнинг

чидамлилиги, профайлинг жараёнида кўзга кўринмас нарсаларни ва одамлар оломонига кўшилишга ҳаракат қилади.

Касбий диққат божхона хизмати ходимининг диққатни (концентрацияни) узоқ вақт сақлаб қолиш учун кўникма ва малакаларни эгаллашни, аниқ бир объектга эътиборни жалб қилишни, диққатни тез ўзгартиришни, диққатни тақсимлашни, кўрқинчли ёки кутилмаган ташқи таъсирлар таъсирида диққатни сусайтирмаслик қобилиятини назарда тутати.

Божхона хизмати ходимининг касбий хотираси маълум хусусиятларга эга бўлиши керак: хизматга оид маълумотларни узоқ вақт эслай билиш, кўриш ва эшитиш органлари орқали олинган материалларни тезда эслаб қолиш ва худди ўзидай тасвирлаш ёки такрорлаш, юқори сафарбарлик тайёргарлигига эга бўлиш.

Бу ўз навбатида профайлинг компетенциялари ҳам деб аташ мумкин. Чунки профайлинг билан шуғулланувчи ходимлардаги билиш жараёнлари жуда юқори аниқликда ишлаши талаб этилади.

2. Қарор қабул қилиш самарадорлиги ва фикрлаш хусусиятлари.

Божхона хизмати ходимининг фикрлаш ва қарор қабул қилиш қобилияти унинг олинган маълумотлар ичидан асосийсини аниқлаш, қарор қабул қилиш жараёнида вақт омилидан самарали фойдаланиш (фикрлаш тезлиги ва мослашувчанлиги), вазият ўзгарганда ўз қарорини ўзгартириш (фикрлаш мустақиллиги, таҳлил қилиш ва синтез қилиш қобилияти), етарли умумий интеллектуал даражага эгаллик ва яхши ўрганиш, юқори иш тезлигига эгаллик, вақт танқислиги шароитида мавжуд маълумотларни қайта ишлаш ва ундан фойдалана олиш қобилиятини назарда тутати.

Фикрлаш ва ходим томонидан қарор қабул қилиш қобилияти унинг асосий маълумотни олинган маълумотлардан ажратиб олиш, қарор қабул қилиш жараёнида вақт омилидан самарали фойдаланиш (фикрлашнинг тезкорлиги ва мослашувчанлиги), вазият ўзгарганда қабул қилинган қарорни ўзгартириш қобилиятини (мустақил фикрлаш, таҳлил қилиш ва синтез қилиш қобилияти) [8], етарлича бўлишини назарда тутати; умумий интеллектуал даража ва яхши ўрганиш қобилияти, юқори иш тезлиги, вақт етишмаслиги шароитида мавжуд маълумотларни қайта ишлаш ва улардан фойдаланиш қобилиятларини тахмин қилади.

3. Эмоционал-иродавий барқарорлик.

Божхона хизмати ходимининг эмоционал-иродавий барқарорлиги ҳис-туйғуларни ва уларнинг ифодасини белгиланган мақсадларга эришиш йўлида йўналтириш қобилиятини, сабр-тоқатни, ташқи кўринишидаги ҳис-туйғулардан тийилишни, жисмоний ва психологик ортиқча таъсирларга чидамлилигини (чарчоқ ва толиқишдан келиб чиқадиган салбий таъсирларни бартараф этиш, шунингдек, кўриш ва эшитиш анализаторлари функциясини хизмат вазибаларини муваффақиятли ҳал қилиш учун зарур бўлган даражада ушлаб туриш), ўз-ўзини бошқаришни (ўз-ўзини бошқариш – ходимнинг ўз ҳис-туйғуларини назорат қилиш ва ақлнинг равшанлигини сақлаш қобилияти), ҳиссий сезгирликни, интизомни назарда тутати.

4. Стрессга чидамлилиқ.

Стрессга чидамлилиқ шахсий фазилатлар мажмуи билан белгиланади. Бундай фазилатлар ходимга касбий фаолиятнинг ўзига хос хусусиятларидан келиб чиқадиган сезиларли интеллектуал, иродали ва ҳиссий зўриқишларни, ўз фаолиятига ва саломатлигига, ҳамда бошқаларга алоҳида зарарли оқибатларга олиб келмаган ҳолда бардош беришига имкон беради. Жумладан, янги вазиятларга мослаша олиш, кескин вазиятларда сафарбарлик ва самарали ҳаракат қилиш қобилияти, хотиржамликни сақлаш ва стрессдан чиқишнинг мақбул йўлини топа билиш (муаммоларга конструктив муносабатда бўлиш), вазиятнинг ўзига хос хусусиятларини ҳисобга олиш, каби фазилатлар билан тавсифланади.

5. Коммуникатив фазилатларни ва суҳбатдошга таъсир ўтказиши.

Божхона хизмати ходимининг мулоқотга киришиш қобилиятлари одамлар билан ишлаш кўникмаларини ўз ичига олади, хусусан:

- турли тоифадаги одамлар билан алоқа ўрнатиш ва алоқани кўллаб-қувватлаш қобилияти (вербаль кўникмалар);
- мулоқотда мослашувчанлик, тарафкашликнинг йўқлиги, ёқтириш ва ёқтирмасликдан озодлик;
- мулоқотдаги шеригига мақсадли таъсир кўрсатиш қобилияти (чекланган вақт шароитида, қисқа ва самарали мулоқот қилиш қобилияти);
- бошқаларнинг муносабатлари, қизиқишлари ва ҳис-туйғуларига нисбатан сезгирлик;
- маълумотни умумлаштириш ва унинг тўғри тушуна олиш қобилияти;
- мулоқотдаги муаммоли вазиятларни, шу жумладан низоларни ҳал қила олиш қобилияти.

Бу компетенцияга шунингдек, ўз позициясини ҳимоя қила олиш, аниқ далилларни таяниб суҳбатдошни ишонтира олиш, суҳбатдош фаол қаршилиқ кўрсатган тақдирда ҳам аниқ далилларни келтирилган ҳолда уни ишонтира олиш, дипломатикликни кўрсата олиш, атрофдагиларда ижобий таассурот қолдира олиш, қобилиятини ўз ичига олади. Ўта қийин вазиятларда суҳбатдошига ҳолатига таъсир кўрсата олиш, вазиятни назорати остига олиш қобилиятлари киради.

6. Ўз - ўзини баҳолаш.

Ўз-ўзига баҳо бериш божхона хизмати ходимининг шахсий хусусияти бўлиб, ўзига нисбатан адекват муносабатда бўлишда, ўз-ўзини танқид қилишда, ўз касбий маҳоратига ишончда, ташқи баҳолашга конструктив муносабат қилишда, муваффақиятга интилишда, шубҳа ва бепарқлик шароитида меҳнат функциясининг бажарилишини сақлаб қолишда, касбий мулоҳазалардаги ишончдаги қобилиятларида ифодаланади.

7. Низоларни бошқариш.

Низоларни бошқара олиш божхона хизмати ходимининг фаолияти учун муҳимликда кам бўлмаган компетенция ҳисобланади ва дипломатиклик, зиддиятсиз хулқ-атвор услуби (вазият иштирокчилари ҳар икки томоннинг манфаатларини тўлиқ қондирадиган мурсага келгандаги ҳамкорлик), зиддиятли вазиятларни вужудга келиш ва ҳал қилиш механизмларини тушуниш қобилияти билан аниқланади.

8. Натижага йўналганлик ва мотивация.

Бу фаол ҳаёт стратегиясини шакллантириш ва аниқ ифодаланган фаол ҳаётнинг позицияда намоён бўлади. Шунингдек, муваффақият ва фаолият мақсадларига эришишга қаратилган хулқ-атвор моделини ишлаб чиқиш; меҳнатга виждонан муносабатда бўлиш; тўсиқларни енгиб ўтиш қобилияти; касбий ўз-ўзини баҳолаш (натижани муҳим ижобий ҳодиса сифатида субъектив қайғуриш ва фикрлари субъект учун муҳим бўлган одамларнинг муваффақиятларини тан олиш); мақсадни мустақил белгилаш ва унга эришиш йўллари кўриш қобилияти; қарор қабул қилиш пайтида ривожланиш истиқболларини кўриш ва “келажак қиёфасини” шакллантириш.

9. Касбий маҳорат даражаси.

Тадқиқот натижалари шуни кўрсатдики, расмий фаолиятни муваффақиятли амалга ошириш учун ходим ўз компетенциясининг намоён бўлишида етакчи фаолият билан боғлиқ бўлган ривожланган мураккаб кўникма ва маҳорат мажмуаси бўлган маълум бир касбий фазилатлар тизимига эга бўлиши керак. Улар билим билан биргаликда ходимнинг касбий тайёргарлиги даражасини аниқлайдилар.

ХУЛОСА

Божхона хизмати ходимининг ижтимоий-психологик компетенциялари таҳлили асосидаги ишимизда биз қуйидаги хулосаларга келдик:

божхона хизмати ходимларини ИПКларини шакллантиришда уларнинг психологик

тайёргарлигига алоҳида эътибор қаратиш лозимлиги аниқланди. Психологик тайёргарлик ходимлар касб маҳоратининг комплекс таркибий қисми сифатида ходимнинг шаклланган ва ривожланган психологик хусусиятлари мажмуаси бўлганлиги сабабли, оператив хизмат фаолиятининг ўзига хос ва муҳим психологик хусусиятларига жавоб бериши ва уни амалга оширишнинг зарур шарт-шароитларидан бири эканлиги аниқланди. Бунда ходим касбий фаолиятда муҳим бўлган диққат, хотира, идрок, тафаккур, ирода, билиш жараёнлари, мулоқотга киришувчанлик, ташкилотчилик, тезкор қарорларни қабул қилиш каби кўникмаларни эгаллаши аниқлаб олинди;

божхонахизматиходимларининг 1. Компетенция ифода этилмаган. 2. Компетенциянинг даражаси ривожланиш ҳолатида. 3. Компетенция етарли даражада ифода этилган. 4. Компетенция ўрта даражадан юқорироқ ривожланган. 5. Компетенция ривожининг юқори даражаси каби компетенцияни ривожлантириш даражасини баҳолаш параметрлари аниқлаш орқали ИПК ривожланишининг ҳам 5 босқичли даражаси аниқланди. 1-даража – интуитив (паст). 2-даража – меъёрий-интуитив (ўртача даражадан паст). 3-даража – нормага мувофиқ – (ўртача). 4-даража – фаол. 5-даража - ижодий (юқори);

ижтимоий-психологик компетенция, психологик компетенция ва психофизиологик компетенциялар каби ходимнинг компетентлигини таъминловчи компетенциялар белгиланган стандартларга мос равишда номзодларни ишга қабул қилишда, ротация масалаларида, лавозимини кўтаришда, аттестатсиялардан ўтказишда қўл келади;

божхона хизмати ходимларининг ижтимоий-психологик компетенциялари таркибига кирувчи касбий аҳамиятга эга бўлган фазилатларни баҳолаш: хотира, диққат, идрок, қарор қабул қилиш самарадорлигини ва фикрлаш хусусиятларини баҳолаш, эмоционал-иродавий барқарорликни баҳолаш, стрессга чидамлилигини баҳолаш, коммуникатив фазилатларни ва суҳбатдошга таъсир ўтказишини баҳолаш, ўз-ўзини баҳолаш, низоларни бошқаришини баҳолаш, натижага йўналганлигини ва мотивациясини баҳолаш, касбий маҳорат даражасини баҳолаш орқали таҳлил этилди.

АДАБИЁТЛАР РЎЙХАТИ

1. Chomskiy, N. Syntactic Structures. Mouton, 1957, 117 p. 9-p.
2. Lekavicienė, R. (2001). Socialinės kompetencijos psichologiniai kriterijai ir vertinimas. Monografija. Kaunas: VDU.
3. Payton, E. (2000). Teacher Competency: What Administrators Can Do. Education, 8(1).
4. Анисимов О.С. Основы методологического мышления. М.: Внешторгиздат, 1989. С.112.
5. Белецкий Э.И. Педагогические аспекты формирования социально-психологической компетентности работников таможенной службы: Дис. ... канд. пед. наук. – Москва: ВНИИ МВД РФ, 2001. - 211 с.
6. Женжеруха Р.И. Формирование социокультурной компетентности специалистов таможенных служб средствами социально-психологического тренинга: Дис. ... канд. пед. наук. – Москва: ФГАОУ ВПО РГСУ, 2011.- 227 с.
7. Красильников А.Ю. Воспитание профессиональной ответственности личности (на примере сотрудников таможенных органов): Дис. ... канд. пед. наук. – Пятигорск: ПГЛУ, 2009. - 175 с.
8. Васильев С.И. Формирование и развитие профессиональных компетенций работников в системе государственной гражданской службы. : Дис. ... канд. экон. наук. – Москва: Рос. гос. соц. ун-т, 2016. 154 бет жами. – 5 с.
9. Тўраев Б.З., Мукимова Г.Х. Таълимда компетентли ёндашув: ўқитувчининг касбий компетентлигини шакллантириш. // «Ўзбекистон олий таълим тизимида кадрлар ресурсларини бошқариш ва ривожлантириш» мавзусидаги Республика семинари материаллари. - Т: «Истеъдод» жамғармаси, ТДПУ. 2014. –52-б.
10. Ҳайитов О. Джалалова С. “Бошқарув психологияси”. Ўқув қўлланма. – Т.: 2008. - 176-б.
11. Шедин С., Деркач А., Колобома И., Аспекты психологии риска в деятельности сотрудника таможенного органа. -М.: 2002. -96 с.
12. Қодиров М.С. Божхона хизматида касбий компетентликни шакллантириш. - Современное образование (Узбекистан), 2020.
13. Қодиров М.С. Божхона хизмати ходимларининг профайлингга асосидаги касбий компетенция даражасини аниқлаш хусусиятлари- Scientific progress, 2022.

ZAMONAVIY JAMIYATDA OILALARDA SOG'LOM TURMUSH TARZINI SHAKLLANTIRISHDAGI MUAMMOLAR

*Qahharova O'g'iloy Adxamjon qizi
GulDU tayanch doktoranti*

Annotatsiya. Ushbu maqolada zamonaviy jamiyatda oila farovonligini ta'minlashda ijtimoiy me'yorlarning o'rni, muommolari, sabablari, yechimlari, oilani mustahkamligiga qaratilgan tarbiyaviy qarashlar ochib berilgan.

Kalit so'zlar: Oila, jamiyat, ijtimoiy, psixologik muommolar, oiladagi sog'lom madaniyat, oila vazifalari va hk.

Абстрактный. В данной статье раскрыта роль социальных норм в обеспечении благополучия семьи в современном обществе, проблемы, причины, решения, воспитательные взгляды, направленные на укрепление семьи

Ключевые слова: Семья, общество, социальные, психологические проблемы, здоровая культура в семье, семейные обязанности и т. д.

Abstract. This article reveals the role, attitudes, causes, solutions of social norms in ensuring the well-being of the family in modern society, educational views aimed at the strengthening of the family.

Key words: Family, society, social, psychological attitudes, healthy culture in the family, family tasks, etc.

Kirish. Oila jamiyat tayanchi, insonning baxt qo'rg'onidir. Shu bois bugungi kunda mamlakatimizda oila institutini mustahkamlash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Uning ijtimoiy, ma'naviy barkamolligi davlat va jamiyat farovonligining negizidir. Darhaqiqat, jamiyat va davlat farovonligi, gullab-yashnashi oilalarning zamonaviyligi va uning ma'naviy-axloqiy poydevorining mustahkamligiga bog'liq. Shu boisdan ham mamlakatimizda amalga oshirilayotgan tub islohotlar mazmunida oila manfaatlarini huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy jihatdan himoya qilish masalalariga alohida e'tibor berilmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 18-fevraldagi "Jamiyatda ijtimoiy-ma'naviy muhitni sog'lomlashtirish, mahalla institutini yanada qo'llab-quvvatlash hamda oila va xotin-qizlar bilan ishlash tizimini yangi darajaga olib chiqish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5938-sonli farmoni zamonaviy oilani shakllantirishda va uning ijtimoiy-iqtisodiy va ma'naviy asoslari samaradorligini oshirishda metodologik asos bo'lib xizmat qilmoqda.[1]

Zamonaviy oilaning quyidagi ma'naviy-axloqiy mezonlari takomillashtiriladi: oilaning muqaddasligi, oilaviy-huquqiy madaniyat, oilaviy hayot psixologiyasi, oila iqtisodi va budjeti, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash masalalari, ro'zg'orshunoslik sirlari, oila gigiyenasi, reproduktiv salomatlik va jinsiy tarbiya asoslari, sog'lom turmush tarzi (kiyinish, ovqatlanish, shaxsiy gigiyena, jismoniy salomatlikni saqlash) qoidalariga amal qilish, kundalik hayot tartib-qoidalariga rioya etish, har qanday vaziyatda o'zini tuta bilish, kamtarlik, sabr-toqatlilik, saranjom-sarishtalik, orastalik, sermulohazalik, odo doirasida so'zlash, turli noaxloqiy illatlardan xolis bo'lish, e'tiqodlilik, ongli intizom, milliy iftixor tuyg'usiga ega bo'lish, yurish-turish, xatti-harakat qoidalariga, milliy oilaviy qadriyatlarga muhabbat, ro'zg'or yuritish madaniyatiga amal qilish, kattalarga hurmatda va kichiklarga nisbatan izzatda bo'lish, adabiyot va san'atga muhabbatini namoyon etish, turli millat urf-odatlarini, an'analari, tili, dini va madaniyatiga hurmat, bag'rikenglik, mehnat madaniyati, sog'lom ma'naviy muhit tartib-qoidalari, kiyinish madaniyati, muloqot madaniyati, zamonaviy uy bekalari axloq-odob qoidalari, ma'naviy-axloqiy qadriyatlarni mustahkamlash, ota-onalikning ijtimoiy-ma'naviy jihatlari, erta turmush, erta tug'uruq, qarindosh-urug'lar o'rtasidagi nikoh, ajrimlar, oilada

nizo, ziddiyat, zo‘ravonlik va tazyiqlarning sabablari va zararli oqibatlari, farzand tarbiyasi va uning o‘ziga xos xususiyatlari, etimlik, shar‘iy nikoh kabilarning salbiy oqibatlari va boshqalar. Demak, ma‘naviy-axloqiy tarbiyaning maqsadi shaxsning insoniyat tomonidan qabul qilingan umuminsoniy va milliy axloq-odob qoidalarini zamonaviy ma‘naviy mezonlar bilan uyg‘un holda kundalik hayotda, amaliy faoliyatda yaxlit tarzda o‘z xatti-harakati, xulq-atvori orqali ongli ravishda namoyon etish demakdir

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. So‘g‘lom turmush tarzi borasida «Avesto»da kasalliklarning oldini olishga katta e‘tibor berilgan. «Kasallik senga tegmasdan burun uni yulib ol». deyiladi unda. «Avesto» gigiyenik qoidalarga qat‘iy rioya qilishni tavsiya etadi. Uyni, oshxonani, uxlash uchun zarur jihozlarni pokiza tutish. uy hayvonlarini tozalikda saqlash lozim deb uqtiradi. «Avesto» inson o‘z tanasi tozaligini saqlashini, chirishning har qanday turlaridan uzoqda bo‘lishni tavsiya qiladi. Inson tanasi tozaligini buyuk baxt deb hisoblaydi. [2,10-11]

Tib ilmining otasi, eramizdan oldingi IV asrda yashab ijod etgan buyuk olim Gippokrat «Sog‘lom turmush tarzi haqida» degan kitobida bu masalaga mufassal to‘xtalib, uning barcha jihatlarini asoslab bergan edi. Jumladan: «Xususiy faoliyat bilan shug‘ullanuvchilar yilning qish faslida ovqatkimi ko‘proq iste‘mol qilishlari, suyuqliklarni kamroq ichishlari lozim. Ichadiganlari suyultirilmagan vino, ozuqalari esa non va qovurilgan ovqatlar bo‘lsin. Ko‘katlarni kamroq iste‘mol qilgan ma‘qul. Shunday yashash tarzidan t;ina issiq va quruq bo‘ladi. Ko‘klam kelgach, suyuqliklar ichishni ko‘paytirib, vinoni suyultirilgan holda, qultumlab ichsin, ozuqalarni esa yumshoqlaridan, lekin kamroq iste‘mol qilsin. Non iste‘mol qilmasdan, uning o‘rniga maza (greklar tayyorlavdigan milliy taom turi) yesin. Qovurilgan ovqatlar o‘rniga qaynatib pishirilganini tanovul qilsin. Yozda yumshoq maza va ko‘proq suyuqlik, meva-sabzavotlar iste‘mol qilsin. Kuzda turli-tuman quyruq va suyuq ovqatlarni mo‘l iste‘mol etsin, ichimliklar esa kamroq va quyruqroq bo‘lishi kerak.

Tadqiqot metodologiyasi. Ibn Sino fikricha, sog‘liqni saqlashning asosiy tadbiri badantarbiya, keyin ovqat tadbiri va uyqu tadbirlari hisoblanadi. «Badantarbiya kishini chuqur va ketma-ket nafas olishga majbur qiluvchi ixtiyoriy harakatdir. mo‘tadil ravishda va o‘z vaqtida badantarbiya bilan shug‘ullangan odam buzilgan xiltlar va mizoj tufayli keluvchi kasalliklarning davosiga muhtoj bo‘lmaydi»

Beruniy suvning inson salomatligidagi ahamiyatini ta‘kidlab: «Inson tozaligi asosan suvda yuvinish bilan bo‘ladi. Har qanday baddid bo‘lgan ifloslikni suvchalik tozalaydigan narsa bo‘lmaydi», deb yozgan

Sog‘lom turmush tarzining shakllanishi odam tomonidan tashqaridan olingan ma‘lumotlar orqali, turmush tarzini teskari aloqa, o‘z his-tuyg‘ularini, ob‘ektiv morfofunktsional ko‘rsatkichlar dinamikasini, ega bo‘lgan valeologik bilimlar bilan o‘zaro munosabatini tahlil qilish yordamida to‘g‘rilash orqali amalga oshiriladi.

Kelgusi avlodlar salomatligiga asos yaratish uchun oilada sog‘lom bolalar tug‘ilishini ta‘minlash kerak. Sog‘lom avlodni tarbiyalab voyaga yetkazish masalasi shifokorlar zimmasiga katta mas‘uliyat yuklaydi. Bu masalani to‘g‘ri hal etish yoshlarimiz oldiga bir qator talablar qo‘yadi. Jumladan:

- oilaviy turmush qurishga tayyorlanayotgan yigit va qizlarimiz sog‘lom bo‘lishi, nikoh va jinsiy hayot gigiyenasi bo‘yicha yetarli bilimga ega ekanligi;
- homilador ona salomatligini faqat ona homilador bo‘lgandan so‘ng emas, balki qizlarimizni yoshlik davridan sog‘-salomat o‘shishlarini ta‘minlashdan boshlash lozimligi;
- bola tug‘ilgandan keyin uning sog‘lom o‘shishi haqida qayg‘urish, ona sutining ahamiyatini keng targ‘ib qilish zaruriyati. Olimlar fikriga ko‘ra, qizlar 20-22 yoshida, yigitlar esa 23-25 yoshida turmush qurishlari mumkin. Avvalo yigit va qiz turmush qurishdan oldintibbiy ko‘rikdan o‘tishlari lozim.

Ular «Oila va nikoh» maslahatxonalarida, genetik markazlardan maslahat olishlari, bo‘lajak

zurriyodining salomatligi haqida qayg'urishlari kerak. Bu qator irsiy kasalliklarning oldini olishda muhim ahamiyat kasb etadi. Irsiy kasalliklar kelib chiqishiga yaqin qarindosh-urug'lar (tog'avachcha, xolavachcha, amakivachchalar) o'rtasidagi nikohlar ham sabab bo'ladi.

Olimlarning fikricha, inson salomatligining 51,6% sog'lom turmush tarziga, 20,5 % irsiyatga, 19,3 % tashqi ekologik muhitga, 8,6% sog'liqni saqlash tizimiga bog'liq ekan. Ko'rinib turibdiki, salomatlik har bir insonning qanday hayot kechirishi, nima yeyishi, kimlar bilan muomala qilishi, o'zi uchun munosib, qulay hayot tarzini ishda ham, dam olishda ham tashkil eta olishiga bevosita aloqador [3,87]

Tadqiqot metodologiyasi. Zamonaviy oilani shakllantirish samaradorligini ta'minlashda foydalaniladigan tarbiya metodlarining rang-barangligi muhim rol o'ynaydi. Olib boriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarning maqsadi, mazmuni, tematikasi va xarakteriga ko'ra savol-javob, kichik guruhlarda ishlash, hikoya, davra suhbat, munozara, klaster, aqliy hujum va boshqa metodlardan foydalanish ijobiy samaralar beradi. Jumladan, jamoatchilik fikrini o'rganish, ta'lim-tarbiya natijalarini monitoring qilish, uning mazmunini takomillashtirish, ishning shakl va metodlarini to'g'ri tanlashda muhim rol o'ynaydi. Buni o'rganishning metodologik asosini aniqlash; mazmunini va tamoyillarini belgilash; samarali metodlarni tanlash; tahlil etish, xulosa chiqarish, tavsiyalar berish yo'llarini aniqlab belgilab olmoq lozim.

Tahlil va natijalar. Zamonaviy jamiyatda oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda bir qator muammolar mavjud. Bu muammolar ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va texnologik omillar bilan bog'liq bo'lib, oilalarning sog'lom turmush tarziga intilishiga to'sqinlik qiladi.

1. Ijtimoiy muammolar: tez sur'atlarda o'zgarib borayotgan hayot tarzi: zamonaviy jamiyatning tez sur'atlar bilan o'zgarishi, odamlarning bandligi va stress darajasining oshishiga olib keladi. Bu esa, sog'lom ovqatlanish, sport bilan shug'ullanish va yetarlicha dam olish uchun vaqt topishni qiyinlashtiradi

- Nosog'lom turmush tarzini targ'ib qiluvchi ommaviy axborot vositalari: ba'zi ommaviy axborot vositalari, ayniqsa ijtimoiy tarmoqlar, nosog'lom ovqatlar, kam harakatlilik va zararli odatlarni targ'ib qilishi mumkin. Bu esa, ayniqsa yoshlar orasida sog'lom turmush tarziga bo'lgan qiziqishni kamaytiradi.

- Ijtimoiy tengsizlik: ijtimoiy tengsizlik, ya'ni moddiy resurslar va sog'liqni saqlash xizmatlaridan foydalanish imkoniyatidagi farqlar, sog'lom turmush tarzini shakllantirishga to'sqinlik qiladi. Kam ta'minlangan oilalar sog'lom ovqatlar sotib olish va sport bilan shug'ullanish uchun imkoniyatlarga ega bo'lmasligi mumkin.

- An'anaviy qadriyatlarning o'zgarishi: ba'zan, an'anaviy qadriyatlar, masalan, birgalikda ovqatlanish, oilaviy tadbirlar va sport bilan shug'ullanish o'rnini zamonaviy hayot tarzi egallab bormoqda. Bu esa, oilada sog'lom turmush tarzini shakllantirishga xalaqit qiladi.

2. Iqtisodiy muammolar:

- Moddiy yetishmovchilik: kam ta'minlangan oilalar, ko'pincha, sog'lom ovqatlar (meva, sabzavotlar, tabiiy mahsulotlar) o'rniga arzon va nosog'lom ovqatlarni tanlashga majbur bo'ladi.

- Ish bilan bog'liq stress: uzoq ish soatlari va ish joyidagi stress, oila a'zolarining sog'lig'iga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Stress tufayli odamlar nosog'lom odatlarga (masalan, spirtli ichimliklar iste'mol qilish, chekish) murojaat qilishlari mumkin.

- Sport bilan shug'ullanish uchun mablag'ning yetishmasligi: sport zallari, fitnes klublari va sport anjomlari qimmat bo'lishi mumkin. Bu esa, ko'p oilalarning sport bilan muntazam shug'ullanishiga to'sqinlik qiladi.

3. Psixologik muammolar:

Stress va depressiya: zamonaviy hayotning tez sur'atlari, ishdagi stress, moliyaviy muammolar va oilaviy nizolar odamlarda stress va depressiyaga olib kelishi mumkin. Bu holatda odamlar sog'lom turmush tarziga e'tibor berishdan ko'ra, nosog'lom odatlarga (masalan, shirinliklar yoki nosog'lom ovqatlarni ko'p iste'mol qilish) murojaat qilishlari mumkin.

Motivatsiyaning yetishmasligi: ba'zi oila a'zolari sog'lom turmush tarzini o'zgartirishga motivatsiya topa olmasligi mumkin. Bu holat, o'z-o'zini hurmat qilishning pastligi, maqsadga intilishning yo'qligi yoki o'zini tuta bilish qobiliyatining sustligi bilan bog'liq bo'lishi mumkin.

O'zaro qo'llab-quvvatlashning yetishmasligi: oila a'zolarining bir-birini qo'llab-quvvatlamasligi, sog'lom turmush tarziga o'tish va uni saqlab qolishni qiyinlashtiradi.

4. Texnologik muammolar:

Ekrandagi vaqtning ko'payishi: zamonaviy texnologiyalarning rivojlanishi, odamlarning ko'p vaqtini kompyuterlar, televizorlar va smartfonlar oldida o'tkazishiga olib keldi. Bu esa, kam harakatlilikka, uyqusizlikka va sog'liq muammolariga sabab bo'lishi mumkin.

Ijtimoiy tarmoqlardagi noto'g'ri ma'lumotlar: ijtimoiy tarmoqlarda sog'liq va to'g'ri ovqatlanish haqida noto'g'ri yoki adashtiruvchi ma'lumotlar tarqalishi mumkin. Bu esa, oilalarning sog'lom turmush tarzi haqida to'g'ri tushunchaga ega bo'lishiga to'sqinlik qiladi. Zamonaviy jamiyatda oilalarda sog'lom turmush tarzini shakllantirishda bir qator muammolar mavjud. Bu muammolar ijtimoiy, iqtisodiy, psixologik va texnologik omillar bilan bog'liq bo'lib, oilalarning sog'lom turmush tarziga intilishiga to'sqinlik qiladi.

Xulosa va takliflar. Inson umrining asosiy qismi oilada o'tarkan, o'z navbatida oiladagi barcha jarayonlar oila a'zolariga ijobiy yoki salbiy ta'sir qilishi tabiiy. Oiladagi tinch-totuvlik, oila a'zolarining sog'lig'i masalasidagi xotirjamlik oila farovonligini belgilovchi asosiy mezonlardan biri, bu-inson salomatligi hisoblanadi. Yoshlarga bolaligidan boshlab oilaning muqaddasligi va uning madaniyati haqida tushuntirib, uni amalda ko'rsatib borilsa, albatta, bu jarayon kelgusida o'zining hosilini beradi.

Har bir ota-onaning oiladagi birinchi galdagi vazifasi oilada tinchlik-totuvlik, xotirjamlikni ta'minlash, oila a'zolarining bir-birlariga nisbatan samimiy mehr-muhabbatini kuchaytirish va shu yo'l bilan oilada me'yordagi sog'lom ruhiy atmosferani yaratish oila a'zolarining sog'lig'ini ta'minlashdagi garov bo'lib xizmat qiladi, desak mubolag'a bo'lmaydi. Qariyalarimiz ham duoga qo'l ochganlarida, hamisha, Allohdan tinchlik, xotirjamlik va sog'lik so'raydilar. Bu albatta, bejiz shakllangan ijtimoiy me'yor emas. Ushbu tilaklarning negizida bir olam falsafiy ma'nolar borki, ularning mazmun mohiyatida insonlarning sog'lig'i yotadi. Farzandlarni yoshligidan oila madaniyati elementlari, oilaviy hayot, turmush qurish, qizlarni onalikka, o'g'il bolalarni esa mehribon ota bo'lishga, oilani rejalashtirish, sog'lom farzandlarni dunyoga keltirish, ularni asrlar davomida shakllanib, o'zining ijobiy isbotlarini topgan milliy urf-odatlarimiz, qadriyatlarimiz asosida to'g'ri tarbiyalash, oila a'zolari bir-birlariga nisbatan mehr-oqibatli bo'lish va oilada ijobiy muomala-munosabatlarni shakllantirish bo'yicha ko'nikmalarni ularning ongiga singdirib borilsa, oila madaniyatini to'g'ri shakllantirish borasida oldiga qo'yilgan maqsadga har bir ota-ona, albatta, erishadi. Negaki oiladagi tinchlik-totuvlik va farovonlik mazkur oila a'zolari kayfiyatining hamisha ko'rtarinkiligini ta'minlash orqali organizmni har xil asabiy jarohatlardan asraydi, taranglikning oldi olinadi va bu o'z navbatida oila a'zolarining sog'lig'iga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Oiladagi tibbiy madaniyat me'yorlari to'g'risida gap ketganda, keyingi yillarda shakllangan dori-darmonlarga bo'lgan munosabatlarni ham ko'rib chiqish mumkin. Har xil turdagi dori-darmonlarga ehtiyoj yuqoriligini inobatga olib, qo'shtirnoq ichidagi dorishunoslar ko'payib, bozorlarda sanitariya-gigiyenik jihatdan talabga javob bermaydigan joylarda, hatto yozning jazirasida ochiq quyosh tagida ham har xil dori vositalari sotila boshlandi va bu jarayon odamlar orasida vrachlarning buyurtmasiz, retseptlarsiz dori vositalarini bema'lol sotib olish va o'zlaricha iste'mol qilishdek salbiy ijtimoiy me'yorlar paydo bo'ldi. Bu holat ham ma'lum darajada odamlar sog'lig'iga ta'sir etdi. Bugunga kelib bu holatga chek qo'yildi. Dorixonalar davlat tasarrufidan chiqarilib xususiylashtirildi va nazorat ostiga olindi. Ammo, tan olish kerakki, bugun dorixonalardan deyarli har qanday dori-darmonni sotib olish uchun vrach retsepti zarur emas, uni hech qaysi dorixonada so'ramaydilar. Demak, mijozlar xohlagan dori vositasini sotib

olishlari mumkin. Boz ustiga haligacha bozorlarda dorifurushlar uzil-kesil yo‘q qilingani yo‘q. Ular sotib yurgan dori vositalarining yaroqliligiga hech kim kafolat berolmaydi. Achinarlisi shundaki, odamlar bunday shaxslardan dori vositalarini olib o‘zlaricha iste‘mol qilishni davom ettirayaptilar. Aynan shu jarayonni inobatga olib tibbiy xodimlarning oilada tibbiy madaniyatni shakllantirishning aynan dori vositalari bilan bo‘ladigan muomala yo‘nalishidagi asosiy vazifalaridan biri – bu har qanday holatda ham dorilarni vrachlarning tavsiyasi bilan, bemorning yoshini, jinsini, kasallik turi, darajasi, dori vositalarining saqlanish tartibi va muddati, qaysi paytda ichish tartibi, dori vositasining haqiqiy ishonchli ekanligini bilish kabi xususiyatlar to‘g‘risidagi bilim, malaka va ko‘nikmalarini oshirishdan iborat bo‘ladi. Shu bilan birga xalq tabobati qo‘lga kiritgan yutuqlardan keng foydalanish, ya‘ni mahalliy tibbiy giyohlardan tayyorlangan, iste‘mol qilish tartiblarini tushuntirish ham aynan biz fikr yuritayotgan oiladagi tibbiy madaniyatning to‘g‘ri shakllantirishga yordam beradigan omillardan biri hisoblanadi. Biz umuminsoniy madaniyat va uning inson sog‘lig‘ini asrashdagi tutgan o‘rnini atigi bir-ikki madaniy turlari, aslida muomalani yoritishga urindik, xolos.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 18 февралдаги “Жамиятда ижтимоиймаънавий муҳитни соғломлаштириш, маҳалла институтини янада қўллаб-қувватлаш ҳамда оила ва хотин-қизлар билан ишлаш тизимини янги даражага олиб чиқиш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-5938-сонли фармони
- 2 SOG‘LOM TURMUSH TARZI ASOSLARI (VALEOLOGIYA) Rahmon Arziqulov 2009
- 3 SOG‘LOM TURMUSH TARZI ASOSLARI (VALEOLOGIYA) Rahmon Arziqulov 2009
- 4 Oila psixologiyasi. Vasila Karimova Toshkent 2007
- 5 Мусурманова О. Оила жамият таянчи: Монография /О.Мусурманова. –Тошкент: Ёшлар нашриёт уйи, 2019. – Б. 252
- 6 Мусурманова А. The scientific and pedagogic foundation of training social activeness of youth. “Ўзбекистонда хорижий тиллар” илмий-методик электрон журнали. – Тошкент, 2017 йил,
7. Alqarov I.Sh., Mamatqulova R.Sh. Oila tarbiyasining pedagogikasi. – Toshkent, 2007.

TALABALAR O'QUV FAOLIYATINI SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA MILLIY QADRIYATLARDAN FOYDALANISHNING PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI

Tursunov Jo 'rabek Baxtiyarovich

O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti, Psixologiya kafedrası o 'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada talabalar o 'quv faoliyatini samarali tashkil etishda milliy qadriyatlarning psixologik imkoniyatlari tahlil qilinadi. Ijtimoiy-psixologik, madaniy-kognitiv va kasbiy-rivojlantiruvchi yondashuvlar asosida milliy qadriyatlarning ta 'lim jarayoniga integratsiyasining ta 'siri o 'rganiladi. Vigotskiy, Bandura, Piaget, Erikson, Maslou, Hofstede va Bourdieu kabi olimlarning nazariyalari asosida milliy qadriyatlarning shaxs rivojlanishiga ijobiy ta 'siri yoritilgan. Tadqiqot davomida talabalar motivatsiyasi, ijtimoiy faolligi va kasbiy yo 'nalishga bo 'lgan intilishi milliy qadriyatlar bilan bog 'liq ravishda o 'rganildi.

Kalit so 'zlar: milliy qadriyatlar, talabalar o 'quv faoliyati, psixologik imkoniyatlar, ijtimoiy faollik, motivatsiya, madaniy-kognitiv rivojlanish, kasbiy kompetensiya, shaxsiy identifikatsiya, pedagogik yondashuvlar, ijtimoiy moslashuv.

ПСИХОЛОГИЧЕСКИЕ ВОЗМОЖНОСТИ ИСПОЛЬЗОВАНИЯ НАЦИОНАЛЬНЫХ ЦЕННОСТЕЙ ДЛЯ ПОВЫШЕНИЯ ЭФФЕКТИВНОСТИ УЧЕБНОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СТУДЕНТОВ

Турсунов Джурабек Бахтиярович

Узбекско-Финский педагогический институт, Преподаватель кафедры психологии

Аннотация: В данной статье анализируются психологические возможности эффективной организации учебной деятельности студентов с учетом национальных ценностей. Рассматривается влияние интеграции национальных ценностей в образовательный процесс на основе социально-психологического, культурно-когнитивного и профессионально-развивающего подходов. Освещается положительное влияние национальных ценностей на развитие личности с опорой на теории таких ученых, как Выготский, Бандура, Пиаже, Эриксон, Маслоу, Хофстеде и Бурдьё. В ходе исследования изучены взаимосвязи между мотивацией студентов, их социальной активностью и профессиональной ориентацией в контексте национальных ценностей.

Ключевые слова: национальные ценности, учебная деятельность студентов, психологические возможности, социальная активность, мотивация, культурно-когнитивное развитие, профессиональная компетенция, личностная идентификация, педагогические подходы, социальная адаптация.

PSYCHOLOGICAL OPPORTUNITIES FOR USING NATIONAL VALUES TO ENHANCE STUDENTS' LEARNING EFFECTIVENESS

Tursunov Jo 'rabek Baxtiyarovich

Uzbekistan-Finland Pedagogical Institute, Lecturer at the Department of Psychology

Abstract: This article analyzes the psychological opportunities of utilizing national values to effectively organize students' learning activities. The impact of integrating national values into the educational process is examined based on socio-psychological, cultural-cognitive, and professional-developmental approaches. The positive influence of national values on individual development is highlighted through the theories of scholars such as Vygotsky, Bandura, Piaget, Erikson, Maslow, Hofstede, and Bourdieu. The study explores students' motivation, social activity, and professional orientation in relation to national values.

Keywords: national values, students' learning activities, psychological opportunities,

social activity, motivation, cultural-cognitive development, professional competence, personal identification, pedagogical approaches, social adaptation.

Ijtimoiy-psixologik yondashuvning asosiy tamoyillari sifatida, inson psixikasining kognitiv, hissiy va ijtimoiy jarayonlarini o'rganishdan boshlangan umumiy psixologiya bilimlari shaxsning o'zlikni anglash, madaniy meros va milliy qadriyatlarni o'zlashtirish jarayonida muhim o'rin tutishini ko'rsatadi. Shuningdek, Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi inson ongining shakllanishi va ijtimoiy aloqalar orqali rivojlanishi jarayonida milliy qadriyatlarning ahamiyatini ta'kidlaydi; unga ko'ra, shaxsning psixologik rivojlanishi jamiyat va madaniyat bilan uzviy bog'liq bo'lib, o'quv jarayonida milliy qadriyatlarning integratsiyasi uning o'zligini to'liq anglashiga va shaxsiy intilishlarning mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, Banduraning ijtimoiy-kognitiv nazariyasi shaxsning o'zaro muloqot va taqlid orqali o'rganishi, ya'ni boshqalarning xulq-atvoriga ergashishi, milliy qadriyatlar asosida yaratilgan ta'lim muhitida talabalar orasida ijobiy motivatsiya va o'zaro qo'llab-quvvatlashning kuchayishiga olib kelishini isbotlaydi; bu nazariya talabalar orasida konformizm va mustaqil fikrlash o'rtasidagi nozik muvozanatni shakllantirishda muhim ahamiyatga ega [55]. Shuningdek, Piagetning kognitiv rivojlanish nazariyasi bolalarning intellektual bosqichlarini tahlil qilib, ularning bilim strukturasi va tafakkur qobiliyatining madaniy va ijtimoiy omillar ta'sirida qanday o'zgarishini ko'rsatadi, bu esa milliy qadriyatlarni o'quv jarayoniga tatbiq etishda metodologik yondashuvlarning asosiy poydevorini tashkil etadi.

Metodologik asoslarga ko'ra, milliy qadriyatlarni o'quv faoliyatiga kiritishning samaradorligini ta'minlash uchun interaktiv va tajriba asosidagi pedagogik usullar, jumladan, sinfda rollarni o'ynash, guruhli muhokamalar, so'rovnomalar, eksperiment va kuzatish metodlari qo'llaniladi. Ushbu metodlar yordamida o'quvchilarning shaxsiy xususiyatlari, ularning madaniy merosga bo'lgan munosabati va ijtimoiy o'zaro ta'sirlarining samaradorligi aniqlanadi va tahlil qilinadi. Zamonaviy psixologik va pedagogik tadqiqotlar, shuningdek, innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida milliy qadriyatlar bilan boyitilgan o'quv muhiti talabalar orasida nafaqat akademik bilimlarni, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham mustahkamlashga xizmat qiladi.

Bundan tashqari, ilg'or olimlar, jumladan, Vigotskiy, Bandura va Piaget tomonidan ilgari surilgan nazariyalar asosida ishlab chiqilgan metodologik yondashuv, milliy qadriyatlarni o'quv jarayoniga muvaffaqiyatli integratsiya etishning aniq tamoyillarini belgilaydi, chunki bu yondashuvlar orqali talabalar o'z o'qish faoliyatida o'zlikni, madaniyatni va an'analarni anglab yetish, shuningdek, zamonaviy ta'lim sharoitida intellektual, ijtimoiy va hissiy ko'nikmalarini rivojlantirishga erishishlari ta'minlanadi. Shu sababli, milliy qadriyatlarni o'quv jarayoniga tatbiq etishning metodologik asoslari, nafaqat psixologik nazariyalar va empirik metodlar bilan, balki pedagogik strategiyalar va madaniy amaliyotlar bilan ham boyitilgan bo'lib, bu esa ta'lim tizimining umumiy samaradorligini oshirishga katta hissa qo'shadi.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, talabalar o'quv faoliyatida milliy qadriyatlarga asoslangan yondashuvlar ularga shaxsiy identifikatsiyani rivojlantirish, ijtimoiy moslashuvchanlikni oshirish va kasbiy intilishlarni mustahkamlash imkoniyatini beradi.

Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlar, nafaqat an'anaviy didaktik tamoyillarga asoslangan holda o'rgatilishi, balki ularning shaxs rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi ham muhim ahamiyat kasb etadi. Masalan, Eriksonning psixosotsial rivojlanish nazariyasi shaxs o'zining kimligini shakllantirishda ijtimoiy tajribalar va milliy omillarning muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi. Shuning uchun, talabalar o'quv faoliyatida milliy qadriyatlarning o'rni, ularning jamiyatda o'z o'rnini topishi va o'zini anglashiga qanday ta'sir qilishini o'rganish orqali ularga shaxsiy qarashlarini mustahkamlash imkoniyatini yaratadi.

Shu bilan birga, Hofstedening madaniy o'lchamlar nazariyasi ham milliy qadriyatlarning shaxs xulq-atvoriga ta'sirini tushuntirishda muhim ahamiyatga ega. Uning tadqiqotlariga

ko'ra, madaniy an'analar va qadriyatlar ta'lim jarayonida shaxsning ijtimoiy hayotda qanday ishtirok etishini, qabul qilingan qarorlarni va motivatsiya tizimini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. O'qitish jarayoniga milliy qadriyatlarni kiritish esa talabalar orasida muloqot, hamkorlik va jamoaviy tafakkur rivojlanishiga xizmat qiladi. Bu jarayon orqali talabalar o'z madaniyati bilan bog'liq bo'lgan urf-odatlar, e'tiqodlar va axloqiy normalarni o'rganibgina qolmay, balki ulardan amaliy foydalana olish malakasiga ham ega bo'lishadi.

Bundan tashqari, Maslouning ehtiyojlar iyerarxiyasi nazariyasi ham milliy qadriyatlarning ta'lim jarayonidagi o'rnini tushuntirish uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi. Maslou inson ehtiyojlarini fiziologik ehtiyojlardan tortib o'z-o'zini namoyon qilish ehtiyojigacha bo'lgan bosqichlarga ajratadi. Talabalar o'qish jarayonida milliy qadriyatlar asosida o'zining shaxsiy va kasbiy yo'nalishini aniqlashi, o'zini jamiyatning muhim qismi sifatida his qilishi va o'zining intellektual salohiyatini to'liq namoyon etishi uchun milliy qadriyatlar muhim motivatsion omil bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida milliy qadriyatlarni aks ettiruvchi metodikalar qo'llanilganda, talabalar o'ziga bo'lgan ishonchni oshiradi, ularning o'z bilimlarini amaliy hayotda qo'llashga bo'lgan ishtiyoqi ortadi [76].

Shuningdek, L.Vygotskiyning madaniy-tarixiy nazariyasi asosida olib borilgan tadqiqotlar ham milliy qadriyatlarning ta'lim jarayonidagi o'rnini tushunishda muhim ahamiyat kasb etadi. Unga ko'ra, shaxsning psixologik rivojlanishi ijtimoiy madaniy muhit va kommunikatsiya jarayoniga bog'liq. Talabalar o'z o'quv faoliyatida milliy qadriyatlardan foydalanish orqali shaxsiy rivojlanishining yuqori bosqichiga ko'tarilishi, o'z jamiyatidagi ma'naviy qadriyatlarga tayanib qaror qabul qilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida talabalarni kelajak kasbiy hayotida mustaqil fikrlashga o'rgatish, turli madaniy kontekstlarda ishlash qobiliyatini shakllantirish, ijtimoiy moslashuvchanlik va tolerantlikni rivojlantirish imkoniyatini beradi.

Milliy qadriyatlarning ta'lim jarayoniga integratsiyasi orqali talabalar ijtimoiy o'zaro ta'sir va hamkorlik, ijtimoiy javobgarlik hissi, ma'naviy qadriyatlarga asoslangan yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar. Bourdieu'ning madaniy kapital nazariyasi bu borada ahamiyatli bo'lib, u ta'lim jarayonida shaxsning ijtimoiy maydondagi mavqeini belgilashda madaniy meros va qadriyatlarning hal qiluvchi rol o'ynashini ta'kidlaydi. Talabalar milliy qadriyatlarga asoslangan o'quv tajribasi ularning shaxsiy, kasbiy va akademik rivojlanishiga bevosita ta'sir qiladi.

Bundan tashqari, Deveyning tajribaga asoslangan ta'lim nazariyasi talabalarni faol ta'lim oluvchi sifatida shakllantirish tamoyiliga asoslangan bo'lib, milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilish orqali ularning bilimlarni amaliy hayotda qo'llash qobiliyati oshadi. Deveyning ta'kidlashicha, shaxsning o'z bilimlarini faol ravishda hayotiy vaziyatlarda sinab ko'rishi uning ijtimoiy, kasbiy va intellektual rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Talabalar milliy qadriyatlarni o'z faoliyatlariga moslashtirish orqali ijodiy tafakkur, mustaqil fikrlash, ijtimoiy moslashuvchanlik va kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shunday qilib, milliy qadriyatlarning ta'lim jarayonidagi o'zni psixologik, ijtimoiy va kognitiv tamoyillar orqali tushuntirilishi mumkin. L.Vygotskiy, A.Bandura, E.Erikson, J.Piaget, K.Hofstede, A.Maslou, F.Bourdieu va L.Devey kabi olimlarning nazariy yondashuvlari shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlarni o'quv jarayoniga kiritish shaxsning ijtimoiy moslashuvchanligini, kasbiy intilishlarini, madaniy identifikatsiyasini va mustaqil qaror qabul qilish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Ushbu metodologik asoslar milliy qadriyatlarni ta'lim jarayoniga integratsiya qilishning psixologik imkoniyatlarini chuqurroq ochib berishga yordam beradi va bu esa shaxs rivojlanishining uzluksiz davom etishini ta'minlaydi.

Shu bois, talabalar o'quv faoliyatida milliy qadriyatlardan foydalanish metodologik jihatdan ilmiy asoslarga tayanishi kerak va bu jarayon ijtimoiy-psixologik, madaniy-kognitiv va kasbiy-rivojlantiruvchi tamoyillar bilan mustahkamlanishi lozim. Kelgusida milliy

qadriyatlarga asoslangan o'quv dasturlarining samaradorligini oshirish uchun innovatsion pedagogik texnologiyalarni, psixologik trening metodlarini, ijtimoiy o'zaro ta'sirga asoslangan ta'lim strategiyalarini keng qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi. Bu esa talabalarning ijtimoiy faolligini, kasbiy kompetensiyalarini va intellektual salohiyatini yanada mustahkamlashga xizmat qiladi.

Tadqiqot usuli sifatida T.I.Ilina tomonidan ishlab chiqilgan, biz tomonimizdan modifikatsiyalangan «OTM tahsil olish motivatsiyasi», Shvarsning «Qadriyatlar» testi, Y.M.Orlovning «Shaxs ehtiyojlari shakllanganlik darajasini o'rganish» metodikasi hamda hammualliflikda ishlab chiqilgan «Talabalar o'quv faoliyatini samaradorligini oshirishda milliy qadriyatlarning o'rnini aniqlovchi so'rovnoma»dan foydalanildi

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, milliy qadriyatlar asosida shakllangan ta'lim muhiti talabalar orasida ijtimoiy faollik darajasini oshirishga yordam beradi.

Talabalar guruh ishlarida faol ishtirok etish, ijtimoiy loyihalarga hissa qo'shish, o'z fikrlarini erkin bayon qilish, yetakchilik qobiliyatlarini rivojlantirish orqali o'z salohiyatlarini to'liq namoyon etish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Shuningdek, Bourdieu'ning madaniy kapital nazariyasi ham ijtimoiy faollik va shaxs rivojlanishining jamiyatdagi mavqega bog'liq ekanligini tushuntiradi. Ushbu nazariyaga ko'ra, talabalarning madaniy va ijtimoiy faolligi ularning ta'lim jarayonidagi muvaffaqiyatiga bevosita ta'sir qiladi.

Ijtimoiy faollik omili orqali talabalar faol jamoa a'zosi sifatida shakllanib, ijtimoiy mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga tayyor bo'ladilar. Bu esa o'z navbatida, ularning akademik va kasbiy rivojlanishiga katta hissa qo'shadi.

Talabalarning motivatsiya, milliy g'urur va ijtimoiy faollik omillarini shakllantirish orqali ularning o'qish samaradorligi oshadi, kasbiy yo'nalishga bo'lgan intilishi mustahkamlanadi va jamiyat oldidagi mas'uliyati ortadi. Ushbu omillar psixologik, ijtimoiy va madaniy jihatdan o'zaro bog'liq bo'lib, milliy qadriyatlarning o'quv jarayoniga kiritilishi talabalarning intellektual va kasbiy rivojlanishini yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdullaeva B.S. «Bo'lajak o'qituvchilar o'quv-ilmiy faoliyati motivatsiyasining psixofiziologik determinantlari» mavzusidagi Psixologiya fanlari doktori (DSc) dissertatsiyasi.- Buxoro., 2022. – 104 b.

2. Axmedova Z.J. «Boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'quv faoliyatiga moslashuv motivatsiyasining pedagogik-psixologik xususiyatlari» mavzusidagi dissertatsiya ishi.- Buxoro., 2024. – 46 b.

3. Барначук Л.Ф. Психодиагностика: Учебник для вузов.2-е изд. – СПб.: Питер, 2009. – 384 с.

4. Bafaev M.M. «Globalashuv jarayonida milliy bag'rikenglikni shakllantirishning ijtimoiy-psixologik determinantlari» diss T.: 2020. - 150 b.

5. Бодалев А.А., Столин В.В. Общая психодиагностика. –СПб.: «Реч» 2000. – 440 с.

6. Буева Л.П. Человек как высшая ценность и главное богатство общества // Человек в системе наук. - М., 2001. – 493 с.

7. Божович Л.И. Личност и ее формирование в детском возрасте СПб Питер, 2008. – 400 с.

8. Бандура А., Уолтерс Р. Подростковая агрессия: Изучение влияния воспитания и семейных отношений. — М.: Апрель Пресс: ЭКСМО-Пресс, 2000. – 509 с.

9. Davletshin M.G. Zamonaviy maktab o'qituvchisining psixologiyasi. – Toshkent:O'zbekiston, 2009. – 30 b.

DELINKVENT AXLOQ – SHAXS OG'ISHGAN XULQINING SHAKLI SIFATIDA

Turumbetova Zamira Yusupbayevna
Qoraqalpoq davlat universiteti «Pedagogika va psixologiya» kafedrasida dotsenti,
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori

Annotatsiya. Ushbu maqolada delinkvent axloqning o'ziga xos jihatlari tahlil qilinadi. Delinkvent xatti-harakatlarning shakllanishiga ta'sir etuvchi ijtimoiy, psixologik va madaniy omillar tahlil qilinib, ushbu hodisaning oldini olish bo'yicha takliflar beriladi. Tadqiqot davomida turli nazariy yondashuvlar ko'rib chiqilib, empirik ma'lumotlarga asoslangan tahlil o'tkazildi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, delinkvent xulq-atvor asosan oilaviy muhit, ijtimoiy sharoit va shaxsiy psixologik xususiyatlar bilan chambarchas bog'liq.

Kalit so'zlar: delinkvent axloq, huquqbuzarlik, yoshlar, psixologik tahlil, ijtimoiy omillar, jinoyatchilik.

DELINQUENT BEHAVIOR AS A FORM OF DEVIANT CONDUCT

Turumbetova Zamira Yusupbayevna
Associate Professor of the «Pedagogy and Psychology» Department at Karakalpak State University, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences.

Annotation. This article analyzes the specific aspects of delinquent behavior. The study examines the social, psychological, and cultural factors influencing the formation of delinquent actions and provides recommendations for preventing this phenomenon. Various theoretical approaches are reviewed, and an analysis based on empirical data is conducted. The results indicate that delinquent behavior is closely linked to family environment, social conditions, and individual psychological characteristics.

Keywords: delinquent behavior, offenses, youth, psychological analysis, social factors, crime.

ДЕЛИНКВЕНТНОЕ ПОВЕДЕНИЕ КАК ФОРМА ДЕВИАНТНОГО ПОВЕДЕНИЯ

Турумбетова Замира Юсупбаевна
Доцент Каракалпакского государственного университета, Кафедра «Педагогика и психология», доктор философии (PhD) по педагогике

Аннотация. В данной статье анализируются особенности делинквентного поведения. Исследуются социальные, психологические и культурные факторы, влияющие на формирование делинквентных действий, и предлагаются меры по предотвращению данного явления. В ходе исследования рассмотрены различные теоретические подходы и проведён анализ на основе эмпирических данных. Результаты показывают, что делинквентное поведение тесно связано с семейной средой, социальными условиями и индивидуальными психологическими особенностями.

Ключевые слова: делинквентное поведение, правонарушение, молодежь, психологический анализ, социальные факторы, преступность.

Kirish. Jamiyat taraqqiyotida huquqbuzarlik va jinoyatchilik kabi salbiy hodisalar muayyan muammolarni yuzaga keltiradi. Ayniqsa, yoshlar orasida delinkvent axloqning shakllanishi global muammo bo'lib, u nafaqat ijtimoiy muhitga, balki shaxsning kelajakdagi taqdiriga ham salbiy ta'sir qiladi.

Delinkvent axloq – bu yoshlar tomonidan amalga oshiriladigan huquqbuzarliklar, axloqiy me'yorlarga zid xatti-harakatlar majmui bo'lib, u jamiyatdagi qabul qilingan normalarga zid keladi. Ushbu maqolada delinkvent axloq tushunchasi, uning shakllanish omillari, ijtimoiy va psixologik jihatlari, shuningdek, uni bartaraf etish strategiyalari tahlil qilinadi [1].

ADABIYOTLAR SHARHI. Delinkvent axloq bo'yicha tadqiqotlar XX asrning o'rtalaridan boshlab turli ilmiy yondashuvlar asosida amalga oshirilgan. Ushbu bo'limda turli nazariy qarashlar tahlil qilinadi.

1. Sotsiologik nazariyalar

Sotsiologik tadqiqotlar delinkvent axloqni ijtimoiy sharoit va muhit ta'sirida yuzaga keladigan hodisa sifatida talqin qiladi. E. Dyurkgeym o'zining «Anomiya nazariyasi»da ijtimoiy me'yorlarning buzilishi yoshlarning jinoyatchilikka moyilligining asosiy sabablaridan biri ekanligini ta'kidlaydi. Shuningdek, R. Mertonning «Strukturaviy ziddiyatlar nazariyasi»da ijtimoiy adolatsizlik delinkvent xatti-harakatlarning shakllanishida muhim omil sifatida qayd etiladi.

2. Psixologik nazariyalar

Psixologik tadqiqotlarda delinkvent axloq shaxsiy xususiyatlar va emotsional buzilishlar bilan bog'liq ekanligi aniqlangan. Z. Freyding psixoanalitik nazariyasiga ko'ra, bolalikdagi tajribalar, repressiyalangan hissiyotlar va ijtimoiy moslashuv jarayonidagi qiyinchiliklar yoshlarning huquqbuzarlikka moyilligini shakllantiradi.

3. Biologik nazariyalar

Biologik yondashuvga ko'ra, delinkvent axloq genetik omillar, asab tizimining xususiyatlari va neyrofiziologik o'zgarishlar bilan bog'liq. Lombrozo tomonidan ilgari surilgan nazariyalar shuni ko'rsatadiki, ayrim insonlarda huquqbuzarlikka moyillik ularning biologik xususiyatlari bilan bog'liq bo'lishi mumkin [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Biologik omillarning shaxsning og'uvchi axloqi shakllanishiga va kelgusida jinoyat sodir etishga moyilligiga jiddiy ta'sirini birinchi bo'lib taniqli italiyalik olim va kriminalist Chezare Lombrozo ta'kidlab o'tgan. Uning fikricha, biologik belgilar tashqi qiyofa va axloqda qay darajada o'z ifodasini topishiga qarab, jinoyatchi shaxsi to'g'risida xulosa qilish mumkin. Tadqiqotning asosiy usullari sifatida Lombrozo antropometrik xarakteristikalarini ham kuzatish usulini qo'llagan va ular yordamida kishi qiyofasini baholash alomatlarini tizimini ajratgan. Bu alomatlar tug'ma jinoyatchini to'g'ri kishidan farqlash imkonini berdi. Buning ustiga, Lombrozo kishining tashqi belgilariga ko'ra hatto jinoyatchilarning alohida toifalarini differensiallashtirish (tabaqalashtirish) mumkin deb hisoblagan.

Lombrozo jinoyatchilar oilalarining genealogik jadvallari va kadastrlarini tuzish bilan shug'ullanib, jinoiy axloqning irsiy omillar shakllanishida ulkan rol o'ynashini ta'kidladi. Mazkur holatni u atavizm ko'rinishiga – avlodlarni bir necha avlod orqaga ular ajdodlarining jinoiy o'tmish(lar)iga qaytaruvchi ruhiy rivojlanish regressiga kiritdi. Atavizm yoki avlod naslining buzilishi alomatlarini olim tomonidan delinkventning susayib qolgan sezuvchanlikda, «hissiyot to'ymoqligi»da va uning atrofdagi insonlarning dardi va quvonchiday hissiy ta'sirlanishga layoqatsizligida namoyon bo'luvchi o'ziga xos axloqiy telbalik («moral insanity») sifatida ko'rib chiqiladi. Shundan so'ng, Lombrozoning fikriga ko'ra, bu sub'ekt identifikatsiyasining o'zi yashayotgan jamiyat a'zolari bilan aloqasining uzishga olib keladi. Hozirgi vaqtda Lombrozo tomonidan belgilab berilgan jinoyatchi shaxsining pushaymonlikni inkor etishga sabab bo'luvchi axloqiy hissiyoti va umuminsoniy qadriyatlarni tan olish layoqatining rivojlanmaganligi xususiyatlari jinoyat olamida yetarli darajada keng tarqalgan.

Lombrozo tomonidan ta'kidlangan nasl buzilishining boshqa belgisi delinkvent xulqning «Kainning muhri» sifatida izohlangan tatuirovkalar (badanga tasvirlar chizish) chizishga bo'lgan kuchli istakdir. Hozirgi vaqtda tatuirovkalar jinoyat olamining o'ziga xos timsoli bo'lib qolgan. Ular huquqbuzarlar o'rtasidagi o'zaro muloqotlar belgilaridir. Badanning turli

qismlaridagi tatuirovkalar o‘z mazmuniga va chizilgan joyiga qarab jinoyatchiga ruhi, ixtisosi bo‘yicha aniq bir jinoyat ishi bo‘yicha yaqin bo‘ladi (qabr xochi - qotil “turi”; tatuirovka qilingan dollar – bosqinchilik sodir qilgan; qizlarning qo‘lidagi uchta nuqta – o‘g‘ri va hokazolar), ularni tashuvchilarning ta’blari haqida ko‘p narsa aytib berishi (ayollar, qadahlar, shpris va boshqa tasvirlar), ayrim biografik ma’lumotlarni bildirishi («tarbiyalangan» muassasa, tug‘ilgan yili va boshqalar), ma’lum bir jinoiy to‘daga a’zolidan dalolat berishi mumkin (panjara, xoch, kartalar, shpris va boshqalar). Bundan tashqari, boshqa alohida belgilar orasida tatuirovka uning qimmatini, fikrlash tarzini, maqsadini aks ettiruvchi mustahkam shaxsiy xususiyatlaridan darak beradi.

Lombrozo tomonidan belgilab berilgan biologik tabiatga ega bo‘lgan navbatdagi diagnostik alomat – bu tashqi qiyofada ham axloq, ham sof «erkakcha» belgilarning yaqqol ustunligidir. Erkak va ayolning mardlikka, sovuqlikka, tavakkalchilikka, jismoniy kuch va chidamlilikka moyillikda ifodalanuvchi xos farqlari delinkventda zo‘rluk va tajovuzga, shafqatsizlik va nafratga moyillik, qurolga, ichkilik ichishga va tamaki chekishga bo‘lgan ishtiyoq shaklida aks etadi

Shaxsning og‘uvchi axloqiga ta’sir ko‘rsatuvchi boshqa jiddiy biologik omillar, Lombrozoning fikricha, kishining ruhiy parokandaligi yoki telbaligi hisoblanadi. Bunday holda, tutqanoqli va affektiv kasallar uchun xos bo‘lgan ruhiy buzilishlar asossiz tajovuz ko‘rinishida, avtomatik ravishda, ko‘rinmas tashqi sababsiz, shunchaki u yoki bu jinoiy qilmishni sodir etishda, keskin ruhiy qo‘zg‘alish oqibatida namoyon bo‘lishi mumkin.

Lombrozoning jinoyatchi va fohishaning o‘xshashligi va keyingi axloqiy xususiyalari haqidagi xulosasi shak-shubhasiz kriminal nazariyaga qo‘shilgan hissa bo‘ldi:

- fohishalar barvaqt yuzaga kelgan axloqsizlik, rashk va shafqatsiz qasoskorlik, umuman hech qanday axloqiy hissiyotlarning yo‘qligi va o‘zganing mulkiga hurmatsizlik, xususan altruistik tuyg‘ular va biron-bir do‘stlikning batamom mavjud emasligi bilan tavsiflanadi;
- ularda onalik va qarindoshlik hislari umuman bo‘lmaydi;
- fohishalar orasida ko‘pincha o‘g‘rilik va unda ishtirokchilik, shantaj keng tarqalgan bo‘lib, ular damba-dam tana daxlsizligiga qarshi jinoyatlar sodir qiladilar;
- fohishalarga spirtli ichimliklarga bo‘lgan ishtiyoq ham xosdir;
- ularga ochko‘z hirs xosdir va shu vaqtning o‘zida ularning jinoiy ishtiyoqlari ularda jinoyat sabablari bo‘lib xizmat qilmaydi, chunki jinsiy sohada ular tez qoniqish oladilar;
- fohishalarda uyatchanlik hissi bo‘lmaydi va ularda kekkayish kuchli ifodalangan;
- fohishalar ba’zan hayvonlarga yaxshilik qilish va ularga mehribonlik ko‘rsatishni namoyon etadilar, bu esa ularning odatiy xudbinligi va atrofdagilarga befarqligi bilan nomutanosib ravishda ifodalanadi;
- ular aql borasida cheklanganligi va bolalarga xos yaxshi yetilmaganligi, tatuirovkalarga bo‘lgan muhabbat, estetik farosat va sertakallufliklari bilan ajralib turishadi;
- fohishalar, xuddi jinoyatchilar kabi, o‘z maxsus jargonlariga ega bo‘ladilar;
- ularda o‘yinlarga, shirinliklarga, ochko‘zlikka ishtiyoq kuchli bo‘ladi;
- ular yalqovlikni yoqtirishadi, yengiltaklik, mulohazasizlik va rejasizlik ular uchun xosdir.

NATIJALAR

Delinkvent xatti-harakatlarning shakllanishiga turli ijtimoiy, psixologik va iqtisodiy omillar ta’sir qiladi. Ularning eng muhimlari quyidagilardir [4]:

Oilaviy muhit – ajralish, oiladagi mojarolar, e’tiborsizlik, ota-onalarning nazoratsizligi delinkvent xulq-atvor rivojlanishiga turtki bo‘lishi mumkin.

Ijtimoiy-madaniy omillar – jamiyatdagi axloqiy inqiroz, ijtimoiy tengsizlik va ishsizlik yoshlarning huquqbuzarlik sari yo‘nalishiga sabab bo‘lishi mumkin.

Maktab va ta’lim tizimi ta’siri – ta’lim jarayonidagi nazoratning zaifligi, o‘qituvchilarning e’tiborsizligi, sinfdoshlar o‘rtasidagi ziddiyatlar yoshlarni huquqbuzarlik yo‘liga yetaklaydi.

Shaxsiy psixologik omillar – depressiya, agressivlik, empatiyaning yetishmovchiligi, hissiy

beqarorlik delinkvent xatti-harakatlarning shakllanishiga sabab bo'lishi mumkin.

Guruh va atrof-muhit ta'siri – yoshlar ko'pincha do'stlari yoki guruhning bosimi ostida noqonuniy xatti-harakatlarni amalga oshiradilar.

Delinkvent axloqni tushunish uchun uni shaxs psixologiyasi nuqtayi nazaridan tahlil qilish muhimdir. Yoshlar psixologiyasida quyidagi asosiy jihatlar delinkvent xulq-atvorning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi:

Shaxsni o'zini anglash darajasining pastligi – delinkvent yoshlar ko'pincha o'z qobiliyatlarini to'g'ri baholay olmaydilar.

Affektiv buzilishlar – tajovuzkorlik, qahr-g'azabning yuqoriligi huquqbuzarlik qilish ehtimolini oshiradi.

Empatiyaning yetishmovchiligi – boshqa insonlarning hissiy holatini tushunish qobiliyatining pastligi delinkvent xatti-harakatlarning shakllanishiga olib keladi.

Impulsivlik va nazorat yetishmovchiligi – delinkvent yoshlar o'z xatti-harakatlarini oldindan o'ylab ko'rmasdan, hissiyotlar ta'sirida harakat qilishadi.

Delinkvent axloqni kamaytirish va uning oldini olish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Ushbu strategiyalar quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Oila tarbiyasini mustahkamlash – ota-onalar bolalar bilan sifatsiz vaqt o'tkazish o'rniga, ularning axloqiy tarbiyasiga e'tibor qaratishlari lozim.

Maktab va ta'lim muassasalarining roli – tarbiya va ta'lim jarayonida ijtimoiy ko'nikmalarni shakllantirish, huquqiy bilimlarni oshirish muhimdir [5].

XULOSA VA MUNOZARA

Shaxsning psixologik xususiyatlari (shaxsiy xususiyatlari) deganda, ta'sirchanlikning oddiy shakllari va axloqning adaptiv mexanizmlarini belgilovchi individual sifatlarning nisbatan barqaror yig'indisini, o'zi haqidagi tasavvurlar tizimini, shaxslararo munosabatlari va ijtimoiy o'zaro munosabatlarining xarakterini tushuniladi. Boshqacha aytganda, bu shaxsning jamiyatdagi aktiv faoliyatini ta'minlovchi nisbatan barqaror va betakror tuzilmani ifoda etuvchi ichki komponentidir. Delinkvent axloq yoshlar orasida tarqalgan jiddiy muammolardan biri bo'lib, uning shakllanishiga turli ijtimoiy, psixologik va madaniy omillar ta'sir qiladi. Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy-iqtisodiy sharoit, oilaviy beqarorlik va atrof-muhit delinkvent xulq-atvorning rivojlanishiga sabab bo'luvchi asosiy omillardir.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, delinkvent axloqning oldini olishda oilaviy tarbiya, ta'lim tizimi va psixologik qo'llab-quvvatlash tizimlarini mustahkamlash muhimdir. Kelajakda ushbu masalani yanada chuqurroq o'rganish va yangi profilaktik tadbirlar ishlab chiqish talab etiladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. N.Tayloqov. Voyaga yetmaganlarga o'rtasida suitsid holatlarini oldini olish. Metodik qo'llanma. Toshkent 2017
2. X.Ruxieva. Voyaga yetmaganlar o'rtasida huquqbuzarliklar va suitsid holatlari profilaktikasi. O'quv qo'llanma. Toshkent 2021
3. Lombroso C. Daho va jinnilik. – M., 2015 – B. 275
4. Kapitanskiy A., Litvin V. Jinoiy tatuirovka san'ati. Logotiplar. 2018. 35 b.
5. Z.S.Elov. Qadimgi xalqlar urf-odatlar va rivojlangan jamiyatda o'z joniga qasd qilishning ijtimoiy psixologik sabablari. Tarix va bugun (qadimgi xalqlar urf – odatlari va bugungi zamon). Jamiyat va innovatsiyalar. Toshkent. (10) 2021

